2. Sadriddin Ayniy. Asarlar 8 tomlik. 4-tom. – Toshkent: "Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti", 1965. "Odina", "Eski maktab", "Sudxo'rning o'limi". – 430 bet.
3. Sadriddin Ayniy. Asarlar 8 tomlik. 7-tom. – Toshkent: "Toshkent badiiy adabiyot nashriyoti", 1966. "Esdaliklar". IV qism. – 312 bet.
4. Sadriddin Ayniy. Tanlangan ilmiy asarlar. – Toshkent: "Fan", 1978. – 336 bet.
5. Sadriddin Ayniy. Eski maktab. – Toshkent: "Yulduzcha", 1988. – 240 bet.
6. Rahim Vohidov, Mels Mahmudov. Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari. – Toshkent: "Fan", 2003. – B. 136-137.



Шодмон ҲАЙИТОВ
Бухоро давлат университети
тарих кафедраси профессори,
тарих фанлари доктори



Шарифжон МИРЗОЕВ
Бухоро давлат университети
тарих факультети талабаси

ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВНИНГ ИНСОНИЙЛИК АҚОИДИ ВА СИЁСИЙ ФАОЛИЯТИГА АЙРИМ ЧИЗГИЛАР

Ушбу мақолада сиёсатчи, ҳукумат раҳбари Файзулла Хўжаевнинг ҳаёт йўли ва фаолияти ҳақида истиқлол йилларида эълон қилинган манбалар ҳамда адабиётлар асосида фикр-мулоҳазалар ҳақида фикр юритилади.

Таянч тушунчалар: *тарихий шахс, миллат, ахлоқ, инсон, сиёсатчи, тўнтариш, талаба, олтин, қатағон, юртпарвар.*

В статье на основе опубликованных материалов и литературы за годы независимости осуществляется размышление о жизни и деятельности Файзуллы Ходжаева, размышления как о человеке, политике и руководителе правительства.

Опорные понятия: *историческая личность, нация, нравственность, человек, политик, переворот, ученик, золото, репрессия, патриот.*

The article is based on published materials and literature for the years of independence, there is a reflection on life and work of Fayzulla Khodzhaev, ponder over him as politics and the head of government.

Supporting concepts: *historical personality, nation, morality, person, politician, revolution, pupil, gold, repression, and patriot.*

Тарихий жараёнлар ва тарихий даврларни ўз вақтида яшаб ўтган тарихий шахслар ҳаёти ҳамда улар фаолиятисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Тарихнинг барча босқичларида сиёсат майдонида тарихий шахслар етишиб чиқаверган ва улар ўз фаолиятлари билан инсоният ривожида ёхуд ижобий, ёхуд салбий жиҳатлари билан ном қолдираверишган. Ўзбекистон тарихи ва жаҳон сиёсатдонлари рўйхати қаторида Файзулла Хўжаев (1896 – 1938) нинг ўзига хос ўрни ва роли бор. Файзулла Хўжаев яшаган тарихий давр мураккаб, Туркистон минтақасида сиёсий геометрия чигаллашган, миллий манфаатлар билан буюк давлатчилик ўртасида кураш авж олган, инсон қадр-қиммати ва обрў-эътибори фавқулотда оёқ ости ва поймол қилиниши мумкин бўлган, қирғин ва қатағонлар авж олганлиги билан тавсифланаётганлиги бежиз эмас. Миллат ва халқ манфаатини кўзлаб майдонга чиққан ҳар қандай шахс тавқи-лаънат устунига кишанланадиган XX аср дастлабки ўн йилликларида тақдир Файзулла Хўжаев зиммасига ҳукумат раҳбари вазифасида ишлаш масъулиятини юклади.

Таниқли савдогар, қоракўл териси билан савдо қилиб, Бухоро амирлигида миллионер савдогар даражасига кўтарилган, Россия шаҳарлари ва хорижий давлатларда хусусий савдо дўконларига эга бўлган, Нижний – Новгород, Ирбит, Москва, Лейпциг (Германия), Сенжермен, Париж (Франция) каби шаҳарларда ўз товарлари билан ўнлаб пештахталарни банд қилиб, ярмаркаларда қатнашиб, шон-шуҳрат қозонган, беҳисоб мол-мулклар эгаси Убайдуллахўжа Қосимхўжа ўғли (1858 – 1912) хонадонининг тўнғич ўғил фарзанди Файзулла Хўжаев болаликдан яхшигина таълим, маънавий-ахлоқий тарбия олди. У ўзининг журъатлилиги, назари баландлиги, одоб-икроми, миллатсеварлиги, юртсеварлиги каби инсоний хислатлари билан сафдошлари орасида юқори мавқе ва обрўга эга эди. Савдогар отанинг истаги ўғлини савдогар бўлиши, ўз ишларини давом эттириши бўлган. Афсуски, Ф.Хўжаев падари бузрукворининг бу орзуси сароб бўлиб чиққанлигига тарих гувоҳ. Ф.Хўжаев

инсон сифатида меҳр-оқибатли, дарёдил, дўсту-биродарлари ва салафларига садоқатли, хиёнатдан нафратланадиган, қавм-қариндошлари ва устозларини қадрлайдиган шахс бўлган. Унинг раҳмдил, ўз халқи ва миллатини ўзгача меҳр билан севувчи инсон бўлганлиги бир қатор ҳаётий лавҳаларда намоён бўлади.

1920 йил 2 сентябрда Туркфронт қўшинлари Бухорои – шариф заминини вайрон қилиб, амирлик тартибини ағдариш асносида бегуноҳ кишиларнинг қонини тўкканларида, кўп асрлик тарихий обидаларни вайрон қилганларида Ф.Хўжаев виждонан азият чекиб, эл – юрт аҳволига раҳми келиб, бошини онаси Райҳонабону елкасига қўйиб: "Онажон, биз бундай инқилоб кутмаган эдик" – деб ҳўнграб йиғлаганди.

Шунингдек, Амир Олимхон нотенг жангларда қизил аскарлардан енгилиб, қўшни Афғонистон мамлакати сарҳадларига ўтиб кетишга мажбур бўлади. Амирнинг Бухорода қолиб кетган 115 нафар қавм-қариндошлари масаласини ҳал қилиш учун Ф. Хўжаев БХСР Нозирлар шўроси раиси сифатида 1923 йил 15 майда махсус комиссия тузади. Ушбу комиссия аъзолари Қори Йўлдош Пўлатов, Абдурауф Фитрат, Аббос Алиевлар бўлиб, улар Саид Олимхоннинг қариндошларидан 51 нафарини унинг ҳузурига, яъни Афғонистонга юборади, 64 нафарини жумладан уч ўғил фарзанди (Султонмурод, Шоҳмурод, Раҳим)ни Бухорода қолдиради. Тарихчи олимлар Х.Узоқов ва С.Холбоевларнинг маълумотича Файзулла Хўжаев Афғонистонга юборилган амир авлодлари билан Саид Олимхонга ўзгалар юртида моддий жиҳатдан қийналиб юрган бўлишини ҳисобга олиб, 19 та бриллиант кўзли узук бериб юборган. Шундан кейин Амир Афғонистонда Файзулла Хўжаев ҳақида салбий фикрлар билдиришда эҳтиёткорлик билан йўл тутган. Ушбу маълумот тарихий ҳақиқатдан қанчалик узоқ бўлмасин, матбуотда чоп этилган. Бухоро амири Файзулла Хўжаевга шавқатли бўлмаганлиги, уни асирга олса ўлимга маҳкум этишни тайинлигини ўша 1923 йилдаёқ адиб Садриддин Айний ўзининг "Кўрсунлар, эшитсунлар" номли мақоласида баён қилган.

Файзулла Хўжаев назари баланд, кўзи тўқ, ҳар қандай нафсоний дунёдан устун турган. Унинг номи БХСР ҳукуматини бошқарган йилларда ҳам (1920 – 1924 йиллар) Ўзбекистон ССР ҳукумати биринчи раҳбари бўлган даврда ҳам (1925 – 1938) энг машҳур, халқ ишончини қозониш даражасида бўлган.

Тарих фанлари доктори, профессор Ф.Ҳ. Қосимов "Файзулла Хўжаев инсон ва сиёсатчи" номли илмий мақоласида қайд қилишича, Ф. Хўжаев отасидан ўзига мерос бўлиб қолган 410 кг олтин, 4,8 млн дона олтин танга, 82 кг кумуш танга, 7 млн олтин сўм, кўп миқдордаги қимматбаҳо буюмлар ва ер – мулкларни совет ҳокимияти хазинасига ўз ихтиёри билан топширган. Ушбу бойликларни баландпарвоз ваъдаларда бўлган совет ҳокимияти халқ ва миллат равнақи учун сарфлашига ишонган. Шунингдек, отахон тарихчи Сотимжон Холбоев ёзганидек, Бухоро амирлигининг Туркфронт қўмондони М.В. Фрунзе ва унинг қароқчи командир ҳамда қизил аскарларидан сир сақлаб қолинган хазинадан БХСР ҳукумати аъзолари ўз улушларини олишга уринишган. Советларнинг "Зухра" тахаллусли жосуси маълумотлари, "Товар", "Правители" шифри остидаги махфий ҳужжатларнинг материалларидаги маълумотларда биргина Файзулла Хўжаев бу олтинлардан олмаганлиги, ушбу хазина базасида БХСР ҳукумати хазинахонасини ташкил этганлиги эътироф этилган. Файзулла Хўжаев маънан юксак, ғурури баланд инсон бўлганлиги, қинғирлик томон оғган айрим ҳукумат аъзолари, жумладан, Сотимжон Холбоев ўзининг 181 саҳифали "Бухоро амирининг олтин хазинаси" номли 2008 йилда "Фан" нашрётида чоп этилган монографиясида ёзишича, молия нозири Носир Ҳакимовни жисмонан жазолаганлигини баён қилади.

Файзулла Хўжаев БХСР нозирлар шўроси раиси ва ташқи ишлар нозири лавозимида иш бошлаганида бор – йўғи 24 ёшда бўлган. У раҳбарлик қилган ҳукумат аъзоларининг ўртача ёши 29 ёшни ташкил этиб, бу ҳукуматни дунёда энг ёш ҳукумат сифатида баҳолаш мумкин. Ф.Хўжаев 24 ёшга қадар катта ҳаётий – тарихий тажриба мактабини ўташга улгурган, шунингдек, бир неча бор ўлимга чап берган шахс эди. Адиб Н. Наимов 1994 йилда чоп этилган "Мен яшашни истайман" номли роман – хроникасида Ф. Хўжаевни уч бор ўлимга маҳкум этилганини билдиради.

Ф. Хўжаев машҳур америкалик ёзувчи, Нобель мукофоти лауреати Эрнест Хэмингуэй айтганидек: "Айрим инсонлар онадан туғилганидаёқ ақлли бўладилар. Оддий одамлар йиллар давомида ўзлаштирган илм ва тажрибаларни улар қисқа вақтда билиб оладилар" – деган ўта феноменал қобилиятли кишилар қаторига киради, деб ҳисоблашга асослар бор.

Ф. Хўжаев ҳукумати аъзолари асосан миллатпарвар Бухоро жадидларидан ташкил топиб, уларнинг мустақиллик учун кураш ғоялари ва амалий фаолиятлари "Марказ" қолипига сиғмаган. Шунинг учун тўрт йил яшаган БХСР ҳукумати аъзолари "Марказ" тазйиқи билан бир неча бор ўзгарти-

рилган. Бироқ юксак обрў-эътиборга эга бўлган, салкам 5 млн. сонли бухороликлар ишончини қозонган Ф.Хўжаевни ўз мансабидан олишга журъат этишмаган. Ф. Хўжаев доно сиёсатчи, “Марказ” топшириқларини бажариш билан бирга миллий манфаатларни, ўз халқи келажаги ва истиқболи учун ҳам курашган.

Файзулла Хўжаев ёшлар ҳомийси, улар тимсолида Ўзбекистон келажагини кўрган, истиқболда замонавий цивилизация босқичларига кўтарилиш ёш авлодни илмли қилиш орқалигина амалга ошади, деб қатъий фикрда бўлган, йўқса унинг ва сафдошлари ташаббуси билан иқтидорли ёшлар Германия, Туркия, Япония, Россия каби давлатларга ўқиш учун юборилмасди. У хорижда ўқиб олий маълумотли бўлган ёшларни мансаб пиллапояларида кўтарилишига шахсан ҳомийлик қилган. Тарихий манбаларда Ф. Хўжаев Германияда таҳсил олган Матқул Султонов, Абдуваҳҳоб Муродийларни масъул вазифаларга тайинлагани қайд этилади. Талабалар боши устида қора булутлар кезган 1922 – 1923 йилларда у бутун масъулиятни ўз бўйнига олиб, Умар Фахриевни Берлинга юбориб, “Мендан кўрсатма бўлмаса совет ерига қайтмай турингланр!” – деган. Бу билан Германияда таълим олаётган ўнлаб талабаларнинг ҳаётини сақлаб қолган. Хорижда 1920 йилларда таҳсил олган туркистонлик талабалардан ўз юртига қайтганларининг барчаси 1937 – 1938 йиллар қатағонида курбон бўлишди. Ф. Хўжаев айбномасида “немис айғоқчиси”, “Ватан хоини” бўлган чет эллик ўзбек ёшларига “ҳомий”лик қилганлиги билан боғлиқ сохта маълумотлар ҳам киритилганди.

Ф. Хўжаев ҳаётни, юрти ва миллатини севарди, унинг орзу-умидлари чексиз эди. Суд жараёнида барча сохта айбларни тан олиб, ушбу “нуқсонлар”ни тугатишга ваъда берди. “Мен яшашни истайман!”, – деган сўзлар унинг охирги нидоси бўлди. Бироқ шафқат нималигини билмаган қатоғон қиличи юксак инсоний фазилатлар эгаси, моҳир сиёсатчи ва миллат фидоийси Файзулла Хўжаевни айни йигитлик куч-қувватига тўлган бир пайтда ҳаётдан жудо этди.

Файзулла Хўжаевнинг ёрқин хотираси қалбимизда барҳаёт. Ўзининг олтин қиличини Бухорода университет очиш учун ҳадя этган, фан ва маданият ривожи учун шахсий уйини бўшатишгача бориб етган бу табаррук инсонга бугунги авлод абадул – абад таъзимда бўлишга бурчлидир.

Адабиётлар

1. Болтабоев Ҳ. Талабни қондирмаган инқилоб// Шарқ юлдузи. – 1991.– №1. – Б. 131 – 138.
2. Вали Қаюмхон. Қийратилган қисматлар (Олмонияда таълим олган турклар тақдири)// Ўзбекистон адабиёти ва санъати тарихи; 1992; 24 апрель.
3. Генис В. Разгром Бухарского эмирата в 1920 году// Вопросы истории. – 1993. – №7. – С. 39 – 53.
4. Дониёров Ш. Сўнгги қалъанинг олиниши// Ёшлик. 1992. – №2. – Б. 50 –56.
5. Крушельницкий К. Бухарская революция. Диктатура по телеграфу// Родина; 1989. – №11. – С. 30 –39.
6. Мажид Ҳасаний. Файзулла Хўжаев. – Т.: “Ўзбекистон”, 1990. – 204 бет.
7. Муртазоев Ф, Соҳибов Х. Фитратга қарши фитна// Жаҳон адабиёти; 1997. – №3. – Б. 97 – 114.
8. Наимов Н, Эгамназаров А. Амирнинг авлодлари// Шарқ юлдузи; 1992. – №3. – Б. 167 – 184.
9. Наимов Н. Мен яшашни истайман (роман хроника). – Б.: “Бухоро” нашриёти; 1994. – 326 бет.
10. Наимов Н. Амирнинг хазинаси. – Т.: Фан, 2005. – 76 бет.
11. Наимов Н. Фитрат фожиаси (тарихий қисса, лотин имлосида). – Т.: Фан, 2005. – 167 бет.
12. Ражаббой Отатурк. Юракдаги Бухоро. – Т.: Маънавият, 1996. – 239 бет.
13. Расулов Б. Ўзбекистондаги коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатоғонлар ва сургун қилинган деҳқонлар аҳволи (1929 – 1959 йиллар). – Т.: “Шарқ”, 2012. – 368 бет.
14. Темур Хўжа. Мен Ватанда эмасман, Ватан менинг ичимда// Муносабат, 1990 йил, 30 ноябрь.
15. Узоқов Х, Холбоев С. Бухоро амирининг олтинлари// Ўзбекистон адабиёти ва санъати; 1992 йил, 14 август.
16. Холбоев С. Бухоро амирлигининг олтин хазинаси. – Т.: Фан, 2008. – 181 бет.
17. Файзулла Хўжаев ҳаёти ва фаолияти ҳақида янги мулоҳазалар/ Ф.Хўжаев. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар. – Т.: Фан, 1997. – 173 бет.
18. Файзулла Хўжаев. Олти муҳим масала// Бухоро ахбори; 87 – сон. 1922, 17 июнь.
19. Шамсутдинов Р.Т. Усмон Хўжа ватан хоини эмасди// Халқ сўзи; 1991 йил, 15 октябрь.
20. Қосимов Ф. Бухоро республикаси тарихшунослиги. – Бухоро, 1997. – 70 бет.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA



Арофат ИСМАНОВА
Республика маънавият ва маърифат
маркази мустақил изланувчиси,
фалсафа доктори (PhD)

ОТА-ОНАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК МАДАНИЯТИ–ДИНИЙ ЭКСТРЕМИЗМ ВА ТЕРРОРИЗМНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ УСУЛИ

Мақолада фарзанд тарбиясида ота-оналар ва ёшлар орасида учраётган муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари тўғрисида фикр юритилади. Шунингдек, тарбия борасида ота-оналарнинг педагогик маданиятини ошириш юзасидан билдирилган фикрлар асосида тавсиялар берилган.

Таянч тушунчалар: *фарзанд, ўспирин, жиноятчиликнинг олдини олиш, ота-она, педагогик маданият, маънавият, тарбия, маънавий-маърифий профилактик тадбирлар.*

В статье идет рассуждение о проблемах среди родителей и их детей, дается методы их предотвращения. А также, даются рекомендации по повышению педагогической культуры родителей.

Опорные понятия*: ребенок, подросток, предотвращение преступности, родитель, педагогическая культура, духовность, воспитание, духовно-просветительские профилактические мероприятия.*

In article is discussed the problems among parents and their children, and gives methods for their prevention. Furthermore, the recommendations are given to improve the pedagogical culture of parents.

Supporting concepts*: child, adolescent, crime prevention, parents, and pedagogical culture, spirituality, and upbringing, educational and spiritual prophylactic measures.*

Ҳеч иккиланмай айтиш мумкинки, ер юзидаги бирорта давлат эртанги кун эгалари бўлмиш ёш авлоднинг маънавий ва жисмоний камолоти учун қайғуриш, уларни замон ҳамда истиқбол талабларига мос билим олишлари, касб-ҳунар сир-синоатларини ўрганишлари, мавжуд қобилияти ва имкониятларини намоён қилиши ва ривожланиши учун зарур шарт-шароитларни яратишда бизнинг республикамизга тенглаша олмайди. Бу ҳаётий ҳақиқатни жаҳон ҳамжамияти эътироф этмоқда. Айни пайтда мамлакатимизда кечаётган глобаллашув жараёнлари барчамизга янги вазифалар юкламоқда. Шундай муҳим вазифалардан бири-ёш авлодни ватанпарварлик, бағрикенглик, бунёдкорлик, ёт мафкуравий қарашларга қарши собит тура оладиган мустаҳкам иммунитетли фазилатларга эга инсонлар қилиб тарбиялашдир. Мамлакатимизда ёш авлоднинг баркамол шахслар бўлиб етишиши учун барча имкониятлар яратилмоқда. Маълумки, ёшлар тарбияси ҳар доим ўз долзарблигини ва аҳамиятини йўқотмаган. Чунки бугунги ёшлар эртага келажагимиз давомчиларидир. Лекин эртанги кунимиз давомчилари бўлган фарзандларимизни ота-оналар қандай тарбияламоқда? Шиддат билан ривожланиб бораётган XXI аср боласини бундан 20-30 йил олдинги тарбия усуллари билан тарбияланган ота-онанинг педагогик билимлари талабга жавоб бера оладимикан? XXI аср ота-оналардан қандай билимларни талаб қилмоқда? Саволларнинг охири кўринмайди. Биз, аввало, бу саволларга жавобни “тарбия” ўзи нима? Тарбия ҳақидаги билимлардан ҳар бир ота-она бохабарми? деган саволларга жавоб беришдан бошлаймиз.

Педагогика – тарбия тўғрисидаги ягона фан. Одамни ИНСОНга айлантириш илми. Педагогика – энг қадимий фан. У ер юзида туғилган биринчи чақалоқ билан бирга дунёга келган. Болалар бор экан, у ҳам бўлади. Ота-она, ўқитувчиларнинг миясида туриб, миллатнинг болаларини тарбиялаб, ишлайди.

Миллий тарихимизда Устоз, Мураббий, Пир, Муршид, Оталиқ деган эъзозли сўзлар фаол ишлатилган. Уларни содда қилиб бир сўз билан ўз замонасининг п е д а г о г л а р и дейиш мумкин.

Шундай экан, улар қиладиган иш – устозлик, мураббийлик, пирлик, муршидлик, оталиқликни – ўз даврининг педагогикаси деса бўлади. Чунки уларнинг бош вазифаси – тарбия бўлган. Ўзбек ҳар ишни ўз профессионалига топшириш кераклигини ўзининг "Чумчуқ сўйса ҳам қассоб сўйсин"ида айтиб қўйган. Бу мақол Европа, ривожланган давлатлар фуқаролари аъмолига айланиб бўлди. Энди ўзимизга қайтиб келаётир. Бундан 20-30 йил илгари ўзимиз қилган ишлар (томорқани кўкаламзорлаш, макияж, автони ювиш, мойини алмаштириш, кузда помидор банка ёпиш ва ҳк.)ни "устаси фаранги"ни чақириб қилдираяпмиз. Ёки профессионал маслаҳатлар олиб, уларни қўллаяпмиз.

Ласеттини ишлатиш, ҳайдаш учун унинг ичига кириш керак. Худди шунингдек, педагогик автони "ҳайдаш" учун ҳам унинг "ичига кириш", профессионал педагог-тарбиячилардан ўрганиб, амал қилиш керак бўлади. Фарзандга одоб ўргатиш ҳар бир мусулмоннинг нафақат дунёвий, балки диний вазифаси экан. Пайғамбаримиз (с.а.в.) айтадилар: **"Албатта, кишининг фарзандига одоб ў р г а т м о ғ и бир ўлчам нарсани садақа қилмоғидан кўра яхшироқдир"[1]**. Демак, ота-она ҳар куни ўғил/қизига ниманидир тушунтириб, кўрсатиб, **ўргатса,** ўзининг бу дунёсига ҳам, у дунёсига сармоя олади. Ўргатмаса,... бунинг акси бўлади.

Афсуски, ҳозир "тарбия" деганда кўпчилигимиз "бола билан гаплашиб ё адабини бериб қўйиш"ни тушунаяпмиз. Аслида тарбиянинг асосий, халқ синаган методлари миллий тарбиямизда, мақолларимизда айтиб қўйилган. Халқимизнинг **"Юз марта эшитгандан бир марта кўрган яхши"**деган мақоли бор. Бугун бу мақолни Европанинг энг илғор педагог-психологлари "ишлаб чиққан" тренингларида кўраяпмиз. Виртуал олам ёзишмалари ҳам матндан суратга ўтаётир. Асосий урғу сўзга эмас, кўзга берилаяпти.

Бу бежиз эмас. Сиздан бир киши "Илтимос, ўзингиз кўрмаган хатти-ҳаракатни бажариб кўрсатинг", деса, "Бу нима деганингиз?", дейсиз таажжубланиб. Чунки ўзингиз кўрмаган ҳаракатни кўрсата олмайсиз. Бола, полапон, қўзи ҳам шундай. **"Қуш инида кўрганини қилади".** Кўрмаган нарсасини қилмайди. Қилолмайди ҳам. Демак, биз фарзанд тарбиясида боболаримиз ўгитига амал қилайлик: яхши хулқ, одобни **юз марта гапиргандан бир марта кўрсатайлик [2].**

Тирноқ олишни, саломлашишни, қовун сўйишни, ҳурмат кўрсатишни, интернетдан фойдаланишни, тўй-маъракада хизмат қилишни, одам савдоси, диний экстремистдан ўзни ҳимоя қилишни, узум ейиш, қовун сўйишни, болага юз марта айтгандан кўра бир марта "мана бундай қилгин, хўпми", деб бажариб, қилиб кўрсатиб, ўргатиш керак. Бир марта кўрсатишдан эринган ота-она юз марта айтади. Ҳар куни айтиб, жаврайди. Ҳар куни ўзларининг ҳам, боласининг ҳам кайфиятини бузишади. Барибир бўлмайди...

Бола қайси хатти-ҳаракатларни кўп кўрган ва такрорлаган бўлса, ана шу хатти-ҳаракатлар унинг хулқида муҳрланади. Чуқур из қолдиради. Унинг хатти-ҳаракатларида "юзага қайтиб чиқади". Мисол учун, 15 ёшли бола ота-онасини 38325 кун кўради. Ҳар куни у отасининг юришини, ўтиришини, чойни қандай ичишини, телефонда қандай гаплашишини, гавдасини қандай тутиб юришини, чой қуяётганини, кулишини, асабийлашувини, ота-онасига меҳрибонлик (ёки аксинча, қўполлик) қилаётганини, юзини ювaётганини кўради. Ота-она болалари уларни кузатаётганини сезишмайди ҳам. Оилаларда ўтказган таҳлилларимиз фарзанд тарбиясида оталарнинг роли сусайиб бораётганлигини кўрсатди. Бу, айниқса, оилада ғоявий тарбия учун нақадар муҳим. Ота оила бошлиғи сифатида ҳам оиланинг иқтисодий таъминоти билан бирга тарбияси, фарзандларнинг ҳам бўш вақтларини фойдали ўтказишлари учун масъулдирлар [2].

Биз бевосита 158 та оилада бўлиб, уларнинг фарзанд тарбиясига муносабатлари, иш тажрибаларини ўргандик. Айрим замонавий, фаол, намунали оилалар болаларининг бўш вақтини сермазмун ва фойдали ўтказишларига алоҳида эътибор билан қарашади. Бу иш ота-она ва болалар билан биргаликда, олдиндан режалаштириб, амалга оширилади. Баъзи оилаларда ота-оналар болаларини бир кунлик ёки бир ҳафталик кун тартибини режалаштиришга ўргатишади. Яъни болалари билан маслаҳатлашган ҳолда оқилона педагогик кун тартибларини белгилаб амалга оширишади.

Ота-оналар ва ёшлар орасидаги педагогик муносабатларда "вақт тиғизлиги" синдроми кузатилмоқда. Иккинчи камчилик – ота-оналарнинг ўз фарзандларидаги ижобий сифатларга эътиборсизлиги, уларнинг рағбатлантирилмаслиги ва "тарбия" тушунчасини асосан ёшлардаги салбий сифат, камчиликларни тузатишга қарата қўллашларидадир. Бу эса оқибатда ўсмирлар ва ота-она орасида маънавий бўшлиқ пайдо бўлишига, ўсмир ўз қизиқишларини қондириш учун ўзга манбаларни қидиришига олиб келмоқда. Бу эса бугунги интернет юксак ривожланиб бораётган бир шароитда ўсмирларнинг турли хил диний экстремизм ва терроризм "қопқон"ларига тушиб қолишига сабаб бўлган омиллардан бири бўлмоқда.

Биз тадқиқот методларимиз доирасини янада кенгайтириш мақсадида, оилаларда педагогик профилактика тўғрисида билим ва тушунчаларни ўрганиш мақсадида **“Сиз фарзандингиз тарбиясига қандай қарайсиз?”** мавзусида социологик сўровнома ўтказдик. Сўровнома орқали ота-оналарнинг ўз фарзандлари ғоявий тарбиясига қандай муносабатда эканликларини билиш, тарбия борасида ота-оналарни қийнаётган муаммоларни аниқлаш, таълим муассасалари ва оилаларда олиб борилаётган тарбия йўналишларини мувофиқлаштириш, янада уйғунлаштириш ва бу борада олиб борилаётган огоҳликка, даъватга қаратилган ижтимоий педагогик жараёнининг самарадорлигини ошириш йўлларини ишлаб чиқиш этиб белгиланди.

Сўровномада 640 нафар ота-оналар қатнашди. Олинган жавоблар таҳлили қуйидагиларни кўрсатди: биринчидан, ота-оналар ғоявий тарбияда оиланинг ҳал қилувчи ўрнини тўғри тушунишади, бироқ бунинг усулларини билишмайди; иккинчидан, оилалар бола тарбиясида ота-оналар, ота ҳам, она ҳам тенг иштирок этиши керак, деган якдил фикрдалар. Бу оилаларда педагогик профилактика самарадорлигини янада кучайтириш имконини беради; учинчидан, ота-оналарнинг медиасаводхонлиги қониқарсиз даражада. Ҳозирги кунда ёшларга таъсир қилаётган диний экстремизм ва терроризмнинг асосий канали – интернет. Демак, ота-оналарнинг медиамаданиятини ошириш – таълим муассасалари ҳамда кутубхона, АРМ ходимларининг долзарб вазифасига айланиши зарур; тўртинчидан, ота-оналарнинг оммавий ахборот воситалари, аввало телевидениеларда берилаётган оила ҳаётига оид кўрсатувлар, маълумотлардан хабардорлиги қониқарли даражада. Бироқ телеканалларда кўрсатувларни қизиқарли қилиб тайёрлашга эътиборни кучайтириш лозим. Бешинчидан, ота-оналар ўз фарзандларининг қизиқишлари доирасини тўла билишмайди. Уларнинг бу фаоллиги рағбатлантирилиб борилиши керак. Олтинчидан, ота-оналар ўз фарзандларининг дарс тайёрлашларини назорат қилишлари қониқарли даражада. Айни пайтда, ота-оналарда вақтни тўғри тақсимлаш маданияти етишмайди. Еттинчидан, кенг жамоатчиликнинг “Бир болага етти қўшни ота-она” тамойили асосида ижтимоий педагогик фаолликлари қониқарсиз даражада. Маҳалла фуқаролар йиғинлари бу борадаги илмий-услубий қўлланмалар билан таъминлаб борилиши зарур.

Боланинг тарбиясини, аввалом, бор оилада ота-она замонавий тарбия усуллари билан тарбиялай олсагина таълим муассасаларида олиб борилаётган тарбия усуллари ўз натижасини бера олади. Биз бола тарбиясида узлуксиз тарбия тизимини жорий қилдик:

1. Оиладаги тарбия усуллари (ота-она, бобо-бува, опа-акалар орқали).
2. Мактабгача таълим муассасаларида (тарбиячилар, мураббийлар орқали).
3. Маҳалладаги тарбия усуллари (қўни-қўшни, нуронийлар, маҳалладаги намунали оилалар орқали).
4. Умумий ўрта таълим мактабларида (устозлар, ўқитувчилар, ўртоқлари орқали).
5. Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида (ўқитувчилар, гуруҳ раҳбарлари, тенгдошлари орқали).
6. Олий таълим муассасалари (кенг жамоатчилик, ижтимоий муҳит орқали).

Мана шу тизим биргаликда шахснинг камол топишида тарбия ресурслари вазифасини ўтайди. Болани шу тизимга мослаштирадиган, уларнинг тарбиявий ресурсларидан унумли фойдаланиш учун оилада ота-оналарнинг педагогик маданияти шаклланган бўлиши керак. Чунки бола тарбиясида бирор бўғин билан боғланмаслик ҳолати бўшлиқ пайдо бўлишига олиб келади. Маълумки, бундай бўшлиқни кимдир тўлдиришга ҳаракат қилади. Диний экстремизм ва терроризм каби оқимларга қўшилиб қолган айрим ёшларимизда қайсидир тарбиявий тизимнинг етишмаслиги натижасидир.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, бугунги кунда ҳар бир ота-она тарбиячи экан, демак, у тарбия усулларини билиши, яъни педагогик маданиятга эга бўлиши энг долзарб вазифалардан биридир.

Адабиётлар

1. Мамадалиев С. Имом Термизий / С. Мамадалиев; таҳрир ҳайъати: У.Алимов ва бошқ. – Т.: “Тафаккур”, 2010. – Б. 33

2. Қуронов М. Бугун ҳар бир ота-она педагог бўлиши керак. – Т. “Водий гавҳари” журнали, 2017. – Б. 48

3. Қуронов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз... – Т.: Маънавият, 2014.



Гулзода ЭРГАШЕВА
Бухоро давлат университети
педагогика кафедраси ўқитувчиси

ЎҚИТУВЧИ МУОМАЛАСИДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ТАЪСИР КЎРСАТИШ УСУЛЛАРИ

Мақолада ўқитувчининг таъсир кўрсатиш усули хусусида фикр юритилган. Бунда ўқитувчилар билан ўқувчилар ўртасидаги ўртоқларча муносабатларни ривожлантиришга ва мустаҳкамлашга қаратилган йўлгина ўқитувчи таъсир кўрсатишининг асоси бўлиши мумкин. Бинобарин, у ёки бу усулларни қўллаш ҳар ҳолда ўқувчиларнинг фаолиятида фақат жузъий ўзгаришларга олиб келмай, шу билан бирга ҳамиша ўқитувчилар билан тарбияланувчилар ўртасидаги муносабатларнинг ривожланишига фаол хизмат қилади.

Таянч тушунчалар: *ўқитувчи, ўқувчи, таъсир кўрсатиш усуллари, маҳорат, ахлоқий хусусият, талаб, истиқбол, рағбатлантириш, жазолаш, жамоатчилик фикри.*

В статье размышляется о способах влияния учителя. В нем исключительной основой влияния является путь развития и укрепления дружеских отношений между учителем и учениками. Поэтому, использование тех или иных методов активно служат развитию отношений между учителем и воспитуемых.

Опорные понятия: *учитель, ученик, способы влияния, мастерство, этическое свойство, требование, будущность, поощрение, наказание, общественное мнение.*

In article is reflected on the methods of teachers influence. In addition, it shows the exclusive base of influence onfriendly relations path of development and strengthening between the teacher and the students. Therefore, the use of various methods actively serve to develop the relationship between the teacher and the students.

Supporting concepts: *teacher, student, ways of influence, skill, ethical property, demand, future, promotion, punishment, public opinion.*

Ҳозирги фан ва техника жадал ривожланаётган, ахборотлар кескин ошиб бораётган бир даврда ўқитувчи педагогик маҳоратини тарбиялаш ҳамда ўқитувчининг таъсир ўтказа олиш қобилиятини такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади. Агар илгари фаннинг бирор соҳасида рўй бераётган йирик кашфиёт қарийб ўн, ўн беш йиллик самарали ва киши зўрға ишонадиган воқеа ҳисобланган бўлса, ҳозирги вақтда ҳар йили, ҳатто ҳар ой ичида фан, техника соҳасида шундай янги-янги кашфиётлар рўй бермоқдаки, билимларнинг илгари номаълум бўлган янги йўналишлари майдонга келмоқда. Бунинг учун ҳар бир касб эгаси, жумладан, ўқитувчи ўз маҳорати устида мунтазам ишлаши керак бўлади. Кишиларда, энг аввал ёшларда, билимга бўлган интилиш беқиёс даражада ўсиб бораётир. Шунинг учун ҳозир ўқитувчи фақат ўз фани бўйича эмас, балки ўз фанига яқин бўлган соҳалардаги янгиликларни билиши ҳам лозим бўлади.

Инсон дунёга келишида тўлиқ шаклланган феъл-атвор, ахлоқий хусусиятлар дастури билан туғилмаслиги, унга хос фазилатлар, ахлоқий меъёрлар ижтимоий ҳаёт ва оилавий тарбия маҳсули экани барчага маълум. Барча замонларда халқлар марказий кўча, майдон ва хиёбонларни миллатнинг жасоратли фарзандлари номи билан атаб келган.

Ўқитувчи таъсир кўрсатишининг асосий усуллари **талаб, истиқбол, рағбатлантириш, жазолаш ва жамоатчилик фикридир**.

Талаб – тажрибада жуда кенг тарқалган усул бўлиб, таълим ва тарбия жараёнида ўқитувчининг тарбияланувчига шахсий муносабати намоён бўлиш йўли билан у ёки бу хатти-ҳаракатларнинг рағбатлантирилиши ёки тўхтатилишини таъминлайди.

Ўқитувчининг таъсир кўрсатиш усули бўлган талаб билан жамоани ташкил этиш усули сифатидаги ягона ўқитувчилик талабни бир-биридан фарқлаш керак. Агар ягона ўқитувчилик талаби ўқувчиларнинг ижтимоий фойдали фаолиятини рағбатлантириш мазмунини ва жамоани жипслаштириш-

да ўқитувчилар билан ўқувчиларнинг ҳаракатлари бирлигига эришиш йўлларини таъминласа, талаб эса хулқ-автор ва фаолият нормаларини, ўқувчиларнинг хатти-ҳаракатларини муваффақиятли амалга оширишдан иборат.

Истиқбол – таъсир кўрсатишнинг жуда таъсирчан усули бўлиб, у ўқувчиларнинг хатти-ҳаракатларини, улар олдига мароқли мақсадлар қўйиш йўлини таъминлайди. Бу мақсадлар уларнинг шахсий интилишлари, қизиқиш ва муддаоларига айланади. Бу усул таълим муассасаси ўқувчиларида шахснинг энг муҳим фазилатларидан бири бўлган мақсадга интилувчанликни ривожлантиришга ёрдам беради.

Рағбатлантириш ва жазолаш – тарбиянинг энг анъанавий усули бўлиб, ўқувчилар хулқ-атворига тузатиш киритишни, яъни фойдали хатти-ҳаракатларни қўшимча рағбатлантириш ва тарбияланувчиларнинг номақбул хатти-ҳаракатларини тўхтатишни таъминлайди. Бунда уларнинг ҳуқуқ бурчларини кенгайтириш ёки чеклаш, уларга ахлоқий таъсир кўрсатиш йўлидан фойдаланилади.

Рағбатлантириш ва жазолаш усули ўзига хос хусусиятга эга бўлганлиги сабабли уни қўллаш алоҳида эҳтиёткорликни, ўқитувчиларнинг сезгирлиги ва хушмуомалалигини талаб қилади.

Жамоатчилик фикри – таъсир кўрсатишнинг қудратли усули бўлиб, ўқувчиларнинг ижтимоий фойдали фаолиятини ҳар томонлама ва мунтазам рағбатлантириб боришни таъминлайди, жамоанинг тарбиявий вазифаларини анча тўлиқ амалга оширади. Бу усул жамоа аъзоларининг ижтимоий фаоллигини ва ўртоқларча бирдамлигини ривожлантиришга ёрдам беради.

Ўқитувчининг таъсир кўрсатиш усулларини алоҳида-алоҳида тасвирлашга ўтишдан олдин уларни муваффақиятли қўллашнинг умумий қоидаларини қараб чиқамиз:

-ўқитувчининг таъсир кўрсатиш усулларидан самарали фойдаланишнинг зарур шарти – ўқитувчининг ўқувчиларга бўлган муносабатларининг чинакам инсонпарварлигидир;

-ўқитувчининг таъсир кўрсатиш усулларидан бири у ўз тарбияланувчилари тақдирига бепарво бўлган кишилар қўлида бўлмаслиги, бу усуллар бир жамоа бўлиб, ягона интилишлар, умумий масъулият билан бирлашган кишиларнинг жонли муносабатларидир;

-қаттиқлик ва тошбағирликни, расмий маъмуриятчиликни ўзининг ўқувчилар билан муносабати нормасига айлантирган кишилар ҳақиқий ўқитувчи бўла олмайдилар. Бизнинг шароитимизда фақат ўқитувчилар билан ўқувчилар ўртасидаги ўртоқларча муносабатларни ривожлантиришга ва мустаҳкамлашга қаратилган йўлгина ўқитувчи таъсир кўрсатишининг асоси бўлиши мумкин. Бинобарин, у ёки бу усулларни қўллаш ҳар ҳолда ўқувчиларнинг фаолиятида фақат жузъий ўзгаришларга олиб келмай, шу билан бирга, ҳамиша ўқитувчилар билан тарбияланувчилар ўртасидаги муносабатларнинг ривожланишида фаол хизмат қилади.

Ўқитувчининг таъсир кўрсатиш усулини қўллашнинг иккинчи умумий қоидаси шундан иборатки, бу қоида оқилона тайёрланган бўлиши лозим, уни қўллаш эса амалга ошириш учун шарт-шароитнинг мавжудлигини назарда тутади.

Ўқувчиларнинг реал имкониятлари, уларни рағбатлантирадиган ишларни бажариш қобилиятини ҳисобга олиш ва таъсир кўрсатиш воситаларидан фойдаланишдаги шахсий ёндашувнинг моҳиятини ташкил этади. Баъзан у ёки бу ўқитувчининг таъсири натижасиз қолади, чунки ўқитувчи унинг амалга оширилиши учун зарур моддий воситаларнинг мавжуд бўлишини олдиндан таъминламаган бўлади. Масалан, барча ўқувчилар ҳам ишга зарур бўладиган асбоблар билан таъминланган эмас. Ўқитувчи эса уларга навбатдаги топшириқни бажаришни таклиф қилади. Ўқитувчи таъсир кўрсатишни амалга оширишда ўқувчиларнинг ёши ва индивидуал хусусиятларини ҳисобга олиш каби умумий тамойилларни изчиллик билан ўтказиш ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Юқорида айтиб ўтилганидек, таълим-тарбия жараёнининг у ёки бу усулини тўғри танлаш ва уни қўллашнинг муваффақияти ўқитувчидан вазиятни билиш ва ҳисобга олишни талаб қилади. Ўқитувчининг таъсир кўрсатиш усулларини муваффақиятли қўллаши учун зарур бўлган ҳал қилувчи шарт-шароитларни айтиб ўтамиз. Бу, аввало, тарбияланувчи билан ўқитувчининг муносабатларидир. Бу муносабатлар доимий бўлиб қолмайди, улар ўзаро муомала жараёнида биргаликдаги фаолиятда ривожланади ва бойиб боради. Шу нарса мутлақо равшанки, ўртоқларча муносабатларда таъсир кўрсатиш усулларидан бири таъсирчан бўлади, бетараф ёки салбий муносабатларда (бундай муносабатлар ҳам бўлиши мумкин) бошқа усул, бошқа шакл керак бўлади. Маълумки, ўқувчини осон ва ечимли иш билан шуғулланишга мажбур қилиш — бошқа гап, унинг жиддий, одатдан ташқари меҳнатни бажаришига эришиш эса, бутунлай бошқа бир гап.

Кўп нарса тарбияланувчининг жамоадаги мавқеига боғлиқ бўлади. У ҳали янги бўлиши, анъаналар ва ўртоқларининг қилиқларини билмаслиги мумкин. Жамоа ҳаётининг ҳамма соҳасида тажриба-

си бор бўлиши ҳам мумкин. Биринчи ҳолда ҳам, кейинги ҳолда ҳам тарбияланувчига таъсир кўрсатиш усули бир хилда бўлиши мумкин эмас.

Ниҳоят, ҳамиша ўқувчиларнинг руҳий ҳолатини ҳисобга олишга тўғри келади, ўқитувчи уларга бирор топшириқ билан мурожаат қилади: ўқувчилар қувноқ ва вазмин бўлишлари, бирор нарсадан ранжиб жаҳллари чиққан бўлиши ҳам мумкин. Бу ҳам яна таъсир кўрсатиш шаклини танлашга асос бўлади.

Ўқитувчи ўқувчилар билан бўладиган мулоқотида қуйидаги малакаларни эгаллаган бўлиши лозим: ташқи қиёфани назорат қилиш, нутқни эгаллаш, ўқитувчилик муносабат маданиятини эгаллаш, ташкилотчилик маҳорати, ўқув-тарбия жараёнини бошқариш услубларини эгаллаш.

Шундай қилиб, инсон ҳаётининг муҳим соҳалари меҳнат қилиш, билиш муомала – мулоқот фаолияти билан боғлиқдир. Ҳар бир киши меҳнат фаолиятининг шакл ва услубларини ўрганиш учун бир неча йиллар вақтини сарфлайди, сир асрорларини, такомиллаштириш йўл йўриқларини излайди. Худди шундай дунёни билиш, унда юз бераётган воқеа ва ходисаларнинг илмий назарий асосларини ўрганиш учун ҳам тизимли, режали вақт сарфланади. Бироқ инсонлараро муомала, мулоқотга махсус ўргатиладиган мактаблар афсус йўқ. Албатта инсон оилада, меҳнат фаолияти жараёнида, билиш фаолияти давомида муомала-мулоқот малака ва кўникмаларини эгаллайди. Лекин мулоқот – муомала мураккаб нозик жараён бўлганлигидан унинг илмий назарий асосларини, мулоқот санъатини эгаллаш сир асрорларини ўрганиш учун булар албатта етарли бўлмайди.

Муомала – инсониятга инъом этилган энг олий неъматдир. У ҳар бир касб эгаси меҳнат фаолиятининг ажралмас қисми бўлиб хизмат қилади. Лекин шундай касблар борки, улар учун муомала мулоқот касбий зарурият сифатида намойён бўлади. Бундай касб эгалари меҳнат фаолиятининг муҳим ва асосий жихатлари мазмун, мохияти мулоқот асосига қурилади, улар ўз фаолиятини мулоқотсиз тасаввур ҳам қила олмайдилар. Ана шундай касблардан бири ўқитувчилик, тарбиячилик касбидир.

Ўқитувчи учун мулоқотнинг илмий назарий асосларини эгаллаш, шахслараро ҳамкорлик муносабатларини шакллантириш, ўқувчига таъсир ўтказа олишнинг билим, малака ва кўникмаларини эгаллаш ўта муҳим. Ўқитувчилик касбида мулоқот шахслараро муносабат воситаси сифатида эмас, балки таъсир этиш категорияси сифатида каралмоғи лозим.

Ўқитувчи мулоқоти бу ўқитувчи, тарбиячининг таълим олувчилар, тарбияланувчиларга таъсир ўтказиш усулларининг муайян тизими саналади. Муомалага киришувчиларнинг ўзаро ахборот алмашуви, турлича коммуникатив воситалар ёрдамида ўзаро таъсир ва ўзаро муносабатларни ташкил қилиш, таълим-тарбия жараёнини режалаштириш, ташкил қилиш ва ўтказиш, шахс ўзини-ўзи англаши, ҳиссий ҳолатларни бошдан кечириш каби бир қатор вазифаларни бажаради.

Адабиётлар

1. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. – Тошкент, 1997.
2. Азаров Ю.И. Болаларни севиш санъати. – Т.: Ўқитувчи, 1992.
3. Абдуллаева Ш. А. ва бошқ. Педагогика. – Тошкент: Фан, 2004.
4. Очилов М. , Очилова Н. Ўқитувчи одоби. – Т.: Ўқитувчи, 1997.



Гулбаҳор РАҲИМОВА
Фарғона давлат университети ҳузуридаги халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш ҳудудий маркази ўқитувчиси

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Мақолада ўқувчиларнинг ахборот воситаларидан фойдаланиш, олинган ахборотларни саралаш ва таҳлил қилиш малакаларини ошириш, ахборотлардан фойдаланиш маданиятини шакллантиришга доир маълумотлар келтирилган.

Таянч сўзлар: *замонавий мактаб, педагогик макон, ахборот оқими, ахборотларни саралаш, ахборот истеъмолчиси, ахборот маданиятини тарбиялаш, маданий ривожланиш, интеллект, ахборот саводхонлиги.*

В статье приведены сведения об использовании учащимися информационными средствами, о навыках отбора и анализа информации, о формировании культуры использования информацией.

Опорные понятия: *современная школа, педагогическое пространство, информационный поток, подбор информации, потребитель информации, воспитание информационной культуры, культурное развитие, интеллект, информационная грамотность.*

In article is given the information on tools instruction by students, to select the information and analyzing skills, to form a networking etiquette.

Supporting concepts: *modern school, pedagogical sphere, information flow, selection ofinformation, consumer of information, education ofnetworking etiquette, cultural development, intelligence, information literacy.*

Ҳаётимизда шундай ижтимоий-сиёсий жараёнлар юз бермоқдаки, уларга шу кун нуқтаи назаридан келиб чиқиб баҳо бериш, ҳар қачонгидан-да масъулиятли ёндашувни талаб этмоқда. Чунки фарзандларимизни ҳар жиҳатдан етук ва баркамол инсон қилиб вояга етказиш, уларга келажагимиз эгалари деб қараш, ҳалқ келажагига бевосита дахлдор масала сифатида истиқлол сиёсатининг узвий қисмига айланиши долзарб аҳамиятга эга.

Истиқлолнинг дастлабки йилларидан бошлаб, шахсни камол топтириш, соғлом авлодни тарбиялаш борасида амалга оширилаётган кенг кўламли ишларни янги босқичга кўтариш, жамиятнинг юксак психологиясини тўла шакллантиришдан иборат эканлиги маълум.

Замонавий мактабнинг вазифалари ҳам жамият талаблари билан ҳамоҳанг тарзда моҳиятан ўзгариши табиий ҳол. Зеро, бола онгида бир умр муҳрланиб қоладиган дунё тасвирини “чизадиган”, уни ўргатадиган, тарбиялайдиган ва шахс маданиятининг шаклланишига асос бўладиган психологик-педагогик макон – мактабда кечадиган ҳар қандай жараён ўқувчи манфаати учун хизмат қилади.

Аввалги мактаб бола учун олам, инсон, жамият ва табиат ҳақида ахборот олишнинг асосий манбаи ҳисобланар эди. Бугунги кунга келиб оммавий коммуникация ва ахборот воситалари болада олам манзараларини шакллантирувчи асосий омилга айланиб қолди.

Замонавий ахборот манбалари воситасида ўқувчи дунёқарашини кенгайтириш, унинг ақлу заковатини ошириш – шубҳасиз, XXI асрнинг устун жиҳатлари ҳисобланади. Лекин бутун дунё бўйлаб саноқсиз тиражларда тарқалаётган ахборотлар, жумладан, интернет шахс учун аксарият зарарли бўлган ташвиқотларни ҳам ўзида жамлайди, ахлоқий мезонларнинг пасайишига сабаб бўлиб, ёш авлоднинг руҳий ва жисмоний саломатлигига хавф солмоқда.

Ҳозирда болалар ниҳоятда катта ахборот эркинлигига эга, шу билан бирга, болалар учун унинг оммалашган заҳри қотиллиги ҳам ҳаддан ташқари катта. Ўқувчиларнинг ахборот муҳити билан ўзаро таъсиридаги асоосий муаммолардан бири уларнинг ахборот яхши ёмонлигининг фарқига бормаслиги; ахборот олишнинг ҳаддан ортиқлиги, ахборот хафвсизлигининг мавжуд эмаслигидир. Шу сабабли, ахборотларни тўғри қабул қила билиш масаласи бугунги кунга келиб энг муҳим масалага ай-

ланди [3]. Бугунги глобаллашаётган дунёда ахборот халқаро ва давлатлараро муносабатларда катта ўрин тутаётгани сир эмас.

Замонавий дунё кишисининг интеллектуал даражасини унинг нечоғли кўп ахборотга бойлиги белгилаб бераётган бир даврда, ўсиб келаётган ёш авлодлар, туганмас ахборот оқимидан ўзига зарур бўлган энг фойдали ахборотларни саралаб олишни билишлари, уларнинг ахборот олиш ҳуқуқлари суиистеъмол қилинмаслиги, ахборот истеъмолчиси сифатида улар зарарли ахборот оқимидан ҳимояланганлиги масаланинг моҳиятан қанчалик аҳамиятли эканини кўрсатади. Замонавий ахборот майдонидаги ҳаракатлар шу қадар тезкорки, энди аввалгидек, унга эътиборсизлик билан қараш тўғри келмайди. Айни вақтда Ўзбекистонда ҳам очиқ ахборот-информацион технологиялар, компьютер ва интернет тизимида кузатилаётган турли хил ахборот манбалари воситасида юртимизда камол топаётган ёшларда ўзига хос фикрлаш тарзи ва дунёқарашнинг кенг ёйилишига сабаб бўлаётганининг гувоҳи бўляпмиз.

Ахборот воситаларининг ўсиб келаётган ёшлар онгида миллий менталитетга тўғри келмайдиган ёт ғояларнинг пайдо бўлишига ҳамда кескин қарашларнинг шаклланаётганлигига сабабчи бўлаётганлиги тўғрисида, бир томонлама фикрлар эътироф этилмоқда. Шу боисдан, ахборот воситалари ўқувчилар тарбиясидаги, таъсир доираси қайдаражада эканлиги ва фойдаланиш маданиятини шакллантиришда нималарга аҳамият қаратилиши лозимлигини аниқлаш мақсадида тадқиқотлар, изланишлар олиб боришни, таълим-таърбия жараёнида ахборот воситаларидан фойдаланиш маданиятини тарбиялашни тақозо этмоқда.

Ахборот асри шиддати, ахборот хавфсизлиги бўйича олиб бориладиган ислоҳотларда, кириб келаётган ахборот оқимининг моҳиятини ақл-идрок, тафаккур кўзгусига солиб, тўғри тушуниб олишга ўргатиш ва ахборотларни саралаш қобилиятини шакллантириш, ўқувчиларнинг ғоявий курашчанлик фазилатларига жиддий эътибор қаратишни амалга ошириш учун, замонавий таълим ва инновацион технологиялар, илғор хорижий тажрибани кенг жорий этган ҳолда, умумий ўрта таълим мактабларида фаолият юритаётган педагог кадрларнинг инновацион фаоллигини ривожлантириш, таълим самардорлигини оширишда педагогик компетентлик ва креативлик хусусиятларини шакллантириш бугун долзарб масаладир. Бу, ўз навбатида, мактабларда, ўқувчиларга сабоқ бераётган ўқитувчиларнинг замон билан ҳамнафас бўлишларига, ўқув жараёнига фанлар бўйича инновациялар, шунингдек, илғор услубларини кенг жорий этишга зарур шарт-шароит яратади, шу билан бирга, касб маҳорати, педагогик ва илмий фаолиятини муттасил ривожлантириб боришини талаб этади. Чунки бугун вояга етаётган навқирон авлодни интеллектуал салоҳиятли, зукко қилиб тарбиялаш, уларга пухта билим бериш, ўқитувчиларнинг юксак билимлик даражасига бевосита боғлиқдир. Зеро, Абдулла Авлоний айтганидек, “Тарбия қилувчи муаллимларнинг ўзлари илмларига амал қилувчи бўлиб, шогирдларига ҳам берган дарсларини амал билан қўшиб ўргатмоқлари лозим. Бу тарзда таълим билан берилган дарс ва маълумот шогирдларнинг дилига тез таъсир этиб, илмига амал қилувчи болалар бўлишига хизмат қилади” [4]. Бу саъй-ҳаракатлар, албатта, бугунги бозор иқтисодиёти шароитида юксак ақл заковатга эга, интеллектуал салоҳияти юқори бўлган ёш авлодни тарбиялашда жамиятда ўзининг муносиб ўрнини топишига йўналтириш, қолаверса, таълим ва тарбия жараёнининг сифати ва самарадорлигини оширишга хизмат қилади. Миллионлаб ёшларимиз илм олиш, ижод қилиш, ақлий тафаккурни янада ривожлантириш, интелектуал салоҳиятини замон талабига мослаштириш, дунё ёшлари билан беллаша олиш руҳияти ила яшаётган бир даврда, имкониятларнинг янада самарали ечимли йўлларини яратмоғимиз, ўқувчиларимизни ақлан етук, маънан бақувват қилиб тар-бияламоғимиз керак эмасми.

Мутахассислар фикрича, бугунги кунда жамиятда айнан ахборотни олиш, унга йўл топиш соҳасида кескин бурилиш, табақалашув содир бўлаётгани кузатилмоқда.

Бўш вақт ресурсларига эгалиги туфайли юқори даражада коммуникатив фаоллик кўрсатаётган ўқувчи-ёшлар, ўзининг ҳаракатчанлиги ва янгиликка интилувчанлиги билан юқори даражага чиқмоқдалар. Бошқа гуруҳларда эса нисбатан пассивлик кузатилади. Уларга хос бундай хусусиятлар салбий оқибатларни ҳам келтириб чиқариши мумкин. Бу биринчи гуруҳ учун тобора фаоллашётган агрессив – сиёсий таъсирга берилиб кетиш хавфининг мавжудлигида бўлса, иккинчи гуруҳнинг эса позитив мазмунга эга ахборотлар таъсиридан ташқарида қолиши билан изоҳланади.

Янги ахборот технологияларининг афзалликлари қанчалик эътироф этилмасин, инсоннинг интеллекти, унинг эрки, ҳатто маънавий олами ахборотнинг тўхтовсиз янгиланиб бораётган техник воситаларига қарам бўлиб қолаётганини назардан четда қолдириб бўлмайди.

“Тараққиёт тақдирини маънавий жиҳатдан етук одамлар ҳал қилади. Техникавий билим, мураккаб технологияларни эгаллаш қобилияти маънавий баркамоллик билан, мустақил тафаккур билан бирга бориши керак. Ақлий заковат ва руҳий-маънавий салоҳият – маърифатли инсоннинг икки қанотидир” [1], – деган эди Ўзбекистоннинг Биринчи Президенти И.А. Каримов.

Эришилган билимларга суяниб, шахс рационал жиҳатдан англаган ва эмоционал маъқулланган, ҳаётдаги ўз ўрнини тўғри белгилашга ёрдам берувчи мўлжалларни намоён этиши ва ривожлантириши лозим.

Ҳозирги кундаги глобаллашув жараёнлари ва уларда кузатилаётган маънавий таҳдидлар, айниқса, юртимизда таълим соҳасида амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотлар тизимида асосий эътибор қаратилаётган ўқувчиларнинг ахборот воситаларидан фойдаланиш маданиятини шакллантириш, таълим-тарбия жараёнида замонавий ахборот воситаларининг ролини ошириш муҳим масалалардани бири ҳисобланади.

Ўқувчиларнинг дунёқараши, ўй-фикрлари, тафаккуридаги ривожланиш механизмларини ўрганиш ҳозирги кунда долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Улардаги мафкуравий дунёқарашни шакллантиришда ахборот воситалари, хусусан, интернет ёшлар онгига таъсир этаётган материалларни қандай ёритаётганининг илмий-назарий жиҳатларини эмпирик тадқиқот материаллари билан асослаш ва таҳлил қилиш зарур.

Бугун ахборот воситалари орасида тобора оммалашиб бораётгани интернет бўлиб, ўқувчи ёшлар интернетга маълумот олишнинг асоосий манбаи деб қарайди. Улар интернетга, асосан, янгиликларни излаш, дўстлар билан мулоқот қилиш, мусиқа ёзиб олиш учун киради. Шу жараёнда ёшлар онгига “ўргимчак тўри” орқали кўз илғамас таҳдидлар кучаймоқда. Афсуски, кўплари бундай хатарларнинг қурбонига айланмоқда [5].

Ўқувчи-ёшлар орасида шундайлар борки, ҳақиқатан ҳам ўзлари ҳар томонлама камол топган шахс қандай бўлиши меъёри ва талабларидан бехабар бўлсалар-да, зўр бериб шуни хоҳлайдилар. Шунга эришиш учун моддий адабиётларни мутолаа қилади, машҳур фильм, клипларни томоша қилади. Шу билан бирга, ахборот воситаларидаги бошловчиларининг кийинишига, юриш-туришга, хулқ-атворда “ўшандайлар”га зўр бериб тақлид қилади, нима бўлгандаям, замонавий бўлишга иштиёқ билдирадилар. Бизнингча, ҳар томонлама камолга эришганликни бундай тарзда тушуниш нафақат хато, балки зараралидир. Шахснинг ўз-ўзини бундай тарзда камол топтириши, ўз-ўзини тарбиялаши сунъий жараён бўлиб, кўпроқ ўзига хос “ўз-ўзини тарбиялаш”ни англатади. Ўқувчиларда бунинг оқибатида кўпроқ ўзига хос юзаки ишқибоз, маҳмадона, олифта сўзларга ошуфта “қуруқ” нарсага айланади, инсоннинг ҳар тарафлама камол топиши унинг ижтимоий фойдали фаолияти ва фақат шу орқали намоён бўлиши ҳаёлига ҳам келтира олмайди. Немис файласуфи Гегель таъкидлаган эдики, “Ҳақиқий предметни яратувчи аслият маданий даражада бўлишини тақозо қилади, ҳолбуки, сунъий оригиналлик фақат маданиятсиз кишилар миясига дафъатан келиб қолган дидсиз нарсалар шаклини эътироф қилади” [6]. Амалий фаолиятда инсоннинг фақат шахс сифатидаги ижтимоий фазилатлари ифодаланиши ва юзага чиқиши унинг маданийлик мезони ҳисобланади. Ҳақиқий ўзликка оригиналликка интилиш эмас, балки, энг аввало, меҳнатдаги жонбозлик билан эришиш мумкин. Қобилият инсон амалга оширадиган фаолият турлари (ижтимоий-сиёсий, бадиий ва бошқалар)нинг усул ва тамойилларини теран ва мустаҳкам эгаллашида намоён бўлади.

Бугунги педагогикамиз учун муайян билимлар йиғиндиси эмас, балки бола шахси бош қадриятига айланди. Шу сабабли ҳам, айни дамда ёшларга қўйиладиган талаб фақатгина билимли бўлишгина эмас, балки изланувчан, ташаббускор, фидойи, интеллектуал салоҳиятли ва умуминсоний маданиятга эга бўлишини ҳам талаб қилмоқда. Шу маънода замонавий миллий педагогикамиз олдига қўйилган долзарб муаммоларни ҳал қилиш вазифаси турибди. Айни шу каби муаммоларнинг бири ахборот воситаларидан таълим иштирокчиларининг, хусусан, ўқувчиларнинг фойдалана олиш маданиятини тарбиялашдан иборат. Энг аввало, ўқувчиларни ахборотлардан фойдаланиш маданияти, идрок эта олиш мадрнияти берилаётган ахборотларни таҳлил қилиш ва танқидий баҳолаш кўникмаларининг мавжудлигига кўра тавсифланади. Айнан интеллектуал ва маданий ривожланишга кўмаклашувчи ахборотларни танлай билиш, ахборотда илгари сурилаётган фикр мазмунини тушуниш, мафкуравий жиҳатдан салбий, зарарли жиҳатларини бартаф этиш, идрок этиш маданиятининг етарлича шаклланганлигини билдиради. Идрок этиш маданиятининг пойдеворини ахборот саводхонлиги ва ахборот хафвсизлиги ташкил қилади. Ахборот саводхонлиги информатика дарсларида шакллантирилади, ахборот хафвсизлиги қонун йўли билан мустаҳкамланади. Юқорида келтириб ўтилган маълумотлар, хулосалар ва фикрларга таянган ҳолда педагогларнинг ўқувчи-ёшларни ахбо-

рот воситаларидан фойдланиш маданиятини оширишда қуйидаги имкониятларни ҳисобга олишлари лозимлигини тавсия этамиз:

1. Ўқувчиларни ахборот воситаларидан фанларга оид манбаларини олиш, ўрганиш, таҳлил қилиш, малака ва кўникмаларини шаклантиришда уларни технологик йўналтириш.
2. Ўқувчиларда ахборот воситалари материалларига нисбатан тўғри ижобий муносабатни, маънавий-ахлоқий, эстетик дунёқарашни таркиб топтириш.
3. Ахборот воситаларини тўғри идрок этишлари учун тушунтириш, суҳбат, мунозара усулларидан фойдаланиш.

Ўқувчилар ахборотларни идрок этишларини тарбиялашда, фанларни ўқитиш жараёнида янги педагогик технологияларни яратишга ижодий ёндашиш, ахборот воситаларидан фойдаланишнинг янгича методлари ва шаклларини қўллаш, ахборот воситаларининг ижобий мулоҳазали, фаол истеъмолчисининг шаклланишида тарбиявий моҳиятни юксалтириш, энг муҳими ўқувчиларнинг ахборот воситаларидан фойдаланишларида ахборотни идрок этиш маданиятини шакллантиришга эришиш лозим. Ўқувчиларнинг ахборот воситаларидан фойдаланиш маданиятини шакллантиришда қуйидаги тавсияларга эътибор бериш мақсадга мувофиқ:

Биринчидан, ўқитувчиларнинг таълим бериш жараёнида замонавий ахборот воситалари материалларидан кенг миқёсда фойдаланишига эришиш.

Иккинчидан, ўқувчиларнинг замонавий ахборот воситаларига нисбатан билим манбаи сифатида қараш кайфиятини ва улардан фойдаланиш маданиятини шакллантириш.

Учинчидан, ҳар бир оилада ота-оналарнинг ўз фарзандларини замонавий ахборот комуникация тармоқлари орқали ёритилаётган маълумотларнинг тарбиявий руҳдаги чиқишларига диққатини оширишда фаол бўлишга эришиш.

Тўртинчидан, ўқувчиларнинг ахборот воситаларидан фойдаланиш маданиятини шакллантиришда жамоатчилик ҳамкорлигини кучайтирувчи воситаларидан фойдаланиш.

Адабиётлар

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2013. – Б. 134
2. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3 т. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1996. – Б. 35
3. Кучукбаев Ф.М., Абдуазимова Д.Ф., Джураев Р.Х., Диванова М.С., Иноятова М.Э. Ўқувчи шахсига салбий таъсир курсатувчи интернет сайтлари ва телекўрсатувларнинг уларда салбий ҳистуйғуларни вужудга келтиришнинг олдини олиш бўйича профилактик коррекцион дастур. – Тошкент, 2016. – Б. 10
4. Расулов А. Мактаб оиладан бошланади: ҳар уйга лозим китоб. – Тошкент: Янги аср авлод, 2013. – Б. 11
5. Яҳё Муҳаммад Амин. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. – Тошкент: Мовараунаҳр, 2016. – 295 бет.
6. Гегель. Соч., т.7. – М. – Л., 1934. – С. 216



Ҳусниддин УМАРОВ
Гулистон давлат университети катта ўқитувчиси



Шуҳрат ЮЛДАШЕВ
Гулистон давлат университети катта ўқитувчиси

БАРКАМОЛ ШАХСНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ИЛМИЙ ДУНЁҚАРАШНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

Мақолада илмий дунёқарашнинг тутган ўрни, иқтидорли талабаларнинг илмий тадқиқот ишларини самарали ташкил этишга ҳамда талабаларнинг билим, кўникма, малакаларини оширишга ижобий таъсир кўрсатиши белгиланган.

Таянч тушунчалар: *инновация, АКТ, формация, креатив, модернизация, узлуксиз таълим.*

В статье подчеркивается роль научного мировоззрения, способность талантливых студентов эффективно организовывать научные исследования и повышать знания, умения и навыки учащихся.

Опорные понятия: *инновация, ИКТ, формация, креатив, модернизация, непрерывное образование.*

In article is emphasized the role of the scientific worldview, the ability of talented students to effectively organize research and improve the knowledge, skills and students' ability.

Supporting concepts*: innovation, ICT, formation, creative, modernization, life-long learning.*

Барчамизга маълумки, республикамиз таълим тизими, жумладан, умумий ўрта таълим тизими мазмуни 1997 йил 29 августдаги "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури" ва "Таълим тўғрисида"ги Қонун асосида бочқичма-босқич янгиланиб борилмоқда. Шунингдек, Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 13 майдаги 203-сонли қарорига асосан таълим олувчиларнинг юксак касбий тайёргарлиги сифати даражаси, яъни эгаллаётган билим, кўникма ва малакаларига қўйиладиган зарурий талабларни белгилаб берувчи давлат таълим стандартлари қабул қилинди ва у ҳам босқичма-босқич жорий этиб келинмоқда. Бундан ташқари, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 20 апрелдаги "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-2909-сонли Қарорининг олий таълим муассаларида бажарилиши ижросини таъминлаш мақсадида Гулистон давлат университети ректорининг буйруғи ишлаб чиқилди [3].

Буйруқда қуйидаги вазифалар белгиланган:

- олий маълумотли кадрлар тайёрлаш миқдорий кўрсаткичлари ва таълим йўналишлари (мутахассисликлари) таркибини ҳудудлар ва иқтисодиёт тармоқларининг ривожланиши устувор йўналишларига мувофиқ белгилаш;
- олий таълим муассасаларида талабалар қабул кўрсаткичларини ва таълим йўналишлари ўзгариши билан боғлиқ профессор-ўқитувчиларнинг зарурий таркибини ва сифатини таъминлаш вазифалари, муаммолари ва таклифлар;
-профессор-ўқитувчиларнинг ўқув-услубий, илмий-тадқиқот фаолияти самарадорлигини ошириш чораларига таклифлар;
- олий таълим муассасаларини малакали профессор-ўқитувчилар билан таъминлаш вазифалари;
- илмий ва илмий-педагогик кадрлар тайёрлаш тизими, структураси, докторантура, илмий ишни ҳимоя қилиш;

- илмий ва илмий-педагогик кадрларни мақсадли (муайян таълим муассасалари учун) тайёрлаш тизимини жорий этиб, тегишли шароит яратиш;

- профессор-ўқитувчиларни илмий ва самарали педагогик фаолиятини рағбатлантириш тизимини такомиллаштириш;

- олий таълимнинг ўқув-тарбиявий жараёни мазмуни, ўқув режа ва дастурларини такомиллаштириш;

- бакалавриат, магистратура давлат таълим стандартлари, ўқув режа ва ўқув дастурлари тузилмаси ва мазмунини, норматив таъминотини қайта ишлаб чиқиш (хорижий тажрибани ўрганиш асосида);

- олий таълим учун янги ўқув адабиётларни яратиш марказлашган тизимини ҳамда адабиётларни яратиш, амалга киритиш, чоп этиш, янгилаш меъёрий талабларини жорий этиш;

- олий таълим муассасаларида маънавий-маърифий фаолиятни услубий таъминлашни бошқарув тизимини такомиллаштириш;

- олий таълим муассасалари замонавий ўқув лабораториялари, илмий тадқиқот лабораториялари, ахборот-коммуникация технологиялари воситалари билан таъминлаш;

- олий таълим тизимини тубдан такомиллаштириш, мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш борасидаги устувор вазифаларга мос ҳолда, кадрлар тайёрлашнинг маъно-мазмунини тубдан қайта кўриб чиқиш, халқаро стандартлар даражасида олий малакали мутахассислар тайёрлаш учун зарур шароитлар яратиш.

Олий таълим тизимини келгусида янада такомиллаштириш ва комплекс ривожлантириш бўйича энг муҳим вазифалар этиб қуйидагилар белгиланган:

- ҳар бир олий таълим муассасаси томонидан хориждаги етакчи турдош илмий-таълим муассасалари билан истиқболли ҳамкорлик алоқаларини яқиндан йўлга қўйиш, ўқув жараёнига халқаро таълим стандартларига асосланган энг замонавий педагогик технологиялар, таълим дастурлари ва ўқув-методик материалларни кенг жорий этиш, илмий-педагогик фаолиятга юқори малакали чет эл ўқитувчилари ва олимларини жалб этиш;

- олий маълумотли кадрларни тайёрлашнинг мақсадли мезонларини шакллантириш, олий таълим муассасаларидаги ихтисослик йўналишлари ва мутахассисликларни ҳудудлар ва соҳалар бўйича жорий этилаётган дастурларнинг талаб ва эҳтиёжлари, иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларни комплекс тараққий эттириш истиқболларини инобатга олган ҳолда оптималлаштириш;

- янги авлод ўқув қўлланмаларини яратиш ва олий таълим тизимига кенг татбиқ этиш, олий таълим муассасаларини замонавий ўқув-методик ва илмий адабиётлар билан таъминлаш, жумладан, энг янги хорижий адабиётларни сотиб олиш ва таржима қилиш негизида ахборот-ресурс марказлари фондларини мунтазам янгилаб бориш;

- педагог кадрларнинг касб малакаси ва маҳоратини сифат жиҳатдан мунтазам ошириб бориш, педагог ва илмий ходимларнинг стажировкадан ўтишини йўлга қўйиш, олий таълим муассасалари битирувчиларини PhD дастури ва хорижий магистратура дастурлари асосида ўқитиш;

- олий таълим муассасаларининг илмий салоҳиятини мустаҳкамлаш, олий таълим тизимида илмий тадқиқотларни янада ривожлантириш, уларнинг академик илм-фан билан интеграциясини кучайтириш, профессор-ўқитувчилар таркибининг илмий фаолияти самарадорлигини ошириш, иқтидорли талаба-ёшларни илмий фаолият билан шуғулланишга жалб этиш;

- олий таълимнинг маънавий-ахлоқий мазмунини кучайтириш, талаба-ёшларнинг қалби ва онгига миллий истиқлол ғоясини, халқимизнинг юксак маънавияти ва инсонпарварлик анъаналарига садоқат туйғусини чуқур сингдириш, биз учун мутлақо ёт ва бегона бўлган ғояларга нисбатан уларда мустаҳкам иммунитет ва танқидий муносабатни шакллантириш;

- олий таълим муассасалари моддий-техника базасини уларнинг ўқув ва илмий-лаборатория биноларини, спорт иншоотлари ва ижтимоий-муҳандислик инфратузилмаларини қуриш, капитал таъмирлаш ва реконструкция қилиш орқали янада мустаҳкамлаш, замонавий илм-фан соҳаларининг устувор йўналишлари бўйича ўқув-илмий лабораториялар базасини замонавий асбоб-ускуналар билан таъминлаш;

- олий таълим муассасаларини замонавий ахборот-коммуникация технологиялари воситалари билан таъминлаш, талабалар, ўқитувчи ва ёш тадқиқотчиларнинг жаҳондаги илғор таълим ресурслари, илмий адабиётлар ва маълумотлар базаси бўйича электрон каталогларга кириш имкониятини кенгайтириш.

Юқоридаги фикр ва мулоҳазалардан келиб чиқиб, илмий тадқиқот ишларини юқори суръатларга кўтариш, ёшларни илмий-ижодий ишларга жалб қилиш орқали баркамол шахсларни тарбиялаш долзарб муаммо деб ҳисоблаймиз.

Мамлакатимизда мустақиллик йилларида яратилган илмий тадқиқот ишларини ҳар томонлама ўрганиш бу даврдаги илмий изланишларда баркамол шахсни тарбиялаш устувор аҳамият касб этганлигини кўрсатмоқда.

Тадқиқот ишларини бажаришда муайян методологияга таянилмас экан, улар кутилган натижа бермайди. Шунинг учун ҳам талаба-ёшларда мавжуд методологик асослар, ёндашувлар ҳақида тасаввур ҳосил қилиш керак. Амалга оширган кузатишларимиз натижасида шу нарса аён бўлдики, ҳалигача ёшларни илмий тадқиқот ишларига йўналтиришда бир қатор камчиликлар мавжуд.

Хусусан, талаба-ёшларни иқтидори, истеъдодини кўра билмаслик, уларга ишонч кўзи билан қарамаслик, талаба-ёшларнинг илмий-ижодий меҳнатлари маҳсулига бефарқлик, ёшларнинг имкониятларини, интеллектини баҳолай олмаслик каби ҳолатлар шундай камчиликлар жумласидандир. Булар қаторига айрим мутахассисларнинг ўзларида илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш ва олиб бориш учун етарли кўникма ҳамда малака мавжуд эмаслигини, талабаларни тадқиқот ишларига қизиқтира олмасликлари, илмий дунёқарашни шакллантириш ва сингдиришга ожизлиги каби камчиликларни ҳам киритиш мумкин. Бундан ташқари, яна бир қанча сабаблар борки, булар бевосита тадқиқот ишини бошлагандан кейин намоён бўладиган ҳолатлар. Жумладан, кузатувлар натижасидан маълум бўлишича, тадқиқот ишларининг бажарилишида кўрсатилган камчиликларга йўл қўйилишига қуйидаги салбий омиллар сабаб бўлар экан:

- талабалар билим даражасининг пастлиги;
- тадқиқот муаммосининг нотўғри белгиланиши;
- методологик асоснинг ноаниқлиги;
- мақсад ва вазифаларнинг нотўғри қўйилиши;
- тадқиқот мавзусининг етарлича илмий асосланмаганлиги;
- илмий асосда узвийлик, тизимлилик ва изчилликка риоя қилинмаганлиги;
- илмий муҳитнинг салбий таъсир этиши;
- илмий раҳбарнинг нотўғри йўналиш бериши;
- ижтимоий муҳитнинг салбий таъсири;
- таълим жараёнида илмий тадқиқот ишларига йўналтиришга етарли эътибор берилмаслиги;
- олий таълим тизимида илмий-ижодий ишларга қўйилган талабларга маъмурият томонидан эътибор берилмаслиги;
- олий ўқув юрти раҳбарияти томонидан илмий тадқиқот ишларига талабаларни жалб этишга юзаки қаралиши;
- илмий тадқиқот ишига талабаларни жалб этишда илмий уюшмалар фаолиятининг сустлиги;
- гуруҳ раҳбарларининг талабаларни илмий-ижодий ишларга жалб этишга оид билим ва тажрибасининг етишмаслиги;
- фан ўқитувчиларининг талабаларни илмий-ижодий ишларга жалб этишга оид билим ва тажрибаларининг камлиги;
- олий ўқув юрти илмий-ижодий уюшмаларининг иш режаси бажарилишида юзакиликка йўл қўйилиши.

Юқорида келтирилган маълумотларнинг таҳлиллари натижасида шундай хулосаларга келишимиз мумкинки, талабалар билим даражасининг пастлиги ҳақиқатан ҳам илмий тадқиқот ишларини самарали ташкил этишга жиддий таъсир кўрсатувчи омил ҳисобланади. Чунки етарли билим даражасига эга бўлмаган талаба қандай муаммо устида иш олиб борилаётганлигини англаб етиши мушкул бўлишини таъминлаш катта аҳамиятга эга ва бунга эришиш талабини шарт қилиб қўйиш мақсадга мувофиқ бўлади.

Адабиётлар

1. “Таълим тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: “Шарқ”, 1997.
2. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”. // Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: “Шарқ”, 1997.
3. “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами", 2017 йил 10 май, 18-сон, 313-модда.



Сарвиноз САМАДОВА
Бухоро давлат университети
миллий ғоя, ҳуқуқ ва маънавият
асослари кафедраси ўқитувчиси

БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА АЖДОДЛАР МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ

Мақолада аждодларимиз меросининг баркамол авлодни тарбиялашдаги аҳамияти ҳақида сўз юритилган.

Таянч тушунчалар: *аждодлар мероси, баркамол авлод, маънавият, тарбия.*

В данной статье идет речь о значимости наследия предков в воспитании гармонично развитого поколения.

Опорные понятия: *наследие, гармонично развитое поколение, духовность, воспитание.*

In this article is told about the importance of the ancestors'heritage in upbringing of a harmoniously developed generation.

Supporting concepts: *heritage, harmoniously developed generation, spirituality, upbringing.*

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, ёш алод тарбиясига бўлган эътибор кучайди, ёшларга ғамхўрлик қилиш, уларнинг манфаатлари тўғрисида қайғуриш, уларни ижтимоий ҳимоя қилиш, комил инсонлар қилиб тарбиялаш масаласи давлатнинг устувор сиёсатига, кундалик фаолиятига айланди. Чунончи, давлат ва жамият олдидаги эзгу мақсад – ёш авлодни етук шахс, замон талабларига жавоб берадиган, билимдон, юксак маънавиятли, эътиқоди мустаҳкам, иродаси кучли, халқ, Ватан учун қайғурадиган комил инсон қилиб тарбиялаш ва вояга етказишдир.

Маънавий етук инсонни тарбиялаш учун қайси манбаларга таяниш кераклиги Президент асарларида аввал бошиданоқ аниқ кўрсатиб ва қайта-қайта таъкидлаб келинмоқда. Бу манбалардан энг биринчи ва асосийси буюк аждодларимиз меросидир. Буюк аждодларимиз бизга қолдирган улкан мерос миллий маънавиятимиз назариясини шакллантириш учун бутун керакли унсур ва таркибларни яратиб қўйибди, фақат уни холис назар билан астойдил қидирсак, кифоя.

Биринчи Президентимиз Ислом Каримов халқ маънавиятини юксалтириш деганда нимани кўзда тутганлигини ҳали мустақилликка эришмасимиздан олдинроқ, яъни 1990 йили Ўзбекистон Президенти сифатидаги биринчи нутқидаёқ очиқ-ойдин баён этган эди. Ушбу тарихий маърузада инсон руҳиятининг нозик ва мураккаб томонлари билан, "хазиналарга тўла миллий-тарихий анъаналар билан, умуминсоний маънавий бойликлар билан ҳисоблашмаслик" яқин ўтмишимизда жамиятимизга қанчалар зарар келтирганлиги қайд этилиб, бу соҳада янгича вазифалар олға сурилган эди: "Биринчи навбатда, миллий маданиятимиз, халқ маънавий бойлигининг илдизларига эътибор бериш лозим. Бу хазина асрлар давомида мисқоллаб тўпланган. Тарихнинг не-не синовларидан ўтган. Инсонларга оғир дамда мадад бўлган. Бизнинг вазифамиз – шу хазинани кўз қорачиғимиздек асраш ва янада бойитиш, сўзда эмас, амалда ҳар бир кишининг виждон эркинлигини, эътиқодининг эркинлигини таъминлашимиз керак" [1,65-66].

Инсонни тарбиялаш, етук шахсни камолга етказиш масаласи қадимдан Шарқ олимлари, мутафаккир ва донишмандларининг диққат марказида бўлиб келган. Айниқса, ўрта асрлар фалсафасида мукаммал жамият, комил инсонни тарбиялаш ғояси ўзининг ёрқин ифодасини топди.

Уйғониш даврининг буюк файласуфи, "иккинчи муаллим" унвонини олган мутафаккир Абу Наср Форобийнинг (873-950) комил инсон тўғрисидаги ғоялари унинг ижтимоий-сиёсий ва ахлоқий қарашларида ўз ифодасини топган.

Форобий буюк гуманист бўлиб, асарларининг марказида инсон масаласи туради. Унинг фозил жамоа, давлат ва унинг бошлиғи фаолияти, фазилат, камолот, бахт-саодат тушунчалари бевосита комил инсон билан узвий боғлиқдир. Олимнинг фикр юритишича, инсон туғилгандан фазилатларни эгаллашга, етуклик ва камолотга интилади. "Ҳар бир инсон, – деб таъкидлайди аллома, – бошидан комил эмас, аммо туғма равишда ўзига хос бўлган ички шуур ила босқичма-босқич комилликка

жидду жаҳд билан интилади. Ҳамма нарсани идрок қилиш инсонни комиллик томон бошлайди" [3,14]. Демак, Форобийнинг фикрича, камолотга эришиш билим орқали, фазилатларни эгаллаш, хайрли ишларни амалга ошириш орқали рўёбга чиқади. Инсон турли ахлоқий фазилатлар: софдиллик, хокисорлик, нафсни тийиш, ўзгалар тўғрисида ғамхўрлик, сахийлик ва бошқаларни эгаллаб комилликка эришгандан сўнг бахт-саодатга сазовор бўлади. Мутафаккирнинг фикрича, инсон ушбу фазилатларни эгалламасдан комиллик ва бахт-саодатга эриша олмайди. Дарҳақиқат, ақл, ахлоқ ва илм-маърифат инсонни камолотга, бахт- саодатга элтувчи асосий воситадир.

Маънавият ва маърифат борасида буюк ватандошимизнинг яна бир хизмати – одамлар ва давлатлар, ҳокиму хукмдорларнинг ўзаро дўст, иноқ, ҳамжиҳат қон-қариндош бўлиб ҳаёт кечиришга, меҳр-оқибат кўрсатишга даъват этганлигидир.

"Фозил одамлар шаҳри " китобида Форобий инсон инсонсиз яшай олмайди, фаолият кўрсата олмайди, яхши кунларда ҳам, ёмон кунларда ҳам одам одамга ғанимат деган улкан фалсафий ва умумбашарий ғояни илгари сурган.

Форобий "Бахт – саодатга эришув ҳақида" рисоласида ҳар бир инсоннинг туғма табиатида ва унга лозим бўлган ҳар қандай ҳаракат жараёнида бошқа бир инсон ёки кўпчилик билан муносабатда бўлиш, ўзаро алоқа қилиш ҳиссиёти бор, одам жинсидан бўлган ҳар қандай инсоннинг аҳволи шу, у ҳар қандай камолотга эришувда бошқаларнинг кўмаклашувига муҳтождир" – деган. Форобий ўзининг маънавият ва маърифат ҳақидаги таълимотида илм асосларини ўрганиш, ўзлаштириб олиш масаласига жиддий эътибор берганлиги бежиз емас. Чунки билим маънавий, ахлоқий, ақлий камолотнинг таркибий қисмларидан биридир. Форобий ҳаётнинг олий мақсади бахт-саодатга эришувдан иборат. Кишилар бунга оламни ўрганиш, касб-ҳунар ва илмларни ўзлаштириш – маърифатли бўлиш орқали эришади деб қарайди.

Форобийнинг таълим тарбия йўллари, усуллари ҳақидаги қарашлари ҳам қимматлидир. У "инсонда гўзал фазилатлар икки йўл – таълим ва тарбия йўли билан ҳосил қилинади. Таълим фақат сўз ва ўргатиш билангина бўлади. Тарбия эса, амалий иш тажриба билан амалга оширилади. Ҳар иккаласи бирлашса етуклик намоён бўлади" – дейди. Форобий яратган таълимотлар тизимида таълим-тарбия, унинг мазмун моҳияти, асосий мақсад ва вазифалари, амалга оширилиш йўллари, инсоннинг маънавий-ахлоқий камолотини амалга оширишдаги аҳамияти каби умумбашарий масалалар катта ўрин тутади.

Бутун дунёга машҳур бўлган тиббиёт оламининг энг буюк намоёндаларидан бири Абу Али ибн Сино (980-1037) ўзининг фалсафий асарларида яхшилик ва ёмонлик, адолат ва адолатсизлик, сахийлик ва бахиллик, севги ва нафрат, поклик ва нопоклик, камтарлик ва такаббурлик, сингари одоб-ахлоққа тааллуқли масалаларга алоҳида эътибор билан қарайди. Алломанинг "Ахлоқ ҳақида рисола", "Бурч ҳақида рисола", "Нафсни покиза тутиш ҳақида", "Тиб қонунлари", "Соломон ва Ибсол", "Ҳикмат булоқлари" асарларида кишилар амалий фаолиятида намоён бўладиган яхши ва ёмон хулқларнинг мазмун-моҳияти ва уларнинг пайдо бўлиш сабаблари ҳақида кенг маълумот берилган.

"Дунёда мавжуд жами борлиқ, – деб ёзган эди Ибн Сино "Рисолаи ишқ" асарида, – ўз табиатига кўра камолот сари интилади. Камолот сари интилиш эса ўз моҳият – эътиборла яхшиликдир". Ибн Синонинг одоб-ахлоқ ва инсонпарварлик ҳақидаги таълимоти катта илмий-амалий, тарбиявий аҳамиятга эга. Бу таълимот, инсон олами ривожланишининг тожи бўлиб, у "буюк шараф ва ҳурматга лойиқдир", деган фикрга асосланади. Унинг тушунтиришича, инсон оламдаги мавжудотлар ичида энг буюк зотдир, фаришталардан ҳам софрок ва покроқдир. Шунинг учун ҳам аллома ҳар бир кимсадан инсон номига лойиқ бўлишни талаб қилади.

XIII асрда яшаган буюк сўфий шоир, файласуф сифатида шуҳрат қозонган Жалолиддин Румийнинг ижоди ва дунёқарашида ҳам баркамол шахс тарбияси масаласи яққол кўзга ташланади. Унинг асарлари, қарашларида инсонни комиллик даражасига кўтарган ботиний, маънавий ишқ тараннум этилади.

Жалолиддин Румийнинг фикрича, инсон фаришта ва ҳайвон ўртасидаги вужуд бўлса-да, юксакликка мойил. У ўқиш, ўрганиш, ўсиш, улғайишдан чарчамайди, ўзлигидан кечиб комиллик сари интилаверади. Румий асарларида инсон қай бир мақсадни олдига қўймасин, унда улуғворликка эришиши, шунингдек, илми-ю амали бир-бирига уйғун бўлиши кераклигини таъкидлайди.

Комил инсонни тарбиялаб, вояга етказиш масаласи билан XIII асрнинг машҳур мутасаввифи Азизиддин Муҳаммад Насафий ҳам шуғулланади. У ўзининг "Зубдатул-ҳақойиқ" ("Хақиқатлар қаймоғи"), "Комил инсон" номли асарларида инсон камолоти масаласига назарий-фалсафий жиҳатдан ёндашади. У кишиларнинг хулқ-одоби, юксак фазилатларни эгаллаши, илм-маърифатли бўлишни

комил инсоннинг муҳим белгиси деб эътироф этади: “Билгилки, комил инсон шундай инсонки, у шариат, тариқат ва ҳақиқат борасида етукдир ва агар буни тушунмасанг, бошқа ибора билан айтай: билгилки, комил инсон деб шундай инсонни айтамизки, унда тўрт нарса камолга етган бўлади, яъни яхши сўз, яхши амал, яхши хулқ ва маърифат. Унинг тили поку дили пок, иши ва ниятлари пок-дир” [4,6]. Комил инсон фақат ўзи комилликка эришиш билан чекланмай, бошқаларни ҳам шу йўлга бошлагани учун ҳам комилдир.

Илк ўрта асрларда яшаб ижод этган буюк донишмандларнинг комил инсонни тарбиялаш, мукаммал жамиятни шакллантириш тўғрисидаги қарашлари кейинги мутафаккирлар, хусусан, буюк аллома-лар ва шоирлар бўлмиш Абдураҳмон Жомий ҳамда Алишер Навоийларнинг дунёқарашига ҳам катта таъсир кўрсатди ва ахлоқий қарашларининг шаклланишида муҳим ғоявий манба бўлиб хизмат қилди.

Абдураҳмон Жомий ўзининг “Хирадномаи Искандарий” достонида Искандар тимсолини яратар экан, устози Арасту унга кўпроқ ахлоқий фазилатлар, касб-ҳунар ва адолат қоидаларини эгаллашга ёрдам қилганини, илм-фан сирларидан сабоқ берганини, Искандарнинг ёшлигиданоқ комилликка интилганини, шижоати туфайли олам сирларини тезда фаҳм этгани, билим ва касб-ҳунарни эгаллаб комил инсон бўлиб етишганини тасвирлайди.

Хазрат Алишер Навоий устози Жомийнинг комил инсон тарбияси ҳақидаги фикрларини янада ривожлантириб, асарларида комил инсон учун пойдевор бўлиб хизмат қиладиган одамийлик, инсонпарварликнинг турли жиҳатларига эътибор қаратади. Алишер Навоийнинг маънавият ва маърифат ҳақидаги таълимотининг умуминсоний аҳамиятга эга бўлган муҳим жиҳатларидан бири фарзандлар томонидан ота-оналарни ҳурмат қилишлари ҳақидаги ўгитларидир. У ота-она хизматини бажо келтириш, улардан бирини иккинчисидан ортиқ-кам билмаслик фарзандлар учун саодат келтиришини алоҳида таъкидлайди, шундай эътироф этади: “Тарбиянинг яна бири ота-онани ҳурмат қилиш; буни бажариш унинг учун мажбурийдир. Бу иккисига хизматни бирдек қил, хизматинг қанча ортиқ бўлса ҳам, кам деб бил. Отанг олдида бошингни фидо қилиб, онанг боши учун жисмингни садақа қилсанг арзийди! Икки дунёинг обод бўлишини истасанг, шу икки одамнинг розилигини ол!...Бирисин ой деб бил, иккинчисини қуёш” [5,55]. Мутафаккирнинг фикрича, инсон ўзгаларга яхшилик қилиши, хайрли ишлар, солиҳ амалларни бажариши, савоб ишлар билан машғул бўлиши, бошқача қилиб айтганда ўзи тарбияланган бўлиши керак.

Комил инсон ғояси ўрта асрларда нафақат таълим-тарбияда, кишиларни камолот сари етаклашда, балки мамлакатлар тараққиёти ва халқлар маънавиятининг юксалишида муҳим аҳамиятга эга бўлди. Улуғ алломаларимизнинг комил инсон тарбиясига бағишланган боқий асарлари ҳозиргача баркамол авлодни тарбиялашда асосий манба бўлиб хизмат қилмоқда.

Адабиётлар

1. Каримов И.А. Истиқлол ва маънавият. – Т.: “Ўзбекистон”, 1994.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008.
3. Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Т: “Ёзувчи”, 2002.
4. Шайх Азизиддин Насафий. Комил инсон. Н. Комилов таржимаси. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1992. 14.
5. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. – Т., 1974.



Гулзода БАЙМУРАДОВА
кандидат педагогических наук, доцент Республиканского центра образования



Абдухалим МАХМУДОВ
доктор педагогических наук, старший преподаватель регионального центра повышения квалификаций работников народного образования при ТашГПУ



Владимир ФЕФЕЛОВ
кандидат технических наук, доцент Ташкентского государственного технического университета им. Ислама Каримова

РЕЙТИНГ КАК ЭФФЕКТИВНЫЙ МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Мақолада ўқитувчи фаолияти (иш) турларини ўзида акс эттирган касбий компетентликни белгиловчи норматив рейтинг, унинг таркиби ва струкутураси тақдим этилади. Ўқитувчи касбий компетентлигини узлуксиз ривожлантирувчи ва уни фаоллаштиришга йўналтирилган рейтингнинг психологик-педагогик механизмлари аниқлаб берилган.

Таянч тушунчалар: *норматив рейтинг, иш турлари, профессионал компетентлик, рағбатлантириш, фаоллаштириш.*

В статье предлагается нормативный рейтинг, его структура и содержание, которые отражают многообразие видов работ профессиональной компетентности учителя. Выявлены психолого-педагогические механизмы рейтинга, нацеленные на активизацию и непрерывное развитие профессиональной компетентности учителя.

Опорные понятия: *нормативный рейтинг, виды работ, профессиональная компетентность, стимулирование, активизация.*

In article is suggested a normative rating, its structure and content, which reflect the variety of types of work of teacher's professional competence. Psycho-pedagogical rating mechanisms are revealed onaimed activation and continuous development of the teacher's professional competence.

Supporting concepts: *normative rating, types of work, professional competence, stimulation, revitalization.*

Одним из основных направлений повышения качества образования является непрерывное развитие профессиональной компетентности учителя.

В этой связи актуальной социальной задачей является создание психолого-педагогических механизмов для активизации и непрерывного стимулирования мотивов и потребностей у каждого учителя повышать свою профессиональную компетентность. Существующие механизмы решения этой задачи являются малоэффективными, так как в них недостаточно разработаны качественные и количественные критерии оценки профессиональной деятельности учителя. Эффективным механизмом, способствующему непрерывному стимулированию учителя к повышению, углублению знаний и опыта профессиональной компетентности является рейтинговая система. Структура такой системы состоит из следующих взаимосвязанных и взаимодействующих частей (рис.1):

- блок «виды работ учителя» включает совокупность всех работ, отражающих профессиональную компетентность учителя;
- блок «виды деятельности» включает учебный, методический, креативный, воспитательный и организационный интегрированные компоненты;
- блок «рейтинговые документы» включает рейтинговую книжку, шкалу, методику расчета, бланк самоконтроля и др.
- блок «Инструкции» включает указания по применению рейтинга.

Методологической основой разработки такого рейтинга является системный анализ профессиональной деятельности учителя [1]. На основе системного анализа выявлены следующие взаимосвязанные и взаимодействующие компоненты профессиональной деятельности учителя: учебный, креативный, методический, дидактический, психологический, воспитательный, организационный и компонент «внеурочные занятия по предмету».




Рис.1. Структура рейтинга учителя

Следующим шагом системного анализа было выявление видов работ для каждого компонента профессиональной деятельности учителя и группировка их в следующие блоки: учебный, методический, креативный, воспитательный и организационный. Выявленное многообразие видов работ отражает профессиональную компетентность учителя. Для каждого вида работ (с учетом сложности, трудоемкости этих работ и временных нормативов педагогического труда) установлены соответствующие баллы, а также ограничения, отражающие специфику работы и предупреждающие возможность превалирования одного компонента профессиональной деятельности учителя над другими. В таблице 1 отражены многообразие видов работ, установленные нормативные баллы за эти работы и даны примечания, отражающие специфику выполнения отдельных видов работ.

Таблица 1.

Содержание блоков профессиональной компетентности учителя

№	Виды работ учителя	Баллы	Примечания
	1. Учебный блок		
1	Проведение одного урока	1,0	
2	Проведение «открытого» урока	5,0	*но не более 10 баллов*
3	Проведение контрольных занятий	2,0	*но не более 10 баллов*
4	Проверка самостоятельных работ	0,5	*за один реферат, конспект и т.д.*
5	Подготовка индивидуального домашнего задания	0,2	*но не более 20 баллов*
6	Проверка тетради	0,1	
7	Анализ учебных достижений учащихся по предмету в конце года	3,0	*для одного класса*
8	Выполнение кружковой работы	30,0	*но не более 60 баллов*
9	Проведение предметной олимпиады	5,0	
10	Проведение дополнительных занятий по предмету	10,0	*но не более 50 баллов*
11	Подготовка учеников к предметным олимпиадам:		

	- районные; - областные; - республиканские; - международные.	5,0 10,0 20,0 40,0	
	III. Методический блок		
1	Подготовка плана проведения уроков	0,1	
2	Совершенствование методики проведения урока	2,0	*но не более 10 баллов*
3	Подготовка заданий для самостоятельных работ	0,5	*но не более 10 баллов*
4	Подготовка заданий для контрольных занятий	0,2	*но не более 50 баллов*
5	Подготовка плана проведения «открытого» урока	2,0	*но не более 6 баллов*
6	Опубликование статьи в газете	10,0	*но не более 20 баллов*
7	Разработка методических рекомендаций	5,0	*но не более 10 баллов*
8	Подготовка дидактических материалов к урокам (схемы, макеты, модели и др.).	0,2	*но не более 20 баллов*
9	Разработка сценария «открытого» урока	4,0	*но не более 12 баллов*
10	Подбор авторских материалов для активного проведения урока	0,2	*но не более 20 баллов*
11	Взаимопосещение уроков	2,0	*но не более 10 баллов*
12	Выполнение функций наставника	5,0	*но не более 10 баллов*
13	Прохождение курсов повышения квалификации	50,0	
14	Оснащение кабинетов новыми дидактическими материалами	15,0	*но не более 30 баллов*
15	Дидактические указания для самостоятельных занятий	5,0	*но не более 20 баллов*
	III. Креативный блок		
1	Инновационная методика проведения урока	2,0	*но не более 10 баллов*
2	Подготовка инновационного творческого задания	0,5	*но не менее 25 заданий*
3	Разработка новых тестовых заданий	15,0	*1 комплект (25 заданий)*
4	Разработка творческой задачи или упражнения	1,0	*за одну задачу (упражнение)*
5	Разработка творческих иллюстративных материалов	0,5	*для одного урока, но не более 10 баллов*
6	Разработка тематики творческих рефератов	0,1	*за одну тему*
7	Публикация научных статей - в республиканских изданиях; - в международных изданиях	 20 60	 *но не более 60 баллов* *но не более 120 баллов*
8	Участие с докладами на конференциях: - республиканской; - международной	 10,0 20,0	 *но не более 30 баллов* *но не более 60 баллов*
9	Издание монографии, получение патента	100,0	
10	Рецензирование научно-методической работы	5,0	*но не более 15 баллов*
11	Подготовка и издание учебно-методического пособия	40,0	*объем не менее 2 п.л.*
12	Подготовка и издание сборника упражнений и задач	50,0	*объем не менее 2 п.л.*
13	Разработка и внедрение информационных обучающих программ и мультимедийных средств(МС)	20,0	*одна программа или один комплект МС*
14	Участие в выполнении гранта	20,0	*но не более 40 баллов*
15	Подготовка и защита диссертации: - доктора философии (PhD); - доктора наук (DSc)	 100,0 200,0	
	IV. Воспитательный блок		
1	Классное руководство	20,0	
2	Проведение воспитательного часа	0,5	*согласно расписанию*
3	Подготовка и проведение родительского собрания	2,0	*но не более 10 баллов*
4	Сценарий проведения экскурсии	1,0	*но не более 8 баллов*

5	Сценарий проведения праздничных мероприятий	2,0	*но не более 6 баллов*
6	Сценарий проведения встреч с интересными людьми	1,0	*но не более 4 баллов*
7	Разработка плана воспитательной работы на год	5,0	
8	Участие в спортивных мероприятиях	2,0	*но не более 6 баллов*
9	Проведение домашних бесед с учениками и родителями	1,0	*но не более 5 баллов*
10	Подготовка и опубликование работы психологического характера	10,0	*но не более 20 баллов*
11	Индивидуальное психологическое консультирование	1,0	*но не более 10 баллов*
12	Проведение занятия с учителями по педагогической психологии	2,0	*но не более 20 баллов*
13	Проведение занятий с родителями	2,0	*но не более 10 баллов*
14	Психологический тренинг	2,0	*но не более 10 баллов*
	V. Организационный блок		
1	Организация проведения экскурсии	4,0	*но не более 12 баллов*
2	Организация проведения праздничных мероприятий	4,0	*но не более 12 баллов*
3	Организация проведения встреч с интересными людьми	5,0	*но не более 4 баллов*
4	Участие в организации избирательных компаний	5,0	
5	Участие в проведении хашара	3,0	
6	Проведение дежурств в школе	5,0	*одно дежурство*
7	Выполнение общественных поручений	3,0	*но не более 9 баллов*
8	Организация спортивных мероприятий	8,0	*но не более 16 баллов*

Перечисленные виды работ интегрированы следующим образом. В **учебный** блок вошли виды учебных работ профессиональной деятельности, которые являются обязательными к выполнению, а также внеурочные занятия по предмету (по выбору учителя). **Методический** блок охватывает виды методических и дидактических работ, которые планируются по усмотрению учителя. **Креативный** блок включает в себя виды работ творческо-исследовательского характера, которые планируются учителем в зависимости от его творческого потенциала.**Воспитательный** блок включает виды работ духовно-мировоззренческого, психологического и морально- нравственного характера. Учитель планирует эти виды работ в зависимости от его психолого-педагогического потенциала. **Организационный** блок включает в себя виды работ коммуникативного и общественного характера и планируются учителем в зависимости от уровня его организаторских способностей.

Детальный анализ видов работ учителя позволил сформулировать основные задачи рейтинговой системы, направленные на эффективное достижение её психолого-педагогической цели [2].Такими задачами являются:

- установление объективной и надежной оценки уровня профессиональной компетентности учителя за предыдущий учебный год;
- активизация учебно-творческой деятельности учителя;
- стимулирование развития профессионально-значимых качеств личности учителя (принципиальность, волевые качества, толерантность, транспарентность, эмпатия и т.д.);
- стимулирование непрерывного развития креативных и профессиональных способностей учителя;
- формирование повышенных интересов и потребностей в непрерывном приобретении современных профессиональных знаний;
- активизация форм и методов организационно-воспитательной работы с учащимися и родителями.

На основе системного моделирования деятельности учителя в многообразных практических ситуациях выявлены психолого-педагогического механизмы, через которые находятся эффективные решения выше сформулированных задач [3].

Механизм **повышения объективности и надежности** оценки уровня существующей профессиональной компетентности учителя реализуется через: введение нормативных баллов за все виды работ, выполненных учителем в течение года; рейтинговую шкалу и самооценку результатов путем заполнения бланка самоконтроля. Этот механизм обладает свойствами транспарентности (открыто-

сти), сопоставимости и сравнимости результатов работы учителя за тот или иной промежуток времени.

Механизм **активизации учебно-творческой деятельности учителя** реализуется через: самоанализ результатов работы за определенный промежуток времени; планирование к выполнению видов творческих работ из креативного компонента рейтинга и расширение своего профессионального творческого кругозора. Этот механизм побуждает учителя непрерывно работать над собой с целью повышения своего профессионального творческого потенциала.

Механизм **стимулирования развития профессионально-значимых качеств личности учителя** реализуется через: выбор рациональных форм организации своего труда; активные профессионально-ориентированные связи и расширение своего социально-психологического кругозора. Этот механизм способствует непрерывному совершенствованию личностных качеств учителя.

Механизм **стимулирования непрерывного развития креативных и профессиональных способностей учителя** состоит в том, что: приоритетными к выполнению являются работы креативного и исследовательского характера; повышается мотивация к участию в научных семинарах, конференциях и актуализируется стремление к опубликованию авторских научно-методических материалов. Этот механизм способствует повышению научно-дискуссионной и публикационной активности учителя.

Механизм **формирования повышенных интересов и потребностей в непрерывном приобретении современных профессиональных знаний** реализуется через: постоянное изучение новой профессиональной литературы и периодических журналов; ознакомление с передовым зарубежным и отечественным профессиональным опытом; активизацию деятельности при прохождении курсов повышения квалификации и стажировок. Этот механизм способствует формированию критического мышления и системного подхода к решению многообразных профессиональных задач.

Механизм **активизации форм и методов организационно-воспитательной работы с учащимися и родителями** реализуется через: выбор и планирование к выполнению эффективных методов работы с учениками и родителями; анализ изучения индивидуальных особенностей учеников и поиск активных форм привлечения учащихся и родителей к общественно-воспитательным мероприятиям. Этот механизм способствует интенсивному развитию личностных качеств учеников и профилактики их негативных поступков.

Выше рассмотренные психолого-педагогические механизмы интегрированы в структуру рейтинга через взаимосвязь и взаимодействие с системой нормативных баллов, рейтинговой шкалой и методикой практического применения рейтинга.

Для объективной и надежной оценки уровня профессиональной компетентности учителя разработана рейтинговая шкала, состоящая из 9 уровней (рейтингов), для каждого из которых установлен диапазон баллов (таблица 2.).

Таблица 2.

Рейтинговая шкала уровня профессиональной компетентности учителя за учебный год

Баллы	**Уровни компетентности**	**Рейтинг**
более 1850	очень высокий	9
1750 – 1849	высокий	8
1650 – 1749	достаточно высокий	7
1550 – 1649	не очень высокий	6
1450 - 1549	средний (нормативный)	5
1350 – 1449	достаточно средний	4
1250 – 1349	ниже, чем средний	3
1150 – 1249	низкий	2
менее 1150	очень низкий	1

Годовой нормативный (средний) уровень профессиональной компетентности учителя установлен на основе принятой недельной нагрузки (36 часов). Достаточная дифференцирующая способность предлагаемой шкалы обеспечивается за счет разности в 1 - 100 баллов между соседними рейтингами.

Методика практического применения предлагаемого рейтинга состоит в последовательном выполнении следующих действий:

- тиражирование рейтинговых материалов;
- ознакомление педагогического коллектива с задачами и содержанием рейтинговой системы;
- рассмотрение порядка подсчета рейтинговых баллов за учебный год;
- рассмотрение принципов выбора видов работ для индивидуального плана учителя;
- проведение индивидуальных консультаций (при необходимости).

Выводы:

1. Для получения объективной и надежной оценки профессиональной компетентности учителя эффективным средством является нормативный рейтинг.
2. На основе системного анализ профессиональной деятельности учителя выявлены многообразие и сложность работ учебного, методического, креативного, воспитательного и организационного характера.
3. В предлагаемом рейтинге заложены психолого-педагогические механизмы, нацеленные на стимулирование непрерывного развития и саморазвития профессиональной компетентности учителя.
4. Достаточная дифференцирующая способность предлагаемой рейтинговой шкалы позволяет получить объективную оценку достигнутого уровня профессиональной компетентности учителя.
5. Практическое применение рейтинга ориентирует учителя на непрерывную работу над собой в направлении повышения своей профессиональной компетентности.

Литература

1. Джураев Р.Х. и др. Формирование культурологической среды и использование методов проектов для саморазвития коллектива школы. – Т.: “Фан ва технология”, 2017. – 248 с.
2. Полищук О.И. Использование рейтинговых систем оценивания в учебном процессе // Высшее образование сегодня, 2008. – №3. – С.91-93.
3. Талызина Н.Ф. Педагогическая психология. – М.: Академия, 2003. – 288 с.



Татьяна КАТРИЧЕВА
специалист по учебно-методической работе управления науки и инновации Челябинского государственного института культуры, Россия

ИНТЕГРАЦИЯ В ПРОЦЕССЕ ПОЗНАНИЯ КАК ОБЩЕНАУЧНОЕ ПОНЯТИЕ

Мақолада интеграция тушунчасининг пайдо бўлишига турли ёндашувлар, интеграциянинг илмий билим сифатида умумилмий тушунчавий аппаратни шакллантириш бўйича аниқланиши ифодаси кўриб чиқилади. Бугунги кунгача педагогик жараёнда интеграция тушунчаси динамик ривожланганлиги, унинг турли шакл ва мазмуни қайд этилади.

Таянч тушунчалар: *интеграция, интегративлик, илмий билим, таълим.*

В статье рассматриваются различные подходы к возникновению понятия интеграции, определение интеграции как научного знания, выраженного при формировании общенаучного понятийного аппарата. Подчеркивается, что с момента первого упоминания до сегодняшнего дня понятие интеграции в педагогическом процессе динамично развивалось, принимая различные формы и содержание.

Опорные понятия: *интеграция, интегративность, научное знание, образование.*

In article is considered the various approaches to the emergence of the integration concept, the definition of integration as scientific knowledge, expressed the formation of a general scientific conceptual apparatus.

It is emphasized thatup to dateintegration concept of pedagogical process developeddynamically, taking different forms and content.

Supporting concepts: *integration, integrativity, scientific knowledge, education.*

Интеграция возникла закономерно как противоположность дифференциации. И в философии их отношения представляют собой неразрывное единство диалектики. Будучи противоположностями, они одновременно являются средством содержательного наполнения друг друга.

Философия в некотором смысле сама является примером интеграции, т.к. поле её деятельности – многообразие всего сущего и общественно-исторический опыт человечества, и её предметом являются общие законы развития природы, общества, мышления. Изучая мир в целом, исторически она складывалась как особая форма общественного сознания и познания мира.

Путь развития философии и накопленные ею знания привели к тому, что ещё античный философ Аристотель предложил некоторую научную дифференциацию, в результате которой единая наука философия стала подразделяться на теоретическую, практическую и творческую. Последующие модернизации единого знания (Бэкон, Дидро, Конт, Сен-Симон) привели к фундаментальной классификации Гегеля. «Философию природы» он подразделяет на физику, органическую физику и механику. «Философия духа», имеющая свои подразделения, включает в себя искусство, религию, право, мораль, психологию, антропологию и др.

Философское знание, представляющее собой целостное и теоретически обоснованное мировоззрение, является синтезом всех человеческих знаний.

Будучи единым по предмету (предельно общее знание о мироустройстве), современное философское знание структурировано на отдельные науки – логика, этика, эстетика.

История русской философии – это поиск целостности и единства всех сторон жизни (В.С. Соловьёв, Е.Н. Трубецкой, П.А. Флоренский, С.Л. Франк, И.А. Ильин, Б.П. Вышеславцев, Н.А. Бердяев и др.).

На рубеже 19-20х веков отечественная религиозная философия представляла собой интегративное единство научного, философского и религиозного, богословского осмысления духовно-нравственного опыта русской культуры. Автором первой оригинальной системы всеединства, где отражены «нравственная философия» и теория морали совершенного добра, является В.С. Соловьёв.

Тяготение науки XX в. к интегративному знанию выразилось в появлении синергетики – научного направления, созданного профессором Штутгарского университета Г. Хакеном в 1969 г. Синергетика – новое направление в познании человеком мира и новое качество этого познания, которое достигается за счёт применения нелинейного мышления и синтеза достижений различных наук.

Синергетика занимается изучением систем как целого, поведение которого отражено в сложном взаимодействии и согласованном функционировании его многочисленных подсистем и компонентов. Таким образом, синергетика заявляет о себе, как о своеобразной метанауке, предметом которой является общий характер закономерностей частных наук. Российская школа синергетики представлена именами А.А. Самарского, Н.Н. Моисеева, М.В. Волькенштейна, Д.С. Чернавского.

«Космизм» – как целостное социокультурное явление, имеющее нравственно-экологическую ориентированность и понимающее человека как часть космического единства и призванного перестроить биосферу «в интересах свободно мыслящего человечества как единого целого» [1, с. 328] – так же проявление в науке тенденции к формированию интегративного знания.

К упомянутой тенденции следует отнести появление «пограничных наук» – экологии, бионики, генной инженерии и др. Например, кибернетика – наука об оптимальном управлении, возникла благодаря интегративности знания таких наук как математика, логика, физиология, семиотика, техническая электроника.

Поступательное движение научного сознания к целостности, интегративности выражено и в появлении новой науки тринитологии – науки о синтезе. Её основоположник Р.Г. Баранцев открыл универсальную формулу тринитарного синтеза: рацио-эмоцио-интуицио и впервые заговорил о становлении тринитарного мышления.

Интеграция научного знания выразилась в формировании общенаучного понятийного аппарата, как адаптационного механизма для владения знаниями различных научных областей (функция, система, модель и др.). Одновременно с этим и различные формы научного знания (идея, гипотеза, теория, закон) проявляют свой интеграционный характер и потенциал. Примером может служить идея эволюционного развития, на которой основывается современная биология, психология, геология, астрофизика и др., или клеточная теория, ставшая научной платформой для зоологии, ботаники, эмбриологии и др.

Следует разъяснить сложность самого процесса интеграции. Научная дисциплина «теория систем и системный анализ» – достижение методологии XX в. – рассматривает результатом этого процесса некую систему, обладающую интегративными качествами. Они присущи системе как целому, но не свойственны её элементам в отдельности. Однако, свойства системы зависят от свойств её элементов, хотя и не определяются ими полностью. Это значит, что результатом интеграции не может быть простое сложение и совокупность частей. И разделяя систему на части, нельзя познать свойства системы в целом.

Интегративность и целостность (наряду с коммуникативностью, структурированностью, делимостью, организацией, иерархичностью) являются общими свойствами любой системы. Иногда эти понятия употребляются как синонимы. Например, в диссертационном исследовании Борисовой И.Н. автор рассматривает два понимания интегративности в речевой деятельности: 1) в широком смысле – как структурная определённость; 2) в узком смысле – цельность, целостность [2].

Однако интегративность относится к свойству, формирующему систему, в то время как целостность – отражение совокупности взаимосвязанных элементов этой системы. Таким образом, целостность, как коренной атрибут системы, обеспечивается интегративностью, которая, в свою очередь, является внутренней детерминантой целостности. Интегративность и даёт возможность различать различные целостности между собой.

В научной литературе и справочных изданиях представлены следующие трактовки понятия интеграции:

- состояние связанности отдельных дифференцированных частей и функций системы, организма в целое, а также, процесс, ведущий к такому состоянию;
- процесс сближения и связи наук, происходящий наряду с процессами дифференциации [3];
- процесс, или действие, имеющий своим результатом целостность;
- объединение, соединение, восстановление единства [4];
- процесс, с помощью которого части соединяются в целое процесс, с помощью которого части соединяются в целое; на личностном уровне состояние организма, когда все составляющие элементы индивида, его черты или качества действуют согласованно как единое целое [5].

Такое толкование приближается к педагогической трактовке личностно ориентированного процесса развития и саморазвития, которое характеризует стратегию образования, где главный субъект – целостная личность обучаемого. Данный факт стоит в центре интеграционных процессов, призванных формировать у обучаемых целостную картину мира. Характерным признаком современной научной картины мира является её системно-интегративный характер.

Таким образом, мы можем сделать вывод, что интеграция как необходимое «объединительное» начало заявило о себе в образовании достаточно давно и утвердилось прочно.

Современная педагогика подтверждает, что интеграция – одно из самых актуальных движений современности. Поэтому, осмысление интеграции как краеугольной задачи в процессе модернизации образования должно определить пути развития научно-педагогического знания, его методологическую концептуализацию и методическую конкретизацию в проекции на современную образовательную практику.

Литература

1. Вернадский В.И. Химическое строение биосферы Земли и её окружения/ В.И. Вернадский – М.: Наука, 1987. – 340 с.

2. Борисова И.Н. Русский разговорный диалог: Проблема интегративности: дис. д-ра филол. наук : 10.02.01.[Электронный ресурс] / Борисова И.Н. – Екатеринбург, 2001. – 430 с. режим доступа: http://www.dslib.net/russkij-jazyk/russkij-razgovornyj-dialog problemaintegrativnosti. html).

3. Советский энциклопедический словарь./ Гл. ред. А.М. Прохоров. – 4-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1987. – 1600 с.

4. Философский энциклопедический словарь. Гл. редакция: Л. Ф. Ильичёв, П. Н. Федосеев, С. М. Ковалёв, В. Г. Панов. — М.: Сов. Энциклопедия, 1983. – 840 с.

5. Зеленский, В. Словарь аналитической психологии / Национальная психологическая энциклопедия [Электронный ресурс] режим доступа: http://www.vocabulary.ru /dictionary/ 11/ word /integ racija



Марина КРАСНОПОЛЬСКАЯ
кандидат педагогических наук, доцент
Челябинского государственного института
культуры, Россия

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ДОПОЛНИТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОСЛЕВУЗОВСКИЙ ПЕРИОД

Мақолада шахснинг интегратив хусусияти сифатида "қўшимча таълим ўқитувчисининг касбий компетентлиги" тушунчаси очиб берилган. Касбий-шахсий, фаолиятли, тизимли ёндашувлар тавсифи берилган, уларнинг ўзига хос хусусияти кўриб чиқилган.

Таянч тушунчалар: *касбий компетентлик, тизимли, фаолиятли, касбий-шахсий ёндашувлар.*

В статье раскрывается понятие «профессиональная компетентность преподавателя дополнительного образования», как интегративное свойство личности. Дана характеристика системного, деятельностного, профессионально-личностного подходов, рассмотрена их специфика.

Опорные понятия: *профессиональная компетентность, системный, деятельностный, профессионально-личностный подходы.*

In article is revealed the concept of "professional competence of teacher for additional education" as an integrative property of person. The characteristic of systemis given in an activity of professional-personal approaches consideringtheir specificity.

Supporting concepts*: professional competence, system, activity, professional-personal approaches.*

Профессиональную компетентность преподавателя дополнительного образования мы определяем как интегративное свойство личности, отражающее единство теоретической, практической и нравственно-психологической готовности педагога к профессиональной деятельности и включающее в себя совокупность психолого-педагогических, методических и специально-предметных знаний, общепедагогических и специальных профессионально-творческих, исполнительских умений и навыков, личностных характеристик, обеспечивающих эффективную педагогическую деятельность.

В качестве основных методологических подходов нами были избраны системный, деятельностный, профессионально-личностный подходы.

Системный подход в настоящее время занимает важное место в общественной практике и научном познании, в том числе и в педагогической теории. Общим содержанием в понятии «система» является идея взаимодействия множества частей, элементов и интеграция их в целое.

В.Г. Афанасьев, в связи с этим, выделяет ряд ведущих признаков, позволяющих описывать систему как целостное образование: наличие интегрированных качеств (системность); наличие составных элементов, компонентов, частей, из которых образуется система; наличие структуры; наличие функциональных характеристик системы в целом и отдельных ее компонентах; наличие коммуникативных свойств системы, проявляемых в двух формах: форме взаимодействия со средой и в форме взаимодействия данной системы с субсистемами и суперсистемами, т.е. с системами более низкого или высокого порядка по отношению к которым она выступает как часть (подсистема) или как целое; историчность, преемственность или связь прошлого, настоящего и будущего в системе и её компонентов [1]. Системный подход характеризуется несколькими аспектами: системно-компонентным (из чего состоит система); системно-структурным (внутреннее строение системы); системно-функциональным (как действует система) и системно-интегративным (как функционирует и развивается система).

Опора на данные положения позволила нам описать понятия «профессиональная компетентность преподавателя дополнительного образования», «развитие профессиональной компетентности преподавателя дополнительного образования» как целостные системные явления и выделить в их структуре ряд взаимосвязанных компонентов. При исследовании проблемы развития профессиональной компетентности преподавателя дополнительного образования в послевузовский период

целесообразно использовать системно-структурный и системно-функциональный аспекты системного подхода. Применительно к нашей работе системный подход позволяет проанализировать: профессиональную компетентность преподавателя дополнительного образования как систему, включающую несколько взаимосвязанных компонентов; этапы и стадии развития профессиональной компетентности преподавателя дополнительного образования в послевузовский период; характер взаимодействия субъектов развития профессиональной компетентности (администрации и преподавателей); условия, способствующие эффективному развитию данной системы.

Не менее важным является для нашей работы деятельностный подход. Отечественные исследователи осуществляют изучение проблемы человеческой деятельности в русле основных идей и положений диалектико-материалистической философии, согласно которой человеческая деятельность представляет собой специфически человеческую форму активного отношения к окружающему миру, содержание которой составляет целесообразное изменение и преобразование на основе освоения и развития наличных форм культуры. [5] Согласно положениям материалистической философии, всякая человеческая деятельность включает в себя цель, средство, процесс, результат, является осознанной. Понятие «деятельность» наиболее адекватно выражает активность человека, потому что «в отличие от животных, активность человека призвана обеспечить не только его биологическую, но и социальную жизнь» (Там же). Человеческая деятельность как социально сформировавшаяся и культурно организованная активность имеет в своей основе разделение действующего лица и предмета действия, т.е. субъекта и объекта. Следовательно, человеческая деятельность это активность субъекта, направленная на объекты или на других субъектов, при этом человек рассматривается как субъект деятельности.

В деятельности субъект реализует свои отношения с объектом. Так как соединяющий характер деятельности выражается в том, что объект деятельности, измененный и преобразованный, становится как бы частью субъекта, происходит его очеловечивание. Человек, выполняя деятельность, изменяя и преобразовывая мир, меняет себя. Деятельность, таким образом, связывает между собой объект и субъект, являясь формой отношения между ними.

В роли субъекта деятельности может выступать не только конкретный индивид, но и та или иная группа. Субъект является источником целенаправленной активности, носителем предметно-практической деятельности. Но вместе с тем познание, лежащее в основе взаимодействия субъекта и объекта, нельзя сводить к овладению предметно-практическими действиями. При соотнесении понятия субъекта с понятием «человек» процесс деятельности и ее результаты рассматриваются как некое изменение или самоизменение.

Для нашего исследования важным является то, что понятие «деятельность» не может быть рассмотрено в отрыве от понятия сознания, которое возникает в деятельности, а затем опосредует ее.

Принцип единства сознания и деятельности очень важен для обоснования теории профессионального развития. Поэтому и изучение самой деятельности должно протекать в тесной взаимосвязи с исследованием процессов возникновения и функционирования человеческого сознания. Н.В. Демин пишет: «Сознание, вообще психика, не только проявляются, но и формируются, деятельность обуславливает формирование сознания человека, его психические процессы и свойства, а эти последние осуществляют регуляцию деятельности, являются условиями ее адекватного выполнения [3]. Осознание, являясь высшей формой психики, присуще только человеку. Поэтому профессиональное развитие не только осуществляется в процессе деятельности, но и само формирует деятельность, являясь ее внутренним источником, ресурсом. Профессиональная деятельность тесным образом связана с активной мыслительной деятельностью как формой реализации личности в профессиональной деятельности. В отечественной науке процесс мышления понимается как ряд умственных действий или интеллектуальных операций: анализа и синтеза, отождествления и различения, абстрагирования и обобщения, и др. Завершающим этапом мыслительных операций является реализация умственного действия в практической профессиональной деятельности.

Итак, деятельностный подход при изучении проблемы развития профессиональной компетентности преподавателя дополнительного образования позволяет рассматривать профессиональную деятельность как основу, действенное средство и одно из решающих условий развития личности преподавателя. Важным при этом является осознание преподавателем себя как субъекта профессионально-педагогической деятельности, что обуславливает необходимость совершенствования таких аспектов деятельности как целеполагание, организация, регулирование, контроль, анализ и оценка результатов профессиональной деятельности.

В работах, посвященных проблеме профессионального развития педагога (А.А. Вербицкий, Н.В. Борисова, В.П. Кузовлев, К.М. Левитан, И.А. Хоменко и другие) активно разрабатывается профессионально-личностный подход, который предполагает ориентацию на личность как цель, объект, субъект, результат и главный критерий эффективности развития профессиональной компетентности педагога. При этом признается: уникальность личности, ее интеллектуальная и нравственная свобода; право на выбор профессии и индивидуальной траектории профессионального развития; взаимосвязь процессов развития личности и профессионального совершенствования; необходимость ориентации профессионального становления на развитие и саморазвитие задатков и способностей и актуализацию творческого потенциала личности.

Применительно к исследованию проблемы развития профессиональной компетентности преподавателя дополнительного образования данный подход означает, что данный процесс осуществляется на основе интеграции личностных характеристик педагога и его профессиональных знаний и умений. Это единство представляет собой качественно новое образование, целостность и внутренняя структура которого определяет цели развития профессиональной компетентности.

Итак, опора на совокупность системного, деятельностного, профессионально-личностного подходов при изучении развития профессиональной компетентности преподавателей дополнительного образования позволяет дать целостную и всестороннюю характеристику данного процесса.

Литература

1. Афанасьев В.Г. Общество: системность, познание и управление / В.Г. Афанасьев. – М.: Политиздат, 1982. – 432 с.

2. Блауберг Н.В., Юдин Э.Г. Становление и сущность системного подхода / Н.В. Блауберг, Э. Г. Юдин. – М.: Наука, 1976. – 270 с.

3. Демин М.В. Проблемы теории деятельности / М.В. Демин. – М.: МГУ, 1977. – 372 с.

4. Левитан К.М. Личность педагога: становление и развитие / К.М. Левитан. – Саратов: СГУ, 1990. – 270 с.

5. Философский словарь /под ред. И.Г. Фролова. – М.: Политиздат, 1996. – 589 с.



Nargiza BAXRIYEVA
Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

O`QITUVCHI VA O`QUVCHI O`RTASIDAGI MUOMALA MADANIYATI VA UNING QOIDALARI

Maqolada muomalaning o`zaro axborot almashish vazifasini amalga oshirish bilan o`qituvchi o`quv materiali mazmuni hamda ma'naviy qadriyatlarni o`quvchiga yetkazish jarayonini vujudga keltirishi haqida fikr keltirilgan. Bu esa o`quvchilarda ijobiy o`quv motivlarni va ongli izlanish ko`nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Tayanch tushunchalar: *ta`limdagi munosabatlarni insonparvarlashtirish, o`quvchi faoliyatini tashkil etish, rollarni almashtirish (o`qituvchi, o`quvchi), o`zaro xayrixohlik, o`z-o`zini tasdiqlash, kommunikativ hujum, boshqarish, muomala uslublari, avtoritar, demokratik, liberal.*

В статье приведены размышления об осуществлении процесса донесения ученику духовных ценностей и содержание учебного материала учителем, воплощая задачи обмена информации,что поможет формированию навыков позитивных учебных мотивов и сознательных исканий.

Опорные понятия: *гуманизация отношений в образовании, организация деятельности ученика, обмен ролей (учитель, ученик), взаимное сочувствие, самоподтверждение, коммуникативное наступление, управление, стили обращения, авторитар, демократический, либерал.*

The article contains reflections on the implementation of the process report to pupilabout the spiritual values and contents of teaching material by the teacher, embodying the tasks of information exchange, which helps to create the skills of positive learning motives and conscious searches.

Supporting concepts: *the humanization of relations in education, the organization of student activities, the exchange of roles (teacher, student), mutual sympathy, self-affirmation, communication offensive, and management, styles of treatment, authoritarian, democratic, liberal.*

Ta`lim tizimida **ikki asosiy subyekt – bu o`quvchi va o`qituvchidir.** Ularning darsda, sinfdan tashqari ishlar jarayonida va kundalik turmushdagi muomalasi o`quv-tarbiya jarayoni samaradorligining muhim sharti, o`quvchi shaxsini shakllantirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Hatto, ta'limning barcha jabhalarida yangi pedagogik texnologiya usullari, ta'limni liberallashtirish, ta'limda o`z–o`zini boshqarish g`oyalari keng joriy etilayotgan hozirgi davrda ham o`quv–tarbiya jarayoniga nisbatan avtoritar – buyruqbozlik yoki imperativ munosabatlarga oid dalillarga duch kelamiz.

Ba'zan, maktab rahbarlari orasida "Men bir o`zim butun o`quvchilar bilan kurash olib boryapman, aslida hamma birgalikda kurashishi kerak", – degan mulohazalarni eshitib qolamiz. To`g`ri, bu bilan maktab rahbari o`quv–tarbiya ishlarini, tartib–intizomni yaxshilashga harakat qilyapti. Lekin ko`zlagan maqsadga erishish uchun noto`g`ri yo`lni, ya'ni "o`quvchilarga qarshi kurash" yo`lini tanlayapti. Bu o`rinda o`z–o`zidan tanlangan yo`lga mos ta'sir ko`rsatish usullari – o`quvchilar va o`qituvchilar oldiga chiqarib uyaltirish, so`z berib ishontirish, ota–onalarini chaqirtirish kabilar amaliyotda qo`llaniladi. Natijada, ikki qarama–qarshi kurashuvchi tomon – o`qituvchilar va o`quvchilar armiyasi vujudga keladi. Binobarin, ular umumiy maqsadlar uchun emas, balki o`z mavqelarini himoya qilish uchun kurash olib boradilar. Oqibatda o`quvchilar o`qituvchilar va maktab talabini rad etadilar.

"Kadrlash tayyorlash Milliy dasturi"ni hayotga joriy etishning amalga oshirilayotgan paytda ta'lim muassasalarida, avvalo, barkamol avlodni shakllantirish uchun zarur shart–sharoit va muhitni vujudga keltirish talab etiladi. Barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishdek ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadni amalga oshirishda shunday yo`l tanlash kerakki, bunda o`quvchilar bilan kurash olib borish emas, har bir o`quvchida maktab hayotini anglash, o`zi va o`zgalar ishiga nisbatan javobgarlik hissini uyg`otish, balki o`zaro hamkorlik, hamfikrlik, hamdo`stlik yo`llarini qidirish va bunda o`zaro samarali muomalaga asoslanish lozim. Bularning hammasi o`qituvchiga, uning o`quvchilar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni tashkil eta olish ko`nikma–malakalariga bog`liq.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, o`qituvchilar o`quvchilar bilan aloqa o`rnatishni tashkil etishda o`zlarining yetakchi o`rin tutishlarini anglamaydilar. O`qituvchilarning 25 foizi o`quvchilar bilan muloqot jarayonida yuzaga kelayotgan qiyinchiliklarga o`quvchilarni, ularning tarbiyasizliklarini sabab qilib ko`rsatishadi. Ziddiyatli vaziyatlarning paydo bo`lishida o`zining ham anchagina hissasi borligini tan olishni istamaydilar.

Muomala – pedagogik faoliyatdagi muhim kasbiy qurol hisoblanadi. Ko`pgina pedagogik tadqiqotlarda muomala pedagog mehnat faoliyatining muhim elementi ekanligi asoslab berilgan.

Pedagogik muomala – bu o`qituvchining ijobiy psixologik iqlimni yaratishga qaratilgan, darsda va darsdan tashqari jarayonlarda o`quvchilar bilan olib boriladigan professional hamkorligi. Noto`g`ri qurilgan pedagogik muomala qo`rquv, ishonchsizlik; diqqat, xotira va o`qish faoliyatining pasayishi, nutq dinamikasining buzilishi kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Natijada o`quvchida o`qituvchiga va u o`qitadigan predmetga nisbatan qat'iy salbiy munosabatni paydo qiladi.

Shu singari ma'lum bir predmetdan (aslida o`qituvchidan) bezish hollari ba'zi o`quvchilarda bir necha yil davom etishi mumkin. O`ylab ko`ring darsdan zavqlanish o`rniga undan begonalashish. Mana shunday salbiy munosabatning til va adabiyot, tarix, matematika singari asosiy o`quv predmetlariga nisbatan paydo bo`lishi, ayniqsa, juda achinarli hol.

Aslida o`qituvchi va o`quvchi orasidagi muomala o`quvchiga zavq, o`quv-biluv faoliyatiga nisbatan chanqoqlikni paydo qilishi, o`quv tarbiya jarayonining ijtimoiy–psixologik mahsuldorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko`rsatish lozim.

Pedagogik muomala ijtimoiy psixik jarayon sifatida quyidagi vazifalarga yo`naltirilganligi bilan tavsiflanadi:

- shaxsni anglash;
- o`zaro o`rin almashish (o`quvchi - o`qituvchi);
- hamfikrlilik;
- o`z – o`zini anglash;
- o`zaro axborot almashish.

Muomalaning o`zaro axborot almashish vazifasi o`quv–tarbiya jarayoniga nisbatan ijobiy motivlarni yuzaga keltirib, o`quv muomalasi ustida birgalikda bosh qotirish imkoniyatini paydo qiladi.

Shaxs faoliyatining ijtimoiy xatti–harakat maydonini vujudga keltirish, ya'ni rollar orqali muomala o`rnatish, unda ijtimoiy xulq-atvorning u yoki bu ko`rinishini shakllantiradi. O`zaro ijtimoiy rollarni almashtirish shaxs(ning) turli qirrallarining namoyon bo`lishiga, shuningdek, boshqa kishining o`rniga o`zini qo`yib ko`rish orqali insonni inson tomonidan tushuntirish tuyg`ulari shakllantiriladi. O`qituvchilar bu vazifani o`quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etadilar, ya'ni o`quvchilarni darsning ayrim elementlarini mustaqil olib borishga jalb etadilar. Bu bilan har bir o`quvchi uchun ham tashkilotchi-boshqaruvchi, ham ijrochi – bajaruvchi o`rinda bo`lishga imkon yaratiladi.

Pedagogik muomala vazifasiga o`z–o`zini anglash ham kiradi. O`quvchining shaxsiy "men"ini o`zining shaxsiy ahamiyatliligini anglashga yordam berish, o`z shaxsi istiqboli va imkoniyatlarini xolisona baholay olishga o`rgatish o`qituvchining vazifasidir.

Pedagogik muomalaning o`zaro hamfikrlik vazifasini amalga oshirish boshqa kishi his–tuyg`ularini tushunish shart–sharoitini vujudga keltirib, boshqalar fikrini qabul qila olish qobiliyatlarini shakllantiradi. Bu esa, o`zaro mo'tadil munosabatni ta'minlaydi. O`zaro hamkorlikda ish olib borish uchun o`qituvchi bolani, uning ehtiyojlarini, tasavvurlarini tushunishi juda muhimdir. Ana shu vazifalarni puxta o`rganish yosh o`qituvchiga o`quvchilar bilan dars va darsdan tashqari paytda yaxlit jarayon sifatida o`zaro muomalani tashkil etishga yordam beradi. Darsni loyihalashtirish davomida faqat u yoki bu ma'lumotlarni o`zlashtirish haqidagina emas, balki o`quvchilarning o`zini namoyon etishi, o`z imkoniyatlarini anglashi uchun shart-sharoitlarni yaratish; o`zaro hamkorlik va ijodiy faoliyat usullarini topish haqida ham bosh qotirish kerak.

Pedagogik muomala ham amaliy faoliyat jarayoni sifatida quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi:

1. Pedagog tomonidan sinf bilan quriladigan muomalani modellashtirish (prognoz bosqichi).
2. Dastlabki o`zaro ta'sir daqiqalarida bevosita muomalani tashkil etish (kommunikativ hujum bosqichi).
3. Pedagogik jarayon mobaynida muomalani boshqarish.
4. Amalga oshirilgan muomala tizimini tahlil qilish va keyingi faoliyat uchun yana modellashtirish.

Ko`pincha, o`qituvchining o`quvchilar bilan muomalasi bosqichlar va o`qituvchi faoliyatining xarakteriga ko`ra ajratilmagan bo`ladi. Har bir bosqichda o`qituvchi nimalarga ahamiyat berishi lozimligi haqida to`xtalib o`tamiz.

Modellashtirish bosqichi o`qituvchidan auditoriyanining o`ziga xos xususiyatlarini, ya'ni o`quvchining o`quv-biluv faoliyati xususiyatlarini, yuz berishi mumkin bo`lgan qiyinchiliklar, ish sur'ati kabilarni bilishni talab etadi. Darsga tayyorlayotgan material bo`lg`usi o`zaro xatti–harakatlar vaziyatida xayolan tasavvur etilishi va faqat o`qituvchi emas, balki o`quvchi nuqtayi nazaridan ham o`ylangan bo`lishi kerak.

"Kommunikativ hujum" bosqichi nomidan ko`rib turibdiki, sinfni tezgina o`quv ishiga jalb etish texnikasi, o`zini namoyish etish va dinamik ta'sir ko`rsata olish usullarini bilish demakdir.

Muomalani boshqarish bosqichida o`quvchilarning tashabbusini qo`llab–quvvatlash, dialogik muloqotni tashkil etish, aniq yuzaga kelgan sharoitga ko`ra o`z fikrlarini to`g`rilab borish malakalari juda muhimdir. Va nihoyat, **muomalani tahlil qilish** maqsad, vosita va natijaning o`zaro hamohangligiga yo`nalgan bo`ladi.

Tabiiyki, o`qituvchi muomalani va yaxlit o`quv–tarbiya jarayonini boshqarishda tashabbuskor va yetakchi bo`lishi kerak. Buning uchun o`qituvchi o`z muomalasining boshlang`ich operativligiga e'tibor berishi kerak. Bularning hammasi muomalaning samaradorligiga xalaqit beradigan to`siqlarni yengishga yordam beradi. Bunday to`siqlar, ayniqsa, pedagogik faoliyatning boshlanishida tez-tez uchraydi. Masalan, sinfdan qo`rqish. Bu to`siqni psixologik jihatdan o`zini tayyorlash, diqqatni qurilajak muloqotning qiziqarliligiga qaratish, muomalaning "hissiy o`zagi"ni topish orqali bartaraf etish mumkin. Shunga o`xshash to`siqlarga yana jismoniy to`siq ham kiradi. Ya'ni bunda o`qituvchi o`zini o`quvchilardan ajratadi, stol, stul orqasida yoki burchakda turib, o`zini yashirishga harakat qiladi. Bundan qutilish yo`li bitta – o`ziga ishonch namoyon qilib ochiq pozitsiyada turib ishlash.

Ijtimoiy to`siq o`z pozitsiyasini "yuqoridan" turib, doimiy ravishda ta'kidlab turish ("Sizning oldingizda o`qituvchi turibdi") natijasida paydo bo`ladi. Ya'ni o`qituvchi o`z nutqini o`quvchilarning tushunish darajalariga moslashtira olmaydi.

Har qanday to`siqlarni yengishdan avval, o`qituvchi o`zida muomalaning to`g`ri ko`rinishlarini shakllantirishi kerak bo`ladi. Turli ko`rinishdagi individual muomala shakllari ichida ba'zi umumiy xususiyatga ega bo`lganlari ham ajratiladi. Shunday muomala shakllari majmuasidan bir necha muomala usullari ajratiladi.

O`qituvchi va o`quvchining o`zaro muomalasi jarayonida muomalaning ikki hissiy qutbi shakllanishi mumkin. O`qituvchining ijodiy his–tuyg`ulariga asoslangan o`zaro munosabatini tashkil eta olish qobiliyati haqiqiy tarbiyaviy samara berishi mumkin. Salbiy hissiy holat ham paydo bo`lishi mumkin, lekin o`zaro ta'sirning oxirgi maqsadi sifatida emas, balki ijodiy hissiy natijaga erishish uchun mumkin bo`lgan vaziyatli vosita sifatida paydo bo`ladi. (Masalan, o`zgalar oldida hurmatini yo`qotishdan qo`rqish).

Pedagogik takt o`qituvchida mahorat bilan birga tarbiyalanadi va egallanadi. U – o`qituvchining ma'naviy yetukligi, maxsus bilimi va bolalar bilan muomala qila olish ko`nikmalarini hosil qilish uchun o`z ustida tinimsiz ish olib borishi natijasidir. Eng avvalo, bu zamonaviy bolalarning yosh psixologiyasi va individual xususiyatlarni yaxshi bilish demakdir.

Odob–axloq asoslarini bilish, qilmishlarning axloqiy mohiyatini ko`ra olish qobiliyatiga ega bo`lish va albatta, bolalarga ta'sir o`tkaza olish vositalarini bilish, ham juda muhimdir. Bu bilimlar bora–bora o`qituvchiga quyidagi malaklarni:

- bolalarni sevish, o`z mehrini ko`rsata olish;
- bolalar xulq–atvorining ichki tomonlarini kuzatish va ko`ra olish;
- sharoitga qarab yo`l tutish;
- ta'sir o`tkazishning maqsadli usullarini tanlash bu o`rinda tarbiyaning aylanib o`tish yo`llarini bilish: ("O`zing bilasan, lekin men senga mana bunday yo`l tutishni maslahat berardim");
- bolalar bilan suhbatlasha olish (taktsiz o`qituvchi bolani passiv eshituvchiga aylantirib qo`yadi) kabilarni egallashi kerak.

To`g`ri muomala uslubini shakllantirishda sabr–toqatlilik, o`zini boshqara olish; adolatlilik, boshqalarning tajribasiga ijodiy yondashish, pedagogik texnikani rivojlantirish kabilar muhim ahamiyatga ega. Bu o`rinda o`qituvchi doimo o`quvchisidagi insonni hurmat qilishi va o`z qadr–qimmatini saqlashi kerak.

Shuni bilish kerakki, o`qituvchi va o`quvchi pozitsiyasining mos kelmasligidan paydo bo`ladigan ziddiyatlar pedagogik faoliyatda tez–tez uchrab turadi. Shuning uchun ham, ayniqsa, yosh o`qituvchilar ziddiyatli vaziyatlarda paydo bo`lgan murakkab holatdan (pedagogik maqsadga muvofiq) chiqish uchun tajribada sinab ko`rilgan xulq–atvor qoidalariga rioya qilishlari kerak.

1-qoida. Avvalo ziddiyatli holatni boshqarishga harakat qilish, ya'ni har ikkala tomonning hissiy keskinligini pasaytirishga intilish. Qanday qilib? Avvalo, o`zidan boshlash: ortiqcha jismoniy zo`riqishni, maqsadsiz xatti–harakatlarni yo`qotish. Biz bilamizki, mimika, gavda holati, qo`l harakatlari faqat ichki

kayfiyatni ifodalabgina qolmay, balki uni o`zgartirishga ham ta'sir ko`rsatadi. Demak, tashqi xotirjamlik va sabr-toqatni namoyon etish.

2-qoida. O`zini tutishi bilan sherigiga ta'sir ko`rsatish. Affekt holatini yo`qotish uchun kelishmovchilik ishtirokchisining yuziga jimgina qarab turish va shu yo`l bilan uning holatini o`rganib chiqish juda qo`l keladi.

3-qoida. Suhbatdoshining xulq–atvor motivlarini tushunishga harakat qilish. Vaziyatni fikran tahlil qila bilish orqali hissiy qo`zg`alish pasaytiriladi. Yaxshisi, bu qiyin ahvolni tushunayotganligini ifodalash, ("Men sening (Sizning) ahvoling(iz)ni tushunib turibman va h.k.") yoki o`zining munosabatini ifodalash ("…meni tashvishlantiradi") kerak. Demak, xatti-harakatni darhol baholashga o`tmang, avvalo, yuz bergan holatga o`z munosabatingizni bildiring.

4-qoida. Maqsadni uyg`unlashtirish. O`zini o`quvchi bilan bog`lab turgan narsani mumkin qadar oldinroq anglab yetish. Birgalikdagi xatti–harakatlarning umumiy nuqtasini ko`rib, "biz" degan pozitsiyaga o`tish.

5-qoida. To`g`ri qaror qabul qilish uchun o`z pozitsiyasini ishonch bilan mustahkamlash. Nihoyat, ziddiyatni hal qila turib, xayolan unga qaytish va uni keltirib chiqargan sabablar haqida o`ylash, yana shunday ziddiyatlarning kelib chiqishini oldini olish. Zero, ziddiyatlarni hal etishdan ko`ra undan qochish afzalroqdir.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi va o'quvchi orasida ijobiy muloqotni yuzaga keltirishi uchun har bir pedagog, psixolog guruh jamoasi bilan suhbatlar, o'yinlar va treninglar tashkil qilishi va o'tkazishi lozim. O'ylaymizki, ushbu qoidalarga amal qilish asosida ota-onalar, maktab psixologlari, ta'lim muassasa o'qituvchi va murabbiylari pedagogik-psixologik ishlarni tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent, 1997.
2. Azarov Y.I. Bolalarni sevish san'ati. – T.: "O'qituvchi", 2002.
3. Abdullayeva Sh. A. va boshq. Pedagogika. – Toshkent, "Fan", 2004.
4. Ochilov M. , Ochilova N. O'qituvchi odobi. – T.: "O'qituvchi", 1997.
5. Карнеги Д. Как завоевать друзей и оказывать на них влияние. – М.: Прогресс, 2007.



Nasiba QODIROVA
Buxoro shahar 17-umumiy
o`rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

MAKTABDA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI MUNOSABATI

Maqolada maktabda o'quv mashg'ulotlaridan tashqari o'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar xususida fikr yuritilgan. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar maktab ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to`g'ri tahkil etish shakllaridan biridir.

Tayanch tushunchalar: *maktab, o`qituvchi, o`quvchi, sinfdan tashqari ishlar, fan to`garaklari, sport to`garagi, maktabdan tashqari ishlar, bilim, ko`nikma.*

В статье размышляется о внеклассных занятиях проводимых с учениками кроме учебных занятий в школе. Внеклассное занятие является одной из форм правильной организации свободного времени учеников как составная часть образовательного и воспитательного процесса школ.

Опорные понятия: *школа, учитель, ученик, внеклассные работы, предметные кружки, спортивный кружок, внешкольные работы, знание, навык.*

In article is reflected on the extra-curricular activities conducted with pupils except the classes. Extra-curricular activity is one of the mostimportant forms,howto organize of spare time for students as an integral part of the educational process of schools.

Supporting concepts*: school, teacher, student, extracurricular activities, subject circles, sports circle, extracurricular activities, knowledge, skill.*

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quv mashg'ulotlariga qo'shimcha ravishda o'quvchilarni har tomonlama kamol toptirish va uni hayotga tayyorlash, ularning ochilmagan is'tedod qirralarini kashf etish imkonini beradi. Bu mashg'ulotlar bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg'ulotlarni tanlab olishadi va ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

a) fan to'garaklari;
b) mohir qo'llar to'garaklari;
d) duradgorlik to'garaklari;
e) sport to'garagi;
f) badiiy havaskorlik to'garagi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari uyushtiradi. Sinf rahbari qiziqishlari, intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi.

Sinfdan tashqari tashkil qilingan mashg'ulotlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini to'g'ri shakllantirishiga, axloqiy kamol toptirishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarning amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

– darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;

– o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;

– sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;

– umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;

– o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy. Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda sinf rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o'quvchilar toifasida majburiy ijro etish holati paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular ko'pincha sinf rahbarining yordamini so'rab murojaat qiladilar, kuchli o'quvchilarning qo'llab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qo'llab-quvvvatlash bo'lmasa, ishni mustaqil ravishda davom ettira olmaydilar. Bunday o'quvchilarda tashqaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror bo'lib qolsa, u o'quvchining faqat aqli emas, shu bilan birga ma'naviy rivojlanishiga ham to'sqinlik qilishi mumkin.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni bir-biriga nisbatan hurmati, axloqiy sifatlari jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid qilish asnosida yoki do'stlari orasida muloqot madaniyati, munosabati o'rgangan tarbiyasi muomalasiga ta'sir qilish mumkin. O'qituvchi o'quvchilar orasida muomala-madaniyatni shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini etiborini o'rganishi kerak.

O'quvchi o'quv mashg'ulotlarida maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O'qituvchi talablariga:

- darslarga to'liq qatnashish;
- o'quv qurollari bilan ta'minlanganligi;
- o'qituvchini diqqat bilan eshitish;
- topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish;
- tashkiliy ishlarda faol qatnashish;
- sinf intizomiga rioya qilish;
- tozalikka rioya qilish.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham o'quvchilar xuddi shu talablarga rioya qilishi lozim. Shu bilan birga, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga nisbatan o'ta qattiqqo'llik, ularni qilishni istamagan ishiga majburlash mustaqil tayyorgarlik samaradorligiga, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan holatlar hisoblanadi. O'quvchilari to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan o'qituvchi, sinf rahbari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalarini puxta o'ylab tanlaydi, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladi.

Maktab o'quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilish kerakki, u o'quvchilarni charchatib qo'ymasin, doim bir xil tusda bo'lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g'ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo'lmasin.

Ijodkor rahbar hamda ilg'or o'qituvchilar o'z faoliyatlar ijarayonida sindan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:

-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish;

-ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish e'tiqodga aylantirishdan iborat ekanligi;

-tarbiya jarayoni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lab bola qalbiga va ongiga ta'sir ko'rsatish;

-mashg'ulotlarni o'quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyaning ta'lim bilan uzviyligini ta'minlash;

-tarbiyaviy jarayonda o'quvchilarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o'stirish;

-bola shaxsiga hurmat va talabchanlik;

-bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish;

-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tomonlari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, uni qay darajada olib borish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda o'qituvchining eng muhim vazifasi o'quvchilarni o'quv topshiriqlarini hal etishga o'rgatishdan, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlashdan, o'z xatti-harakatlariga rahbarlikni faoliyatini nazorat qilishdan, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim hayotiy vaziyatlarga o'tkazishdan kelib chiqishdan lozim ekanligini nazarda tutish lozim. Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi to'rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir.

Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari mashg'ulotlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur. O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo'llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o'quvchilarga xomaki yozuv bilan ishlash huquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatila-

di, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o‘quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo‘ladi, lekin u o‘quvchining fikrlashi qanday borganligini ko‘rsatadi.

Sinfdan tashqari mashg’ulotlarda o‘quvchilarni ayrim ko‘nikmalarga o‘rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O‘z-o‘zini tekshirish, o‘zaro tekshirish usullariga o‘rgatish o‘qituvchining o‘quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘zlari harakatni taklif etadilar va shu bilan pedagogga muayyan ma'lumot beradilar. Sinf rahbari ishida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir.

Sinfdan tashqari tashkil qilingan mashg’ulotlar o‘quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to‘ldiradi. Ularning dunyoqarashi to‘g‘ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashadi. Nazariy bilimlarning amaliyot ishlab chiqarish bilan bog‘lanishga zamin yaratadi.

O‘quvchilar sinfdan tashqari mashg’ulotlarda qatnashib, turli sinf o’quvchilari bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham sinfdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo‘lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma'naviyat”, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. – T., 2016.
3. Xasanboyeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish pedagogikasi. – Toshkent, 1996.
4. http://www.ziyonet.uz



Feruza RAMAZONOVA
Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrasi o`qituvchisi

YOSHLARNI TARBIYALASHDA MUZEYLARNING O`RNI

Maqolada muzeyning ijtimoiy-siyosiy hayotimizda bajaradigan vazifalaridan biri ta`lim va tarbiya manbasi sifatida qayd qilinadi. Muzey zallarida o`tkazilayotgan ekskursiyalar, ma`ruzalar, ilmiy maslahatlar xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga ta`lim-tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo`nalishlar orasida tilimizga yangi kirib kelgan so`z – "muzey pedagogikasi[i]" alohida ahamiyat ega bo`lib, bu sohada ko`plab namunali ishlar amalga oshirilmoqda.

Tayanch tushunchalar: *muzey, ma'naviy-ma'rifiy manbalar, tarixiy meros, xalq ma'naviyati, qo`l-yozma, fotoreportaj, muzey pedagogikasi, sayohat darsi.*

В статье, музеи рассматриваются как источник воспитания и образования, которые являются одним из задач выполняемых в нашей социально-политической жизни. Экскурсии, лекции, научные консультации проводимые в залах музея,имеют важное значение в воспитании молодёжи. В этом направлении входящий в наш лексикон новое слово "музейная педагогика" имеет особое значение, выполняются образцовые работы в данной области.

Опорные понятия: *музей, духовно-просветительские источники, историческое наследие, духовность народа, рукопись, фоторепортаж, музейная педагогика, экскурсионный урок.*

In article, the museums are viewed as a source of upbringing and education, which is one of the tasks performed in our social and political life. Excursions, lectures, scientific consultations held in the halls of the museum, are important in education of young people. In this direction, the new word "museum pedagogics", which has special significance part of our vocabulary, is carried out a model work in this field.

Supporting concepts*: museum, spiritual and educational sources, historical heritage, people's spirituality, manuscript, photo report, museum pedagogy, excursion lesson.*

Muzey o`tmish va bugunni bog'lovchi ko`prik, beqiyos ma`naviy-ma`rifiy manbalar jamlangan dargohdir. Shu bois, mamlakatimizda mazkur soha rivojiga jiddiy e`tibor qaratilmoqda. O`lkamizda xilma-xil muzeylar mavjudligi xalq ma`naviyati taraqqiyotida asosiy o`rin tutadi. Toshkent, Buxoro, Xiva, Samarqand viloyatlaridagi zamonaviy tashkil etilgan va qadimiy muzeylar insonlarni ilmiy, madaniy, tarixiy, badiiy meros, umuminsoniy qadriyatlar bilan oshno bo`lishlariga, turli xalqlarning dinlari va e`tiqodlari, an`analari va turmushi, san`at asarlari bilan tanishishlariga ko`maklashadi. Bu tanishuvlar barkamol avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta`lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, maktab o`quvchilari, kollej va litsey o`quvchilari bilan muzeylarga uyushtiriladigan ekskursiyalar ularni vatanparvarlik, o`z ajdodlari bilan faxrlanish ruhida tarbiyalashga va ulardan ibrat olishlariga yordam beradi.

O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q" deya ta`kidlaganlarida cheksiz haq edilar. Har bir avlodni o`z xalqining tarixi bilan uzviy ravishda tarbiyalab borish kerak. Bunda esa muzeylarning o`rni beqiyosdir. Muzeylar kelajak va bugun o`rtasidagi ko`prikka o`xshaydi.

Bugungi kunda O`zbekistonning katta va kichik shaharlari, tumanlarida xalqning boy tarixiy-madaniy xazinalarini namoyish qiluvchi 1 ming 200 dan ortiq turli yo`nalishdagi katta-kichik muzeylar faoliyat ko`rsatmoqda [1]. R. Almeyevning ma`lumotiga ko`ra, O`zbekistonda 17 ta tarix, 27 ta o`lkashunoslik, 10 ta badiiy, 24 ta memorial, 8 ta adabiyot, 4 ta aniq fanlar muzeylari faoliyat ko`rsatmoqda. Ularda o`zbek va jahon xalqlari tarixi va madaniyatiga doir jami 1602280 dan ortiq turli eksponatlar saqlanadi [2]. Yoshlarni ma`naviy-axloqiy kamolga yetkazishda, keng aholi ommasini, ayniqsa, yosh avlodni ma`rifatli qilishda muzeylarning roli katta ahamiyat kasb etishini hisobga olib, O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov 1998-yil 12-yanvarda "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g'risida"gi Farmonni e`lon qildi [3]. Mazkur farmon muzey ishini kelgusida rivojlantirishning yorqin istiqbollarini ochib berdi. U "O`zbekmuzey" Respublika jamg'armasini tuzish va muzey xodimlarini kasb-malakalarini, ularning ilmiy izlanishlari samarasini oshirish uchun sharoit yaratishga, o`zbek, ingliz, rus tillarida

uch oyda bir marta nashr etiladigan “Moziydan sado” ilmiy-amaliy, ma`naviy-ma`rifiy, suratli jurnalni ta`sis etishga sabab bo’ldi.

Mustaqillikka erishgandan so`ng barcha sohalar singari muzey sohasiga ham e`tibor qaratildi. Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 21-apreldagi Qaroriga muvofiq O`zbekiston tarixi Davlat muzeyi qayta tashkil etildi [4]. 1996-yil 18-oktabrda Toshkentda ochilgan Temuriylar tarixi Davlat Muzeyi O`zbekistonda amalga oshirilayotgan ma`naviy-ma`rifiy ishlar borasida yirik tarixiy va madaniy yodgorlik, ilmiy tafakkur markazlaridan biri bo`lib hisoblanadi. Muzey eksponatlari juda katta tarixiy qimmatga ega bo`lib, Temuriylar davridagi ruhiyatni ochib beradi. Muzeyga qo`yilgan tilla buyumlar, qurol-aslahalar, lashkarboshi va oddiy jangchilarning kiyimboshlari, musiqa asboblari, o`sha davrga xos jihozlar, Amir Temur, Bobur qo`lyozmalari, Ulug’bekning astronomik qurilmalari va boshqa madaniy boyliklar shular jumlasidandir. “Ochiq osmon ostidagi muzey” deya ta`riflangan Buxoroda ham “Ark” qo`rg’oni, “Sitorai Moxi-Xosa”, “Somoniylar maqbarasi”, “Yetti pir” ziyoratgohlari, Chor Minor, Minorai Kalon, Toqlar, Labi Hovuz kabi aslicha saqlangan tarixiy obidalar yosh avlod ongida o`tmish haqidagi tasavvurlarni yanada kengroq boyitishga yordam beradi.

Mustaqillik yillarida ham bir necha muzeylar ochildi. Jumladan, O`zbekistonda birinchi marta 1992-yil noyabr oyida Buxoroda “Temirchilik muzeyi” ochildi. 1992-yil dekabr oyida Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida ochilgan xalq baxshisi Islom Shoir Nazar o`g’lining uy muzeyi birinchi mehmonlarni qabul qildi. 1993-yil 10-sentabrda o`zbek raqqosasi Mukarrama Turg’unboyeva muzeyi ochildi. Shuningdek, O`zbekiston xalq ta`limi tarix muzeyi o`z muxlislarini kutib oldi.

Yoshlar ma`naviyatini shakllantirish maqsadida mamlakatdagi barcha muzeylarda oyning ma`lum bir kuni “Ochiq eshiklar kuni” deb e`lon qilindi. Shu kuni muzeylarga o`quvchi, talaba va boshqa tomoshabinlar taklif etilib, muzey xodimlari tomonidan bepul xizmat ko`rsatiladi. Mustaqillik yillarida O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning sa`y-harakatlari bilan qadimiy shaharlar: Xiva, Buxoro, Shahrisabz, Termiz shaharlarining 2500–2700 yillik yubileylarining o`tkazilishi, Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Imom al-Buxoriy, Ahmad al-Farg’oniy, Jaloliddin Manguberdi, Kamoliddin Behzod, Ogahiy kabi “Barhayot siymolar” yubileylarining o`tkazilishi, “Alpomish” dostoni yaratilganining 1000 yilligi tantanalari, mamlakat tarixidagi muhim sanalarga bag’ishlab muzeylar tayyorlab o`tkazgan ko`rgazma va tadbirlar yoshlarning ma`naviy-ma`rifiy tarbiyasida muhim o`rin egallashi shubhasiz.

Hozirgi kunda har bir fanni, har bir darsni muzeylar bilan bog’lab o`tsa bo`ladi. Negaki, boshqa davlatlar qatorida O`zbekiston ham o`zining boy tarixiga ega. Bola faqat eshitib emas, balki, o`z ko`zi bilan ko`rib, bilimini oshirib olishi uchun bizda “ekskursiya darslari” tashkil etilgan. Agarda o`quvchilarni muzeyga olib borish imkoni bo`lmasa, zamonaviy texnika vositalaridan foydalangan holda, fotoreportaj, slayd yoki “sayohat darsi” sifatida tashkil etish mumkin. Buning uchun shu hududda joylashgan muzeyga tashrif buyurish yoki shu muzeydan olingan videolavha, audio yozmalar bilan ham yoshlar qalbiga kirib borish mumkin.

Bugungi kunda turli yoshdagi bolalar bilan muzey va ta`lim muassasalari o`rtasidagi aloqa tinimsiz, ma`lum maqsadga yo`naltirilmagan holda olib borilmoqda. Shuning uchun maktab va muzeylarning ta`lim va tarbiya sohasidagi faoliyatiga tizimli va dasturli yondashish talab etiladi.

Muzey va ta`limning o`zaro aloqalari ilm va fanning turli sohalari hamkorligining samarasidir. Amaliyot shuni ko`rsatmoqdaki, muzeyning umumta`lim jarayoniga kiritilishi, insonni ruhiy va axloqiy jihatdan juda tez o`zgarib borayotgan olamda faqat yashashga tayyorlabgina qolmasdan, uning sodir bo`layotgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanishiga xizmat qiladi.

Jahon xalqlarining umummadaniyati tobora bir-biriga yaqinlashish jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda yoshlarga milliy o`zlikni asrash va umuminsoniy qadriyatlarni e`zozlash tuyg’ularini singdirish borasida muzey pedagogikasi muhim ekanligi shubhasizdir.

Muzeyning tarixiy va tarbiyaviy ahamiyatini nazarda tutgan holda, ularni o`quv dargohiga yaqinlashtirishgina emas, balki ta`lim muassasalarini ham muzeyga yaqinlashtirish, ya`ni hamkorlik pedagogikasini amalga oshirish zarurati sezilmoqda.

1930–1940-yillar faol va har tomonlama muvaffaqiyatli ma`rifiy faoliyat Amerika Qo`shma Shtatlari muzeylarining eng muhim vazifasiga aylanib bordi. Bu borada Sinsinnati shahar badiiy muzeyi tajribasi e`tiborga molik. Unda 1930-yili Maorif bo`limi tashkil etilib, u bolalar uchun yakshanbada o`tkaziladigan mashg’ulotlar dasturini ishlab chiqdi. Dasturga hikoya, musiqa, tarix, geografiya, haykaltaroshlik darslari kiritilgan. Ma`rifiy dasturlarni ishlab chiqishda o`z davri pedagogikasi erishgan yutuqlar hisobga olingan.

Germaniyadagi muzeylar ma`rifiy faoliyati ayrim shaxslar tashabbusi bilan xarakterlidir. A. Lixtvark faqat Germaniya emas, Yevropa muzey pedagogikasi asoschilaridan biri sanaladi. O`zining amaliy faoliyati

bilan u san`at sohasida ma`rifiy tadbirlarning tarqalishiga katta hissa qo`shib, muzeyni maktab singari saboq muassasasi deb hisoblagan.

Rossiya muzeylarida pedagogik ishlarni nazariy anglash tajribasi 1916-yildagi "Ekskursiya xabarlari" nashrida muzeylarning o`quvchilar bilan ishlashiga bag'ishlangan sonidan o`rin olgan. A.Romanov badiiy muzeylar ma`rifiy faoliyatini tahlil etgan ilk mutaxassis bo`lgan. Lekin uning ijodiy taraqqiyoti yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda davom etdi. Muzey ishi islohoti maorif islohoti bilan bir paytda olib borilib, unda estetik tarbiyaga katta o`rin beriladi. O`quvchiga yog'och yoki temir dastgohda ish o`rgatilayotgan paytda bolaning faqat hunarni egallashiga emas, uning chiroyli hayot quradigan yaxshi inson bo`lib yetishishiga ham e`tibor berilgan.

Yoshlarni tarbiyalashda ilg'or mamlakatlar muzeylari to`plagan ijobiy yutuqlarni umumlashtirib, jahon muzey pedagogikasi fanining bir asrdan ko`proq vaqt mobaynida to`plagan tajribasining ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil etib, mos va xos dasturlar ishlab chiqishni bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri deb hisoblash mumkin.

Yuqoridagilarni hisobga olib yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy g'oya ruhida tarbiyalashda muzeylar faoliyatida qanday jihatlarga ko`proq e`tibor qaratilishi lozimligini jahon muzeylari tajribasidagi ijobiy holatlardan kelib chiqqan holda aniqlandi. Zero, eng ilg'or muzeylar yoshlar bilan ishlashning qator bosqichlaridan o`tib, ushbu masalada nafaqat amaliy faoliyat tajribasiga ega bo`ldilar, balki qator nazariya va konsepsiyalarni ham yaratdilar. Bu tajriba natijalari o`rganilib, tahlil etilar ekan, ularni to`g'ridan-to`g'ri, aynan qo`llash kerak deyilmaydi. Lekin hali nazariyalar yaratish darajasiga yetmagan muzeyshunoslik sohasi jahon muzeylari andazalaridan foydalanishi zarur. Bu borada qilingan ishlar quyida bosqichma-bosqich izohlab boriladi.

Respublika ta'lim tizimini takomillashtirish, jamiyat hayotida muzeylarning rolini oshirish, malakali mutaxassislar tayyorlash, muzey muhitida va maorif muassasasi pedagogik muammolarni hal etadigan kun tartibidagi dolzarb muammo bo`lib qolmoqda. Ushbu vaziyat nafaqat O`zbekistonda, balki dunyoning aksariyat mamlakatlarida mavjud. Amaliyot shuni ko`rsatmoqdaki, hozirgi zamon madaniyati va jamiyati hayotida muzeylar rolining oshib borishi bilan bir qatorda, unda ishlayotgan xodimlarni o`qitish, malakasini oshirish ancha orqada qolmoqda.

Mamlakatimizda muzey pedagogikasiga o`tgan asrning oxirlaridan e`tibor berila boshlandi. To`g'ri, muzey ekspozitsiyalaridan ta`lim-tarbiya maqsadida uning tarixiy taraqqiyotida hamma vaqt ham foydalanilgan. Lekin jamiyat ma`naviyatini yuksaltirish ustuvor yo`nalish kasb etayotgan hozirgi sharoitda bu muammo yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Kuzatishlardan ma`lum bo`ladiki, muzeyning umumta`lim jarayoniga kirib kelishi nafaqat yoshlarni ruhiy va axloqiy jihatdan shakllantirishda, balki hozirgi o`zgarayotgan davrda yashashga, ijtimoiy-ma`naviy islohotlarning subyekti bo`lishiga ham yordam beradi, ya`ni o`quvchi muzeydagi ma`naviy merosni ko`rib, o`rganib, uni anglab olishi natijasida o`z hayoti va faoliyatiga ham mazmun kiritadi.

O`tgan davr mobaynida muzey, ayniqsa, yoshlarning haqiqiy ma`naviy-ma`rifiy maskaniga aylanib qoldi. Muzey faoliyat ko`rsata boshlagan dastlabki kunlardanoq O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi hamda Xalq ta`limi vazirligi rahbariyati tomonidan tasdiqlangan jadval asosida talaba va o`quvchilarning tashrifi uyushtirildi. Bu an`ana bugun ham izchil davom etmoqda. Talaba va o`quvchilar olimlar hamda muzeyshunoslardan nafaqat nazariy, balki amaliy saboq oldilar. Ular tariximizning yorqin sahifalari bilan tanishib, «Kim edigu, kim bo`ldik?» degan savolga javob olib, boy bilim bilan muzeydan qaytmoqdalar. Bu esa, ularning milliy g'oya ruhida kamol topishlarida, Vatanga sadoqatli bo`lishlarida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yetishib kelayotgan yosh avlod tafakkurida muzeylar haqidagi tushunchani yanada sayqal berish kerak. Chunki o`z ajdodlarini, o`tmishini o`rganib, ularning jasoratidan, mahoratidan ibrat olib, ulg'aygan har bir avlod barkamol va komil inson bo`lib yetishadi.

Adabiyotlar

1. Ҳабибуллаев Н. Музейлар истиқболи. Мозийдан садо // 2003. – № 2. – Б.2.

2. Альмеев Р.В. Музеи Узбекистана и социально-культурные перспективы их развития. Ташкент: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма, 2007. – С.16.

3. Исмоилова Ж. Музейлар тарихимиз кўзгуси. Мозийдан садо// 2003. – №2. – Б.4.

4. Столяров Б.А. Музейная педагогика: История, теория, практика. Учебное пособие. – М.: «Высшая школа», 2004. – С. 216.

5. Курязова Д.Т. Ўзбекистонда музей иши тарихи. Ўқув қўлланма. Т., 2010.





Shirinboy OLIMOV
Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori

Ochil SUYUNOV
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

O'QITISH JARAYONIDA HAMKORLIKDA ISHLASHNI TASHKILLISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Ushbu maqolada shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari va uning o'ziga xos xususiyatlari, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining didaktik asoslari, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining shakllari xususida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: *o'qitish jarayoni, yangi pedagogik texnologiyalar, ta'lim texnologiyalari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, loyihalar metodi, didaktika, shakl.*

В данной статье рассматриваются особенности личностно- ориентированной технологии образования, а также дидактические основы и формы технологии сотрудничества обучения.

Опорные понятия: *процесс обучения, новые педагогические технологии, технология обучения, технология сотрудничества обучения, методы проектов, дидактика, форма.*

This article examines the features of the person-oriented technology of education, as well as the didactic foundations and forms of technology of learning cooperation.

Supporting concepts: *the learning process, new pedagogical technologies, teaching technology, technology of teaching cooperation, project methods, didactics, form.*

Mamlakatimiz ta'lim tizimining hozirgi taraqqiyot bosqichi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarlarni qo'llash tajribasi, ularning milliy va tarixiy, mafkuraviy shart-sharoitlarga javob berishi, ta'limning an'anaviy modellari umumiy o`rta ta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlarida sinf-dars tizimi, oliy o'quv yurtlarida ma'ruza, seminar kabi ta'lim shakllari hukmron bo'lgan davrga mos keluvchi texnologiyalarni qo'llash ijobiy natija berishi mumkin. Shu fikrlardan kelib chiqib, ko'pgina rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida, chunonchi, AQSh, Angliya, Germaniya, Fransiya, Isroil, Janubiy Koreya, Singapur mamlakatlarida keng qo'llanib kelinayotgan "Hamkorlikda o'qitish", "Loyihalar metodi", "Tabaqalashgan o'qitish", "O'quvchi papkasi", "O'qitishga individual va differensial yondashish" texnologiyalaridan foydalanishni lozim, deb hisoblaymiz. Bularni o'qituvchi o'z tajribasida qo'llashda ixtiyoriylik prinsipidan kelib chiqish bilan birga, birdaniga sakrab o'tish, ma'muriy majbur qilishdan saqlanish lozim. Bunda ma'muriy aralashish emas, balki faqat ularni qo'llash uchun tashkiliy-pedagogik, moddiy baza yaratish o'quv jarayoni va o'quv xonalarini jihozlash jihatidan bo'lishi mumkin. Ularning qaysi birini tanlashda pedagog imkoniyatidan kelib chiqish zarur.

Taklif qilinayotgan texnologiyalarning yana bir muhim tomoni ularning hozirgi ta'limdagi ijobiy tomonlarni saqlagan holda qo'llash imkoniyatining borligidir. Bundan tashqari, bu texnologiyalar falsafiy, psixologik, pedagogik mohiyatiga ko'ra gumanistik xarakterga ega. Bularning gumanistik xarakteri faqat nazariy va mafkuraviy jihatdan milliy istiqlol mafkurasi talablariga mos kelishi bilan birga amaliy jihatdan ma'naviyati yuksak, barkamol insonni shakllantirishga yo'nalganligidir. Ular ta'limni tarbiyaviy xarakterini kuchaytirish, ta'limda yaxlitlikda, ya'ni tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish, o'quv materialini o'quvchilar jamoa bo'lib, bir-biriga suyanib, hamkorlikda chuqur o'zlashtirishini ta'minlash, ularning intellektual, axloqiy rivojlanishini, mustaqil fikrlashini ta'minlaydi. Shu bilan bir-biriga yordam berishi, muloqotini yaxshilashga xizmat qiladi. Hozirgi o'qitishimizdagi har bir ta'lim oluvchining faqat o'zi bilimni o'zlashtirishidan manfaatdorligi asosida unda shakllanuvchi raqobat, avtoritar xislatlardan xolos bo'lishga za-

min hozirlaydi. Bu esa bizning milliy va hozirgi ta'lim islohotimizning talablariga hamohangdir. Bu texnologiyalarning ta'limdagi asosiy mohiyati ta'lim oluvchi shaxsi kamoloti, muloqoti, tanqidiy fikrlashi hamda o'ziga xos individualligiga asoslanishidir. Shu bilan birga, ularning an'anaviy ta'limdagi faqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish va ularni takrorlashga muqobil metod sifatida xizmat qilishidir. Mazkur texnologiyalar metodik jihatidan "O'zbek modeli"ning bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyasiga mos kelib, ta'limni evolyutsion tarzda mohiyat e'tibori bilan yangi texnologik asosda ko'rish imkoniyatini beradi. Taklif qilinayotgan texnologiyalarni yaxlitlikda ta'lim jarayoniga qo'llash asta-sekin an'anviy modellardan voz kechib, pedagogik va axborot texnologiyalariga o'tish imkoniyatini yaratadi. Ular psixologik va pedagogik mohiyati bilan gumanistik xarakterga ega bo'lgan shaxsga yo'naltirilgan texnologiya: hamkorlikda o'qitish, loyihalar metodi, differensial o'qitish, "o'quvchi papkasi" o'z mazmuni va mohiyati jihatdan o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi va yaxlit didaktik tizimni tashkil etadi. Bular ta'lim oluvchilarni halollik, oshkoralik, boshqalarga g'amxo'rlik, saxovat, samimiylik, o'zaro yordam ruhida tarbiyalaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini qo'llashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

– ta'lim oluvchi tajribasi, bilimning guruhligi, fanga qiziqishi, bilim saviyasi;

– ta'lim oluvchining psixik jarayonlari (xotira, idrok, tafakkur, o'z hissiyotini boshqara olish);

– xarakteri va mijozning xususiyati. Bir so'z bilan aytganda o'quvchi shaxsining o'ziga xos belgilarini e'tibordan soqit qilmaslik lozim;

Hamkorlikda o'qitishning asosini kichik guruhlarda ta'lim berish tashkil qiladi. Uning g'oyasi XX asrning 20-yillarida Amerikaning mashhur faylasufi va pedagogi (pragmatizm falsafasining asoschisi) Djon Dyui tomonidan ishlab chiqilgan edi. Ammo uning texnologik asoslari, ya'ni kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish ta'limning amaliy tomoni, shaxsni kelajak hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash, ya'ni inson uchun foydali tomondan o'qitish XX asrning 70-80-yillarida jahonning Angliya, Kanada, Avstraliya, Germaniya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil mamlakatlarida turlicha shakllari paydo bo'la boshladi. Uning mafkuraviy-nazariy asosi XX asrning 80-yillarida Amerika Djon Xopkins universiteti professori R.Slavik, Minnesot universiteti professorlari Rodjers Djonson va Devid Djonson, Kaliforniya universiteti olimlari guruhi Dj. Aronson boshchiligida hamda Isroilning Tel-Aviv universiteti olimlari guruhi Sholomo Sharon rahbarligida ishlab chiqildi. Hamkorlikda o'qitish AQShda, Isroil va Yevropa mamlakatlarida shaklan bir-biridan farq qilsada, mohiyat va nazariy asoslari umumiy hisoblanadi.

AQShdagi hamkorlikda o'qitish texnologiyasi ta'limning amaliy yo'nalishi o'quvchiga ma'lum ko'nikma va malakalarni, tushunchalarni, akademik bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan. Yevropa va Isroil tajribasida hamkorlikda o'qitish ko'pincha darslarda faoliyatni loyihalash, munozara tashkil qilishga asoslanadi. Ko'rayapmizki, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi jahonning ko'pgina mamlakatlarida rivojlantirilib, xalqaro ahamiyat kasb etdi. Buning boisi, uning o'z mohiyati bilan insonparvar va pedagogik xarakterda ekanligidadir. Hamkorlikda o'qitishning mohiyatini tushunish uchun pedagogik amaliyotda uchraydigan bitta dalilga murojaat qilaylik. Bu ham bo'lsa o'quvchining ta'lim jarayonida o'quv materialini to'liq o'zlashtira olmasligi, yoki amaliy ishlarda xato qilishi. "Xato" – o'quv materiali mohiyatini noto'g'ri tushunish, noto'g'ri fikrlash, bilimining to'liq emasligi, diqqatini o'qishga qarata olmaslik tarzida bo'lishi mumkin. Buni tuzatish uchun qo'shimcha mashq qilish, qo'shimcha dars o'tish lozim bo'ladi. Bu xatolikni tahlil qilib, uni o'qituvchi faoliyati bilan bog'liqlik yoki o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishi uchun yetarli vaqt ajrata olmaganligida aniqlanadi. Pedagog, bu tashxis asosida o'zining uslubi, o'qitish texnologiyasiga ma'lum o'zgartirish kiritadi. Agar o'quvchilarga o'quv materialini o'zlashtirishga qo'shimcha vaqt ajratish lozim bo'lsa, ularning har biri va guruhdagi hamkorlikdagi faoliyati orqali ular xatoni tuzatadi. Ammo o'qituvchi bir vaqtning o'zida hamma o'quvchilarga yordam bera olmaydi. Bu mas'uliyatni guruh o'z ustiga oladi. Chunki hamkorlik g'oyasiga, asosan, o'zlashtirishni baholash har bir o'quvchi bilimiga alohida baholash tarzida emas, balki butun guruh o'quvchilariga birday baho qo'yiladi, ya'ni ularning umumiy o'zlashtirish darajasi muhim hisoblanadi. O'zlashtirishi bo'sh o'quvchilar kuchli o'quvchilar yordamida o'quv materialini yetarli o'zlashtirishga erishiladi. Ta'limning natijasidan ayrim o'quvchi emas, balki butun guruh manfaatdor bo'ladi. O'quvchining o'qishdagi muvaffaqiyatining butun guruh muvaffaqiyatiga bog'liqlik mas'uliyatini sezishi birlashishga, hamkorlikka undab, o'quvchilarni umumiy maqsad yo'lida birlashtiradi. Hamkorlikda o'qitish faqat ta'limiy jihatdan ahamiyatli bo'lmay, balki o'quvchilarning tarbiyaviy-intellektual va axloqiy kamolotiga ham kuchli ta'sir qiladi. Hamkorlikda o'qitishning muhim tomoni jamoaviy faoliyat ko'rsatishdir. Bunda o'quvchilarda o'zaro hamkorlik, bir-biriga bog'liqlik hissiyotlari, o'zaro harakatlarini, faoliyatini muvofiqlashtirish munosabatlari shakllanadi. Hamkorlikda o'qitish o'quvchilarning ijtimoiylashuviga, o'zaro muloqot ko'nikmalarining shakllanishi uchun muhim vosita hisoblanadi. O'quvchilarda yoshligidan bir-biriga yordam hissiyotlari rivojlanib, bu faqat darsda emas, ya-

shash tarzida va butun hayoti davomida birovga yordamga kelish, har qanday muammoni birgalikda hal qilishdan quvonish shaxsiy sifatlariga aylanadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining didaktik asoslari – bu o‘quvchilarning usul, harakatlarini ma’lum ketma-ket bajarishi bo‘lib, o‘qitishning u yoki bu metodlari orqali amalga oshirishni ta’minlaydi. Yoki metodlar majmuasi bo‘lib, ta’limga ma’lum yondashishni ta’minlaydigan didaktik tizimdir. O‘quvchilarning bilimi va faoliyatini tashkil qilishning turli usul va vositalari umumiy mantig‘i, hamkorlikda o‘qitishning prinsiplarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Shu majmualar o‘z navbatida hamkorlikda o‘qitishning texnologik asosini tashkil etadi. Faqat shunday asosda ko`rilgan didaktik tizim va pedagogik jarayonda sinalgan usul, vositalar texnologiya sifatida xizmat qilishi mumkin. Didaktik tizimning asosini o‘qitish metodlari majmuasi tashkil etib, ular ma’lum nazariy asos va prinsiplarga va ta’lim konsepsiyasiga asoslanadi.

Hamkorlikda o’qitishning muhim shakllaridan biri kichik guruhlarda (komanda) tarzida o‘qitish keng qo‘llaniladi. Hamkorlikda o‘qitishning komanda tariqasida o‘quvchilar faoliyatini tashkil qilish texnologiyasi quyidagi uch asosiy prinsipga asoslanadi:

a) “taqdirlash” butun guruh ball tariqasida, sertifikat, maqtov, maxsus mukofot sifatida taqdirlash birgalikdagi ishiga baho oladi. Buning uchun butun guruhga berilgan bitta topshiriqni bajaradi;

b) har bir o‘quvchining shaxsiy mas’uliyati butun guruhning yutug‘i va kamchiligini belgilaydi. Bu esa guruh a’zolarini har birini boshqalar faoliyatini nazorat qilish, o‘quv materialini o‘rtog‘ining o‘zlashtirishi va tushunishiga yordamlashishiga zamin hozirlaydi. Guruh a’zolarining o‘z bilimlarining turlicha baholash, nazorat qilishga tayyor turishlarini ta’minlaydi;

d) guruhdagi har bir o‘quvchining o‘zlashtirishdagi teng imkoniyatlari o‘z komandasiga olib keladigan ballari avvalgi natijalarini yaxshilash asosida amalga oshadi. O‘zlashtirish natijalarini avvalgilari bilan taqqoslash aynan shu, guruh o‘quvchilari erishgan natijalarni baholash imkoniyatini beradi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining yana bir ko‘rinishi komanda-o‘yin faoliyatidir. Bunda ham avvalgidek, o‘qituvchi yangi mavzuni tushuntiradi va o‘quvchilar faoliyatini o‘quv materialini guruh o‘zlashtirishga guruhli yo‘naltiradi. Ammo o‘zlashtirish natijalarini baholashda komandalar o‘rtasida haftalik musobaqa turnirlari tashkil etadi. Buning uchun uch o‘quvchidan iborat «turnir stollari» tashkil qilinib, unda bir-biriga teng o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar musobaqani tashkil etadi. Bunday o‘qitish matematika, tabiiy fanlarda ko‘proq natija beradi. Topshiriqlar tabaqalashtirib murakkablik darajasiga qarab beriladi. Har bir stol g‘olibi o‘z komandasiga bir xil miqdorda ballar keltiradi. Bunda bo‘sh o‘zlashtiruvchilar ham o‘z tenglari bilan musobaqalashib komandasiga ochko keltiradi. Turnirda eng ko‘p ball to‘plagan komanda g‘olib deb e’lon qilinadi va shunga muvofiq taqdirlanadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining ko‘rinishlaridan yana biri guruhda individual ishlash. Bunda o‘quvchilar avval o‘zlashtirgan bilimlari natijasiga ko‘ra individual topshiriq olib, o‘z ish tempi asosida uni bajaradi. Ta’limning bunday shaklida komandalar turli xil faoliyat (topshiriq) bilan shug‘ullanishi mumkin. Komanda a’zolari bir-birlariga o‘z individual topshiriqlarini bajarishda yordam berib, o‘zlarining yutuq yoki o‘zlashtirishlarini maxsus jurnalda qayd qiladilar. Yakuniy baholash testlari o‘quvchilarning o‘zlari (maxsus baholovchi o‘quvchi) tomonidan individual amalga oshiriladi. O‘qituvchi har hafta komanda har bir a’zosi ishlagan mavzular va topshiriqlarni dastur va dars rejasi asosida hisobga olib boradi. Bunda o‘qituvchi guruhlarning yutuqlarini alohida ta’kidlashi lozim. O‘quvchilar o‘zlari mustaqil ishlaganlari uchun o‘qituvchining alohida guruh yoki o‘quvchilar bilan individual ish olib borish imkoniyati kengayadi. O‘quvchilar faoliyatini ta’lim jarayonida bunday tashkil qilish ko‘proq matematika fanini o‘qitishga qo‘l keladi.

Hamkorlikdagi ta’limning o‘qishga va ijodiy inshoga o‘rgatish shakli ko‘pincha pastki guruhlarda qo‘llanishi mumkin. Bunda to‘rt kishidan iborat guruh juftlarga ajratiladi. O‘qituvchi o‘qiyotganlarning bir jufti bilan ishlayotganida boshqasi mustaqil bir-biriga o‘qib berib, uning aytib berish rejasini tuzadi. Asosiy fikrlarni ajratib, matndagi savollarga javob yozadi, to‘g‘ri yozish, lug‘at bilan ishlashni mashq qiladi.

Agar sinf gomogen guruhlarga bo‘linmasa, hamma o‘quvchilar hamkorlikda ishlab, matnning umumiy ma’nosini anglab, muammoli savollarga javob topadilar. Ona tili va chet tili darslarida o‘quvchilar to‘g‘ri yozish, lug‘at bilan ishlash, matn ma’nosini aytib berish, bir-birlarining yozma ishlarini tuzatish va tahrir qilish bilan shug‘ullanadilar. Guruhdagi butun ishlarni o‘qituvchi nazorati orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilar bilimini baholash testlari o‘qituvchining ularning to‘la tayyorligiga ishonch hosil qilganida o‘tkaziladi. Hamkorlikda ta’lim berishning “Birgalikda o‘qiymiz” texnologiyasi. Bunda sinf turli xil o‘zlashtiruvchi 3-5 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh sinf umumiy mavzuning bir qismidan iborat topshiriq oladi. Guruhning va uning har bir a’zosini birgalikdagi ishi natijasida butun o‘quv materialini o‘z-

lashtirilishiga erishiladi. Asosiy ish prinsipi butun komandani taqdirlash, o‘quvchilarga individual yondashish har kimga teng imkoniyat yaratish.

Guruhni taqdirlash har bir o‘quvchining erishgan natijasiga bog‘liq bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi guruhlarni tuzishda, o‘quvchilarning individual va psixologik xususiyatlarini va har bir guruh uchun aniq mos topshiriq tuzishga e’tibor qaratishi muhimdir. Guruh ichida esa har bir o‘quvchining o‘rnini o‘zi belgilaydi. Guruhlar ta’limining bu shaklda bilish, ijodiy maqsadi bilan birga (ta’limiy) ijtimoiy psixologik vazifa - o‘rtoqlarining topshiriqlarini bajarish madaniyati va o‘zaro muloqotini nazorat qilishni amalga oshiradi. Ta’limning bu har ikkala maqsadini o‘qituvchi nazorat qiladi.

Hamkorlikda o‘qitishning yuqorida qarab chiqqan shakllari uchun umumiylik, maqsad va vazifalarning yaqinligi, o‘quvchilarning ta’lim olishda teng imkoniyatlari va individual mas’uliyati hisoblanadi. Shu bilan birga guruhda raqobat emas, hamkorlik, guruh a’zolarini umumiy maqsad, muvaffaqiyatda manfaatdorligi, o‘zaro yordam belgilovchi hisoblanadi. Teng imkoniyatlar o‘quvchilarning takomillashuvlarga zamin hozirlashni anglamoq va olg‘a intilmoq muhim hisoblanadi. Eng muhimi ta’lim jarayonida o‘qituvchining o‘rni o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga yordam berishi bilan belgilanadi. U o‘quvchilarga tayyor bilimlarni o‘rgatishdan ularni mustaqil, ijodiy bilishga o‘rgatish, o‘z shaxsi va bilimiga tanqidiy qarash, axborotlarni tahlil qilish, ulardan keraklisini ajrata olish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrlarini asoslashga o‘rgatishning muhimligida o‘z rolini anglaydi. O‘rganiladigan muammo ustida mustaqil ishlash mutlaqo odatiy hol va faoliyatning asosiy yo‘nalishi bo‘lib qolishi – hamkorliqda o‘qitishning asosiy maqsadi bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” – T., 1997.
2. Zaripov K.Z. Yangi pedagogik texnologiyani tadbiq etish bosqichlari. / J. Xalq ta’limi. 1997, 4-son 4-12 betlar.
3. Roziqov O., Og‘ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. – T., “O‘qituvchi”, 1999.
4. Селевко С. Современные образовательные технологии. – М: “Народное образование”, 1999.
5. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o’quv – tarbiya jarayoniga qo’llash. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 184 bet.



Шахноз НУРМУРОДОВА
Преподаватель кафедры языков Бухарского
инженерно-технологического института

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ АКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

Мақолада таълим жараёнини ташкил этишнинг самарали шакллари кўриб чиқилади. Шунингдек, билим даражасини ошириш бўйича таълим бериш усуллари ва методларини топишга оид долзарб масалалар қайд этилади.

Таянч тушунчалар: *метод, компонент, мўлжал, устунлик, феномен, мотивация.*

В статье рассматриваются эффективные формы организации образовательного процесса. А также подчеркиваются актуальные вопросы по повышению уровня образованности, нахождения методов и способов преподавания.

Опорные понятия: *метод, компонент, ориентир, доминирование, феномен, мотивация.*

In article is consideredthe effective forms of organization of educational process. And also highlights urgent issues to improve the level of education, searching theteaching methods.

Supporting concepts: *method, component, landmark, domination, phenomenon, motivation.*

Современные образовательные учреждения, определяя свои основные задачи при подготовке выпускника, в приоритет над набором необходимых знаний, умений и качеств, ставят умения применять полученные знания в новых ситуациях в условиях самостоятельной жизни, а также умения нестандартно мыслить, анализировать и аргументировать свою точку зрения. Для решения поставленных задач, требуются эффективные формы организации образовательного процесса, новые педагогические технологии, активные методы обучения, так как традиционное репродуктивное обучение отводит пассивную роль ребенку и не позволяет достичь поставленных целей.

Основная деятельность педагога заключается в развитии, воспитании и обучении обучающихся и осуществляется с помощью методов и приёмов обучения.

Понятие метод происходит от греческого “methodos” – путь исследования. Метод обучения является важнейшим компонентом учебного занятия, ключом к достижению триединой цели урока,…самый подвижный и динамичный компонент учебного процесса, тесно связанный со всеми его сторонами» [1].

Методы обучения — это основные виды деятельности учителя и ученика, обеспечивающие формирование знаний, умений и навыков, необходимых для решения учебно-воспитательных задач.

Система методов — это не простой набор, а такая совокупность, в которой имеются внутренние связи между компонентами, обусловленные результативностью конкретных методов. В совокупности они представляют систему управления разными методами познания, учащимися учебного материала, начиная с приобретения готовых знаний до самостоятельного решения познавательных задач.

Сущность метода заключается в организуемом способе познавательной деятельности ученика, в его активности, развитии познавательных сил и способностей.

Методы обучения можно подразделить на три обобщенные группы:

1. Пассивные методы.
2. Интерактивные методы.
3. Активные методы.

Пассивный метод – это форма взаимодействия учащихся и учителя, в которой учитель является основным действующим лицом и управляющим ходом урока, а учащиеся выступают в роли пассивных слушателей, подчиненных директивам учителя. Связь учителя с учащимися в пассивных уроках осуществляется посредством опросов, самостоятельных, контрольных работ, тестов и т. д. С точки зрения современных педагогических технологий и эффективности усвоения учащимися учебного материала пассивный метод считается самым неэффективным, но, несмотря на это, он имеет и

некоторые плюсы. Это относительно легкая подготовка к уроку со стороны учителя и возможность преподнести сравнительно большее количество учебного материала в ограниченных временных рамках урока. Лекция – самый распространенный вид пассивного метода обучения. Этот вид урока широко распространен в ВУЗах, где учатся взрослые, вполне сформировавшиеся люди, имеющие четкие цели глубоко изучать предмет.

Интерактивный метод. Интерактивный («Inter» – это взаимный, «act» – действовать) – означает взаимодействовать, находиться в режиме беседы, диалога с кем-либо. Другими словами, в отличие от активных методов, интерактивные ориентированы на более широкое взаимодействие учеников не только с учителем, но и друг с другом и на доминирование активности учащихся в процессе обучения.

Активный метод – это форма взаимодействия учащихся и учителя, при которой учитель и учащиеся взаимодействуют друг с другом в ходе урока и учащиеся здесь не пассивные слушатели, а активные участники урока. Если в пассивном уроке основным действующим лицом и менеджером урока был учитель, то здесь учитель и учащиеся находятся на равных правах. Если пассивный метод предполагает авторитарный стиль взаимодействия, то активные методы обучения предполагают демократический стиль. Многие между активными и интерактивными методами ставят знак равенства, однако, несмотря на общность, они имеют различия. Интерактивные методы можно рассматривать как наиболее современную форму активных методов.

Активные методы обучения — это такие методы обучения, при которых деятельность обучаемого носит продуктивный, творческий, поисковый характер. К активным методам обучения относят дидактические игры, анализ конкретных ситуаций, решение проблемных задач, обучение по алгоритму, мозговую атаку, внеконтекстные операции с понятиями и др.

Термин «активные методы обучения» (АМО) появился в литературе в начале 60-х годов XX века. Ю.Н. Емельянов использует его для характеристики особой группы методов, используемых в системе социально-психологического обучения и построенных на использовании ряда социально-психологических эффектов и феноменов (эффекта группы, эффекта присутствия и ряда других). Вместе с тем активными являются не методы, активным является именно обучение. Оно перестает носить репродуктивный характер и превращается в произвольную внутренне детерминированную деятельность учащихся по наработке и преобразованию собственного опыта и компетентности.

При использовании активных методов обучения меняется роль ученика – из послушного «запоминающего устройства» он превращается в активного участника образовательного процесса. Эта новая роль и свойственные ей характеристики позволяют на деле формировать активную личность, обладающую всеми необходимыми навыками и качествами современного успешного человека.

Активное обучение представляет собой такую организацию и ведение процесса обучения и воспитания, которая направлена на всемерную активизацию учебно-познавательной деятельности обучающихся посредством широкого, желательно комплексного, использования как педагогических (дидактических), так и организационно-управленческих средств. Активизация обучения может идти как посредством совершенствования форм и методов обучения, так и посредством совершенствования организации и управления образовательным процессом в целом.

Организация образовательного процесса, использующего активные методы обучения, опирается на ряд принципов, к числу которых можно отнести принципы индивидуализации, гибкости, сотрудничества.

Принцип индивидуализации предполагает создание системы многоуровневой подготовки воспитанников, учитывающей индивидуальные особенности обучающихся и позволяющей избежать уравниловки и предоставляющей каждому возможность максимального раскрытия способностей для получения, соответствующего этим способностям образования.

Принцип гибкости требует сочетания вариативной подготовки, основанной на учете запросов заказчиков и пожеланий обучающихся, с возможностью оперативного, реализуемого непосредственно в процессе обучения, изменения её направленности. Варианты подготовки должны появляться и изменяться в соответствии с изменениями в социуме, что позволяет снизить инерционность системы образования.

Принцип сотрудничества предполагает развитие отношений доверия, взаимопомощи, взаимной ответственности обучающихся и педагогов, а также развитие уважения, доверия к личности обучающегося, с предоставлением ему возможности для проявления самостоятельности, инициативы и индивидуальной ответственности за результат.

Все методы активного обучения имеют ряд отличительных особенностей или признаков. Чаще всего, выделяют следующие признаки:

Проблемность. Основная задача при этом состоит в том, чтобы ввести обучаемого в проблемную ситуацию, для выхода из которой (для принятия решения или нахождения ответа) ему не хватает имеющихся знаний, и он вынужден сам активно формировать новые знания с помощью ведущего (преподавателя) и с участием других слушателей, основываясь на известном ему чужом и своем профессиональном и жизненном опыте, логике и здравом смысле.

Взаимообучения. Стержневым моментом многих форм проведения занятий с применением АМО обучения является коллективная деятельность и дискуссионная форма обсуждения. Многочисленные эксперименты по развитию интеллектуальных возможностей, учащихся показали, что использование коллективных форм обучения оказывало даже большее влияние на их развитие, чем факторы чисто интеллектуального характера.

Индивидуализация. Требование организации учебно-познавательной деятельности с учетом индивидуальных способностей и возможностей обучающегося. Признак также подразумевает развитие у обучающихся механизмов самоконтроля, саморегуляции, самообучения.

Исследования изучаемых проблем и явлений. Реализация признака позволяет обеспечить формирование отправных начальных моментов навыков, необходимых для успешного самообразования, основанного на умении анализировать, обобщать, творчески подходить к использованию знаний и опыта.

Непосредственности, самостоятельности взаимодействия обучающихся с учебной информацией. При традиционном обучении педагог (равно как и весь используемый им комплекс дидактических средств) исполняет роль «фильтра», пропускающего через себя учебную информацию. При активизации обучения – педагог отходит на уровень обучающихся и в роли помощника участвует в процессе их взаимодействия с учебным материалом, в идеале преподаватель становится руководителем их самостоятельной работы, реализуя принципы педагогики сотрудничества.

Мотивации. Активность как индивидуальной и коллективной самостоятельной и специально организованной учебно-познавательной деятельности обучающихся, развивается и поддерживается системой мотивации. При этом к числу используемых преподавателем мотивов, обучающихся выступают: творческий характер учебно-познавательной деятельности, состязательность, игровой характер проведения занятий, эмоциональная вовлеченность.

Таким образом, термин «активные методы обучения» является своеобразным родовым обозначением специфических групповых методов обучения, получивших широкое распространение во второй половине XX века и дополняющих традиционные методы, прежде всего, объяснительно иллюстративные методы обучения, посредством изменения позиции учащихся с пассивно потребительской на активно преобразующую. Количество активных методов обучения достаточно велико. Поэтому для их характеристики обратимся к вопросам классификации активных методов обучения.

Активные методы обучения подразделяются на две большие группы: групповые и индивидуальные. Групповые применимы одновременно к некоторому числу участников (группе), индивидуальные - к конкретному человеку, осуществляющему подготовку вне непосредственного контакта с другими учащимися.

Различные авторы классифицируют активные методы обучения по разным основаниям, выделяя разное количество групп.

Можно условно объединить активные групповые методы в три основных блока:

- дискуссионные методы (групповая дискуссия, разбор казусов из практики, анализ ситуаций морального выбора и др.);
- игровые методы: дидактические и творческие игры, в том числе деловые (управленческие) игры, ролевые игры (поведенческое научение, игровая психотерапия, психодраматическая коррекция); контригра (трансактный метод осознания коммуникативного поведения);
- сенситивный тренинг (тренировка межличностной чувствительности и восприятия себя как психофизического единства) [2].

Можно основные методы активного обучения подразделять по основным направлениям: по характеру учебно-познавательной деятельности, по типу деятельности участников в ходе поиска решения задач, по численности участвующих.

По характеру учебно-познавательной деятельности методы активного обучения подразделяют на:

- имитационные методы, базирующиеся на имитации деятельности, и не имитационные. Особенность имитационных методов — разделение их на игровые и неигровые. Методы, при реализации которых обучаемые должны играть определенные роли, относятся к игровым. При этом к неигровым относят анализ конкретных ситуаций, действия по инструкции и т. д. Особенность не имитационных методов – отсутствие модели изучаемого процесса или деятельности.

По типу деятельности участников в ходе поиска решения задач выделяют методы, построенные на:

- ранжировании по различным признакам предметов или действий; оптимизации процессов и структур; проектировании и конструировании объектов; выборе тактики действий в управлении, общении и конфликтных ситуациях; решении инженерно-конструкторской, исследовательской, управленческой или социально-психологической задачи; демонстрации и тренинг навыков внимания, выдумки, оригинальности, быстроты мышления и другие. По численности участвующих выделяют: индивидуальные, групповые, коллективные методы. Выделяются три основных типа методов активного обучения.

- Метод анализа конкретных ситуаций.

Ситуации могут быть различными по дидактической направленности и используются в соответствии с задачей, которая ставится ведущим перед группой: это может быть иллюстрация, какой-то конкретный случай, предлагаемый ведущим для демонстрации теоретического материала; упражнение, где участники должны выделить и запомнить какие-то элементы; оценка, в которой предлагаемая проблема уже решена, а участникам предлагается оценить ее; проблема, перед группой ставится ряд вопросов, которые надо проанализировать и решить.

- Социально-психологический тренинг, где тренер не осуществляет лидирующей функции, а играет роль доброжелательного наблюдателя, обеспечивает субъектно-субъектный характер общения участников.

- Игровое моделирование или имитационные игры подразделяются на деловые, где заранее задана имитационная модель, и организационные, где участники сами выбирают систему решений.

Существует также классификация АМО, предполагающая членение их на четыре группы, объединяющей групповые и индивидуальные формы занятий, при главенстве первых.

- Дискуссионные методы (свободные и направленные дискуссии, совещания специалистов, обсуждение жизненных и профессиональных казусов и т.п.), построенные на живом и непосредственном общении участников, при пассивно отстраненной позиции ведущего, выполняющего функцию организации взаимодействия, обмен мнениями, при необходимости управление процессами выработки и принятия группового решения.

- Игровые методы (деловые, организационно-деятельностные, имитационные, ролевые игры, психодрама, социадрама и др.), использующие все или несколько важнейших элементов игры (игровой ситуации, роли, активном проигрывании, реконструкции реальных событий и т.п.) и направленные на обретение нового опыта, недоступного человеку по тем или иным причинам.

- Рейтинговые методы (рейтинги эффективности, рейтинги популярности), активизирующие деятельность учащихся за счет эффекта соревнования,

- Тренинговые методы (поведенческие и личностно ориентированные тренинги), направленные на оказание стимулирующего, корректирующего, развивающего воздействия на личность и поведение участников.

Каждая группа АМО предполагает специфическую организацию взаимодействия участников, пребывающих в позиции учащихся, и обладает своими специфическими особенностями. Таким образом, в настоящее время не существует единого взгляда на проблему классификации методов обучения, и любая из рассмотренных классификаций имеет как преимущества, так и недостатки.

Литература

1. Конаржевский Ю. А. Система. Урок. Анализ. – Псков, ПОИПКРО, 1996.
2. Емельянов Ю.Н. Активное социально-психологическое обучение. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1985. – 166 с.



Anvar ALIMOV
Buxoro davlat universiteti
pedagogika kafedrasi dotsenti

O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISH ISHLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etish shakllari, usullari va "G'isht teruvchi" kasbi misolida o'quv ishlab chiqarish majmualarida shakllantiriladigan bilim va ko'nikmalar mazmuni yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar: *o'quv ishlab chiqarish majmuasi, kasbga yo'naltirish, motivatsiya, kasbiy tavsifnoma, texnologiya, mehnat faoliyati.*

В данной статье раскрываются формы и методы эффективной организации направления к профессии, школьников в общих и средних образовательных учреждениях, а также содержание знаний и умений формирующихся в учебно-производственных комплексах на примере профессии «Кладчик кирпича».

Опорные понятия: *учебно-производственный комплекс, направление к профессии, мотивация, квалификационная характеристика, технология, трудовая деятельность.*

In this article is revealed the forms and methods of effective organization of the direction to the profession, schoolchildren in general and secondary educational institutions, as well as the content of knowledge and skills formed in training and production complexes using the example of the profession "Brick Cladding".

Supporting concepts: *training and production complex, direction to the profession, motivation, qualification characteristics, technology, labor activity.*

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yilni "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili" deb e'lon qilinishi ta'lim va kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini zamonaviy talablarini hisobga olgan holda tanqidiy tahlil qilish hamda yangilash kabi dolzarb masalalarga amaliy yechimlar topish vazifalarini qo'yadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida hozirgi kunda ta'lim tizimini yangi darsliklar bilan ta'minlash, ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini takomillashtirish borasida ishlar jadal davom etmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kelajakda iqtisodiyotning barcha sohalarida samarali mehnat qilishga, kasb-hunarni ongli va erkin tanlashga yo'naltirishda "Texnologiya" fanining roli beqiyosdir. Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 868-sonli qarorlariga asosan tashkil etilgan kasb-hunar kollejlari negizida tashkil etilgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarining kasb-hunarga yo'naltirishni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini maxsus chuqurlashtirilgan tayyorgarlik talab etmaydigan kasbga tayyorlash va kasb-hunar o'rgatish, kelgusi ta'lim turini yoki mehnat faoliyatini tanlashga ko'maklashish, ularning ongiga yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni singdirish va tadbirkorlik qoidalari bilan tanishtirish muhim o'rin tutadi. Kasbiy ta'limni chuqurlashtirish maqsadida kadrlar malakasini oshirish tizimida, tarmoq ta'lim muassasalarida va maxsus kurslarida keyinchalik malakani oshirish amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtlarida kasbiy faoliyatning mazkur sohasida yanada yuqoriroq malakaga erishiladi.

Biz kasbga yo'naltirish ishlarini "G'isht terish" kasbiga o'rgatish jarayoni misolida ko'rib chiqamiz. "G'isht terish" kasbiy ta'limining maqsadi – yoshlarning amaliy ta'lim olishlari, zarur bilim va axloqiy tarbiya berish, mehnat ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

"G'isht terish" kasbiy ta'limining vazifasi – yosh avlodga g'isht terish sir-asrorlarini o'rgatish orqali ularning estetik didini, madaniy darajasini va xizmat ko'rsatish madaniyati yanada yuqori bosqichga ko'tarilishiga erishish; shina montaj qilish turlaridan boshlang'ich tushunchalar va bilim, ko'nikma, malakalarini

shakllantirish hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlaydigan, tadbirkorlik faoliyati bo'yicha keng tushunchalarga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash.

"G'isht terish" kasbi bo'yicha ta'lim o'quv ishlab chiqarish majmuasi (O'IChM) guruhlariga qiziqishi va xohishiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfida ta'lim olishni tugatgan o'quvchilar qabul qilinadi.

"G'isht terish" kasbiga o'rgatish bo'yicha o'quv dasturi, jami 204 soat hisobidan, o'quv yili davomida (34 hafta), 10- yoki 11-sinfda o'rganish uchun mo'ljallangan. Mashg'ulotlar haftada 1 marta 6 o'quv soati hajmida o'tkaziladi.

"G'isht teruvchi" kasbining tavsifnomasi

Faoliyat turlari	Zarur bilimlar	Ko'nikmalar
• g'isht va tabiiy materiallarni tanlay oladi; • jihozlar, asbob-uskunalarni ishga tayyorlaydi; • ishlarni me'yoriy qoidalar asosida asbob-uskunalaridan foydalanib bajaradi; • g'isht terish ishlarini sifatli bajaradi.	• ish joyini tashkil qilish qoidalari; • xavfsizlik texnika va mehnat muhofazasi talablari; • sanitariya va gigiyena qoida hamda me'yorlari; • elektr va yong'in xavfsizligi talablari; • jihozlar, asbob-uskunalarining turlari; • nazorat va natijalarni tahlil qilish usullar; • g'isht terish ishlarining turlari; • qulf-kalit terish qoidalari; • xarsangtosh terish ishlarini bajarish ketma-ketligi; • g'isht terish ishlarining sifatini nazorat qilish.	• material jihozlar, asbob-uskunalarning ishga yaroqligini tekshirish; • ishlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil qilish; • ish qurollari, dastgohlar, asbob-uskunalar va so'ri havoza uskunalaridan unumli va to'g'ri foydalanish; • xavfsizlik texnika va mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish; • ishlab chiqarish sanitariyasi va gigiena qoida-me'yorlariga rioya qilish; • elektr va yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish; • materiallarni tejamli sarflash; • g'isht terish ishlarini bajarishda qurilish me'yoriy qoidalariga rioya qilish.

O'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalarini baholash oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus, kasb–hunar ta'limi markazi tomonidan tasdiqlangan "Akademik litsey va kasb–hunar kollejlari o'quvchilarining bilimi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to'g'risida" gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik jarayon natijalari test usuli, amaliy malakaviy ishi, reyting tizimi, o'quvchining bilim va ko'nikmasini nazorat etish orqali baholanadi. O'quv yilining oxirgi 6 haftasida o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish va kasbga yo'naltirish maqsadida maxsus ishlab chiqilgan, ota-onalar va mahalla fuqarolar yig'ini raislari bilan kelishilgan, ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangan jadval asosida ta'lim muassasasida yoki idora va korxonalarda Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi markazi hamda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibga rioya qilgan holda 6 kun mobaynida 6 soatdan ishlab chiqarish amaliyotlari o'tkaziladi. Bir yillik o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim jarayoni yakunida o'quvchilardan davlat attestatsiyasi nazariy va amaliy shaklda amalga oshiriladi.

"G'isht terish" o'quv moduli maqsadi o'quvchilarga oddiy uy-joylarni qurish, himoya devorlarini bunyod etish ishlarini bajarishni, g'isht terish turlari, ularning fizikaviy va kimyoviy, mexanik xossalarini, g'isht terishishlarida nazorat-o'lchov vositalaridan foydalanish qoidalarini, texnika xavfsizligi qoidalari, g'isht terish ishlari texnologiyasi hamda qo'llaniladigan asbob-uskunalar va qurilmalari haqida umumiy tushunchalarga ega bo'lishdan iborat.

G'isht terish ishlari jarayonida nazariy va amaliy mashg'ulotlarni chuqur o'zlashtirishiga maxsus o'quv filmlari, plakatlar, chizmalar, sxemalar va maketlardan foydalangan holda o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalari shakllantiriladi. Bundan tashqari, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda o'quvchilarning "G'isht teruvchi" kasbiga bo'lgan motivatsiyasini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi anketa so'rovnomalar tarzida aniqlash mumkin [4]:

1. "G'isht teruvchi" kasbiga sizni nima undaydi?

a. Hayotiy vaziyatlar.

b. Ota-onalar, o'qituvchilar va boshqalar talab etishdi.

d. Ma'lumot hamma vaqt hayotda kerak bo'ladi deb hisoblayman.

e. O'qish yoqadi, ko'p fanlarga qiziqaman.

2. Ishlab chiqarish o'quv mashg'ulotlarida, mustaqil topshiriqlarni bajarishda, sizning ishga munosabatingiz qanday?

a. Kamdan-kam faol ishlayman.

b. O'rtoqlarimdan ortda qolmaslik, boshqalarga yomon ko'rinmaslik uchun faollik ko'rsataman.

d. O'zim uchun muhim deb hisoblangan mashg'ulotlarda faol ishlayman.

e. Ko'pincha faollik ko'rsataman, chunki o'qishning o'zi menga zavq beradi.

3. Ishlab chiqarish o'quv mashg'ulotlariga munosabatingizni qanday tushuntirasiz?

a. O'qimaslik mumkin emas, bo'lmasa ko'ngilsizliklarga duch kelasiz.

b. Ota-onam, o'rtoqlarim, jamoa talablarini hurmat qilish uchun o'qiyman.

d. Yaxshi o'qishni burchim deb hisoblayman.

e. Hayotimning ayni pallasida o'qishni eng muhim, eng kerakli ish deb hisoblayman.

4. Ishlab chiqarish o'quv mashg'ulotlaridan ko'p dars qoldirasizmi?

a. Ko'p mashg'ulotlarga kelmasdim.

b. Mashg'ulotlarni yarmiga kirmasdim.

d. Onda-sonda dars qoldirardim.

e. Ko'p mashg'ulotlarga kirishga harakat qilardim.

5. "G'isht teruvchi" kasbi sizni kelajagingiz uchun qanday ahamiyatga ega?

a. Hech qanday.

b. Ma'lumot hayotda asqotib qolishi mumkin.

d. Pedagog bo'lish uchun o'qiyapman.

e. O'zimning umumiy rivojim uchun menda ko'proq bilish istagi bor.

6. Qaysi kasblar sizga ko'proq yoqadi?

a. O'qituvchining tushuntirishi, o'z o'rtoqlarimning chiqishlarini tinglash.

b. Hamma narsa tushunarli va haddan tashqari ko'p vaqt va kuch talab qilmaydigan.

d. Ko'p o'ylash, tahlil qilishga majbur qiladigan topshiriqlarni bajarish.

e. Hal etishga qanday yondashish noma'lum bo'lgan murakkab topshiriqlar yoqadi.

7. Ishlab chiqarish o'quv mashg'ulotlariga sizda qiziqish bormi?

a. Birorta fanga ham qiziqish yo'q.

b. Alohida fanlarga qiziqish bor.

d. Gap fanda emas, balki uni bilish kelajak uchun zarurligidadir. Shuning uchun barcha kerakli fanlar qiziqtiradi.

e. Ko'p fanlarni dasturdagidan ko'proq bilish ehtiyojini his qilaman.

f. Ko'pgina qiziqarli dalillar, ko'p yangiliklar, odatiy bo'lmagan ma'lumotlar bor bo'lganligi uchun tabiiy-ilmiy fanlarga qiziqaman.

g. Ba'zi bir fanlarning faqat alohida bo'limlari qiziq.

j. Men qiziqadigan bir necha fanlar bor, u fanlarni qiziqish bilan chuqur o'rganaman.

Tahlil qilingan o'quv-tarbiya jarayonlarida o'quvchilarga ishlab chiqarish korxonalari faoliyati, texnika va texnologiyalar, ular yordamida g'isht terish jarayonlari haqida ko'nikmalarga shakllantiriladi. Bu esa bo'lajak mutaxassislarning qobiliyatlariga mos kasbni ongli ravishda tanlashga imkon yaratadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya jarayonida kasbga yo'naltirish ishlarining quyidagi shakllarini tavsiya etamiz:

- o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarga tuman va shahardagi kasb-hunar kollejlari va ulardagi o'rgatiladigan kasblar haqida malumot berish;
- kasb-hunar kollejlariga ekskursiyalar uyushtirish;
- kasb-hunar kolleji o'quvchilarinig hayoti va o'qishi haqida videofilmlar namoyish qilish;

- umumiy o'rta talim maktablari bazasida kasb-hunar kollejlarida ta'lim-tarbiya jarayoni va turli kasblar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash mazmunini aks ettiruvchi virtual stendlar ishlab chiqish hamda innovatsion ko'rgazmalar tashkil etish;
- "Kasblarni kim yaxshi biladi?" tanlovlarini, "Kasblar haqida gaplashamiz" maktab lektoriylarini tashkil etish;
- kasb-hunar kolleji va akademik litsey o'quvchilarinig maktablarda kasbiy to'garaklarini tashkil qilish va ular ishini yo'lga qo'yishda uslubiy yordam ko'rsatish;
- kasb-hunar kollejlari negizida tashkil qilingan o'quv ishlab chiqarish majmualarida "Ochiq eshiklar" kunlarini o'tkazish;
- kasb-hunar ta'limi muassasasi ma'naviyat markazlarida ota-onalar uchun kasbga yo'naltirish mavzusida seminar treninglar tashkil qilish.

Bizning fikrimizcha, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda uzviylikni ta'minlash uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlarining o'zaro ijtimoiy hamkorligini keng yo'lga qo'yish hamda ushbu yo'nalishni o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlash lozim.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 868-sonli qarori//http://lex.uz/docs/3391612

2. O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlash agentligi ("O'zstandart") 2015-yil 28-oktabrdagi 05-712-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichi.

3. Alimov A.T. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishdagi uzviylik. // Kasb hunar ta'limi. 2007. – №3.– 6-bet.

4. Выбор профессии: оценка готовности школьников. Под научной редакцией д.п.н., профессора, член-корреспондента РАО С.Н. Чистяковой. – Москва "ВАКО", 2009.

5. Isroilov S.I., Xodjayev A.A. G'isht va tosh terish texnologiyasi. – T.: "O'qituvchi", 2001.



Мавжуда ЮЛДАШЕВА
Бухоро давлат университети
педагогика кафедраси ўқитувчиси

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ПЕДАГОГИК ФАОЛИЯТ ВА УНИНГ ИНСОНПАРВАР ЙЎНАЛГАНЛИГИ

Мақолада замонавий таълим-тарбияни шакллантириш ва ривожлантириш муҳитида педагогик фаолиятнинг асосий тенденциялари ва уни амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари ёритилган.

***Таянч тушунчалар**: таълим, тарбия, тенденция, фаолият, категория, инсонпарварлик, шахс, маълумот, тараққиёт.*

В статье освящаются основные тенденции педагогической деятельности в среде формирования и развития современного образования и своеобразные свойства ее осуществления.

***Опорные понятия:** образование, воспитание, тенденция, деятельность, категория, гуманизм, личность, сведения, прогресс.*

In the article is light up the main tendencies of pedagogical activity in the environment of formation and development of modern education and peculiar properties of its implementation.

***Supporting concepts:** education, upbringing, tendency, activity, category, humanism, personality, information, progress.*

Замонавий педагогика ва психологияда **фаолият** деганда инсоннинг таварак-атроф билан ўзаро фаол ҳамкорлиги тушунилади. Бу жараёнда инсон объектга мақсадли таъсир ўтказиш орқали ўз эҳтиёжларини қондирадиган субъект сифатида иш кўради. Инсон *фаолиятининг асосий кўринишларига* меҳнат, ўқиш, ўйин киради.

Фаолиятнинг ўзига хос асосий жиҳати унинг *предметлилиги* бўлиб, объектив борлиқнинг унга боғлиқ бўлмаган воқеликлари, муносабатларига бўйсунади. Предметлилик фаолиятнинг универсал хусусияти, предметларнинг объектив хусусиятларини акс эттириш имконияти сифатида майдонга чиқади ва бу жараёнда инсон субъект сифатида ҳаракат қилади.

Инсоннинг фаолияти ҳар доим *ижтимоий* хусусиятга эга. Ўзининг асл ижтимоий фаолияти давомида инсон инсоният вакили сифатида ҳам бошқалар фаолияти натижасини ҳам уларнинг биргаликдаги фаолияти позициясини сарҳисоб қилувчи киши сифатида майдонга чиқади. “Фаолият” ва “мулоқот” тушунчалари ўзаро чамбарчас боғлиқ тушунчалар саналади. *Субъективлик* ҳам фаолиятнинг ўзига хос жиҳатларидан бири ҳисобланади. У алоҳида инсон томонидан ҳам, жамоа субъект томонидан ҳам амалга оширилиши мумкин.

Фаолиятнинг психологик тузилиши. А.Н. Леонтьев ва унинг мактаби намоёндаларининг ишларида нисбатан кенг ва тўлиқ очиб берилган. Уларнинг қарашларига кўра яхлит фаолият қуйидагича тузилишга эга:

- эҳтиёж – мотивлар (фаолиятга етакловчи туртки);
- мақсад (фаолият йўналтирилган натижа);
- воситалар (уларни қўллаш орқали фаолият амалга ошириладиган предметлар);
- мақсадни қўлга киритиш учун мавжуд шарт-шароитлар (мақсад ва шарт-шароитнинг уйғунлигидан вазифалар белгиланади);
- юқоридагиларга ҳамоҳанг бўлган операциялар, хатти-ҳаракатлар, жараёнлар.

Фаолиятнинг биринчи қатлами (эҳтиёжлар, мотивлар, мақсад, шароит) унинг предметли маъносини билдиради. Бу уни амалга оширишнинг ички режаси, унинг рамзи бўлиб, шу асосда қурилади.

Фаолиятнинг иккинчи қатлами (алоҳида фаолият, хатти-ҳаракат, операциялар) унинг тузилмавий элементларидан иборат бўлади. Бу фаолиятни амалга ошириш ёки фаолият жараёнининг ўзи. Ўзаро биргаликда бу қатламлар фаолиятнинг психологик моҳиятини ташкил этади.

Фаолиятнинг учинчи қатлами ҳам мавжуд: бу фаолият таркибий элементларининг бир-бирига ўтиб туриши билан белгиланади (мотив мақсадга ўтиши, фаолият хатти-ҳаракатларга ўтиши, мақсад

шароитга ва уни амалга оширишга ўтиши мумкин). Бу фаолият динамикаси ёки унинг трансформацияси дейилади.

Инсон фаолиятида доимо шунга ўхшаш бир-бирига ўтиб туришлар (трансформация) кузатилади: фаолият – хатти-ҳаракат – операциялар ва мотив – мақсад – шарт-шароит. Фаолиятнинг таркибий элементлари шу қадар ҳаракатчанки, уларнинг бири иккинчисини қамраб олиши ёки биттасининг ўзи бир неча қисмларга бўлиниши (мақсад мақсадости мақсадларга бўлиниши) мумкин. Фаолиятнинг мураккаб турлари одатда бир эмас, бир нечта мотивлар билан ҳаракатланади, улар полимотивланган фаолият дейилади. Масалан, ўқувчининг ўқиш фаолияти билиш, ижтимоий ва моддий мотивлар орқали бажарилиши мумкин.

Фаолиятни ўзлаштириш *фаолият қонуниятларига* бўйнсунади. Улар қуйидагилар:

- исталган кўринишдаги фаолиятнинг пайдо бўлиш, шаклланиш ва тугатилиш жараёни (масалан, ўйин, ўқиш, меҳнат);
- *фаолиятнинг тузилмавий элементлари доимий равишда* (бир-бирига ўтиб) *ўз функциясини ўзгартириб туради* (мас., эҳтиёжлар мотивларда ойдинлашади, хатти-ҳаракатлар амалларга ўтиши ёки акси бўлиши мумкин);
- фаолиятнинг турли *хусусий кўринишлари инсон ҳаёти билан ўзаро боғлиқ* оқимда кечади (шунинг учун ҳам ўқув фаолиятини тушуниш унинг ўйин, меҳнат, спорт ва ижтимоий фаоллик билан боғлиқ эканлигини англаш лозимлигини назарда тутади);
- ҳар бир фаолият дастлаб ўзининг ташқи кўринишидан инсонларнинг ўзаро муносабатлари очиқ тизими сифатида намоён бўлади ва фақат шу асосда алоҳида бир кишининг фаолият шакли пайдо бўлади.

Педагогик фаолиятни мақсадли ва онгли ўзлаштириш жараёнида бу қонуниятларни ҳисобга олиш лозим бўлади. У ёки бу фаолиятни ўзлаштириш ва шу фаолият субъектига айланиш мазкур фаолият тузилмавий элементларини ўзлаштиришни талаб этади. Айнан педагогик фаолият ҳақида гап кетганда, айтиш мумкинки, айнан шу фаолиятга оид мотив, мақсад, хатти-ҳаракат ва амалларни ўзлаштириш назарда тутилади.

Педагогик фаолият ўзига хос ижтимоий аҳамиятга эга бўлган фаолият бўлиб, у инсонни тайёрлаш ва, энг аввало, ёш авлодни мустақил фаолият, мулоқотга тайёрлаш, жамиятда муваффақиятли ҳаёт фаолияти билан шуғуллана оладиган инсон шахсини шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилади.

Педагогик фаолиятнинг ғоявий асоси сифатида унинг инсонпарвар йўналганлигини олиш мумкин. Ҳозирги замон таълимида **инсонпарварлик тамойили** ***таълимни инсонпарварлаштириш*** тенденцияси кўринишида амалга ошириляпти.

Инсонпарварлик – инсон деб номланган қадриятни шахс сифатида тан олиш, унинг қадр-қиммати ва ор-номусини қадрлашга асосланган ғоя ва қарашларни билдиради.

Жамият тараққиётининг ҳозирги босқичида инсонпарварлик қимматли йўналишлар ва қарашларнинг муайян тизими сифатида ижтимоий идеал аҳамиятига молик бўлмоқда. Инсон – ижтимоий тараққиётнинг чўққиси, пировард мақсади сифатида қаралмоқдаки, бунда инсоннинг шахс сифатида барча имкониятларини ишга солиши, ҳаётнинг ижтимоий-иқтисодий ва маънавий соҳасида мувозанатда бўлиши, алоҳида бетакрор шахс сифатида гуллаб-яшнаши учун барча шарт-шароитлар яратилиши лозим бўлади.

“Инсонпарвар” тушунчаси инсонпарварликка нисбатан бирламчи тушунча бўлиб, у қимматли инсоний фазилат сифатида доимо бошқаларга ёрдам беришга тайёр бўлиш, бошқаларга нисбатан ҳурмат, меҳрибончилик кўрсатишга интилишни англатади.

Педагогик фаолиятнинг инсонпарварлик табиати инсонни тарбиялашда, уни шахс сифатида шакллантириш ва ривожлантиришда, у томонидан инсоният эришган ютуқларни ўзлаштириш даражасида ва шу орқали инсоният наслининг давомийлиги ва ворисийлигини таъминлашда намоён бўлади.

Педагогик фаолиятнинг инсонпарвар табиати, шунингдек, инсон шахсини яхлит англаш, унинг интеллектуал, маънавий, ахлоқий имкониятларининг баркамол ривожланишини тушунишда ҳам акс этади.

Инсонпарварлаштириш нуқтаи назаридан педагогик фаолият шундан иборатки, ҳар бир инсон ўз фаолиятининг тўлақонли субъекти, эгасига (ўз ишининг устасига) айлансин, яъни эркин, ўз-ўзини ривожлантира оладиган, дунёда бўладиган воқеа-ҳодисаларга нисбатан масъулият билан ёндашадиган киши бўлсин.

Таълимни инсонпарварлаштириш муҳим ижтимоий-педагогик тамойил сифатида қаралади. Унда замонавий таълим тизимини ривожлантиришнинг ижтимоий тенденциялари ўз ифодасини топади. Таълим мазмуни шахсни шакллантириш, унинг билув, маънавий, фаолиятли имкониятини ўстиришдан иборат бўлади. Таълимни инсонпарварлаштиришни шундай тавсифлаш мумкинки, унда ҳар бир таълим жараёни иштирокчиси (ўқитувчи, ўқувчи, ўқитувчилар жамоаси, ўқувчилар жамоаси, раҳбарият ва ходимлар) муносабатларини ўзаро ҳурмат асосида қурадилар.

Таълим жараёнини инсонпарварлаштиришнинг икки аспектини ажратиш мумкин:

- таълим мазмунида инсон, инсоният, инсонийлик тўғрисидаги билимлар ҳажмини кенгайтириш, инсонпарварлик йўналишидаги ўқув предметларини белгилаб бериш;
- ижтимоий-гуманитар ўқув предметларини ўқитиш сифатини яхшилаш. Шу ўринда асосий вазифалардан бири – ижтимоий-гуманитар бўлмаган предметларни ўқитишни инсонпарварлаштиришга эътибор қаратиш. Бу вазифани ҳар бир ўқув предметида умуминсоний маданиятнинг айнан бир хил қисмларини ажратиб кўрсатиш орқали таълим олувчиларда ижодий қобилиятларни, уларнинг маънавий оламини, қимматли инсонпарвар тамойилларни шакллантириш билан амалга ошириш мумкин.

Таълимда инсонпарварлик тамойилини амалга ошириш мазмунан умуминсоний қадриятларни намоён этишни назарда тутади. Умуминсоний қадриятларни икки бир-бирини тўлдирувчи маъноларда кўриб чиқиш лозим. Биринчидан, бу шундай қадриятларки, улар қандайдир бир тор доирадаги одамлар гуруҳи учун эмас, балки бутун инсоният учун аҳамиятга моликдир. Уни ифодалашнинг ўзига хос жиҳатлари у ёки бу давлатнинг маданий-тарихий ривожланиш хусусиятлари, анъаналарига боғлиқ бўлади. Иккинчидан, умуминсоний қадриятлар – бу тарихан ва ижтимоий жиҳатдан чегаралаб, маҳаллийлаштириб бўлмайдиган тушунчадир. Улар бутун инсоният учун идеал, хулқ-атвор намунаси бўлиб, доимий ва ўзгармасдир. Шу билан бир қаторда, таълим мақсадини аниқлашда ҳар бир жамият у ёки бу даражада ўзининг анъанавий қадриятларига йўналади. Бу ўринда миллатнинг маданий ва миллий ўзига хослиги, идентификациясини сақлаш муҳим аҳамият касб этади.

Таълим жараёнида инсоннинг энг олий қадриятлигини тўғри англамасдан туриб инсонпарварлаштириш тамойилини амалга ошириш мумкин эмас. Инсонпарварлик ҳеч қачон индивидуализмни ёқламайди. Аксинча, умуминсоний ибтидони устувор деб белгилаб, индивидуализм ғоясига қарши туради. У инсон шахсининг бошқа одамлар томонидан буюк қадрият сифатида англаш, жамоатчилик, бошқалар билан бирдамлик, ўзаро бир-бирини қўллаб қувватлаш ғоясига асосланади.

Таълимнинг инсонпарвар йўналганлиги таълим жараёнини тегишли шакллари орқали амалга оширилиши мумкин. Бунда таълим жараёнини юқори даражада индивидуаллаштириш ва дифференциялаш, ўқувчиларда фаоллик ва ташаббускорликни шакллантиришга урғу бериш, ўқитувчи ва ўқувчилар орасидаги муносабатларни ўзаро ҳамкорлик асосида қуришга алоҳида эътибор берилади.

Шунга кўра инсопарварлик педагогик фаолиятнинг асл моҳияти саналади ҳамда у субъект-субъект ёндашув, педагогик ҳамкорлик, муваффақият ҳисси, босим ўтказмаслик, таълим, тарбия ва маълумотнинг полисубъектли (коллектив субъект) шарт-шароитини яратишни назарда тутади.

Адабиётлар

1. Педагогика// М.Тохтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти, 2010.
2. Ибрагимов Х.И. Абдуллаева Ш.А. Педагогика назарияси. – Т.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2008.
3. Юзликаева Э., Ахмедова М., Қурбонова Г., Ташметова Ш. Умумий педагогика – Т.: ТДПУ, 2012.
4. Холиқов А.А. Педагогик маҳорат. – Т.: Иқтисод-молия, 2011.



Темир ОЛИМОВ
Бухоро давлат университети ҳузуридаги
халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва малакасини
ошириш ҳудудий маркази ўқитувчиси

ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИДА ЗАМОНАВИЙ ЎҚИТУВЧИНИНГ ИМИДЖИ

Мақолада фуқаролик жамиятида замонавий ўқитувчининг ўрни, унинг педагогик маҳорати, ўқувчи-ёшлар тарбиясида педагогик техника малакаларини қўллаш имкониятлари тўғрисида фикр юритилган.

Таянч тушунчалар: *фуқаролик жамияти, замонавий ўқитувчи, тарбия, педагогик техника, ўқитувчи нутқ маданияти, маънавий-ахлоқий тарбия, педагогик маҳорат.*

В статье освящаются место учителя в гражданском обществе, его педагогическое мастерство и возможности в воспитании учащейся молодёжи.

Опорные понятия: *гражданское общество, современный учитель, воспитание, педагогическая техника, речевая культура учителя, духовно-нравственное воспитание, педагогическое мастерство.*

In article is light up, the place of teacher in civil society, his pedagogical masculinity and opportunities in the education of students.

Supporting concepts: *civil society, modern teacher, education, pedagogical technique, speech culture of the teacher, spiritual and moral education, the pedagogical skills.*

Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А. Каримов томонидан илгари сурилган “Кучли давлатдан кучли фуқаролик жамият сари” тамойили давлат бошқаруви соҳасида фуқароларнинг роли тобора ортиб бориши, барча фуқаролик жамоатчилиги институтлари тизимининг янада ривожланиши ва уларнинг давлат бошқаруви жараёнларига қўшадиган ҳиссалари кўпайишини назарда тутади. Чиндан ҳам охирги йилларда бутун дунё бўйлаб бошқарув ислоҳотларини ўтказишда ҳаракатлантирувчи куч сифатидаги фуқаролик жамиятининг сезиларли ўсиши кузатилмоқда. Кўп ҳолларда давлат ва фуқароларни ошкоралик ва ҳисобдорликни мустаҳкамлаш, шунингдек, ҳукуматларнинг хизмат кўрсатиш имкониятлари бўйича кенг инновация ташаббусларига жалб қилиш борасида фуқаролик жамияти институтлари ишончли ҳамкор сифатида ҳаракат қиладилар. Фуқаролик назоратининг кучли воситалари ёрдамида бутун дунёда бюджет ва давлат харидлари сиёсатини ишлаб чиқиш ва уни амалга ошириш, унинг ҳолати устидан назорат қилиш, шунингдек, бошқарув ҳамда давлат институтларининг ошкоралигини қўллаб-қувватлашда фуқаролик жамиятининг иштироки жадал суръатларда ривожланиб келган. Фуқаролик кучлари ва соғлом ижтимоий турмушга хос бўлган бошқарувда жамоатчиликнинг салмоқли иштироки ижтимоий барқарорлик ва тинчликнинг пойдеворидир. Шунингдек, давлат хизматларини тарғибот қилиш ва одилона кўрсатиш йўли билан ижобий ижтимоий ўзгаришларни аниқлаш ва унга ҳисса қўшишда барқарор инсон тараққиётини қўллаб-қувватлаш борасида фуқаролик жамиятининг роли каттадир. Шу сабабли, фаол фуқаролик жамияти барқарор инсон тараққиётини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Шундай экан, фуқаролик жамиятининг фаолияти учун қулай шарт-шароитлар яратиш дунёдаги ҳар қандай мамлакатнинг бошқаруви борасидаги муҳим жиҳат ҳисобланади.

Шахсни тарбиялаш иши ниҳоятда мураккаб фаолият жараёни бўлиб, жуда қадимдан ушбу фаолиятга жамиятнинг етук кишилари жалб этилгандир. Мазкур ҳолат ёш авлод тарбияси, унинг ташкил этилиши мазмуни нафақат шахс камолоти, балки жамият тараққиётини ҳам белгилашда муҳим аҳамиятга эга эканлигини англатади.

Ўзбекистон Республикасида педагог кадрларнинг маънавий қиёфаси, ақлий салоҳияти ҳамда касбий маҳоратига нисбатан жиддий талаблар қўймоқда. Чунончи, бу борада Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И.А. Каримов қуйидагиларни қайд этади: “Тарбиячи – устоз бўлиш учун, бошқаларнинг ақл-идрокини ўстириш, маърифат зиёсидан баҳраманд қилиш, ҳақиқий ватанпарвар, ҳақиқий фуқаро этиб етиштириш учун, энг аввало, тарбиячининг ана шундай юксак талабларга жавоб бериши, ана шундай буюк фазилатларга эга бўлиши керак” [1]. Юқорида қайд этилган

фикрлардан бугунги кун ўқитувчиси шахсига нисбатан қўйилаётган талаблар мазмуни англанилади. Замонавий ўқитувчи қандай бўлиши зарур?

Ўқитувчи (педагог) педагогик, психологик ва мутахассислик йўналишлари бўйича махсус маълумот, касбий тайёргарлик, юксак ахлоқий фазилатларга эга ҳамда таълим муассасаларида фаолият кўрсатувчи шахс саналади.

Бизнинг назаримизда, замонавий ўқитувчи қиёфасида қуйидаги фазилатлар намоён бўла олиши лозим:

-ўқитувчи жамият ижтимоий ҳаётида рўй бераётган ўзгаришлар, олиб борилаётган ижтимоий ислоҳотлар моҳиятини чуқур англаб етиши ҳамда бу борада ўқувчиларга тўғри, асосли маълумотларни бера олиши;

-замонавий ўқитувчининг илм-фан, техника ва технология янгиликлари ва ютуқларидан хабардор бўлиши;

-ўқитувчи ўз мутахассислиги бўйича чуқур, пухта билимга эга бўлиши, ўз устида тинимсиз изланиши;

-ўқитувчи педагогика ва психология фанлари асосларини пухта билиши, таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларнинг ёш ва психологик хусусиятларини инобатга олган ҳолда фаолият ташкил эта олиши;

-ўқитувчи таълим-тарбия жараёнида энг самарали шакл, метод ва воситалардан унумли фойдалана олиш имкониятига эга бўлиши;

-ўқитувчи ижодкор, ташаббускор ва ташкилотчилик қобилиятига эга бўлиши;

-ўқитувчи юксак даражадаги педагогик маҳорат, чунончи, коммуникативлик лаёқати, педагогик техника (нутқ, юз, қўл-оёқ ва гавда ҳаракатлари, мимика, пантомимика, жест) қоидалари чуқур ўзлаштириб олишга эришишлари лозим.

Ўқитувчи нутқ маданиятига эга бўлиши, унинг нутқи қуйидаги хусусиятларни ўзида акс эттира олиши лозим:

а) нутқнинг тўғрилиги;

б) нутқнинг аниқлиги;

в) нутқнинг ифодавийлиги;

г) нутқнинг софлиги (унинг турли шева сўзларидан холи бўлиб, фақат бадиий тилда ифода этилиши); жаргон (муайян касб ёки мутахассисликларига хос сўзлар); варваризм (муайян миллат тилида баён этилаётган нутқда ўзга миллатларга хос сўзларни ноўрин қўлланилиши); вулгаризм (ҳақорат қилиш, сўкишда қўлланиладиган сўзлар) ҳамда концеляризм (ўрни бўлмаган вазиятларда расмий сўзлардан фойдаланиш) сўзлардан холи бўлиши, ўқитувчининг нутқи содда, равон ва тушунарли бўлиши;

д) нутқнинг равонлиги;

е) нутқнинг бойлиги (ҳикматли сўзлар, ибора ва мақоллар, маталлар ҳамда кўчирма гаплардан ўринли ва самарали фойдалана олиш).

Ўқитувчи кийиниш маданияти (содда, озода, бежирим кийиниши), таълим-тарбия жараёнида ўқувчининг диққатини тез жалб этувчи турли хил безаклар (олтин, кумуш тақинчоқлар)дан фойдаланмаслиги, фасл, ёш, гавда тузилиши, юз қиёфаси, ҳатто, соч ранги ва турмагига мувофиқ равишда кийинишни ўзлаштиришга эришиши.

Ўқитувчи педагогик мулоқот жараёнининг фаол иштирокчиси сифатида ўзида бир қатор сифатларнинг таркиб топишига эришиши зарур. Чунончи, у энг аввало, мулоҳазали, босиқ, вазиятни тўғри баҳолай оладиган, мавжуд зиддиятларни баратараф этишнинг уддасидан чиқа олиши зарур. Ўқувчи, ота-оналар ҳамда ҳамкасблари билан мулоқот жараёнида фикрини аниқ ва тўла баён этилишига аҳамият қаратиши мақсадга мувофиқ. Улар билан муносабат жараёнида сўзни салбий ҳолатлар ҳақидаги далилларни келтиришдан эмас, аксинча, ўқувчи (ёки ҳамкасби, ота-оналар)нинг муваффақиятларини эътироф этиши, уларнинг янада бойишига ишонч билдириши у билан тиллаша олишига имкон беради. Мулоқот жараёнида ўқитувчининг сўзларидан суҳбатдошига нисбатан хайрихоҳлик, самимийлик, дўстона муносабат сезилиб туриши, шунингдек, имкон қадар кўтаринки кайфиятда бўлиши зарур.

Ўқитувчи шахсининг мазкур талабларга мувофиқ келувчи қиёфаси унинг ўқувчилар, ҳамкасблар ҳамда ота-оналар ўртасида обрў-эътибор қозонишини таъминлайди.

Педагогик маҳоратни эгаллаш йўллари. Ўқитувчи баркамол авлодни тарбиялаш жараёнида иштирок этар экан, нафақат маънавий-ахлоқий маданияти билан атрофдагиларга ўрнак бўлиши, шу би-

лан бирга, педагогик маҳоратини намоён эта олиши, етук педагог сифатида малакали кадрларни тайёрлашишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшиши зарур.

Педагогик маҳорат – юксак педагогик тафаккур, таълим-тарбия жараёнига онгли, ижодий ёндашув, методик билимларни самарали қўллай олиш қобилияти бўлиб, у доимий равишда педагогик билимларни ошириб бориш, янгиликлардан хабардор бўлиш, илғор технологияларни ўзлаштириш асосида таркиб топади. Ёш, шунингдек, таълим муассасасида бир неча йиллик меҳнат стажига эга бўлган ўқитувчиларнинг педагогик маҳоратга эга бўлишлари ўзини касбий жиҳатдан такомиллаштириш йўлида бир қатор шартларга амал қилиши ҳисобига таъминланади. Улар қуйидагилардан иборат:

1. Мустақил ўқиб-ўрганиш (педагогика фанида рўй бераётган янгиликлар ҳақида маълумотларни берувчи янги адабиётлар, Интернет материаллари, вақтли матбуот саҳифаларида чоп этилаётган маълумотлар, шунингдек, илғор технологиялар билан танишиб бориш, уларда илгари сурилаётган ғояларни умумлаштириш, хулосалаш асосида мустақил лойиҳаларни тайёрлаш).
2. Ҳамкасб тажрибали ўқитувчилар фаолиятини ўрганиш (таълим муассасасидан четга чиқмаган ҳолда ташкил этилиб, вақт, шунингдек, иқтисодий нуқтаи назардан самарали саналади. Тажрибали ўқитувчилар фаолиятини ўрганиш улар томонидан ташкил этилаётган машғулотларни кузатиш, таҳлил қилиш асосида амалга оширилади. Бу борада олинган таассуротларни умумлаштириш асосида хулоса чиқариш мақсадга мувофиқдир).
3. Педагог ходимларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш курс (институт)ларида касбий малакаларини ошириш.
4. Доимий равишда илмий анжуманлар (назарий ва амалий конференция ҳамда семинарлар, педагогик ўқиш ҳамда тренинглар)да фаол иштирок этиш.
5. Республика ҳамда ривожланган хорижий мамлакатларнинг етакчи таълиммуассасаларида уларнинг иш тажрибаларини ўрганиш (стажировка).

Педагогик маҳоратни эгаллашда гуруҳли ва оммавий тадбирларда иштирок этиш ижобий натижалар беради. Бинобарин, бундай муҳитда ўзаро фикралмашиш, шахсий мулоҳазаларни бошқалар томонидан билдирилаётган қарашлар билан таққослаб, уларнинг тўғрилиги, ҳаққонийлигига ишонч ҳосил қилиш, мавжуд билимларни янада бойитиш, хато ёки камчиликларни аниқлаш ҳамда уларни бартараф этиш йўлларини топиш имконияти мавжуд.

Педагогик маҳоратга эга бўлиш таълим-тарбия самарадорлигини таъминлаш гарови бўлибгина қолмай, айни вақтда ўқитувчининг жамоадаги обрў-эътиборини ҳам оширади, ўқувчиларга унга нисбатан ҳурмат юзага келади.

Касбий маҳоратни ошириш йўлида амалий ҳаракатларни ташкил этиш педагогик фаолиятда йўл қўйилган ёки қўйилаётган хатолардан холи бўлиш, ўқувчилар, ҳамкасблар ҳамда ота-оналар билан муносабатда муваффақиятларга эришиш имкониятини яратади.

Мустақиллик йилларида Ўзбекистон Республикасида малакали (маҳоратли) ўқитувчиларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг тажрибаларини оммалаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Маҳоратли ўқитувчиларни аниқлаш мақсадида турли кўрик, танловлар ташкил этилмоқда. Хусусан, “Йил ўқитувчиси” кўрик-танлови таълим муассасаларида фаолият олиб бораётган ўқитувчиларга педагогик маҳоратларини индивидуал равишда намойиш этиш имкониятини бераётган бўлса, “Йил мактаби” кўрик-танлови ўқитувчиларга жамоа асосида таълим муассасасида қўлга киритилаётган ютуқларни оммага кўрсата олишлари учун шароит яратилади.

Хулоса ўрнида шуни қайд этиш жоизки, “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” Ўзбекистон Республикасида таълим тизимида амалга оширилаётган ислоҳотлар мазмунини ўзида акс эттирган муҳим юридик ҳужжат бўлиб, истиқбол учун йўлланмадир.

Адабиётлар

1. Каримов И.А. Буюк келажагимизнинг ҳуқуқий кафолати. – Тошкент: “Шарқ” НМК, 1993. – Б. 27-28.



Farhod NORBO'TAYEV
Navoiy davlat pedagogika instituti
pedagogika va psixologiya
ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

O'SMIRLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH YO`LLARI

Maqolada o'smir yoshidagi o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish va buni amalga oshirishda innovatsion metodlardan samarali foydalanish kabi masalalar tahlil qilingan.

Tayanch tushunchalar: *tanqidiy fikrlash, qobiliyat, shaxs, dalillash, tasniflash, xulosalash.*

В статье анализируются такие вопросы, как способность развивать навыки критического мышления для подростков и использовать инновационные методы их реализации.

Опорные понятия: *критическое мышление, способность, личность, обосновывать, классифицировать, подитоживать.*

In article is analyzed such issues as the ability to develop critical thinking skills for adolescents and use the innovative methods for their implementation.

Supporting concepts: *critical thinking, ability, personality, substantiate, classify, summarize.*

O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da shaxs va jamiyat munosabatlarida uyg'unlikni vujudga keltirish, shuningdek, yoshlarda mustaqil, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish alohida ta'kidlab o'tilgan. Shunga ko'ra, pedagogika fanida shaxsning imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradigan o'quv jarayonini tashkil etishning turli yo'llarini izlash alohida dolzarblik kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida: "Milliy dasturning amalga oshirilishi jamiyatda mustaqil fikrlaydigan shaxsning shakllanishiga olib keladi. Bunday shaxslarning ko'payishi jamiyatda ongli hayot kechirish tizimini vujudga keltiradi. Odamlar olomon bo'lib yashashdan bosh tortadilar, har bir kishi o'z aqli, o'z mehnati, o'z xulosasi bilan yashay boshlaydi. Eng asosiysi bunday kishilarga chetdan hech qanday nopok kuch, buzuq g'oyalar, quruq shiorlar, chaqiriqlar bilan ta'sir etib bo'lmaydi. Bunday odamlarni o'zi tanlagan yo'llari, maqsadlaridan hech qanday kuch toydira olmaydi. Aynan shu xislatlar milliy xafsizlikning mustahkamlanishiga olib keladi" [1], – deb ta'kidlagan edi. Shuningdek, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ham "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" asarida har bir rahbar yoki shaxs chuqur tahlil va tanqidiy yondashuvga asoslangan holda o'z faoliyatini olib borishini bugungi davrning o`zi taqozo etayotganligini aytib o'tadilar.

Darhaqiqat, jamiyatda xilma-xil fikrlash muhitini vujudga keltirishda mustaqil, tanqidiy fikrlovchi shaxslarning o'rni beqiyosdir. Dunyoga yangi ko'z bilan qaraydigan barkamol insonni shakllantirish, uning natijasi, mahsuli orqali mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, kuchli irodali, g'oyaviy e'tiqodli, ma'naviyati yuksak, pok vijdonli shaxsni kamol toptirish respublikamiz pedagoglari oldida turgan eng muhim va mas'uliyatli vazifadir. Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi shaxsining tanqidiy fikrlash faoliyatini shakllantirib, muntazam rivojlantirib borish, "subyekt-subyekt" munosabatini amalda ta'minlash natijasida ularning ijodiy faolligi, izlanuvchanligi, irodaviy sifatlari, ishchanligi, e'tiqodini tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarda kichik maktab yoshida shakllangan tanqidiy fikrlash elementlarini o`smir yoshida yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchini murakkab vaziyatlardan chiqish, o'z fikrini bayon qilishdan qo'rqmaslikka o'rgatib borish lozim. Dastlabki to'siqlardan o'tolmaslik, sinovlardan cho'chish, bunday vaziyatdan tushkunlikka tushish holatlarini o'qituvchi o'z vaqtida bartaraf etish kerak. O'quvchilarga muayyan vaziyatlarda yaxshi va yomon holatlarni farqlay olish ko'nikmasini tarkib toptirish ham tanqidiy fikrlashning asosiy elementlaridan biridir.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanganlik ko'rsatkichlari:

- bayon qilingan fikrni tahlil qilish;
- umumlashtirish;

– to’g’ri baholay olish;
– o’xshatish, qiyoslash, solishtirish;
– farqlay olish;
– tasniflash;
– dalillash;
– xulosalash. Bunda ta’lim-tarbiya sohasi mutasaddilari zimmasiga yuklanayotgan mas’uliyatli vazifaning zalvori ayni shu jihat bilan o’lchanadi. Bir kun kech ekilgan daraxt bir hafta kech meva tugadi deganlaridek, tarbiya sohasida bir kunga bo’lsin kech qolish ham ma’lum muammolarga sabab bo’ladi. Shu boisdan, davlatimiz rahbari ma’naviy-ma’rifiy tarbiya sohasi mutasaddilariga, ayniqsa, pedagoglarga katta ishonch bildirib, kelajagimiz, ertangi kunimiz bilan bog’liq xavfdan barchamizni qayta-qayta ogoh qilmoqda.

Shaxsning shakllanishida har bir davr o`ziga xos xususiyatga ega. Jumladan, o`smirlik davri o`zining qiziqqonligi, fikrining o`zgaruvchanligi, tez asabiylashish, krizis holatlarga boy bo`lishi bilan boshqa davrlardan farq qiladi. Buning asosiy sababi, o`smirlik davrida ham fiziologik, ham psixologik jihatdan o`zgarishlar yuzaga keladi. Bu davrda o`smirlarning ta’lim-tarbiyasiga va xususan psixikasiga to`g`ri ta`sir etilmasa, ularda xarakterning kelajakdagi oqibatlari ijobiydan salbiyga qarab rivoj topib borishi mumkin. Bu esa jamiyatga ya`ni, sotsiumga kirishib ketishiga, hayotda o`z o`rnini egallashiga va atrofdagi voqea-hodisalarga obyektiv baho berishida qiyinchilik tug`diradi.

Xususan, tanqidiy fikrlashni o`smir yoshida rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo’la boshlaydi. Atrof-olamdagi bog`lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o’smirning bilishga bo’lgan qiziqishida progress sodir bo’ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta’sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo’la boshlaydi.

O`smir yoshdagi o`quvchilarda innovatsion metodlar, rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari asosida ularning barcha shaxsiy sifatlarini, jumladan, bilimi, layoqati, aqliy harakat usuli, tanqidiy tafakkuri, o’z-o’zini boshqarish mexanizmi, emotsional-axloqiy va amaliy faoliyatini intensiv rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga o’quvchini mustaqil, tanqidiy fikrlashga undaydigan strategiya va texnologiyalarni olib kirish, ularni tanqidiy fikrlashga undovchi ijodiy pedagogik muhitni qaror toptirish, o’qituvchi va o’quvchilar orasida ishchan muloqot, hamkorlik vaziyatini vujudga keltirish o’quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun nihoyatda zarurdir.

O’quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, asosan, o’quv mashg’ulotlari jarayonida innovatsion metodlarni qo’llagan holda samarali kechadi. Ta’lim tizimidagi ijtimoiy gumanitar fanlarni o`qitish jarayonida o`smirlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyati kengdir. Ayniqsa, milliy istiqlol g`oyasi turkumiga kiruvchi fanlar, shuningdek, tarix, adabiyot fanlani keltirishimiz mumkin.

Biz quyida adabiyot darsidagi bir mavzu misolida o’smirlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yo’llariga oid o`z qarashlarimizni bayon etmoqchimiz.

9- sinf adabiyot darsi.

Mavzu: “O’tkan kunlar asari ustida ishlash”

O’qituvchi o’tilgan mavzuning qisqacha bayonini keltirib, o’quvchilar bilan savol-javob qilib mustahkamlab olgandan keyin, o’quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish uchun “FSMU” innovatsion metodidan foydalanadi.

O`qituvchi: Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asari qanday asar? (o`quvchilar quyidagicha to`ldirishi mumkin)

FIKR — fikringizni bayon qiling	Milliy xarakter ifodalangan birinchi realistik asar
SABAB — fikringizga sabab ko`rsating	O’zbekona qadriyatlar keng talqin etilgan bo’lib ota-onaning va farzandlar o’rtasidagi munosabatlar aks ettirilgan.
MISOL — fikringizni misollar bilan to`ldiring	Yusufbek Hoji obrazida uzoqni ko’ra oladigan dono siyosatchi, haqiqatparvar va xalqsevar amaldor bo’lish bilan birga oilaparvar bag`rikeng ota obrazi o’z ifodasini topgan.
UMUMLASHTIRISH — fikringizni umumlashtiring	Abdulla Qodiriyning “O’tkan kunlar” asari o’zbek xalqining yaqin o’tmishdagi mashaqqatli hayoti, er-xotin munosabatlaridagi tengsizlik-

	ning mavjudligi, shuningdek, go'zal odob-axloq egasi bo'lgan yoshlar hayotining zavol topishi qalamga olingan.

O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga undovchi innovatsion metodlardan yana biri "Ikki qismlik kundalik" usulidir. Bu usul birinchidan, mavzu matnini chuqur tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, o'quvchilarni voqea hodisalarga obyektiv baho berishga undaydi. Tanqidiy fikrlashning muhim elementlaridan biri o'quvchilarning voqea hodisalarga xolisona baho bera olishidir.

Ikki qismli kundalik asosida ishlash topshirig`i berilgach, o'quvchilar daftar varag'ini quyidagi tarzda ikki qismga bo'ladi. Chap tomondagi "Parcha" deb yozilgan qismga o'quvchilar matn yuzasidan biror parcha yoki ularga qattiq ta'sir qilgan narsa yoki ularni haqiqatda hayron qoldirgan timsol haqida yozishlari kerak. Ikki qismlik kundalik usuli mohiyatini quyidagi misolda ko'rib chiqish mumkin:

PARCHA	SHARH
Yusufbek Hoji – "Men ko'p umrimni shu yurtning tinchligi fuqarolarning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni, ne el ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb ichkan, mansabparast, dunyoparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadirgan, bir-birimizning tegimizga suv qo'yodurg'on bo'lsak, yaqindirki, o'ris istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'ynig'a o'ris bo'yinduri-g'ini kiydirgan bo'lamiz.	O'z o'g'lining tanqidlaridan aybsiz abdor bo'layotgan Yusufbek Hoji o'sha davrining mansabparast, dunyoparast insonlaridan nafratlanadi. Vatanning mustaqilligi, yaxlitligi uchun kurashishni hayotining ma'nosi deb bilgan, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik, tanish-bilishchilik qilib o'zaro nizolashib yurgan maydakashlarni katta ishlarga undab, agar vaziyat shu holda davom etsa, millatning xarob bo'lishini, yurt tuprog'ining bosqinchilar oyog'i ostida xor bo'lishini bashorat qilgan o'z davrining buyuk shaxsi sifatida Yusufbek Hoji siymosini ko'rishimiz mumkin. Shunday samimiy qalb egalarini yetishtirgan millat ozod va erkin yashashga haqli edi. Ichki kurashlar, nizolar, fitnalarga o'ralashib boy berib qo'ygan hurligimizni bir yoqadan bosh chiqarib qaytarib oldik. Yaratganga shukrki, mamlakatimizni butun dunyo tan olib turganiga chorak asrdan oshdi. Vatanimiz madhiyasi dunyoning eng baland minbarlarida jaranglaganda yuksak martabali insonlar ham qo'llarini ko'ksiga qo'yib hurmat bajo aylayapti. Qodiriy tilga olgan yorug' kunlarga erishib yashamoqdamiz.

.

O'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi metodlardan yana biri "Muammoli o'qitish" usulidir. Bu usul ham real vaziyatlarni o'rganish, muammoni aniqlash, uni analiz, sintez qilish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. "O'tkan kunlar" romanidagi bosh qahramon Kumushbibining hayoti fojea bilan yakunlanishiga sabab bo'lgan muammolarni o'quvchilar quyidagicha keltirib, ularning yechimlari haqida o`z qarashlarini quyidagicha bayon etishlari mumkin:

Asosiy muammolar	Yechim	Natija
1.O'zbekoyimning orzu-havaslarga berilib Otabekning ra'yiga qaramasdan uni 2-marta uylantirib qo`yishi. 2. Kumushbibi to'ydan keyin Toshkentda, Otabekning uyida yashamaganligi.	1. O'zbek oyim o'g'li Otabekning ko'ngliga qarashi, uning fikrlarini inobatga olishi kerak edi. 2. Kumishbibining ota-onasi to'ydan so'ng qizini Marg'ilonda o'z uyida olib qolmasdan Toshkentga jo'natish kerak edi. 3. Shar'iy nikohidagi ayollariga	Kumushning hayoti fojea bilan yakunlanmas edi.

3.Otabekning Zaynabga befarqligi. 4. Zaynab irodasining sustligi. 5. Har ikkala tomonning qudaandachilik munosabatlariga jiddiy yondashmaganligi. ...	Otabek bir xilda munosabatda bo'lishi kerak edi. 4.Zaynab har qanday holatda ham insonni o'ldirish darajasiga borib yetmasligi kerak edi. 5. Har ikkala qudalar o'zbek xalqining rasm-rusumi asosida ish ko'rmaganliklari sabab bo'ldi.	

O'qituvchining yuqorida keltirilgan innovatsion metodlardan foydalanishi guruh ichida guruhlarda ishlanaganda kutilgan natijani beradi. Tanqidiy fikrlash bu o'quvchi fikrlashining eng yuqori darajasidagi aqliy faoliyati bo'lib, g'oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg'unlashuvi, konsentratsiyasi va axborotlarni qayta fikrlash va qayta qurishdek murakkab jarayondir. Tanqidiy fikrlashda g'oyalar va ularning ahamiyati ko'pfikrlilik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi hamda ular boshqa g'oyalar bilan taqqoslanadi. Unda tahlil, taqqoslash, izohlash, qo'llash, tortishuv, yangilik, muammolarni hal qilish yoki fikrlash jarayonini baholashga alohida e'tibor beriladi.

Shunday qilib, tanqidiy fikrlash bugungi kunning dolzarb mavzusi bo'lib, uni rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish zarur. Chunki ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki va bu jarayonga o'zlarining mas'ul ekanliklariga ongli ravishda anglab yetishlari, taqdim etilgan axborotlarni turli darajalarda tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishlari lozim. Natijada jamoatchilik uchun eng muhim masalalarni yechishga ongli ravishda hissa qo'sha oladigan, tanqidiy fikrlovchi hududiy, mahalliy, davlat va xalqaro darajada turli muammolarni yechishga ko'maklashuvchi fuqarolarni tarbiyalash, yoshlarimizda bunyodkor g'oyalarni vayronkor g'oyalardan farqlay olish ko'nikmalarini kamol toptiradi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: "O'zbekiston", 2000. – 250-bet.

2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak. – T.: "O`zbekiston", 2017.

3. Yo'ldoshov Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. 9-sinf Adabiyot darsligi. – Toshkent, 2014.

4. G`oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – T.: O`zMU, 1998.

5. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T.: TDPU, 2005.



Hilola AXADOVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
umumiy pedagogika va psixologiya
kafedrasi o`qituvchisi

KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI O`QUVCHILARNI "OMMAVIY MADANIYAT" TA`SIRIDAN HIMOYALASH

Maqolada o`quvchi-yoshlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ilmiy, tarixiy asarlarni o`qish, o`rganish, tahlil etishga bo`lgan qiziqishlarini orttirish orqali ularda "ommaviy madaniyat"ga nisbatan mafkuraviy immunitet hosil qilinishi haqida mulohazalar bayon etilgan. Ilm-fan, jamiyatning yutuqlari, taraqqiyoti kitob bilan yuzaga keladi, kitob yoshlikda eng yaxshi murabbiy, qariganda esa undan yaxshroq do`st yo`qligi xususidagi fikrlar qayd etilgan.

Tayanch tushunchalar: *kitobxonlik, ilmiy-ommabop asarlar, badiiy asarlar, kitobga qiziqish, ommaviy madaniyat, o`quvchi, o`qituvchi.*

В статье излагаются размышления об образовывании идеологического иммунитета против массовой культуры у молодежи путем увеличения интересов к чтению и анализа научных, исторических произведений, формирования в них культуры чтения. Развитие науки и достижения общества осуществляется книгой. Книга самый лучший учитель в молодости, а в старости самый лучший друг.

Опорные понятия: *чтение, научно-популярные произведения, художественные произведения, интерес к книге, массовая культура, ученик, учитель.*

In article is contained thoughts about the formation of ideological immunity against the mass culture among young people by increasing the interest in reading and analyzing scientific and historical works and forming culture in reading. The development of science and the achievement of society is carried out by a book. The book is the best teacher in young age and the best friend in old.

Supporting concepts: *reading, non-fiction works, art works, interest in the book, mass culture, pupil, teacher.*

Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma`naviy taraqqiyotidagi o`rni beqiyos. U bilim berish bilan birga ma`naviy dunyoqarash, aqliy salohiyat, milliy g`urur singari sifatlarni rivojlantirib, ijobiy xarakterni tarkib topdiradi, hayot va turmush ziddiyatlarini qanday qilib yechish yo`llarini o`rgatadi. Bu xislatlarni egallab olgan har bir o`quvchi jamiyat taraqqiyotiga o`zining munosib hissasini qo`sha oladi. Shuningdek, kitob avlodlar zanjirini mustahkamlovchi ma`naviy merosdir. U inson ruhiga ta`sir etib, o`quvchiga zavq bag`ishaydi hamda aqlni charxlab uni tarbiyalaydi.

Bugungi kunda jahon yoshlari psixologiyasida oilaviy, milliy-diniy qadriyatlarga bo`lgan munosabat sovuqlashib, begonalanish tendensiyalari kuchayishi kuzatilmoqda.

Mamlakatimizda ana shunday holatlarning oldini olish, o`quvchilarni "ommaviy madaniyat" ta`siridan himoya qilish, ularning tarbiyasini to`g`ri amalga oshirish borasida qolgan davlatlarga ham o`rnak bo`la oladigan dasturlar ishlab chiqilgan. Chunonchi, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlari"ga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma`ruzasida ta`lim, ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish yuzasidan qator vazifalarni belgilab berdi. Bular qatorida o`quvchi-yoshlarning badiiy, ilmiy, tarixiy adabiyotlarni o`qishga bo`lgan qiziqishlarni shakllantirish borasidagi quyidagi fikrlarini keltirish mumkin. "Hozirgi paytda hammamizning oldimizda juda muhim ahamiyatga ega bo`lgan masala, ya`ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo`lgan muhabbatini ularning ma`naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi" [1].

Kitobdir beminnat, beg`araz ustod, har damda qilursan undan bilim yod.
Kitob javoni-ilm xirmoni, undagi har jild-aql darmoni.
Ilmni faqat yozuv ovlaydi, ilm istaganlar kitob kovlaydi.

Kim kitobxon – donishmand. Uning bahosi baland singari hikmatlar shular jumlasidandir.

Adabiyotshunos Safo Matjonov ta`kidlaganidek, "Ilmiy asarlar g`aflat va jaholatdan qutqarsa, badiiy asarlar dag`allik va razolatdan xalos etadi. Unisi ham, bunisi ham kishilarning ma`rifatli, baxt-saodatli bo`lishi uchu bab-baravar foydali va zarurdir" [2].

Darhaqiqat, kitob o`zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi, o`quvchini insoniyatning ma`naviyat tajribasiga oshno etadi. U yoki, bu asar o`quvchi tomonidan to`liq qabul qilinsa, bu asar uning shaxsiga shunchalik katta ta`sir ko`rsatadiki, o`quvchi o`z oldiga buyuk maqsadlar qo`yib, yomon illatlardan o`zini saqlaydi. Shuning uchun ham ta`limning yetakchi vazifalaridan biri o`quvchilarda kitob o`qishga bo`lgan qiziqishni shakllantirish, undagi voqea va hodisalarni tahlil etishga o`rgatishdir. Buning uchun avvalambor, har bir o`qituvchi u qaysi fandan dars berishidan qat`iy nazar, o`quvchini kitob o`qishga qiziqtirish yo`llari, shart-sharoitlarini bilishi zarur.

Ilmiy-ommabop, badiiy, tarixiy asarlarni tahlil qilish qobiliyati o`z-o`zidan rivojlanmaydi. Bu ta`lim jarayonida o`qutuvchining sa'y-harakatlari, turli metod va vositalari yordamida amalga oshiriladi.

O`qituvchi o`quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda amal qilishi lozim bo`lgan quyidagi mezonlarni tavsiya qilmoqchimiz:

-avallo o`quvchiga kitobni to`g`ri tanlash yuzasidan maslahatlar berish;

-o`quvchining qanday kitoblarni o`qishga qiziqishi va tafakkuri qay darajadaligini aniqlash;

-o`quvchilarga o`qish uchun tavsiya etiladigan asarlardan muhim bir voqeani ta`sirli qilib aytib berib voqeani davomini bilish uchun asarni o`qishga qiziqtirib qo`yish:

-o`quvchilar bilan tez-tez ular o`qigan kitoblari yuzasidan asarning muhokamasini qizg`in suhbat asosida o`tkazish orqali, hamma o`quvchilarda bunday suhbatlarda ishtirok etish ishtiyoqini uyg`otish:

-o`z fikrini ravon, erkin ifodalay olish ko`nikmasini shakllantirishi;

-asarlarning mazmuni, g`oyasi, o`quvchining asarga munosabatini so`rab borish orqali kitob o`qish ko`nikmasini hosil qilish:

-yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash, matnni ifodali o`qiy olish malakasini shakllantira olish kabidir.

O`quvchilarda badiiy asarni o`qish jarayonida ularda hayajon, rang-barang tuyg`ular to`planganini kuzatamiz. O`quvchilarda ilmiy-ommabop, badiiy asarlarni o`qishga bo`lgan qiziqishni oshirish orqali ularga atrofdagi voqea-hodisalarga to`g`ri oqilona munosabat shakllanadi. Masalan: internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqu odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta'sirlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, "ommaviy madaniyat" kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqishning eng asosiy omili kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdan iborat. Biz "ommaviy madaniyat"dan himoyalanish bilangina shug'ullanmay, o'z g'oyalarimiz, an'analarimiz, turmush tarzimizni yoshlarimizga, dunyoga yoyish uchun harakat qilishimiz zarur. Milliy ma'naviyatimizni va madaniyatimizni himoya qilish uchun kitobdan samaraliroq va kuchliroq vosita yo'q. Kitob o`quvchida e'tiqodni shakllantiradi. E'tiqod shaxs onggida shunday muhim o'rin tutadiki, uning hayot yo'nalishi, hayot tarzi, intilishlari shu e'tiqod bilan belgilanadi.

Inson onggiga yo'l topayotgan, kirib borayotgan g'oyalar ham xuddi shu e'tiqod chig'irig'idan o'tkaziladi. E'tiqodga mos kelmaydigan g'oyalar rad etiladi.

"Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak" (Abdulla Qahhor). Mamlakatimiz olim va yozuvchi, shoirlarining asarlarida milliy mentalitetimizga mos g'oyalarga asoslanib, g'oya esa asarga mos va mutanosib tarzda yaratilishi kerak. Yozuvchi A.Qahhor "Biror bir asar o'quvchida qanday ta'sir qoldirsa, uni qaysi yo'lga boshlasa, g'oyasi o'shanda" degan fikrni bildirgan. Darhaqiqat, hozirgi kunda yoshlarni "ommaviy madaniyat"dan himoyalash uchun ularni ezgu g'oyalariga undash kerak va bu g'oyalar ularning maslagiga aylanishiga erishmoq lozim.

Ayniqsa, o`smir yoshidagi o`quvchilarda kitob o`qish va mutolaa qilishga qiziqishni shakllantirish muhim hisoblanadi. Chunki bu yoshda atrofdagi voqea-hodisalarga qiziqishi ortib boradi. Ular ko`proq o`zlari qiziqqan mashg`ulotni kattalardan yashirincha bajarishga harakat qiladi. Yolg`on so`zlash, qilgan aybini yashirish va kattalar oldida o`zini aqli raso qilib ko`rsatishga urinadi. Bu yoshdagi o`quvchilarning bo`sh vaqtini qanday o`tkazayotganligi, nimalar bilan mashg`ul bo`lgani ota-ona, o`qituvchi, murabbiy, mahalla fuqarolari doimo nazoratga olishlari zarur. Maktab o`quvchilari bo`sh vaqtlarida ko`proq telefon, televizor, kompyuter, internet ma`lumotlari , har xil ko`ngilochar tomoshalar bilan band bo`lmoqda. Buning oldini olishda maktabda turli ma`naviy tadbirlarni o`tkazish samarali bo`ladi. Masalan: 2-aprel "Xalqaro bolalar

kitoblari kuni", 23-aprel "Butunjahon kitoblar va mualliflik huquqi kuni"ga bag`ishlab ijodkor, shoirlar, qiziqarli asar mualliflari bilan uchrashuvlar, o`quvchi-yoshlar o`rtasida kitobxonlik kechalari, eng yaxshi asarlarni sahnalashtirish, turli mushoiralarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Ushbu mushoiralarda buyuk mutaffakkirlarimizning kitob o`qish, uni mutolaa qilishga intilganliklari haqidagi hikoyalarni rolli tasvirlab namoyish etishlari o`quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda samara beradi. Mashhur faylasuf Ibn Sino o`z tarjimayi holida yoshlik chog`larida qanday bilimlarni o`rgangani to`g`risida to`xtab, shunday deb yozgan edi: "O`n yoshimdan boshlab Qur'on, badiiy adabiyotlar, Mantiq ilmiga oid kitoblarni o`qib chiqdim. Tunlari uyqu, kunduzlari halovat neligini bilmay faqat ilm bilan mashg`ul bo`ldim". Tarbiyaning barcha ko`rinishlarida, xususan, kitob o`qishga da`vatda shaxsiy namunaning foydasi ko`p. Tarbiyaning barcha turlari kabi kitob o`qishga o`rgatish ham bolalikdan boshlanadi. Buning uchun ota-ona va o`qituvchilarning o`zlari o`quvchilarga namuna bo`la olishlari muhim ahamiyat kasb etadi. O`qituvchilar o`qigan kitoblarining eng qiziqarli, ta`sirli voqea-hodisalarini o`quvchiga so`zlab berish orqali ularni kitobxonlikka bo`lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta`lim tizimi oldida yosh avlodga bilim va hunarlar bo`yicha mustahkam ta'lim berish bilan birga, ularni har qanday mafkuraviy tahdid va tajovuzlarga nafaqat berilmaydigan, balki ularga qarshi faol kurasha oladigan, mustaqil fikrga ega bo`lgan katta ishonch va maqsad bilan yashaydigan fidoiy, yuksak ma`naviyatli insonlar qilib tarbiyalash ustuvor vazifa. Bunday fazilatlarga ega shaxsni tarbiyalash uchun, avvalo, o`quv tarbiya jarayonida:

-yoshlar ongiga sharm-u hayo, odob, andisha, ota-onalarga hurmat, kattalarga izzat-ehtirom, kichiklarga shavqat kabi oliyjanob fazilatlarni shakllantirish;

-shaxsning rivojlanishida o`zaro munosabatlar hamkorligi, buyuk ajdodlarimiz merosiga ulkan g`urur tuyg`ularini singdirish, asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadryatlar va urf-odatlarga beqiyos hurmat ko`nikmalarini shakllantirish;

-o`z dini va o`zga dinlarga nisbatan bag`rikenglik tamoyillarini singdirish;

-shaxs kamoloti va manaviyati jamiyat ravnaqining muhim omillardan ekanligini anglatish;

-insoniy fazilatlar va g`ayri insoniy qarasharning o`ziga xos xususiyatlarini ko`rsatish;

-yoshlarda mustaqil, ijodiy fikrlash, axborotlarni saralash, tahlil etish malakasini shakllantirish zarur deb hisoblaymiz.

Uzluksiz ta`limning har bir bosqichida o`quvchi-yoshlarni kitobxonlikka qiziqishlarini muntazam oshirib borish "ommaviy madaniyat" ta`siridan himoya qilish lozimligini qayd etgan holda quyidagilarni tavsiya sifatida keltirishni lozim topdik.

Umumiy o`rta ta`limning boshlang`ich sinf o`quvchilarida:

-xalq og`zaki ijodi namunalari: ertak, masal, rivoyat, dostonlarda aks etgan milliy va umuminsoniy qadryatlar, hamjihatlik, mardlik tushunchalari aks ettirilgan xalq qahramonlari qiyofasi orqali ezgu tushunchalarni singdirish;

-milliy ertak qahramonlari orqali halollik, vijdonlilik, rostgo`ylik, mehnatsevarlik, o`z so`zining ustidan chiqish inson ko`rki ekanligini anglatish;

- milliy g`urur va milliy iftixor tuyg`ularini shakllantirish.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. http://uza.uz/uz/search/?q=shavkat+mirziyoyev+maruzasi&spell=1&where=& PAGEN_1=4
2. Matchonov S. Komillik mezonlari.//Ozbekiston adabiyoti va san'ati, 2009-yil 16-soni.



Феруза МУЗАФФАРОВА
Бухоро давлат университети
жисмоний маданият назарияси ва услубиёти
кафедраси ўқитувчиси

ЎҚИТУВЧИНИНГ ҲАМКОРЛИКДАГИ ПЕДАГОГИК ЖАРАЁННИ ЛОЙИҲАЛАШ МАҲОРАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Мақолада ҳамкорликдаги педагогик жараённи лойиҳалаш маҳоратини ривожлантириш йўллари, унга қўйиладиган талаблар, ҳамкорлик стратегияларини қўллаш имконияти, ҳамкорлик стратегияларининг ўқувчилар тараққиёти ва уларнинг биргаликдаги фаолиятини ташкил этиш имкониятлари баён қилинган.

Таянч тушунчалар: *педагогик ҳамкорлик, ҳамкорлик стратегиялари, ўқитувчи фаолияти, лойиҳалаш, педагогик-психологик талаблар, педагогик маҳорат, ўқувчилар.*

В статье излагаются пути развития навыков проектирования процесса педагогического сотрудничества, предъявления им возможности применения стратегий сотрудничества, возможности организации взаимной деятельности их в развитие учеников.

Опорные понятия: *педагогическое сотрудничество, стратегии сотрудничества, деятельность учителя, проектирование, педагогико-психологические требования, педагогическое мастерство, ученики.*

In article is described the ways of developing skills of designing process of pedagogical cooperation, presenting them with the possibility of using cooperation strategies, the possibility of organizing their mutual activities in the development of students.

Supporting concepts: *pedagogical cooperation, cooperation strategies, teacher activity, design, pedagogical and psychological requirements, pedagogical skills, students.*

Педагогик ҳамкорлик жараёнини лойиҳалаштириш лаёқатига эга бўлган ўқитувчилар бир қатор таянч кўникмаларни ўзлаштириши лозим. Ўқитувчи фаолиятининг педагогик-психологик жиҳатлари муайян таркибий қисмларни ўзида мужассамлаштиради: лойиҳалаштирувчилик; конструкцияловчилик; ташкилотчилик; мулоқотга киришувчанлик; билишга мойиллик кабилар. Ушбу тушунчаларни таҳлил қилар эканмиз, ўқитувчининг бу соҳадаги фаолиятига муайян талаблар қўйиш зарурияти мавжуд, деган хулосага келдик. Бу талаблар ўқитувчи фаолиятининг турли йўналишларини тавсифлаш имконини бериши керак.

Педагогик-психологик адабиётларнинг таҳлили ва амалий тажрибаларимизга таянган ҳолда ўқитувчининг ҳамкорлик жараёнини лойиҳалаш фаолиятига оид кўникмаларини қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин. Жумладан:

- ўқитувчининг ҳамкорлик жараёнини лойиҳалаштиришга оид кўникмалари ўзи ва ўқувчиларнинг фаолиятларини режалаштириш, бу жараёнда ўқувчилар дуч келадиган қийинчиликларни олдиндан кўра олиш;
- ҳамкорликдаги ўқув жараёнини ташкил этишга оид янги усуллар ва методларни излаб топиш ва қўллаш;
- ҳамкорликдаги ўқув жараёнида ўқувчиларнинг қийинчиликларни бартараф этиш йўлларини аниқ белгилаш;
- ҳамкорликдаги ўқув жараёнида ўқувчиларнинг мақсадга мувофиқ келадиган фаолиятларини аниқлаш;
- ҳамкорликдаги ўқув жараёнида ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларини муваффақиятли ўзлаштиришларини таъминловчи воситаларни аниқлаш;
- ҳамкорликдаги ўқув жараёнида ўқувчиларнинг ўқув жараёнига бўлган муносабатларини аниқ тасаввур этиш;
- ҳамкорликдаги ўқув жараёнининг мазмунига мос тарзда танланадиган кўргазмали материаллар, техник воситаларни танлаш;

- ҳамкорликдаги ўқув жараёнида ўқувчиларга табақалаштириш ёндашув имкониятларини аниқлаш кабиларни ўз ичига олади.

Ўқитувчининг ҳамкорликдаги педагогик жараёнларни лойиҳалаштириш кўникмаси шундай кўникмалари доирасида:

1. Стратегик, тактик, тезкор вазифалар ва уларнинг ечими олдиндан режалаштирилади.
2. Ҳамкорликдаги ўқув жараёнида ечиладиган вазифалар олдиндан ойдинлаштирилиб, режалаштирилади.
3. Бутун ўқув вақти мобайнида ҳамкорликдаги фаолиятни бажариш жараёнида қўлга киритиладиган натижалар аниқланади.
4. Ўқувчилар бажарадиган мустақил ишларнинг мақсадини белгилаш ва амалга оширишга ўргатилади.
5. Ҳамкорликда бажариладиган ўқув ишлари мақсадини аниқлаш, бу жараёнда эришиладиган ютуқларни режалаштириш, дуч келиши мумкин бўлган қийинчиликларни аниқ кўра билиш имконияти вужудга келади;
6. Ўқувчилар томонидан ҳамкорликда ўзлаштириладиган ўқув материалларини танлаш амалга оширилади.
7. Ҳамкорликдаги педагогик жараёнда ўқитувчи ўзининг шахсий педагогик фаолиятини лойиҳалаштиришга эришади.

Ўқитувчи фаолиятининг конструктив қисми ўқувчилар томонидан ҳамкорликда ўзлаштириладиган ахборотлар мазмунини танлаш ва унинг қурилишини ишлаб чиқиш, ахборотларни ўзлаштириш жараёнида ўқувчилар фаолиятини лойиҳалаштириш, ўқувчилар билан истиқболда самарали ҳамкорлик ўрнатишга йўналтирилган шахсий фаолиятини лойиҳалаштириш кабиларни ўз ичига олади. Шу муносабат билан, ўқитувчи қуйидагиларни амалга ошириши керак: машғулотлар учун ўқув материалларини танлаш, ўқув материалларининг асосий тушунчалари ва қонуниятларини ажрата олиш, машғулотлар жараёнида далилий ҳамда назарий материаллар орасидаги мутаносибликни аниқлаш, машғулотнинг бир босқичдан иккинчисига ўтишдаги мантиқий асосларни аниқлаш, назарий маълумотларни оддийдан мураккабга қараб бориш принципи асосида жойлаштириш, бир мавзудан кейингисига ўтишда мантиқий хулосалар чиқариш, машғулотлар композициясини аниқлаш ва қуриш, машғулотларнинг бир-бирига ўхшамаслиги ва мантиқий изчиллигини таъминлаш кабилар.

Ўқитувчининг конструктив кўникмалари доирасида:

- ўқув предмети мазмунига сингдириладиган иккиламчи дидактик лойиҳаларни танлаш ва уларни бирламчи дидактик лойиҳалар билан уйғунлаштириш;
- машғулотлар жараёнида қўлланиладиган таълим-тарбиявий имкониятларга эга бўлган қўшимча ўқув материалларини танлаш ва муайян композицияга асосланган ҳолда таркиблаштириш;
- ҳамкорликдаги таълим технологияларини танлаш ва таълим жараёнида улардан фойдаланиш имкониятларини аниқлаш;
- ҳамкорликдаги таълим жараёнида қўлланиладиган шахсга йўналтирилган таълим технологияларини танлаш ва фанлар кесимида татбиқ этиш учун лойиҳалаштириш;
- ўқувчиларнинг ҳамкорликдаги ўқув фаолиятига раҳбарлик қилиш, уни назорат қилиш ва баҳолаш кабилар амалга оширилади.

Ўқитувчининг ташкилотчилик лаёқати ўқувчиларга билимлар ва ахборотларни тақдим этиш жараёнида улар фаолиятларини ташкиллаштириш имконини беради. Ўқитувчининг ташкилотчилиги ўқитувчи-ўқувчи ҳамкорлигининг асосий мақсадларига мос келиши мумкин. Бу ҳамкорлик ўзаро бирлашиш, гуруҳ аъзоларининг уйғунлашуви, уларга ўқитувчининг уйғунликни таъминловчи таъсирини ифодалаши лозим. Бундай уйғунлашув ўқитувчи ташкилотчилик фаолиятининг асосини ташкил этиб, ҳисобга олиш, назорат қилиш, шахсий масъулиятни қарор топтириш кабиларга йўналтирилган бўлади. Бунда ўқитувчи ўз фаолиятини ўз вақтида ташкил этиш, ўқувчилар билан индивидуал ишлаш, уларнинг жамоавий ишларига раҳбарлик қилиш, муайян ўқув вазиятларида ўқувчилар билан ҳамкорлик ўрнатиш кўникмасига эга бўлиши лозим. Ўқитувчининг ташкилотчилик кўникмалари доирасида:

- барча омилларни ҳисобга олган ҳолда ўқувчиларнинг гуруҳли ҳамда жуфтликлардаги ишларини лойиҳалаш ва ташкиллаштириш;
- ўқувчилар билан ишчан ўқув ўйинлари, мунозаралар, дискуссияларни ташкил этиш ва ўтказиш;

- ўқув машғулотларида ўқувчиларнинг руҳий ҳолатларини назорат қилиш;
- ўқувчиларнинг билиш имкониятлари ва билиш фаолиятлари натижаларини мунтазам ташхислаш;
- ДТС талабларига таянган ҳолда ўқувчиларнинг ҳамкорликдаги фаолиятларини баҳолаш;
- ўқувчиларнинг имкониятларини ҳисобга олган ҳолда ўқув дастурлари талабларидан келиб чиқиб, ўқув материалларининг самарали ўзлаштирилишини ташкиллаштириш;
- ўқувчиларнинг ҳамкорликдаги ўқув фаолиятларига мунтазам тузатишлар киритиш ва уни такомиллаштириш кабилар амалга оширилади.

Ўқитувчининг коммуникатив кўникмалари унинг ўқувчилар жамоаси билан ўзаро муносабатлари ва ҳамкорликка кириша олиш даражасини тавсифлаб, икки йўналишда таҳлил этилади:

а) горизонтал тарздаги ўзаро муносабат ва ҳамкорлик;

б) вертикал тарздаги ўзаро муносабат ва ҳамкорлик.

Ўқитувчининг коммуникатив кўникмалари доирасида:

– таълимнинг мақсади, мазмуни, ташкилий шакллари, методларидан келиб чиққан ҳолда ўқитувчи ва ўқувчилар ҳамкорлигини ташкил этиш;
– ўқув материалларини ялпи баён этиш жараёнида ўқувчиларга индивидуал таъсир кўрсатиш.
– ўқувчилар билан ижобий, ишончли ҳамкорлик ўрганиш;
– жамоада фаолият ва хатти-ҳаракатларнинг мақсадга мувофиқ тарзда танланганлиги ҳақидаги ягона фикрни вужудга келтириш;
– педагогик жараён субъектларида амалга ошириладиган ўқув фаолиятига нисбатан мойилликни вужудга келтириш назарда тутилади.

Ўқитувчининг гностик, яъни билишга асосланган кўникмалари юқорида таъкидлаб ўтилган барча кўникмаларнинг асосини ташкил қилади. У ўзида ҳамкорликдаги ўқув жараёнининг ўзига хос жиҳатлари, шахсий фаолият натижаларини ўрганиш ва таҳлил қилишни мужассамлаштиради. Шунингдек, ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари ва ривожланиш даражаларига кўра уларга таъсир кўрсатиш йўллари, усулларини ўрганиш ва таҳлил қилишни ҳам ўз ичига олади.

Ўқитувчининг гностик кўникмалари доирасига:

– ўқитувчининг ўзининг шахсий фаолияти, тадқиқотлари ва бошқа манбалардан янги билимларни ажратиб олиб, ўқув жараёнига татбиқ этиши ва ўқувчилар жамоасини уларни ўзлаштиришга ундай олиши, уларда қизиқиш уйғотиши;
– турли ахборот манбалари устида мустақил ишлай олиши;
– иккиламчи дидактик лойиҳаларни танлаши ва ўқув жараёнига татбиқ эта олиши;
– ҳамкорликдаги педагогик вазиятларни таҳлил қила олиши;
– ҳамкорликдаги педагогик жараён вазифаларини шакллантира олиши;
– ҳамкорликдаги педагогик жараён олдига қўйилган вазифаларни самарали ечиш учун янги билимларни эгаллаши, муаммоларнинг ечими ва натижаларини таҳлил қила олиши, тахмин қилинган натижалар билан объектив ҳолатларни ўзаро қиёслай олиши;
– муайян педагогик воқелик ҳақида мантиқий ҳукмлар чиқариши ва уларни қисмларга ажрата олиши;
– ҳамкорликдаги педагогик жараёнда изланувчи, эвристик фаолиятни амалга ошира олиши;
– илғор педагогик тажрибаларни ўрганиши, умумлаштириш ва ўз амалий фаолиятига татбиқ эта олиши кабиларни киритиш мумкин.

Ҳамкорликдаги педагогик жараёнда ўқитувчи фаолияти ўзининг муайян услубига эга бўлиши керак. Ҳамкорликдаги педагогик жараёнда ўқитувчи фаолияти услуби – индивидуал хусусиятлар мажмуи, улар орасидаги алоқадорлик, ҳамкорлкидаги фаолиятни амалга ошириш усуллари ва характери, ўқувчилар билан ҳамкорлик ўрнатиш ва динамик характердаги ҳаракатлар сифатида намоён бўлувчи кўникмалардан иборат.

Ўқитувчи фаолиятининг 3 та асосий кўриниши аниқланган:

– авторитар фаолият усули;
– инновацион характердаги демократик фаолият усули;
– либерал фаолият усули.

Бизнинг тадқиқотимиз учун характерлиси инновацион кўринишдаги демократик фаолият усулидир. Шахснинг кўпқиррали билимлари, синфдаги ўқувчиларнинг ўзига хос хусусиятлари, уларнинг жамоа сифатидаги уюшмаси ва муайян педагогик вазиятнинг таҳлили ҳамкорлик педагогикасининг асосини ташкил қилади. Бу ўқув жараёнида амалга ошириладиган ҳамкорликдаги фаолиятни олдин-

дан лойиҳалаштиришнинг қуйидаги босқичларини тақозо қилади. Ҳамкорликдаги фаолият ўзининг мавжуд жиҳатларига кўра педагогик нуқтаи назардан мақсадга мувофиқликни таъминлайди. Бу, ўз навбатида, таълим жараёни мақсадларини педагогик жиҳатдан ташхислаш имконини беради. Ҳамкорликдаги ўқув жараёни олдига қўйилган мақсадлар асосида ўқувчиларнинг ривожланишларини таъминлаш асосий вазифалардан бири ҳисобланади. Ўқув жараёнининг мақсади педагогик тизим изчиллигини таъминловчи асосий омил сифатида бир қатор табиий муаммоларни келтириб чиқаради. Ўқитувчининг ташхисловчилик фаолияти аниқлик, мақсадларнинг бир хилда ифодаланиши, уларни бажариш усуллари, ўлчаш ва баҳолаш кўникмаларини ўз ичига олади. Агар ўқитувчи ташхислаш фаолиятини амалга оширмаса, ҳамкорликдаги педагогик жараённи мақсадга мувофиқ тарзда ташкил этиш имконсиздир.

Адабиётлар

1. Дьяченко В.К. Сотрудничество в обучении: О коллективном способе учебной работы: Кн. для учителя. – М.: Просвещение, 1991. – 192 с.

2. Игнатова В.А. Педагогические аспекты синергетики /В.А. Игнатова // Педагогика. – 2001. – № 8. – С. 26-31.

3. Сафарова Р. ва бошқ. Ўқувчиларда ўзаро дўстона муносабатларга асосланиб ҳамкорликда фаолият кўрсатиш кўникмаларини шакллантиришга оид назарий-амалий ёндашувлар. – Т.: “Фан ва технология”, 2012. – 147 б.

4. Сафарова Р.Г. Педагогическое сотрудничество как средство повышения качества учебного процесса //Ж. Актуальные проблемы современной науки. – 2013 г. – №3. – с. 109-111.



Dilafruz SAFAROVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi
katta o`qituvchisi



Raxim BEGMATOV
Navoiy davlat pedagogika instituti
umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasi
o`qituvchisi

BOLALAR VA O`SMIRLARDA UCHRAYDIGAN TURLI XILDAGI DUDUQLANISHLARNING PSIXOLOGIK SABABLARI

Maqolada bolalar va o`smirlar nutqida uchraydigan duduqlanish xususida fikr yuritilgan. Nutqda bizning ma`naviyatimiz, irodamiz, maqsad-muddaomiz, istagimiz, niyatimiz namoyon bo`ladi. Har bir kishining nutqi bolalik chog`idan boshlab o`sib boradi. Bola nutq yordamida insoniyat qo`lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o`zlashtirib boradi.

Tayanch tushunchalar: *nutq, duduqlanish, organik duduqlanish, nevrotik duduqlanish, nutq nevrozi-logonevroz, logofobiya.*

В статье размышляется о заикания в речи у детей и подростков. В речи проявляется наша духовность, воля, цели, мечты, намерения. Речь каждого совершенствуется начиная с детства, ребенок активно усваивает каждый успех достигнутый человеком с помощью речи.

Опорные понятия: *речь, заикание, органическое заикание, невротическое заикание, речевой невроз – логоневроз, логофобия.*

The article reflects on stuttering in speech in children and adolescents. In speech is manifested our spirituality, will, goals, dreams and intentions. Everyone's speech is improved from the childhood when hecan actively assimilate every achieved success through it.

Supporting concepts: *speech, stammering, organic stammering, neurotic stuttering, speech neurosis - logo neurosis, logo phobia.*

Jamiyatimizning bugungi taraqqiyotida, ijodkorlik, kreativ fikr, ilg`or g`oyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, insonlar bir-birlari bilan o'ziga xos o'y-xayollari, mushohadalari, fikr yuritishlari, mustaqil fikrlash qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Nutqda bizning ma`naviyatimiz, irodamiz, maqsad-muddaomiz, istagimiz, niyatimiz namoyon bo`ladi. Har bir kishining nutqi bolalik chog`idan boshlab o`sib boradi. Bola nutq yordamida insoniyat qo`lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o`zlashtirib boradi. Inson tafakkurining ijtimoiy jarayonlarga bog'liqligining muhimligi sababli, bola rivojlanishi jarayoni gapirish va nutqni tushuna olish bilan vujudga keladi. Shuning uchun ham bola nutqini to`g`ri rivojlantirish muhim sanaladi. Qadimdan mutafakkirlar va olimlar tomonidan nutq o`stirish, nutq madaniyati, nutqdan foydalanish odobiga katta ahamiyat berilgan. Masalan, nutqda qalb, ong va sezgilarning uyg'unligi haqida Arastu ta'limoti, fikrning ezgulikka yo'naltiri-lishi haqida Abu Nasr Forobiy, insonparvarlikka yo'naltirilishi haqida – Alisher Navoiy, nutqning mantiqiyligi haqida – Umar Xayyom, nutq signal tizimi haqida I.P. Pavlov, fikrning bosqichma-bosqich shakllanishi nazariyasini yaratgan P.Y. Galperin, nutqda umumlashtirish tushunchasi haqida – R. Davidov ta'limotlari mavjud.

"Qobusnoma"da "Barcha hunardin so`z hunari yaxshidur", deyilsa, Uilyam Metyuz "hamma qobiliyatlarning sarvari fikrdir", – degan. Abdulla Avloniy "So`z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o`lchab ko`rsatadurg`on tarozisidir. Kishining fikr va niyati, ilm va quvvati, qadr va qimmati so`zlagan so`zidan bilinur", yana bir asarida "Nutq tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdirki, nutqning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'-

liqdir" [1] – deb ta`kidlaydi. Shuningdek, psixolog-olimlaridan M. Davletshin, M. Vohidov, E. G`oziyev, V. Karimova va boshqalar bola nutqining rivojlanishini tadqiqotlar jarayonida o`rganganlar.

Insonning nutqi uning ruhiy holatidan xabar beruvchi, kerak bo`lsa aql va tafakkuri darajasini ko`rsatib beruvchi, hissiyotini ifodalovchi muhim faoliyat shaklidir. Xo`sh, ana shu nutq qanday paydo bo`ladi? Uning rivojlanishi, aniq va ravon ifodalanishi qanday sharoitlar va omillarga bog`liq. Demak, bola nutqi o`z-o`zidan ravon, tushunarli va mazmunli bolib qolmaydi. Nutqning rivoji uchun, avvalo, sog`lom organizm, mohir tarbiyachi, sog`lom muhit mavjudligi talab etiladi.

Kattalarning samimiy tabassumi va yoqimli ovozidan boshqa hech qanday qo`zg`atuvchi go`dakda shunchalik quvonch va shodlik his-tuyg`usini vujudga keltira olmasligini olima N.M. Askarina o`z tadqiqotlarida aniqlagan. "Bu go`dakning kattalar bilan munosabatining ilk va maxsus ko`rinishidir" – deydi olima. Bu "Jonlanish" N.L. Figurin, M.P. Denisovalarning fikricha, his-tuyg`u bilan birgalikda g`uldirash (tovush) bilan ifodalanadi. Asta-sekin artikulyar apparatning takomillashuvi natijasida bola tovushlarni o`zaro farqlay boshlaydi. Natijada faol nutq alomatlari vujudga kela boshlaydi. Nutqning erta rivojlanishi bu bola ongi va tafakkurining taraqqiy etayotganligi va iqtidorning nishonasidan darak beradi. Modomiki, bola nutqi kattalarning samimiy munosabati va yoqimli ovozidan ta`sirlanish asosida vujudga kelar ekan. Uning rivojlanishi tushunarli, aniq, ravon bo`lish uchun ham kattalarning samimiy g`amxo`rligi, tez-tez muloqotda bo`lishi, eng asosiysi, oilada sog`lom psixologik muhitni saqlashi, maktabgacha ta`lim muassasalarida bolaning ehtiyojlarini imkon qadar qondirishi, unga e`tiborli va mehribon bo`lishi talab etiladi. Afsuski, turli sabablarga ko`ra nutqida nuqsoni bo`lgan bolalar ham uchrab turadi.

Nutqdagi nuqsonlarning asosiy turlari quyidagilar: alaliya – tug`ma soqovlik, afaziya – miya chayqalishi, boshning shikastlanishi tufayli tilsiz bo`lib qolish, afoniya – tovush talaffuzini yo`qotish, shuningdek, nutq buzilishining hayotda eng ko`p uchraydigan turi – duduqlanish va mutizm – vaqtincha tildan qolish. Bu nuqsonlar natijasida bolalarning biri duduqlansa, yana biri juda tez gapiradi – tushunib bo`lmaydi, ba'zilari nihoyatda kamgap bo`ladi, boshqasi qattiq hayajonlansa gapirolmay qoladi.

Duduqlanish yuqorida sanab o`tilgan nuqsonlar orasida ko`proq uchraydi. Ba'zan ota-onalar bunga jiddiy e`tibor berishmaydi. Duduqlanish kasallik emas, balki turli kasalliklarning belgilaridan biridir. Duduqlanish qaysi kasallik doirasida uchrashiga qarab turli sabablar asosida vujudga keladi va turlicha namoyon bo`ladi. Duduqlanishni ikki asosiy turga bo`lish mumkin: organik, nevrotik. Nevrotik duduqlanish nevrozning bir qismi sifatida turli sabablar ta`sirida vujudga keladi. Doimo uning asosiy sababi: kelishmovchiliklar, ruhiy iztiroblar, kuchli ruhiy-asabiy zo`riqishlar. Nevrozlar ko`pincha bolalar va o`smirlarda uchraydi. Chunki ularning psixikasi hali yetilmagan, nimjon, noxush psixik ta`sirlardan himoyalanish tajribasi yaxshi shakllanmagan. Kattalarda hech qanday asorat qoldirmaydigan psixik lahzalardan bolalar va osmirlar osongina shikastlanadilar. Ana shunday shikastlanish tufayli bola duduqlanadigan bo`ladi.

Yana shunday psixik shikastlanish – logofobiya uchraydiki, uning ta`sirida nutqda qo`rquv paydo bo`ladi. Keyinchalik duduqlanish ro`y beradi. Shuning uchun ham bola qattiq hayajonlanganda, o`ziga og`ir botadigan narsani eslaganda unda nutq nevrozi – logonevroz paydo bo`ladi va duduqlanish uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu holat o`zgaruvchan bo`lib, bola xotirjam vaziyatda yaxshi gapiradi, hayajonlanishi bilan yana tili tutilib, duduqlanadi.

Ko`p hollarda bolalar yaxshi ko`radigan kishisidan yoki yaxshi ko`radigan muhitidan ajratilganda uzoq yoki kamroq davom etadigan gunglik – mutizm paydo bo`ladi. Bunda bola ba'zan umuman gapirmaydi, uyqusi buziladi, ishtahasi yo`qoladi. Masalan: oiladagi sevib erkalatilgan, hammaning diqqat-e'tiborida bo`lgan bola bog`chaga borganda uni bog`cha opalar sovuqqina kutib olishadi, qo`pollik bilan bo`lar-bo`lmasga tanbeh berishadi, bola kutgan e`tibor o`rniga qo`pol va kinoyali nigohlardan bolada norozilik paydo bo`ladi. Natijada u bog`chada jo`rtaga gapirmaydi. Yoki oilada er va xotin o`rtasida bo`ladigan janjallardagi affektiv holatlar, tajovuzkorona xatti-harakatlar bolani kuchli qo`rquvga, astenik holatlarga soladi. Agar psixik shikastlanish qisqa vaqtli bo`lsa, duduqlanish tez o`tib ketadi, aksincha bo`lsa, duduqlanish odat tusiga aylanib qoladi. Nevrotik duduqlanishga uchragan bolani tinchlantirish, og`ir kechinmalardan xalos etish, e`tiborini nutqidagi nuqsonga qaratmaslik kerak, bunda ota-onalarning roli katta, albatta.

Organik duduqlanish – bu nuqson tilning tug`ma chala rivojlanganligi yoki miya chayqalishi, shamollashi tufayli vujudga keladi. U nasliy omillar bilan bog`liq bo`lishi ham mumkin. Masalan: shunday oilalar borki, ulardagi duduqlanish avloddan-avlodga o`tib keladi. Ba`zan ma`lum yoshga yetib nutq asta-sekin rivojlanib duduqlanish o`z-o`zidan yo`q bo`lib ham ketadi.

Logonevroz bolalar, o`smirlar o`z nutqidagi nuqsonlardan doimo qattiq azob chekadi. Nevrozga aloqador duduqlar esa o`z nuqsonidan iztirob chekmaydi, nutqidagi o`zgarishlarga e`tibor bermaydi. Shuning uchun duduqlanishni turli ko`rinishida turlicha davo choralari ko`riladi. Agar logonevrozni psixoterapevt

davolasa, nevrozga aloqador duduqlanishni logoped bartaraf etadi. Duduqlanishlar o`rtasidagi farqni bilmaslik yomon oqibatlarga olib keladi.

Logonevroz bolaga nutqidagi nuqson eslatilmasligi kerak, bu uning asabini yanada qo`zg`atadi. Nevrozga aloqador duduqlanuvchi boladan intizomni, o`z nutqini yaxshiroq nazorat etishni talab qilish kerak. Bu esa ko`p jihatdan ota-onaga bog`liq. Nevrotik va nevrozga xos duduqlanishni o`smirlik davriga qadar aniqlash kerak. Hammaga ayonki, o`smirlar psixikasida kuchli psixologik o`zgarishlar sodir bo`ladi. 12-13 yoshlarda o`smir o`zini-ozi tanqid qiladigan va tanqidga ta`sirchan bo`lib qoladi. O`smir o`zining nutqidagi nuqsonidan iztirob chekib, uyalib yuradi, ayniqsa, notanishlar orasida kamgap bo`lib qoladi, hazilni ko`ngliga og`ir oladi.

Duduqlanishning maxsus turlaridan yana biri taqlid qilish natijasida paydo bo`ladi. Bunday duduqlanish odatda kichik bolalarda va qattiq ta`sirchan, uzoq vaqtgacha duduqlar bilan muloqotda bo`lgan odamlarda ro`y beradi. Bu odam logopedning yordamiga muhtoj emas. To`g`ri ta`lim-tarbiya berilsa, taqlidiy duduqlanish o`tib ketadi. Bugungi kunda duduqlanishning yana bir turiga aqliy zo`riqish sabab bo`layapti. Bunda mutaxasisning aralashuvi zarur bo`lmaydi. Bunday holat televizorni ko`p ko`radigan, telefonda uzluksiz turli o`yinlarni o`ynab nihoyatda ko`p turli-tuman axborotlarni tinglab, ularni o`zlashtirolmaydigan bolalarda ro`y berishi mumkin. Axborotlar miqdori kamaytirilsa, kun tartibi to`g`ri tashkil etilsa bunday duduqlanish tezda o`tib ketadi. Go`daklik, ilk bolalik, maktabgacha va kichik maktab yoshdagi bolaning nutqi ham miqdor, ham sifat jihatidan ancha takomillashadi. Bolalarning nutqini o`sishi oilaning madaniy saviyasiga, ta`lim muassasalarida ta`lim-tarbiya ishlarining tizimli va samarali tashkil etilganligiga bog`liq.

D.B. Elkoninning ko'rsatishicha lug'at boyligining miqdoriy o'sishi, bevosita bolaning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. Shu o`rinda aytish muhimki, nafaqat lug'at boyligining miqdoriy o'sishi, balki nutqning sifat jihatdan o`sishi ham bola kamol topayotgan muhitning hayot sharoitlari va tarbiyalanish xususiyatlariga bog'liq. Demak, bolani sog`lom dunyoga keltirish, sog`lom muhitda to`g`ri tarbiya berish orqali uning nutqini o`stirish: ifodali, aniq, lo`nda va obrazli so`zlashishni shakllantirishga erishiladi. Shuningdek, bolalar nutqini o`stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali yuksak insoniy fazilatlar egasi sifatida so`zdan to`g`ri va o`rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo`lish kabi ma'naviy-axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Zero, ravon va mazmunli nutq sog`lom ruhiyatning yaqqol ifodasidir.

Adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1994. – 17 b.
2. G`oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent, 2002.
3. Alimova G., Alimova E. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda tafakkur jarayonining rivojlanishi// Pespublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Toshkent, 2012. – 415 bet.
4. Abdusamatova N. Bolalarni integratsiyalashgan ta'lim jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda tarbiyachining o`rni.// "Maktabgacha ta'lim" jurnali. 6/2012. – B. 2-3.



Ўктам ШАМСИЕВ
Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон миллий университети
доценти, психология фанлари номзоди

МАКТАБГАЧА БОЛАЛИК ПСИХОЛОГИЯСИ

Мазкур мақолада мактабгача ёшдаги болалар психологияси ва бу даврда "Мен" концепцияси таркибий қисмларининг шаклланганлик даражаси ҳақида мулоҳаза юритилади. Ундаги фикр ва далиллар адабиётлар таҳлили ва шахсий тадқиқотларнинг илмий хулосаларига асосланади.

Таянч тушунчалар: *гўдаклик даври, болалик даври, "Мен" концепцияси, номинация, ёш ва жинсий шаклланиш, психологик эркинлик, муомала, муносабат, эҳтиёж.*

В данной статье основательно дано пояснение на концептуальную мысль "первичное общение и заботливое отношение". Данное в нем мнение и аргументы обосновываются на литературных анализах, а также на научных выводах личного исследования.

Опорные понятия: *первичное общение, заботливое отношение, физическая, биологическая и психологическая свобода во время младенчества и детства, личность, отношения, потребность.*

In this article is explained thoroughly the conceptual idea of "primary communication and caring attitude." This opinion and arguments are based on literary analyzes, as well as on the scientific conclusions of personal research.

Supporting concepts: *primary communication, caring attitude, physical, biological and psychological freedom during infancy and childhood, personality, relationships, need.*

Психологияда мактабгача болалик даврига 3 ёшдан 7 ёшгача бўлган давр киритилади. Унга чақалоқ, гўдаклик (0 дан 1 ёшгача) ҳамда илк болалик (1 ёшдан 3 ёшгача) даврлари киради.

Гўдаклик даврининг ўзига хос хусусияти шундаки, унда бола ривожланиши, асосан, манипулятив фаолиятни ўзлаштириш йўлидан борилади. Яъни ҳаётининг биринчи ярим йиллигида пайпаслаш, эшитиш, кўриш-мотор кординациялари ривожланади. Бу ёшда бола янги нарсаларга нисбатан фаол ўз муносабатини билдиради ҳамда бу янги нарсалар ўз янгилигини сақлаб турганга қадар уларни манипуляция қилади.

Мазкур даврнинг ассий фаолияти бевосита катталар билан эмоционал мулоқот ҳисобланади. Зеро, бола ҳали ёрдамга муҳтож ва унинг ҳаёти катталар фаолияти билан боғлиқ. Катталар болани парваришлайди ва у билан мулоқот қилади, шунингдек, унинг фаолиятини назорат қилади ҳамда чегаралайди, яъни тафаккур, нутқ, хотира, унинг қобилиятлари ривожланиш даражаси ҳали унинг эҳтиёжлари даражасига мувофиқ бўлмайди.

Боланинг энг катта ютуғи ҳаётининг биринчи йили охирида жисмоний мустақилликка эришади. Яъни юриш қобилияти ва шунинг учун ота-оналари томонидан унинг фаоллигини чегаралаш боланинг эътирози, қайсарлигига сабаб бўлади. Бу давр бир ёш даври кризиси деб номланган. Л.С.Виготский буни боланинг юриши ва энг асосийси, нутқни ўзлаштириши билан бевосита боғлайди.

Гўдаклик даврида секин-аста нутқни ўзлаштириш бошланади. У, асосан, товушга тақлид қилишдан бошланади.

Нутқнинг фонематик қурилишини ўзлаштириш фонеманинг сўздаги ўрнига боғлиқ бўлади, дастлаб урғу олган унли товушлар ўзлаштирилади. Нутқнинг семантик қурилиши фаол ривожланади, бола сўз маъноларини ўзлаштиради. 1,5-1,8 ёшда боланинг семантикаси ўзига хос бўлиб, сўзлар кўп маънода турли нарсаларни ифодалаши мумкин бўлса, мактабга чиқиш олдидан барқарор умумлашма ва ифодалар ўрнатилиши юз беради. Бундан ташқари, боланинг лексикаси жадал ривожланади, фаол луғат бойлиги кенгаяди, нутқнинг грамматик ва синтактик қурилиши ўзлаштирилади.

Нутқ ривожланиши билан боланинг *тафаккури ҳам фаол ривожланади.* Бу тафаккур ҳаракатларни реал объектлар билан бажариш жараёнида амалга ошади. Тафаккурнинг бу шакли доирасида янада мураккаброқ шакл – кўргазмали-образли тафаккур, яъни қандайдир ҳаракат амалий ҳаракатларсиз, фақат тасаввур, образга таянган ҳолда амалга оширилади.

Дастлаб боланинг образли тафаккури аниқ предметлар ва уларнинг хусусиятлари билан боғлиқ

бўлади, бироқ энди бевосита қабул қилиш чегарасидан чиқиш имконияти юзага келади. Кичик мактабгача ёшдаги бола топшириқларни ташқи йўналган ҳаракатлар орқали бажаради, яъни уриниб кўриш ва хатолар методи (кўргазмали-ҳаракатли тафаккур) орқали ечимини топади, ўрта мактабгача ёшда эса ечимнинг бир қанча усуллари билан танишиб чиққач, топшириқни предмет ҳаракатларисиз, ақлда ишлашга қодир бўлади.

Энди тафаккур фақат амалий предметли ва бевосита қабул қилиш билан боғлиқ бўлмайди, балки кўргазмали-образли бўлади. Кўргазмали-образли тафаккур – мактабгача ёшнинг асосий хусусиятларидан бири, мана шу орқали у шаклланади ва ўзининг ривожини топади. Кўргазмали-ҳаракатли ва кўргазмали-образли тафаккурнинг ривожланиши *мантиқий тафаккур*нинг шаклланиши билан чамбарчас боғлиқдир.

Мактабгача ёшдаги боланинг ривожланишидаги энг муҳим жиҳат бу – унинг ижтимоийлашуви, аввало, катталар ва бошқа болалар билан мулоқот қилишидир. Психологияда ижтимоий ривожланиш билим ва тажрибаларнинг ўзлаштирилишидир. Боланинг кишилик жамиятининг аъзоси сифатида шаклланиши бутун болалик даврида юз беради, бироқ анча олдинроқ, ҳаётининг биринчи ҳафтасиданоқ бошланади. Бунда оила, ота-онанинг ўрни, уларнинг болани кишилик муносабатлари оламига қўйиб юборишга тайёрлиги ҳамда зарур бўлган ёрдами ва кўмаги асосий вазифани бажаради. Мулоқот воситасида катталар (аввало, ота-она) болага таъсир ўтказади. Бу таъсирнинг йўллари турлича бўлиши мумкин.

Биринчидан, муҳими шуки, бола томонидан катта субъект, шахс, жамият вакили сифатида қабул қилинади. Мактабгача ёшда, айниқса, катта мактабгача ёшдаги болаларда мулоқотда шахсий мотив устунлик қилади.

Иккинчидан, катталар болага бирон нарсани билиш учун топшириқ ва қандайдир ҳаракатларни ўзлаштириш вазифаларини беради. Маълумки, топшириқни бажариш мақтов ёки даккини ишлаб беради. Бу муносабат, каттанинг баҳоси мулоқот доирасига киради ҳамда болага таъсир қилишнинг бир йўли сифатида қаралади.

Учинчидан, боланинг катталар билан мулоқоти боланинг нутқни ўзлаштиришига, шахс ривожланиши ва тенгдошлари ўртасида дўстона муносатнинг шаклланишига таъсир кўрсатади. Боланинг катталар билан мулоқоти принципиал аҳамиятга эга бўлиб, болаларнинг бир-бири билан бўладиган мулоқотидан фарқ қилади.

Катталар билан мулоқотнинг камлиги боланинг нафақат ақлий ривожланишига, балки унинг шахс сифатида шаклланишида ҳам салбий таъсир қилади. Ота-оналар томонидан болага эътиборнинг камлиги боланинг психик ва психосоматик касалликларга чалинишига, шахс шаклланишида бузилишларга олиб келади.

Боланинг психик ривожланиши жараёнида унинг катталар билан бўладиган мулоқоти ривожланади ва бир неча босқичларни босиб ўтади. М.И. Лисина (1986) мулоқот асосида мулоқотга эҳтиёж турадиган ва унинг мазмуни ҳар бир ёш босқичида ўзгариб турадиган ўзига хос коммуникатив фаолият сифатида қарайди.

Онтогенездаги (2-6 ойлик) дастлабки мулоқот шакли – болада катталарнинг ўзига нисбатан диққат-эътиборлилигига эҳтиёжни ўз ичига олувчи *вазиятли-шахсий мулоқот шакли* ҳисобланади. Бу мулоқот гўдаклик даврида етакчи ўринни эгаллайди. Иккинчиси вазиятли – иш мулоқоти (6 ойликдан 3 ёшгача) бўлиб, унда асосий эҳтиёж ҳамкорлик ҳисобланади. Мактабгача болалик даврига ўтишда янги мулоқот шакли – вазиятга боғлиқ бўлмаган билиш шакли ҳисобланиб, кичик ва ўрта мактабгача ёшни (3 ёшдан 5 ёшгача) ўз ичига олади, унинг асосида катталарнинг ҳурмат билан муносабатда бўлиши туради.

Мулоқотнинг бу тури юзага келиши мактабгача бўлган ёшдаги боланинг тафаккур, диққат, нутқи ривожланиши даражаси уни мураккаброқ масалалар билан шуғулланишига имкон беради. Бироқ ҳали унинг имкониятлари чегараланган ва уни қизиқтирган саволларга фақат катталардан жавоб олиши мумкин.

Мактабгача ёш даврининг охирги босқичи (5 ёшдан 7 ёшгача). Бу даврда болаларда вазиятга оид бўлмаган шахсий мулоқот шакли ўзаро тушунишга бўлган эҳтиёж натижасида пайдо бўлади. М.И. Лисинанинг таъкидлашича, бу мулоқот шакли ўйин даражаларининг ривожланиши билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бола энди оиласидаги шахслараро ўзаро муносабатларга, ота-оналарнинг ишларига эътибор бера бошлайди.

Бола бу даврда “мумкин”, “мумкин эмас” тушунчалари билан боғлиқ равишда эмоция ва ҳиссиётларнинг бошланғич шакллари, ахлоқий ҳиссиётлар, шунингдек, “чиройли”, “хунук” каби ту-

шунчаларни ўзлаштириши натижасида эстетик ҳиссиётлари шаклланади.

Уч ёшида бола ўзини шахс сифатида англай бошлайди ва мустақилликка интилади, ўзини катталар қаторида кўришни истайди. Бу давр кўпинча 3 ёш инқирози деб ҳам аталади, бир қатор тадқиқотчилар, хусусан, Л.С. Виготский бу даврнинг белгиларини тавсифлайди. Л.С. Виготский нафақат уни тавсифлади, балки унинг илмий асосини кўрсатиб берди, инқирознинг ижобий ва салбий томонларини изоҳлади.

Инқирознинг дастлабки белгиси – боланинг негативизми, яъни катталар томонидан бериладиган ҳар қандай талабни бажаришдан бош тортади, унинг реакцияси талаб мазмунидан келиб чиқмайди, балки талабнинг ўзига нисбатан бўлади.

Уч ёшдаги инқирознинг иккинчиси белгиси – бу қайсарлик, бола бирон нарсани хоҳлагани учун эмас, балки у шуни талаб этгани учун бажарилишини қатъий туриб маъқуллайди.

Учинчи белги терсликдир. Қайсарликдан фарқли равишда терслик кучли характерга эга. Ўз хоҳишларини бажартиришни талаб қилади.

Тўртинчи белги – ўзбошимчалик. Бола қарор қабул қилишда мустақиллик бўлишни талаб қилади. Бундан ташқари, Л.С. Виготский иккинчи даражали белгиларни ҳам ажратиб кўрсатади: қатъий норозилик, исён, мунтазам муаммоларни юзага келтириши, қадрсизламаслиги, ҳақорат сўзларни қўллаши ва ҳ.к. Олим ягона фарзандли оила болаларида деспотизм шаклида, кўп болали оила болаларидан бошқа болаларга нисбатан қизғаниш шаклида намоён бўлишини таъкидлайди. Бундай белгиларнинг намоён бўлиши ота-она болага нисбатан илк ёшларида қўллаган назорат ва дакки шаклларини ўзгартириши лозимлигидан далолат беради, яъни инқироз даври шахснинг ижтимоий ўзаро муносабатларида кечади.

Мактабгача ёшдаги боланинг психик ривожланишида асосий фаолият ўйин ҳисобланади. Д.Б.Эльконинниг таъкидлашича, бола фаолиятининг асосий мотиви катталар ҳаётига кириш. Уларнинг қуролларидан фойдаланиш, шахслараро муносабатларга киришиш, катталардек ҳаракат қилиш ҳисобланади. Бироқ бола ҳали кичкина ва катталар ҳаётида мустақил яшай олмайди, шунинг учун унинг интилишларини амалга оширувчи ягона имконият – бу ўйиндир. Айнан ўйинда инсон фаолияти мазмуни ва мотивларига дастлабки ориентация ҳамда катталар муносабати ўртасида ўз ўрнини англаш юз беради. Бола ижтимоий роллар ва уларни боғловчи муносабатларни, ўз позицияси ва катталар позициясини яққолроқ тушуна бошлайди. Мана шунинг асосида янги ижтимоий мотив – ижтимоий аҳамиятга эга бўлган ва ижтимоий баҳоловчи фаолият юзага келади.

Мактабгача ёшдаги боланинг ривожланиш жараёнида унинг мотивацион-эҳтиёж доирасида ўзгаришлар кечади: мактабгача ёшнинг дастлабки йилларида мотивлар англанмаган, аффектив бўёққа эга бўлган, муайян вазият билан боғлиқ хусусиятларга эга бўлади. Мактабгача ёшнинг охирги йилларида бола мотивлари умумлашган мақсадлар тарзида намоён бўлади, мотивларни англаш бошланади, мотивлар иерархияси шаклланади. Бу даврда мотивларнинг юзага келиши ва ривожланишини бола шахси ривожланиши мезонлари сифатида қараш мумкин. Мактабгача ёшнинг дастлабки йилларида мотивлар иерархиясининг фақат асослари юзага келса, етти ёшга келиб унинг шаклланиши бошланади.

Сюжетли-ролли ўйиннинг бола ривожланишидаги муҳим хусусиятлардан яна бири сифатида Д.Б. Эльконин унинг “билиш эгоцентризми”га таъсирини ўрганади ва бартараф этади. Ўйин жараёнида турли ролларни бажараётган бола турли нуқтаи назарларни ўзаро нисбатини аниқлайди, бошқанинг ўрнига ўзини қўйиб кўради, одоб-ахлоқ меъёрларини ўзлаштиради. Болада айнан мактабгача бўлган ёшда инсонлар ўртасидаги асосий қоидаларни ўзлаштира бошлаб, уларнинг хатти-ҳаракатларини баҳолай бошлаганидан этник босқичлар ва ахлоқий хислатларнингдастлабки шакллари юзага келади.

Кичик мактабгача ёшда ахлоқий баҳо эмоционал баҳо билан аралашиб кетади, яъни “яхши”, “ёмон” мезонлари “ёқади”, “ёқмайди” баҳолари билан аралашиб кетади. Ўрта мактабгача ёшга келиб, ўзига эмоционал баҳони тобелантирувчи ахлоқий тушунчалар асосий ўринга чиқади. Мактабгача ёшнинг охирги даврларига келиб, бола бошқаларнинг қизиқишларидан келиб чиқиб иш бажариши мумкин. Боланинг ахлоқий сифатлари шаклланишида намуна ҳисобланувчи катталар бевосита ва бавосита таъсир кўрсатади.

Шундай қилиб, мактабгача бўлган ёшда ёш бўйича айнан бир хиллик жараёни, умуман олганда, якунланиш босқичига яқинлашган, яъни ўз ёшига оид тасаввурларнинг шаклланганлик даражаси ўртачадан баланд; ижтимоий жиҳатдан ўзининг жамиятдаги ўрнини англаш энди шаклланаётган, яъни яқин ўраб турган ижтимоий муҳит тўғрисидаги тушунча ва тасаввурларининг шаклланганлик

даражаси ўртачадан паст; боланинг ўз жинси билан боғлиқ роллар тўғрисидаги тасаввурларининг шаклланганлик даражаси пастдан юқоригача бир хилда тақсимланади.

Болаларнинг “Мен” концепциясига оид таркибий қисмларининг шаклланиши бўйича тақсимлаш (n=85)

“Мен” концепцияси компонентларининг шаклланганлик даражаси	**“Мен” концепцияси компонентларининг шаклланганлик даражаси бўйича гуруҳлар сони (%)**				
	Номинатив (исми)	***Ёшга оид***	***Жинсий***	***Ижтимоий***	***Қадриятли***
Паст	0	0	43,3	50	96,7
Ўрта	0	50	36,7	46,7	3,3
Юқори	100	50	20	3,3	0

Номинатив тасаввурлар, яъни ўз исми, унинг маъноси атрофидаги тасаввурлар ҳам мавжуд бўлиб, улар шу ёш учун юқори даражада шаклланган; қадриятлар идентификацияси эса энди ривожланиш босқичида эканлиги маълум бўлди.

Адабиётлар

1. Шамсиев Ў.Б. Оилада мактабгача ёшдаги бола шахси ўзини-ўзи англашининг ижтимоий психологик омиллари. Психология фанлари номзоди... дисс. автореф: – Т., 2010.
2. Шамсиев Ў.Б. Оилавий муносабатлар тизимида боланинг ўзини-ўзи англаш жараёни //Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: “Мумтоз сўз” нашриёти, 2012 йил. – Б. 52.
3. Шамсиева М.Б. Оилавий холдинг ва шахс генезиси //Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: “ЎзР Фанлар Академияси Асосий кутубхонаси” нашриёти, 2012 йил. – Б. 52



Акмал ЛУҚМОНОВ
Ғиждувон тиббиёт коллежи махсус фан ўқитувчиси,
Бухоро давлат университети психология
кафедраси тадқиқотчиси

ҲОМИЛАДОР АЁЛЛАРДАГИ САЛБИЙ ЭМОЦИОНАЛ КЕЧИНМАЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА ПСИХОКОРРЕКЦИОН МУОЛАЖАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Мақолада ҳомиладор аёллардаги салбий эмоционал психокоррекция тадбирлари ҳомиладорларнинг эмоционал соҳасида кечинмаларнинг ифодаланиши йўналишида ҳамда уларнинг интеграцияси ва тузилиши даражасида ижобий ўзгаришлари хусусида фикр юритилган. Бу эса психокоррекция тадбирлари ҳомиладорликнинг биринчи триместридаги эмоционал жиҳатдан салбий таъсирларни нисбатан камайтириш имконини беришини англатади.

Таянч тушунчалар: *ҳомиладорлик, ҳомиладор аёл, психокоррекция, эмоционал ҳолат, муолажа, депрессивлик, агрессия, фрустрация.*

В статье размышляется о положительных изменениях в эмоциональной сфере, психокоррекционных работ отрицательного эмоционального состояния у беременных в уровни составления и интеграции. И это означает что психокоррекционные работы дают возможность уменьшения по отношению отрицательных воздействий эмоциональной стороны у беременных с первых триместров беременности.

Опорные понятия: *беременность, беременная женщина, психокоррекция, эмоциональное состояние, лечение, депрессивность, агрессия, фрустрация.*

In article it is reflected the positive changes in the emotional sphere, the psycho-corrective work of negative emotional state in pregnant women in levels of compilation and integration. And this means that psychocorrectional work makes it possible to reduce the emotional side of pregnant women from the first trimester of pregnancy in relation to the negative effects.

Supporting concepts: *pregnancy, pregnant woman, psychocorrection, emotional state, treatment, depressiveness, aggression, frustration.*

Психологик коррекциянинг аёллар эмоционал кечинмаларидаги ролини аниқлаш учун уларнинг миқдорий ва сифат тавсифини қиёсий таҳлил қилиш ҳомиладорларни икки гуруҳда ўрганиш орқали амалга оширилди:

- тажриба (ҳомиладорликнинг бутун даври давомида психокоррекция тадбирларида қатнашган аёллар – n = 38) гуруҳи;
- назорат (ҳомиладорликнинг бутун даври давомида психокоррекция тадбирларида қатнашмаган аёллар – n = 47) гуруҳи.

Экспериментнинг бошланишида ҳомиладор аёлларнинг биринчи триместр ўрталаридаги эмоционал ҳолатининг қиёсий таҳлили амалга оширилди. Бунда эмоционал ҳолатларнинг ўзаро боғлиқлиги ва ифодаланганлиги бўйича ишончли фарқланишлар аниқланмади. Шундай қилиб, ушбу танлов гуруҳлари бошиданоқ ўрганилаётган характеристикалар бўйича тенг бўлишган. Ҳомиладорликнинг биринчи триместри охирида психокоррекция тадбирларида иштирок этган ва иштирок этмаган ҳомиладорларнинг эмоционал кечинмалари хусусиятларини ўрганиш натижалари 1-жадвалда келтирилган.

Психокоррекция тадбирларида иштирок этган ва иштирок этмаган ҳомиладор аёлларнинг биринчи триместр охиридаги эмоционал ҳолатининг қиёсий таҳлили эмоциялар коррекциянинг катта ўринни эгаллашини кўрсатди. Аввал кўрсатиб ўтилганидек, биринчи триместр ўз ривожланишида салбий тенденцияларнинг устуворлик қилиши жиҳатидан ҳомиладор аёлларнинг эмоционал соҳасида инқирозли ҳисобланади. Бунда 7 та ишончли фарқланишлар аниқланди. Бошқа характеристикаларда ҳам ўзгаришга эга бўлса-да, бироқ улар ишончлилик даражасига эришмайди. Психологик коррекция жараёнида фақатгина битта ҳолат – агрессивлик даражаси ўзгармасдан қолади.

1-жадвал

Биринчи триместр охирида ҳомиладорлар эмоционал ҳолатига психокоррекциянинг таъсири

Эмоционал ҳолатлар	Тажриба гуруҳи		Назорат гуруҳи		Фарқланишлар	
	M	S	M	S	t	P
Ўзини ҳис қилиши	13,9	1,0	10,2	0,9	2,33	0,02
Фаоллиги	14,7	1,1	11,5	1,1	2,04	0,05
Кайфияти	18,7	2,1	12,2	2,5	2,00	0,05
Таранглик	11,7	2,1	18,6	2,8	1,97	0,05
Хавотирланиш	12,0	0,9	13,9	1,0	1,45	-
Ўзига ишонч	16,4	2,2	14,2	4,2	0,43	-
Асабийлашув	10,2	1,0	13,2	1,3	1,85	-
Ёлғизлик	10,3	2,5	24,7	6,9	1,96	0,05
Депрессивлик	49,7	3,4	63,6	6,0	2,01	0,05
Невротизм	21,0	1,9	30,4	4,4	1,96	0,01
Агрессия	13,4	0,9	13,7	1,1	0,22	-
Фрустрация	7,8	0,7	9,3	0,9	1,28	-

Психокоррекция тадбирларида иштирок этган ҳомиладор аёлларда биринчи триместрнинг охирида ўзини ҳис қилиши ҳолати аҳамиятли тарзда (ишончлилик даражаси 98%) яхшиланди. Ушбу кўрсаткичнинг стандарт хато кўрсаткичи унчалик катта эмас. Бундан келиб чиқадики, ўзини ҳис қилишнинг яхшиланишини кўпчилик ҳомиладорлар қайд этишди. Ушбу кўрсаткич ифодаланишининг ижобий ўзгариши катта ўринга эга бўлиб, чунки айнан биринчи триместрда ҳомиладор аёлларда унинг аҳамиятли ($p < 0,02$) пасайиши юз беради.

Шунингдек, психокоррекция тадбирларида иштирок этган ҳомиладор аёллар ҳомиладорликнинг учинчи триместри охирида ўзларининг фаоллик даражалари ўсганлигини қайд этишди. Мазкур кўрсаткичнинг тажриба ва назорат гуруҳлари ўртасидаги фарқланиши ишончлилиги 95%ни ташкил этди. Демак, психокоррекция тадбирлари ҳомиладор аёллар организмининг умумий тонусини кўтарилишига имкон беради.

Психокоррекция тадбирлари жараёнида ҳомиладор аёлларда кайфиятнинг яхшиланиши кузатилиб, ушбу кўрсаткичнинг назорат гуруҳи билан фарқланишининг ишончлилик даражаси 95% ни ташкил этди.

Тажриба гуруҳига кирувчи ҳомиладорларда таранглик даражасининг пасайиши ($p < 0,05$), яъни "юмшаш эффекти" юз берди. Ушбу кўрсаткичнинг стандарт хатоси ҳар иккала гуруҳ учун ҳам етарлича юқори бўлиб, бу эса мазкур ҳолатнинг ифодаланиш даражаси ҳар икки гуруҳда турлича (назорат гуруҳида юқорироқ) эканлигини кўрсатади.

Психокоррекция тадбирлари жараёнида ҳомиладор аёлларда ёлғизлик даражаси аҳамиятли тарзда пасайди. Назорат гуруҳига нисбатан бу кўрсаткичнинг фарқланиши ишончлилиги 95% ни ташкил этади. Шу билан бирга тажриба гуруҳидаги респондентларнинг кўрсаткичларидаги стандарт хато аҳамиятли (2 мартадан кўпроқ) даражада паст бўлиб, психокоррекция тадбирларида иштирок этган ҳомиладорларнинг кўпчилиги учун ёлғизлик даражасининг пастлиги характерли ҳисобланади.

Психокоррекция тадбирлари жараёнида ҳомиладор аёлларда биринчи триместрнинг охирида депрессивлик ҳолатининг пасайиши ($p < 0,05$) юз бериб, шунингдек, стандарт хато кўрсаткичининг ҳам аҳамиятли пасайиши кузатилди. Бу эса депрессивлик ҳолатининг пасайиши тажриба гуруҳининг кўпчилик қисм учун характерли эканлигини кўрсатади. Ушбу ҳолат шунинг учун ҳам муҳимки, ҳомиладорликнинг бошланишида кўпчилик аёлларда депрессивлик ҳолатининг аҳамиятли ўсиши ($p < 0,05$) қайд этилади. Шу жиҳатдан психокоррекция тадбирлари ҳомиладорликнинг ушбу салбий таъсирини тўлиқ бартараф этмасада, бироқ ижобий ўзгаришлар содир бўлишига имкон яратади.

Ҳомиладорликнинг биринчи триместри охирида тажриба гуруҳидаги ҳомиладорларда назорат гуруҳидаги респондентлар билан қиёсланганда невротизация даражасининг ишончли (99% даражада) пасайиши юз беради.

Биринчи триместрда ҳомиладорларда ушбу ҳолатнинг ишончлилиги 99% даражани ташкил этган ҳолда ўсиши эътиборга олинадиган бўлса, психокоррекция тадбирлари жараёнида мазкур салбий таъсирнинг тўлиқ бартараф этилиши ҳақида хулоса билдириш мумкин бўлади.

Шундай қилиб, тажриба гуруҳидаги ҳомиладор аёлларда психик ҳолатнинг ишончли даражада ижобийлашиши – ўзини ҳис қилиш ва кайфиятнинг яхшиланиши, фаолликнинг ўсиши, таранглик, ёлғизлик, депрессивлик ва невротизациянинг пасайиши юз берди. Хусусан, бунда 7 та ишончли фарқланиш аниқланиб, уларнинг кўпчилиги ишончлиликнинг 95% даражасида ўрин эгаллаган.

Таҳлил жараёнида тажриба ва назорат гуруҳларидаги ҳомиладорлар ўртасида хавотирланиш, ўзига ишонч, эмоционал асабийлик, фрустрация ва агрессия каби эмоционал ҳолатлар бўйича ишончли фарқланишлар аниқланмади. Бироқ мойиллик сифатида тажриба гуруҳидаги ҳомиладор аёлларда хавотирланишнинг нисбатан паст даражаси, ўзига ишончнинг юқорилиги, эмоционал асабийлик ва фрустрациялашув даражасининг пасайишини қайд этиб ўтиш мумкин.

Шундай қилиб, таъкидлаш мумкинки, ҳомиладорликнинг биринчи триместридаги психокоррекция тадбирлари унинг бошланишида юзага келувчи кўплаб салбий эмоционал таъсирларни бартараф этиш имконини беради.

Тажриба ва назорат гуруҳидаги ҳомиладорларнинг эмоционал ҳолати кўрсаткичлари корреляцияли таҳлили бир қатор ўзига хос хусусиятларнинг мавжудлигини кўрсатди. Назорат гуруҳида ҳомиладорликнинг биринчи триместрида бўлган аёлларнинг эмоционал ҳолати тузилмасига нисбатан на характерида, на ишончлилик даражасида ва на боғлиқликлар миқдорида аҳамиятли фарқланишлар аниқланмаган.

Тажриба гуруҳида эса ҳомиладорлар кечинмаларининг эмоционал тузилмасида баъзи ўзига хос белгилар аниқланган Бунда, ишончлиликнинг энг юқори даражаси (99,9%)да бўлган 5 та ўзаро боғлиқлик аниқланган. Уларнинг характери (кўрсаткичлар таркиби ва улар ўртасидаги бевосита боғлиқлик) назорат гуруҳидаги ҳомиладорлар ва ҳомиладор бўлмаган аёллардаги боғлиқликлар характеридан фарқланади. Биринчи триместрдаги ҳомиладор аёлларнинг эмоционал ҳолати тузилишининг “ўзаги”ни таранглик, ҳомиладор бўлмаганларда эса ўзига ишонч ташкил этади.

Тажриба гуруҳидаги ҳомиладор аёлларда биринчи триместрда эмоционал кечинмаларининг “маркази”ни белгилар комплексини шакллантирувчи ўзини ҳис қилиш, фаоллик ва кайфият каби ҳолатлар ташкил этади. Чунки ушбу кўрсаткичларнинг ҳар бири қолган барчалари билан боғлиқ ҳисобланади. Шунинг учун, ҳомиладорларнинг фаоллиги қанчалик юқори бўлса, уларнинг кайфияти ва ўзини ҳис қилиши шунчалик яхши бўлади. Қайд этиб ўтиш лозимки, ушбу кўрсаткичларнинг аҳамиятининг айнан психокоррекция тадбирларининг ўтказилиши натижасида ўсишига эришилди.

Бундан ташқари, фаоллик кўрсаткичи ўзига ишонч ҳолати билан ижобий боғлиқликка эга бўлиб, ўзини ҳис қилиш эса таранглик ҳолати билан салбий боғлиқликка эгадир. Демак, ҳомиладорларнинг фаоллиги қанчалик юқори бўлса, улар ўзларини шунчалик ишончли сезишади. Ўзини ҳис қилиш ҳолати қанчалик ижобий бўлса, таранглик ҳолати шунча паст бўлади.

Тажриба гуруҳидаги ҳомиладорлар эмоционал ҳолатининг ўзаро боғлиқлиги миқдори 39 тани ташкил этди. Бу эса назорат гуруҳидаги ҳомиладорлар гуруҳидаги 31 тадан (18 таси $p < 0,05$ бўлганда ва 13 таси $p < 0,01$ бўлганда) кўпроқдир. Демак, психокоррекция тадбирлари қайсидир даражада ҳомиладорликнинг бошланишидаги эмоционал ҳолатлар тузилишининг қайта қурилиши (аёллар кечинмалари тизимининг дезинтеграцияси) билан боғлиқ салбий таъсирларидан бирини пасайтиришга кўмак беради.

Тажриба ва назорат гуруҳларидаги ҳомиладорликнинг иккинчи триместрида бўлган ҳомиладор аёлларнинг эмоционал ҳолатлари ўзига хослигини ўрганиш натижалари 2-жадвалда келтирилган.

Тажриба ва назорат гуруҳидаги ҳомиладор аёлларнинг эмоционал ҳолати кўрсаткичларининг қиёсий таҳлили психокоррекция тадбирларининг аёллар кечинмаларига аҳамиятли таъсир қилишини кўрсатди. Бунда 5 та ишончли фарқланишлар аниқланиб, уларнинг 2 таси ишончлиликнинг 99% даражасига эришган. Бошқа кўрсаткичлар ижобий томонга ўзгарган бўлсада, бироқ улар ишончлилик даражасига эришмаган. Бу даврда ўзига ишонч ва кайфият даражаси амалда ўзгармаган ҳолда, фрустрация даражаси бир мунча ўсган. Бу эса иккинчи триместрда мазкур ҳолатлар ифодаланиши даражасининг етарлича ижобийлиги билан изоҳланиши мумкин.

Умуман, ҳомиладорларнинг эмоционал ҳолатидаги ўзгаришлар етарлича ижобий бўлиб, улар биринчи триместрдагидек кучли ифодаланмаган. Буни иккинчи триместр ҳомиладор аёллар учун психологик жиҳатдан ижобий аҳамиятга эгалиги билан изоҳланиши мумкин.

2-жадвал

Иккинчи триместр охирида ҳомиладор аёлларнинг эмоционал ҳолатига психокоррекция тадбирларининг таъсири

Эмоционал ҳолатлар	Тажриба гуруҳи		Назорат гуруҳи		Фарқланишлар	
	M	S	M	S	M	S
Ўзини ҳис қилиши	18,9	1,2	15,1	1,5	2,02	0,05
Фаоллиги	16,1	1,2	15,0	1,4	0,67	-
Кайфияти	18,7	1,0	18,6	1,1	0,12	-
Таранглик	11,5	1,3	16,4	1,4	2,61	0,01
Хавотирланиш	11,0	1,1	10,3	1,2	0,58	-
Ўзига ишонч	15,8	0,9	15,5	0,8	0,25	-
Асабийлашув	8,8	1,3	9,2	1,5	0,37	-
Ёлғизлик	16,3	2,8	18,0	5,0	0,29	-
Депрессивлик	28,1	2,5	42,7	2,9	2,00	0,05
Невротизм	11,4	1,5	18,1	2,1	2,59	0,01
Агрессия	10,6	1,1	14,0	1,2	2,09	0,05
Фрустрация	8,9	0,9	8,5	1,0	0,34	-

Шу ўринда эътиборни тортувчи ҳолат, бу тажриба гуруҳидаги ҳомиладор аёллар гуруҳида стандарт хатолар кўрсаткичи нисбатан паст кўрсаткичга эгалигидир. Бу эса уларга эмоционал кечинмалар жиҳатидан кўпроқ универсал тенденциялар характерли эканлиги ва улар психокоррекция тадбирларига жалб этилганларнинг кўпчилиги учун кўпроқ ижобий эканлигини кўрсатади.

Назорат гуруҳи билан қиёсланганда, тажриба гуруҳидаги ҳомиладор аёлларда ўзини ҳис қилиш даражаси ижобийроқ эканлиги аниқланиб, бунда фарқланишлар ишончлилиги даражаси 95% ни ташкил этади. Бу кўрсаткич норматив кўрсаткичларга нисбатан ифодаланишнинг юқори даражасига чиқади.

Тажриба гуруҳи ҳомиладорларида иккинчи триместр охирида таранглик даражасининг анча паст даражаси ($p < 0,01$) қайд этилиб, бу кўрсаткич ҳомиладорликнинг иккинчи триместрида барқарор равишда юқори бўлиб келган. Демак, психокоррекция тадбирлари ортиқча тарангликни бартараф этиб, бу эса ҳомиладор аёлларнинг ўзини ҳис қилиш ҳолатига ижобий таъсир қилади.

Тажриба гуруҳидаги ҳомиладорлар ҳомиладорликнинг бутун даври мобайнида юқори ҳисобланувчи невротизация даражасининг анча пастлиги билан характерланишиб, фарқланишларнинг ишончлилиги даражаси 99%ни ташкил қилади. Ушбу кўрсаткич психокоррекция тадбирлари ёрдамида иккинчи триместрдаги юқори даражадан ўртачага пасаяди. Шунингдек, психологик коррекция жараёнида ҳомиладор аёлларда агрессивликнинг пасайиши кузатилиб, аёллар атрофдагиларга нисбатан салбий реакция кўрсатишга, аччиқланишга камроқ мойил бўлишади ($p < 0,05$). Ўртача-юқоридан ушбу кўрсаткич ўртача-пастга ўтади. Бундан ташқари, тажриба жараёнида тажриба гуруҳидаги аёлларда назорат гуруҳидаги аёлларга нисбатан фаолликнинг бир қадар кўтарилиши, хавотирланиш ва эмоционал асабийликнинг пасайиши юз беради. Аммо ушбу кўрсаткичлар ифодаланганлигининг қиёсий таҳлили ишончли фарқланишнинг мавжуд эмаслигини кўрсатди. Шунга қарамасдан мавжуд мойиллик етарлича ижобий ҳисобланади.

Шундай қилиб, назорат гуруҳидаги аёллар билан қиёсланганда тажриба гуруҳидаги ҳомиладорларда эмоционал соҳада кўпроқ ижобий ўзгаришлар юз беришини таъкидлаш мумкин. Ҳомиладорликнинг иккинчи триместрида бўлган тажриба ва назорат гуруҳи ҳомиладорлари эмоционал ҳолатлари кўрсаткичининг корреляцияли таҳлили бир қатор хусусиятларнинг мавжудлигини кўрсатди. Назорат гуруҳида ҳомиладорликнинг иккинчи триместрида бўлган аёлларнинг эмоционал ҳолати тузилмасига нисбатан на характерида, на ишончлилик даражасида ва на боғлиқликлар миқдорида аҳамиятли фарқланишлар аниқланмаган.

Тажриба гуруҳида эса ҳомиладорлар кечинмаларининг ***эмоционал тузилмаси***да етарлича ўзига хосликка эга бўлган белгилар аниқланган.

Тажриба гуруҳининг ҳомиладорларида иккинчи триместрида эмоционал ҳолатларнинг тузилма-

сида глобал ўзгаришлар юз бермайди. Биринчи триместрда бўлганидек, унда ҳам ўзини ҳис қилиш "ўзак"лигича қолмоқда (4 та боғлиқлик). Бунда ўзини ҳис қилиш қанчалик яхши бўлса, ҳомиладорларда кайфият, фаоллик ва ўзига ишонч даражаси юқори бўлади.

Экспериментал гуруҳдаги иккинчи триместрдаги ҳомиладорларнинг эмоционал кечинмалари кўрсаткичлари ўзаро боғлиқлиги тузилмаси бир қадар мураккаблашган ҳолда аҳамиятли ўзгармасдан қолди. Бунда биринчи триместрда учрамаган учта янги боғлиқлик пайдо бўлади. Таранглик ҳолатининг юқорилиги невротизация ва агрессивликнинг ўсиши билан боғлиқ ҳисобланади. Ўзини ҳис қилишнинг ижобийлиги эса ўзига ишончнинг юқорилиги билан боғлиқ. Иккинчи триместрда таранглик ҳолати аҳамиятли ($p < 0,01$) пасаяр экан, бу оптимизация ва агрессия билан невротизацияга олиб келади. Ушбу категория ҳомиладорларининг ўзини ҳис қилиши иккинчи триместрда шунингдек яхшиланиб ($p < 0,05$), бу ҳам ижобий тенденция ҳисобланади.

Иккинчи триместрдаги экспериментал гуруҳ ҳомиладорларида эмоционал ҳолатлар кўрсаткичининг ўзаро боғлиқлиги умумий миқдори ўсиб - 49 (32 таси $p < 0,05$ бўлганда ва 17 таси $p < 0,01$ бўлганда) тани ташкил қилади. Бу биринчи триместрдагидан (39; 21 - $p < 0,05$ ва 18 - $p < 0,01$ бўлганда) ва иккинчи триместрдаги назорат гуруҳидаги ҳомиладорлар (42; 28 - $p < 0,05$ ва 14 - $p < 0,01$ бўлганда) кўрсаткичларидан катта ҳисобланади. Демак, ҳомиладорликнинг иккинчи триместридаги психокоррекция тадбирлари шахс эмоционал соҳаси интеграцияси даражасининг ошишига имкон беради.

Ҳомиладорликнинг учинчи триместрида бўлган ҳомиладор аёлларнинг эмоционал кечинмаларининг ўзига хослиги бўйича маълумотлар 3-жадвалда келтирилган.

Ҳомиладор аёлларнинг эмоционал ҳолати психокоррекциясининг ролига бағишланган қиёсий тадқиқот натижалари унинг аҳамиятли ижобий ролини кўрсатди. Тажриба ва назорат гуруҳи ўртасида турли кечинмаларнинг ифодаланганлиги бўйича 8 та ишончли фарқланиш аниқланиб, уларнинг 4 тасининг ишончлилиги 95% даражадан юқорини ташкил қилади. Бунда барча ўзгаришларнинг йўналиши ижобий характер касб этади.

3-жадвал

Учинчи триместр охирида ҳомиладорлар эмоционал ҳолатига психокоррекция тадбирларининг таъсири

Эмоционал ҳолатлар	Тажриба гуруҳи		Назорат гуруҳи		Фарқланишлар	
		S	M		M	S
Ўзини ҳис қилиши	13,0	1,0	8,9	1,1	2,78	0,01
Фаоллиги	14,6	0,9	11,2	1,2	2,26	0,05
Кайфияти	17,1	1,1	14,9	1,1	1,97	0,05
Таранглик	16,2	1,1	20,0	1,2	2,33	0,02
Хавотирланиш	12,4	1,0	15,2	0,9	2,08	0,05
Ўзига ишонч	14,9	0,8	14,1	1,0	0,60	-
Асабийлашув	11,6	1,0	13,4	1,1	1,25	-
Ёлғизлик	12,1	3,1	13,6	4,0	0,29	-
Депрессивлик	33,5	2,4	41,9	3,5	1,98	0,05
Невротизм	18,9	1,5	24,4	1,5	2,60	0,01
Агрессия	14,6	0,8	17,2	0,7	2,45	0,02
Фрустрация	8,1	0,8	9,0	0,9	0,89	-

Психокоррекция тадбирлари натижасида учинчи триместр охирига келиб аёлларда ўзини ҳис қилиш даражаси ошган ($p< 0,01$). Норматив кўрсаткичлар билан қиёсланганда ушбу кўрсаткич ифодаланишнинг ўратача даражасига эгадир.

Шунингдек, тажриба гуруҳидаги ҳомиладорлар учинчи триместрида назорат гуруҳидаги ҳомиладор аёллар билан қиёсланганда фаолликнинг нисбатан юқорилиги билан характерланишади. Мазкур кўрсаткич бўйича улар ўртасидаги фарқланишнинг ишончлилиги даражаси 95%ни ташкил этади. Норматив кўрсаткичлар билан қиёсланганда тажриба гуруҳидаги ҳомиладорларнинг фаоллиги даражаси ўртача-юқори ҳисобланади. Бундан келиб чиқиб таъкидлаш мумкинки, психокоррекция

тадбирлари юқори фаоллик даражасини ҳаттоки ҳомиладорликнинг учинчи, энг оғир триместрида ҳам сақлаб қолишга имкон беради.

Тажриба гуруҳидаги ҳомиладорларнинг кайфияти қолган ҳомиладорлар билан қиёсланганда нисбатан ижобий (фарқланишлар ишончлиликнинг 95% даражасида) бўлиб, психокоррекция тадбирлари ҳомиладорликнинг барча даврларида кўтаринки кайфиятни сақлаб туришга имкон беради. Тажриба гуруҳида бошқа аёллар билан қиёсланганда таранглик даражасининг аҳамиятли пасайиши жуда ижобий натижа ҳисобланади ($p < 0,02$). Бу шунинг учун ҳам муҳимки, учинчи триместр охирида таранглик даражасининг амалда энг юқори кўрсаткичга етиши кузатилади. Психокоррекция тадбирлари дискомфорт ва турли ҳаяжонланишлар билан боғлиқ ортиқча тарангликнинг "юмшаши"га имкон беради. Тажриба гуруҳидаги ҳомиладорлардаги таранглик норматив кўрсаткичлар билан таққосланганда ўртача даражага етмасада, ҳар қалай унга яқинлашади.

Шу билан бирга тажриба гуруҳидаги ҳомиладорлар учинчи триместрда бошқа ҳомиладорлардан хавотирланиш даражасининг нисбатан пастлиги билан фарқланади (фарқланишнинг ишончлилиги 95% даражасида). Буни шу билан изоҳлаш мумкинки, биринчилари ўзларининг ҳолатларини кўпроқ яхши сифатида баҳолашиб, туғруққа ўзларини тайёрланган ҳисобланишиб, унинг салбий оқибатларидан камроқ даражада хавфсирашади.

Ҳомиладорлик даврида психокоррекция тадбирларининг яна бир ижобий таъсирини ҳомиладорликнинг учинчи триместрида кузатилувчи депрессивликнинг паст даражасида кўрсатиш мумкин. Мазкур кўрсаткич бўйича тажриба ва назорат гуруҳлари ўртасидаги фарқланиш ишончлиликнинг 95% даражасига етади. Норматив кўрсаткичларга кўра ҳомиладорлар (тажриба гуруҳи) "депрессиясиз" ҳолат билан характерланишади.

Тажриба гуруҳидаги ҳомиладорларда назорат гуруҳидагиларга нисбатан учинчи триместрда невротизациянинг паст даражаси аниқланган ($p < 0,01$). Демак, уларга юқори таъсирчанлик, хафақонлик, йиғлоқилик ва бошқаларда намоён бўлувчи марказий асаб тизимидаги функционал бузилишлар анча кам даражада характерлидир. Норматив кўрсаткичлар билан таққосланганда тажриба гуруҳидаги ҳомиладорларнинг невротизацияси даражасини паст деб ҳисоблаш мумкин.

Назорат гуруҳидаги ҳомиладорларда на миқдорий, на ишончлилик даражаси, на ўзаро боғлиқликлар характерида алоҳида хусусиятлар аниқланмади. Боғлиқликларнинг миқдори ва йўналишидаги аҳамиятсиз вариациялар умумий кўринишни ўзгартирмайди.

Ҳомиладорликнинг учинчи триместридаги тажриба гуруҳидаги аёлларда характери аҳамиятли ўзгармаган тарзда эмоционал соҳаси тизимининг мураккаблашуви содир бўлади. Аввалгидек, унинг тузилмаси "маркази" ўзини ҳис қилиш ҳолати ҳисобланиб, у бир томондан фаоллик, кайфият ва ўзига ишонч билан, иккинчи томондан таранглик (салбий) билан боғлиқ бўлса, таранглик эса эмоционал асабийлик ва невротизм билан боғлиқ ҳисобланади. Фаоллик ҳолати кайфият ва ўзига ишонч билан, асабийлик – агрессивлик, невротизация эса хавотирланиш билан боғлиқдир.

Назорат гуруҳида ҳомиладор аёлларнинг эмоционал ҳолатлари кўрсаткичлари ўзаро боғлиқлиги миқдори етарлича катта бўлиб, 47 тани (29 та - $p < 0,05$ ва 18 та - $p < 0,01$) ташкил этади. Тажриба гуруҳидаги ҳомиладорларда эса бундай боғлиқликлар анча кўпроқ бўлиб, 65 тадан (42 та - $p < 0,05$ ва 23 та - $p < 0,01$) иборат. Бу ушбу танловда иккинчи триместрдаги боғлиқликлар сонидан (49 та; 32 та - $p < 0,05$ ва 17 та - $p < 0,01$) кўпроқдир.

Шундай қилиб, психокоррекция тадбирлари ҳомиладорликнинг учинчи триместрида эмоционал соҳа интеграциялашуви даражасининг ўсишига имконият яратади.

Адабиётлар

1. Абдуллаев Д.Н, Сафаров А.Т, Камолова С.Н. Ҳомиладорлар анемиясида фетоплацентар тизимининг етишмовчилиги ва уни даволаш (адабиётлар шархи) // Вестник врача, 2007. – №4. Самарканд. – Б. 7-10

2. Абрамченко В.В. Современные методы подготовки беременных к родам. – СПб, 1991. – 49 с.

3. Абрамченко В.В. Активное ведение родов. – СПб.: Специальная литература, 1996. – 668 с.

4. Бердиева А.К, Худоярова Д.Р., Утаев Б.О., Ражабов П.Х., Очилов В.Ж., Хасанов У.И. Мониторинг репродуктивного здоровья девочек и девушек Самаркандской области методом многофакторной корреляционной связи// Вестник врача, 2008. – №1. – Самарканд. – Б. 21-24

5. Бодяжина И.Б. Ҳомиладор аёл организмидаги ўзгаришлар // Акушерлик. Дарслик. – Т., 1991. – Б. 92-103



Akmal NAZAROV
Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrasi o`qituvchisi



Hafiz JALILOV
Buxoro davlat universiteti
pedagogika fakulteti 3-bosqich talabasi

GLOBALLASHUVNING MILLIY MA'NAVIYATGA TA'SIRI MASALALARI

Maqolada globallashuv ta'siriga qisqacha to`xtalinib, uning milliy ma'naviyatimizga ta'siri masalalari bayon etiladi. Uning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil ostiga olinadi.

Tayanch tushunchalar: *globallashuv, milliy ma'naviyat, qadriyatlar, ustanovkalar, jahon madaniyati, ajdodlarimiz tarixi, g`oyalar.*

В статье вкратце, останавливаясь на воздействие глобализации, излагаются вопросы ее воздействия на национальную духовность. Анализируется ее положительные и отрицательные стороны.

Опорные понятия: *глобализация, национальная духовность, ценности, установки, мировая культура, история предков, идеи.*

In article istold briefly about stopping the impact of globalization and the outlines ofitsinfluence on national spirituality. It is analyzed the positive and negative sides.

Supporting concepts: *globalization, national spirituality, values, installations, world culture, history of ancestors, ideas.*

Globallashuvga qisqa ta'rif bermoqchi bo'lsak, uni turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bog'liqlikning kuchayishi deyish mumkin.

XX asr o'rtalarida globallashuvning institutsionallashuvi, ya'ni tashkillashuvi kuchaygandan keyin bu jarayonning o'zi ham keskin tezlashdi va kuchaydi. Institutsionallashuvning kuchayganini Butunjahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa taraqqiyoti va tiklanish banki ulkan tashkilotlarning vujudga kelgani misolida ham ko'rish mumkin.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, globalizm tarafdorlari ham, dushmanlari ham asosiy e'tiborni iqtisodiyot sohasiga qaratishadi. Globallashuvning ma'naviyatga ta'siri va ma'naviy globallashuv masalalari sotsiologiya, falsafa, madaniy antropologiya fanlarida o'zining aksini yetarli darajada topganicha yo'q.

Ma'naviyatni ham bir uyga qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirga qarshi himoya choralari ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullash lozimu, qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta ham milliy ma'naviyat yo'qki, u boshqa xalqlar ma'naviyatidan to'la ihotalangan bo'lsa. Hatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy changalzorlarda turmush kechirayotgan qabilalar ham qo'shni qabilalar va zamonaviy tamaddun ta'sirini o'zida his qilib turadi. Qolaversa, tarixni tahlil qilish, boshqa xalqlar ma'naviyatidan bahramand bo'lgan xalqlar ma'naviyati yuksakliklarga ko'tarilganidan guvohlik beradi.

O'rta Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyati ham Sharq va G'arbni tutashtirgan karvon yo'llarida joylashgani sababli ham Sharq, ham G'arb madaniyatidan bahramand bo'lgan. Muhimi shundaki, xalqimiz G'arb va Sharq ma'naviyatidan bahramand bo'lib, ularning ijobiy tomonlarini o'zlashtiribgina qolmay, ularga ijodiy yondashib yangi cho'qqilarga ko'tarildi. Bu fikrning tasdig'ini ma'naviyatning tarkibiy qism-

lari bo‘lgan ilmiy bilimlar, diniy e’tiqod, san’at misolida ham ko‘rish mumkin. Buni faqat Vatanimiz emas, umumjahon madaniyati tarixidan mustahkam o‘rin egallagan allomalarimiz ijodi misolida ham ko‘rish mumkin. Masalan: ana shunday ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniy Xitoy va Hindiston, Yunoniston va Rim falsafasini, tabiiy fanlarini chuqur o‘zlashtirgan edi. Hindistonda bo‘lgan paytida u hind fani va madaniyatini o‘rganar ekan, qadimgi manbalarni o‘rganish uchun qadimgi hind tili-sankskritni bilish - lozimligini anglaydi. U sanskrit tilini o‘rganishga kirishadi va qisqa fursatda uni chuqur o‘zlashtiradi. Endi qadimgi hind madaniyati va fanini asl manbalardan o‘rgana boshlaydi. U, shuningdek, yunon va Rim madaniyati va fanini o‘rganish uchun yunon va lotin tillarini o‘zlashtirgan edi.

Jahon madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan Abu Nasr Forobiy ham o‘nlab tillarni bilgan va o‘nlab xalqlar madaniyati va ma’naviyatini chuqur o‘rgangan edi. Bunday misollarni juda ko‘plab keltirish mumkin. Eng muhim jihati shundaki, o‘sha buyuk ajdodlarimiz jahon xalqlari ma’naviyatini o‘rganibgina qolmay, ularni chuqur tahlil etishdi, tegishli joylarini rivojlantirib olamshumul kashfiyotlar qilishdi.

Ajdodlarimiz tarixi jahon xalqdari ma’naviyatiga hurmat bilan qarash, kerakli joylarini o‘rganib, ijodiy rivojlantirish orqaligina ma’naviyat cho‘qqisiga erishish mumkinligidan guvohlik beradi. Bizga ta’sir o‘tkazayotgan yoki ta’sir o‘tkazmoqchi bo‘layotgan g‘oyalarning qay birini qabul qilish va qay birini rad etish lozimligini aniqlash uchun jiddiy tahlil lozim. Bizningcha, ana shunday tahlilni o‘tkazish uchun esa ba’zan erinchoqligimiz, ba’zan uquvsizligimiz xalaqit bermoqda. Buning oqibatida qabul qilish kerak bo‘lgan g‘oyalarni rad etish va rad etish lozim bo‘lgan g‘oyalarni qabul qilish hollari ham uchrab turibdi.

O‘zbek milliy ma’naviyati ham uzoq va yaqindagi qo‘shnilarning ilg‘or an’analarini o‘zlashtirish natijasida rivojlanib bordi. Ma’naviyatimizning rivojlanish tarixini kuzatsak, bunga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. XX asr boshlaridagi o‘zbek madaniyati va ma’naviyati va uning asr oxiridagi holati o‘rtasida ancha jiddiy tafovut bor. Bu tafovutni adabiyot, san’at, fan, hatto oddiy yurish-turish va kiyim-kechak sohalarida ham kuzatish mumkin.

Milliy kiyimlar ham milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. XX asr davomida ana shu qadriyatimizning tadrijini kuzatsak, g‘aroyib hodisalarning guvohi bo‘lamiz. O‘tgan asr boshlarida mahalliy erkaklarning qishki kiyimi telpak, paxtalik chopon, paxtalik shim va etikdan iborat edi. Yozgi kiyim esa do‘ppi, ko‘ylak yoki yaktak, oq lozim va shippak yoki kavushdan iborat edi.

O‘sha paytlarda Ovro‘pocha kiyim kiyish, galstuk taqish yoki kostyum va shlyapa kiyish u yoqda tursin, milliy kiyimga ozroq bo‘lsa ham o‘zgarish kiritishga urinish din peshvolari va milliy o‘zlik "himoyachi" lari tomonidan milliy ma’naviyatga tahdid sifatida baholanar edi. Masalan: an’anaviy tarzda tugma qadalmaydigan yaktakka tugma qadash 1918-yil fevral oyida Buxoro muftisi tomonidan kofirlarning ishi deb e’lon qilindi. O‘sha paytlarda endigina rivojlanib kelayotgan vaqtli matbuot, ya’ni gazeta va jurnallarni o‘qish ham kufr deb e’lon qilindi. XX asr oxiriga kelib esa milliy o‘zlikka tahdid deb e’lon qilingan o‘sha gazeta va jurnallar milliy o‘zlikni himoya qiluvchi vositalardan biriga aylandi. Erkaklarning kiyimlari ham bir asr davomida mutlaqo o‘zgarib ketdi.

Ayollarning kiyimlari ham bir asr davomida jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. U paytda ayollar libosi keng va uzun ko‘ylak, kamzul va kovush-maxsidan iborat edi. An’anaga ko‘ra, ayollar ko‘ylagi keng bo‘lishi, yenglari esa bilaklarni to‘la yopib turishi lozim edi. Ayollarning shunday kiyimlari 30-yillargacha moda bo‘lib keldi. O‘sha paytlarda biror kishi yana 30-40-yillardan keyin o‘zbek ayollari tor ko‘ylak va yubka, shim kiyib yurishadi, desa boshqalar uni aqldan ozganga chiqarib qo‘yishi hech gap emas edi. Oradan 40-50 yil o‘tar-o‘tmas ayollar shunchaki, tor ko‘ylak va shim emas, mini yubka, juda tor shimlar kiya boshlashdi. Asr boshida ayollar badanining 5-6 foiz qismi ochiq yurgan bo‘lsa, asr oxiriga kelib yoz paytlarida ayol-lar badanining 50-60 foiz qismi ochiq yuradigan bo‘ldi. XX asrning so‘nggi choragida ayollar asr boshidagi ayollar liboslarini kinofilm va fotosuratlarda ko‘rib ajablanishadi, xolos. Bularning bari hozirgi til bilan aytganda, globallashuv, aniqrog‘i ma’naviyatdagi globallashuv natijasi edi.

Ko‘rib o‘tgan misollarimizda erkak va ayollar liboslaridagi o‘zgarishlar yuz bergan har bir bosqichda, avval, bosqich liboslarini himoya qiluvchi, yangiliklarni esa G‘arbdan kelayotgan ma’naviy tahdid, deb baholovchilar ham anchagina bo‘lgan. Mana shu misollar globallashuv jarayonida chetdan kirib kelayotgan hodisalarning qaysi biri ma’naviyatga tahdidu, qaysi biri hayotbaxsh ekanini aniqlab olish qiyin ekanini ko‘rsatadi. Shuning uchun chetdan kelayottan har qanday g‘oyani yot va vayronkor, deb e’lon qilishdan avval milliy manfaatlar yo‘lida foydalanish mumkin yoki mumkin emasligi to‘g‘risida obdon o‘ylash lozim.

Tariximiz ilm-fan, din, san’at sohasida yurtimizda yetishib chiqqan allomalar butun dunyoga dong taratganidan guvohlik beradi. Abu Nasr Forobiy jahon falsafasi rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan bo‘lsa, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamaxshariy, Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek singari allomalarimiz jahon

fanini yangi pog‘onalarga ko‘tarishdi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Moturidiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviylar esa hadis, kalom, fiqh ilmlari va tasavvufda porloq yulduzlar hisoblanishadi. Amir Temur va Mirzo Boburning harbiy san’ati naqadar yuksakligini butun jahon e’tirof etadi.

Tarixga nazar tashlasak, fan va madaniyatimiz, milliy ma’naviyatimizning gurkirab o‘sishi bilan birga tushkunlik davrlari ham bo‘lganini ko‘ramiz. Masalan: Mirzo Boburdan keyin XX asrgacha yurtimizda dunyoni lol qoldiradigan na sarkarda, na alloma, na shoiru fuzalo yetishib chiqdi. Shu davrda Boborahim Mashrab va Ogahiy singari bir necha shoirlarniig yetishib chiqishini esa bu davr uchun qonuniyat emas, baxtli tasodif, deb baholamoq zarur.

Tariximizning so‘nggi besh yuz yilida avvalgi besh yuz yillikdagi singari yuzlab allomalar, shoirlar, lashkarboshilar yetishib chiqmaganligini sababi nimada degan savolning tug‘ilishi tabiiy. Buning qator sabablari bor. Ular orasida xalq ruhiyati bilan, harbiy vaziyat va iqtisodiyot bilan bog‘liqlari ham mavjud. Iqtisodiy sabablardan eng muhimi bizningcha shundaki, XV asr oxirida qilingan buyuk geografik kashfiyotlar natijasida Buyuk Ipak yo‘li o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlagani, hududimiz savdo yo‘llaridan chetda qolgani ana shunday iqtisodiy va ma’naviy tushkunlikka olib keldi. Bundan chiqarishimiz lozim bo‘lgan eng muhim xulosa shundaki, globallashuv jarayonidan chetda qolganimiz bizning milliy ma’naviyatimizga, ruhiyatimizga ijobiy emas, salbiy ta’sir o‘tkazdi. Demak, biz globallashuv jarayonida oqilona yo‘l tutsak, ham inqilobiy, ham ma’naviy ravnaqqa erishishimiz mumkin ekan. Oqilona yo‘l esa globallashuvni to‘la inkor qilish yoki chapak chalib kutib olishda emas, kerak bo‘lganda uning yo‘nalishiga moslashishda, tegishli paytda uni o‘zimizga moslashtirishda. Buning uchun esa uni muttasil kuzatib borish va tahlil qilish lozim.

Milliy ma’naviyatimizni va ma’naviy o‘zligimizni tahdidlardan himoya qilish uchun milliy istiqlol g‘oyasidan samaraliroq va kuchliroq vosita yo‘q. Shu masalada milliy istiqlol g‘oyasining juda muhim funksiyasi, ya’ni milliy va ma’naviy o‘zlikni himoyalash kabi muhim funksiyasi namoyon bo‘ladi. Milliy istiqlol g‘oyasi ana shu funksiyani bajarishi uchun esa yoshlar va aholi ongida faqat bilim, tasavvur sifatida emas, e’tiqod sifatida shakllanishi lozim.

Zamonaviy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqtayi nazaridan ayni bir inson ongida ayni bir paytning o‘zida o‘nlab turli xil, jumladan, diniy, axloqiy, siyosiy, ilmiy, badiiy va boshqa xil g‘oyalar bo‘lishi tabiiy. Ular bir-birlarini to‘lg‘azishi va ko‘pincha bir-birlariga to‘la mos kelmasligi mumkin. Natijada, shaxs bu g‘oyalardan eng zarurlarini va o‘zi eng to‘g‘ri deb bilganlarini ajratib hayotga tadbiq qiladi. Ana shu tanlash, ya’ni g‘oyaning amaliyotga o‘tishidagi muhim bosqichni to‘laroq va chuqurroq anglash uchun shu tanlash mezonlarini aniqlab olish zarur.

G‘oyalarni saralashda shaxs foydalanadigan mezonlarning eng muhimlaridan biri, saralab olinayotgan g‘oyaning shaxs manfaatlariga, ehtiyojlariga, ustanovkalariga e’tiqodiga mosligidir. Bu hodisalar, ya’ni manfaatlar, ehtiyojlar, ustanovkalar, e’tiqodlar va ularning g‘oyalar bilan o‘zaro aloqadorligi shu qadar murakkabki, uni bir so‘z bilan tushuntirish amri mahol.

Shunday qilib, milliy istiqlol g‘oyasining mohiyatiga monand tarzda uni yoshlar va aholi ongiga singdirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ma’rifiylik bilan cheklanmay e’tiqod shakllantirishga yo‘naltirilsa ko‘ngildagiday bo‘lardi. Buning uchun esa e’tiqodning o‘ziga xos xususiyatlari, uning shakllanishidagi bosqichlar, murakkabliklar, nozikliklarni doimo yodda tutish zarur bo‘ladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va isloh etishdir.// “Xalq so‘zi” gazetasi, 2005-yil, 29-yanvar.
2. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild. – Toshkent, 1997. – B. 149
3. Karimov I. Demokratik o‘zgarishlar – jamiyatimiz yangilanishi asosi. Diplomatiya korpusi rahbarlari, xalqaro tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvda so‘zlangan nutq. 1996-yil 27-dekabr.//Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. – T.: “O‘zbekiston”, 1997. – B. 290
4. Begmatov A. S. Ma’naviyat falsafasi yoxud Islom Karimov asarlarida yangi falsafiy tizimning yaratilishi. – T.: “Sharq”, 2000.
5. Mo`minov F. Axborot xavfsizligi va ijtimoiy taraqqiyot.// O`zbekiston matbuoti, 2007-yil. 6-son.



Muhiddin BAFAYEV
Buxoro davlat universiteti psixologiya kaferasi o`qituvchisi,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining faxriy a'zosi



Sardor BOLTAYEV
Buxoro davlat universiteti
psixologiya ta'lim yo`nalishi talabasi

QARILIK – IJTIMOIY-PSIXOLOGIK FENOMEN

Insonning qarish jarayonini o'rganishdan maqsad keksayish paytida sog'lom turmush kechirish, o'zini o'zi mustaqil parvarish qilish, ruhiy noqisliklarning oldini olishga erishishdan iborat. Keksa yoshdagi odamlarda kasalliklarning kechish jarayoni ularning yoshi va ruhiy holatiga bog'liq. Ular bilan ana shu jihatni hisobga olib muloqot qilish, ularni parvarishlash sog'liqni saqlash tizimining muammolaridan biri. Shuning uchun psixologiya fanida "Gerontopsixologiya" tarmog'iga katta e'tibor berilmoqda. Maqolada ana shu fan doirasida qarilik ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida ko`rib chiqiladi.

Tayanch tushunchalar: *gerontologiya, qarilik, ijtimoiy aloqalar, qiziqishlar doirasi, psixofiziologik funksiyalar, yetakchi faoliyat.*

Цель изучения процесса старения человека является достижение предотвращения психических недостатков, ведение здорового образа жизни и самостоятельно ухаживание за собой. Процесс прохождения болезней у людей старческого возраста связано с их возрастом и психическим состоянием. Вести общение с ними, учитывая эти же стороны и уход за ними, являются проблемой здравоохранения. Поэтому в психологической науке уделяется большое внимание на геронтопсихологию. В статье старость рассматривается как социально-психологический феномен в данной сфере науки.

Опорные понятия: *геронтопсихология, старость, социальные связи, сфера интересов, психофизиологические функции, ведущая деятельность.*

The purpose of studying the aging process of a person is to achieve the prevention of mental deficiencies, the maintenance of a healthy lifestyle and self-grooming. The process of passing the disease in people of old age is associated with their age and mental state. To communicate with them, taking into account these aspects of careis a public health problem. Therefore, in psychology, much attention is paid to gerontopsychology. In the article, old age is viewed as a socio-psychological phenomenon in this field of science.

Supporting concepts: *gerontopsychology, old age, social connections, sphere of interests, psychophysiological functions, leading activity.*

Qarilik (ostonasida) bo‘sag‘asida inson o‘zi uchun quyidagi masalalarni: u yangi ijtimoiy aloqalarni yaratishga, shuningdek, eskilarini saqlab qolishga yoki o‘zining shaxsiy muammolari bo‘lgan individual hayotga va yaqinlarining qiziqishlar doirasidagi hayotga o‘tishga harakat qilish qilmaslikni hal qiladi. Bu tanlov moslashishning u yoki bu strategiyasini — o‘zini shaxs sifatida saqlab qolish va o‘zini individ sifatida saqlab qolishni aniqlaydi. Ushbu tanlov hamda moslashuv strategiyalari bilan muvofiqlikda qarilikidagi yetakchi faoliyat yo inson shaxsini saqlab qolinishiga (uning ijtimoiy aloqalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish) yo psixofiziologik funksiyalarni asta-sekin so‘nish sharoitida uni individ sifatida yakkalanishi, individuallashuvi va “siqib chiqarilishiga” qaratilgan. Qarilikning har ikkala ko‘rinishi ham moslashuv qonuniga bo‘ysunadi, ammo hayotning va hatto, uning davomiyligini turli xildagi sifatni ta’minlaydi.

“Odamovilik shaklidagi tipda” moslashuv strategiyalari qiziqishlarning umumiy pasayishi va tashqi olamga da’vogarlik, egotsentrizm, emotsional nazoratning sustlashishi, berkinish istagi, vaqt o‘tishi bilan atrofdagilarga nisbatan e’tiborsizlikni shakllantiradigan, diskomfort, jizzakilik hislarida namoyon bo‘ladi.

Namuna sifatida qarishning bunday modeli haqida “sust qarish”ni “egoistik sanksiyalar” tipidagi xulq-atvorni tasvirlab, gapiradilar [1].

Ijtimoiy ahamiyatli faoliyat koʻrinishlaridagi yoshga bogʻliq me’yoriy koʻrinish kasbiy faoliyatni davom ettirish, xotiralar kitobini yozish, dars berish va nasihatgoʻylik, nevaralarni oʻquvchilarni tarbiyalash, ijtimoiy faoliyat boʻlishi mumkin.

Shaxs sifatida oʻzini saqlab qolish kuch yetgancha gʻayrat qilish imkoniyatini, har tomonlama qiziqishlarga ega boʻlishni, yaqin insonlarga kerak boʻlishga intilishini, “hayotga qiziqishini” his qilishni nazarda tutadi. Eng qaltis vaziyatlarda ham: hatto juda keksa, kasalmand, toʻshakka mixlangan ayol ham yaqinlariga naf keltirishi mumkinligidan xursand boʻladi: “Axir sizlar kun boʻyi ishdasizlar, uy qarovsiz, har holda men uydaman, koʻz-quloq boʻlib turaman. A.T. Lidersning ta’kidlashicha, oʻzining hayotiy yoʻlini qabul qilishga va hayotning aniq muhim oʻzgarishlari mumkin boʻlmagan sharoitlarda boshdan kechirganlarni qayta anglashga doir oʻziga xos “ichki vazifa” qarilikdagi yetakchi faoliyat funksiyasini ham bajaradi [2].

N.S. Pryajnikov qarilikning turli bosqichidagi oʻz mavqeini belgilash va faoliyatning oʻziga xos xususiyatlarini ajratishni taklif qilgan:

1. Keksalik nafaqa oldi yoshi (taxminan 55 yoshdan nafaqaga chiqqunga qadar) – bu, eng avvalo, kutish, eng yaxshi holatda esa – nafaqaga tayyorgarlik. Tamomila ushbu davr quyidagicha tavsiflanadi:

1) rivojlanishning ijtimoiy holati:

- nafaqani kutish: ayrimlar uchun nafaqa “tezroq dam olishni boshlash” imkoniyati sifatida, ayrimlar uchun – faol mehnat hayotini yakunlash hamda oʻzining tajribasi va hali ozmi - koʻpmi qolgan quvvati bilan nima qilish noaniqligi sifatida qabul qilinadi;
- asosiy aloqalar hali ham koʻproq ishlab chiqarish xarakteriga ega, bir tomondan hamkasblar ushbu inson tezroq ishdan ketishini kutishlari mumkin, (insonning oʻzi esa buni his qiladi), boshqa tomondan, ushbu insonni qoʻllab yuborishni xohlamaydilar va uning oʻzi ham koʻpgina tengdoshlarga qaraganda u uchun nafaqa kechroq boshlanishiga ich-ichida umid qiladi;
- qarindoshlar bilan munosabat, bir tarafdan inson hanuzgacha oʻzining oilasini, nevaralarini ham ozmi-koʻpmi ta’minlashi mumkin (bu ma’noda u “foydali” va “qiziqarli”), boshqa tarafdan esa, koʻp daromad keltirmay qoʻyib, oʻzining arzimas nafaqasini olganda, hademay oʻzining “keraksizligini” his qiladi;
- ishda oʻziga “munosib oʻrindoshni” tayyorlashga, tarbiyalashga intilishi.

2. Yetakchi faoliyat:

- hali bajarib ulgurmaganlarini amalga oshirish uchun ulgurishga intilishi (ayniqsa, kasbiy nuqtayi nazardan), shuningdek, ishda oʻzi haqida “yaxshi xotira” qoldirishga intilishi;
- oʻzining tajribalarini oʻquvchilari va izdoshlariga oʻrgatishga harakat qilish;
- nevaralar paydo boʻlgandan soʻng nafaqa yoshi oiladagi odamlar ular uchun muhim boʻlmagan oʻz nevaralari tarbiyasida ham ular oʻzini yuqori darajada namoyon qilishni xohlaydilar, ish va ular oʻrtasida “qiynalib ketadilar”.
- nafaqa oldi davrining oxiriga kelib (ayniqsa, ishdan ketish ehtimoli agar juda yuqori boʻlsa) oʻzining keyingi hayotini qanday tarzda rejalashtirishga, nafaqa vaqtida mashgʻul boʻlish uchun oʻziga mashgʻulot tanlashga intilishi kuzatiladi.

2. Nafaqaga chiqish davri – (nafaqaga chiqqandan keyingi birinchi yillar) – bu, eng avvalo, yangi ijtimoiy rolni, yangi mavqeni egallashdir. Umuman bu davr quyidagicha xarakterlanadi:

1) rivojlanishning ijtimoiy holati:

- dastlabki vaqtlarda eski aloqalar (ishdagi hamkasblari bilan) hali ham saqlanib qoladi, lekin keyinchalik bora-bora kamroq ifodalanadigan boʻladi;
- asosan, yaqin odamlar va qarindoshlar bilan munosabatda boʻlish (binobarin, qarindoshlar tomonidan hali “tajribasiz” boʻlgan nafaqaxoʻrga alohida xushmuomalalik va e’tibor talab etiladi);
- asta-sekin nafaqaxoʻr doʻstlar yoki hatto boshqa, birmuncha yoshroq doʻstlar paydo boʻladi (nafaqaxoʻr nima bilan shugʻullanishi va kimlar bilan muloqotda boʻlishiga bogʻliq holda. Misol uchun, jamoatchi nafaqaxoʻrlar oʻzlari uchun faoliyatning yangi sohalarini topib oladilar va yangi “ishbilarmon” munosabatlarga tez ega boʻladilar);
- odatda tugʻishganlar va yaqinlar “vaqti koʻp boʻlgan” nafaqaxoʻr nevaralar tarbiyasi bilan koʻproq shugʻullanishiga harakat qiladilar, shuning uchun farzandlar va nevaralar bilan boʻlgan muloqot ham nafaqaxoʻrlarning ijtimoiy holatining muhim tavsifi (xarakteristikasi) hisoblanadi.
- eng avvalo, bu yangi sifatda “oʻzini qidirish”, bu juda xilma-xil faoliyat turlarida oʻz kuchini sinab koʻrish (nevaralar tarbiyasida, uy ishlarida, xobbi, yangi munosabatlarda, ijtimoiy faoliyatda va h.k) – bu “sinov va xatolar” metodi orqali oʻz mavqeini (oʻrnini) belgilab olishdir; aslida nafaqaxoʻrlarning vaqti

ko‘p va u buni o‘ziga ep ko‘rishi mumkin (to‘g‘ri, bularning barchasi “hayot kundan kunga qisqarib borayotganligini” his qilish asosida sodir bo‘ladi);

- nafaqaxo‘rlar uchun nafaqadagi dastlabki vaqt – bu o‘zining asosiy kasbi bo‘yicha ishlarni davom ettirishdir (ayniqsa, xodim nafaqa va asosiy maoshini birga olganda); bu vaziyatda ishlayotgan nafaqaxo‘rda o‘zining muhim ahamiyatga egalik hissi ko‘proq ortadi;
- yoshlarni “o‘rgatish” yoki hatto “uyaltirish”ga nisbatan tobora kuchayib boruvchi intilish;
- nafaqaxo‘rlar uchun bu butun yashab o‘tgan hayotini hotirjam anglashga intilish bo‘lishi mumkin: hatto ayrimlar bu davrda “xotira kitobini” yozishni boshlashga harakat qiladi, ayrimlar uchun o‘zining tajribasini va kechinmalari bilan albatta o‘rtoqlashish kerak.

3. Qarilik davri (nafaqaga chiqqandan keyin bir qancha yillardan so‘ng va salomatlik darajasining jiddiy yomonlashishi paytigacha) inson o‘zi uchun yangi bo‘lgan ijtimoiy mavqeini egallab bo‘lgan bo‘ladi, taxminan quyidagicha xarakterlanadi:

1. Ijtimoiy holat:

- o‘z oila a’zolari bilan muloqot, ular qariyaning bo‘sh vaqtidan foydalanadilar, yo unga shunchaki “g‘amxo‘rlik ko‘rsatadilar”;
- ba’zi nafaqaxo‘rlar ijtimoy faoliyatda (yoki hatto davom ettiriladigan kasbiy faoliyatda) o‘zlari uchun yangi aloqalarni topadilar;
- nafaqaxo‘rlar uchun boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabat ahamiyati o‘zgaradi. Misol uchun, ba’zi mualliflarning ta’kidlashicha, qariya uchun ko‘pgina dastlabki yaqin aloqalar asta-sekin “o‘zining avvalgi intimligini yo‘qotadi va ko‘proq umumiyga aylanadi” [4].

2. Yetakchi faoliyat:

- bekorchilikdagi qiziqishlar (ko‘pincha nafaqaxo‘rlar bir qiziqishini boshqasiga aylantiradi, bu ularning “rigidligi” haqidagi tasavvurlarini biroz noto‘g‘ri ekanligini isbot qiladi; ular avvalgidek o‘zini izlashda, turli faoliyatlardagi mazmun-mohiyatni izlashda davom etadi). Bunday izlanishning asosiy muammosi — avvalgi (“haqiqiy”) ishlar bilan taqqoslaganda barcha faoliyatlarning “mutanosib emasligi”dir.
- “hozircha men atrofdagilar uchun nimadir foydali ish qilayotgan ekanman, men tirikman va o‘zimga nisbatan hurmatni talab qilaman” — tamoyiliga muvofiq: o‘z qadr-qimmatini bilishni har qanday yo‘llar orqali isbotlashga intilish;
- qariyalar uchun bu davrda (hatto salomatlik holati hali ham yetarli darajada yaxshiligi va “hayot bilan xayrlashishning” hech qanday sababi yo‘qligiga qaramay yetakchi faoliyat dinga berilish, tez-tez qabristonni kashf qilish, yaqinlar bilan meros haqida suhbatlashishda ifodalanadigan, o‘limga tayyorgarlik bo‘lishi mumkin.

4. Salomatlik holatini birdan yomonlashish (og‘irlashish) sharoitlarida uzoq umr ko‘rish sog‘lig‘i bilan alohida muammolari bo‘lmagan qarilikdan keskin faqlanadi. Shu bois, qarilikning aynan bunday ko‘rinishining o‘ziga xos xususiyatlarining quyidagi maqsadlari mavjud.

1. Ijtimoiy holat:

- asosan tug‘ishganlar va yaqinlar, shuningdek, shifokorlar va qo‘shnilar (agar qariya kasalxonada davolanayotgan bo‘lsa) bilan bo‘lgan muloqot;
- shuningdek, bu qariyalar uyida palatadagi qo‘shnilar (asosan qariyalarni bunday uylarga, ularga alohida parvarish kerak bo‘lganda topshiradilar), afsuski, ko‘pgina qariyalar uyida bunday parvarish uy sharoitidagiga qaraganda ancha yomon.

2. Yetakchi faoliyat:

- kasalliklar bilan qandaydir tarzda kurashishga intilish, davolanish;
- o‘z hayotini anglashga intilish. Aksariyat hollarda bu intilish o‘z hayotida bo‘lgan (va bo‘lmagan)larni eng yaxshisiga “yopishib oladi”. Bu holatda inson o‘zidan keyin juda yaxshi, ahamiyatli munosib qandaydir bir narsa (nima qoldirishni hamda bu bilan “Men behuda yashamadim” deb, o‘ziga va atrofdagilarda isbot qilishni xohlaydi. Yoki biron nimada munosib emaslikdan pushaymon bo‘ladi.

5.Nisbatan yaxshi salomatlik holatidagi uzoq umr ko‘rish (taxminan 75-80 yoshdan keyin va undan yuqori) quyidagicha xarakterlanishi mumkin:

1. Ijtimoiy holat:

- ularning oilasida haqiqiy uzoq umr ko‘ruvchi yashayotganligidan hatto faxrlanishni boshlayotgan tug‘ishganlar va yaqin insonlar bilan bo‘lgan muloqot. Ma’lum bir darajada bu g‘urur egoistik: tug‘ishganlar ularning avlodi toza nasl-nasabga egaligini va ular ham shunday uzoq umr ko‘rishlarini ta’kidlaydilar. Bu ma’noda uzoq umr ko‘ruvchi — boshqa oila a’zolari uchun kelajakdagi uzoq hayot ramzidir;
- sog‘lom uzoq umr ko‘ruvchida yangi do‘stlar va tanishlar paydo bo‘lishi mumkin;

- modomiki uzoq umr ko‘ruvchi – kam uchraydigan hodisa bo‘lganligi bois, bunday qariyalar bilan har xil qadamlar, shu o‘rinda ommaviy axborot vositalari vakillari ham muloqotda bo‘lishga intiladilar. Shuning uchun uzoq umr ko‘ruvchilarda tanishlar doirasi hatto bir qancha kengayishi mumkin.

2. Yetakchi faoliyat:

- bu ko‘p jihatdan ushbu insonning moyilligiga bog‘liq, ammo har qanday vaziyatda bu yetarli darajada faol bo‘lgan hayotdir (ba’zan, hatto sog‘lom yetuk inson uchun xarakterli bo‘lgandan ortiqroq). Ehtimol, salomatlikni saqlash uchun nafaqat shifokorlarning ko‘rsatmalari, balki o‘z salomatligi hissining o‘zi ham (yoki “hayot hissi”) muhimdir.

Keksa insonning ijtimoiy va psixologik mavqeini asoslovchi qator omillar orasida jismoniy salomatlik, jismoniy faollik muhim o‘rin egallaydi. Ularning ahamiyati yosh katta bo‘lgan sari ortadi. Jismoniy holat, o‘zini his qilish (umumiy ahvol) ko‘p masalada keksa insonning jamiyat va oiladagi o‘rnini belgilab beradi. Jismoniy faollik kuchsizlikning yaqqol ifodalangan shakllarida, tayanch harakat apparatining yoshga bog‘liq o‘zgarishlarida, so‘qirlikda qariyaning holati somatik bemor holatiga yaqinlashadi.

Jismoniy so‘rg‘inlikning dardchil xarakteri psixik qarash shaklini hamda psixik hayotni aniqlaydi. Bunda shaxsiy qarash kechinmalari mazmunini tashkil qiluvchi atrofdagilar bilan yangi munosabatlarning barchasi ikkinchi darajaga chekinadi. Jismoniy imkoniyatlarni (chegaralanish) lohaslikni his qilish qarishning boshlanishi haqida belgi sifatida ko‘rib chiqiladi.

“Qariyalar o‘z tanasini undan foyda yo‘q sifatida his qilishni boshlaydilar” – deb yozadi Lopes Ibor [3].

Sodir bo‘layotgan fiziologik o‘zgarishlar inson tomonidan his qilinadi va anglanadi. Qarishning dastlabki bosqichlari uchun jismoniy holatdagi yoshga bog‘liq o‘zgarishlarga haddan tashqari ko‘p e’tibor berish ayniqsa, xosdir.

So‘lg‘inlikning ilk belgilari (tishlarning tushishi, ortiqcha vaznning paydo bo‘lishi) yoqimsiz holatlarning sababini aniqlashga va ulardan dori-darmon vositalari yordamida xalos bo‘lishga intilishni yuzaga keltiradi. Inson ongida qarilik (biologik jarayon sifatida), asosan, jismoniy holsizlik, bemorlik holati sifatida o‘z aksini topadi. Mazmun-mohiyatiga ko‘ra qarish ko‘proq yoki kamroq darajada ifodalanadigan doimo boshdan kechiriladigan jismoniy lohaslik holatini o‘zida aks ettiradi. U avvalgi yosh davrlariga ko‘ra, insonga asosan tanish bo‘lgan belgilar ko‘rinishida paydo bo‘ladi: lanjlik, haddan tashqari charchoq va boshqalar.

Qiyinchiliklarni faol yengib o‘tish strategiyalarida yillar mobaynida aniqlanib boriladigan yoshga bog‘liq o‘zgarishlarga nisbatan anglangan munosabat ma’lum bo‘ladi. Bu yangi pozitsiya ko‘proq insonning o‘ziga bog‘liq. Misol uchun, bu — jismoniy imkoniyatlarining yo‘qolganligini, og‘riqli kechinmalarni hazil bilan qabul qilishi.

L. Senekaning axloqiy maktablarida uning zamondoshi bo‘lgan, Epikur izdoshi A. Bass haqida shunday yozadi: *U qarilik bilan kurashishda qattiq charchab kuchdan qoladi, bu uni juda kuchli g‘am-g‘ussaga botiradi, u oyoqqa turishi uchun… lekin bizning Bassning ruhi tetik… Mana nima beradi falsafa: o‘limni yaqinlashayotganligiga qaramay xushchaqchaqlik mana, kuch holatiga, madorsizlikka qaramay dadillik va quvonch. Yaxshi kema haydovchisi yirtilgan yelkanlar bilan ham, hatto arqon uzilganda ham u qolganlarini moslab suzaveradi va suzaveradi* [5].

Qarilik yoshidagi ehtiyojlarning sanog‘i, ro‘yxati oldingi yosh davrdagilariga ko‘p jihatdan o‘xshamasligi aniqlangan. K. Roshakning ma’lumotlariga ko‘ra ehtiyojlarning ierarxiyasi, tuzilishi o‘zgaradi: Ehtiyojlar sohasini markaziga azob-uqubat chekishdan qochishga ehtiyoj, avtonomiya va mustaqillikka ehtiyoj, o‘zining psixik ko‘rinishlarida proeksiyalashga nisbatan ehtiyojlarning ko‘tarilishi kuzatiladi. Shu o‘rinda ijodkorlikka, muhabbatga, o‘zining muhim ahamiyatga egaligiga va umumiylik hissiga nisbatan bo‘lgan ehtiyojlarni birmuncha uzoq rejalarga ko‘chirilishi kuzatiladi. Kechki hayot davrida vaqtinchalik (vaqt bilan belgilanadigan) hayot istiqbollarini umumiy o‘zgarishi sodir bo‘ladi. O‘tmish qay darajada cho‘zilishiga qarab, kelajak tobora chegaralangan va haqiqatdan uzoqroq tasavvur qilinadi. Bugungi hayot va kelajakka nisbatan o‘tmish haqidagi xotiralar endi katta ahamiyat kasb etadi. Keksa insonlarni o‘tmish xotiralariga murojaat qilish hodisasi (fenomeni) ularning o‘ziga xos emotsional rang-barangliligi — keksalarning psixik hayotini muhim tomonlaridir. Ko‘pgina keksa (qari) odamlar “bir kuni” bilan yashay boshlaydilar, bunday har bir kunni sog‘ligi haqida qayg‘urish, uy yumushlari, tashvishlari bilan o‘tkazadilar.

Misol uchun, bizning ma’lumotlarimizga ko‘ra, so‘rovnomada ishtirok etgan keksa insonlarning deyarli uchdan biri kelajakdagi rejalar haqidagi savolga shunday javob berganlar: “Rejalashtirmayman” yoki “Kelajak yo‘q”. Boshqa uchdan ikki qismi kelajak haqida uni yaqin bir necha oylardagi aniq faoliyat mashg‘ulotlari bilan bog‘lab (tomorqa yaratish, qurilish qilish, kimgadir — farzandlar, nevaralarga yordam berish) yoki “yana bir necha yillar umr ko‘rish”, “nevarasining to‘yigacha yashash”, “evara ko‘rish”, umidida ga-

pirganlar. “Kelajak o‘qini qisqartirish” va kundalik ishlar ahamiyatini ta’kidlash (shu o‘rinda o‘zi va atrofidagilar uchun bandlik, keraklilik, foydalilik hissini saqlab qolish) psixik vaqtni boshdan kechirishni o‘zgartiradi.

Yillar va o‘n yilliklar subyektiv jihatdan barchasi tobora tez o‘tayotganda vaqt harakatini tezlashish hodisasi kuzatiladi. Boshqa tomondan bironta kichik hodisa (shifokorga yoki magazinga) butun kunni o‘zining emotsionalliligi bilan to‘ldirar ekan, “vaqtni cho‘zilishi” kuzatiladi. Jismoniy salomatlikning yaxshiligi, umumiy yoshga bog‘liq o‘zgarishlarning mo‘tadil xarakteri, uzoq umr ko‘rish, faoliyatning, hayot tarzining saqlanib qolganligi, yuqori ijtimoiy holat (mavqe) turmush o‘rtoq va farzandlarning mavjudligi, moddiy daromad qarilikning maqbul hayot davri sifatida anglashning garovi va kafolati hisoblanmaydi. Bu belgilar alohida va umumiy holda mavjud bo‘lganda keksa inson o‘zini zarar keltiruvchi deb hisoblashi, o‘zining qariligini butunlay qabul qilmasligi, shundan N. F. Shaxmatov o‘zining qarish jarayoni tahlilida, qarishning biologik va psixologik tomonlarini chambarchas bog‘liqliligini ko‘rsatishga harakat qilgan [6]. N.F. Shaxmatovning ta’kidlashicha, psixik qarishning maqbul shakllari jismoniy va psixik funksiyalarning (ularning faoliyatini sifat jihatdan saqlanib qolishida) uyg‘un holda pasayish bilan xarakterlanadi va bu o‘z-o‘zini voqea hodisalarning tabiiy ravishda ro‘y berayotganligini, xususan, o‘lim haqligini qabul qilish bilan birgalikda kuzatiladi. N.F. Shaxmatov tomonidan keltirilgan o‘zining qarish jarayonini muvaffaqiyatli, yaxshi, maqbul va hatto baxtli deb hisoblagan, keksa odamlarning hayotiy pozitsiyalari va motivatsion, ehtiyoj sohalari tavsifi diqqatga sazovordir [6,7]:

-keksa insonlarning bugungi kunga qaratilgan aniq orientatsiyasi. Bu odamlar o‘tmishida biror bir tasvirlarni (proeksiyalarni) eslay olmaydilar, shuningdek kelajakdagi faoliyatli hayotga barqaror rejalar ham kuzatilmaydi. Bugungi kundagi qarilik biror bir bo‘htonlarsiz va yaxshi tomonga o‘zgartirishga qaratilgan rejalarsiz qabul qilinadi.

-keksa yoshda dastlab yuzaga kelgan o‘tmishdagi faol maqsadli ustanovkalar, qoidalar va e’tiqodlarni qaytadan ko‘rib chiqishga moyillik. Bunday fikr-mulohaza yuritish yangi, o‘ychan, xotirjam o‘ziga to‘q hayot pozitsiyalarini ishlab chiqishga olib keldi. Ijtimoiy hayot, bugungi kundagi salomatlik holati, jismoniy betoblik, mavjudlik ular qanday bo‘lsa, shundayligicha, sabr bilan qabul qilinadi.

-keksa insonlarga avval xos bo‘lmagan yangi qiziqishlarning paydo bo‘lishi. Ular orasida, ayniqsa, tabiatga murojaat, she’r yozishga moyillik, atrofdagilarga, birinchi navbatda bemor va ojizlarga beg‘araz yordam berish istagi ajralib turadi, ba’zan ilk bora hayvonlarga muhabbat paydo bo‘ladi.

-keksa yoshdagi inson (pozitsiyasidan) nuqtayi-nazardan o‘zining o‘tmishdagi hayotiy tajribasi va faoliyatini qayta anglashga nisbatan bo‘lgan intilishini aks ettiruvchi barqaror mulohazali faoliyat.

-bilim, sharafli lavozim va unvonlar jamlangan o‘tmish yutuqlari avvalgi ahamiyatini yo‘qotadi.

-oilaviy va qarindosh-urug‘ munosabatlarining mustahkamligi va samimiyligi muhim ahamiyat kasb etadi. Hayot davomida orttirilgan moddiy boyliklar ham o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Biroq bu keksalarning bugungi kun ustanovkalarini butun qatori ularning hayotidagi haqiqiy davrni ko‘rsatadi. Qarilikdagi hayotga ijobiy munosabat namunalarini buyuk (atoqli) va mashhur shaxslarning (Sitseron, I.P. Pavlov, K.I. Chukovskiy o‘z kundaligida shunday yozgan: *“Men qariya bo‘lish shunchalik yoqimli ekanligini, kundan-kunga mening fikrlarim ezgu va porloq bo‘lishini aslo bilmagan edim”.*

Tadqiqotchilarning keksa yoshdagi “Men” konsepsiyasining (ta’limotining) o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi fikrlari bir-biridan farqlanadi. Bir tarafdan, aksariyat odamlardan hayotdan qoniqish va o‘z-o‘zini baholashning pasayishida ifodalangan, o‘z-o‘zini anglashning salbiy tavsiflari haqida ma’lumotlar mavjud. Boshqa ishlarda qarama-qarshi ma’lumotlar kuzatiladi. O.N. Molganova tadqiqotlarida yosh ortishi bilan “Men “ning qadriyatlari va uning alohida aspektlarini umumiy pasayishi bilan birga, muallif tomonidan “psixologik vitaukt” deb nomlangan boshqa tendensiya ham yuzaga keladi. Psixologik vitaukt – bu kechki yoshdagi “Men” konsepsiyasining barqarorlashishi va kompensatsiya omillaridir. Ular orasida qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘z-o‘ziga yuqori real (haqiqiy) baho, o‘zining xarakteridagi ijobiy xususiyatlarni qayd qilish, ideal va erishilgan o‘z-o‘ziga bahoning pasayishi, shuningdek, ularning real o‘z-o‘ziga baho bilan yaqinlashishi, o‘z-o‘ziga munosabatni nisbatan yuqori darajasi, o‘z pozitsiyasini qoniqarli sifatida qabul qilish (hatto agar u juda past bo‘lsa-da) farzandlar va nevaralar hayotiga orientatsiya, o‘z-o‘ziga bahoning retrospektiv (o‘tmishga qaratilgan) xarakteri. Psixologik qarish ichki qarama-qarshi xarakterga ega bo‘lib, bu insonning “Men” konsepsiyasini turli yo‘nalgan tendensiyalari va sifat jihatdan o‘ziga xosligida o‘z aksini topadi hamda yaqqol ifodalangan tafovutlarga (variatsiyalarga) sabab bo‘ladi.

Bir qator longityud tadqiqotlari natijasiga ko‘ra o‘rtadan kechki kattalikka o‘tishda muhim shaxs aspektlari o‘zgarmay saqlanib qoladi. Doimiylik, masalan, neyrotizm darajasi (xavotirlanish, ruhiy tushkunlik, impulsivlik (beixtiyorlik), ekstroversiya va introversiya nisbati, tajribaga ochiqlik darajasi kabi shaxs

tavsiflariga taalluqlidir. Bir qator mualliflar fikriga ko‘ra, qarilikda yangi hayot pozitsiyasi kam ishlab chiqiladi. To‘g‘rirog‘i, bu yangi sharoitlar ta’siri ostida mavjud bo‘lgan hayotiy pozitsiyalarni qat’iylashtirish va modifikatsiya qilishdir.

Keksa yoshdagi inson shaxsi baribir o‘z-o‘ziga qoladi, ya’ni o‘zligini yosh davrining istalgan davrida namoyon etadi, keksalik davrida uning kuchayishi sezilarli darajada ahamiyati ortadi. Amerikalik psixologlarning empirik tadqiqotlarida nafaqadagi yoki qisman band bo‘lgan erkaklar o‘rganilganda shaxs xususiyatlarining 5 ta asosiy tipi ajratilgan edi:

1. Konstruktiv tip – ichki muvozanatlilik, ijobiy emotsional yo‘nalganlik, o‘ziga nisbatan tanqidiylik va boshqalarga beg‘arazlik xarakterlidir. Hayotga nisbatan optimistik ustanovka kasbiy faoliyat yakunlangandan so‘ng ham saqlanib qoladi. Keksa va qari odamlarning bu guruhini o‘z-o‘ziga bahosi juda yuqori, ular kelajakka rejalar tuzadilar, atrofdagilarning yordamiga umid qiladilar.

2. Tobe tip – ham ijtimoiy maqbul va yaxshi masalalardan turmush o‘rtoq yoki farzandiga bo‘ysunuvchanlikda, yuqori hayotiy va kasbiy talablarining kuzatilmaganida namoyon bo‘ladi. Emotsional muvozanat oilaviy muhit ichidaligi va atrofdagilar yordamiga umid qilish tufayli saqlanib qoladi.

3. Himoyalovchi tip – mubolag‘ali emotsional vazminlik xatti-harakat va odatlarda bir muncha dangallik, “o‘z-o‘zini mamnunlashga intilish”, boshqa kishilar yordamini xohlamasdan qabul qilish xarakterlidir. Boshlanayotgan qaramlikka nisbatan (mudofaa) himoya munosabatida bo‘lgan odamlar. Shiori – hatto “kuchdan ortiq” faollikdir. Nevrotik tip sifatida baholanadi.

4. Agressiv ayblovchi tip – bunday xususiyatlar to‘plashishga ega bo‘lgan odamlar. O‘z omadsizligidagi aybdorlik va javobgarlikni boshqa odamlar zimmasiga “yuklashga” intiladilar, portlovchi va shubhalanuvchandirlar. Ular o‘zining qarishligini tan olmaydi, nafaqaga chiqish haqidagi o‘y-xayollarini haydaydi, yo‘qolib borayotgan kuchi va o‘lishi haqida ma’yus o‘ylanib qoladi, yoshlarga barcha “yangi notanish olamga” (nafrat) adovat bilan munosabatda bo‘ladi. Ularning o‘zi va olam haqidagi tasavvurlari noadekvat sifatida baholanadi.

5. O‘z-o‘zini ayblovchi tip – (passivlik) sustlik, qiyinchiliklarni qabul qilishda mos emaslik, depressiyaga moyillik, tashabbussizlik kuzatiladi. O‘lim baxtsiz mavjudlikdan xalos bo‘lish sifatida qabul qilinganda yolg‘izlik, ajralish hissi, hayotini pessimistik baholash qayd etiladi.

Qarilikdagi hayotdan qoniqqanlikning emotsional kechinmalari keksa odamlarning boshqa odamlar uchun o‘z hayotining mazmunini baholashi va ularni bugungi kun, o‘tmish va kelajak bilan bog‘lovchi hayotiy maqsadlar va vaqtincha istiqbollarining mavjudligi bilan bog‘liq. Umumiy kechinma sifatida hayotdan qoniqmaganlik tashqi va ichki hayot sharoitlarini baholash bilan bog‘liq va bu o‘zining yomonlashayotgan sog‘lig‘iga, tashqi qiyofasiga, moddiy vositalar kamligiga, muhim bo‘lgan jismoniy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash mavjud emasligiga, deyarli yakkalanib qolganligiga haddan ziyod tashvishlanish natijasida yuzaga keladi. Hayotiy donishmandlik bilan birga qarilikdagi asosiy (markaziy) psixologik yangi tuzilma ruhiyatining yanada chuqurroq qatlamlarida yashash qobiliyati hisoblanadi, lekin bu faqat imkoniyat, uning amalga oshishi insonga bog‘liq. Shunday bo‘lishiga qaramasdan keksalardagi shaxslilik xususiyatlarining sifatlari, hayot mazmuni sifatiga va ularning hayotga nisbatan qarashlarida o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Альперович В.Д. Старость. Социально-философский анализ. – Ростов н/Д: Изд-во СКНЦ. ВШ. 1998. – 104 с.

2. Лидерс А.Г. Психологическое обследование семьи. – М.: Академия, 2007. — 432 с.

3. Лопез-Ибор Х.Х., Христодулу Г., Мэй М., Сарториус Н., Окаша А. Чрезвычайные ситуации и психическое здоровье. – Киев: Сфера, 2006. – 240 с.

4. Психология старости и старения: Хрестоматия. / Сост.: О.В. Краснова, А.Г. Лидер – М.: Академия, 2003.

5. Сенека. Нравственные письма к Луцилию. – Азбука, 2016. – 576 с.

6. Шахматов Н.Ф. Психическое старение: счастливое и болезненное.- М.: Медицина, 1966. – 304 с.

7. Шахматов Н.Ф. Проблема старения с биологической и психологической точек зрения. Психологическая наука и образование 2003, № 3 (25—33)



Зарина АҲМЕДОВА
Бухоро давлат университети
Психология мутахассислиги магистранти

АҲОЛИНИНГ ТУРЛИ ҚАТЛАМЛАРИДА ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТ КЎРСАТИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Мақолада аҳолининг турли қатламларида психологик хизмат кўрсатиш услуби ҳақида маълумотлар келтирилган. Маҳаллада хизмат кўрсатиш йўналишлари ва аҳолига психологик хизмат кўрсатишнинг методологик асослари ёритиб берилган.

Таянч тушунчалар: *психологик хизмат, шахс картаси, психологик хусусиятлар, суицид, шахс, индивидуал, ўсмирлар, шахслараро муносабатлар, методологик, хулқ-атвор, субъект, психотренинг, психопрофилактика.*

В статье приведены способы оказания психологической службы разным слоям населения. Освящены методологические основы оказания психологической службы и направления психологической службы в махалле.

Опорные понятия: *психологическая служба, карта личности, психологические свойства, суицид, личность, индивидуал, подростки, межличностные отношения, методологический, поведение, субъект, психотренинг, психопрофилактика.*

In article is shown the ways of rendering psychological service to different layers of the population. It is lighten up the methodological foundations of the psychological service and the direction of the psychological service in the mahalla.

Supporting concepts: *psychological service, identity card, psychological properties, suicide, personality, individual, adolescents, interpersonal relationships, methodological, behavior, subject, psycho training, psycho-prophylactics.*

Бугунги кунда психологик хизмат кўрсатиш амалиёти барча давлатларда турлича кўринишларда амалга оширилмоқда. Айнан, маҳалла ҳаёти билан боғлиқ психологик тадбирларнинг олиб борилиши ушбу тизимда ўзига хос ижтимоий омилларнинг яққол намоён этилишини таъминлашга хизмат қилади. Зеро, маҳалла тизими ва бу тизимга ҳукумат томонидан юксак эътиборнинг қаратилиши фақатгина бизнинг мамлакатимизга ва бизнинг минг йиллик қадриятларимизга хос ва мосдир. Айни пайтда маҳаллалар қадим-қадимдан эзгулик бешиги, тарбия ўчоғи бўлган, миллий урф-одат анъаналар шаклланган маскан ҳисобланган. У одамлар ўртасида ўзаро меҳр-оқибат, бағрикенглик ва ҳамжиҳатлик қарор топишида муҳим аҳамият касб этиб келган. Қолаверса, бугунги кунда биздаги маҳаллалар мамлакатимизда давлат бошқарувининг бирламчи бўғини, асосий устуни сифатида эътироф этилмоқда.

Маҳаллада психологик хизмат амалиётини ташкил этиш учун қуйидаги йўналишларга алоҳида эътибор қаратиш зарур:

1. Маҳаллада истиқомат қилувчи ҳар бир шахснинг ўзига хос психологик хусусиятларини ўрганиш асосида шахс харитасини тузиш.
2. Маҳаллада шахслараро муносабатлар тизимига баҳо бериш (маҳалла фаоллари ва маҳаллада яшовчилар ўртасида).
3. Маҳаллада муаммоли оилалар ва муаммоли шахсларни ўрганиш асосида ушбу муаммонинг психологик ечимларини излаш ва бартараф этиш.
4. Маҳалла, мактаб, оила ва профилактика инспектори ҳамкорлигини самарали тарзда ташкил этишнинг психологик таъсир мезонларини ишлаб чиқиш ва уни амалиётда қўллаш.
5. Маҳаллада уч авлод учрашувини ташкил этиш асосида ёшларга психологик таъсир этиш доирасини кенгайтириш.
6. Маҳалладаги қадриятларни ўрганиш ва шу қадриятларнинг таъсирчанлигига таяниб, шахслардаги у ёки бу муаммоларни бартараф этиш.

7. Маҳалладаги жиноятларнинг содир этилиши ва суицид ҳолатларга олиб келувчи омилларни муайян ижтимоий психологик тамойиллар асосида таҳлил қилиш. Ушбу ҳолатга мойиллиги бор ҳар бир шахс билан индивидуал шуғулланиш.

8. Маҳаллада ногиронлиги мавжуд шахсларга алоҳида психологик ёндашув йўлларини кўрсатиш.

9. Маҳалладаги маънавий-иқтисодий ва мафкуравий жиҳатдан муаммоси бор шахслар билан тизимли ишларнинг ташкил қилинишига кўмаклашиш.

Маҳаллани ҳар томонлама тизимли равишда ўрганиб, унда истиқомат қилувчи ҳар бир оила ва ҳар бир шахснинг ўзига хос индивидуал психологик харитасини тузиш ва шу асосда маҳаллага психологик хизмат кўрсатишнинг илмий-амалий жиҳатдан истиқболли режаларини ишлаб чиқиш ва уни амалиётда қўллаш.

Инсон психологиясини тушуниш, таҳлил қилиш, ривожлантиришга жиддий эътибор бериш масаласи ҳамма замонларда ва ҳамма давлатларда ҳам ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг етакчи вазифаларидан бири бўлиб келган.

XX аср бўсағасида психология фани ва унинг илғор вакиллари ўзларининг навбатдаги жаҳоншумул илмий мақсадлари – инсонга, айни пайтда, жамиятга психологик хизмат кўрсатиш тизимининг муқаррарлигини назарий-илмий жиҳатдан асослаб беришга муваффақ бўлди. Ўзбекистондаги психологик хизматнинг бугунги ҳолатига илмий-ташкилий нуқтаи назаридан баҳо берар эканмиз, бу борада талайгина ютуқлар, камчиликлар ва тез орада бартараф этилиши муқаррар деб биламиз. Маҳалла асрлар оша шаклланган шарқона ўзини-ўзи бошқариш тизимидир. Шу боис, истиқлол йилларида унинг фаолияти самарадорлигини ҳар томонлама ошириш ва ривожлантиришга, моддий-техник базасини мустаҳкамлаб, жамиятдаги нуфузини янада кўтаришга, ташкилий-ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлашга жиддий аҳамият берилаётир. Дарҳақиқат, маҳалла институтини такомиллаштириш борасидаги чора-тадбирлар туб мазмун-моҳиятига кўра, Ватанимиз тараққиётига, аҳоли турмуш фаровонлигини янада яхшилашга, фуқаролар йиғинлари ишини юқори даражада ташкил этишга хизмат қилади. Маҳаллада, оилага психологик хизмат кўрсатиш жараёнида эса турли ёшлардаги ва турли тоифалардаги оилаларга оилавий ҳаёт билан, оиладаги шахслараро муносабатлар билан, турли хил зиддиятлар билан боғлиқ барча вазиятларни таҳлил қилишда ва маълум ижобий томонга йўналтиришда кўмаклашилади.

Маҳаллада оилавий ҳаёт, меҳнат, катталар ва кичиклар ўртасидаги ўзаро муносабатлар, ахлоқий-маънавий қиёфалари, ота-оналарнинг сиёсий ва маънавий савиялари, уларнинг иқтисодий таъминланганлиги, турли кўринишдаги фаолиятлари, вақтни тўғри режалаштириш, яшаш шароитлари ва бошқалар оилавий тарбия самарадорлигини таъминловчи омил сифатида намоён бўлмоқда. Маҳаллада психологик хизматни ташкил этиш учун қуйидаги тавсияларга амал қилиш талаб қилинади:

1. Оммавий ахборот воситалари: телевидение, радио, матбуот, интернет орқали маҳаллада психологик хизмат кўрсатишга оид чиқишларини ташкил қилиш.

2. Республикамиздаги барча маҳаллаларга, оилаларга, ота-оналарга ҳамда болаларга психологик хизмат кўрсатиш ишларини юқори даражада йўлга қўйиш. Ҳар бир маҳалладаги носоғлом муҳитнинг психолоигик илдизларини аниқлаш ва уни коррекциялашнинг муайян имкониятларини очиб бериш.

3. Ота-оналар ўртасида боланинг мулоқот сифатларидаги психологик хусусиятларга оид билимларни кенг тарғиб қилиш.

4. Хулқи оғишган болалар тўдасига қўшилишга мойиллиги бор бўлган ўсмирларнинг сонининг камайиши учун ота-оналар ва ўқитувчилар билан ҳамкорликда психопрофилактик ишлар ва психотренинглар ташкиллаштириш.

5. Психологик хизматга муҳтож ўғил ва қизларнинг ўз оиласидаги ҳаётга интилишини кучайтиришга қаратиш ҳамда ўсмирларнинг ота-оналарини ўз фарзандларининг эртанги кунига бефарқ бўлмасликка, ўз ота-оналик масъулиятини ҳис қилишга чақириш.

6. Ота-оналар ва педагоглар учун ўқувчиларда ижобий шахс сифатлар ва шахслараро муносабатларни шакллантиришни тўғри йўлга қўйиш учун махсус методик тавсияномалар ишлаб чиқиш.

7. Ота-оналарни ва ўқитувчиларнинг, болаларни яхши тушуниши учун улар билан яқиндан дўстона муносабатда бўлиб, ўзаро муаммоларини бартараф қилиш мақсадида суҳбатлашиш ва бирбирини ўзаро тушунишга ҳаракат қилиш йўлларини билиш учун психологик маслаҳатлар олишга ундаш.

8. Маҳаллада вояга етмаганлар билан ишлашда маҳалла профилактика инспекторига алоҳида психологик кўрсатмалар бериш.

9. Суицидга мойилликни намоён этиши мумкин бўлган болалар, ўсмирлар ва катталар билан алоҳида индивидуал ишлар олиб бориш.

10. Жиноятчиликнинг олдини олиш профилактикасини ташкил этишда муайян мақсадларга қаратилган психопрофилактик ва психокоррекцион ишлар кўламини белгилаш ва уни амалга ошириш.

Дарҳақиқат, бугунги кунда республикамизда маҳалла институти тараққиёти учун жуда кўплаб ишлар қилинмоқда. Айни пайтда маҳаллада яшовчи фуқароларнинг ўзаро муносабати, мулоқоти, улардаги маънавий-психологик жиҳатларнинг тадқиқ қилиниши орқали ҳар бир маҳаллада психологик хизмат кўрсатиш бўлимлари очилмоқда. Айниқса, маҳалладаги уюшмаган ёшлар билан ишлаш, нотинч оилалар ва ногиронлар билан ишлашдаги психологик муаммолар аста-секин ечилиб бормоқда. Шундай қилиб, психологик хизматнинг назарий асосларини яратишда шахс ва унинг онги билан боғлиқ барча методологик тушунчалар инобатга олиниши шарт.

Психологик хизмат жараёни эса худди шу тадқиқий йўналишларга таянган ҳолда шахснинг фаолият жараёнида таркиб топаётган муносабатларини ўрганишни таҳлил қилишни ва шу асосда тегишли тадбирларни белгилай олишни ўз олдига вазифа қилиб қўяди. Бу ўринда профессор Э. Ғозиевнинг назарий-методологик қимматга эга бўлган қуйидаги фикрларини қайд этиш ўринлидир: "Ҳозирги кунда шахсга субъектив муносабат муаммосини ижтимоий жиҳатдан турмушда қарор топтириш учун: одам-инсон-шахс-индивидуаллик-субъект-комиллик иерархиясига риоя қилиш; шахсга субъектив муносабат, яъни унда робот сифатида барча хусусиятларини бир текис шакллантириш мумкин, деган хато назариядан воз кечиш, "субъект-субъект" алоқасини вужудга келтириш; ҳар қандай субъект-шахс, лекин ҳар қайси шахс субъект эмаслиги муаммосини ечиш; шахс субъект бўлиши учун мустақиллик, шахсий позиция, дунёқараш ва уларни ҳаётга татбиқ қилиш имконияти мавжудлигини тан олиш" каби муаммоларнинг бартараф этилиши шахснинг ижтимоий муносабатлар мажмуасини камол топтиришга хизмат қилиши тайин [1]. Зеро, инсон муносабатлари унинг хулқ-атворида ички дунёсининг шаклланишида, барча психологик жараёнларида муҳим бошқарувчилик ролини ўйнайди. Бундай бошқарувчиликнинг юксак ижтимоий савияда таркиб топтирилиши эса инсоннинг ҳаётдаги айрим муваффақиятсизликларига нисбатан психологик ҳимояланиш воситаси сифатида хизмат қилиши мумкин. Демак, психологик хизмат жараёни билан боғлиқ шахс муваффақиятли фаолиятининг 2-йўналишига индивидуал-типологик хусусиятларга асосланган ҳаракатларнинг намоён бўлиши киради. Чунки ҳар бир инсон у ёки бу ижтимоий топшириқни бажарар экан, аввало, ушбу топшириқни қанчалик тез, осон ва сифатли қилиб бажариш имкониятига эга бўлсагина шу топшириқ шахс камолотига хизмат қила олиши мумкин. Мазкур йўналишдаги психологик муҳофазанинг моҳияти шундаки, ҳар бир шахснинг фаолиятга нисбатан керагидан бир неча баробар ортиқ куч сарфлашга ва осонгина турли муваффақиятсизликларга учрамасликка қарши ўлароқ шахс истиқболини кўзлашга қаратилган тадқиқотлар ва тадбирлар кўлами олдиндан белгиланади. Психологик хизмат жараёни билан боғлиқ шахс муваффақиятли фаолиятининг учинчи йўналиши эса фаолиятга нисбатан фаол ижобий муносабатнинг таркиб топиши ва намоён бўлишидир. Бунда шахснинг фаолиятдан қониқиши, хулқ-атворидаги мотивацион тизимнинг ижтимоий қимматга эга бўлган бошқарувчиликка тааллуқли сифатларини яққол намоён бўлиши кузатилади. Зеро, ҳар жиҳатдан ижтимоий фаолликка хизмат қилувчи сифатлар намоён этилмаган жойда шахс ва жамият уйғунлигининг таъминланиши учун муҳим аҳамият касб этувчи барча имкониятлар қўлдан бой берилади. Ваҳоланки, бундай “имкониятлар”ни ҳамиша “муҳофаза” қилиш нафақат ижтимоий ташкилотларнинг, балки ҳар бир фуқаронинг муқаддас бурчидир.

Шундай қилиб, психологик хизматнинг методологик асослари сифатида талқин қилинган мазкур фикр-мулоҳазалар ижтимоий психология фанининг амалий-татбиқий йўналишларига бугунги куннинг энг долзарб муаммолари сифатида қарашни тақозо этади.

Адабиётлар

1. Баротов Ш.Р. Психологик хизматнинг назарий ва амалий муаммолари. – Бухоро, 2008.

2. Нишонова З.Т., Алимбаева Ш.Т., Сулаймонов М. Психологик хизмат. – Т.: “Фан ва технология”, 2014.

3. Нишонова З.Т. Психологик хизмат (ўқув қўлланма). – Т., 2006. – Б. 156



Ориф АВЛАЕВ
Тошкент давлат аграр университети ўзбек тили, педагогика
ва психология кафедраси доценти

МУАММОЛИ ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИНИ ТАЛАБА ИНТЕЛЛЕКТИГА ТАЪСИРИ

Мақолада таълим ва тарбия жараёнида "Муаммоли таълим методлари"дан фойдаланиш касбий хусусиятларнинг шаклланишига, умумий интеллект ривожланишига ижобий таъсир кўрсатувчи омил эканлиги исботланган. Тажриба жараёнида муаммоли таълим, кейс-стади методларидан фойдаланиш жараёни, талаба муносабатларидаги ўзгаришларни баҳолашга эришилган. Шунингдек, аграр йўналиши касб таълимида муаммоли таълим, кейс-стади методларидан фойдаланиш "Ақлий ҳужум" методидан самарали эканлиги исботланган. Бунинг учун талабаларнинг ушбу методлар қайси жиҳатдан фаолият самарадорлигига таъсири ёки шахсий-касбий ўсишига кўрсатадиган таъсирини баҳолашга эришилган.

Таянч тушунчалар: *муаммоли таълим, кейс-стади, умумий интеллект, ижтимоий интеллект, аграр йўналиши, касб таълими, педагогик технология.*

В данной статье описывается процесс образования и профессиональной подготовки "Методы проблемного образования", чтобы использовать профессиональные функции, развитие общего интеллектуального формирования оказалось положительным фактором. Опыт работы в процессе проблемного обучения, методы тематических исследований для оценки изменений в отношениях между студентами достигнут. Было доказано, что использование методов «проблемной ситуации» и «кейс-стади» в сельскохозяйственном образовании эффективен,а также, доказано, что метод «Мозговой атаки» неэффективен. Что касается влияния на эффективность этих методов, в которых студенты оценивают влияние увеличения личных или профессиональных достижений.

Опорные понятия: *проблематичное образование, кейс-стади, общий интеллект, социальный интеллект, аграрное направление, профессиональное образование, педагогические технологии.*

In this article is described the process of education and training "Methods of problem education" in order to use professional functions, the development of a common intellectual formation turned out to be a positive factor. Experience in the process of problem training, methods of case studies to assess achieved changes in relations between students. It was proved that the use of "problem situation" and "case study" methods in agricultural education is effective, and also it is proved that the "Brainstorming" method is ineffective. As for the impact on the effectiveness of these methods, in which students assess the influence of increasing personal or professional achievements.

Supporting concepts: *problematic education, case study, general intelligence, social intelligence, agrarian direction, vocational education, pedagogical technologies.*

Дунё мамлакатларининг деярли барчасида олий таълим муассасалари сифат кўрсаткичларини бошқаришда, асосан, унинг якуний маҳсулоти ҳисобланадиган кадрлар савияси, уларни жамият барқарор тараққиётини таъминлаш талабларига жавоб бериши билан баҳоланади. Ушбу масала доимо долзарб бўлиб келган ва бугунги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотмаган. Зеро, тайёрланаётган кадрлар, уларнинг жамият тараққиётига қўшаётган ҳиссалари у ёки бу давлат ривожланиш даражасини, бошқа давлатлар ўртасидаги мавқеини ва аҳоли турмуш даражасини яхшиланиш тезлигини белгилайди. Илм-фан, техника, ишлаб чиқариш ва технология соҳаларининг мавжуд тараққиёти замонавий жамият қиёфасини белгилаб бермоқда. Замонавий жамиятнинг энг муҳим характерли жиҳати унинг барча соҳаларида глобаллашувнинг кўзга ташланаётганлигидир. Глобаллашув ўз-ўзидан тезкор ҳаракатланиш, зарур ахборотларни зудлик билан қўлга киритиш, уларни қайта ишлаш ва амалиётга самарали татбиқ қилишни тақозо этади. Бунда таълим-тарбия жараёнига илғор педагогик технологиялар назарияси ва амалиётининг кириб келиши замон талабидир. Педагогик технологиялар муаммоси педагогик нуқтаи назардан илмий асосда чуқур ўрганилган. Педагогик технологиялар талаба шахсига яхлит ҳолда таъсир қилади, унда муайян ўзгаришларни вужудга келтиради.

Анъанавий таълим тизимида таълим берувчининг ўқув ахборотлари таълим олувчининг ҳаётий тажрибалари билан боғланмайди. Натижада "маълумот, маълумот учун" ҳолати юзага чиқади, қолаверса таълим олувчи ўзининг ҳаётий тажрибаларини ўқув материали билан боғлай олмаса, табиийки, унинг ижодий тафаккури ривожланмайди [1]. Таълим жараёнида таълим олувчи тафаккурининг ривожланишига сабаб бўладиган асосий омил – бу муаммоли вазият ҳисобланади. Муаммоли вазиятни яратган ҳолда таълим бериш, табиийки, педагогик технологияларнинг бир тури бўлиб, таълимда талабани фикрлашга, мустақил ғояларни илгари суришга олиб келади. Шунинг учун М.И. Махмутов, И.Я. Лернер, Н.Г. Дайри сингари педагог олимларнинг тадқиқотларида илгари сурилган асосий ғоя шунга бориб тақаладики, таълимда муаммолиликни жорий қилиш талабалар ақлий фаолиятининг қонуниятларидан бири ҳисобланади.

С.Л. Рубинштейн ўз тадқиқотларида инсон ақлий фаолияти муаммоларни ечишга боғлиқ ҳолда ривожланишини асослаб берди ва тафаккурни прагматик тушуниш асосида шаклланадиган муаммоли таълим концепциясини илгари суради [6]. Шу ўринда А.А. Вербицкий педагогик психология фани учун муҳим ҳисобланган ғояни илгари суради. Унинг фикрича, анъанавий таълим усули орқали амалга ошириладиган ўқитишда талаба предметли индивидуал ҳаракатни амалга оширади, холос. Аслида бундай бўлиши керак эмас. Талаба тўлақонли таълим олиши ҳамда унда ижодий тафаккур ривожланиши учун ўқув машғулоти ва фаолиятни амалга ошириши зарурдир.

Дж.Дьюи таълимнинг барча турлари ва шаклларини талабаларда муаммоларни ечиш йўли билан мустақил таълим олишга алмаштириш тарафдори бўлиб чиқди. Шу билан бирга, бу таълимнинг муаммоларни ҳал қилиш усулида ўқув фаолиятининг амалий шаклига асосий эътиборни қаратишни таклиф қилди. Дж. Дьюининг фикрича, тўғри ташкил қилинган таълим муаммоли бўлмоғи зарур. Унинг мазкур назариясига биноан, таълим ва тарбия жараёнида ўқитувчининг роли таълим олувчиларнинг мустақиллигини бошқаришдан ва уларни мустақил тафаккур қилувчи инсонларга айлантиришдан иборат. Олим ўзининг таълим бериш усулларига ўйинларни, импровизацияларни, экскурсияларни, хўжалик юритишни киритганлиги ҳам бежиз эмас, албатта. У талабаларнинг индивидуаллигини ривожлантиришни таълимнинг муҳим вазифаларидан бири деб ҳисоблайди [3]. Таъкидлаш жоизки, Дж.Дьюининг таклиф қилган таълим-тарбия йўналиши Америка мактабларининг ишларига алоҳида таъсир кўрсатди. Муаммоли таълимнинг ҳозирги замон таълимоти пайдо бўлишида Америкалик психолог Дж. Брунернинг хизмати катта. Илгари сурган ғоясининг асосида қуйидагилар ётади: унинг фикрича, ўқув материалининг тузилмасини яратиш зарур. Шунингдек, у янги материалларни эгаллаш жараёнида интуитив тафаккурнинг устунлик қилишини кашф қилди. Дж.Брунер асосий эътиборини билимларнинг тузилмасига қаратади ва у бу тузилмада билимлар тизимининг барча зарур унсурлари мужассамлашган бўлиши керак деб ҳисоблайди. Мазкур билимлар тузилмаси талаба шахси тараққиётининг йўналишини белгилаб беради [3].

Юқоридаги фикрлардан хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, педагогик технологиялар ёрдамида амалга ошириладиган таълим жараёнида таълим олувчилар билиш фаолиятининг хусусияти ва тузилиши тубдан ўзгаради. Бу ўзгаришлар ўз ўрнида талабалар шахси ижодий, ақлий потенциалининг ривожланишига олиб келади.

А.М. Матюшкиннинг юқорида илгари сурган фикрларига таянган ҳолда педагогик технологияларнинг топшириқларига психологик таъриф беришга ҳаракат қиламиз. Педагогик технологияларда таълим олувчиларга бериладиган топшириқлар уларда шундай бир психологик ҳолатни чақирадики, бу ҳолат тайёр воситаларсиз масалаларни бажариш жараёнида пайдо бўлади. Шунингдек, бу масалаларнинг ечими уни ечишдаги предмет, усуллар ва шарт-шароитлар ҳақидаги янги билимларни ўзлаштиришни талаб қилади [5].

Педагогик технологиялар маълум мазмунни талабалар онгига етказиш усули сифатида уларнинг ақлий тараққиётига таъсир кўрсатади. Кўплаб психолог олимлар таъкидлаганларидек (Б.Г. Ананьев, В.В. Давидов, Л.С. Виготский, А.А. Вербицкий, А.М. Матюшкин), ақлий тараққиёт бевосита мазмун таъсири асосида амалга оширилади. Шакл ва мазмун уйғунлиги, яъни самарали таъсир кўрсатадиган педагогик технологиялар замирига мазмуннинг жойлаштирилиши талабалар ақлий тараққиётининг асосини белгилайди. Шу нуқтаи назардан биз "Муаммоли таълим методлари"ни талаба ақлий тараққиётига таъсирининг ўрганишни мақсад қилиб танладик. Бунинг учун тажриба жараёнида Тошкент давлат аграр университети ҳузуридаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ марказида ташкил этиладиган курслар ва муаммоли таълимга оид семинар-тренинг тадбири ҳамда касб таълими йўналиши талабаларини ўқитиш жараёни орқали экспериментал ишларини ташкил этиш энг қулай вариант сифатида қабул этдик. Тажриба жараёнида педа-

гогик технологияларни таълим жараёнида қўллашда фойдаланилган муаммоли таълим, кейс-стади сингари методлардан фойдаланиш жараёнидаги талаба муносабатларидаги ўзгаришларни баҳолашга эришдик. Яъни педагог ва талабаларнинг ушбу методлар қайси жиҳатдан фаолият самарадорлигига таъсири ёки шахсий-касбий ўсишга кўрсатадиган таъсирини баҳолашга эришдик. Талабалар билимни ўзлаштиришида умумий интеллект коэффициенти юқори белгиловчи омил ҳисобланади. Биз ушбу методларни қўллашда фойдаланилган педагогик технологияларни шкалали баҳолашга урғу бердик. Ушбу методга кўра талабалар қўлланилган муаммоли таълим, кейс-стади сингари методларини унинг фаолияти учун таъсирини 5 балли шкала: энг аҳамиятли бўлса 5 балл, энг аҳамиятсиз бўлса 1 балл билан баҳолашлари сўралди. Шунингдек, ушбу кўрсаткичларни кейинчалик талабаларнинг умумий интеллект ва ижтимоий интеллектлари билан ўзаро алоқадорлик коэффициентларини текширишимизга ҳам олиб келди. Бу эса талабаларнинг касбий шаклланиши жараёнида ўзлаштирадиган билимлар даражасини белгилашимиз учун ҳам муҳим аҳамият касб этди. Биз таълим технологияларининг талабалар фаолиятига таъсири юзасидан олиб орган тажрибамиз натижаларига эътибор қаратайлик (1-жадвал.)

1-жадвал

Таълим жараёнида қўлланилган таълим технологияларнинг талаба фаолиятига таъсири баҳолаш кўрсаткичлари

Касбий таълим йўналишлари	“Муаммоли вазият”	Ақлий ҳужум	Кейс-стади
Агрокимё ва тупроқшунослик	4,19	3,60	4,85
Агрономия	4,58	4,10	4,70
Мева-сабзовотчилик ва узумчилик.	4,45	3,65	4,40
Ўсимликлар ҳимояси ва карантин	4,71	4,12	4,20
Ўртача арифметик миқдор	**4,48**	**3,86**	**4,53**

Бир нарсани эътироф этишимиз керак талабаларнинг муаммоли таълим технологияларини татбиқ этишга қадар ўзлаштириш кўрсаткичлари билан тажрибадан кейинги кўрсаткичлари ўзаро тақкосланган ҳолат ўзаро қиёсий ўрганилди. Замонавий педагогик технологиялар сифатида қўлланилган методларнинг аҳамиятлилик кўрсаткичи талабаларнинг муносабати орқали баҳоланганда ҳар бир таълим йўналиши ўзига хос қийматларда акс этди. Шу ўринда айтиб ўтиш керакки, таълимда қўлланилган технологик методлар талабанинг билим даражаси, унинг таълим муҳитидаги фаоллиги ва ақлий салоҳият даражасига таъсирини фақат ички мантиқий боғлиқликлар орқали ўрганиш мумкин бўлади. Бундан кўринадики, таълим жараёнида қўлланилган таълим технологияларининг талаба фаолиятига таъсирида қўлланилиши аҳамияти жиҳатидан барча факультетлар бўйича ўртачадан юқори қийматни акс эттирилганлиги келтирилган жадвал натижаларида акс этиб турибди. Биз натижаларни ҳар бир факультет доирасида ва таълим методлари бўйича таққослаш имконига эга бўлдик. Қўлланилган методларнинг аҳамиятига кўра барча методлар таълим жараёнида талабаларга ижобий таъсир кўрсата олган (деярли методларнинг аҳамяити ўртачадан юқори), аммо муаммоли вазиятлар ҳосил қилиш, кейс-стади методлари бўйича бир мунча юқорироқ натижаларни акс эттирган (4,48 ва 4,53). Аммо “Ақлий ҳужум” методи бошқа методларга нисбатан бир оз қуйи кўрсаткични намоён этганлиги билан характерланди. Бу эса ушбу методнинг қўлланиш технологияси, бошқа методларга қараганда бир оз осон бўлса-да (3,86) пастроқ қийматларда акс этмоқда. Бундан кўринадики, қўлланилаётган таълим методининг осон ёки мураккаблиги эмас, балки методдан самарали ва ўз ўрнида фойдаланиш таълимда ўзининг ижобий натижасини бериши мумкинлигини тасдиқламоқда [3]. Ўз навбатида ушбу натижаларнинг касб таълим йўналишлари бўйича кузатилганда эса муаммоли таълим методларини қўллаш натижалар ўзининг ижобий аҳамиятини йўқотмаган: агрокимё ва тупроқшунослик – 4.19, агрономия – 4.58, мева-сабзовотчилик ва узумчилик – 4,45 , ўсимликлар ҳимояси ва карантин – 4.71 кўрсаткичларни намоён этди.

Кейс-стади методини қўллаш натижалари эса агрокимё ва тупроқшунослик – 4.85, агрономия – 4.70, мева-сабзовотчилик ва узумчилик – 4,40, ўсимликлар ҳимояси ва карантин – 4.20 кўрсаткич-

ларни намоён этди. Бундан кўринадики, муаммоли таълим методларини қўллаш таълим жараёни учун фойдадан холи эмас экан. Бу эса талабаларнинг таълим жараёнида билимларни ўзлаштиришидаги касбий шаклланишига ижобий таъсир кўрсата олмоқда. Ҳатто бу ҳолат тармоқ марказининг малака ошириш курслари натижаси бўйича тингловчиларнинг ўзлаштиришида ҳам ўз аксни топган. Шуни алоҳида қайд этиб ўтиш жоизки, "Муаммоли вазият" "Кейс-стади" методларини ташкил этиш индивидуал ва ижодий хусусиятга эга. Шу билан бирга, таълим ва тарбия жараёнини йўлга қўйишда янги педагогик технологиялардан фойдаланиш касбий хусусиятларнинг шаклланишига, умумий ва ижтимоий интеллект турлари ривожланишига ижобий таъсир кўрсатувчи омил сифатида намоён бўлар экан (2-жадвал).

2-жадвал

Интерфаол таълим методларининг талабалар интеллекти билан ўзаро корреляцион муносабати

Интеллект турлари	"Муаммоли вазият"	Ақлий ҳужум	Кейс-стади
Умумий интеллект	0,357*	-0,211	0,382*
Ижтимоий интеллект	-0.240	0.221	0.339*

*p<0.05

Талабаларнинг интеллекти билан "Муаммоли вазият" ва Кейс-стади методларининг таъсири ўртасидаги ўзаро корреляцион муносабатларда илмий аҳамиятга эга кўрсаткичлар қўлга киритилди. Бунда умумий интеллектдан ва ижтимоий интеллект кўрсаткичларида анча яққолроқ ва ижобий боғланишлар ҳосил қилганлигидадир. Талабаларнинг умумий интеллекти билан "Муаммоли вазият" (r=0.357, p<0.05); Кейс-стади методлари (r=0.382, p<0.05); методлари билан ижобий алоқаларни ҳосил қилди. Бир нарсани эътироф этишимиз керакки, умумий интеллект билан муаммоли таълимни ташкил этиш усули ўртасидаги ўзаро алоқадорлик агрономия ва ўсимликлар ҳимояси ва карантин йўналиш талабаларида ижобий ва юқори корреляцион алоқани намоён этди. Чунки бу методни ушбу соҳа талабаларида фойдаланиш самарали бўлиши улардаги аниқлик ва қўйиладиган муаммоларнинг аниқлиги ва ўз ечимини яққол кўрсаткичларда акс эттиришида бўлиши билан боғлаш мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, "Муаммоли вазият" ва **"**Кейс-стади" методларининг таълим жараёнида таълим олувчиларга таъсир этиш ҳолати бўйича қуйидаги қоидалар ётади:

1) тафаккур жараёнининг талабалар ақлий тараққиёти асосида биринчи навбатда ноаниқлик, муаммо, муаммоли вазиятлар ётади.

2) агар биз муаммоларни ҳал қиладиган, ноаниқликларни аниқлаштирадиган тафаккурни муаммоли тафаккур деб ҳисобласак, бу тафаккур усулининг асосида биринчи навбатда муаммони ҳал этиш жараёни ётади.

3) ақлий тараққиётнинг асосида доимо муаммони ҳал этиш йўли билан мустақил фикр юритиш орқали масалага танқидий ёндаша билиш ёрдамида янги билимларни ўзлаштириш ётади.

4) ақлий тараққиёт қонуниятлари билан янги билимларни ўзлаштириш қонуниятлари аксарият ҳолларда бир-бирига мос келади. Шунингдек, "Муаммоли вазият" ва **"**Кейс-стади" методларини қўллаш жараёнида қўлланиладиган ва таълим олувчиларга бериладиган топшириқларнинг психологик моҳиятига эътибор қаратиш лозим. Бу эса таълим самарадолигига олиб келади.

Адабиётлар

1. Авлаев О.У. Муаммоли таълимнинг психологик асоси. – Т., 2014. – 132 б.

2. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход – М., 1991. – 360 с.

3. Дьюи Дж. Психология и педагогика мышления/ Пер. с англ. – М., 1999. – 187 с.

4. Кукушина. В.С. Педагогические технологии. Учеб. Пособие. – М. – Ростов-на-Дону: Март, 2006. – 336 с.

5. Махмутов М.И. Проблемное обучение. – М.: Прогресс, 1975. – 240 с.

6. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – М., 1996. – 440 с.



Вилоят БОЗОРОВА
Бухоро давлат университети факультетлараро чет
тиллар кафедраси ўқитувчиси

ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ОЛИЙ ТАЪЛИМДА САМАРАЛИ ҚЎЛЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Мақолада олий таълим тизимида фаолият кўрсатаётган ўқитувчи замонавий педагогик технологиялар, таълим-тарбия жараёнини фаоллаштириш усуллари ва ўқитиладиган фанлар бўйича сифатли билим, кўникма ва малакаларни ҳосил қилишни таъминловчи педагогик усулларни қўллай билиши хусусида фикр баён этилган.

Таянч тушунчалар: *таълим-тарбия, таълим сифати, педагогик технология, фаоллаштириш усуллари, билим, кўникма, малака, таълим тизими.*

В статье излагается о необходимости применения современных педагогических технологий и педагогических методов, обеспечивающие активизацию процесса образования, качественное обучение по дисциплинам, образовывающие навыки преподавателей высших учебных заведений.

Опорные понятия: *образование, воспитание, качество образования, педагогическая технология, способы активизации, знание, навык, система образования.*

In article are stated about need of use of modern pedagogical technologies and pedagogical methods providing activization to education process, high-quality training in disciplines, teaching skills of higher educational institutions.

Supporting concepts: *education, upbringing, quality of education, pedagogical technology, ways of activization, knowledge, skill, education system.*

Мамлакатимиз Президенти Ш. Мирзиёев томонидан 2017 йил 20 апрель куни имзоланган “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори [2] айни пайтдаги муҳим қарор бўлди десак муболаға бўлмайди. Қарор олий таълим тизимини тубдан такомиллаштириш, мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш борасидаги устувор вазифаларга мос ҳолда, кадрлар тайёрлашнинг маъно-мазмунини тубдан қайта кўриб чиқиш, халқаро стандартлар даражасида олий малакали мутахассислар тайёрлаш учун зарур шароитлар яратиш мақсадида қабул қилинган.

Таълим мазмунини чуқурлаштириш, таълимнинг амалий тамойилларини такомиллаштириш, таълим жараёнини интенсивлаштириш, таълим технологияларини мукаммаллаштириш, таълим ва тарбиянинг бирлигини кучайтириш, хусусан, ушбу таълим турининг мазмунига нафақат билим, кўникма ва малака, балки умуминсоний маданиятни ташкил қилувчи – ижодий фаолият тажрибаси, атроф-муҳитга нисбатан ижобий муносабатларни ҳам киритиш ғояси кун тартибига долзарб масала сифатида қўйилди. Бундай улкан вазифаларнинг мақсадга мувофиқ тарзда бажарилиши кўпгина омилларга боғлиқ. Уларни ижтимоий ҳаётнинг қуйидаги компонентлари рўёбга чиқариши мумкин:

- фаолият турлари (моддий, амалий, ижтимоий, маънавий);
- ижтимоий онг шакллари (ахлоқ, санъат, сиёсат, фалсафа, фан ва бошқалар);
- ижтимоий муносабатлар тизими (моддий ва мафкуравий);
-моддий, ижтимоий ва табиий борлиқ (кейинги авлодларга мерос қилиб қолдирилган бойликлар).

Таълим мазмуни, унинг компонентлари, таркиби, вазифалари ҳақида сўз кетганда далиллар билан қонуниятлар, яққоллик билан мавҳумлик, билимлар билан ҳақиқатни мустақил билиш методлари ўртасидаги мақбул келадиган муносабатларни аниқлаш зарур.

“Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да таъкидланганидек, “Замонавий иқтисодиёт, фан, техника ва технологияларни ривожлантириш асосида кадрлар тайёрлашнинг такомиллашган тизимини яратиш — мамлакатни тараққий эттиришнинг энг муҳим шарти ҳисобланади. Тизимнинг амал қилиши кадрларнинг истиқболга мўлжалланган вазифаларини ҳисобга олиш ва ҳал этиш қобилиятига, юксак умумий ва касбий маданиятга, ижодий ва ижтимоий фаолликка, ижтимоий-сиёсий ҳаётда мустақил

равишда йўналиш ола билиш маҳоратига эга бўлган янги авлодни шакллантиришни таъминлайди” [1]. Кадрлар тайёрлаш тизими янги моделининг моҳияти ва ўзига хос хусусияти унга асосий таркибий қисмлар сифатида қуйидаги компонентлар киритилганлигидадир:

- шахс – кадрлар тайёрлаш тизимининг бош субъекти, таълимга оид хизматларнинг истеъмолчиси ва уларнинг яратувчиси;
- узлуксиз таълим – кадрлар тайёрлашнинг пойдевори асоси;
- фан – юқори малакали мутахассисларни тайёрловчи ва уларнинг истеъмолчиси;
- ишлаб чиқариш – кадрларга бўлган эҳтиёжнинг истиқболини белгилашни, уларнинг тайёргарлик даражаси сифатини баҳолашни, шунингдек, кадрлар тайёрлаш тизимини қисман молиявий ва моддий-техникавий таъминлашни амалга оширувчи асосий буюртмачи;
- давлат ва жамият – кадрларнинг тайёргарлиги сифатини назорат қилиш ва баҳолашни амалга оширувчи, кадрларни тайёрлаш ва уларни қабул қилиб олишнинг бош кафиллари.

“Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” умумий маданиятни шакллантириш, жамиятдаги ҳаётга мослаштириш, касб-кор ва таълимга оид дастурларни онгли равишда танлаш ҳамда кейинчалик рўёбга чиқариш учун ижтимоий-иқтисодий, ҳуқуқий, ташкилий, психологик-педагогик ва бошқа шарт-шароитларни яратишни, оила ва жамият, давлат олдидаги ўз масъулиятини англовчи баркамол инсонни тарбиялашни назарда тутади.

Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига жадал суръатлар билан кириб бориш жараёни республикамиз аҳолиси учун таълим даражасини оширувчи омиллардан бири бўлиб ҳисобланади. Бу, биринчи навбатда, бозор муносабатларининг ривожланишига боғлиқ бўлиб, у жараён билим даражасига, иқтисодиёт ва экология, компьютер техникаси ва ахборот технологиялари устувор бўлган ва халқ хўжалигининг ривожланган тармоқларига, таълим тизимининг такомиллашуви ва кадрлар тайёрлашга боғлиқ бўлади.

Кадрлар тайёрлаш муаммосининг самарали ечими бугунги кун талабларига жавоб бера оладиган психология, педагогика, иқтисодиёт, экология, маданият, ҳуқуқшунослик ва шунга ўхшаш бошқа фанларнинг билим асосларини чуқур биладиган профессионал малакага, ҳар томонлама чуқур билимга эга бўлган ўқитувчи кадрлар тайёрланиши билан боғлиқдир.

Ривожланган мамлакатлар тажрибаси шуни кўрсатиб турибдики, юқори малакали, рақобатбардош кадрлар тайёрлашда қуйидагилар ҳал қилувчи аҳамият касб этар экан:

1. Таълим, фан ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро самарали алоқадорлиги.
2. Таълим корхоналари ва профессионал таълим дастурлари турларининг хилма-хиллиги, уларнинг фан ва техниканинг энг сўнгги ютуқлари, иқтисодиёт ва технологияларнинг энг юқори андазалари ва кўринишларидан фойдаланиш.
3. Профессионал таълим тизимини устувор ва фойда келтирувчи иқтисодий тармоққа айлантириш.
4. Таълим муассасаларини замонавий ўқув-методик адабиётлар билан таъминлаш ва уларнинг моддий-техник базасини яратиш ҳамда уларнинг молиявий кўрсаткичларини мустаҳкамлаш.
5. Профессионал таълим тизимига энг юқори малакали ўқитувчиларни ва мутахассисларни жалб эттириш.
6. Ўқув жараёнини ахборотлаштириш ва компьютерлаштириш.
7. Кадрлар тайёрлашнинг сифат баҳосини ва объектив назорат тизимини қўллаш.
8. Шахснинг ривожланиши, ўлчови, сифат ва хулқини, қобилият интеллектини баҳолаш ва касбий маҳорати муаммоларига бағишланган психологик-педагогик изланишларни бажариш.
9. Ўқитувчиларни юқори даражада моддий рағбатлантириш ва уларни ижтимоий ҳимоя қилиш.

Бу ҳолатларнинг барчаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да ўз аксини топган. Бугунги куннинг мутахассиси ҳар томонлама ривожланган юқори даражадаги интеллектга эга бўлган, фан асосларини чуқур ўрганган билимдон, зукко, доно, фидоий, маърифатли ва маънавиятли инсон бўлиши керак. У ўз мутахассислигидан ташқари, хорижий тиллардан бирини эгаллаган бўлиши ҳамда компьютер техникасидан фойдалана олиши шарт.

Бугунги кунда ижтимоий-иқтисодий ислоҳотлар жараёни, жамиятнинг тез ўзгариб бораётган турмуш шароити, таълим тизимига таъсирчанлик ва тезкорлик хоссаларининг берилишини, яъни ижтимоий ва иқтисодий тараққиёт талабларига жавоб бериш, шахс қобилияти ва истеъдодини ҳисобга олиш имконият ва шарт-шароитларини яратишни тақозо этади.

Ўқув-тарбия жараёнида қатнашувчи барча субъектларнинг ўзаро самарали таъсирини таъминловчи механизмлар ва шарт-шароитларни юзага келтириш зарур. Умуман олганда, ушбу тизимнинг

барча таркибий қисмлари – оила, узлуксиз таълим, маҳалла, жамоат бирлашмалари, жамғармалар мавжуд. Бироқ, биринчидан, уларнинг ўз ичидаги самарадорлик фаолиятини кўтариш, иккинчидан, самарали таъсирчанлик, яъни узвийлиги, бир-бирига чамбарчас боғлиқлигидан келиб чиқиб уларнинг фаолиятини такомиллаштириш лозим.

Таълим муассасаларининг фаолиятини ижтимоий институтлар сифатида тубдан қайта кўриб чиқиш зарур. Бунда мактаб, лицей, коллеж, институтларни нафақат илм-фан маскани, балки ҳақиқий маданий-маърифий марказларга айлантириш керак. Улар маҳалла, оила, жамоат бирлашмалари билан яқиндан алоқада бўлишлари шарт. Ушбу масканларда ижод қилиш руҳи, ижтимоий фаоллик, шахсий иштирок, ўзаро ҳамкорлик муҳитининг яратилиши, бир тарафдан, мустақил фикр юритувчи шахсни тарбиялашга, иккинчи тарафдан, янги ижтимоий муҳит, тафаккурнинг шаклланишига олиб келади.

Олий таълим муассасаларидаги ўқув-тарбия жараёнида модулли таълим технологияси, ҳамкорликда ўқитиш технологияси, дидактик ўйин технологиялари, муаммоли таълим технологияларидан фойдаланиш йўллари ишлаб чиқилди. Талабаларда дарслик, илмий-оммабоп ва қўшимча адабиётлар билан мустақил ишлаш кўникмалари, ижодий ва мустақил фикрлашни ривожлантириш мақсадида модулли таълим технологияларидан фойдаланилади. Модулли таълим технологияларининг ўзига хос жиҳати ўрганилаётган мавзу бўйича талабаларнинг мустақил ва ижодий ишлашига имкон берадиган модулли дастур тузилади. Талабалар модул дастури ёрдамида мустақил ва ижодий ишлаб, машғулотлардан кўзланган мақсадга эришадилар. Модул дастурлари ўрганилаётган мавзу юзасидан талабалар бажариши лозим бўлган топшириқлар, топшириқларни бажариш бўйича кўрсатмаларни ўзида мужассамлаштиради. Ишлаб чиқилган дастурлар мазмун ва моҳиятига кўра, талабаларнинг индивидуал, иккита талаба биргаликда ва кичик гуруҳларда ҳамкорликда ишлашига мўлжалланган модул дастурларига ажратилади. Модул дастурларнинг дидактик мақсадидан келиб чиқиб, ўқув-тарбия жараёнидан ўз ўрнида фойдаланиш юқори самара беради.

Ўқув-тарбия жараёнида ҳамкорликда ўқитиш технологияси методларидан фойдаланиш ҳар бир талабани кундалик қизғин ақлий меҳнатга, ижодий ва мустақил фикр юритишга ўргатиш, шахс сифатида онгли мустақилликни тарбиялаш, талабада шахсий қадр-қиммат туйғусини вужудга келтириш, ўз кучи ва қобилиятига бўлган ишончини мустаҳкамлаш, таълим олишда масъулият ҳиссини шакллантиришни кўзда тутади. Ҳамкорликда ўқитиш технологияси ҳар бир талабанинг таълим олишдаги муваффақияти гуруҳ муваффақиятига олиб келишини англаган ҳолда мунтазам ва сидқидилдан ақлий меҳнат қилишга, берилган топшириқларни сифатли бажаришга, ўқув материалини пухта ўзлаштиришга замин тайёрлайди.

Олий ўқув юртларида олиб бориладиган машғулотларда ҳамкорликда ўқитиш технологиясининг гуруҳларда ўқитиш, “Зигзаг” ёки “Арра”, “Кичик гуруҳларда ижодий изланиш”ни ташкил этиш метод-ларидан фойдаланиш учун педагог ҳар бир методнинг дидактик мақсадини англаган ҳолда ўқув топшириқларини тузади ва улардан ўз ўрнида фойдаланиш йўлларини белгилайди.

Ҳозирги кунда жуда кўп методист ва педагог олимлар томонидан “Замонавий педагогик технологиялар” талаба-ўқувчиларга таълим-тарбия беришда кўзланган мақсадга эришишни тўла кафолатлайди, деб қаралмоқда. Тўғри, замонавий технологиялар ёрдамида ишлаб чиқаришда бошқарувчидан катта куч талаб қилинмайди. Махсус технологиянинг ўзи қўйилган мақсадга тўла эришишни кафолатлайди. Аммо бу назарияни педагогик технологияда тўлалигича қабул қилиб бўлмайди, чунки бунда объект шахс бўлиб, унинг онги таклиф қилинаётган технологияни тўлалигича қабул қила олмайди, аксинча уни инкор қилиши мумкин. Шунинг учун ҳам замонавий педагогик технологияларни таълим жараёнига киритишда унинг бошқарувчиси бўлган педагог кўзланган мақсадга эришишнинг бош кафолатчиси бўлади. Олий таълимда замонавий педагогик технологияларни ўқув жараёнига жорий этиш кўламини кенгайтириш, бу йўналишда илғор педагогик тажрибаларни татбиқ этиш, ҳар бир фан бўйича бу соҳада аниқ режаларни тузиш ва амалга ошириш; дарслик, ўқув қўлланма, дастур, маъруза матнларини тайёрлаш, илмий-методик ишларда, ўқув-тарбия жараёнига замонавий ахборот технологияларини кенг жорий этишни ривожлантириш, уларни ахборот воситалари билан таъминлаш ҳамда коммуникацион тармоқларга боғлаш энг муҳим вазифа ҳисобланади.

Умуман олганда, олий таълим тизимида фаолият кўрсатаётган ҳар бир педагог қуйидаги замонавий педагогик технологияларни, яъни:

- замонавий педагогик технологияларнинг илмий-назарий асослари;
- педагогик технологиялар концепциясининг ривожланиш тарихи;
- таълим жараёнига технологик ёндашиш ҳақида тасаввурга эга бўлиш;

- педагогик технологияларнинг дидактик қонуниятларини;
- ўқитиладиган фанга тегишли илғор ўқитиш технологияларини;
- дидактик жараённи маълум вақт чегарасида лойиҳаланиши;
- ўқитишнинг фаол методларини билиш ва қўллай олиш;
- уй вазифаларини мақсадли, ташхисли ва аниқ ўқув элемент тури тарзида бериш, технология лойиҳаларининг мантиқий тузилмаси, коррекцияси;
- ўқув мақсадлари тавсияномасини ишлаб чиқиш;
- тест топшириқларини талаба фаолият даражаларига мос ҳолда тузиш бўйича кўникмаларга эга бўлиш шарти;
- интернет компьютер тармоғидан фойдаланиш;
- ўқув жараёнига электрон почтадан фойдаланиш бўйича кўникмаларга эга бўлиш;
- рейтинг назорати ва талабаларнинг билимларини объектив баҳолашни билиши керак.

Бугунги кунда республикамизда олий таълим тизими янги ривожланиш поғонасига кўтарилди: икки босқичли таълим – бакалавриат ва магистратура фаолият кўрсата бошлади; давлат таълим стандартлари ишлаб чиқилди; талабаларнинг мустақил таълим олишини якка тартибда амалга ошириш жорий этиляпти, таълим мазмунида фан ва ишлаб чиқариш интеграцияси ўз аксини тобора кўпроқ топмоқда; профессор-ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини оширишга эътибор кучайтирилганлиги алоҳида таҳсинга лойиқ.

Таълим-тарбиявий жараённи ривожланган давлатлар тажрибалари асосида такомиллаштириш, унинг иштирокчилари – ўқитувчи ва талаба-магистр фаолиятини “субъект-субъект” имкониятлари асосида ташкил этиш зарурати бугун барча олий ўқув юртларида педагогика ва психология фанлари, чет тиллари ҳамда ахборот технологияларини ўқитишга алоҳида эътибор қаратиш, педагогик фаолиятнинг сиру синоатларини тадқиқ қилиш асосида амалий хулосаларни қўлга киритишдир.

Республикада шахс манфаати ва таълим устуворлиги эътироф этилган бир даврда олий таълимда эркин шахсни шакллантириш қонуниятлари, ёшлар шахсини ҳаётга мослаштиришнинг шакл ва методлари, мазмуни ва принципларини ўрганишни кучайтириш муҳимлиги сезилмоқдаки, эндиликда буларни таълим амалиётига қўллаш масалаларига доир муаммоларни қайтадан янгича талқинда қўймоқда. Демак, педагогикада тадқиқотларнинг долзарблиги, бир томондан, жамият эҳтиёжи – ўқув-тарбия тизимини янада ривожлантириш билан бошқа томондан эса, педагогик билимларнинг янгиланиш ва ривожланиш даражаси билан белгиланар экан.

2017–2021 йилларда олий таълим тизимини тубдан такомиллаштириш дастурини ишлаб чиқиш, ўқув дастурларини янада такомиллаштириш, пуллик хизматлар кўрсатиш ва молиялаштиришнинг қўшимча манбаларини излашда олий ўқув юртларининг ваколатларини кенгайтириш йўли билан уларнинг мустақиллиги босқичма-босқич ривожлантирилиб борилади [2].

Айни вақтда таълим-тарбия муассасаларининг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш, муаллимлар, профессор-ўқитувчилар малакасини ошириш, хориждаги етакчи таълим марказлари билан илмий-педагогик ҳамкорликни кучайтириш, ўқув-тарбия жараёнларига замонавий таълим ва ахборот технологияларини, янги ўқув методикаларини жорий этиш бўйича долзарб вазифалар ва уларнинг ечими устида доимий иш олиб борилмоқда.

Адабиётлар

1. “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”.// http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=48401
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ – 2909 сонли қарори. 20.04.2017. https://nrm.uz/
3. Омонов Ҳ.Т. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат фанидан маърузалар матни. – Тошкент, 2010.



Отабек ҚАҲҲОРОВ
Бухоро давлат университети иқтисодиёт кафедраси ўқитувчиси,
иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ БОШҚАРИШ БЎЙИЧА ИЛҒОР ТАЖРИБАЛАР ВА УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ

Мақолада хорижий давлатларда таълим тизимини бошқариш бўйича илғор тажрибалар ва улардан фойдаланиш йўллари, таълим муассасалари бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолашдаги кўрсаткичлар, олий таълим муассасалари бошқарув тузилмаси ҳамда ўрта махсус таълим муассасалари бошқарув фаолиятини баҳолаш буйича хорижий давлатлар тажрибаси ўрганилган.

Таянч тушунчалар: *малакали мутахассис кадрлар, интеллектуал салоҳият, дуал таълим, таълим тизими тамойиллари, давлат бошқаруви, ҳудудий ўзини ўзи бошқариш, ривожланиш тенденциялари, етук рақобатбардош иқтисодчи кадрлар.*

В статье рассматривается опыт зарубежных стран по передовому опыту управления системами образования в зарубежных странах и способами их использования, оценке эффективности управления в учебных заведениях, структуре управления высшими учебными заведениями и управления средними специализированными учебными заведениями.

Опорные понятия: *квалифицированный персонал, интеллектуальный потенциал, двойное образование, принципы системы образования, государственное управление, территориальное управление, тенденции в развитии, зрелые конкурентоспособные экономисты.*

In article is examined the experience of foreign countries in the best practices of managing education systems in foreign countries and ways of using them, assessing the effectiveness of management in educational institutions, the management structure of higher education institutions and the management of secondary specialized educational institutions.

Supporting concepts: *qualified personnel, intellectual potential, dual education, the principles of the education system, public administration, territorial management, development trends, mature competitive economists.*

Мамлакатимизда “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури” ишлаб чиқилди ҳамда унга мувофиқ узлуксиз таълим тизими яратилди. Унга кўра, тубдан янгиланган олий таълим тизими ташкил этилди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “Жаҳоннинг етакчи институтлари, университетлари, илмий марказлари ва Фанлар академиялари билан илмий ҳамкорликни янада ривожлантиришни замоннинг ўзи талаб қилмоқда. Хорижнинг етакчи ўқув ва илмий муассасаларида таълим ва илмий даража олган юртдошларимиз учун мамлакатимизда қулай шарт-шароитлар яратиб бериш, уларни рағбатлантириш чораларини кўриш керак. Мамлакатимизда юқори салоҳиятга эга, жаҳон миқёсида эътироф этилган олимлар кўп. Улар ўз мактабларини яратиши, шогирдлар тарбиялаши лозим. Ёш авлодни салоҳиятли кадрлар этиб тарбиялашдаги биринчи босқич мактаб таълимини тубдан такомиллаштириш, илмий кадрлар ва юксак малакали мутахассислар тайёрлаш жараёнининг узлуксизлигини таъминлаш зарур” [1].

Бугунги кун талабларидан келиб чиққан ҳолда иқтисодиётни ривожлантиришда аҳолининг билимлилик даражасини юксалтириш, етук рақобатбардош иқтисодчи кадрларни тайёрлаш ҳамда уларнинг интеллектуал салоҳиятини ошириш долзарб масалалардан биридир. Бунда ривожланган хорижий давлатларнинг илғор тажрибалари ва амалиётини ўрганиш, хорижий давлатларда юз бераётган ривожланиш тенденцияларини таҳлил қилиш, шунингдек, мамлакатимиз амалиётига жорий этиш масалаларини ўрганишга оид тадқиқотларни амалга ошириш муҳим ҳисобланади.

Иқтисодчи кадрларга бўлган талабни аниқлаш жараёнида таълим тизимининг ўзига хос хусусиятлари мавжуд. Мамлакатимизда иқтисодчи кадрларнинг улуши ривожланган давлатларга нисбатан таққослаганда, умумий мутахассислар тайёрлаш таркибида кам кўрсаткични намоён этади.

Мамлакатимиз ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизимида кичик мутахассислар, олий таълим тизимида эса малакали, илмий салоҳиятга эга бўлган олий маълумотли мутахассис кадрлар тайёрланади. Бу жамиятимиз ижтимоий-иқтисодий ривожининг ажралмас қисмини ташкил қилади ва иқтисодиётда юз бераётган ўзгаришларга тезда мослашиш, янги иқтисодий муносабатлар билан тартибга солиниши лозим бўлади. Дунёнинг турли мамлакатларида коллежлар ва олий таълим тизимини бошқариш, шакллари ва усуллари турличадир. Ушбу хилма-хилликларга қарамасдан ўрта махсус ва касб-ҳунар коллежлари ҳамда олий таълим муассасалари ўртасидаги ўзаро ҳамкорликдаги умумий белгиларни ажратиб кўрсатиш мумкин.

Мамлакатлар ўз миллий таълим моделига эга бўлиб, уларда таълимнинг мақсади, турлари ва давомийлиги бир-биридан фарқ қилади. Масалан: мамлакатимизда ўрта махсус, касб-ҳунар таълим тизими академик лицейлар ва касб-ҳунар коллежларидан иборат бўлиб, жаҳон амалиётида ушбу таълим муассасалари таълимнинг турли босқичлари таркибий қисмларини ташкил этади. Шунингдек, мамлакатимиз ҳамда Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги давлатларида коллежлар ўрта махсус маълумот берувчи таълим муассасалари ҳисобланса, АҚШ ҳамда Европа таълим тизимида бундай муассасалар олий маълумот берувчи таълим муассасалари қаторига киради.

Ривожланган давлатлар тажрибасида таълим муассасалари бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолашда асосан қуйидаги уч туркум кўрсаткичлар назарда тутилади:

- иш фаолияти натижаларида эришилган кўрсаткичлар;
- таълим муассасанинг амалдаги ҳолатини тавсифлайдиган кўрсаткичлар;
- муассасанинг ички имкониятларини ишга солиш ҳисобига эришиладиган кўрсаткичлар [2].

Таълим тизимида олий таълим муассасаларининг ҳамда коллежларнинг бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш бўйича турли мамлакатларда турлича ёндашувлар мавжуд. Қуйида коллежларнинг бошқарув фаолиятини баҳолаш бўйича АҚШ, Германия ва Россия давлатларининг тажрибасини кўриб чиқиш мумкин бўлади.

АҚШда коллежлар ва университетларнинг бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш тизимига 1983 йилда асос солинган бўлиб, унга кўра коллежларнинг бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш мезонлари билан олий таълим муассасаларининг бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш мезонлари деярли бир хил. Яъни коллежларнинг таълим сифати даражаси олий таълим муассасаларининг таълим сифати даражаси билан тенглаштирилган. Таълим муассасаларини рейтинг баҳолаш билан АҚШда кўп ҳолларда нодавлат нотижорат ташкилотлари, масалан мустақил газеталар шуғулланади.

АҚШда коллежларнинг бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш 4 та ҳудуд кесимида амалга оширилади: шимол, жануб, ўрта ғарб ва ғарб. Ҳар бир ҳудуд кесимида баҳолаш натижалари бўйича коллежларнинг рейтинги шакллантирилади ва ҳар йилги маълумотлар “U.S.News” газетаси ва “World Report” [3] ахборот порталида эълон қилиб борилади.

Буюк Британияда баҳолаш учун оммавий ахборот воситалари, статистик манбалардан олинган маълумотлар асос бўлиб хизмат қилади. Таълим муассасаси ҳақидаги кадрлар истеъмолчилари фикрлари асосий кўрсаткичлардан бири сифатида қабул қилинади [4].

Таълим муассасалари бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш Буюк Британия таркибига кирувчи 4 та давлат, яъни Англия, Шотландия, Уэльс, Шимолий Ирландия бўйича алоҳида амалга оширилади. Ушбу давлатларнинг барчасида баҳолаш жараёнини ташкил этишда асосан эксперт баҳолаш, ижтимоий сўровлар, шунингдек, иш берувчилар томонидан битирувчилар сифатини баҳолаш ҳамда таълим дастурларини битирувчилар томонидан баҳолаш натижалари қўлланади.

Германияда барча таълим муассасалари фаолиятини баҳолаш тегишли вазирлик ва идоралар билан келишилган ҳолда таълим вазирлиги ҳамда нодавлат ва нотижорат ташкилотлари томонидан амалга оширилади. Масалан, соғлиқни сақлаш вазирлиги билан келишилган ҳолда тиббиёт йўналишидаги коллежларнинг фаолияти баҳоланади [5].

Германияда коллежлар фаолиятини баҳолаш йўналишлар кесимида мамлакат бўйлаб амалга оширилади (масалан, тиббиёт, спорт, иқтисод, туризм ва бошқ.). Баҳолаш натижалари бўйича рейтинг йўналишлар кесимида акс эттирилади ва маълумотлар турли таълим порталларида эълон қилинади.

Россияда ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасалари, яъни коллежлар ва техникумлар бошқарув фаолияти самарадорлигини баҳолаш таълим вазирлиги таркибидаги ҳудудий таълим қўмиталари ҳамда мустақил оммавий ахборот воситалари томонидан амалга оширилади. Шунингдек, иш берувчи вазирликлар ҳамда идоралар томонидан қўшимча баҳолаш мезонлари кўзда тутилган.

Россия касб-ҳунар коллежларининг бошқарув фаолиятини баҳолаш автоном республикалар ва вилоятлар кесимида амалга оширилади. Баҳолаш мезонларини ҳудудларда ташкил этилган таълим қўмиталари мустақил ишлаб чиқишлари мумкин. Лекин баҳолаш мезонларининг умумий йўналишлари ва баҳолаш жараёнини амалга ошириш тартиби Россия таълим вазирлиги томонидан белгилаб берилади. Ҳар бир ҳудуд баҳолаш натижалари бўйича касб-ҳунар коллежларининг рейтинги эълон қилиниб, маълумотлар ҳудудий таълим порталларига жойлаштириб борилади. Масалан: Москва вилояти ва шаҳридаги коллежларнинг рейтинги “EDU-Inform” таълим порталида эълон қилиб борилади [6].

Таълим тизимининг асосий бўғинларидан бири бўлган коллежларнинг бошқарув фаолиятини баҳолаш бўйича юқорида ўрганилган хорижий давлатлар тажрибасини қуйидаги жадвал асосида умумлаштириш мумкин (1-жадвал).

1-жадвал

Коллежлар бошқарув фаолиятини баҳолаш бўйича хорижий давлатлар тажрибаси

Т.р.	Кўрсаткичлар	АҚШ	Буюк Британия	Германия	Россия
1.	**Баҳоловчи ташкилотлар**	Нодавлат ва нотижорат ташкилотлар	Нодавлат ва нотижорат ташкилотлар	Таълим вазирлиги, нодавлат ва нотижорат ташкилотлар	Ҳудудий таълим қўмиталари
2.	**Баҳолаш доираси**	4 та ҳудуд кесимида: шимол, жануб, ўрта ғарб ва ғарб	4 та давлат бўйича алоҳида: Англия, Шотландия, Уэльс, Шимолий Ирландия	Мамлакат бўйлаб йўналишлар кесимида	Автоном республикалар ва вилоятлар кесимида
3.	**Баҳолаш натижаларини эълон қилиниши**	“U.S.News” ва “World Report” ахборот порталларида	Турли таълим порталлари ва “BBCnews” ахборот портали	Турли таълим порталлари	“EDU-Inform”порталида
4.	**Баҳолашнинг даврийлиги**	Ўқув йили натижалари бўйича йилига бир марта	Ўқув йили натижалари бўйича йилига бир марта	Ўқув йили натижалари бўйича йилига бир марта	Ҳафталик ўқув якунлари бўйича ҳар ҳафтада

Хорижий давлатлар тажрибасига кўра таълим муассасаларининг ички тузилмалари, яъни директор ўринбосарлари, факультетлар, бўлимлар, кафедралар фаолиятлари самарадорлигини баҳолаш тизими ҳам жорий этилган. Мамлакатимиз касб-ҳунар коллежларида эса ҳозирда фақат ўқитувчи ва ишлаб чиқариш таълими усталари фаолиятини баҳолаш тизими йўлга қўйилган. Мазкур баҳолаш натижаларига кўра ўқитувчи ва ишлаб чиқариш таълими усталарига касб-ҳунар коллежлари ҳузурида тузилган директор жамғармалари маблағлари ҳисобидан тегишли фоизларда (40 фоиздан ошмаган миқдорда) рағбатлантириш жорий этилган.

Ҳозирда таълимнинг яна кўплаб миллий моделлари мавжуд бўлиб, улар орасидан қуйидаги асосий мезонларга қараб тузилиши жиҳатидан бир-биридан фарқ қиладиган муҳимларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

- муайян мамлакат учун аниқ даврда иқтисодий таълим тизимини ривожлантиришнинг асосий мақсади ва кутилаётган натижа;

- давлат ва жамиятнинг иқтисодий таълим тизимини молиялаштиришдаги иқтисодий имкониятлари;

- таълим тизимида иқтисодчи кадрлар тайёрлашдан кўзланган мақсадга эришишда фойдаланиладиган воситалар ва механизмлар.

Мазкур мезонлардан ривожланган ва ривожланаётган давлатларнинг фойдаланиш даражасида маълум фарқлар мавжуд бўлган таълимнинг учта асосий моделини ажратиб кўрсатиш мақсадга мувофиқ бўлади. Булар жумласига Америка, Европа ва Осиё моделларини киритиш мумкин.

Америка моделига кўра давлат ва хусусий мактаблар ҳамда энг яхши ва ўрта даражадаги олий таълим муассасаларида таълим сифати сезиларли фарқ қилади. Бошланғич мактабларда ўқувчиларнинг билим даражасига қўйиладиган талаблар уларнинг ўзлаштириш даражасига қараб ошириб борилади. Америка моделида бошланғич мактабларда ижтимоий фанлар билан бирга иқтисодий фанларга кенгроқ аҳамият берилган. Унга кўра ўқишни ихтисослаштиришга ўрта мактабларда кенг имкониятлар берилган. Ушбу ҳолат ихтисослаштирилган иқтисодчи кадрлар тайёрловчи таълим муассасалари сонининг ортишига сабаб бўлган. Америка моделига кўра олий таълим муассасаларининг таълим мазмунини белгилашдаги мустақиллик даражаси юқори саналади. Давлат бошқарув органлари таълим мазмунини белгилаш жараёнида деярли иштирок этмайди.

Европа таълим моделида ўқувчиларга иқтисодий билимларни ўзлаштириш бўйича юқори талаблар қўйиш билан бир қаторда уларга табиий ва муҳандислик фанлари соҳасида чуқур билимлар беришга аҳамият берилади. Ушбу моделга кўра, ўқувчилар билимини бошланғич мактабдан бошлаб баҳолаб бориш мезонлари жорий қилинган бўлиб, ушбу мезонларга мувофиқ ўқувчилар синфдан синфга ўтказилади. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, Европа таълим муассасаларининг мустақиллиги Америка таълим муассасаларига қараганда камроқ ҳисобланади. Европа мамлакатларида ўқув юртларини бошқаришда академик доираларнинг ўрни муҳим бўлиб, АҚШ да ушбу вазифани ҳомийлик кенгашлари бажаради.

Европа моделига кўра, мамлакатларнинг иқтисодий тараққиёт стратегиясидан келиб чиққан ҳолда немис ва француз иқтисодий таълим моделлари муҳим ҳисобланади. Масалан, ўрта махсус таълими тизимида “дуал таълим” тамойили, яъни иқтисодий таълимни ишлаб чиқариш билан бевосита боғлиқликда олиб бориш немис моделининг ҳамда таълимнинг ҳамма учун бепуллиги француз иқтисодий таълим моделининг ўзига хос жиҳатларини кўрсатади.

Осиё таълим моделига кўра, таълимни молиялашда давлатдан ташқари хусусий бизнес ҳам муҳим ўрин эгаллайди. Иқтисодчи кадрлар тайёрлашда, таълимни молиялаштиришда маҳаллий манбалар умуммиллий манбаларга нисбатан кўпроқ улушга эга. Осиё таълим моделига кўра таълим жараёнида талабаларга грантлар ва кредитлар ҳисобидан таълим учун тўловларни амалга оширишга ёрдам берадиган тизимлар йўлга қўйилган.

Японияда ҳамда ижтимоий-иқтисодий ривожланишда катта муваффақиятларга эришган Осиё давлатларидан Жанубий Корея, Тайвань, Сингапур ва Гонконгда инсон салоҳияти, шунингдек, таълимни имкон қадар ривожлантиришга азалдан алоҳида аҳамият бериб келинган. Бунга сабаб мазкур давлатларда ер ости ва ер усти бойликлар мавжуд эмаслиги. Бу давлатларнинг энг асосий бойлиги инсон ресурслари ҳисобланади.

Мамлакатимизда иқтисодчи кадрларни тайёрлаш таълим тизимидаги туб ўзгаришлар стратегияси маҳаллий қадриятлар, анъаналар ва тажрибалар билан бир қаторда илғор хорижий тажрибалардан унумли фойдаланишга қаратилган. Мустақил юртимизда миллий таълим тизимини ислоҳ қилиш жараёнида юқорида кўрсатилган учта таълим модели, шунингдек, Осиё таълим моделининг ютуқларидан самарали фойдаланишга ҳаракат қилинмоқда.

Таълим тизимида иқтисодчи кадрлар тайёрлаш бўйича жаҳон тажрибаси таҳлилларига кўра ижтимоий-гуманитар соҳалар таълими юқори даражада ташкил қилинган олий таълим муассасаларида техник соҳалар таълими ҳам юқори савияда йўлга қўйилган. Чунки, таълим тизими тамойиллари асосида шакллантирилган таълим моделлари умумий тавсифга эгадир (2-жадвал).

Жадвал маълумотларидан кўринадики, дунё бўйича энг юқори рейтингга эга бўлган 20 та олий таълим муассасаининг 14 таси АҚШ, 4 таси Буюк Британия ҳамда 2 таси Швейцария ва Канада ҳисобига тўғри келади.

Россияда 1995 йилдан кейин иқтисодий таълим йўналишларида таълим олаётган талабалар сони сезиларли даражада кўпайди. Россия олий таълим муассасалари талабаларининг ўсиши динамикаси

бўйича Польша, Чехия ва Финляндия каби давлатлардан кейинги ўринни эгалламоқда [8].

2-жадвал.

Дунёнинг ривожланган давлатларида 2017 йилдаги энг яхши олий таълим муассасалари [7]

1.	Калифорния технология институти	АҚШ	11.	Джонс Хопкинс университети	АҚШ
2.	Оксфорд университети	Буюк Британия	12.	Йел университети	АҚШ
3.	Стендфорд унверситети	АҚШ	13.	Берклидаги Калифорния университети	АҚШ
4.	Кембриж университети	Буюк Британия	14.	Лондон университет коллежи	Буюк Британия
5.	Массачусет технология институти	АҚШ	15.	Колумбия университети	АҚШ
6.	Гарвард университети	АҚШ	16.	Лос-Анжелесдаги Калифорния университети	АҚШ
7.	Принстон университети	АҚШ	17.	Пенсилвания штати университети	АҚШ
8.	Лондон Империя коллежи	Буюк Британия	18.	Корнелл университети	АҚШ
9.	Цюрихдаги Швейцария федерал технология институти	Швейцария	19.	Торонто университети	Канада
10.	Чикаго университети	АҚШ	20.	Дьюк университети	АҚШ

Бугунги кунда Шарқий Европа ҳамда мустақил давлатлар ҳамдўстлиги давлатларида кузатилаётган яна бир анъана шундан иборатки, бу давлатларнинг кўпчилиги иқтисодчи кадрлар тайёрлаш тизимини тижоратга асосланган ҳолда ривожлантиришга ҳаракат қилмоқдалар. Бу таълимни давлат томонидан молиялаштириш манбаларининг тобора қисқариб, иқтисодий таълим тизими билан хусусий секторнинг ўзаро алоқаларга асосланган ҳолда жадал ривожланиб бораётганлигидан далолат беради. Бунда, бир томондан, таълимнинг бозор тамойилларига тўлиқ мос келиши таъкидланса-да, бошқа томондан эса, таълим сифатининг пасайишига, шунингдек, иқтисодиёт реал сектори замонавий талаблари ва таълим сифати ўртасидаги ўзаро тафовутларнинг ошишига сабаб бўлмоқда.

Европа давлатлари мисолида олиб қаралганда, Польшада иқтисодий таълим ислоҳотлари таълимни модернизация қилиш ва таркибий қайта кўриб чиқиш дастурлари доирасида амалга оширилди. Ушбу дастурни амалга ошириш зарурати қуйидаги омиллар таъсирида юзага келди:

- иқтисодиёт, давлат бошқаруви ва ҳудудий ўзиниўзи бошқариш жараёнлари учун юқори малакали иқтисодчи кадрлар тайёрлашнинг зарурлиги;
- олий таълим тизимининг европача ташкилий ва концептуал асосларини маҳаллий шароитларга жорий этилиши;
- бошланғич ва ўрта таълим тизимида туб ислоҳотларнинг бошланиши;
- олий таълим тизимини тартибга солиш бўйича янги меъёрий-ҳуқуқий базанинг шаклланиши;
- инсонлар, товарлар, пул маблағлари ва ғояларнинг эркин ҳаракатланиши;
- бозор тамойиллари асосида молиялаштириш механизмларининг олий таълим тизимига жорий этилиши;
- европа таълим тизимига талабалар ва илмий ходимларни жалб этиш жараёнларининг тезлашиши;
- олий таълим муассасалари битирувчиларига янги талабларни қўяётган меҳнат бозоридаги таркибий ўзгаришлар ва бошқалар.

Ягона Европа таълим тизимига мослашиш Польша иқтисодий таълим тизимини такомиллаштиришда бир қанча устувор вазифаларни бажаришни тақозо этди.

Польшада бугунги кунда иқтисодий таълим тизими умумий таълим тизимида муҳим ўринни эгаллайди ва бу қуйидагилардан иборат: Варшава, Краков, Познань, Катовице, Вроцлав шаҳарларида жойлашган 5 та давлат иқтисодий ҳамда 350 та нодавлат олий таълим муассасалари. Иқтисодиётнинг барча секторлари ва соҳалари учун тайёрланаётган мутахассисликлар қуйидагилардан иборат: бошқарув ва маркетинг, иқтисодиёт, молия ва банк иши, халқаро муносабатлар, информатика и эконометрика, товаршунослик, минтақашунослик, халқаро иқтисодий муносабатлар, иқтисодиёт ва маҳаллий бошқарув, маъмурий бошқарув, ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқариш, туризм ва бошқлар. Ушбу мутахассисликлар тармоқ, тематик ва функционал ихтисослашувига мувофиқ бир қанча махсус ихтисосликларга бўлинади.

Польша давлатида олий иқтисодий таълим асосан уч босқичда олиб борилади: касб-ҳунар, университет таълими ҳамда илмий чуқурлаштирилган таълим. Булар ҳам ўз навбатида кундузги, сиртқи, кечки ҳамда масофавий шаклларда олиб борилади. Шунингдек, иқтисодий олий таълим муассасаларида ҳамда иқтисодий-менежерлик факультетларида дипломдан кейинги “MBA” ва “MPA” доирасидаги таълим хорижий таълим муассасалари билан ҳамкорликда олиб борилади.

Сўнгги йилликларда халқаро ҳамжамият томонидан бозор муносабатларига ўтган давлатларда, жумладан, Шарқий Европа ҳамда Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги давлатларида замонавий иқтисодий таълим стандартларини жорий этиш бўйича муҳим чора-тадбирлар амалга оширилиб, зарур маблағлар ажратилди ва ушбу давлатларда олиб борилаётган ислоҳотлар ҳар томонлама қўллаб қувватланди. Олий иқтисодий таълимни модернизация қилиш жараёнига кўмаклашиш мақсадида жараёнга халқаро ташкилотлар, ижтимоий жамғармалар ва ҳомийлик қилувчи ташкилотларнинг маблағлари йўналтирилди. Университет таълимини ривожлантириш, шунингдек, профессор-ўқитувчилар салоҳиятини юксалтириш, уларнинг халқаро касб уюшмаларига ва ҳамжамиятларига қўшилишлари ҳамда улар билан яқиндан ҳамкорлик алоқаларини ўрнатишлари учун катта маблағлар ажратилди. Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги мамлакатларининг катта шаҳарларида таълим бериш малакалари ва кўникмаларини эгаллашга ҳамда халқаро таълим ва иқтисодий тадқиқотлар тажрибаларини ўзлаштиришга қаратилган ҳомийлик лойиҳалари бажарилди.

Ғарб мамлакатлари тажрибаси таълим соҳасидаги кескин рақобат шароитида таълимнинг ижтимоий ҳамда иқтисодий вазифаларини бир вақтнинг ўзида бажариб бўлмаслигини кўрсатмоқда. Натижада рақобатбардош иқтисодчи олимлар, сиёсатчиларва социологларни тайёрлаш вазифасини маҳаллий таълим анъаналари ва салоҳияти асосида тайёрлашнинг ўзи етарли эмаслиги маълум бўлиб қолмоқда. Чунки замонавий иқтисодий билимлар, ғоялар, ёндашувлар ва концепциялар бозор муносабатлари ривожланган мамлакатлар амалиёти таҳлили асосида шаклланиб, ривожлантирилиб борилмоқда. Шунинг учун бу ўринда иқтисодий билимларни халқаро айрибошлаш муҳим ҳисобланади.

Бозор муносабатларига ўтган Ўзбекистон, Россия, Чехия ҳамда Қозоғистон каби мамлакатларда сўнгги йилларда иқтисодий таълим ва тадқиқотлар турли йўналишлар бўйича кенг қамровли ривожланиб борди. Лекин шу билан бир қаторда ушбу мамлакатларда иқтисодий таълим тизимидаги ислоҳотларнинг биринчи босқичи ҳали ўзининг мантиқий якунига етмаганлигини таъкидлаш лозим. Мамлакатларда жаҳонда вужудга келган молиявий-иқтисодий инқирозининг салбий оқибатлари, номутаносибликлар ҳамда нисбатлар ўртасидаги бузилишлар таълимга ажратиладиган ресурсларнинг барқарор сарфланишига ва унинг ижтимоий-иқтисодий самарадорлигини таъминлашга салбий таъсир кўрсатмоқда. Бу мамлакатларда тўлиқ шаклланиб улгурмаган миллий иқтисодий таълим тизимида малакали иқтисодчи кадрларга бўлган эҳтиёж катта бўлиб, юқори малакали иқтисодчи кадрларнинг танқислиги, етишмовчилиги кўзга ташланмоқда.

Европада таълимни тартибга солиш ва мувофиқлаштиришда давлат органлари марказий ўринни эгалласа-да, лекин бир вақтнинг ўзида давлатнинг таълимни тўлиқ назорат қилишдан четлашиш ҳолати кузатилмоқда. Бунга сабаб глобаллашув шароитида бозор муносабатлари талабларига мослашиш, ўзаро рақобат муҳитида ортда қолмаслик мақсадида ҳаракат қилаётган олий таълим муассасаларига ташқи омилларнинг таъсири тобора кучайиб бораётганидир.

Европа олий таълим тизими соҳасини бошқариш тузилмаси бир неча механизмдан иборат:

- ташқаридан тартибга солиш: олий таълим муассасалари учун ишлаш қоидаларини ўрнатиш давлат ёки ҳудудий органга тааллуқли;
- ташқи раҳбарлик: университет кенгашининг аъзоси сифатида аниқ мажбуриятларга эга бўлганларга (бошқарув ёки васийлар кенгаши), давлат органига (вазирлик) тааллуқли;
- раҳбарлик ўзини ўзи бошқариш: юқори раҳбарлар ва бошқарув ходимларига тааллуқли (рек-

тор, проректор ва деканлар);

- академик ўзини ўзи бошқариш: олий таълим муассасасининг келишув доираси ва академик жамоаси асосига тегишли.

Олий таълим бўйича умумий жавобгарлик Европанинг барча мамлакатларида ушбу соҳани назорат қилувчи вазирликлар зиммасига юклатилган. Буюк Британияда, Европанинг бошқа мамлакатларида бўлгани каби, вазирлик олий таълим муассасаларининг қонунга, вазирлик чиқарган меъёрий ҳужжатларга риоя этишини назорат қилади. Шунингдек, вазирлик олий таълим соҳасидаги сиёсатни, миллий ва институционал стратегик режаларни ишлаб чиқишга жавобгар. Ҳар бир мамлакатда вазирликдан ташқари олий таълим муассасаларининг ижрочи раҳбарларидан иборат миллий даражадаги орган фаолият кўрсатади. Буюк Британиядаги бундай орган Буюк Британия университетлари ва олий таълим муассасалари иттифоқи ҳисобланади.

Япония олий таълим муассасалари бошқарув тузилмаси қуйидаги тузилишга эга:

- ижроия бошқарув органи – Президент (ректор), ректорат, таълим ва тадқиқот кенгаши, бошқарув кенгаши (васийлар), назоратчи;

- таркибий тузилмалар – базавий таълим факультетлари (бакалавр даражасини беради), магистратура (магистр, доктор ва мутахассис даражаларини беради), филиаллашган илмий-тадқиқот институтлари (айрим университетларда жорий этилган), секретариат [10].

Олий таълим муассасаси раҳбари миллий университетлар, хусусий университетлар ва давлат университетларида ҳам президент, деб юритилади. Президент, унинг ўринбосарлари, Таълим ва тадқиқот кенгаши, бошқарув кенгаши (васийлар), назоратчилар юқори бўғин раҳбарлари ҳисобланади.

Юқоридаги хорижий тажрибаларга асосланиб қуйидаги хулосаларни келтириш мумкин. Ривожланиш даражаси юқори бўлган Буюк Британиядаги ушбу мамлакатларнинг илғор тажрибасини тўғридан-тўғри бошқа ривожланаётган мамлакатларга жорий этиш мураккаб масала. Лекин улардан айримларини мамлакатимиз шароитига, олий таълим муассасаларининг хусусиятларига мослаштирган ҳолда татбиқ қилиш мумкин. Вакант лавозимларга танлов эълон қилиш механизмлари, номзодларни текшириш ва саралаш босқичлари ва бошқалар бунга мисол бўла олади.

Япония олий таълим муассасаларида кадрлар фаолиятини бошқаришнинг ҳуқуқий асослари жуда ҳам яхши ишлаб чиқилган. Уларни таҳлил қилиш орқали Ўзбекистон олий таълим тизимига тадбиқ этиш мумкин. Жумладан, профессор-ўқитувчилар ва раҳбар ходимларни имтиҳон ва танлов асосида ишга олиш ҳамда Президент томонидан тайинланган аҳлоқ назоратчиси лавозими, унинг хизмат вазифалари, академик ходимларнинг этика қоидаларидаги баъзи бандлар бунга мисол бўла олади.

Ривожланган хорижий мамлакатлар олий таълим тизими ва муассасалари кадрлар бошқарувига оид ҳуқуқий ҳужжатларини, тажрибаларини ўрганиш мамлакатимиздаги ҳуқуқий ҳужжатлар билан тартибга солинмаган айрим муаммоларнинг ечимини топишга ёрдам беради.

Ўзбекистон Республикасидаги олий таълим муассасалари давлат олий таълим муассасаларини ташкил этгани учун улардаги кадрларга давлат хизматчилари мақомини бериш, буни қонуний йўл билан мустаҳкамлаш мақсадга мувофиқдир. Олий таълим муассасаларида кадрлар фаолиятини бошқаришдаги Ўзбекистон Республикаси ва хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш ва қиёсий таҳлил қилиш натижасида юзага келган хулосаларга таяниб кадрлар бошқаруви масаласидаги муаммоларни ечимини топиш мақсадида қуйидаги таклифлар билдирилди:

1. Мамлакатимиз олий таълим тизими кадрларини бошқариш элементларидан бири бўлган ротацияни амалга оширишда ташкилот маъмуриятининг ваколатларини кенгайтириш билан бирга жавобгарлигини ҳам оширишни мақбуллигини кўриб чиқиш керак.

2. Профессор-ўқитувчиларни ишга олишда саралаш ва танлаш босқичи энг муҳим босқич ҳисобланади. Шунинг учун бу босқичга алоҳида аҳамият бериш ва механизмини Европа мамлакатларида жорий этилган тартибда амалга ошириш мумкин.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори билан 2006 йил 10 февралда тасдиқланган “Олий таълим муассасаларига педагог ходимларни танлов асосида ишга қабул қилиш тартиби тўғрисида”ги Низомнинг тегишли боблари ва пунктларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш керак. Олий таълим муассасаси ректори, проректор ва деканларини лавозимига тайинлаш бўйича махсус Низом тайёрлаш лозим, уни ишлаб чиқишда мазкур лавозимларга қўйиладиган малакавий талаблар, тайинлаш, лавозимдан озод қилиш, лавозимини ўзгартириш масалалари ва уларнинг механизмлари, амалга ошириш тартиби деталлаштирилган ҳолда аниқ кўрсатилиши зарур.

4. Олий таълим муассасаларининг раҳбар ходимларига баҳо беришда юқори турувчи органлар

билан биргаликда қуйи бўғинларнинг фикр мулоҳазаларини эътиборга олиш бўйича алоҳида меъёрий ҳуқуқий мезон ишлаб чиқиш мумкин. Раҳбар ва педагог ходимларининг одоб-ахлоқ қоидалари ишлаб чиқилган. Шунингдек, муассасанинг ички тартиб қоидалари билан ҳам уларнинг фаолияти тартибга солинади. Япония тажрибасидан ўрганган ҳолда уларнинг хизмат этикалари бўйича алоҳида қоида лойиҳасини ишлаб чиқиш лозим ва бу албатта ўзининг самарасини беради.

5.Олий таълим муассасаларининг раҳбар ходимларини маълум муддатда (ҳар беш йилда) аттестациядан ўтказиш тартиби жорий этилса, раҳбарларнинг ўз устида ишлаши таъминланади ва уларнинг бир жойда қотиб қолишининг олди олинади. Раҳбар ходимлар учун малака ошириш курсларини жорий этиш раҳбар ходимларнинг замонавий менежмент усуллари, янги меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар билан танишиш имкониятларини беради.

Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили. //Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Янги йил арафасида 2016 йил 30 декабрь куни мамлакатимизнинг етакчи илм-фан намояндалари билан учрашувида қилган маърузаси. 30.12.2016й. Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги сайти. www.uza.uz
2. Даминов А., Закирова М., Назаров Б. Олий таълим муассасалари рейтингини аниқлаш масалалари. “Ахборотнома” илмий-услубий журнали. Тошкент, 2012 й. 11-б.
3. http://colleges.usnews.rankingsandreviews.com/best-colleges/rankings. (АҚШ медиа компанияси нинг “Best College Rankings and Lists” нашри)
4. Даминов А., Закирова М., Назаров Б. Олий таълим муассасалари рейтингини аниқлаш масалалари. “Ахборотнома” илмий-услубий журнали. Тошкент, 2012 й.
5. Перфильева О. Многомерное ранжирование как методология сбалансированной оценки исследовательской, образовательной и международной деятельности университетов. Проект - «Разработка и апробация методологии рейтингования образовательных учреждений профессионального образования». Российско-британский семинар «Оценка эффективности деятельности вузов и их международное позиционирование» Санкт-Петербург, 28 февраля 2012 г. ст.34-38.
6. www.edu-inform.ru/college/reiting (Москва таълим портали).
7. www.gtmarket.ru
8. Сфера образования в системе Россия-Запад.(проблемы эффективности) Под ред. В.И.Марцинкевича.– М.: ИМЭМО РАН, 2009. – 234 с. Стр. 5.
9. Higher Education in Japan. Higher Education Bureau,Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology. 2011. P.10.



Алижон ХЎЖАЕВ
Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети умумий математика кафедраси катта ўқитувчиси

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАСИ ПРОФЕССОР-ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ РОЛИ

Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида профессор-ўқитувчиларнинг таълим сифатини оширишдаги роли ҳақида фикр юритилади.

Таянч тушунчалар: *олий таълим тизими, таълим сифати, давлат таълим стандартлари, ўқув дастурлари, таълим сифати мониторинги, профессор-ўқитувчи, сўровнома, компетенция.*

В данной статье ведется речь о роли профессоров-преподавателей высших образовательных учреждений в повышении качества образования.

Опорные понятия: *система высшего образования, качество образования, государственные образовательные стандарты, образовательные программы, мониторинг качества образования, профессор-преподаватели, анкета, компетенция.*

In this article istold about the role of professors-teachers of higher educational institutions in improving the quality of education.

Supporting concepts: *the higher education system, the quality of education, state educational standards, and educational programs, monitoring the quality of education, professors, professors, questionnaire, and competence.*

Мавжуд ёндашувлар таҳлили шуни кўрсатдики, “таълим сифати” деганда кўпроқ (тизим, жараён ва натижа сифатида) таълим характеристикаларининг маълум йиғиндиси ўрнатилган, назарда тутилган ёки мажбурий эҳтиёжлар (кутишлар)га мувофиқлик даражаси тушунилади. Шунга кўра таълим сифатини бошқариш унга характеристикаларнинг маълум йиғиндисини бошланғич маълум ҳолатдан талаб қилинадиган пировард ҳолатга ўтказиш мақсадида тизим (жараён, натижа) сифатида таъсир кўрсатишдан иборат. Таълим сифатининг иккита жиҳатини қараш мумкин. Биринчи жиҳат олий таълим муассасаси (ОТМ) битирувчиларининг компетенцияларини буюртмачилар ва давлат стандартлари, малака талабларига мувофиқ тарзда тавсифлайди. Таълим сифатининг иккинчи жиҳати эса битирувчиларнинг малакавий характеристикаларини таъминлашнинг тизимли имкониятларини акс эттириб, натижалар сифати олий таълим муассасаси жараёнлари ва ресурсларининг сифати билан белгиланишини назарда тутади. Аввалари биринчи жиҳат устуворлик қилган бўлса, ҳозирги кунда кўпроқ иккинчи жиҳатга тобора эътибор берилмоқда.

Айрим олий таълим муассасаларида амалга оширилаётган таълим тизими инерцион, таъсирларга нисбатан кечиктирилган оқибатларга эга бўлиб, ўз ривожланишини адекват прогнозлаш ва унинг фаолияти сифатини пасайтирадиган жараёнларнинг олдини олишга ҳаракат қилиши лозим. Таълим тизими тузилмасида субъект-инструмент-объект учлигини ажратиш мумкин. Таълим муассасаси раҳбар ходимлари қарор қабул қилувчи шахслар сифатида субъект ҳисобланади. Профессор-ўқитувчиларни инструмент, талабаларни эса объект сифатида қабул қиламиз.

Олий таълим сифатини таъминлашнинг асосий вазифаларидан бири олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг педагоглик фаолиятига қўйиладиган замонавий талабларга жавоб бера олишини киритамиз [2]. Таълим тизимида қандай мақсадда қандай ислоҳот бошланмасин, у пировардида ижрочи – педагогга бориб тақалади. ОТМ фаолиятининг сифатига унинг кадрлар салоҳиятидан келиб чиқиб баҳо берилади. Айни пайтда педагоглар таркиби олий таълимни модернизациялаш шароитида бошқарувнинг асосий объектларидан бири ҳам саналади.

Мамлакатимиз олий таълим тизимида професор-ўқитувчилар кафедраларга бирлашиб, уларга фанлар ҳамда ўқув вазифалари юклатилади. Табиийки, бу вазифалар педагогларнинг малакасига мос келиши лозим, қолаверса, улар вақти-вақти билан малака ошириш курсларини ўтаб, ўз устида мунтазам ишлашади. Шунингдек, ОТМга ходимларни ишга олганда уларнинг юқори даражадаги

касбий билим, зарур компетенцияларга эга эканига алоҳида эътибор қаратилади. ОТМ профессор-ўқитувчиларининг жуда катта қисми ўз фани доирасида, умуман фаннинг асослари, мазмун-моҳияти бўйича тўлақонли билим, зарур кўникма ва малакаларга эгаки, буларнинг ҳаммаси ўқув жараёни давомида талабаларга билимларни янги педагогик ҳамда ахборот технологияларни кенг қўллаган ҳолда самарали етказиш имконини беради. Бироқ олий мактаб ўқитувчисининг касбий фаолиятда муваффақият қозониши фақат ўз фанига оид билимлар билан белгиланмайди, балки ўқитувчининг умуммаданий компетенциялари, унинг фаолияти ягона тизими таркибий қисмлари бўлган шахсий психологик омиллар ўзаро нисбати ҳам муҳим.

В.И. Слободчиковнинг фикрича, ўз касбининг устаси (профессионал) нафақат фаолиятни амалга ошира олади, балки унинг асосларини ва воситаларини унинг норматив структураси билан рефлексиялашга ҳам қодир. Касбий ўзини ўзи реализациялаш ўқитувчининг малакаси ва иш стажига кўп жиҳатдан боғлиқ бўлган ижтимоий ҳаёти билан белгиланади. Шахсий-касбий ривожланиш даражасига салбий таъсир қиладиган, унинг пасайишига сабаб бўладиган омиллар сифатида қуйидагиларни санаб ўтиш мумкин:

- ўз хулқ-атворини прогнозлаш қобилиятининг йўқлиги;
- ўз олдидаги шахсий масъулиятнинг етишмаслиги;
- вазиятларга адекват қарор қабул қила билмаслик;
- ўз фаолияти натижаларига қизиқмаслик, улардан манфаатдор эмаслик.

Юқорида қайд қилинган ҳолатларни бартараф қилиш педагогнинг ўзини педагоглик фаолиятига тўла сафарбар қила олиш қобилияти, иродаси, қадриятли йўналганликлари, педагогик фаолиятида юзага келадиган вазиятларга компетент муносабати, кундалик иш фаолиятига ўзгартиришлар кирита билиши билан боғлиқ. Педагог фаолиятининг самарадорлиги унинг психологик хусусиятлари, қадриятлари, қадриятли устуворликлари билан боғлиқ бўлиб, унинг профессионализмининг аксиологик ҳамда акмеологик жиҳатларини белгилаб беради.

ОТМ профессор-ўқитувчиларининг профессионализми ривожланишини бошқариш тизими уларнинг профессионализмини бошқаришнинг изчил тизимини назарда тутади. Аввало, таълимнинг мавжуд ва истиқболдаги эҳтиёжларига нозик ва олдини олувчи реакция зарур. Қолаверса, фундаментал ва амалий тадқиқотларда ОТМ фани ролини профессор-ўқитувчилар малакасини ошириш билан узвийликда юксалтириш талаб қилинади. Шунингдек, педагогик-ходимлар мутахассис тайёрлашнинг замонавий ўзига хосликларига мослашишни талаб этадиган янги авлод таълим стандартларига мувофиқлигини таъминлаш лозим.

Бугунги кун психология ва педагогика фанида ўқитувчи касбий фаолият субъекти сифатида ўрганилади. Л.М. Митинанинг таъкидлашича, ўз-ўзини англашнинг даражаси пастлиги педагог хулқининг вазиятлилигини белгилайди, бунда моддий қимматликлар устунлик қилади, мотивлар эса якқалик тартибда амал қилиб, хатти-ҳаракатларда ягона йўналганликни ярата олмайди. Бу, ўз навбатида, пассив, мустақил бўлмаган, мослашувчан касбий нуқтаи назарни белгилаб беради. Ўз-ўзини англашнинг юқори даражасига эга педагог эса ўзининг ички ва ташқи ундовларига онгли муносабатда бўлади, уларни ўзининг хулқ-атвори ва фаолияти мотивлари сифатида қабул қилади ёки инкор этади. Педагог фаолиятининг энг муҳим таркибий қисми сифатида унинг профессионаллашувини ривожлантириш ва қўллаб-қувватлаш йўлларини аниқлаш ва асослаб бериш билан боғлиқ муаммолар ҳали етарлича тадқиқ қилинмаганини эътироф қилиш зарур.

Илмий тадқиқотлар аксарият ҳолларда бўлажак ўқитувчиларни тайёрлаш ёки таълим олувчиларнинг айрим тоифалари билан ёки маълум йўналишларда ишлаш учун касбий компетенцияларни такомиллаштиришга қаратилган. Айни пайтда ижтимоий сўров натижалари ўқитувчиларнинг каттагина қисми педагогика фанининг тенденциялари ҳақида аниқ тасаввурларга эга эмаслиги, замонавий методикалар ва технологияларни яратиш ва қўллаш кўникмалари етарлича ривожланмагани, буларнинг ҳаммаси эса компетенциялар форматида таълимий натижаларни таъминлашга имкон бермаслигини кўрсатмоқда.

Педагогик тадқиқот натижаларини амалиётга татбиқ қилиш педагогик тажриба-синовни адекват тарзда йўлга қўйиш ва ўтказиш, амалиётчиларни олинган натижалар билан махсус таништириш, шу асосда илмий натижалардан амалиётда фойдаланиш эҳтиёжини ривожлантиришни назарда тутади. Илмий тавсияларни мутахассисларнинг тезкор методи кўмаги ва маслаҳатлари билан илмий тавсияларни амалга ошириш усулларига махсус ўргатиш орқали бунга эришиш мумкин. Янги шакл, методика, педагогик технологияларни жорий қилиш уларни қай йўсинда ўзлаштириш ва кузатишни аниқ билишни тақозо қилади. ОТМ (айниқса нопедагогик ОТМ) профессор-ўқитувчиларининг

каттагина қисми махсус педагогик маълумотга эга эмаслигини инобатга олсак, уларнинг тўлақонли фаолиятини шакллантириш, ривожлантириш ва долзарблаштириш замонавий ОТМни бошқаришнинг муҳим вазифаси экани шубҳасиз.

Фаолиятида нуқсон ва омадсизликлар жуда кўп ҳолларда уларнинг етарлича тайёргарликка эга эмаслиги оқибатидир. Буни эса ўқитувчиларнинг маълум қисми педагогик компетентликнинг муҳимлигини етарлича англаб етмаслиги билан изоҳланади. Ваҳоланки, педагог ходимнинг касбий компетенциясини риворжлантиришни таълимнинг муҳим шартларидан бири сифатида қараш лозим. Педагогнинг замонавий таълимий фаолиятга тайёрлиги иш ҳажмининг катталиги, кучли таъсирларга дош бера олиш, эмоционал мақомнинг юқорилиги, ижод қилишга тайёрлик каби шахсий; янги технологиялар, таълимнинг янги методларини эгаллаганлик, уларни ярата олиш, таҳлил қила билиш, камчилик ва афзалликларини баҳолай олиш каби махсус сифатларни ўз ичига олади. Бироқ кундалик иш фаолияти кўпроқ формал характерга эга эканининг қатор сабаблари мавжуд:

- ўз фаолият муҳитини анъанавий тартибда ўзгаришларга у қадар юқори даражада тайёр эмаслик билан одатий шакллантириш;
- мотивациянинг етишмаслиги (хатто йўқлиги);
- устувор йўналишни белгилай олмаслик (“ҳар мақомга йўрғалаш”), демак, сезиларли натижага эришмаслик.

Талабалар билан педагогик ўзаро таъсир (ҳамкорлик) нафақат эҳтимолий фойдалиликни баҳолаш, балки янгилик ОТМ педагогик тизимида қанчалик “ўрнаша олиши”ни прогнозлаш, уни жорий қилиш учун ички имкониятларни таҳлил қилишни тақозо қилади. Баъзан ўқитувчилар малака оширишни тўлиқ тушуниб етмайди, уларда мазкур жараён қийинчилик, натижада инкор қилишни келтириб чиқаради.

Профессор-ўқитувчилар педагогик фаолияти мониторинги ОТМ сифати баҳолаш бўйича масъул вакиллари томонидан амалга оширилади ва кўрсаткичларнинг икки гуруҳига йўналтирилиши мумкин. Булар: ҳар бир профессор-ўқитувчининг малакавий характеристикалари ва улар томонидан машғулотларни олиб бориш сифати. Ўқитувчининг малакавий тавсияларини олиш учун турли тоифадаги педагог-ўқитувчилар учун уларнинг профессионаллик даражасини акс эттирадиган ахборотли белгилар билан аниқланган ва тизимлаштирилган [1].

Профессор-ўқитувчилар профессионализмини белгиловчи хусусий кўрсаткичлар қуйидагилардан иборат:

- нашр қилинган илмий ишлари;
- таълим методикалари, метод ва методикалари, баҳолаш усуллари кабиларга оид амалий йўналтирилган нашр қилинган ишлари;
- турли даража ва миқёсдаги илмий анжуманлардаги маърузалар билан иштироки;
- илмий асосланган муаллифлик педагогик ишланмалари, ўқув-услубий мажмуалари;
- таълим жараёнига инновацияларни жорий қилиш бўйича педагогик тажриба-синовда эришган натижалари;
- синалган муаллифлик педагогик ишланмаларининг кафедрада, ОТМда ва бошқа турдош ОТМларда оммалашиши, амалиётда қўлланилиши ва ш.к.

Методика муаллифлари ўқитувчи педагогик фаолиятини юқори баҳлаганига қарамай, сўралган талабаларнинг катта қисми келгусидаги ҳамкорликни истамаслигини маълум қилган, бундан ўқитувчининг касбий сифатларини юқори баҳоланган талабалар унинг шахсий сифатларидан қониқмаслиги ҳақида хулосага келиш мумкин [3]. Албатта, ҳар бир талаба истаганини ўйлаши ва саволларга истаганича жавоб бериши мумкин. Аммо анкета-сўровнамалар таҳлилида маълум кайфият кузатиладиган бўлса, бу педагогик фаолият тавсифи сифатида баҳоланиши мумкин. У қадар юқори балларни ололмаган ўқитувчилар бу фикрга ҳамма вақт ҳам қўшилавермайди. Улар талабаларни айблашга уринади (ўқишни истамайди, бекорчи ишлар билан шуғулланади, эркаланиб кетган ва ш.к.), иш шароитларидан айб топишади (аудитория тор, иш ҳақи кам, ТТВ дан фойдаланиш имкони йўқ ва ш.к.).

Хўш, олинган баҳо холисми? У асл ҳолатни акс эттирадими? Бу саволларга аниқ жавоб бериш қийин. Ҳар бир олий таълим муассасаси ўзининг сифат баҳолаш дастурини амалга ошириб, ўз баҳолаш методикаларидан фойдаланади. Айнан талабалар таълим жараёнининг асосий бўғини, таълим тизимининг бутун фаолияти қаратилган объект эканини ёдда сақлаган ҳолда уларнинг таълим сифати ва ўқитувчиларнинг ўқув фаолияти ҳақидаги фикрларини ўрганишга қаратилган “Профессор-

ўқитувчи талаба нигоҳида” каби методикалар бўйича сўровларни тез-тез ўтказиб туриш керак. Бироқ бу каби технологиялардан фойдаланганда қатор қоидаларни унутмаслик мақсадга мувофиқ:

1. Талаба профессор-ўқитувчини шунчаки баҳолаши эмас, балки уни ўзи билан ҳамкорликда, бир бутун таълимий жараён қатнашчиси сифатида кўриши лозим.

2. Эксперт компетент, босиқ, юксак маънавий фазилатларга эга шахс бўлиши, суҳбат юритиш, ишонтириш қобилиятларига эга бўлиши керак.

3. Бўлажак ўқитувчини сўровга психологик тайёрлаш керак. У ўзини шунчаки шахс эмас, балки, индивидуал, алоҳида, шахсий сифатларсиз ўқитувчи бўлмаслигига қарамай, таълим тизимининг элементи сифатида баҳолашларини тушуниши керак.

4. Ҳар бир ўқитувчининг ўзини ўзи, ҳамкасблари ва талабаларни баҳолашга уринишини қўллаб-қувватлаш, бунда унга ёрдам бериш керак. Албатта бу маълум муддатни талаб қилади. Профессор-ўқитувчиларнинг ўз фаолиятини ижобий ўзгартиришга истагини шакллантириш зарур.

ОТМда таълим сифатини бошқаришда анкета (сўров) процедураси ОТМ фаолияти ва унда кечаётган жараёнларнинг қабул қилинган бошқарув қароларига мувофиқлигини аниқлаш имконини беради. Назорат тизимли ахборот тақдим қилиб, мақсад ва эришилган натижа ўртасидаги тафовутни кўрсатади. Назоратнинг асосий вазифалари сирасига қуйидагиларни киритиш мумкин:

- эришилган натижаларни эксперт-таҳлилий баҳолаш ва тегишли хулосалар қилиш, шу асосда таълим фаолиятини тартибга солиш;
- таълим жараёнининг барча қатнашчиларини, уларнинг муайян натижаларини баҳолаш ва жамоа фаолиятини коррекциялаш учун тавсиялар ишлаб чиқиш ва ш.к.

Олий таълим муассасасида сифатнинг таъсирчан менежментининг шарти тизимли назорат ва объектив маълумотларни барча иерархик босқичларда таҳлил қилишдан иборат. Чунки бошқарув жараёни фақат барча кичик тизимлар ва жараёнлар ҳолати ҳақидаги ишонч ахборотни таъминлайдиган барқарор акс (тескари) алоқа мавжуд бўлганидагина таъсирчан бўла олади. Таълим жараёнини бошқариш тизимининг ОТМ миқёсидаги фаолияти муайян муаммоларни таҳлил қилишдан таълим сифатини таъминлайди. Бу прогнозлаш имконини кенгайтиради ва ўз вақтида олдини олиш чораларини кўриш учун шароит яратади. Натижада таълимда бошқарув жараёнини тезкор даражадан стратегик даражага ўтказиш мумкин.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 18 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси фаолиятини ташкил этиш тўғрисида”ги 515-сон қарори.// http://lex.uz/docs/3273609

2. Борисова Е.В. Педагогический кадровый потенциал в аспекте инновационной компетентности //Вестник Тверского государственного университета. Серия: Педагогика и психология. 2016. № 1. С. 90-96.

3. «Положение об организации и проведении анкетирования студентов «Педагог глазами студентов» ПГНИУ, Пермь.: [электронный ресурс], www.psu.ru/files/docs/normativnaya_ baza/…/polozh_ anket.pdf (дата обращения 08.12.2016).



Наргиза ХАЛИЛОВА
Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети психология кафедраси доценти, психология фанлари номзоди

ТАЛАБАЛАРДА РЕФЛЕКСИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ИМКОНИЯТЛАРИ

Мақолада талабаларда рефлексияни ривожлантиришга қаратилган психологик метод ва технологияларни қўлланилиш самарадорлиги асослаб берилган. Шунингдек, ўқитиш тизимида қўлланилаётган рефлексив технологияларнинг асосий мазуни баён қилинган.

Таянч тушунчалар: *таълим, рефлексия, рефлексив таълим, таълим технологиялари, психологик хизмат, шахсга йўналтирилган модел, мустақил таълим, ўқув билиш фаолияти.*

В статье обосновывается эффективность применения психологических методов и технологий принятые во внимание в развитии рефлексии у студентов. А также, излагается основное содержание рефлексивных технологий применяемых в системе обучения.

Опорные понятия: *образование, рефлексия, рефлексивное образование, образовательные технологии, психологическая служба, модель, направленная на личность, самостоятельное образование, учебно-познавательная деятельность.*

In article is substantiated the effectiveness of the application of psychological methods and technologies taken into account in the development of students' reflection. In addition,it is described the main content of reflexive technologies used in the training system.

Supporting concepts: *education, reflection, reflexive education, educational technology, and psychological service, a model the directed to the personality, independent education, educational and cognitive activity.*

Замонавий жамият талаблари инсонларга касбий билим бериш ва касб эгаллаш жараёнида юқори даражадаги самарали психологик ёрдамни ташкил қилишни тақозо этади. Маълумки, талабаларга психологик ёрдам университет томонидан таклиф этилади ва амалга оширилади. Таъкидлаш жоизки, психологик хизмат ҳозирда ҳаётнинг барча жабҳаларида ривожланиб келмоқда. Эътиборга молик жиҳати шундаки, мазкур жараён таълим соҳасига тегишли эканлиги билан диққатга сазовордир. Университетларда фаолият юритаётган психологик хизматнинг ривожланиши қуйидаги мақсадларни амалга оширишни кўзда тутади:

-касбий билим, кўникма ва малакаларни эгаллашнинг барча босқичларида ҳамда мутахассислар малакасини ошириш;

-таълим жараёни иштирокчиларининг ўзаро муносабатларида самарадорликни йўлга қўйиш;

-олий ўқув юртида талабалар рефлексив компетентлигини ошириш учун шарт-шароит яратиш [2].

Шу боис, университетда психологик ёрдамни ташкил этиш ва ривожлантиришга қаратилган қатор ишлар амалга ошириб келинмоқда. Жумладан, улар сирасига илмий-амалий конференция, монография ҳамда илмий тадқиқот ишларини киритиш мумкин (Н.В. Володько, А.В. Карпов, Н.В. Лукьяченко, Л.В. Меньшикова ва бошқалар).

Ҳозирги кунда психологик хизматни университет миқёсида ривожланаётгани янги методологик ва назарий асосга эга бўлиши билан бирга касбий тайёргарликда ижобий самарадорликни таъминлашни назарда тутади. Талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда ёрдам кўрсатувчи психолог иши уларда ижодкор, фаол, ўзини ўзи камолга етказувчи субъект сифатида фаолият юритишга ундаши зарур. Шу нуқтаи назардан университетда таҳсил олаётган талабаларни психологик қўллаб-қувватлаш жараёнини кечиктирмасдан улар билан коррекцион тадбирларни мақсадга мувофиқ тарзда ташкиллаштириш орқали ёрдам бериш лозим.

Бунда энг асосий тамойил талабалар касб эгаллаш жараёнида танлаш ҳуқуқига эгалар ва ўз хатти-ҳаракатларига масъулият билан ёндашадилар. Психологик хизматнинг шахсга йўналтирилган

модели асосида бўлса, у замонавий талабларга жавоб бера олиши билан тавсифланади. Бу рефлексив таълим жараёни муҳитини яратишга ва касбий таълимни рефлексив бошқаришга ёрдам беради.

Психологик ёрдам кўрсатишнинг самарадорлиги касбий тайёргарлик кўринишида комплекс дастурнинг қўлланилишига боғлиқ. Бунда қўйидаги тамойиллар ҳисобга олиниши лозим:

-шахснинг ўзини ўзи ривожлантириш, белгилашдаги эҳтиёжини ҳисобга олиш;

-таълим олувчининг индивидуаллигини инобатга олиш;

-психологик қўллаб-қувватлашнинг шахс фаолият субъекти эканлигини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилиши, яъни шахсга йўналтирилган моделли таълим жараёнидаги камчиликларни бартараф этишга ёрдам беради. Касбий таълимнинг ҳар бир босқичида (оптация, адаптация, интенсификация ва идентификация) талабалардаги таълим билан боғлиқ инқирозларда психологик қўллаб-қувватлаш муаммоларини ҳал этиши зарур [5].

Демак, предметли-ахборотли моделдан шахсга йўналтирилган моделга ўтиши натижасида бир неча психологик вазифаларга ечим топилди. Уларга талабаларда ижтимоий ва касбий ўзини ўзи англашни таркиб топтириш, ўз-ўзига ва атрофига ижобий муносабатда бўлишни шакллантириш, шахс когнитив, мотивацион, регулятив, коммуникатив жабҳаларини ривожлантириш ва бошқаларни киритиш мумкин. Бунда тизимлаштирувчи омил рефлексия ҳисобланади.

Оптация ва адаптация босқичида биринчи курс талаблари таълим шароитларига мослашади, янги ижтимоий ролга киришади, ўзаро ва педагоглар билан муносабат ўрнатади. Шунинг билан бирга ўқув-билиш асосий фаолият сифатида гавланади. Университетдаги ўқув жараёни коллеж, лицей ёки мактаб таълимидан тубдан фарқ қилади. Лекин талабалар бу фарқни ҳисобга олмайдилар (К.А.Абульханова-Славская, В.А. Барабаншиков ва бошқалар). Психологик қўллаб-қувватлаш биринчи босқич талабаларини таълим муассасасига мослашишига ёрдам беради. Бу жараёнда қўлланиладиган технологияларга қуйидагилар киради:

-ўқув-билиш фаолиятига тайёрлик диагностикаси ва ўзини ўзи диагностика қилиш;

-ўқув кўникмаларини ривожлантиришда ва ҳаётий фаолиятини назорат қилишга ёрдам кўрсатиш;

-биринчи босқич талабаларига ўқув фаолияти билан боғлиқ қийинчиликларни бартараф этишга ёрдам бериш;

-касбий ўзини ўзи англашни коррекция қилиш;

-ўзлари танлаган касбдан хафсаласи пир бўлган талабаларга психологик ёрдам кўрсатиш.

Бу босқичнинг самарали кечиши учун адаптация, ўзини ўзи англаш, рефлексив ўзини ўзи англаш каби жараёнлар талабаларда албатта содир этилиши зарур.

Интенсификация (2-3 босқич) да таълим олувчиларнинг умумий ва махсус қобилиятлари, интеллекти, эмоционал-иродавий назорати, мустақиллик, масъулиятлилик каби хусусиятлари шакллланади. Мазкур жабҳада илмий-билиш етакчи фаолият сифатида намоён бўлади. Бу босқич талаба ҳаётида муҳим аҳамият касб этади.

Талабалар учинчи босқичдаги таълимни касб эгаллашдаги “олтин босқич” деб биладилар. Психологик қўллаб-қувватлашда талабаларнинг интеллектуал ривожланишидаги илмий, касбий, шахсий ўзини ўзи англашдаги, ўз тенгдошлари билан муносабатда юзага келадиган муаммоларни бартараф этишда ёрдам кўрсатилади[4].

Шунга мувофиқ психологик қўллаб-қувватлаш технологияларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

-ривожлантирувчи диагностика (шахс тавсифномасини, ўз имкониятларини аниқлаш, кучайтириш, йўл-йўриқларини ишлаб чиқиш кабилар назарда тутилади). Натижада бу рефлексив таҳлилни ривожлантиради ҳамда рефлексив назорат, бошқарув, режалаштиришни ва умуман олганда, бўлажак мутахассис сифатида рефлексив маданиятни шакллантиради.

-психологик маслаҳат;

-шахсий ва интеллектуал профиль коррекцияси кабилар киради.

Ушбу босқич самарадорлигини оширувчи жиҳатлар: изчил равишда шахсий ва интеллектуал ривожланиш, умумий рефлексив қобилиятларнинг тараққий этиши, интеллектуал, коммуникатив, кооператив ва шахсий рефлексиянинг таркиб топиши, “Мен” образининг коррекцияси, ижтимоий идентиклик, ўзини ўзи шакллантириш, оптимистик ижтимоий позициялар ҳисобланади.

Идентификация (4-5 босқич) да касбий идентикликни шакллантиришда бўлажак амалий фаолиятга тайёрликни ҳосил қилиш каби вазифалар етакчи ўрин эгаллайди. Натижада шахс касбий

қадриятлари шакллана бошлайди. Кўп ҳолларда талабалар оила қурадилар ва катта ҳаётга қадам қўядилар.

Психологик қўллаб-қувватлашда касбий қобилиятларнинг якуний диагностикаси амалга оширилади. Психолог талабаларга ўзини ўзи касбда шакллантиришга, рефлексия ҳосил қилишга ёрдам бериш керак. Шу билан бирга оилавий ва интим масалаларда ҳам психологик ёрдам бериш назарда тутилади. Энг асосийси талабаларга ўзини ўзи англашда, касблар оламида ўз ўрнини топишга ёрдам беришдир.

Бу босқичнинг муваффақиятли кечишини бир неча жиҳатлари мавжуд:

-ўзини бўлажак касб эгаси сифатида тасаввур эта олиш;

-мустақил фаолият юритишга тайёр бўлиш;

-ўзини ўзи намоён эта олиш;

-ўз имкониятлари даражасини кўрсатиш, ўзига бўлган юқори баҳо, ўз-ўзига ишонч, паст даражадаги ижтимоий хавотирланиш, юқори даражадаги рефлексияга эга бўлиш билан бевосита боғлиқдир [3].

Шунингдек, машғулотларда рефлексив фаолиятни юзага келтирувчи ва ривожлантирувчи методикалар намуналарини келтириб ўтиш жоиз. Хусусан, рефлексияни юзага келтирувчи методикалар сифатида “Синквейн”, “Умумий ўзига хос”, “Ажойиб баҳс” каби методикаларидан шахс таълим-тарбиясида кенг доирада фойдаланилади.

“СИНКВЕЙН” УСУЛИ

Рефлексияни ривожлантиришда қўлланувчи энг машҳур усуллардан бири “Синквейн”дир. Синквейн маълумотларни синтез қилувчи шеърдир. Бундай шеърни ёзиш қоидалари қуйидаги намуна асосида амалга оширилади:

-биринчи қатор шеърнинг номи, мавзу (одатда от);

-иккинчи қатор мавзунинг тасвири (иккита сифат);

-учинчи қатор ҳаракат (одатда учта феъл мавзуга тегишли);

-тўртинчи қатор ҳиссиёт (тўртта сўздан иборат фраза, бу мавзуга нисбатан муносабатини билдиради);

-бешинчи қатор мазмуннинг қайтарилиши, биринчи қаторга маънодош сўзлар (одатда от).

Синквейн ёзишнинг асосий мақсади-ўтилган мавзунинг рефлексив баҳоси ҳисобланади. Синквейн методи кўпроқ мавзу ёки бўлимни якуний такрорлаш жараёнида қўлланилади. Бу метод мураккаб ҳиссиёт ва мавзуларни қисқача қилиб тушунтиришга ёрдам беради. Жумладан, таниш ва нотаниш, ўқияпман, ўйлаяпман, ҳайрон қоляпман, қандай ажойиб бу эртаклар! Мўъжиза!

“УМУМИЙ ЎЗИГА ХОС” УСУЛИ

Мазкур методика икки ва ундан ортиқ предметларнинг умумий ва ўзига хос хусусиятларини аниқлаш малакасини ривожлантиради. Блум таксономиясига кўра, бу усул орқали шахсда аналитик қобилиятлар ривожлантирилади, синтез ва солиштирма баҳо даражасида фаолият юритилади. Бунда индивидуал жуфт-жуфт гуруҳий усуллардан фойдаланилади. Шу ўринда методика доирасида график методларни қўллаш мумкин (Венн диаграммаси). Натижада бир тарафга умумий хусусиятлар, иккинчи тарафга хусусий жиҳатлар ёзилади.

БАҲС-МУНОЗАРА МУАММОНИ ГУРУҲИЙ МУҲОКАМА ҚИЛИШ УСУЛИ

Баҳс-мунозара ўтказишнинг бир нечта усуллари мавжуд. Жумладан, мунозара бошланишдан олдин маълум мақсадларга эга 2 та айлана микрогуруҳлар шакллантирилади. Жумладан, танқидчи сўзловчи ва бошқалар. Ҳар бир микрогуруҳдан сардор танланиб, муаммо муҳокама қилинади.

Альтернатив ечимларга эга муаммоларга нисбатан шкала қўлланилади. Мунозарадан аввал ерга арқон ташланади. Арқон бошида “ҳа” охирида “йўқ” деган ёзув ва ўртасида “билмадим” деган ёзувни акс эттириш керак. Педагог саволлар беради ва талабалар қайси жавобни тўғри деб билсалар ўша тарафга ўтадилар:

-кузатувчилар билан мунозара иштирокчилари иккита айлана бўлиб туришади. Ички айлана 6 та стулдан иборат бўлиб, улардан биттаси бўш бўлиши лозим. Қолган иштирокчилар эса ташқи айлана атрофида ўтирадилар. Мунозара ички айлана иштирокчилари томонидан олиб борилади. Агар ташқи айлана иштирокчилари ўз фикрларини билдирмоқчи бўлишса, ички айланадаги иштирокчилардан бири билан жой алмашишади.

-микрофон ёрдамида педагог савол беради ва қайсидир бир иштирокчи қўлига микрофонни узатади. Қолган иштирокчилар жимгина тинглашади. Микрофонда гапираётган инсон гапириб бўлгандан сўнг микрофонни бошқа талабага беради;

-"гугурт чўплари" – гуруҳ айлана бўлиб ўтиради. Марказга гургут чўпли қути қўйилади. Ҳар бир иштирокчига гугурт чўплари берилади. Гугурт чўпларининг миқдори иштирокчи (айтмоқчи бўлган) айтиши лозим бўлган фикрларнинг сонини билдиради. Иштирокчи ўз фикрини баён қилиб бўлгач гугурт чўпини қути ичига солиб қўяди ва машқ шу тариқа давом этади.

АЖОЙИБ МУНОЗАРА УСУЛИ

Бу мунозара тури орқали тартиб-қоидаларга қатъий риоя қилишга асосий эътибор қаратилади. Мазкур мунозара тури муаммо юзасидан турли қарама-қарши фикрлар мавжуд бўлган жараёнда қўлланилади. Бунда қўйидаги жадвалдан фойдаланилади.

Қўшиламан	Савол ва муаммолар	Қўшилмайман

Мунозара жараёнида иштирокчилар жадвални тўлдирадилар. Улар гуруҳ бўлиб ишлашади (қўшиламан деган жойга шу фикрни нима учун қўллаб-қувватлаётганини ёзадилар) ва аксинча иштирокчилар фаолияти қуйидагича бўлиши мумкин: талабалар тартиб-қоидаларга риоя қилган ҳолда ўзларига маъқул келган фикрларга борадилар. Машғулот сўнггида эса хулоса қилинади.

"АҚЛИЙ ҲУЖУМ" УСУЛИ

Мазкур методнинг мақсади-билимларни мустаҳкамлаш ва янги ғояларни баён қилишдир. Ақлий ҳужум муаммони ёки саволни ўртага ташлашдан бошланади. Бунда ҳар бир фикрга ҳурмат билан муносабатда бўлиш зарур. Йўқ, бўлмайди, нотўғри, деган сўзларни ишлатиш мумкин эмас.

"РАМКА" ВА "МАҚОЛА" УСУЛИ

Бу стратегиянинг мақсади-мавзу бўйича керакли маълумотларни тўплаш, тартиблаштириш ва мантиқан қуришдир. Гуруҳ талабаларига бўлажак тезис, маъруза ва мақолалар учун мавзу берилади.

Биринчи босқичда иштирокчилар режа тузадилар ва буни намойиш қиладилар.

Иккинчи босқичда талабалар манбалардан маълумот тўплайдилар. Бу расм, матн, мақоладан қисм кўринишида бўлиши мумкин. Бу босқичнинг мақсади ҳамма манбаларни кўриб чиқиш ва таҳлил қилиш ҳамда энг керакли маълумотни танлай олишдан иборат. Барча маълумотлар ватман қоғозида акс эттирилади ва унинг учун қуйидаги жадвалдан фойдаланилади.

Энг керакли маълумот	**Оқ излар**	**Сават**
Энг қимматли маълумотлар келтирилади ҳамда уларнинг муаллифлари кўрсатилади	Қайси маълумотлар етарли бўлмагани айтилади	Фаолиятда керакли бўлмаган манба ёки маълумотлар номланади

Учинчи босқичда фаолиятнинг намойиши бўлиб ўтади.

Тўртинчи босқич рефлексия босқичи. Бу босқичда олинган маълумотлар таҳлили асосида рефлексия ўтказилади. Бу "Ўзини ўзи баҳолаш варағи", "Портфолио яратиш", кўринишида бўлиши мумкин.

ИККИ ЁҚЛИ АЙЛАНА СТОЛ УСУЛИ

Бу усул долзарб муаммоларни ҳал қилишда қўл келади. Бунда иштирокчилар икки гуруҳга бўлинадилар. Биринчи гуруҳ ички айлана ичида ўтиради ҳамда улар ўз фикрларини бемалол баён қила оладилар. Ташқи айланада ўтирган иштирокчилар биринчи айланадагилар фикрларига ўз муносабатларини билдирадилар. Улар қўшимча қилишлари, ўз фикрларини билдиришлари ёки савол беришлари мумкин. Бу жараёнда ўқитувчи низо юзага келишига йўл қўймаслиги шу билан бирга муҳокамага аралашмаслиги керак. Машғулот сўнгида хулосалар ёзма ва оғзаки тарзда баён этилади. Ўқитувчи энг охирида ўз фикрлари ва хулосасини баён этади. Бундай усул рефлексияни ривожлантиришда энг муҳим ва керакли ҳисобланади.

“ҒОЯЛАР САВАТИ” УСУЛИ

“Ғоялар савати” индивидуал ёки гуруҳий тарзда ўтказилади. Бу гуруҳ иштирокчиларини мазкур мавзу юзасидан тажриба, билим, фикрлари хусусида билиш учун дарснинг бошида ўтказилади. Доскага сават чизилади ва талабалар ўз фикрларини саватга жойлайдилар. Натижада жараён қуйидагича боради.

1.Муаммо ёки мавзу ҳақида нималарни билишлари сўралади.

2.Аввалига ҳар бир талаба муаммо ҳақида нималарни билишини дафтарига ёзиб боради (индивидуал равишда).

3.Кейин жуфтликлар ва гуруҳларда ахборот алмашинилади. Улар ўзлари билган нарсалари ҳақида ахборот ҳамда ўзаро фикр алмашадилар. Бунинг учун 3 дақиқа берилади. Бундай муҳокама жараёни пухта ташкиллаштирилган бўлиши лозим.

4.Талабалар қайси фикрларда умумийлик қайсиларида эса қарама-қаршиликлар мавжудлигини билишлари керак.

5.Улар тўғри ёки нотўғри бўлишидан қатъий назар барча тафсилотлар тезис кўринишида “ғоялар савати” да ўқитувчи томонидан ёзилади.

6.Машғулот охиригача хатолар тўғриланади ва тўғри фикрлар эса тасдиқланади. Ниҳоят машғулот сўнгида рефлексия ўтказилади [1, 28-32].

Юқорида келтирилган рефлексив фаолиятни ташкиллаштиришга қаратилган технологиялар талаба шахсини ўқув жараёнида ўзини ўзи англаш, назорат қилиш, бошқариш малакаларини таркиб топишига ёрдам беради. Ўз навбатида бу таълим жараёнини уюштириш, бошқариш ҳамда ташкил қилишда муҳим ҳисобланади.

Адабиётлар

1. Xalilova N.I Refleksiv ta’lim metodlari orqali talabalar mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish metodikasi. – Toshkent, 2018. – 53 b.

2. Пьянкова Г.С. Развитие профессиональной рефлексии: Учебное пособие. – Красноярск, 2014. – 276 с.

3. Пьянкова Г.С. Рефлексивные методы организации самостоятельной работы студентов учебное пособие. – Красноярск, 2016. – 189 с.

4. Рефлексивная акмеология творческой индивидуальности: учебно-методическое пособие / А.А. Деркач, И.Н. Семенов, А.Ф. Балаева. – М.: РАГС, 2005. – 196 с.

5. Рефлексивно-организационные аспекты формирования мышления и личности в образовании и управлении / И.Н.Семенов, Г.И. Давыдова, Т.Г. Болдина и др. – М.: ИРПТи ГО, 2003.

BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM



Safiya XODJAYEVA
Buxoro davlat universiteti
maktabgacha ta'lim kafedrasi
katta o'qituvchisi

XALQ OG'ZAKI IJODIDA O'Z-O'ZINI TARBIYA MASALALARI

Maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodidagi har bir janr bir olam, odob, ta'lim-tarbiyaning o'ziga xos manbai ekanligi xususida fikr bayon etilgan. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari tarbiyaning umumiy jihatlarini aks ettirishidan tashqari, yaxshilik, ezgulik va odamiylikni go'zal, ibratli misollarda tasdiqlashi, da'vat etishi, yuqtirishi bilan birga aniqlik ham kasb etadi.

Tayanch tushunchalar: *xalq og'zaki ijodi, odob, axloq, axloqiy tarbiya, tarbiya, o`z-o`zini tarbiyalash, ertak, pand-nasihat.*

В статье излагается о том, что каждый жанр узбекского народного устного творчества является источником своеобразности воспитания и воспитанности. Образцы узбекского народного устного творчества приобретают доброту, благодеяния и подтверждаются поучительными примерами.

Опорные понятия: *народное устное творчество, воспитание, нравственность, нравственное поведение, самовоспитание, сказка, нравоучение.*

In article is outlined every genre of Uzbek oral folk creativity as a source of peculiarity of upbringing and education. The samples of Uzbek oral folk creativity acquire kindness; good deeds are confirmed by instructive examples.

Supporting concepts: *folk oral creativity, upbringing, morality, moral behavior, self-education, fairy tale, moralizing.*

Pedagogika tarixi bola tarbiyasi bo'yicha odamlar egallagan, o'ziga xos faoliyat bilan eng qadimgi davrdan boshlangan tarbiyani o'rganadi. Ming yillar davomida odamlar o'z faoliyatlari jarayonida bolalar va o'smirlarni turli xil mehnatga jalb etish hamda ularda odamlar bilan birgalikda harakat qilish ko'nikmasini qaror toptirish va rivojlantirish, bolalarda mustaqil harakat qilish, ko'zlagan shaxsiy maqsadini amalga oshirishga intilish tuyg'usini o'stirish zarurligini angladilar. Bu sohada ko'rsatgan faoliyatlari natijasida bolalar aqli, tanasi rivojlandi, ular shaxs sifatida o'zlari uchun zarur va foydali mehnatni tanlab, ajratib olishni o'rgandilar, ularda o'z-o'zini tarbiyalash shakllana boshladi. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash insoniyat sivilizatsiyasining rivojida birdan-bir shart bo'ldi. Bolalar tarbiyasi haqida to'plangan tajriba, bilim avloddan-avlodga o'tkazildi, pedagogik tizim yaratildi.

O'tmishda o'yin, qo'shiq, go'zallikni namoyish etish, donishmandlarning pand-nasihatlari, hikmatlari, hikoyatlari, afsonaviy ertaklar bolalar tarbiyasida muhim vosita bo'ldi. Bu vositalar bolalarning insonlar hayoti, ruhiy kayfiyati ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan uyg'unligini anglab olishlariga yordam berdi. Qadimiy "Quvlashish", "Tez yugurish", "Bekinmachoq", "Chek tashlash", "Ko'z boylash", "O'rta qo'lni topish", "Tez aytish", "Chitti gul" kabi o`yin jarayonida bolalarda chaqqonlik, qat'iyatlilik, jasurlik, odillik, do'stlik-inoqlik xislatlari shakllantirilgan.

Jamoa a'zolari donishmandlar aytgan "Kuchli bo'lay desang, do'st orttir", "Dili pokning ishi pok", "Odobli bola elga manzur", "Vatani borning, baxti bor", "El senga cho'zsa ko'l, unga doim sodiq bo'l", "Odamning eng baxtli vaqti boshqalarga ezgulik qilish onlaridir"kabi hikmatlar o'g'il va qizlarning Vatanga, xalqqa sadoqatli bo'lishlariga yordam beradi, deb bildi, ulardan samarali foydalandi.

Ota-bobolarimiz o'z hayotiy tajribalarida mehnat go'zalligi xususiyati – inson hissiyotiga, hissiyoti orqali ongi va xulqiga ta'sir etishdan iboratligini ko'rib, bu hakdagi g'oyalarini bolalar ongiga "Mehnat – farog'at chirog'i", "Ish – inson gavhari", "Odamni mehnat bezaydi", "Mehnat – hurmatning toji", "Yigit husni mehnatda" kabi maqollar yordamida singdirdilar.

Karimjon ko‘cha yonidagi bir bog‘da aylanib yurgan edi, chiroyli kapalakka ko‘zi tushdi. Kapalak juda go`zal edi. Karimjon uni tutib olmoqchi bo‘lib yugurdi. Kapalak guldan-gulga qo‘nib qochardi. Axiri, Karimjon do‘ppisini uning ustiga otib, tutib oldi. Bechora kapalak tutqun bo‘lib qoldi. Karimjon go‘zal kapalakni barmoqlari orasiga oldi, ammo u uchib yurgan vaqtdagidek emas, hamma go‘zalligini yo‘qotgan edi.

U yerdan o‘tib ketayotgan bir chol bobo Karimjonning qo‘lidagi kapalakni ko‘rib:

-O‘g‘lim, qo‘yib yubor, uchib ketsin. Uni yana bir oz qo‘lingda ushlab tursang, bechora o‘lib qoladi. Hayvonlar va parrandalarga ozor berma, – dedi.

Karimjon: “Xo‘p, bobojon!” – deb darrov kapalakni qo‘yib yubordi.

Karimjon endi ich-ichidan sevinardi, chunki ham chol boboning so‘zini qaytarmagandi, ham kapalakni ozod etgandi. U shu kundan boshlab hayvon va parrandalarga qo‘l tekkizmaydigan bo‘ldi.

1. Tanamizning biror yeriga qattiqroq bir narsa tegsa, o‘sha yerimiz og‘riydi, hayvon va parrandalar ham qattiq narsa tegishi bilan shunday og‘riqni tuyadilar.

2. Zararsiz hayvon, parrandalarga ozor berish yaxshi emas, ularga rahm-shafqat qilaylik.

3.Hayvon va parrandalarning ko‘pi odamlarga foyda yetkazadi.

Masalan: it qo‘riqlaydi, mushuk sichqonlarni, musicha va chumchuq kabi qushlar ekinlardagi zararli jonivorlarni bitiradi. Shuning uchun bunday foydali hayvon va parrandalarga qo‘limizdan kelgancha yaxshilik qilaylik.

Ma’lumki, ertaklarda “didaktika”, ibrat vositalari mujassamlashtiriladi. Ularda ifodalangan “uydirma”, hodisalarni oldindan ko‘ra bilishlik xususiyati ibratlidir. Asrlar osha sayqallashib, sodda va teran mazmunlari bilan bizgacha yetib kelgan ertaklar eng sevimli, eng jozibali xalq ijodidir. Ertaklarning badiiy kuchi - ularning xalq orzu-umidlari va turmush haqiqatlari bilan uyg‘unlikda, odamlar ruhiyatini o‘zida aks ettirishida, kattalarga ham, kichiklarga ham birday yoqimli, qiziqarli bo‘lishidadir.

Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ularda yilning to‘rt fasli, tabiat hodisalari, kishilarning xatti-harakatlari ham ifodalanadi. Bola ulg‘aygan sari uning xotira va tushunchasi ham rivojlanib boradi. Tashqi dunyo uning ko‘z oldida tobora kengayib boradi, bolalarda inson obrazlari tobora ravshanroq tushunila boshlaydi. Bolalarda asta-sekin aldoqchi, hiylakor kishilar, yaxshi xislatli, adolatli, vijdonli, shafqatli, rahmdil kishilar haqida fikr tug‘iladi. Buni chuqur his qilgan ota-onalar hayotiy voqea, inson obrazi afsonaviy ravishda tasvirlangan “Ur to‘qmoq”, “Ochil dasturxon”, “Uchar gilam”, “Qayna xumcha”, “Dehqon bilan ayiq”, “Zumrad va Qimmat” kabi ertaklar, “Qarg‘a bilan mushuk”, “Yolgonchi cho‘pon” kabi masalalar bolalarni yaxshi fazilat sohibi qilib tarbiyalashda, ularning shaxs sifatida yetishuvida muhim vosita bo‘lgan.

“Zumrad va Qimmat” ertagida, asosan, yaxshi axloqlilik xislati Zumradning yomon xulqlilik xislati Qimmatning hatti-harakatlari misolida ko‘rsatilgan.

Zumrad odobli, xushmuomalali, kamtar, mehnatsevar bo‘lgani uchun hatto sehrgar kampir mehriga, hurmatiga sazovor bo‘ladi, u bergan boylik bilan otasini ham xursand qildi, ota va bola baxtiyor hayotga erishdilar. Tabiat o‘z quchog‘ida uni ardoqladi.

Qimmat odobsizligi, ishyoqmas - dangasaligi, o‘jar va rahmsizligi, kattalarga nisbatan hurmatsizligi tufayli sehrgar kampir qahriga uchradi.

“Qarg‘a bilan mushuk” masalida bayon qilinishicha: Bir qarg‘a mushuk bilan juda do‘st bo‘ladi. Ular o‘rmondagi bir daraxt tagida har kuni shirin-shirin suhbatlashib o‘tirardilar. Bir kuni mana shunday suhbatlashib o‘tirgan paytlarida uzoqdan bir qoplonning o‘zlari tomoniga qarab kelayotganini ko‘rib qoladilar. Qarg‘a pir etib uchib barglar orasiga yashirindi, mushuk zo‘r-bazo‘r daraxtning eng past shoxiga chiqib olib, qarg‘aga zorlanib: – Do‘stim, halokat ostidaman, sening yordamingga muhtojman, bir iloj qilib meni bu qo‘rqinchli ahvoldan qutqar, – dedi. O‘sha daraxtga yaqin yerda cho‘ponlar yurgan edilar. Qarg‘a uchib borib cho‘ponlarning itlaridan birining boshiga qanoti bilan urdi. Itlar qarg‘ani tutib olish uchun yugurdilar. Qarg‘a uchib borib yana bir yerga qo`ndi, itlar yana qarg‘ani quvib

ketdilar. Shunday qilib, qarg‘a ucha-ucha itlarni o‘sha daraxtning yoniga keltirdi. Qoplon daraxt tagida mushukni yeyishni mo‘ljallab turgan edi. Itlar qoplonni ko‘ra solib, birdan unga hujum qilishdi. Qoplon tumtaraqay bo‘lib qochdi, itlar uning orqasidan quvlab ketdi. Shunday qilib, qarg‘a o‘z do‘sti mushukni halokatdan qutqazdi.

Demak, har bir o‘g‘il va qiz yordamga muhtoj bo‘lgan do‘stiga yordam berib, uni tashvishdan qutqaradi. Do‘stga yordam bergan bola axloqli bola, chin do‘st hisoblanadi.

Qirq nasihatda insonni sevish, ardoqlash, qadrlash, e’zozlash, uning baxt-saodati uchun kurashish zarurligi kabilar qirq chilton nasihat-duo-olqishlarining asosiy mag‘zini tashkil etadi.

Ota bilan yashar ushbu bashorat,

Farzand uchun ota oltin imorat,
Yomon bo‘lsa hamki ota ulug‘dir,
Ketgan bo‘lsa qil qabrini ziyorat.

Ona ko‘rsatadi jahon yuzini
Oltinga bit har bir aytgan so‘zini.
Birisi oy bo‘lsa, biridir quyosh,
Tavob ayla bosib ketgan izini.

Osmonga tosh otsang boshingga tushar,
O‘limtik qushni ko‘r masliqni tishlar.
Bir mardning izidan kulib kamsitma,
Qo‘lingdan kelarmi ul qilgan ishlar.

Mehnat bilan topsang moling qilar mast
Kishi moli bilsang yuqmas bir nafas.
Boshing eson davlatingni kam dema,
Xizmat qilgan rohat ko‘rmasdan qolmas.

Zilziladan chiqar tog‘ning nidosi,
Hech kishi bo‘lmasin g‘iybat fidosi.
Silaganman yobi bo‘lmas tulpor ot,
Maqtagandan nomard bo‘lmas aslo mard.

Demak, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi va uning asosiy manbalaridan inson ma’naviy ustuvorligi, iymon-e’tiqodining butunligi, vatanparvarlik, do‘st-birodarlik, yaxshilik, ezgulik, ahillik, qadr-qimmati va sha’nini ulug‘lovchi sahifalari rang-barangdir. Bu sahifalarning har biri Odobnoma, Ibratnoma deb baholanishga tamomila haqlidir.

Hozirgi zamon ta’lim-tarbiyasi, istiqlol mafkurasi ana shu merosdan oziqlansa, uning eng yaxshi sahifalarini, qoidalarini qabul qilsa, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad-vazifalarini sharaf bilan bajarishi mumkin.

Adabiyotlar

1. O`zbek xalq og`zaki ijodi namunalari. – Toshkent, 2008.
2. Safarova N. O`zbek bolalar o`yin folklori. – Toshkent, 2005.



Nilufar SAIDOVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
boshlang`ich ta'lim kafedrasi o`qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MATEMATIKADAN O'QUV MATERIALINI O'ZLASHTIRISH DARAJASINI O'RGANISH

Maqolada boshlang'ich sinflar uchun matematikadan taqdim qilinadigan didaktik materiallarni murakkabligi bo'yicha tabaqalashtirib, ularni muayyan tizim asosida taqdim qilinishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malaka egallashlarida muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: *matematik bilim, o`qitish metodlari, o`quvchi, rivojlantiruvchi o`qitish, pedagogik maqsad, metodik yordam, o`quv materiali, yangi avlod darsliklari.*

В статье изучены определения уровня усвоения математических знаний в начальных классах и методический анализ формирования всесторонне развитого человека в обществе.

Опорные понятия*: математическое знание, методы обучения, ученик, развивающее обучение, педагогическая цель, методическая помощь, учебный материал, учебники нового поколения.*

In article is studied the definitions of mastering knowledge level in Mathematicsfor the initial classes and the methodical analysis to form the comprehensively developed person in society.

Supporting concepts: *mathematical knowledge, teaching methods, pupil, developmental instruction, pedagogical goal, methodological assistance, educational material, textbooks of new generation.*

Boshlang'ich sinflar uchun matematikadan taqdim qilinadigan didaktik materiallarni murakkabligi bo'yicha tabaqalashtirib, ularni muayyan tizim asosida taqdim qilinishi o'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarni egallashlarida muhim ahamiyat kasb etadi. "Amaliyotda o'qituvchilarning ko'pincha biror topshiriqning variantlardan biri boshqalaridan soddaroq yoki murakkabroq deb aytish, bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik san'atkorona tuzilgan bo'lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida nechog'lik chuqur g'oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni juda tez hal etishga qodir emas" [2].

Bugungi kunda respublikadagi har bir o'quv dargohi o'zining ta'lim tizimini mukammallashtirishga harakat qilmoqda. Yangi avlod darsliklarining yaratilishi, turli yo'nalishlardagi nazoratlar, ta'lim jarayonida faol o'qitish metodlaridan foydalanish va boshqa shu kabi tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday ish uslubi joriy etilganda ham, o'quvchi shaxsi, uning bilimga intilishi, mustaqil mushohada qilishi, ijodiy fikrlash imkoniyatlari asosiy muammo bo'lib qolaveradi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy qobiliyat rivojlantiruvchi o'qitish asosida ham shakllantirilishini tajriba ko'rsatmoqda. "Bolalarning qanaqa tug'ilishi bu hech kimga bog'liq emas, lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi, yuqori darajaga erishishi, o'ziga yoqqan mashg'ulot bilan shug'ullanishi va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z hayotini munosib o'tkazishi, maktabga bog'liqdir", – deb ta'kidlaydi A.Munavvarov. Bugungi kunda gumanistik pedagogika uni maktabdagi munosabatlar markaziga qo'yishni va kerakligicha rivojlana olishi uchun hamma ishni bajarishni talab qiladi.

Insonparvarlik pedagogikasi asosida tashkil qilingan mashg'ulotlar o'z navbatida kichik maktab yoshidagi bolaning aqliy qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Uning natijasida:

-mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi shaxsda har qanday hayotiy va o'quv vaziyatlarida asosli qarorni qabul qila olishga zamin yaratiladi;

-o'quv tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli qayta yo'naltirishga erishish uchun kerakli tashkiliy shart-sharoitlar yaratiladi;

-bilim o'zlashtirish jarayoni intensivlashadi va hokazo.

Innovatika muammolariga murojaat etish va ularni muhim zamonaviy ilmiy fikrlash yo'nalishlariga qo'shish jamiyatda ijodiy faollik dinamikasining o'sishiga turtki bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar jamoasida matematik bilimlarni o'zlashtirishni aniqlash va tahlil qilish metodik jihatdan to'g'ri yo'naltirilganda jamiyatning komil insonga xos bo'lgan fazilatlarni tarkib toptirishda ijobiy samaralarga erishish mumkin. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V. Petrovskiy, B.M. Teplov, V.A. Krutetskiylar o'quv

faoliyati ta'sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his-tuyg'usi kabi jarayonlar rivojlanishini tadqiq etishib, boshlang'ich sinf o'quvchisining mayl va intilishlari bilish va ijodiy qobiliyatlari, iste'dodlarini shakllantirish muammolariga borib taqalishini ta'kidlashgan.

Z. Qurbonova fikricha: "... o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi tushunchasining umumiyligi va murakkabligi sababli o'zlashtirish darajalari har birining mazmunini faqat sxematik tavsiflash mumkin.

Ikkinchidan, sanab o'tilgan darajalarning har biri boshqa darajalarning elementlarini o'z ichiga oladi. Masalan, asliga tiklash darajasi berilgan materialni ma'lum chegaralarda tushunishni taqozo etadi; materiallarni tushunish mazkur bilim va malakalarni hech bo'lmaganda ancha cheklangan nostandart holatlar to'plamiga ko'chirish imkonini beradi".

Ma'lumki, boshlang'ich sinflarda standart va nostandart masalalar tushunchalaridan foydalaniladi. Boshlang'ich sinflarda standart masalalar deyilganda bevosita yangi materialni o'zlashtirish uchun yechiladigan tipik masalalar tushuniladi. Shu sababli, "standart masala" atamasi biror masalaga nisbatan, bunday tipdagi masalalar yangi mavzuni o'rganishda yechilgan-yechilmaganligini bog'liq ravishda qo'llanishi mumkin. Yangi to'plangan bilimlarni rivojlantirishni talab etadigan yangi turdagi masala nostandart masala deb ataladi [3]. Mazkur tipdagi masalalardan ko'plab yechish, ularning yechish usulini o'zlashtirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan ish olib borish nostandart masalani standart masalaga o'tkazadi. Agar mazkur masalalar ular ustida ma'lum ish olib borilganidan so'ng standart masalaga aylangan bo'lsa, boshqa sinf va o'quvchi uchun o'zlashtirishning quyiroq darajasiga mos kelishi mumkin. Shu sababli, o'quv materiallarini o'zlashtirishni tekshirish uchun beriladigan topshiriqlar turli o'qituvchilar o'qitadigan sinflar uchun farq qilishi mumkin.

Sanoqni o'rganish, qo'shish va ko'paytirishni birinchi bosqichida o'rgatish, boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi bo'lib kelgan. Biroq bu vazifa yagona bo'lmasdan, balki o'quvchilarni matematikani o'rganishga yanada kengroq va har tomonlama tayyorlash ishining tarkibiy qismi bo'ladi. U ikki asosiy yo'l bilan belgilanadi: pedagogik yo'l, ya'ni o'quvchilar fikrlashida qo'llaniladigan matematik mulohazalarga tayyorlash va matematika yo'li, ya'ni o'quvchilarni eng muhim matematik tushunchalarni, eng avvalo, natural son va geometrik shakl tushunchalarini o'rganishga tayyorlash.

O'quvchilarni matematikani o'rganishga tayyorlashda ishni nimadan boshlash yangicha yechim topishni taqozo etadi.

Boshlang'ich matematika kursi, bir tomondan, o'quvchilarning bilimlaridan turli sohalarda foydalanishga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan zaruriy metodologik tasavvurlar va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchining bilim o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun bir qancha matematik misollar berilganda aniqlash osondek tuyuladi, ammo bilimni ko'nikmaga, ko'nikmani esa malakaga aylantirish uchun zarur bo'ladigan tizim ancha murakkabdir. Masalan, 3-sinfda o'quvchilarga taqdim qilinadigan quyidagi masala o'quvchilarni nafaqat operativ o'ylashga, balki ularni mantiqiy mushohada yuritishga ham undaydi: "Yosh kuch" jurnalining narxi 835 so'm. Jurnalning bir yilda chiqadigan sonlari qancha so'm turadi?

Mazkur topshiriq standartlaridan farq qiladi. Uni standart ko'rinishga keltirish uchun o'quvchilar ma'lum tipdagi masalani yechishlari zarur.

Qo'shishga doir misollarni ko'paytirish amali bo'lgan misollar bilan almashtiring:

2+2+2+2+3; 2+3+3+2.

Ushbu masala uchun ko'paytirish amalidan foydalaniladigan topshiriq yozing: "Xalq so'zi" gazetasi 100 so'm yoki 125 so'm turadi. Agar haftaning dushanba kunidan tashqari gazetaning narxi 150 so'm bo'lsa, bu gazetaning bir haftada bahosi qancha turadi?

Bu topshiriqlar ham ilgaridan ma'lum bo'lgan masalalarni yechish yo'li bilan standart masalalarga keltiriladi: o'quvchilar ikkitadan ortiq qo'shiluvchilarga ega bo'lgan yig'indilarga ko'p marta duch kelganlar va qo'shiluvchilarnig uruhlashni biladilar. Masalan, boshlang'ich sinfda taqdim qilinadigan tipik masalalarga murojaat etaylik:

Quyidagilarni ko'paytirish amali bo'lgan misollarga aylantiring?

1) a+a+a+a; 2) a+b+b+a.

O'quvchilar qo'shiluvchilari o'zgaruvchilar orqali ifodalangan yig'indilar bilan tanishadilar. Demak, bilim o'zlashtirilishining mazkur darajasi uchun topshiriqlar keltirishni davom ettirish mumkin edi. Lekin to'rt topshiriq bir-biridan murakkabligi bo'yicha farq qiladi. Eng yuqori o'zlashtirish darajasi uchun topshiriqlar tushunish darajasi kabi nostandart bo'lishi lozim. Biroq ularni bajarish uchun ilgari olingan bilimlardan foydalanish yetarli emas. Ulardan ba'zi natijalarni mustaqil hosil qilish lozim. Bunday topshiriqlarni

tuzish uchun quyidagilarga asoslanamiz.: standart masala sonlar bilan ifodalangan qo‘shiluvchilardan iborat chekli yig‘indidir. Bunday masalani standart ko‘rinishda yo qo‘shiluvchilarni o‘quvchilarga noodatiy shaklda ifodalash hisobiga yoki qo‘shiluvchilar sonini noodatiy berish bilan, standart ifodani nostandart matnli masala yordamida berish bilan almashtirish mumkin.

Ma’lumki, har bir dars DTSda ko‘rsatilgan talablar asosida tashkil etiladi. O‘qituvchi mavzu bo‘yicha rejalashtirish asosida har bir darsga ish reja tuzadi. Maktabda o‘quv materialini rejalashtirish yillik, yarim yillik, choraklar bo‘yicha amalga oshiriladi. Bir yilga mo‘ljallangan o‘quv materiallarining hajmi va mazmuni o‘quv dasturi bilan belgilanadi. Dasturda har bir sinf uchun bo‘limlar, mavzular ko‘rsatiladi. Bu mavzularning mazmuni o‘quvchilar egallashlari lozim bo‘lgan bilim, o‘quv va malakalar ro‘yxati orqali ochib beriladi. Dasturda har bir mavzuni o‘rganish uchun soatlar soni ko‘zda tutilgan. Boshlang‘ich sinflar uchun matematika dasturlariga tushuntirish xatida vaqtni bunday taqsimlanishi taxminiy ekanligi ko‘rsatilgan. Biroq o‘qituvchi biror sababga ko‘ra, bu vaqtni qayta taqsimlaydigan bo‘lsa, kiritilgan o‘zlashtirishlar o‘quvchilarning qolgan mavzu materiallini o‘zlashtirishining pasayishiga olib kelmasligi lozim. Dastur bu davlat hujjatidir, shu sababli unga kiritilgan masalalar ko‘zda tutilgan hajmda va tegishli o‘quv yillarida o‘zlashtirilishi kerak. Ayrim mavzular doirasida materialni o‘rganish tartibi o‘zgartirilishi mumkin.

Boshlang‘ich sinflar uchun matematika dasturlarining xususiyati shundan iboratki, bir mavzu doirasida turlicha xarakterdagi arifmetik, algebraik va geometrik material mujassamlashgan. Bular bilan birga turli kattaliklar ham o‘rganiladi. Dasturda asosan geometrik material, masalan, arifmetik material bilan yonmayon emas, balki u bilan bog‘lab o‘rganilishi ko‘zda tutilgan. Bog‘lab o‘rganish arifmetik va geometrik materialning yaxshiroqo‘zlashtirishigayordamberadi. Bu algebraik materialga ham xosdir. Masalan, 1-sinfda “qo‘shish va ayrish” amallarini o‘zlashtirish birinchi o‘nlik sonlari to‘plamida ham, kesimlar to‘plamida ham ko‘zda tutilgan; “Yuzlik” bo‘limida yuz ichida sonlarni raqamlash bilan birga uzunlik o‘lchovlari qiymati o‘rganiladi.

1- va 2-sinf dasturlarida bilimlarni mustahkamlash va tekshirish uchun maxsus vaqt hamda o‘rin ajratilmagan. Bu vazifalarni hal etish o‘quvchi zimmasiga yuklangan. 1-4-sinflar uchun darsliklarda yillik dastur materiali darslarga bo‘lingan. 1-sinfda har bir darsga darslikning bir sahifasi mazmuni mos keladi. Faqat ikkinchi yarim yillikda qonuniyat buziladi va ayrim darslar uchun material “qo‘ng‘iroqcha yoki maxsus belgi yordami” bilan ajratiladi. 2-sinf darsligida ham ayrim darslarning materiali qo‘ng‘iroqcha bilan ajratilgan. 3-4- sinflar darsligida ham shunday qilingan.

O‘qituvchilar uchun darslar bo‘yicha rejalashtirish muammosi ham hal etiladi. Deyarli keyingi paytda chiqayotgan o‘quv adabiyotlaridayoq o‘quv materialining choraklar va darslar bo‘yicha taqsimoti berilgan, ayrim mavzularni o‘rganishga ajratilgan vaqt ko‘rsatilgan, maxsus mustahkamlash, takrorlash va nazorat darslari ajratilgan. O‘qituvchi darsdagi ishni maqbul chegaralarda, mustaqil, shaxsiy tajribasi va o‘z sinfining xususiyatlarini hisobga olib rejalashtirishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilimlarni o‘zlashtirish darajasini o‘rganish uchun maktabdagi amaliy ish tajribasidan tashqari ma’lum metodik tayyorgarlik ham kerak. Uni xususan, quyidagicha amalga oshirish mumkin.

Eng avvalo, tashxislash mazmuni, o‘quvchining individual bilim o‘zlashtirish darajasi va o‘rganilayotgan obyekt to‘g‘risida aniq ma’lumotga ega bo‘lish demakdir.

Tahlil quyidagicha yo‘nalishlarda o‘tkazilishi mumkin:

1) mazkur bo‘limga tegishli mavzular kiritilish sabablarini aniqlash;

2) dastur tuzuvchilar biror mavzuga tegishli masalalarni kiritishda nimalarga amal qilganliklarini aniqlash; mavzuning ayrim bandlari o‘zaro qanday bog‘langanligi, qaysi masalalar mazkur mavzu doirasida ajralib qolganligi va nima uchun ular ayni shu mavzuga kiritilganligini aniqlash;

3) dasturning boshlang‘ich maktab doirasida ayrim masalalarini o‘rganishdagi bog‘lanishni ochib berish; boshlang‘ich sinflarning mavzularidan qaysilari yuqori sifatlarda yuqoriroq darajada o‘rganilishini aniqlash. Yuqori sinfda arifmetik va geometrik progressiyalar, ketma-ketlik, matematik induksiya qonuniyatlari, minimum, maksimumga oid masalalar ildizi boshlang‘ich sinflarda mavjudligini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim.

Matematika darsliklarida dastur materialini o‘rganishning mumkin bo‘lgan metodik konsepsiyalaridan biri amalga oshiriladi. U materialning darslar bo‘yicha taqsimotida ham o‘z aksini topgan. Materialni ayni shunday taqsimlanish tamoyilini tushunish mazkur darsliklar bo‘yicha ishlash shartlaridan biridir. Bunday tushunish quyidagi ishning natijasi bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi uchun qo‘llanmada berilgan darslarni taxminiy rejalashtirish bilan tanishishdan oldin, dasturning u yoki bu masalasini o‘rganish uchun nechta darsni ajratish maqsadga muvofiq bo‘lishini dastur mazmuniga asoslanib aniqlashga harakat qilib ko‘rish kerak.

Shuningdek, dasturning har bir mavzusi o‘rganilganidan keyin o‘tkaziladigan nazorat ishlarining taxminiy mazmunini belgilash va tegishli tushuntirishni berish; dasturning har bir mavzusidagi qaysi material mustahkamlash uchun qo‘shimcha ishlashni talab etishini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bu topshiriqlar bajarib bo‘linganidan keyin olingan natijalarni qo‘llanmada keltirilgan darslar bo‘yicha taqsimoti bilan taqqoslab ko‘rish qiziqarli. Masalan, matematikadan mashg‘ulotning maqsadi: darslikda tenglamalar va tengsizliklar bilan bog‘liq materialning mazmuni bilan tanishish, materialni didaktik tahlil etish uquvini rivojlantirish bo‘lsin, deb hisoblaylik. Unda o‘qituvchi dars rejasini quyidagicha tuzishi maqsadga muvofiq:

1. Sonli tengsizliklar, tenglik va tenglamalar bilan bog‘liq materialning umumiy tasnifi.

2. “Tenglama”, “tenglik”, “tengsizlik” tushunchalari shakllantirish bo‘yicha dastlabki qadamlar.

3. Tenglamalarning ba’zi turlari ustidagi ishning didaktik xususiyatlari, ularni yechish usullarini tushuntirish.

4. Masalalarni yechishda algoritmlar tatbig‘i.

Jihozlar: jadvallar, sxemalar, kodoskop.

Mashg‘ulotga tayyorlanish uchun ko‘rsatmalar: kitob bo‘yicha javob tayyorlang, topshiriqlarni bajaring.

1. Quyidagi algoritm bo‘yicha jadvalni to‘ldiring.

2. Hisoblang: 10+2+8; 12+14+22

Uzunlik birliklari orasida quyidagi munosabat mavjud:

1 kilometrda necha detsimetr, santimetr, millimetr bor?

1 metrda necha detsimetr, santimetr, millimetr bor?

1 santimetrda necha millimetr bor?

5. Amallarni bajaring: 33+77; 45-35;50+25; 78-34

6. Massa birliklari orasida quyidagi munosabat mavjud:

7. Darslikdan “katta”, “kichik”, “teng” munosabatlari nooshkor foydalaniladigan sahifalarini belgilang.

8. Darslikdan “katta”, “kichik”, “teng” munosabatlari belgilari kiritiladigan sahifalarini ko‘rsating. Sonli tengliklar bilan duch keladigan topshiriqlarning har xil turlarini sanab bering.

9. Ifodalarni taqqoslash ustida ishning ketma-ketligini tuzing.

10. Tenglik tushunchasiga olib keladigan topshiriqlarning turlarini sanab bering. Bu topshiriqlar qanday va nima asosida bajariladi?

11. x+5=6, 3+x=8 tenglamalarning yechilishini daftaringizga yozing. Tahlil qiling. Demak, ishni ushbu uslubda tashkil qilish o‘qituvchidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilim o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga, aqliy qobiliyatlarini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishga undaydi.

Matematik ta’lim jarayonini optimallashtirish va mazmunini boyitishda pedagogik imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishni yanada kuchaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- doimiy ravishda yangi tajribalarni o‘rganish, umumlashtirish va ularni hayotga keng tatbiq etish;
- to‘plangan ilmiy bilimlardan, pedagogik tajribalardan oqilona foydalanish;
- umumiy ta’lim maktablarida matematikaga oid bilimlarni oshirish uchun maxsus to‘garaklar tashkil etishga alohida ahamiyat berish;
- o‘sib kelayotgan yosh avlodga erkin fikr bildirish, mantiqiy mushohada qilish ko‘nikmalarini singdirish ta’lim-tarbiyaning samarali amalga oshishi garovidir.

Maktabda o‘qitiladigan har bir fanning, shu jumladan matematikaning o‘ziga xos pedagogik ahamiyati va imkoniyatlari bor. Ana shu imkoniyatlardan o‘z o‘rnida to‘g‘ri foydalanish o‘qituvchining bilim, tajriba, mahorati va ijodkorona izlanishiga bog‘liq.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – 53 b.

2. Jumayev M. E., Jumayev E. E., Adilxanova N. A. Matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent.: Ilm Ziyo, 2003.– 232 b.

3. Jumayev M.E., Z.G. Tadjiyeva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2005. – 311 b.



Нурзода ТОШЕВА
Бухоро давлат университети
бошланғич таълим кафедраси
катта ўқитувчиси

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БИЛИШ ФАОЛИЯТЛАРИНИ ЖАДАЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК АСОСЛАРИ

Мақолада бошланғич синф ўқувчиларини билиш фаолятини ривожлантириш имконияти ва кейинги босқичларда замин ярата олиши, ўқувчи билиш фаолиятининг асосий субъекти сифатида намоён бўлиши таҳлил қилинган.

Таянч тушунчалар: *бошланғич таълим, ўқувчининг билиш фаолияти, ўқитувчи фаолияти, педагогик технологиялар, субъект, таълим жараёни, билиш имкониятлари, ўқув вазияти, дидактик ёндашувлар, психологик ёндашув, психологик-педагогик хусусиятлар.*

В данной статье отражены возможности развития познавательной деятельности учеников начальной школы, дан анализ процесса развития данной деятельности учащихся, определены его основные педагогические направления.

Опорные понятия: *начальное обучение, познавательная деятельность ученика, деятельность учителя, педагогические технологии, субъект, процесс обучения, возможности познания, учебная ситуация, дидактический подход, психологический подход, психолого-педагогические свойства.*

In this article is reflected the possibilities for development of the cognitive activity for primary school pupils, analyzes the development of students activity and determines its main pedagogical directions.

Supporting concepts: *initial training, cognitive activity of the student, teacher's activity, pedagogical technologies, subject and learning process, learning opportunities, educational situation, didactic approach, psychological approach, psychological and pedagogical peculiarities.*

Таълим жараёнида ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини жадаллаштириш масаласи – бугунги кунда таълим жараёнининг муҳим муаммоларидан биридир. Унинг долзарблиги инновацион ғояларни, методик усуллар ва воситаларни излаш, ишлаб чиқиш ва амалиётга тадбиқ этиш зарурияти билан белгиланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сон Фармонида кўзда тутилган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясининг “Ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишлари” бўйича узлуксиз таълим тизимини янада такомиллаштириш, сифатли таълим хизматлари имкониятларини ошириш, меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатини давом эттириш алоҳида долзарблик касб этмоқда. Ушбу ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш, таълим жараёнида бошланғич синф ўқувчиларининг билиш фаолиятларини ривожлантиришнинг методологик асоси ҳисобланади.

Ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини жадаллаштириш муаммосини ечиш учун ўқув материалларининг назарийлик даражасини кучайтириш билан бир қаторда, ўқувчиларга компетенциявий ёндашувлар асосида билиш методларини изчил тарзда ўргатишни талаб қилади. Бу талаблар муайян ўқув вазиятларида амалга ошириш, ўқувчиларни билиш ҳаётий кўникмаларини шакллантириш, тафаккурининг ривожланиш, билишга асосланган бошқа руҳий ҳолатларга таъсир кўрсатадиган инновацион методлар ва усулларни излаб топиш ва тадбиқ этиш вазиятини юзага келтиради. Бунинг натижасида ўқувчиларда шахсга ёндашув, билим, кўникма ва малакаларнинг ҳаётга қўллай олиш фаолияти шакллантирилади. Шахсга йўналтирилган таълим жараёнида ўқувчиларда мантиқий ҳамда танқидий тафаккурга алоҳида эътибор қаратилади. Чунки ўқувчиларнинг мантиқий ҳамда танқидий тафаккурлари билиш фаолиятини жадаллигини ва ҳаётий кўникмасини таъминлаш имконини беради. Бунинг натижасида ўқувчилар муайян ўқув вазиятларида ўқув материалларини муваф-

фақиятли ўзлаштириш имкониятига эга бўладилар. Бу эса, уларнинг ақлий ривожланишларини жадаллаштириб, ўзлаштириш имкониятларини кенгайтиришга асос бўлади.

“Бошланғич таълим концепцияси”, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелда қабул қилинган 187-сонли “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги Қарори ҳамда бошланғич таълим учун ўқув дастурлари ва ўқув-методик мажмуаларда ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини ривожлантириш имкониятларини кенгайтиришга алоҳида эътибор қаратилган.

Бугунги кунда ривожланган мамлакатларнинг тажрибасини ўрганиш ва таълим тизимига жорий этиш мақбул йўллардан биридир. Бошланғич таълим мазмунини такомиллаштиришда, айниқса, ўқувчиларнинг таянч компетенцияларини ва фанга оид компетенцияларини ривожлантиришда инновацион усуллардан фойдаланиш, бошланғич синф ўқитувчисининг касб маҳоратини ривожлантиришга оид халқаро тажрибалардан фойдаланиш зарурияти кучаймоқда.

Жумладан, Австрияда ўқувчиларнинг билиш фаолиятини индивидуал ривожлантиришга асосланган дастурлар мавжуд. Германияда иқтидорли бошланғич синф ўқувчиларини ривожлантиришга йўналтирилган “Немис мактаб академияси” номли ёзги таълим дастури амал қилади. Мазкур академиянинг асосий мақсади иқтидорли ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини самарали ривожланишини таъминлашдан иборат. Уларнинг ўз тенгдошлари билан мулоқот қилишларини таъминлаш, юқори даражадаги майлларни ҳосил қилиш, интеллектуал қувватларини муайян мақсадга йўналтириш мазкур академиянинг асосий вазифаларидан ҳисобланади. АҚШ, Германия, Франция, Англия каби давлатларда чуқурлаштирилган мактаблар ва синфларда ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилади. Бу хорижий тажрибалардан таълим жараёнида фойдаланиш ҳамда ўқитувчилар фаолиятини янгича ёндашувлар асосида такомиллаштириб бориш, замонавий таълимни ташкил этишнинг асосий омилларидан биридир.

Замонавий таълим жараёнида асосий эътибор ўқувчиларнинг муайян фаолиятга йўналтирилганлиги ва ўз эҳтиёжларини қондириш имкониятларига қаратилади. Билиш фаолиятига муносабат ҳақида фикр юритар эканмиз, бу ўқувчиларда билиш майллари, унга эришиш йўллари, ахборотлардан фойдаланиш, ақлий фаолият кўникмаларининг шаклланишида намоён бўлади. Бу, ўз навбатида, маҳсулдор ўқув-билув фаолиятининг вужудга келишини таъминлайди. Фаолиятнинг натижавийлиги ўқувчиларда ижобий кечинмалар, ҳис-туйғулар, юқори даражадаги билиш қизиқишларини уйғотиб, уларни истиқболдаги билиш фаолиятига йўналтиради. Бу борада бошланғич таълим жараёнида фанларни ўқитишда бошланғич синф ўқувчиларида таянч ва фанга оид компетенцияларнинг шакллантирилиши белгилаб берилган. Ҳар бир ўқитиладиган фанларда таянч ва фанга оид компетенцияларни шакллантириш масаласи мақсад қилиб олинган. Она тили фанини ўқитиш мисолида кўриб чиқсак, бошланғич синф ўқувчиларида қуйидаги таянч компетенция элементлари шакллантириш таъкидланган:

-*ахборотлар билан ишлаш компетенцияси* ахборот коммуникацион технологиялар орқали ҳамда турли манбалардан керакли маълумотларни излаб топиш ва фойдалана олиш кўникмаларини;

-*ўзини-ўзи ривожлантириш компетенцияси* оғзаки ва ёзма нутқни такомиллаштириш, ўз фикрини баён қила олиш, мустақил ўқиш, ўзини назорат қила олиш кўникмаларини шакллантириш ҳамда соғлом турмуш тарзи, қадриятларимизни сингдириш кабилар**;**

-*ижтимоий фаол фуқаролик компетенцияси*, давлатимизга ва Ватаримизга хизмат қилиш, ҳуқуқ ва бурчларимизни англаш, ҳимоя қилиш, асраб авайлаш, фаол фуқаролик позиясига эга бўлиш;

-*миллий ва умуммаданий компетенцияси* яшаб турган маҳалла ва фуқароларига ҳурмат-иззат, унинг хар бир қарич ерини ва тарихий обидаларини асраб-авайлаш, мустақиллигимизни қадрлай олиш;

-*математик саводхонлик, фан ва техника янгиликларидан хабардор бўлиш ҳамда фойдаланиш компетенцияси* математиканинг дастлабки тушунчаларига эга бўлиш, иқтисодий билимлардан кундалик фаолиятида фойдаланиш, режали кун тартибига амал қилиш кабиларни шакллантирилиши кўзда тутилган бўлса, Фан компетенцияларида – жумладан, она тили фанини ўқитишда *нутқий* (*тинглаб тушуниш, сўзлаш, ўқиш, ёзиш*) *ва лингвистик* (*фонетика, графика, орфоэпия, орфография, лексика, грамматика ва услубиятга оид*) компетенциялар мақсад қилиб олинган.

Бошланғич синф ўқувчиларининг нутқини ривожлантириш учун она тилининг сўз бойлиги билан ўқувчиларни таништириш вазифаси муҳим аҳамият касб этади. Ўқувчиларнинг нутқий тафаккурини шакллантириш учун дастлаб, ўқувчилар олдига муаммоли саволлар қўйиш лозим. Мазкур саволлар ёрдамида эса, муаммоли вазиятларни вужудга келтириш керак. Бундай вазиятлар ўқув топ-

ширифини бажариш зарурияти ва бу вазифани ўқувчиларнинг мавжуд билимлари ва кўникмалари ёрдамида бажариш имконсизлиги натижасида вужудга келади. Мазкур номувофиқликни англаш натижаси сифатида ўқувчининг билиш майллари намоён бўлади. Бу эса ўз навбатида ўқувчиларни янги билимлар ва ахборотларни ўзлаштиришга ундайди. Улар муаммоли саволларга жавоб топишнинг усуллари ва воситаларини излай бошлайдилар.

Муаммоли вазиятлар она тили дарсларида ўқувчилар билиш фаолиятини жадаллаштирувчи восита сифатида муҳим дидактик аҳамиятга эга. Ўқитувчиларни безовта қиладиган муаммолардан бири – ўқувчиларда қандай қилиб ўқишга бўлган барқарор қизиқиш, билимларни ўзлаштиришга ва мустақил излашга бўлган эҳтиёжни таркиб топтиришнинг самарали усулларни топишдир. Муаммоли ўқув вазиятлари ўқув фаолияти билан боғлиқ вазифаларни ечишни тақозо қилади. Бу жараёнда ўқувчи билиш фаолиятининг субъекти сифатида ҳаракат қилади.

Муаммоли вазиятлар ўқув-билув фаолиятини ҳаракатлантирувчи куч сифатида намоён бўлади. Муаммоли вазиятларда ўқувчи зиддиятларга қарама-қарши қўйилиб, билиш қийинчиликларини ечишга ундалади ва мазкур вазиятдан чиқиш учун мустақил ҳаракатланиш йўлини излайди. Кичик мактаб ёшидаги ўқувчилар катта ёшдаги ўқувчиларга нисбатан бир қатор афзалликларга эга бўладилар. Шунинг учун ҳам, кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг ижодий қувватларини ривожлантириш бир мунча қулай ҳисобланади. Улар онгини мавжуд қолиплардан халос қилиш осон кечади. Шунинг учун ҳам ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини ривожлантиришда муаммоли вазиятлардан фойдаланиш уларни ривожлантиришда самарадорликка эришиш имконини беради.

Амалга оширилган кузатишлар натижалари шуни кўрсатдики, муаммоли вазиятни қўллагандан кейин ўқувчиларнинг билиш фаолиятлари сезиларли даражада жадаллашди. Берилган топшириқларнинг ечимларини мустақил излаш имкониятлари кенгайди, билишга нисбатан ички майллар кучайди.

Ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини ривожлантиришнинг зарур шарти – муайян ўқув вазиятларида ўзларини мустақил бошқаришлари бўлиб, бу уларнинг ўз хулқ-атворларини бошқаришларида яққол акс этади. Фаолият характери ва амалга ошириш таянч компетенциялар кўрсатиб ўтилган. Зеро, ўқув фаолиятининг шаклланганлиги – ўқувчи хулқ-атворининг мустақил бошқарилиши, ўз руҳий ҳолатлари, ўқув майлларининг барқарорлиги, ўзаро тенг келадиган усуллар ёрдамида ўқувчиларга ўз билиш фаолиятларини амалга ошириш имконини беради. Ўқувчиларнинг ўқув жараёни субъекти сифатида шаклланишлари уларда мотивацияни таркиб топтирмасдан амалга ошириш мумкин эмас. Биринчи навбатда тафаккур, ўз-ўзини назорат қилиши, ўз-ўзини баҳолаши ўқувчиларда ақлий фаолиятларини, тафаккурини шаклланганлиги-дан далолат беради.

Таълим маҳсулдорлигини, тафаккурни шакллантириш билиш фаоллигини оширади. Ўқувчиларнинг мустақиллигидан келиб чиққан ҳолда ўқув жараёнида улар фаоллигини таъминлашнинг уч йўналиши ажратилган:

- намунага асосланган тақлидий;
- изланувчиликка асосланган ижрочилик;
- ижодий билиш фаолияти.

Намунага асосланган тақлидий фаолият ҳаракатнинг тайёр намуналари асосида ҳосил бўлади. Ўқувчилар намуна орқали айнан бажаришга қиёсий тарзда ўқитувчи томонидан таклиф этилган муаммоли вазиятларни ечиш йўлларини мустақил тарзда излашга эришадилар. Бу фаолият эса, билиш фаолияти ҳосил бўлишининг юқори шакли сифатида берилган вазият доиарсидан ташқарига чиқишдан иборат бўлиб, муаммоларни ечишнинг янги, ўзига хос усулларини излаш, ўз хатти-ҳаракатларини мустақил бошқаришнинг юқори кўрсаткичларини намоён қилишга ундайди, мазкур даража шахсий фаолликни таъминлашага хизмат қилади.

Бугунги кунда дидактикага оид илғор ёндашувларда билиш фаолиятининг уч даражаси мавжудлиги эътироф этилмоқда. Таълим мазмунини ўзлаштириш жараёнини ташкил этиш. И.Я. Лернернинг таъкидлашича, билишнинг қуйидаги даражаларида амалга ошади: а) ўқув материалини онгли тарзда идрок этиш ва эсда сақлаш; б) намунага қараб фаолият усулларини хотирлаш; в) номаълум вазиятларда билим ва кўникмаларни ижодий қўллаш. В.П. Беспалько ўз навбатида билишнинг қайта ўзгартириш босқичида ўқув материалини қайта шакллантириш ва ўқувчилар томонидан мазкур материал устида танқидий фикрлаш, қарорлар қабул қилишнинг мақбул усулларини излаш, қиёслаш ва таққослаш, конспектлаштириш, маърузалар тайёрлар, рефератлар ёзиш кабилардан иборат. Билиш фаолиятининг уч даражасини ифодаловчи бошқа ёндашувлар ҳам мавжуд. Масалан, 1) бир қолипдаги, 2) жузъий ўзгартирилган, намунага асосланган, 3) маҳсулдор билиш фаолияти кабилар.

Билишнинг маҳсулдорлик даражасига мувофиқ тарзда тарихий, коммуникатив, мақбул ҳамда интеллектуал кўникмалар таркиб топтирилади.

Тил таълими жараёнида ўқувчи тафаккури ва нутқининг алоқадорлиги, мантиқий тафаккурнинг ривожланиши ҳамда нутқининг тараққиёти Р. Сафарова, Ҳ. Назароваларнинг илмий қарашларида ҳар томонлама асослаб берилган. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини жадаллаштириш уларни янги билимлар ва ахборотларни излашнинг зарур усуллари билан изчил қуроллантиришни назарда тутади. Бу, ўз навбатида, ўқувчиларга ижодий фаолият кўрсатиш даражасига эришиш имконини беради. Бунда ўқувчиларнинг ижодий тафаккурлари яққол намоён бўлади.

Ўқув вазиятини таҳлил қилиш учун ўқитувчи биринчи навбатда мазкур жараённи ҳар томонлама ўрганиши лозим. Ушбу ўқув вазиятлари биринчи навбатда бошланғич синф ўқувчиларининг билиш фаолиятларини самарали тарзда ривожлантиришга йўналтирилиши керак. Ўқув вазияти таҳлили натижалари истиқболда ўқитувчи фаолиятида ўқувчилар билиш фаолиятини ривожлантиришнинг турли вариантларини қўллаш имконини бериши керак. Ўқув вазиятларини таҳлил қилишнинг мураккаблиги шундаки, ўқитувчининг фаолияти муайян вақт доирасида амалга ошади. Чунки ўқув жараёнида ўқув вазияти учун маълум вақт ажратилади. Муайян ўқув вазияти олдига қўйилган вазифаларни ечиш учун сарфланадиган вақт ҳар доим ўқитувчилар томонидан чегараланади. Шунинг учун ҳам, белгилаб қўйилган вақт ичида ўқитувчи кучли босим остида фаолият кўрсатади. Ўқув вазиятини таҳлил қилиш жараёнида ўқитувчи қуйидагиларга амал қилиши лозим:

– ўқувчиларнинг ахборотларни ўзлаштиришга муносабатлари ва билимларининг мавжуд даражаси;
– ўқувчиларда мавжуд бўлган ўқув кўникмалари ва малакаларининг даражаси;
– ўқитувчи билан ўқувчиларнинг ўзаро ҳамкорликка кириша олиш даражаси;
– ўқитувчининг ўқувчилар билан ва ўқувчиларнинг ўзаро мулоқотга киришиш услублари;
– синфдаги ўқувчилар орасидаги ўзаро муносабат ва ҳамкорликнинг характери. Ушбу кўрсаткичларнинг барчаси ўқувчилар билиш фаолиятларининг ривожланишига муайян даражада таъсир кўрсатади, унинг ўқув жараёни ва атрофдагиларга бўлган муносабатини белгилайди.

Хулоса қилиб айтганда, ўқувчиларнинг билиш фаолиятларини ривожлантиришга йўналтирилган ўқув вазиятлари муайян принципларга асосланган ҳолда танланиб, уларни интеллектуал жиҳатдан ривожлантиришга йўналтирилади. Мазкур вазиятларда субъект-субъект муносабатлари устувор бўлиб, ўқувчилар билиш операцияларини мустақил, гуруҳли тарзда бажаришга ўқитувчи томонидан йўналтириладилар.

Адабиётлар

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармонида кўзда тутилган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси//http://lex.uz/docs/3107036.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6 апрелдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида”ги 187-сонли қарори// http://lex.uz/docs/3153714.

3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. – 488 б.

4. Абдуллаева Б.С., Сафарова Р.Г. , Баҳромов А. ва б. Бошланғич таълим концепцияси. – Т., 2015.

5. Сафарова Р., Неъматов Ш. ва б. Ўқув предметлари мазмунини аниқловчи асосий параметрлар. – Т.: Фан ва технология, 2011. – 159 б.



Bashorat JAMILOVA
Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim kafedrasi
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi



Yulduz PO`LATOVA
Buxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim kafedrasi
1-bosqich magistranti

BOSHLANG`ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI O`RGANISH VOSITALARI

Maqolada ona tili maktabda o`rganiladigan barcha fanlarni puxta o`zlashtirish uchun muhim poydevor ekanligi xisusida fikr bayon etilgan. O`quvchilarda yuksak nutq madaniyatini tarbiyalash nafaqat ona tili darslari, balki maktabda o`rganiladigan barcha fanlar orqali amalga oshiriladi.

Tayanch tushunchalar: *ona tili, boshlang'ich sinf, til, o'g'zaki va yozma nutq, bolalar she'rlari, o`quvchi, o`qituvchi, ona tili darslari.*

В статье излагаются размышления о важности изучения родного языка, фундаментом которого является изучение других дисциплин. Воспитание высокой речевой культуры учеников осуществляется не только на уроках родного языка, но и посредством других предметов изучаемых в школе.

Опорные понятия: *родной язык, начальный класс, устная и письменная речь, детские стихотворения, ученик, учитель, уроки родного языка.*

In article is reflected on the importance of studying the native language, the foundation thatstudies the other disciplines. Education of high speech culture of pupils are carried out not only during the lessons of the native language, alsoby means; theother subjects are studied at school.

Supporting concepts: *mother tongue, primary class, oral and written speech, children's poems, pupil, teacher, lessons of the native language.*

Bugungi kun ta'lim mazmuniga muvofiq o`quvchiga ta'lim jarayonida nazariy bilim asoslaridan foydalanish ijodiy faoliyat ko`rsatish, ya'ni ijodiy amaliy faoliyat uchungina zarur bo`ladi. Shu ma'noda, istiqlol davri bolalar she'riyati haqida so`z yuritganda uning mavzuviy rang-barangligi tobora boyib borayotganini ta'kidlash joiz. Jumladan, ona tilini o`rganishga da'vat etuvchi she'rlarning o`zi alohida yo`nalishni tashkil qilmoqda. Taniqli bolalar shoiri K.Turdiyevaning o`nlab she'rlari bevosita boshlang`ich sinf o`quvchilariga ona tili saboqlarini yanada mustahkamlash, o`rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shoira uzoq yillardan buyon shu fandan o`quvchi-talabalarga saboq berib kelayotgani sababli nazariy bilimga, metodik tajribaga ega. Ijodkor sifatida esa ana shu boy bilim asoslarini poetik talqin etish orqali bolalar adabiyotida Sulton Jo`ra boshlab bergan ma'rifiy-pedagogik she'rlar an'anasini davom ettirmoqda. Uning "O`zbek tili – tilimiz, unda so`zlar elimiz" deb nomlanuvchi turkum she'rlari fikrimizga asos bola oladi [1].

Agar XX asr boshlarida Mahmudxo`ja Behbudiy ikki emas to`rt tilni o`rganish zarurligini o`z vaqtida o`rinli qayd etgan bo`lsa, K. Turdiyeva bugungi zamondosh o`quvchilarga ko`p tillilikning yanada dolzarb ahamiyatini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, ona tilini o`qitish metodikasiga hamohang ayrim mavzular haqida yaxlit she'r bitilgan. Masalan: boshlang`ich sinflarda "Ot" so`z turkumini o`rgatish metodikasi haqida keng to`xtalib o`tilgan [3]. Unda otlardagi kelishik qo`shimchalarini o`rgatishda qu-yidagilarga e'tibor qaratish ayonlashadi. Kelishiklarni o`rgatishhda o`quvchilarning gapda so`zlarning bog`lanishini bilishlari haqidagi bilimlar nazarda tutiladi. Xususan, 4-sinfda "Ot" so`z turkumi bo`yi-cha ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan ongli foydalanish va kelishik qo`shimchalarini to`g`ri yozishga

o`rgatish muhim hisoblangan. Bunda otlarning kelishik qo`shimchalari bilan o`zgarishi–turlanish haqida tushuncha berish bilan o`quvchilarga kelishik qo`shimchalari gapda so`zlarni bog`lash uchun xizmat qilishi, o`zbek tilidagi otli kelishik, ularning nomi, so`roqlari, qo`shimchalari va joylashish tartibi tushuntiriladi. Binobarin, o`quvchilar turlanish bilan kelishiklarning mohiyatidan kelib chiqib, gapni tahlil qilish jarayonida tanishtiriladi, gapning asosi (ega va kesim) va so`z birikmalari ajratiladi. Ular gapda bir otning boshqa har xil so`zlar bilan shakl yasovchi qo`shimchlar (-ning, -ni, -ga, -da, -dan) yordamida bog`lanishini kuzatadilar hamda bu qo`shimchalar kelishik qo`shimchalari ekanini, otlarning kelishik qo`shimchalari bilan o`zgarishi turlanish deyilishini ham bilib oladilar. O`quvchilarga kelishiklarning joylashish tartibi, so`roqlari va bosh kelishikdan boshqa kelishiklarning aniq qo`shimchalari mavjudligi tanishtiriladi.

Bolalarning taniqli shoiri, adabiyotshunos olima K.Turdiyeva esa ona tilini o`qitish metodikasiga hamohang ayrim mavzular haqida yaxlit she'r yaratgan. Uning"Kelishiklarda turlanish" deb nomlangan she'ri boshlang`ich sinf o`quvchilariga "Ot" so`z turkumini yanada mustahkamlash, chuqurroq o`rganishda muhim rol o`ynaydi:

Sinfda kelishikni
O'tardi ustoz
Omonvoy yana darsga
Kechikdi bir oz.
"Azizlar!" – dedi ustoz
U tomon qarab.
Omon darsga kechikdi:
Mana – bitta gap.
Qay kelishikda bo'lar
Bu yerda Omon?
"Bosh kelishik" der hamma
Qarab u tomon.
Endi-chi Omon bilan
Tuzing ko'plab gap.
Uni kelishiklarda
Chiqinglar turlab.
Nor der: – Aytsak,
Omonning bu ishi yomon.
Qaratqich kelishikda
Keladi Omon.
Omonni jazoladik – deydi Norxo'roz,
Tushum, tushum der hamma
Bo'lib jo'rovoz.
Omonga bu jazo kam –
Olim qayrar tish.
Gapda kelgan kelishik
Bo'lar jo'nalish.
Agar desak – Omonda
Insof bormi, ayt.
Omon turgan kelishik
Bo'lar o'rin-payt.
Tuzalgani so'raylik
Desak Omondan,
Chiqish, chiqish der hamma
Turli tomondan.
Men aytib turay so`zni,
Siz antonim topinglar,
Go`yo marrani ko`zlab
Kim o'zarga chopinglar.
"Uzoqqa" menman "yaqin"
"Yolg`on"ga antonim "chin",
"Janub"ga qarshi "shimol",
"Zahar"ga, albatta, "bol".
"Ko`p"gadir antonim "oz",
"Qish"ga esa qarshi "yoz".
"Saraton"ga "qahraton",
"Yaxshi"ga esa "yomon".
Qarshi ma'noli so'zni
Izlashda qolmang tolib.
"Mag`lub"likka siz qarshi
Bo`linglar doim g'olib.
Men sinonimman asli,
Bir ma'noli so'zdirman.
"Samo"ga "osmon" va "ko`k",
"Bet"ga "chehra", "yuz"dirman.
"Barg" so`zin aytsam har chog`
Unga ma'nodosh yaproq.
"Qisqa" ga bo`lar "kalta",
"Ulkan"ga esa "katta".
"Cho`l"ga bo'lsa "biyobon",
"Zum"ga "soniya" yo "on".
"Lab"ga sinonim "dudoq",
"Do`st"larga esa "o`rtoq".
Shaklim mening turlicha,
Ma'nom esa yagona,
"Yolg`onchi"ga "aldoqchi",
"Volida"ga-chi, "ona".

Bu she'r orqali o`quvchilar 9 ta antonim – zid ma'noli so`zni topishga erishadi. Ular orasida kichkintoylar nutqida deyarli ishlatilmaydigan "saraton-qahraton", "mag`lub-g`olib" so`zlarining qo`llanishi fikrlashga undaydi. So`zlarning ma'nosini tushuntirish o`quvchilar lug`atini boyitadi. O`quvchilar lug`atini ma'nodosh va zid ma'noli so`zlar bilan boyitish ularning o`z fikrini aniq, ravon va ifodali bayon etishiga yordam beradi. Sinonimlar haqida ma'lumot olgan o`quvchi 10 dan ortiq sinonim so`zga yuqoridagi she'rdan javob topadi. Sinonimlar tilni leksik tomonidan boyitadi, shuning uchun bunday so`zlar bilan ishlashda

yuqorigadagi kabi she'rlar muhim rol o`ynaydi. O`quvchilar lug`atida sinonimlar qancha ko`p bo`lsa, uning til ifodaliligi shuncha ortadi. Rost, boshlang`ich sinflarda sinonim haqida nazariy ma'lumot berilmaydi, ammo sinonimlar haqidagi tushuncha amaliy mashq yordamida shakllantiriladi. Sinonimlar bilan ishlash elementar tarzda 1-sinfdan boshlanadi. O`quvchilar berilgan so`zning sinonimini topishga, boshqacha qilib qanday aytish mumkinligini tushuntirishga, 2-3-sinflar-da esa berilgan so`zning 2-3 sinonimini topib aytishga o`rgatiladi. Shuningdek, boshlang`ich sinflarda so`zning o`z va ko`chma ma'nolarini tushuntirishda K. Turdiyevaning quyidagi she'ri yaqindan yordam beradi:

Ovqat achchiqdir, yema!
Menga achchiq so'z dema.
Kelib qoldi kumush qish,
Men qo'ydirdim oltin tish.
Sinadi egri yog'och,
Egri ishdan tezroq qoch.

Tilla boladir Nizom,
Bizda temir intizom.
Qora sovuq kezadi,
Sovuq shamol esadi.
Olmalar ekan yoqut,
Bugun iliq xabar kut.

Ta'kidlab ko`rsatilgan so`zlar bo`yicha ishlashda o`qituvchi avval o`z ma'nosida kelgan so`zlarni aniqlash topshirig`ini beradi. O`quvchilarga topish uchun yordam tariqasida ovqatning achchiq bo`lishi nimayu, so`zning achchig`I qanaqaligi tushuntiriladi. Natijada, birinchisi o`z ma'nosida, "achchiq so`z" esa ko`chma ma'noda qo`llangani oydinlashadi. Shunga o`xshash, o`quvchilar "kumush qish", "tilla bola", "temir intizom", "yoqut olma", "iliq xabar" birikmalaridagi so`zlar ko`chma ma'noda qo`llanayotganini aniqlaydilar va tushuntirib beradilar.

Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalari, bir-biridan ajratilmagan holda o'quv tarbiyaviy jarayoni shakllantiriladi. Mavzuni tushuntirishda badiiy ijod, she'rdan foydalanish hamisha yaxshi samara beradi. Buni bolalarning tabiatshunos shoiri Q. Muhammadiy ijodi orqali asoslash mumkin. Q. Muhammadiy aslida botanika o`qituvchisi edi. U maktabda shu fandan dars berish jarayonida o`quvchilarga har bir mavzuga oid she'r ham yozib kelib, uni o`qib berganida sinf bolalarining nafaqat kayfiyati ko`tarilgan, balki mavzuni ancha oson o`zlashtirishlariga erishgan. Shu sababli, o`tgan asrning 70-yillarida shoirning tabiatshunos bo`lib tanilishida ana shu mavzudagi 5 kitobdan iborat "Tabiat alifbesi" to`plami muhim ahamiyatga ega edi. Binobarin, o`zbek bolalar she'riyatida bu an'ana keyinchalik ham davom etganini yuqoridagi she'rlar to`la asoslaydi. Shunga o`xshash K. Turdiyevaning "Omonim", "Sifatdosh", "Sifat", "Fe'l", "Ot", "Olmosh", "Ravish", "Son", "Harakat nomi" sarlavhali she'rlari boshlang`ich sinf o`quvchilariga ona tilini o`rga-tishda amaliy yordam vazifasini bajaradi.

Xalq madaniy olamining shunday tarmog`i borki, ular uchun til xuddi rassom uchun rang, bo`yoq, haykaltarosh uchu loy yoki tosh singari moddiy vosita bo`lib xizmat qiladi. Bu tarmoq adabiyotdir. Shuning uchun adabiyot so`z san'ati hisoblanadi. So`z bir vaqtning o`zida ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslikning ham o`rganish obyekti hisoblanadi. Ularning farqi faqat so`zga qanday nuqtayi nazardan yondashishga bog`liq. So`zning atash ma'nosi va uning ontologik tuzilishi tilshunoslik obyekti bo`lsa, uning ta'sir etish, badiiy-estetik vazifasi adabiyotshunoslikning o`rganish obyekti hisoblanadi. Binobarin, ona tilini o`rganishda adabiyot fanlarining ahamiyati katta bo`lganidek, boshlang`ich sinflar uchun shu vazifani o`tovchi o`qish darslarining ta'siri katta. Ta'bir joiz bo`lsa, o`qish darslarining asosiy maqsad vazifalarining aksariyati ona tili bilan bog`liq. Jumladan, uzluksiz ta'limning boshqa bosqichlaridan farqli jihati shundaki, boshlang`ich sinfning o`qish darslarida o`quvchilarning o`qish malakalarini shakllantirish, asar matni ustida ishlash ta'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. Shunga ko`ra o`qish darslarining yetakchi xususiyati o`quvchilarning savodxonligini ta`minlash bilan birga, badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

Adabiyotlar

1. Turdiyeva K. Dunyoni saqlar bolalar. – Toshkent, 2012. – B.132.
2. Turdiyeva K. XX asrning 60-80-yillarida o`zbek bolalar she'riyatida ma'naviyat masalalari. – T., 2013. – B.88
3. Qosimova K. va boshq. Ona tili o`qitish metodikasi. – Toshkent: "Noshir", 2009. – B. 248



Садоқат РЎЗИЕВА
Бухоро давлат университети мактабгача
таълим кафедраси ўқитувчиси

МОДЕЛЛАШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ – ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ СИФАТИДА

Мақолада моделлаштириш технологиясининг ўқитиш жараёнида замонавий ёндашув сифатида қўлланилиши тўғрисида фикр юритилган. Шунингдек, мақолада моделлаштиришнинг хусусиятлари ҳақида маълумотлар берилган.

Таянч тушунчалар: *таълим, тарбия, ўқитиш, моделлаштириш, замонавий ёндашув, узлуксиз таълим, педагогика, дидактика, тилшунослик, лингвистика.*

В статье идёт речь о применение современных подходов при моделировании технологий в процессе обучения. Также в данной статье дана информация о качествах моделирования.

Опорные понятия: *обучение, воспитание, моделирование, современный подход, педагогика, дидактика, языкознание, лингвистика.*

In article is told about the application of modern approaches during the process of training in modeling technologies. Also, in this article is given the information about the modeling qualities.

Supporting concepts*: education, upbringing, modeling, modern approach, pedagogy, didactics, linguistics, linguistics.*

Республикамиз ривожланишининг эртанги куни бугун вояга етаётган авлод тақдири билан узвий боғлиқ. Айниқса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони, 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли қарорларининг қабул қилиниши юқорида кўрсатиб ўтилган вазифаларни бажариш заруратини янада кучайтиради. Ушбу масалани амалга оширишга қаратилган вазифаларни бажариш узлуксиз таълим тизимидаги ислоҳотларни янада чуқурлаштириш билан боғлиқ. Бу борадаги муҳим вазифа Президентимиз Ш.М. Мирзиёев таъкидлаганидек, “умумтаълим мактаблари, лицей ва касб-ҳунар коллежлари, шунингдек, олий ўқув юртларидаги ўқитиш сифати билан боғлиқ” [1,45] эканини бугунги давр тақозо қилмоқда. Мамлакатимизда истиқлолнинг илк йиллариданоқ таълим тизимини ривожлантиришга давлат сиёсати даражасида эътибор қаратилди.

“Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”да белгиланган асосий вазифалардан бири фан, таълим ва ишлаб чиқариш интеграциясини ривожлантиришдан иборатдир. Ушбу масаланинг ечимида ахборот ва педагогик технологиялари ўртасида ўзаро боғлиқлик, мувофиқлик, бир-бирини тўлдирувчанлик бўлиши талаб этилади. Ҳозирги кунда ҳар бир педагог ёки ишлаб чиқариш ходими ахборот коммуникация технологиялари ва техник тизимлари мажмуини пухта билишини бугунги кун тақозо этмоқда. Шу билан бир қаторда педагог ишлаб чиқаришнинг фаол иштирокчиси, ишлаб чиқариш мутахассиси ҳам ўз навбатида педагог вазифасини бажариши лозим. Жамиятда педагогик ғояларга бўлган муносабатларнинг муҳим аҳамият касб этиши, халқ таълими соҳасидаги давлат сиёсатининг кучли олиб борилиши, шунингдек, кенг режали ижтимоий шароитлар педагогиканинг нақадар керакли эканлигини ва унда ижодийликни ошириш лозимлигини исботлаб турибди. Эндиги муҳим вазифа замонавий техник таъминотга эга таълим муассасаларида юқори талаблар даражасида инновацион таълим технологиялари асосида ёшларимизга таълим-тарбия беришдан иборат бўлмоғи лозим. Бунинг учун ҳар бир педагог ўз устида мукаммал ишлаши, замондан орқада қолмаслиги, ўқитишнинг инновацион технологияларини пухта билиши ва ўз фаолиятида жорий этиши зарур. Ҳозирги кунда эски анъанавий услубдаги дарслар ёшларимиз эҳтиёжини қондирмайди, улар бундай дарсларни тинглагиси ҳам келмайди. Бугунги глобаллашув жараёнини ва ёшларимизнинг ақлий ривожланишини тез суръатларда ошиб боришини инобатга оладиган бўлсак, педагогикада креативлик (ижодий), мустақил изланишни тақозо этадиган метод ва технологиялардан фойдаланишимиз бу-

гуннинг долзарб масаласи бўлиб қолмоқда. Таълим тизимининг барча босқичларида мустақил таълим ёки мустақил изланишли машғулотлар амалга ошириб келинмоқда. Лекин бундай машғулотларда ўз қонун-қоидаларига амал қилинмайди, шунинг учун ҳам бу машғулотлар кутилган натижани бермайди. Аслида бундай машғулотларда ўқитувчи ўқувчи, талаба ёки тингловчиларга маълум бир вазифани махсус схема, формула, математик тенгламаларни кўргазмали қуроллар асосида беради. Ўқувчи (тингловчи)лар бунда анъанавий дарслар каби назариядан амалиётга томон эмас, балки амалиётдан назария томон боради ва креатив ғоялар яратади, мавзу доирасида ўз хулосасини чиқаради. Бундай технологиялар асосида ишлаш таълимда юқори самара беради. Мустақил ишлашни талаб этадиган педагогикада бир қанча метод ва технологиялар мавжуд. Шулар жумласига моделлаштириш технологиясини ҳам киритиш мумкин.

Дидактикада моделлаштириш технологияси ўқув жараёнини моделлаштиришга инновацион ёндашувлар, шунингдек, педагогик тизим ва жараёнларни моделлаштиришни билиши ва шу жараёнга мослашишни ўрганиш бугунги куннинг замонавий ёшлари учун энг зарурий эҳтиёж бўлиб қолди. Узоқ йиллардан буён моделлаштириш илмий тадқиқотнинг энг долзарб методларидан бири бўлиб келмоқда. Бугунги кунда инсоният ўзининг илмий, таълимий, технологик, бадиий фаолиятида атрофидаги оламни моделлаштирмасдан яшашини тасаввур қила олмайди. Тасаввур (модел)ларни қатъий, аниқ шакллантириш жуда мураккаб, лекин XXI асрга келиб, инсоният моделлаштириш ва ҳар хил объект ва жараёнлардан фойдаланишга оид бой тажриба тўплади. Моделлаштириш педагогик тадқиқотларда кишининг тажрибаси, унинг сезги органлари орқали олган таассуротлари ҳамда табиий шароитдаги кузатишларидан олинган эмпирик ҳамда назарий билимларни, яъни педагогик объектни ўрганиш жараёнида тажриба, мантиқий боғланишларнинг тузилиши ва илмий абстрактларни бирлаштириш имкониятини беради. Кўп ҳолларда дарсни режалаштириш жараёнида ўқитувчилар педагогик моделлаштириш тушунчасига дуч келишади. Аммо олимларнинг фикрига кўра [2,3,4] моделлаштиришга замонавий фанда етарлича эътибор берилмайди, бу эса таълим самарадорлигига салбий таъсир қилади.

"Модел" тушунчаси (фр. моделе /лот/ модулус – ўлчов, меъёр маъноларини англатади), табиий фанлар ёки умуман фанда муайян оригинал-объект ҳақидаги маълумотлар мажмуи сифатида юзага келган ҳосила-объект, моддий қурилма, график, схема, умуман, билиш воситаси. Бошқачароқ айтганда, модел табиий объектларнинг имитациясидир (ўхшаши, тақлидий кўриниши), у ўзбек тилидаги "қолип", "андаза" сўзларига мос келади. Модел ҳодисаларнинг юзага келиши учун асос вазифасини ўтайди, бунда аниқ ёки мавҳум объектлар кичрайтирилган объектлар, схемалар, чизмалар, физикавий конструкцияларда тадқиқ этилади. Моделларни яратиш фаннинг ривожланиш жараёни каби узлуксиздир. Кўргазмали моделлардан ўқитиш жараёнида кенг қўлланилади ва бевосита ўзлаштирилиши қийин кечадиган объект ёки жараённи кўз билан кўриб тасаввур қилиш имкониятини беради.

"Моделлаштириш" – ўқув материаллари ёки таълим мазмунини яхлит тизимга келтиришдир. Замонавий педагогика ва дидактикани моделлаштириш методисиз тасаввур қилиш қийин. Таълим босқичларидаги ҳар қандай фан моделга асосланишга эҳтиёж сезади. Математика ва физикани формула ва схемаларсиз, тилларни белгили қурилмаларсиз, бизга нотаниш маданиятни ўша муҳитнинг моделисиз, биологиянинг бўлимларини ҳар хил структура (таркиб)ларнинг макетисиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Моделлаштиришни қўллаш ўқув тарбиявий ҳолатлар ва жараёнларнинг моҳиятини янада чуқурроқ англаш, тадқиқотнинг назарий асосларини жиддий ўрганиш билан бевосита боғлиқ. Педагог тадқиқотчи қуйидагича моделлар яратиши мумкин. Ўқув жараёнининг таркибини қулайлаштириш, ўқувчининг мустақил билишини фаоллаштириш, ўқувчига нисбатан шахсга йўналтирилган ёндашувни амалга ошириш ва ҳк.

Демак, **моделлаштириш** – "билиш объектларини уларнинг моделларида тадқиқ қилиш услуби; аниқ мавжуд предметлар, воқеалар ва тузиладиган объектларнинг тавсифномаларини аниқлаш ёки яхшилаш, уларни ясаш усулларини қулайлаштириш, бошқариш кабилар учун ясаш ва ўрганиш". Моделлаштириш ҳар бир фан объектини соддалаштирувчи методдир. Шу сабабли модел анъанавий назариялар тушунтириб бера олмаган муаммони ҳал қилади, объектнинг илгари кузатилмаган, аммо келажакда амалга ошиши мумкин бўлган томонини кашф этади.

Ўзбек тилида лингвистик бирликларни моделлаштириш бу белгилар таркибидаги элементларнинг барқарор муносабатларига асосланади. Шунинг учун ҳам бутунлик таркибидаги элементлар ўртасида муносабатларнинг барқарор ва беқарор турларга ажратилиши лингвистик моделлаштириш

учун муҳим аҳамиятга эга. Моделлаштириш барча фанлар учун хос бўлган фанлараро метод ҳисобланади.

Моделлаштиришнинг дидактика (таълим назарияси) даги ролига мурожаат қилар эканмиз, ўқувчига янги материални схемалар, қурилмалар, белгили формулалар, бир сўз билан айтганда моделларсиз баён қилишнинг самараси кам бўлади. Дидактикада моделлаштириш ўқув материалининг таркибини қулайлаштириш, ўқув жараёнини режалаштиришни яхшилаш, билиш фаолияти ва ўқув тарбиявий жараёнларни бошқариш, башоратлаш, ташхислаш, ўқитишни лойиҳалаштиришда қўлланилади. Моделлаштириш технологияси ва моделлардан фойдаланиш таълимнинг математика, кимё, физика, биология каби фанларида кенг қўлланиб келинган. Аммо кейинги йилларда тилшунослик соҳасида ҳам замонавий ёндашувларнинг кучайиши ва бу усуллардан фойдаланишдаги самарадорликнинг юқорилиги туфайли она тили таълимида ҳам моделлардан кенг қўлланилмоқда.

Кўп йиллар давомида тилшуносликда кузатиш методлари ягона метод ҳисобланиб келинди. Аммо бу методлар ёрдамида лингвистик ҳодисаларнинг ички моҳияти очилмайди. Кузатиш методи орқали сўз шакллари, гап тузилиши ва бошқа структур хусусиятларни ўрганиш мумкин бўлади. Тил ва нутқнинг тузилиши мураккаб бўлганлиги сабабли кузатиш методи ёрдамида уларни тўлиқ ўрганиш имконияти бўлмайди. Негаки, тил ва нутқ ўзига хос мураккабликларга эга.


Кейинги даврларга келиб тил ҳодисаларини ёритишда моделлаштиришдан фойдаланила бошлади. Моделлаштириш методида тадқиқотчи объектнинг ўзини эмас, балки унинг моделини ўрганади. Оригинал билан модел ўртасида ўзаро боғлиқлик ва мутаносиблик мавжуд бўлади. Яратувчи моделлар тилшунослик ривожланиши натижасида юзага келди. Бунда лингвистик моделлар мавжуд нарсани текширишдан ўтиб, яратувчанлик хусусиятини касб этади. Яратувчи моделлар инвариантлиги асосида вариантлар ҳақида хулоса чиқарилади.

Моделлаштириш методи кейинги пайтларда тилшуносликка фаол татбиқ қилина бошлади. Бунда олимлар мазкур методнинг бир қатор афзалликлари ва прагматик жиҳатларини назарда тутадилар. Буни қуйидагича изоҳлаш мумкин:

- биринчидан, моделлаштириш тавсифий эмас, амалий метод ҳисобланади;
- иккинчидан, моделлаштириш методи ҳар қандай шароитда оптимал (“энг қулай”, “энг мақбул”) ҳисобланади;
- учинчидан, моделлаштириш методи иқтисод қилиш принципига таянади. Бунда узун таъриф ва тавсифларга эҳтиёж бўлмайди;
- тўртинчидан, объектни тушунтириш ва изоҳлашни осонлаштиради ва соддалаштиради.

Моделлаштириш тилшуносликда структурализм йўналиши таъсирида фаол татбиқ қилина бошланди. Гап структурасини моделлаштириш ғояси XX асрнинг 50-йилларида америкалик тилшунос Чарлз Фриз томонидан олға сурилди. Олим ўз қарашларини умумлаштириб, 1952 йилда «Thye Struture of English» номли тадқиқот ишини яратди. Ч.Фриз ўз концепциясини дистрибутив модел деб номлаган. Унга кўра, гап муайян сўз туркумларига оид бўлган сўзлар занжири ҳисобланади ва таҳлилда морфология базасига таянилади. Масалан, «The young man painted they door yesterday» жумласи дистрибутив модел асосида қуйидагича таҳлил этилади: Д 3 П 2-д Д Иб 4. Бу ерда Д– отнинг аниқловчиси (инглизча детерминер), 3 – сифат, Иб – бирликдаги от, 2-д – ўтган замон шаклидаги феъл, 4 – равишни англатади. Демак, мазкур моделда турли сўз туркумларига мансуб сўз шаклларининг нутқ занжиридаги дистрибуцияси (тарқалиши, қуршови) гап структурасини моделлаштиришнинг асосий мезони саналади.

Ўзбек тилшунослигида структрурализм вакилларининг узоқ йиллик илмий изланишлари натижасида инсонлар ўртасидаги алоқанинг энг муҳим воситаси бўлган гапнинг лисоний қурилиш қолипи, яни модели яратилди. Ўзбек тилшунослигида гапнинг энг кичик, минимал қолипи [WPm] кўринишида бўлиб, бу моделда содда гапнинг барча хусусиятлари жамланган. Ушбу модел гапнинг ички моҳиятини ҳам шаклий жиҳатини ҳам ўзида акс этган.Моделдаги рамзий бирликлар [W]-(инг.Wордатов бирлиги), [P]-(инг.Придате), [m]-(инг.маркер-кесимлик кўрсаткичлари) каби маъноларни англатади.Содда гаплар тилшунослигимизнинг синтаксис бўлимидаги бошқа бирликларнинг яратилиши учун ҳам асос бўлади. Содда гапларга ёндош бўлган уюшган гап ҳамда қўшма гаплар шулар жумласидандир. Қўшма гаплар, аввало, содда ва уюшган гаплардан ўз қурилиш усулларининг ўзгачалиги билан фарқланади. Умумий лисоний моҳият сифатида гаплар қурилиш қолипларига кўра дастлабки таснифда учга бўлинади [7, 395].




Бунда содда ва қўшма гаплар таснифда чекка ва уюшган гаплар оралиқ вазиятни эгаллайди. Қўшма гаплар ҳам ўз навбатида қолипларнинг тур ва кўринишларига эга бўлади. Шундай экан, **[WPm R WPm]=ҚГ** умумий қолипининг юзага чиқиш турларини, умумий қолип билан нутқий кўриниш орасидаги турли босқичдаги оралиқ қолипларини аниқлаш меъёрлари, белги ва мезонларини муайянлаштирмоқ лозим бўлади [7, 396]. Аёнки, қўшма гапнинг тур ва кўринишларини ўрганишда содда гапнинг энг кичик қолипи асос қилиб олинган. Содда гапнинг энг кичик қолипи **[WPm]**дан иборат бўлса, мантиқан қўшма гапнинг қурилиш қолипи

{[W 1 Pm 1 R W 2 Pm 2 R W 3 Pm 3]• н}=ҚГдир.

Қўшма гапнинг лисоний қолипи **{[W1Pm1 R W2Pm2 R W3Pm3] •н }= ҚГ**
еканлигини назарда тутган ҳолда қўшма гапнинг энг кичик қолипи учун
[WPm R WPm] = ҚГ рамзидан фойдаланилади [8; 33].

Қўшма гапларнинг умумий лисоний қолипи [WPmRWPm]= ҚГ бўлиб, у қуйидаги яна учта оралиқ кўринишга ажралади:



Бу оралиқ кўринишлар бир қарашда анъанавий боғловчисиз, эргаш гапли ва боғланган қўшма гапларнинг рамзий кўринишидек тасаввур уйғотади. (Масалан, *Баҳор келди ва олам яшнади* – **[WPm,WPm]=ҚГ**. *Баҳор келса, олам яшнайди* – **[WPm → WPm]=ҚГ**. *Баҳор келса ва олам яшнаса* – **[WPm ↔ WPm] =ҚГ** *каби)*. Бироқ бундай эмас.

Аслида, мазкур қурилиш қолиплари қўшма гап таркибидаги содда гапларни боғловчи воситаларга кўра эмас, балки бу содда гапларнинг қўшма гап таркибидан чиқарилганда мустақил қўллана олиш-олмаслик белгиси асосида амалга оширилган. Бунда, албатта, асос сифатида кесимлик турлари – мустақил кесим шакли (**МКШ**) ва номустақил кесим шакли (**НКШ**)га таянилади. Демак, қўшма гапларнинг лисоний структур турларини белгилашда қўшма гап таркибидаги тўлиқ шаклланган содда гапларнинг ўзаро муносабати ва ҳар бир содда гап нутқий жараёнда қўшма гап таркибида воқеланган маънолари билан қўллана олиш ёки қўллана олмаслиги белгиси асосий омил ҳисобланади [8]. Ушбу моделлар асосида умумтаълим мактабларининг она тили дарсларини олиб бориш, ўқувчиларга дарсни лисоний моделлар асосида тушунтириш таълимнинг самарадорлигини оширади.

Хулоса қилиб айтганда, моделлаштириш таълим-тарбия жараёнларининг барча шаклларини ўзаро боғлиқлигини таъминловчи, белгиланган мақсад ва вазифаларнинг йўналишини ифодаловчи ва кўзланган натижаларга эришишни таъминловчи ўзаро боғлиқ бўлган ва бир-бирини ўзаро тўлдирувчи компонентлардан иборат бўлган тизим сифатида келажакда чуқур илмий изланишлар олиб боришни тақозо этадиган йўналишдир.

Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 104 б.

2. A Handbook for Teaching and Learning in Higher Education, published 2009by Routledge 270 Madison Ave, New York, NY 10016, chapter IV: Planning teachingand learningCurriculum design anddevelopment, Lorraine Stefani, 41-57p.

3. Alex Moore Teaching and Learning Pedagogy, Curriculum and Culture London and New York. 2012.

4. Neil Selwyn Educational and texnology key Issues and Debats. London, 2011.

5. Malcoln, Shirley, Cetto, A. M., Dickson, D., Gaillard, J., Schaeffer, D. & Yves Quere. (2002). Science Education and Capacity Building for Sustainable Development.ICSU Series on Science for Sustainable Development no. 5.31 p.

6. Terhart E. Teacher education in Germany. – Bucharest: UNESCO-CEPES, 2003.

7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. – T.: O`z MU bosmaxonasi, 2006. – 171 b.

8. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг субстанционал (зотий) талқини. – Т.: Фан, 2007. – 256 б.



Hamro RAHMATOV
Buxoro davlat universiteti boshlang`ich
ta'lim asoslari kafedrasi o`qituvchisi

3-SINF MATEMATIKA DARSLIGIDAGI MANTIQIY MASALALAR USTIDA ISHLASH

Maqolada umumta'lim maktablarining 3-sinf matematika darsligidagi mantiqiy masalalar ustida ishlash xususida fikrlar keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: *matematika, boshlang`ich sinf, mantiqiy masalalar, sonlar, ko`payturuvchi.*

В статье приведены примеры выполнения логических задач в учебниках 3-класса общеобразовательных школ.

Опорные понятия: *математика, начальный класс, логические задачи, цифры,множитель.*

In article is giventhe examples of logical textbooks tasks for the 3rd form pupils of the comprehensive schools.

Supporting concepts: *mathematics, initial class, logical tasks, numbers, multiplier.*

Boshlang'ich sinf 3-sinf matematika darsligidagi mantiqiy masalalar ustida ishlash har bir darsda bitta mashq berilgan bo'lib, o'quvchilarni fikrlash qobiliyatini o'stirishga yo'naltirilgan. Bu mashqlarni bajarishda o'qituvchi o'quvchilarga tushuntirib, tushunchalariga ko'nikma hosil qilib mustaqil bajarish topshiriladi.

Berilgan mantiqiy masalalardan quyidagi mashqlarni namuna berib, ularni yechish usullarini keltiramiz:

1-masala: 12 ta shashka donasini to'rt qator qilib shunday joylashtiringki, bir qatordagi shashkalar soni 4-donadan bo'lsin.

Masalaning yechimi o'quvchiga oson ko'rinadi .Agar to'g'ri chiziq bo'yicha joylashtirilsa har bir qatorda 3 ta shashka donasi joylashadi.Bu berilgan shartni qanoatlantirmaydi.

Bu masalani yechish uchun o'quvchilar geometrik shakllarni o'rgangan bo'lishlari kerak.

Shashka donalarini to'rtburchak ko'rinishida joylashtirish tushuntiriladi.

. . . .
. .
. .
. . . .

Bu holatda joylashtirilganda 12 ta shashka donasi 4 qatorda joylashadi.

2-masala: 24 m arqon uch joyidan teng qirqilsa har bir bo'lakning uzunligi necha metr bo'ladi?

O'quvchilar bu masala yechimini oddiygina 24:3=8 m. dan deb yechib qo'yishlari mumkin. Lekin masala shartiga ko'ra arqon uch joyidan qirqilsa u to'rt bo'lakga bo'linishini o'quvchilarga tushuntirib o'tiladi.

Masala yechimini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

24:4= 6m har bir bo'lak 6m dan

3-masala: 60,50,40,30,20,10 sonlar orasida (+) va (-) ishoralarini shunday qo'yish kerakki, natija 70 chiqsin.

Masalani yechish uchun o'quvchilarga 60+10, 50+20, 40+30 yig'indilarning qiymati 70 ga tengligini tushuntirib o'tish kerak. Ikki son yig'indisidan boshqa sonlar yig'indi va ayirmasi 0 ga teng ekanligi ko'rsatib o'tiladi.

1-holat: 60+10=70 ni olamiz.

Sonlar orasidagi ishoralarni quyidagicha qo'yb chiqamiz:

60+50-40-30+20+10=70

2-holat: 40+30=70 ni olamiz.

Bu holatda sonlar orasidagi ishoralarini qo'yib chiqsak:

60-50+40+30-20+10

3-holat, ishoralarni qo'yib chiqamiz.

60+50-40+30-20-10

4-masala: shunday 4 ta sonni topingki, bu sonlardan biri 4 ga bo'lganda, ikkinchisi esa 4 ga ko'paytirganda, uchinchisini 4 ga qo'shganda, to'rtinchisidan 4 ni ayirganda javob 4 chiqsin.

Bu masalani yechish uchun o'quvchilar 4 amal ustida ishlashni bilishlari shart.

Topiladigan son 4 ta, demak, ular turli sonlardir. Masalani yechish uchun uni teskari tomondan yechish mumkin.

1) 4x4=16 2) 4:4=1 3) 4-4=0 4) 4+4=8


Bu masalani yechishni o'quvchilarga mustaqil topshirish mumkin.

5-topshiriq: Ikkita cho'pning joyini shunday almashtiringki, kvadratlar soni 6 ta bo'lsin.



Cho'plarning joyini almashtirish uchun shunday olish kerakki, ochiq joy qolmasin:

Quyidagicha joylashtiramiz:



Bu rasmda 6 ta kvadrat hosil bo`ladi.

Masala. Qanday 4 ta har xil sonlarni ko'paytirganda 40 sonini hosil qilish mumkin?

Bu ko'paytmani topish uchun 40 sonining bo'luvchilarini bilish lozim.

40 sonining bo'luvchilari 1,2,4,5,8,10,20 va 40 sonlari.

Ko'paytuvchilarga 8,10,20,40 sonlarini olib bo'lmaydi. Chunki bu sonlarni bitta songa ko'paytirganda ko'paytma 40 ga teng bo'ladi. Shuning uchun ko'paytmaga kichik sonlar olinadi. 40 sonini quyidagi 4 ta son ko'paytmasi ko'rinishida yozish mumkin:

40=1*2*4*5

Boshqa holda yozib bo'lmasligini o'quvchilarga tushuntiriladi.

Masala: to'qqizta jo'janing oyoqlari soni to'rtta otning oyoqlari sonidan nechtaga kam?

Masalani yechish uchun o'quvchilar jo'jada va otda nechta oyoq borligini bilishi kerak. Jo'jada 2 tadan, otda esa 4 tadan oyoq borligini o'quvchilarga tushuntirib o'tish lozim.

Masala yechimi quyidagicha bo'ladi:

9 ta jo'ja x 2=18 ta oyoq,
4 ta ot x 4=16 ta oyoq.
Farqi 18-16=2 ta ortiq.

Boshlang'ich sinfda matiqiy masalalar murakkab tushuncha bo'lib, ularni yechishda o'qituvchi va o'quvchilardan katta mas'uliyat talab etiladi.



Muhayyoxon HAMIDOVA
Namangan davlat universiteti
boshlang'ich ta`lim metodikasi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA SINTAKSISDAN BERILADIGAN MA'LUMOTLAR USTIDA ISHLASH

Maqolada boshlang'ich sinf uchun ona tilidan o'quv dasturida, shu dastur asosida yaratilgan darsliklarda sintaksisdan nimalarni o'rgatish lozimligi xususida fikr bayon etilgan. Boshlang'ich sinfda sintaksisdan dastlabki ma'lumotlar beriladi. 1-, 2-, 3-, 4-sinflarda bu ma'lumotlar bolalarning yoshi, o'zlashtirish imkoniyatlariga qarab berib boriladi, har bir keyingi bosqichda to'ldirib, bir oz mukammallashtiriladi.

Tayanch tushunchalar: *ona tili, o`quv dasturi, darslik, sintaksis, nutq, gap, mashq, topshiriq.*

В статье размышляется о необходимости обучения синтаксиса в учебных программах по родному языку и в учебниках, созданных по этой же программы. Даются предварительные сведения о синтаксисе. В 1-м,2-м,3-м,4-м классах эти сведения будут выдаваться по возрасту и успеваемости, дополняя ее на каждом этапе, немного совершенствуются.

Опорные понятия: *родной язык, учебная программа, учебник, синтаксис, речь, предложение, упражнение, задание.*

In article is reflected on the necessity to learn the syntax in syllabus of the textbooks for native languagecreated under the same program. It is given the preliminary data on syntax. In the 1st, 2nd, 3rd, 4th grades, this information will be given by age and academic achievementsupplementing which slightly improvesit at each stage.

Supporting concepts: *native language, syllabus, textbook, syntax, speech, offer, exercise, task.*

1-sinfda alifbe davridan keyin, ikkinchi yarim yilda ona tilini o'rganish, xususan, sintaksisdan ma'lumot berish boshlanadi. 1-sinf ona tili ta'limida tovushlar va harflar, so'z, uning ma'nolari o'rganilgandan keyin o'quv yili oxirida nutq va gap haqida ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlar mashqlar yordamida singdiriladi. Masalan: darslikdagi 149-mashqda ishlayotgan (mehnat qilayotgan, otasiga qarashayotgan) bolalar rasmi berilgan. Mashq bolalarga ism qo'yib, rasm mazmunini so'zlashni talab etadi. O`qituvchi tuzilgan matn yuzasidan quyidagi savollar bilan o`quvchilarga murojaat qiladi:

1. Siz tuzgan hikoyada nima deyiladi?
2. Nutqingiz nimalardan tuzildi?

Gap haqida ibtidoiy qoida beriladi. *"Gap so'zlardan tuziladi. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi".*

Nutq va gap to'g'risida berilgan ma'lumotlar savollar bilan mustahkamlanadi:

1. Nutq deganda nimani tushunasiz?
2. Gapning birinchi so'zi qanday harf bilan boshlanadi?
3. Gaplar nimalardan tuziladi?

2-sinf uchun ona tili dasturida savod o'rgatish jarayonida bolalar amaliy o'zlashtirgan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash maqsadida o'quv yili boshida bir necha takrorlash darslari o'tkaziladi. Jumladan, nutq va gap to'g'risida o'quvchilar olgan tushunchalar takrorlanadi. Yangi materialni o'rganish nutqning tuzilishini, u kishilarga aloqa vositasi sifatida xizmat qilishini oddiy kuzatishdan boshlanadi. O'quvchilar nutqning yaxlit birligi sifatida gapni kuzatadilar. Nutq aloqa birligi sifatida anglatiladi: gap kim haqida yoki nima haqida xabar beradi, u tugallangan mazmunni bildiradi. Gap narsa nomini, harakatni, belgisini yoki sanog'ini bildiradigan so'z bilan qiyoslanadi. Shu tariqa, nutqni kuzatishdan nutq birligi bo'lgan gapni va so'zni kuzatishga o'tiladi.

O'quv yili davomida gap ustida ishlab boriladi. O'quv yili oxirida til materiallarini o'rganish "Gap" mavzusi bilan yakunlanadi. Avval berilgan ma'lumotlar umumlashtiriladi. Materialni o'rganishda o'quvchilarda qiziqish uyg'otish va izlanish faoliyatini tashkil etish uchun darslikda o'ylash-fikrlash talab qilina-

digan “Nutq nima uchun kerak?”, “Gap nima?” kabi so'roqlar beriladi. Bu so'roqlar darsning maqsadini, uning ta'limiy vazifasini belgilaydi.

Ona tilini o'rganishni nutq haqida tushuncha berishdan boshlash pedagogik tomondan maqsadga muvofiqdir, chunki o'quvchilar aloqa jarayonini nutq yordamida aniq idrok etadilar. Bolalar nutq bilan tanishish orqali so'zlovchilar foydalanadigan vositalar tizimi bo'lgan “til” tushunchasini o'rganishga o'tadilar.

Ikkinchi sinf o'quvchilarida gap haqida quyidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish ko'zda tutilgan:

1. Gap tugallangan fikr (mazmun) bildiradi.
2. Gap o'zaro mazmunan bog'langan so'zlardan tuziladi.
3. Gapning oxirida ovoz pasayadi, to'xtam qilinadi.
4. Gapning bosh bo'laklari va ikkinchi darajali bo'laklarini ajratishga o'rgatiladi.

Ona tili o'qitishda jumladan, sintaksis va punktuatsiyani o'rgatishda onglilik va faollik juda muhim o'rin tutadi. Bu o'qituvchidan har bir ta'rif, qoidaning o'quvchilar tomonidan ongli o'zlashtirilishiga erishmoqni talab etadi.

Maktablarda ona tili o'qitish davomida shunday hollar ham ba'zan uchraydi: ayrim o'quvchilar grammatik qoidalarni yoddan aytadilar. Lekin ularni amalga tatbiq etishda ojizlik qiladilar. Masalan, ega va undalma haqidagi ta'rif va qoidalarni to'g'ri aytib beradilar. Biroq ayrim mashqlarda, bayon va insho yozganda bularni ajratolmay qoladilar.

To'g'ri qoida va ta'riflar, tavsiflar yodlatiladi. Lekin ularning ongli va haqiqiy bilim malakaga aylanishi uchun o'qituvchi har darsda o'rni bilan ancha ilgari o'tilgan materiallarni so'rab o'rganilgan bilimni amaliy mashq bilan mustahkamlab borishi lozim, toki o'quvchi ona tilidan bilimlarni ongli tushunib olsin.

Ongli o'zlashtirish o'qituvchining o'z ishiga ijodiy munosabatda bo'lishiga, o'quvchilarning faolligiga bog'liq. Darsda qo'llaniladigan metod va usullarning xilma-xilligi, mashg'ulotni qiziqarli o'tkazish uchun turli-turli rasmlardan foydalanish kabilar o'quvchilarning faolligini oshiradi.

Ongli o'zlashtirish shartlari:

1) materialning o'quvchilar “hazm qiladigan” darajada bo'lishi;
2) yangi materialani avval o'tilgan material bilan uzviy bog'lash;
3) har bir grammatik tushunchaning o'qituvchi tomonidan qisqa va tushunarli izohlanishi;
4) misollarning aniq, hayotiy va o'quvchilar yoshi, saviyasiga mos bo'lishi; o'quvchilar o'zlari topgan misollardan ham foydalanish;
5) o'quvchilarning faol ishtirokida og'zaki va yozma tarzda xilma-xil mashqlar o'tkazish;
6) darsni ma'lum bir tizim tartibida olib borish;
7) har turdagi ko'rgazmali qurollardan foydalanish.

Gap bo'laklari bo'yicha tahlil, o'quvchilarning sintaksisga oid yangi bilimlarni egallab borishlariga qarab, sinfdan-sinfga tomon bir muncha chuqurlashib boradi.

Ikkinchi sinfda gap ustida butun o'quv yili davomida ish olib boriladi. To'rtinchi chorakda bu mavzu yuzasidan ishlashning vazifasi o'quvchilarning gap yuzasidan olgan bilimlarini umumlashtirish va gapni to'g'ri tuzish fikrni aniq ifodalaydigan so'zlarni bilib tanlash ko'nikmasini o'stirish hisoblanadi. Gapni ongli tuzishda gapda so'zlarning o'zaro ma'no va grammatik tomondan bog'lanishini tushunishga asoslaniladi. 2-sinfda gapda so'zlarning bog'lanishi ustida amaliy tarzda ishlab boriladi. O'quvchilardan gapdagi so'zga sintaktik so'roq berishni bilishlari talab etiladi. O'quvchilar sintaktik so'roq berish yo'li bilan gapdan so'z birikmalarini ajratishga o'rganadilar. Lekin so'z birikmasi atamasi berilmaydi. Gapdan o'zaro bog'langan so'zlarni (so'z birikmalarini) ajratish mashqlari uchun uch-to'rt so'zli gaplardan foydalaniladi.

Bu mavzuni o'rganishning asosiy yo'nalishi o'quvchilarning nutqini, shu jumladan, bog'lanishli nutq malakalarini o'stirish (matndagi gaplarning mazmunan o'zaro bog'lanishini, fikrni izchil, ravon qilishni belgilash) hisoblanadi.

Ikkinchi sinf ona tili darslari nutq va gap haqidagi ma'lumotlarni takrorlashdan boshlanadi. Matn ustida ish olib boriladi. Gap to'g'risida, uning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak, so'roq gaplar haqida birmuncha keng ma'lumot beriladi. Undov gapga to'xtalinadi. Biroq gapning ifoda maqsadiga ko'ra buyruq, da'vat, istak, iltimos kabi mazmunlarni anglatuvchi buyruq gaplar haqida darslikda ma'lumot berilmagan. Bunday gaplar to'g'risida ham ma'lumot tushancha berilsa ma'qul bo'lardi. Kitobdagi bir qancha mashq matnlarida buyruq gaplar ham berilganki, bu shunday gaplar to'g'rsida nazariy tushuncha berish kerakligini ko'rsatadi.

3-sinf ona tili dasturi va darsligi gap bo'laklari, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, gapda so'zlarning bog'lanishini nazariy va amaliy tarzda o'rganishni ko'zda tutadi.

To'rtinchi sinfda avval sintaksis yuzasidan o'quvchilar olgan bilimlar takrorlanadi. Shu bilan birga, ular bilan bog'liq yangi bilimlarni berib boriladi. Masalan: o'quvchilar gap bo'laklarini takrorlash bilan birga,

shu gap bo'laklarining gap tarkibida birdan ortiq holda kelishi, ya'ni gap bo'laklarining uyushgan holda qo'llanishini o'rganadilar. Ularning o'zaro bog'liqligi birga o'rganishni taqozo etadi va bu yangi bilimning o'zlashtirilishini osonlashtiradi. Gapning uyushgan bo'laklari boshqa grammatik mavzular bilan bog'liq holda, mashq matnidan kelib chiqib, ularni takrorlab boriladi.

Boshlang'ich ta'limning barcha bosqichlarida darsni to'g'ri tashkil qilish va metodik jihatdan muddaodagiday qurish talab etiladi. O'qituvchi har bir darsda mavzuni e'lon qilgach, o'quvchilarni darsning maqsadi bilan tanishtiradi va ularning bu maqsadga erishish uchun nimalar qilishlari zarurligi uqtiriladi. Bu o'quvchilarni aniq faoliyatga yo'naltiradi.

Yangi mavzuni tushuntirishda til materialini kuzatish, tahlil qilish, uning muhim belgilarini aniqlash, taqqoslash, guruhlash va umumlashtirish usullaridan foydalaniladi.

O'rganilgan mavzuni mustahkamlashda dastlab darslikda berilgan mashqlarni bajartirish tavsiya etila-di. Mashq shartiga ko'ra ikki xil shaklda: og'zaki va yozma tarzda sinf jamoasi bilan birgalikda yoki mustaqilyakka tartibda bajariladi.

Darsning o'tilgan mavzuni so'rash, darsni mustahkamlash vaqtida o'qituvchining qo'shimcha ish turlaridan: kartochkalardan, turli ta'limiy o'yinlardan, mustaqil ishlardan, ta'limiy diktant va testlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Mustahkamlashda sinf o'quvchilarini guruhlarga bo'lib, har bir guruhga alohida topshiriqlar berilishi darsga musobaqa tusini kiritadi, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

Dars o'quvchilardan "Bugun darsda nimalarni bilib oldingiz" savoli yoki umumlashtiruvchi savollar bilan yakunlanadi.

O'quvchilar ifodali o'qish san'atiga ega bo'lish uchun sintaksisni yaxshi bilishlari lozim. O'quvchi biror badiiy asarni o'qiganda, uning qaysi o'rinlari qanday ohangda o'qilishi kerakligini aniqlab ola bilishi zarur. Matnda uchraydigan so'roq gap, buyruq gap, darak gap, undov gaplarni o'z ohangi bilan o'qiy bilsagina, o'quvchi asarning mazmunini, muallif aytmoqchi bo'lgan maqsadni, uning ichki hissiyotlarini to'g'ri anglab, to'g'ri ifodalay oladi. O'quvchilarga nutqning intonasion tomonlarini o'rgatish sintaksis o'qitishning yetakchi vazifalaridan biridir. Ba'zi hollarda gapning mazmuni ham, turi ham, tinish belgilarining qo'yilishi ham intonatsiya bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: Mehmonlar keldi. Mehmonlar keldi? Birinchi gap – tinch ohang bilan aytilgan darak gap. Shuning uchun birinchi gap oxirida nuqta qo'yilgan. Ikkinchi gap – so'roq mazmunini ifodalagan gap. Shu bois ikkinchi gap so'roq ohangida bo'lganligi uchun uning so'ngida so'roq belgisi qo'yilgan. Yana solishtiraylik: Bog'imizda anjir shaftoli pishdi. – Bog'imizda anjir, shaftoli pishdi.

Har bir darsda bunday hollarga e'tibor berib borilsa, o'quvchilar ayrim gaplarning ohangini o'zgartirish uning mazmuniga ta'sir etishini kuzatadilar va nutqda ohangning katta ahamiyatga ega ekanligini tushunib oladilar.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod –O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
3. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o`qitish metodikasi. Boshlang`ich ta`lim fakultetlari uchun darslik. – Toshkent: Noshir, 2009.
4. Qosimova K., Ne`matova A. 2-sinfda ona tili darslari. – Toshkent, 2004.
5. Xudoyberganova M., Fuzailov S., Muxtorova M. 3-sinfda ona tili darslari. – Toshkent, 2008.
6. G`afforova G. va boshqalar. 1-sinfda ona tili darslari. – Toshkent, 2003.
7. G`ulomova X. va boshqalar. 4-sinfda ona tili darslari. – Toshkent, 2004.



Madixabonu PARDAYEVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
boshlang`ich ta`lim kafedrasi o`qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARINI O'TISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini o'tishda qo'llaniladigan ba'zi bir usullar haqida fikr yuritiladi.

***Tayanch tushunchalar**: maktab, boshlang'ich sinflar, ot so`z turkumi, o'yin uslubi, suratlar, ko'rgazmalar, sifat so'z turkumi, son so'z turkumi.*

В статье размышляется о некоторых способах проведения уроков родного языка в начальных классах.

***Опорные понятия:** школа, начальные классы, имя существительное, методы игры, фотографии, выставки, имя прилагательные, число.*

The articleis reflected on some ways of conducting native language lessons into the primary classes.

***Supporting concepts:** school, primary classes, noun, methods of game, photos, exhibitions, name adjectives, number.*

Maktab davri har qanday insonning hayotida muhim o'rin tutadigan bosqich. Bola maktabga hali go'daklik paytida, ya'ni 6-7 yoshida keladi. Fikrimizni o`xshatishdan boshlasak: "Uni hali shakl berilmagan loyga o'xshatish mumkin. Undan qanday – badiiy jihatdan go'zal bo'lgan san'at asari, yoki beo'xshov idish yaratish esa unga shakl beruvchi kulollar, ya'ni o'qituvchilarning kasbiy mahoratiga bog'liq". Maktab davri uch bosqichga bo'linadi. 1-bosqich kichik maktab yoshi davri bo'lib, 1-4-sinflarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich deganda biz 5-9-sinflarni nazarda tutamiz. Nihoyat, so'nggi bosqich o'z ichiga 9-11-sinflarni kiritadi. Har bir bosqichdagi o'quv jarayoni keyingisidan o'z o'quv dasturlari bilan farq qiladi. Bularning orasida boshlang'ich ta'lim davri alohida o'rin tutadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bolalar maktabga ilk kelgan paytlarida hali hech narsani bilmaydigan holda keladilar. Ular kelajakda qanday inson bo'lishi esa ko'p jihatdan ularning boshlang'ich sinflarda o'qish paytida olgan bilimlariga bog'liq. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bu paytda berilgan bilim bolalarning kelajakda bilimdon inson bo'lishlariga qo'yilgan poydevordir. Bu holat boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zimmasiga ulkan ma'suliyat yuklaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'tkazilgan dars mashg'ulotlari o'zgachaligi bilan farq qiladi. Bu bosqich o'quvchilari darsga ajratilgan 45 daqiqa vaqtni bir maromda o'tkazishga tayyor bo'lmaydilar. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda dars beruvchi o'qituvchilar iloji boricha o'quvchilar zerikib qolmasliklarini nazorat qilishlari talab etiladi. Bu sohada tajribasi katta bo'lgan o`qituvchilar bunday hollarning oldini olish uchun darsni qismlarga bo'lishadi va o'qishdagi bir xillikdan qochishga erishishga harakat qiladi. Shu narsa ma'lumki, bu davrda o'quvchilar hali bolalik dunyosini to'liq tark etmagan bo'ladilar. Ularning tabiatida hali o'yinqaroqlik va bolalarcha erkalikka moyillik sezilib turadi. Bu yoshdagi bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida o'rnatilgan tartib-qoidalar ta'siridan xalos bo'lmagan bo'lishadi. O'qituvchi bu bolalarga bilim berish jarayonida shu jihatni ko'zdan qochirmasligi lozim. Bundan tashqari, o'qituvchi bolalar tabiatini juda yaxshi biladigan psixolog bo'la olishi lozim. Chunki maktabga tabiati turlicha bo'lgan o'quvchilar keladilar. O'qituvchining vazifasi esa ularning tabiatiga bir xilda ta'sir qila olishga erishishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun o'qituvchi turlicha usullarni qo'llaydi. Boshlang'ich sinflarda, asosan, quyidagi fanlar o'tiladi: o'qish va yozish, matematika, tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya, rasm darsi. Ko'rib turganimizdek, darslar-ning turi ko'p emas. Bu esa o'quvchilarning diqqatini ushlab turishda ancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shunday paytlarda o'qitishning o'zgacha usullarini qo'llay bilish juda muhimdir.

Malakali o'qituvchi bunday usullardan bir qanchasini o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda keng tarqalgan usullardan biri bu o'yinlardir. O'yinlarni har qanday dars turida qo'llanishi mumkinligi ahamiyatga molikdir. O'yinlar ham jamoaviy, ham individual bo'lishi mumkin. O'yin uslubi darslarda-

gi zerikarli, bir xillikning oldini olishga yordam beradi, o'quv jarayonida musobaqalashishi ruhini olib kirishi, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi. Yuqorida sanab o'tilgan fanlar u yoki bu jihatdan bir-biri bilan bog'langan bo'ladi, ayniqsa, o'qish va yozish darslari. Bu mashg'ulotlar o'quv dasturidagi eng muhim fanlar hisoblanadi. Ular o'quvchilar kelajakda chin ma'noda savodli inson bo'lib yetishishlari uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladilar. Shuning uchun darslarda o'quvchilarning bor e'tiborlarini bir yerga jam qilib, o'qishlarini nazorat qilib borish juda muhim. O'qish darslarida o'quvchilar so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishsa, yozuv darslarida harflarni to'g'ri va chiroyli yozishni o'rganadi. Shuning uchun ham ularni zeriktirmaslik lozim. Buning uchun o'qituvchi turli yordamchi usullardan unumli foydalanishi mumkin.

Ona tili darslarida o'qituvchi bolalarga "Ot" so'z turkumini tushuntirayotgan paytda turli o'yinchoqlarni namoyish qilgan holda, ularning nomlanishini aytib, shu orqali o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkaza olishi mumkin. Aynan shu maqsadda hayvonlar, ertak qahramonlarining suratlarini ko'rsatish va o'quvchilardan ularning nomini aytib o'tishni so'rashi mumkin.

O'quvchi bu topshiriqni mustaqil bajarish orqali dasturda ko'zda tutilgan maqsadga erishishi mumkin. Bunda o'yin elementlari qo'shilganda, o'quvchini o'quv materiallarini qabul qilishi yengillashadi. Keyinchalik ham bu masalada ikkilanish yuzaga kelganda o'quvchi ko'z oldiga o`sha dars jarayonida ko`rgan narsalarini keltiradi va natijada bu masalada xatolikka yo`l qo`ymaydi. Masalan: o`qituvchi har xil mevalarning tasvirlarini ko`rsatadi va o`quvchilardan ularning nomlanishini aytishni so`raydi. Xohishiga ko`ra, u buni o`quvchilarning har biridan alohida yoki ularni guruhga bo`lgan holda amalga oshirishi mumkin. Namoyish qilinayotgan suratlar yorqin ranglarda, orqadagi o`quvchilar ham ko`ra oladigan kattalikda bo`lishi kerak. Darsga qiziqishni orttirishga astoydil harakat qilgan o`qituvchilar bu mevalarning o`zini yoki ularning o`yinchoq modellarini olib kelishlari mumkin. O`quvchilar bu orqali "Ot" so`z turkumi nima ekanligini o`zlashtiradilar. Bu misol orqali nima? so`rog`iga javob bo`luvchi, ya'ni jonsiz buyumlar nomlari haqida ma'lumotga ega bo`ladilar. Kim? so`rog`iga javob bo`luvchi otlarni tushuntirish uchun endi insonlarning suratlari namoyish qilinadi va ularda kimlar tasvirlangani haqida so`raladi. Shundan so`ng o`qituvchi kim? so`rog`i faqat insonlarga nisbatan ishlatilishini, hayvonlar va hasharotlarga nisbatan ishlatilmasligini aytib o`tadi. Berilgan ma'lumotlarni mustahkamlash maqsadida "Kim hozirjavob" o`yinini o`tkazish mumkin: o`qituvchi uchta qatordan bittadan o`quvchini sinf doskasi yoniga chaqirib, ularning oldiga buyumlar nomini navbati bilan bittadan aytib qo`yadi. Aytilgan nomlar takrorlanmasligi lozim. Tutilib qolgan yoki avval aytilgan so`zni takror aytgan o`quvchi o`yindan chetlatiladi. Eng so`ngida yakka qolgan o`quvchi g`olib sanaladi. Shu jumladan, u chiqqan partalar qatori ham. Yutib chiqqan bola yoki qiz albatta rag`-batlantirilishi lozim. Bu jihat sinf jamoasida g`alabaga bo`lgan intilishni so`ndirmaslikka xizmat qiladi. Bolalar nafaqat go`lib bo`lishga harakat qiladilar, balki o`sha dars materialini to`liq o`zlashtirishga erishadilar.

"Ot" so`z turkumidan tashqari, sifat so`z turkumining o`ziga xos jihatlarini tushuntirish uchun ham turli buyumlar, ertak qahramonlari va jonivorlar tasvirlaridan ham foydalanish mumkin. Masalan: ertak qahramonlarini olsak. Bolalar bu yoshda ertaklarga juda qiziqadigan bo`ladilar. Ularning har biri-ning o`z sevimli ertagi va shu ertak ichida eng yoqtirgan qahramoni bo`ladi. "Sifat" so`z turkumining qanday?, qanaqa? so`roqlarini tushuntirishi uchun o`qituvchi shu qahramonlar suratini o`quvchilarga ko`rsatadi. U o`quvchilardan suratni tasvirlab berishni so`raydi. O`quvchilar to`g`ri javob berganlaridan so`ng, o`qituvchi ular bilan birga shu nomdagi ertak mazmuniga to`xtab o`tish mumkin. Odatda, sinflarda bunday ertaklarni yoddan biladigan o`quvchilar topiladi. O`qituvchi shundan keyin suratda tasvirlangan qahramonning tashqi ko`rinishi haqida to`xtab o`tadi va o`quvchilardan uni tasvirlab berishni so`raydi. O`quvchilar jo`r bo`lgan holda yoki yakka-yakka, navbati bilan rasmdagi bir sifatni aytadilar. O`qituvchi esa ularning aytaganlari orasidan sifat so`z turkumining qanday? qanaqa? so`roqlariga javob bo`luvchi so`zlarni doskaga yozib boradi. Suratni ta'riflash yakunlangach, o`qituvchi o`quvchilar bilan yuqoridagi so`roqlarni qo`llagan holda qayta takrorlaydi, va albatta, bu jarayonda o`z faolligi bilan boshqa sinfdoshlaridan ajralib turgan o`quvchilarni rag`batlantirishni ham unutmaydi. Ona tili darslarida boshqa so`z turkumlarini ham ko`rib chiqish mumkin. "Son" so`z turkumini tushuntirishda turli narsa buyumlarning miqdorini tushuntirishga harakat qilish lozim bo`ladi. Albatta, buning uchun matematika darslaridagi ma'lumotlarni yodga olishga to`g`ri keladi. O`qituvchi shundan so`ng "Son" so`z turkumiga oid so`roqni doskaga yozadi qancha? nechta? so`roqlari bilan tanishtirgach, o`qituvchi ularga ikkita ko`rgazmani ko`rsatadi, ularda, aytaylik birida bitta meva surati, ikkinchisida esa aynan shu mevaning ko`plikdagi rasmi tasvirlangan bo`ladi. Misol keltirishda mevalardan boshqa buyumlarni ko`rsatish mumkin. Ularga nisbatan so`roq beriladi-nechta meva bor? Suratdagi miqdorga qarab, o`quvchilar javobni aytadilar. Buning natijasida o`quvchilar ushbu turkum haqida-

gi ma'lumotlarni to`liq o`zlashtirshga erishadilar. Ona tili darslarida bu keltirigan usulning boshqasidan ham unumli foydalansa maqsadga muvofiq bo`ladi.

Adabiyotlar

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o`qitish metodikasi. – T.: TDPU, 2009. – 70 b.

3. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012. – 108 b.



Лола АБДУЛЛАЕВА
Преподаватель кафедры межфакультетских иностранных языков БухГУ

ИГРА КАК ВЕДУЩИЙ МЕТОД ОБУЧЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Мақолада мактабгача таълим тизимида инглиз тилини ўргатишда ўйин методидан фойдаланиш имкониятлари баён этилган.

Таянч тушунчалар: *мактабгача таълим, ўйин, фаолият, ролли ўйинлар, ўргатувчи ўйинлар, пассив форма, актив форма, интерактив форма.*

В статье излагаются возможности использования игровых методов в обучении английского языка в дошкольном образовании.

Опорные понятия: *дошкольное образование, игра, деятельность, ролевые игры, обучающие игры, пассивная форма, активная форма, интерактивная форма.*

In article is described the possibilities of using gaming methods in teaching English in preschool education.

Supporting concepts: *preschool education, play, activity, role-playing games, learning games, the passive form, an active form, aninteractive form.*

Игра – вид деятельности, с действиями, ограниченными правилами, которые направлены на создание, развитие и поддержание процесса в заданных границах. Задача процесса, доставить участникам ряд переживаний и эмоций, дать процессы в которых можно приобрести новый опыт, через непосредственное практическое участие.

Теория функционального удовольствия К. Бюлера рассматривает удовольствие, получаемое непосредственно от игрового процесса в качестве главной мотивации. Согласно концепции игры, разработанной Гербертом Спенсером под влиянием идей Ф. Шиллера, игра является средством избавления от нереализованной энергии.

Л.С. Выготский и Д.Б. Эльконин называют игру ведущим видом деятельности дошкольника. И.Л. Шолпо предлагает свой вариант классификации обучающих игр, которые можно использовать на занятиях иностранным языком с дошкольниками.

Автор подразделяет обучающие игры на ситуативные, соревновательные, ритмо-музыкальные и художественные.

К ситуативным относятся ролевые игры, которые моделируют ситуации общения по тому или иному поводу. Они, в свою очередь, делятся на игры репродуктивного характера, когда дети воспроизводят типовой, стандартный диалог, применяя его к той или иной ситуации и импровизационные игры, требующие применения и видоизменения различных моделей. Естественно, может (и должен) возникнуть промежуточный момент, когда в репродуктивную игру вносится элемент импровизации.

К соревновательным относятся большинство игр, способствующих усвоению лексики и грамматики. В них побеждает тот, кто лучше владеет языковым материалом. Это всевозможные кроссворды, "аукционы", настольно-печатные игры с лингвистическими заданиями, выполнение команд и т.п.

Ритмомузыкальные игры – это всякого рода традиционные игры типа хороводов, песен и танцев с выбором партнеров, которые способствуют не столько овладению коммуникативными умениями, сколько совершенствованию фонетической и ритмомелодической сторон речи и погружению в дух языка, например: "Nuts and May".

Художественные, или творческие, игры – это вид деятельности, стоящий на границе игры и художественного творчества, путь к которому лежит для ребенка через игру. Их, в свою очередь, можно разделить на драматизации (постановку маленьких сценок на английском языке); изобрази-

тельные игры, такие как графический диктант, аппликация и т.п.; и словесно-творческие (подбор рифмы, коллективное сочинение подписей к комиксу, коллективное сочинение маленьких сказок).

В игре как вид непродуктивной деятельности, мотив которой заключается не в ее результате, а в самом процессе. Игра не должна быть важна только для преподавателя, но необходимо заинтересовать ребенка. Так же немало важно, чтоб преподаватель являлся не столько ведущим и руководителем, сколько участником. Ребенок будет играть только в том, что ему интересно, и с тем, кто вызывает у него симпатию. Игра совмещает педагогическую цель с интересным для ребенка видом деятельности.

Методика проведения занятий должна строиться с учетом возрастных и индивидуальных особенностей структуры лингвистических способностей детей и быть направлена на их развитие.

Занятия иностранным языком должны быть осмыслены преподавателем, как часть общего развития личности ребенка, связаны с его сенсорным, физическим, интеллектуальным воспитанием.

Так же необходимо создать положительную установку на иностранную речь. Основой игры считается воображаемая ситуация, в которой ребенок на равных правах с преподавателем может примерить на себе разные роли. Такая методика положительно влияет на усвоение ребенка материала, а так же на развитие его коммуникативных способностей, воображение, свободы мышления, и дает больше возможностей для использования уже приобретенных знаний и навыков общения на иностранном языке. В основе игровой методики лежат создание воображаемой ситуации и принятие ребенком или преподавателем той или иной роли.

Ниже представлены примеры игр различных видов.

Занятие «Веселый зоопарк» - ритмо-музыкальная игра с совершенствованием фонетики с погружением в язык, элементы страноведения. Занятие интегрировано музыкой.

Задачи

1. Образовательная задача:
   a. Познакомить детей с животными жарких стран.
   b. Использование третьего лица единственного числа с окончанием –s (V_1+s)
2. Воспитательная задача: развивать свободу общения детей, рискованность.

Занятие

1. Приветствие. К детям приходят в гости «английские дети»: John and Alice (куклы).

-Good afternoon, Alice (John)!

-Good afternoon, boys and girls!

Воспитатель рассказывает, что английским детям и узбекским легко общаться, так как они знают язык друг друга и звуки (повторение знакомых звуков).

2. Путешествие в зоопарк, чтобы узнать животных жарких стран.

Основа – игра

«Monkey, see! Monkey, do!

The monkey hop-hop-hops around 2раза

Monkey, see! Monkey, do!

The monkey hops the same as you»

Затем приходит слон, зебра, кенгуру.

«The elephant stamp-stamp-stamps around 2 раза

Elephant, see! Elephant, do!

The elephant stamps the same as you!»

Глаголы меняются на «runs, jumps».

3. Alice и John рассказывают, как правильно сказать, как действуют животные в игре. Большой кубик – глагол, маленький кубик – его окончание – s. Дети рассказывают, как играют их любимые животные. Дать возможность детям выбрать.

4. Прощание : – Good bye, Alice! Good bye, John!

Занятие «Части тела» – ритмо-музыкальная игра с совершенствованием фонетики с погружением в язык, направлена на запоминание частей тела и числительных.

Преподаватель с детьми называет части тела, указывая на них. Параллельно ребенок должен называть количество называемых частей тела. Для упрощения усвоения материала игра сопровождается музыкой.

Занятие «О себе» или «Кто я?» – игра ситуативная, репродуктивного характера. Предусматривается импровизация, если ребенок захочет что-либо добавить к высказыванию.

Задачи

I. Образовательная цель – развитие навыков монологического высказывания на известном языковом материале: «Здравствуйте. Меня зовут Карим. Мне 5 лет. Мне нравится Мухаммад»

II. Воспитательная цель – развитие дружеских чувств.

III. Звуки [g][u][d][ŋ]

Ход занятия

Игра проводится по цепочке. Дети изображают из себя актеров. Воспитатель говорит: «Мы в театре. Вы выходите на «сцену», немного говорите о себе. Здороваетесь, называете себя, говорите, что вам нравится.

«Good morning. I am Karim. I am five. I like Muhammad»

Когда вы назовете имя, выходит этот ребенок, берет вас за руку и расскажет о себе. Затем на «сцене» появляется третий, четвертый ребенок, и мы рассказываем, какие мы дружные и любим друг друга.

Занятие «Учимся считать» – музыкальное занятие.

Ход занятий

Преподаватель попросит выйти на «сцену» первого ребенка. И задает вопрос:

«How many children do you see?» – Сколько детей ты видишь?

Ребенок отвечает – «I see ten children» – Я вижу десять детей.

Тогда преподаватель просит посчитать их: «Count them».

Вместо детей дети могут подставлять любые известные им слова – apples, flowers, chickens. Исполняя песню, важно научить детей поочередно загибать пальцы на руках.

Особенностями обучению иностранному языку являются учитывание основных факторов, таких как – наследственность, среда и воспитание. Важно учитывать возрастные, лингвистические и индивидуальные особенности дошкольника в формировании процесса обучения. Готовность школьников обуславливается возрастов 5-6 лет.

Выделяются следующие формы обучения: пассивный, активный и интерактивный. Для работы с дошкольниками, последний наиболее приемлем. Обучение дошкольника иностранному языку интерактивным методом наиболее эффективно при использовании в качестве вида занятия игру.

Игра нацелена на взаимодействие ученика и учителя на равных правах, примеряя на себя различные роли в воображаемых ситуациях. Такой подход удобен для усвоения как лексико-грамматического, так и коммуникативного, и страноведческого. Таким образом можно заключить, что игра – вид деятельности, направленный на быстрое, углубленное и приближенное к пониманию детей дошкольного возраста изучение материала. Важно так же отметить, что ребенок должен иметь положительную мотивацию и интерес к игре.

Литература

1. Выготский Л.С. Игра и ее роль в психическом развитии ребенка: Стенограмма лекции, прочитанной в 1933 г. в ЛГПИ им. А.И. Герцена// Вопросы психологии. – 1966. – №6.–С. 62-76.
2. Шолпо И.Л. Как научить дошкольника говорить по-английски: Учебное пособие по методике преподавания английского языка для педагогических вузов, колледжей и училищ по специальности "Преподаватель иностранного языка в детском саду". – СПб., 1999.
3. Эльконин Д.Б. Избранные психологические труды. – М., 1989.
4. Сердюк Е.Г., Баленко Т.Б. Funny Friends. – М., 1995



Жонибек БОЙСУНОВ
Қарши давлат университети ўқитувчиси

ЖАМОАТЧИЛИК БОШҚАРУВИ ТИЗИМИНИНГ ТАКОМИЛЛАШТИРИЛИШИ

Мақолада жамият ва давлат бошқаруви тизимини янада демократлаштириш ва либераллаштириш, мамлакатни модернизация қилиш соҳасида амалга оширилган ишлар ҳақида фикр юритилган.

Таянч тушунчалар: *жамият, давлат, бошқарув, жамоатчилик бошқаруви, либераллаштириш, модернизация, давлат ҳокимияти.*

В статье размышляется об осуществленных работах в сфере модернизации страны, демократизации и либерализации государственной и общественной системы.

Опорные понятия: *общество, государство, общественное управление, либерализация, модернизация, государственная власть.*

In article is reflected on work carried out the sphere of modernization of the country, democratization and liberalization of the state and public system.

Supporting concepts: *society, state, public administration, liberalization, modernization, state power.*

Мустақиллик йилларида буюк давлат ва сиёсат арбоби, Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти И. Каримов ташаббуси ва раҳнамолигида ўз умрини ўтаб бўлган собиқ тоталитар, маъмурий-буйруқбозлик, режали-тақсимот тизими ва унга мос бўлган ҳокимият ва бошқарув тизимини тугатиш асосида марказий ва олий давлат ҳокимияти органларининг айрим ваколатларини маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, жамоат бирлашмалари, нодавлат нотижорат ташкилотлар ва фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари-маҳаллаларга босқичма-босқич ўтказиб бориш натижасида давлатнинг роли жиддий равишда қисқариши ҳамда фуқароларимизнинг давлат бошқарувидаги иштироки янада кенгайиши учун янги имкониятлар очилмоқда. Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолияти устидан жамоатчилик назоратининг ўрнатилишини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтармасдан туриб, жамиятни демократик янгилаш ва ислоҳ этиш, мамлакатни модернизация қилиш асосида **"Кучли давлатдан - кучли фуқаролик жамияти сари"** тамойилини амалда рўёбга чиқаришни тасаввур этиб бўлмайди.

Жамият ва давлат бошқаруви тизимини янада демократлаштириш ва либераллаштириш, мамлакатни модернизация қилиш соҳасидаги ишларимизнинг самарадорлиги кўп жиҳатдан **"Кучли давлатдан-кучли фуқаролик жамияти сари"** деган концепцияни рўёбга чиқаришнинг муҳим омили бўлган фуқароларимизнинг давлат бошқарувида иштирок этиш даражасига боғлиқ. Фуқароларимиз барча қатламларининг давлат бошқарувидаги иштироки уларнинг ижтимоий институтларга ихтиёрий хоҳиш-иродасини эркин намойиш этиш йўли билан конституция ва қонунлар доирасида амалга оширилади.

Конституциямизда бевосита "фуқаролик жамияти" тушунчаси берилмаган бўлса-да, унинг сиёсий-ҳуқуқий мақоми асосий Қонунимизнинг 8-боби (32-35-моддалар) ва 13-боби (56-62-моддалар) даги нормаларида мустаҳкамлаб қўйилган. Бугунги кунда мамлакатимизда 150 мингдан зиёд фуқаролик жамияти институтлари, 8 минг 500га яқин жамоат бирлашмалари, нодавлат нотижорат ташкилотлар ва 10 мингга яқин фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари-маҳаллалар фаолият кўрсатмоқда.

Ўзбекистон Республикасининг Президенти Ш.М. Мирзиёев 2016 йил 14 декабрида Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги сўзлаган нутқида **"Кучли давлатдан - кучли фуқаролик**

жамияти сари” деган муҳим тамойилни амалда жорий этиш масалаларига алоҳида тўхталиб ўтди [1].

2014 йил 16 апрелда Конституциямизнинг 32-моддасига давлат органларининг фаолияти устидан жамоатчилик назоратини ривожлантириш тўғрисидаги [2] ўзгартириш киритилиши давлат бошқаруви идоралари устидан ижтимоий институтларнинг назоратини кучайтиришнинг мустаҳкам ташкилий-ҳуқуқий асосини яратишда сифат жиҳатдан янги даврни бошлаб берди, десак муболаға бўлмайди.

Истиқлол йилларида қабул қилинган “Жамоат бирлашмалари тўғрисида”ги, “Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида”ги, “Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида”ги, “Парламент назорати тўғрисида”ги, “Электрон ҳукумат тўғрисида”ги, “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги, “Экологик назорат тўғрисида”ги, “Нодавлат нотижорат ташкилотлар фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги, янги таҳрирдаги “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида”ги, “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари тўғрисида”ги қонунлар ижро этувчи органлар устидан жамоатчилик назоратини кучайтиришнинг мустаҳкам ҳуқуқий пойдевори бўлиб ҳизмат қилмоқда.

Демократия шароитида давлатнинг куч-қудрати бошқарувнинг барча ваколатларини таъминлашни ўз зиммасига олиши ҳамда давлат идораларининг ҳукм ва тазйиқ ўтказувчи орган сифатидаги вазифаларини кучайтириш билан белгиланмайди.

Биринчи Президентимиз И. Каримов Олий Мажлиснинг 2000 йил 22 январда ўтказилган биринчи сессиясида сўзлаган маърузасида юқоридаги масалалар хусусида алоҳида тўхталиб шундай деган эди: **“Давлатнинг куч-қудрати, аввало, демократик институтларнинг мустақил фаолият кўрсатиши учун шарт-шароит яратиш, фуқаролар ва жамиятнинг барча сиёсий, ижтимоий салоҳиятини рўёбга чиқариш, тадбиркорлик ва иқтисодий ташаббуслар эркинлиги учун зарур имкониятларни ташкил этиб бериш қобилияти билан ўлчанади”[3].**

Давлат ўзининг бошқарувчилик фаолиятини муайян маънода тўлдирадиган уларга нисбатан маълум маънода рақобат қиладиган эндигина пайдо бўлиб келаётган жамоат бирлашмалари, нодавлат нотижорат ташкилотларининг оёққа туриб кетишини қўллаб-қувватламасдан туриб,биз ўз олдимизга қўйган узоқ муддатли стратегик мақсадимиз – кучли фуқаролик жамиятини янада жадал суръатлар билан ривожлантиришга эришиб бўлмайди.

2017-2021йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили”да [4] амалга оширишга оид Давлат дастурининг биринчи йўналишида жамоатчилик бошқаруви тизимини такомиллаштириш, жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг замонавий шакл ва усулларини ривожлантириш, халқ билан мулоқотнинг самарали механизмини жорий этиш мақсадида “Ўзбекистон Республикасида жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонун лойиҳаси қабул қилиниши режалаштирилган. Давлатимиз раҳбарининг 2016 йил 28 декабрдаги “Жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари билан ишлаш тизимини тубдан такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида” ги Фармонининг ижросини таъминлаш мақсадида Президентнинг **Халқ қабулхоналари ва виртуал қабулхоналарнинг** ташкил этилиши жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларини тўлиқ, холис ва ўз вақтида ўрганиб чиқишда жамоатчилик назорати ролининг янада ортишига олиб келади.

Давлатимиз раҳбарининг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқида [5] ҳозирги кунга қадар мамлакатимизнинг барча худудидаги қабулхоналарда бир миллиондан ортиқ фуқаролар ўзларининг муаммоларини ҳал қилиши **“Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга ҳизмат қилиши керак”**деган тамойилнинг амалда қарор топаётганлиги таъкидлаб ўтилди.

Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган устувор йўналишларни ижро этиш мақсадида давлат бошқаруви тизимини ислоҳ қилишга қаратилган жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг янги шакл ва усулларини жорий қилиш мақсадида “Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида”ги, “Ижтимоий шериклик тўғрисида”ги, “Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида”ги Қонунларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳамда **“Давлат бошқаруви асослари тўғрисида”ги, “Давлат ва хусусий шериклик тўғрисида”ги ва “Давлат хизмати тўғрисида”ги** Қонунлар лойиҳасини ишлаб чиқиш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги

Давлат бошқарув академияси фаолиятини такомиллаштиришга доир Президент Фармонининг лойиҳасини тайёрлаш режалаштирилган.

Фуқароларимизнинг давлат ва жамият фаолиятидаги иштироки кўламини янада кенгайтириш ҳамда уларнинг ижтимоий-сиёсий фаоллигини оширишда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари-маҳаллаларнинг ўрни тобора ортиб бормоқда. Жамият ривожланиб, бир босқичдан иккинчи янада юқори босқичларга кўтарилгани, аҳолининг сиёсий-ҳуқуқий маданияти ва онгу тафаккури ривожланганлиги муносабати билан давлатнинг назорат вазифалари тобора камайиб, унинг айрим ваколатлари жамоат бирлашмалари, нодавлат нотижорат ташкилотларига ҳамда фуқаролар уюшмаларига ўтказилиб борилади. Бугунги кунда давлат бошқаруви органларининг 30 дан ортиқ вазифалари фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органи–маҳаллалар томонидан бажарилмоқда.

Президентимизнинг 2017 йил 3 февралдаги "Маҳалла институтини янада такомиллаштириш чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармони [6] билан Ўзбекистон Республикаси Бош вазири, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар, туманлар ва шаҳарлар ҳокимларига тегишинча фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари фаолиятини мувофиқлаштириш бўйича республика кенгашига, худудий кенгашларга жамоатчилик асосида раислик қилиш вазифасининг юклатилиши маҳаллаларнинг жамоатчилик назоратини янада такомиллаштиришда кучли туртки бўлди.

2017 йил 14 сентябрда "Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида"ги Қонунига [7] киритилган ўзгартишга мувофиқ фуқаролар йиғини раисининг, унинг ўринбосарларининг, маслаҳатчиларининг, фуқаролар йиғини фаолиятининг асосий йўналишлари бўйича комиссиялар ҳамда тафтиш комиссияси раисларининг ҳисоботларини ҳар чоракда эшитиш тартиби белгилаб қўйилмоқда. Қонун билан "Маҳалла посбони" жамоатчилик тузилмаси раҳбарининг, фуқаролар йиғининг диний маърифат ва маънавий-ахлоқий тарбия масалалари бўйича маслаҳатчисининг, шунингдек, жойлардаги профилактика инспекторларининг, таълим муассасалари ва қишлоқ врачлик пунктлар раҳбарларининг фуқаролар олдида ҳисоб бериши тизими белгилаб берилмоқда.

Ҳаракатлар стратегияси билан қабул қилинг вазифаларни "Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари йили"да ижросини таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрда қабул қилинган "Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги Фармон ва унга илова қилинган "Ўзбекистон Республикасида Маъмурий ислоҳотлар концепцияси"да [8] давлат бошқарувини босқичма-босқич номарказлаштириш, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг молиявий имкониятлари, роли ва жавобгарлигини кенгайтириш, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг, айниқса, халқ депутатлари Кенгашларининг ижро этувчи ҳокимият органлари худудий бўлинмалари фаолиятини назорат қилиш бўйича роли ва маъсулиятини ошириш, маҳаллий давлат ҳокимияти тизимини ташкил этишда ҳокимиятлар бўлиниши принципининг амалий рўёбга чиқарилишини таъминлаш, келгусида маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органлари ва ҳокимлар фаолияти устидан таъсирчан жамоатчилик назоратини таъминлашга қаратилган ҳокимларни сайлаш тартибини жорий этиш, ижтимоий-иқтисодий ривожланишнинг долзарб масалаларини ҳал этишда фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг ролини ва фаолият самарадорлигини ошириш тўғрисидаги вазифалар мустаҳкамлаб қўйилган.

2017 йил 14 сентябрда **"Маҳаллий давлат ҳокимияти тўғрисида"**ги Қонунга [7] киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар давлат бошқаруви тизимини янада демократлаштиришга, ҳокимият органларининг фаолияти устидан жамоатчилик ва депутатлар назорати ролини оширишга кўмаклашади. Ушбу тузатишларга мувофиқ, вилоят, туман, шаҳар ҳокимлари томонидан ўз фаолияти тўғрисида фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларига ҳисоботлар тақдим этиш тизими жорий этилмоқда. Мазкур қонун билан **"Прокуратура тўғрисида"**ги Қонунга [7] киритилган ўзгартишга мувофиқ, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳри, туманлар ва шаҳарлар прокурорлари ҳар йили тегишли равишда Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгесига, халқ депутатлари Кенгашларига ҳамда **"Ички ишлар органлари тўғрисида"**ги Қонунга [7] ички ишлар ҳудудий бўлимлари раҳбарлари тегишинча халқ депутатлари Кенгашларига ҳар чоракда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва уларнинг профилактикаси ҳолати тўғрисида ҳисобот тақдим этиши ҳақидаги ўзгартиш ва қўшимчалар киритилиши ҳуқуқни муҳофаза этувчи органлар фаолияти устидан жамоатчилик назоратини мустаҳкамлашнинг ҳуқуқий кафолати бўлиб ҳизмат қилади. Мазкур тузатишга мувофиқ, Ички ишлар вазирлиги ҳудудий бўлимлари раҳбарларининг ҳисоботларини эшитиш танқидий жиҳатдан муҳокама қилиниши, уларнинг фаолияти

самарадорлигига шахсан баҳо берилиши, шунингдек, эгаллаб турган лавозимига мувофиқ ёки мувофиқ эмаслиги тўғрисидаги тавсиялар қабул қилиниши керак.

Ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга оид Давлат дастурининг ижросини таъминлаш мақсадида 2017 йил 14 сентябрда Ўзбекистон Республикасининг **"Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида"**ги ва **"Ижтимоий шериклик тўғрисида"**ги Қонунларига [7] киритилган ўзгартиш ва қўшимчаларда давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларига ижтимоий аҳамиятга молик вазифаларни амалга ошириш учун нодавлат нотижорат ташкилотларига ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларига бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобидан бевосита давлат ижтимоий буюртмасини бериш ҳуқуқини тақдим этиш, шунингдек, давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларини амалдаги қонун ҳужжатларига мувофиқ давлат ижтимоий буюртмаларини бериш давлат буюртмачиларининг рўйхатига киритиш назарда тутилмоқда.

Давлат бошқаруви тизими устидан жамоатчилик назоратининг такомиллаштирилиши давлат бошқаруви идораларининг мавқеи ва нуфузи мустаҳкамланишига, аҳолининг давлат бошқаруви идораларига ишончининг ортишига, давлат органлари фаолиятининг шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашга, давлат бошқарув органлари мансабдор шахслари ўзларининг фаолияти устидан жамоатчилик назорати ўрнатилганлигини чуқур ҳис қилишига, давлат органларининг халқ билан **қайта алоқасини** мустаҳкамлашга, ҳокимият вакиллик органларининг назорат ваколатларини янада мустаҳкамлашга, жамиятда манфаатлар уйғунлигини қарор топтиришга, пировард оқибатда, фуқароларнинг, биринчи навбатда, ёшларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини таъминлашга қаратилган зарур шарт-шароитларни яратади.

Ўзбекистонда кучли фуқаролик жамиятини жадал суръатлар билан ривожлантириш кўп жиҳатдан фуқароларимизнинг сиёсий-ҳуқуқий маданияти, уларнинг онгу тафаккурида фуқаролик туйғуси ва қатъий фуқаролик позицияси, уларнинг қалбида суверен, мустақил Ўзбекистоннинг фуқаросиман деб ғурурланиш, фахр-ифтихор туйғуси шаклланишига боғлиқ. Сўнгги йилларда республикамизда истиқомат қилувчи фуқароларга Ўзбекистон Республикаси фуқаролиги мақомининг берилиши юқоридаги фикримизнинг ёрқин тасдиғидир.

Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз.//Халқ сўзи, 2016 йил 15 декабрь.

2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: "Ўзбекистон", 2015. – Б.13.

3. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8 жилд. – Т.: "Ўзбекистон", 2000. – Б. 334-335.

4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017, 6-сон 70-модда.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. (Нью-Йорк шаҳри, 2017 йил 19 сентябрь) // Халқ сўзи, 2017 йил 20 сентябрь.

6. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017, 6-сон. 69-модда.

7. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017, 37-сон. 978-модда.

8. Халқ сўзи, 2017 йил 9 сентябрь.



Гуландом ЮНУСОВА
Бухоро муҳандислик технология
институти тиллар кафедраси мудири,
фалфаса фанлари номзоди

ҚОДИРИЯ ТАЪЛИМОТИДА ИЛМ ВА АМАЛ БИРЛИГИ ҒОЯСИ

Мақолада қодирия таълимотида илм ва амал бирлиги ғояси хусусида фикр баён этилган. Бунда инсонга илмларни эгаллашнинг ўзигина кифоя қилмайди, балки Яратган томонидан бериладиган илм уни орифликка етказиши ҳақида далиллар келтирилган.

Таянч тушунчалар: *таълимот, қодирия, калом аҳли, илоҳий сифат, орифлик, дарвеш, тажаллий.*

В статье излагается об идеях единства знания и действия в учениях кадирия. В ней приведены примеры о том, что не достаточно овладевать знаниями самому человеку, а знания данные Всевышним направляют его к образованности.

Опорные понятия: *учение, кодирия, люди слова, божественное качество, образованность, дервиш, сияние.*

In article the kadiriya is stated about the ideas of unity of knowledge and action in doctrines. In him examples about what it isn't enough to seize knowledge to the person are given, and knowledge giving to Gods directs him to education.

Supporting concepts: *doctrine, kodiriya, men of his word, divine quality, education, dervish, shine.*

Машҳур тасаввуф алломаси Ибн Арабий: “Худонинг борлиги, зоту сифатларини далил орқали исботлаш мушкул. “Маърифат Ҳақ томонидан юборилади. Бу менинг фикрим эмас, балки илоҳий илҳомдир” [1] – дейди. Хилватда қолган мард инсонда шундай ҳолат юз берадики, унда илмлардан илҳом пайдо бўлиб, унинг раҳмати билан юксалади. Дарвешдаги бу ҳолат оддий одамлар ва исбот-далил аҳли учун қоронғидир. Бу авлиёларга юбориладиган ладуний билим. Абу Язид Бистомий калом аҳлига қараб деган экан: “Сиз ўз илмларингизни жонсиз нарсалардан оласиз, биз эса абадий тирик Зотдан оламиз”[1]. Абу Язид жонсиз нарсалар деб моддалар-ашёларни назарда тутади. Ладуний-раббоний билим Хўжа Хизрнинг билимига қиёс этгулик. Бу ҳақда Абдулқодир Гийлоний шундай фикр билдиради: “Банда ихлос соҳиби бўлмагунча ҳақиқатга етиша олмайди. Чунки башарий сифатлар фақат зотий тажалли билан ниҳоясига етади. Жаҳолатнинг ўртадан кўтарилиши, Аллоҳ таолонинг зотига нисбатан, ирфон соҳиби бўлмоқ ила юзага чиқади. Бу эса таҳсил олиш билан намоён бўлмайди. Аллоҳ таоло воситасиз ўргатади. Гўёки Хизр набийга берилганидек, ўз тарафидан унга илм беради; у эса берилган туйғу билан орифликка эришади ва эҳсон билан ибодат қила бошлайди” [3]. Ушбу талқиндан шуни тушуниш мумкинки, инсонга илмларни эгаллашининг ўзигина кифоя қилмайди, балки Яратган томонидан бериладиган илм уни орифликка етказади. Бу ҳақда Гийлонийнинг асарида шундай талқинни учратамиз: “Мазкур илмни (ўз) менлигида топа олмаган одам, минг жилдлаб китоб ўқиса ҳам, (том маънодаги) олим бўла олмайди. Зоҳирий илмлар билан қўлга киритилган мукофот фақат жаннатга етаклайди. Унда фақат илоҳий сифатларнинг нури тажаллий этади, холос” [2].

Гийлоний ўз асарларида илмларни қуйидаги тўрт қисмга бўлиб таҳлил этади:

1. Шариат илми.
2. Тариқат илми.
3. Маърифат илми.
4. Ҳақиқат илми [2]. Улардан шариат илмини зоҳир илмига ҳамда тариқат, маърифат ва ҳақиқатни эса ботин илмига киритган ва ҳар бирига мос руҳлар, тажаллий ва ақллар борлигини ёзади.

Илоҳий илмлар инсоннинг (комил инсоннинг) қалбига нур орқали аён бўлади. Бундан келиб чиқадики, қалб – бу инсон ва Аллоҳ ўртасидаги восита бўлиб, бунда Яратган ўз бандасига сирларини аён этади. Шу жиҳатдан Гийлоний хос қуллар тимсолида етукликка эришган инсонлар сирасини киритади. “Тафсир авом учун, таъвил эса хос қуллар учундир. Чунки хос қуллар, маънавий илмда етукдир. Етук бу ерда илм жиҳатиндан саботли, қарорли, ҳукм чиқармоққа етук соҳиби кимсалар

маъносида келмоқдадир. Уларнинг ўхшашлиги хурмо дарахти кабидир. Кўку ерда собит, шохларига келинса самога тўғри бош солиб ўсади" [2]. Демак, етук инсонлар Ҳаққа томон интилишида тик ўсадиган хурмо дарахтига ўхшайди. Ҳадисдаги фикр каби унинг меваси ҳақиқат бўлар экан, унга эришиш учун аввал зоҳир илми бўлмиш – шариат босқичи ишғол этилиб, кейин ботин илми поғоналари сифатида тариқат, маърифат ва ҳақиқат босқичларига эришилади.

Илмнинг закоти унга амал қилиш ва бошқаларга тарқатиш билан баҳоланади. Бу ҳақда Абдулқодир Гийлоний илм-маърифат тарғиботчиларини Пайғамбаримизнинг яқин қариндошлари дея эътироф этадилар: "Зоҳирий билимга соҳиб бўлганлар ҳам бир нави, ворис ҳисобланадилар. (Чунки) зоҳирий олимларнинг бир қисми фарзларга соҳиб бўладилар; бир қисми эса "зав-ил-арҳам" мақомида бўлиб, зоҳирдаги илмни муҳофаза қиладилар, амри маъруф ила бандаларни Аллоҳнинг шариатига чақирадилар.

Аҳли суннат йўлини тутган баъзи зотларга келсак, уларнинг силсиласи ҳазрати Али (р.а.) га қадар боради. Ул зот эса илмнинг саройи; ҳикматли даъватининг эшиги ундадир". Мана шу яқинликларига қараб илм аҳли зиммасига қуйидаги уч вазифа юклатилади: биринчи вазифа: ҳол илми. Бу амалларнинг аслидир, эранларга берилди. Эранлар бу ҳолни қўлдан чиқармаслик ҳаракатидадирлар. Пайғамбаримиз (с.а.в.) уларни таърифлар экан, шундай дейдилар: Эранларнинг ҳиммати тоғлардан ошади. Бундаги тоғдан мурод, қалб оғирлиги. Уларнинг дуоси ва ёлборишлари билан орзулар амалга ошади [2]. Иккинчи вазифа: юқорида билдирилган ўзнинг қобиғи. Бу ҳол эса зоҳирий илм соҳибларига берилди. Амри маъруф, яхшиликни сўзлаш, (шаръий) таъқиқларни ўргатиш улар қиладиган ишлар қаторига киради. Бу вазифани пайғамбаримиз (с.а.в.)нинг ҳадиси шарифлари дурустроқ англатмоқда: Олим ўгитини илм ва одоб билан беради; жоҳил эса гина ва таёқ билан. Шариат амалларига даъват қилувчи илм соҳиби, албатта, ўзи ҳар тарафлама ибрат бўла олиши, илм ва амали бир бўлган олим бўлса айни муддао бўлар эди. Учинчи вазифа: юқоридаги қобиқнинг қобиғи ҳисобланади. Амирларга хос амаллардирки, зоҳирий адолат ва сиёсат каби. Бу ҳолга ...Улар (сиз билан талашиб-тортишадиган кимсалар) билан энг гўзал йўлда мужодала – мунозара қилинг!..(Наҳл: 125) жумласи ишора қилмоқда. Булар "қаҳҳор" сифатининг мазҳаридирларки, диний низомни ҳимоя қиладилар. Мисоли хом ёнғоқнинг яшил қобиғи каби. Зоҳирий илм соҳиблари эса, ёнғоқнинг қаттиқ қобиғига ўхшайдилар. Ботин олимларига келсак, шу ёнғоқнинг ўзи – асли (яъни, мағзи) ҳисобланадилар [2].

Абдулқодир Гийлоний таъкидлаган ушбу вазифаларни халққа етказишни муаллиф бир ҳадис тимсолида бериб шундай талқин қилади: "Уламолар мажлисида қатнашинг. Ҳакимларнинг сўзларини тингланг. Аллоҳ таоло ёмғир суви билан ерни яшнатганидек, ҳикмат билан ўлик қалбларни тирилтиради".

Гийлоний маърифатли бўлишда илм ва амалнинг бирлигини, бири иккинчисини тақозо этишини ва бири иккинчисиз бўлиши мумкин эмаслигини чуқур таҳлил этган ва бу масала жуда катта аҳамиятга эга эканлигини таъкидлаган: "Амалсиз илм ҳаргиз фойда бермас. Илминг: "Агар, менга амал қилмас экансан, сенинг зарарингга ҳужжат бўламан, деб нидо қилади" – дейди Гийлоний ва шундай ҳадисни далил сифатида келтиради: "Илм амални чақиради, агар жавоб берса яхши, акс ҳолда у кетади". Буни Гийлоний шундай изоҳлайдики, илмнинг кетиши – унинг баракаси ва шафоати кетиб, аъзоларнинг илмни эгаллашдаги меҳнат-машаққатлари қолгани кабидир. Ёки оддий қобиғи қолганича кабидир. "Чунки илмнинг мағзи амалдир," – дейди Гийлоний. Амалсиз илм мағзсиз ёнғоқ кабидир. Гийлоний амал яна илмни кўпайтириб, янги илм манбаларига олиб келишини айтади. "Илм мисоли данак, амал эса унинг мағзидир. Илм сақланса, амал ҳимоясиз қолмайди. Мағзи (амал) сақланса, ундан ёғ чиқади. Агар данакда мағиз бўлмаса, нимага ярайди, мағиз бўлса, ичида ёғ бўлмаса, унинг нима кераги бор. Амал кетгандан кейин илм ҳам унинг орқасидан эргашади. Амалсиз ёдлаган, ўқиган дарсларинг сенга фойда бермайди".

Демак, Гийлоний амални, бир томондан, илмни сақлаш, мустаҳкамлаш учун аҳамиятли, унинг закоти деса, иккинчи томондан, илмни кўпайиш, бойишига ёрдам берувчи асос сифатида қарайди.

Гийлонийнинг билишга оид қарашлари ўз даври хусусиятидан келиб чиққан бўлиб, уни қуйидагича хулосалаш мумкин:

- билиш жараёнида асосий мақсад маърифатли бўлиш ва ҳақиқатга етишдир. Маърифат тушунчаси тор ва кенг маънода қўлланилган;

- илмлар зоҳирий ва ботиний сифатида тасниф этилган бўлиб, улар бир-бири билан узвий боғланган ва бир-бирини тақозо этади;

- иррационал билишда қалб кўзи, сир кўзи, басират билан бирга важд ва самоъ ҳолатига махсус эътибор берилган.

Қодирия таълимотининг фалсафий-ирфоний асоси борлиқни ваҳдати вужуд тарзида талқин этиш ва инсоннинг бутун борлиқни ўзида акс эттирган “улуғ олам” бўлганлиги ғоясидир. Шунга, асосан, у ўз-ўзини билиш, англаш орқали ҳақиқатга етишни ўзига асосий мақсад қилиб қўяди.

Адабиётлар

1. Комилов Н .Тасаввуф. Биринчи китоб. – Т.: Ёзувчи, 1996. – Б. 38.

2. Шайх Саййид Абдулқодир Гийлоний. Сиррул асрор. Мактубот. – Т.: Мовароуннаҳр, 2005. – Б. 63.



Хўжагелди АЛИМОВ
ОЎМТВ ҳузуридаги Бош илмий-методик
маркази бўлим бошлиғи, психология фанлари номзоди, доцент

НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ АСОСИЙ ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ МЕТОДОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Ушбу мақолада нақшбандия тариқати асосий тамойилларининг методологик жиҳатлари ҳамда уларнинг тасаввуф жараёнидаги ва уни тадқиқ этишдаги роли ҳақида сўз боради.

Таянч тушунчалар: *методология, тамойил, тариқат, нақшбандия, эътиқод, ҳулул, зикр, рашҳа, ақоид.*

В этой статье речь идёт о методологических аспектах основных принципов тариката накшбандия и их роли в процессе тасаввуф, а также в исследовании этого процесса.

Опорные понятия: *методология, принцип, тарикат, накшбандия, вера, хулул, зикр, рашха, акоид.*

This article deals with the methodological aspects of the basic principles of the Tariqa Nakshbandiya and their role in the tasawwuf process, as well as in the study of this process.

Supporting concepts: *methodology, principle, tarikat, nakshbandiya, faith, hulul, zikr, rashha, akaid.*

Нақшбандия тариқати таълимоти нуқтаи назаридан туриб масаланинг методологик жиҳатларини ўрганиш унинг келажакда ривожланиши учун муҳим аҳамият касб этади. Биз қуйида тасаввуфни тадқиқ қилишнинг хусусий ёки махсус методологик тамойил ва қоидаларни кўриб чиқамиз. Маълумки, мамлакатимизда нақшбандиягача мавжуд бўлган кўплаб тариқатлар (кубравия, яссавия, қодирия ва ҳк.) бугунги кунгача етиб келмади, тарих саҳифаларида муҳрланиб қолди. Нақшбандия тариқати эса бугунги кунда ҳам нафақат мамлакатимизда, балки бутун дунёда фаолият кўрсатиб келмоқда. Бунинг сабаблари нимада? Бу саволга жавоблар кўп бўлиши мумкин. Бироқ, биз, методологик нуқтаи назаридан туриб жавоб берадиган бўлсак, мазкур тариқатнинг методологик тамойиллари аслида тўғри қўйилганида, мазкур тамойилларнинг ҳар қандай тузум ва замонлар оша ўз аҳамиятини йўқотмаганида, ҳар қандай даврда ҳам уларни ҳаётда қўллаш мумкинлигида, қолаверса, “Қуръон” ва ҳадисларда илгари сурилган ғоялар билан муштараклигини кўриш мумкин. Шу ўринда муҳим бир нарсага эътиборни қаратмоқчимиз. Эътиқод масаласи исломда марказий тушунчалардан бири ҳисобланади. Шу масала мўъминни кофир ёки мунофиқдан ажратиб туради. Исломий эътиқоднинг энг юксак чўққиси тавҳиддир. Тавҳид исломни бошқа барча диний эътиқодлардан ажратиб туради ва унинг тўғри эътиқод эканлигини исботлайди. Умуман айтганда, эътиқод бўйича чиқарилган ҳар қандай ақоидий қоидалар тасаввуф психологиясини ўрганиш учун методологик аҳамият касб этади. Бу фикримизни битта мисол билан исботлашга ҳаракат қиламиз. Тасаввуфда “ҳулул” деган тушунча бор. Баъзи мутасаввифлар Аллоҳ авлиёга ҳулул этади деган фикрни билдиришади. Баъзида авлиё руҳи Аллоҳ билан қўшилиб кетади дейишади. Шу ўринда Туркиялик профессор Иброҳим Огоҳ Чубукчининг “Ҳаллож” мақоласидаги қуйидаги сатрларга эътиборни қаратиш лозим: “Ҳалложнинг тасаввуфий қарашлари орасида қуйидаги хусуслар диққатга сазовордир. 1. Тангри инсонга ҳулул этади, яъни инсоннинг ичига киради. Бошқача айтганда, лоҳут носутга киради. Бу дегани илоҳий зот инсоний зотга кириши мумкин...” [13]. Агар шу даъво тўғри бўлса, Ҳалложнинг эътиқодий масаладаги катта хатога йўл қўйганлиги аён бўлади. Бундай ғояларнинг барчаси ботилдир.

Султонмурод Олимнинг қуйидаги фикрига эътиборимизни қаратамиз:”...комил инсонлар пировардида, шубҳасиз, Оллоҳ васлига мушарраф бўладилар, руҳан тангри билан бирлашиб кетадилар, ваҳдат, яъни бирликка эришадилар” [7]. Агар юқоридаги гаплар инсоний тасаввурда айтилган бўлса, ҳулулга яқин ҳолат бўлиб қолади ва у ҳам ботилдир. Аллоҳга инсоний сифатларнинг берилиши эътиқод илми бўйича нотўғри саналади.

Сўфи Оллоёр ўзининг “Сабот ул-ожизин” асарида шундай деб ёзади:

“На этса эрки бору қудрати бор,
Қўли бирла яратти дема зинҳор.
Тилингни сақла бундоқ қавли баддин,
Худовандим муназзаҳдур жасаддин” [8]. Бу ҳақда нақшбандия тариқатининг пирларидан бири Аҳмад Зиёуддин ал-Кумушхонавий ҳазратлари шундай деб ёзади: “Тасаввуф аҳлининг баъзиларининг сўзларидан ҳулул ва иттиҳод (бирлашиш) маъноси англашилади. Аммо бу хато тушунчадир. Аллоҳ баъзи дўстларига (валий бандаларига) кароматлар беради, аммо бунинг на иттиҳодга, на ҳулул қилишга ва на ваҳдати вужудга алоқаси бор – ҳеч бирига ҳеч қандай алоқаси йўқ” [4]. Эътибор бериб қаралса, муҳим эътиқодий масала бевосита тасаввуф таълимоти билан узвий алоқада экан. Тасаввуф таълимотининг шу масаладаги оғиб кетиши уни ботил таълимотга айлантириб қўйиши мумкин экан. Демак, бу ўринда умумий методологик ҳолат кузатилаяпти.

Аҳмад Зиёуддин ал-Кумушхонавий ҳазратлари бошқа бир ўринда мазкур масала тўғрисида бунданда батафсилроқ фикр юритади:”... баъзи мутасаввифлар ҳам: “Солик ғояга (мақсадига) етгач, ёш ниҳолга сув ҳулул этганидек, Аллоҳ ҳам унга ҳулул этади, ажратиш мумкин бўлмайди, шунда: “Мен Уман, У мендир” дейиши мумкин...” дейишади. Уларнинг фикрича, бу қўшилув, ё иттисол (боғланиш), ё ижтимоъ (жамланиш), ёки истиҳола (ҳолдан қайтиш) йўли билан билан бўлади. Аллоҳ бу каби ҳоллардан муназзаҳдир. Булар даъво қиладиган иттисол ва ижтимоъ каби ҳоллар аслида Аллоҳнинг нури соликнинг қалбида акс этмоғидан иборат. Улар буни ҳулул деб (кириб ўрнашиш) деб ўйлайдилар. Сувга қараган бир бола ўзининг аксини кўрганда, “Шу қуёш” дегани каби бу...” [4]. Тасаввуфдаги ҳулул масаласини бунданда мукаммал қилиб тушунтириш қийин. Дарҳақиқат, инсон ўзини ўзи тарбия қилиб, лаззат ва шаҳватларга берилмай сабр қилса, айбу нуқсонларидан покланса илоҳий нур унинг руҳига сингади. Ҳулулнинг чегараси шу ерда тугайди. Шунинг ўзи ҳам ўта юқори мартаба ҳисобланади. Бу ўринда бизнинг насибамиз нимада? Масалан, ҳулул масаласидаги эътиқодий тўғри ечим методологик аҳамиятга эга. Бошқача айтганда, тасаввуф психологиясидаги барча ҳоллар учун умумий ахлоқий қоида ҳисобланиб, солик бундай ҳолларни бошидан кечирганда куфрга юз тутмаслигининг олдини олади, тўғри йўлдан кетиш имконини беради. Шу нуқтаи назардан, эътиқод масаласини ўрганадиган ақоид илми тасаввуф психологияси учун методологик аҳамият касб этади. Агар солик ёки тасаввуф психологиясини тадқиқ этаётган тадқиқотчи эътиқодий қоидаларни методологик тамойил сифатида қабул қилса, шу тамойиллардан келиб чиққан ҳолда тасаввуфга кирса ёки тасаввуфнинг психологик жиҳатларини тадқиқ этса, албатта адашмайди, йўлини тўғрилаб олади.

Эътиқод илмининг тасаввуфни тадқиқ қилишда методологик тамойил бўлишлиги масаласида Хожа Абдухолиқ Ғиждувоний ўзининг “Васиятнома” рисоласида шундай деб ёзади:”Юрагинг ғамгин, тананг салқи ва қувватсиз, кўзинг ёшли, ишинг риёдан холи, кийиминг жулдур, дилинг пок, дўстларинг дарвиш, хонақонг – масжид, **асосинг – эътиқод илми** (таъкид бизники – Х.А.), зийнатинг – дунё неъматларидан тийилиш, ҳамсуҳбатинг мудом Аллоҳ бўлмоғи даркор” [12]. Бу ўринда Ҳазрат Абдухолиқ Ғиждувоний тариқатнинг асосини эътиқод илмида кўраяпти. “Асосинг” деганда у киши тариқат таълимотининг методологик жиҳатини назарда тутмоқда.

Энди нақшбандия тариқатининг яшовчанлиги масаласини кўриб чиқайлик. Мазкур масалани ойдинлаштириш баробарида муҳим методологик тамойилларга етиб келамиз. Маълумки, нақшбандия тариқатининг энг муҳим талабларидан бири ҳалолликдир. Бу бошқа тариқатларда ҳам мавжуд. Бироқ нақшбандияда бу масала юксак даражада тараннум этилади. Ҳалоллик тариқатнинг кейинги босқичлари учун пойдевор вазифасини ўтайди. Кейинги барча қоидалар мана шу пойдевор устига қурилади. Бу ҳақда Амир Кулолнинг машҳур гаплари бор: “Билгинки, дил ва тилнинг поклиги луқмаи ҳалолдандир. Одамнинг ошқозони худди ҳовуз кабидир, унга тоза сув қуймоқ лозимдир. Бу пок сув ва тупроқдан ҳосил бўлган ҳар бир гул ва мева албатта пок ва фойдали бўлур”. Амир Кулолнинг мазкур сўзларини шарҳлар экан, М. Раҳмонова шундай деб ёзади: “... бу ерда мутасаввиф “дил ва тилнинг поклиги луқмаи ҳалолдандир” [9] – деб таъкидлаш билан луқмаи ҳалол инсон маънавий ва ахлоқий поклигининг белгиларидан бири, деб ҳисобламоқда. Иккинчидан, пок сув ва тупроқдан ҳосил бўлган ҳар бир гул ва мева фойдали бўлади, деб ҳалол луқма инсонни жисмоний жиҳатдан ҳам покиза этишга ишора қилмоқда. Учинчидан, фақат луқмаи ҳалол истеъмоли билан кун кечирган инсонлардагина қалб кўзи очилиши имконияти бўлишини таъкидламоқда”. Ҳалоллик тўғрисида бунданда зиёдароқ қилиб гапириш қийин. Демак, ҳалоллик ҳам методологик қоида ҳисобланади, яъни шу қоидани сақламасдан йўлга чиқиш беҳуда, ноҳалоллик соликни ботил йўлларга оғиб кетишига сабаб бўлиши мумкин. Бундан кейинги нақшбандия тариқатининг муҳим методологик қоидалари-

дан бири машҳур “Дил ба ёру, даст ба кор” қоидаси. Фикри ожизимизча, айнан мана шу методологик қоида мазкур тариқатни ўзга тариқатларга нисбатан яшовчан қилиб қўйди. Бу қоида инсоннинг шу фоний дунёда қандай яшамоғи кераклиги тўғрисидаги “Қуръон” ва ҳадисларда баён этилган қоидаларга жуда ҳам мос тушади. Нақшбандия тариқати инсонларни ҳалол меҳнат қилиб, қалбидаги нуқсонларни йўқотиб, Аллоҳни унутмасдан, доим Унинг зикрида бўлиб ҳаёт кечиришликни тарғиб қилиб келган. Мутаасибчилик, дарвишчиликни, узлатга чекиниб, оила, бола-чақани боқишдан узоқлашиб юришликни танқид остига олади. Одатда бу қоидани қўл меҳнатда бўлиши керак, дил Аллоҳ ёди билан бўлиши керак, деб жўн тушунадиганлар ҳам бор. Аслида булар иккаласи ўртасидаги алоқани ҳеч қачон эсдан чиқармаслик керак, яъни Аллоҳни ёд этиб бирорта иш қилинадиган бўлса, бу иш баракотли бўлади, ривож топади. Тарихчи олим Зокиржон Қуттибоевнинг қуйидаги гаплари билан қўшилмасдан иложимиз йўқ: “Нақшбандия тариқатнинг яна бир қоидасига Хожа Аҳрор доимо риоя қилди. У ҳам бўлса, “Даст ба кору, дил ба ёр!”, яъни қўлинг иш билан, қалбинг Аллоҳ билан бўлсин! тамойили. Тариқатнинг мана шу тамойили Хожа Аҳрор томонидан янада ривожлантирилди, чунки Аллоҳни ёд этиб қилинган ишда ривож, барака ва самара бўлади” [14]. Дарҳақиқат, Аллоҳни дилда сақлаган ҳолда, доимий ёд қилган ҳолда меҳнат қилиш нақшбандия тариқатининг энг муҳим нуқтаси ҳисобланади. Бундай мақомга оддий меҳнаткашлар ҳам етиши мумкинлиги мазкур тариқатни оммалаштириб юборди ва унинг яшовчанлигини таъминлади.

Нақшбандия тариқатининг яна бир муҳим психологик жиҳати зикр масаласидир. Маълумки, доимий ҳолда Аллоҳни ёдда тутиш, яъни зикрда юриш мазкур тариқатнинг асосий устунларидан бири ҳисобланади. Аксарият тариқат аҳли “зикри алонияни”, яъни жаҳрий зикрни ўз амалиётларида қўллашар эдилар. Масалан, Хожа Аҳмад Яссавий тариқатида “зикри арра” қўлланилар эди. Бу зикр жаҳрий зикрнинг бир кўринишларидан биридир. Қолаверса, баъзи сўфийлар самоъ, яъни зикр қила туриб рақсга ҳам тушардилар. Бундай йўлни, масалан, Жалолиддин Румий томонидан асос солинган мавлавия тариқатида тутишар эди. Улар Аллоҳ исмини ёки тавҳид калимасини овозларининг борича қўшиқ қилиб айтишар ва рақсга тушишардилар. Жаҳрий зикр, рақсу самоъ ҳар қандай жойда шуғулланиш имконияти нуқтаи назаридан халқ учун бир қадар қийинчилик туғдирар эди.

Нақшбандия таълимотида эса зикри хуфия жорий қилинган эди. Баҳоуддин Нақшбанд ҳазратлари шундай дер эдилар: “Ҳазрати Азизондан икки хил зикр нақл қилинади. Унга Аллоҳнинг раҳмати ва ризолиги бўлсин. Бири – жаҳр ва бири – хуфя. Хуфя зикри кучли ва авло бўлгани учун биз уни ихтиёр қилдик” [2]. Мурид исми зот (Аллоҳ)ни ва нафйи исботни (ло илоҳа иллаллоҳ)ни дилида хуфя ҳолда, нафйи исботни тоқ сонда айтиши кераклигини Абдухолиқ Ғиждувоний ҳазратларига Хизр алайҳиссалом таълим берган эди. Бироқ кейинги пирларимизда қайтадан зикри жаҳрияга ўтилган эди. Ҳатто Баҳоуддин Нақшбанд ҳазратлари ўз пири Амир Саййид Кулолдан зикри алониядан воз кечишни сўраганда, рад жавобини олади. Бу ҳақда филология фанлари доктори, профессор Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ шундай маълумот беради: “Нақшбандия амалиётининг асосий қисми ичида, яъни қалб билан махфий зикр қилиш (Аллоҳ номини эслаши, такрорлаш)дир. Бу тариқатнинг кўпчилиги афзал ҳисоблайдиган овоз чиқариб (жаҳрий) зикр қилишдан фарқ қилади. Махфий зикрни пайғамбар ғорда бирга бўлганлари Абу Бакрга ўргатганлар, овоз чиқариб зикр қилишни эса Ҳазрати Алига айтганлар, шунинг учун нақшбандиянинг баъзи жамоаларида бу кейингисига ҳам йўл қўйилади”.

Баҳоуддин Нақшбанд ҳазратлари ўз даврида зикри хуфияни жорий қилди. Бунинг устун томонлари шунда эдики, инсонлар меҳнат қилаётганда ҳам, ўтирганда-турганда ҳам, бир жойга тўпланмаган ҳолда ҳам, шовқин сурон кўтармасдан, рақсу самоъ қилмасдан исми зот (Аллоҳ), нафйи исбот (ло илоҳа иллоллоҳ) ни хуфия айтиши мумкин эди. Бошқача айтганда, мусулмонлар доимий зикрда бўлиш имкониятига эга бўлдилар. Нақшбандия тариқатидаги бу қоида ҳам таълимотни яшовчан қилиб қўйди ва омма орасида кенг тарқалишига сабаб бўлди. Зикри ҳуфия тўғрисида Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд шундай деганлар: “Хуфия зикрга машғул бўлганимда сирримдан огоҳлик ҳосил бўлди. Бу “сирр”нинг асли учун талабда бўлдим. Мавлоно Ориф билан ўттиз йил мана шу борада қидириш ва изланишда бўлдик. Икки марта Ҳижоз сафарига борилди. Бурчагу гўшаларда кездик. Киши бормики, ўзи тиззама тизза ўтирса-ю, сайрда осмонлардан ўтса, зоҳирда у ерда бўлса-ю, ботинда бу ерда машғул бўлса!”. Хуфия зикрда солик тезроқ сирдан огоҳ бўлар экан. Сирдан огоҳ бўлиш мақоми тасаввуфда юксак босқичлардан бири ҳисобланади.

Хожагон – Нақшбандия сулуки таълимотининг асосини ташкил этадиган рашҳалар (томчилар) борки, улар ҳам тасаввуф психологиясида ўзига хос методологик тамойиллар бўлиб хизмат қилади.

Мазкур рашҳаларни ҳар бир солик ўз амалиётида қўллаши лозим. Шундагина у сафарга тайёр бўлади.

Биринчи рашҳа “Хуш дар дам”деб аталади ва ундан кўзланган мақсад соликни ҳар бир олаётган нафаси учун огоҳликка чақиришдир. “Ҳуш ҳар дам ул турурким, ҳар нафасеким, ичкаридин келур, керакдуркким, ҳузур ва огоҳлик юзидин бўлса ва ғафлат онга йўл топмаса”. Ҳар бир олинган нафас аввалом бор Аллоҳнинг иноятн билан бўлади. Агар у бўлмаса, кирган нафас чиқмай, чиққан нафас кирмай қолиши мумкин. Яъни ҳар олган ва чиқарган нафасимиз Аллоҳдан. Бас, шундай экан, ҳар бир нафасимизда шу нафасни бераётган Раббимизни ёдлашимиз, Унинг қудратини ҳис қилишимиз лозим.

Иккинчи рашҳа “Назар бар қадам”да соликнинг ҳар босган қадамини назоратда ушлаб турмоғи лозимлиги тушунилади. “Назар бар қадам” улдирки, соликка юрганда ва келгонда шаҳару саҳрода ва барча ерда назари пўшти пойида бўлсун, токим онинг назари пароканда бўлмасун ва дуруст эрмас жойга тушмасун”. Солик юрганда назарини оёқлари остига қаратиб юрсин, нигоҳини атрофга қаратмасин ва муҳими соликнинг назари кераксиз жойларга қаратилмасин ҳамда қадами ножоиз йўлларда бўлмасин.

Учинчи рашҳа “Сафар дар ватан” деб аталади. “Сафар дар ватан” ул турурким, солик табиати башарийда сафар қилур, яъни сифати башарийдин сифати малакийга ва сафоти замимадин сифоти ҳамидага интиқол этар”. Бунда иккита сафар ҳақида гапирилаяпти: ҳам жисмоний сафар, ҳам руҳоний сафар. Жисмоний сафарнинг ҳам ўзига хос жиҳатлари бор, масалан, киши бир юртдан бошқа юртга бориши натижасида кўплаб маънавиятига таъсир кўрсатадиган ҳоллардан огоҳ бўлади, маълум хулосалар чиқариш имкониятига эга бўлади.

Энди руҳоний сафар деганда инсоннинг одамийлик табиатига сафар назарда тутилади. Бошқача айтганда, руҳоний сафарда солик мамлакатлар аро кезмасада, ўз юртида бўлсада, мусофирлар кечирган ҳолларни бошидан кечиради.

Тўртинчи рашҳа “Хилват дар анжуман” деб аталади. “Ойдиларким, “хилват дар анжуман” базоҳир бохалқ ва баботин боҳақ. ...ойдиларким, нисбати ботиний бу тариқада ондоғ тушубдурким, дилнинг жамъияти малода ва суврати тафриқа кўброқ ондин турурким хилватда”.

Шайх Саййид Абдулқодир Гийлоний ҳазратлари шундай деб ёзади [11]: “Хилват ҳам, узлат ҳам икки шаклда кўрилади: зоҳирий ва ботиний.

Хилват ҳолининг зоҳирдаги маъноси шуки, инсон (ўз) нафсини ўрганган нарсаларидан айириб, маънавий туйғуларнинг очилишига йўл беради; ўринсиз феъллари билан халққа азият етказмаслиги учун ўзини чекка бир жойга олиб, одамлардан узоқлашади”.

“Ботиний хилват – қалб (соҳаси)га нафс ва шайтонга оид ҳар қандай фикрнинг кирмаслиги; емоқ, ичмоқ, киймоқ кабиларнинг бунга (яъни қалб учун муҳим қилиб) қўйилмаслиги; бола-чақа, уй-рўзғор ва чорва моллари (от, сигир, қўй ва ҳ.) каби махлуқот севгисининг ҳам ундан узоқ тутилмоғи ила мумкин бўлади”.

Бешинчи рашҳа “ёдкард” деб аталади ва тил ёки дил зикри билан боғлиқ масаладир. “Зикрдин мақсад улдирким, кўнгил ҳамиша муҳаббат ва таъзим вазъи била Ҳақ суҳонаҳу ва таъолога огоҳ бўлсун” (Ҳазрати Эшон Убайдуллоҳи Аҳрор). Бу рашҳа ҳақида Мавлоно Саъдиддин Кошғарий шундай фикрни билдирган эканлар: “Зикр таълим беришнинг йўли шуки, шайх аввал дили билан “ло илоҳа иллаллоҳу Муҳаммадур расулулоҳ” дейди. Мурид эса диққатини жамлаб, кўнглини шайхнинг рўпарасида тутади, кўзини очиб, оғзини маҳкам юмади, нафас олмай, эҳтиром ва эҳтирос билан юқоридаги зикрни айтишга бошлайди. Бу зикрни тили билан эмас, балки кўнгли билан айтади. Ҳибси нафас (нафас олмасдан)да чидасин ва бир нафасда нафас олмасдан уч марта айтсин, токи зикр ҳаловати кўнглига етсин...”. Олтинчи рашҳа “бозгашт” деб аталиб, бунда “ёдкард”дан кейин, яъни калимаи тоййиба зикр этилгандан сўнг “Парвардигорим, менинг мақсудим сенсан” деган сўзни айтиб қўйишдир. “...бу калимаи бозгашт нафий этгувчидир ҳар ховотиреникм, яхши ва ямондин келур, то анинг зикри холис бўлсун ва онинг сирри мосуводин фориғ ойланур. Ва агар мубтадий бадояти зикри калимаи бозгаштда ўзидин сидқ мавжуд топмаса, керакким, они тарк этмасун, онинг учунким, даража-бадаража сидқнинг асарлари зоҳир бўлур”. Еттинчи рашҳа “нигоҳдошт” бўлиб, (“Нигоҳдошт” – ул иборатдур муроқабайи ховотирдин, ондоғким, бир дамда неча мартаба “калимаи тоййиба”ни ойтурким, ховотири ғайриға ташқари кетмас”) калимаи тоййибани бир нафасда неча марта айтса ҳам, шу давр мобайнида хаёлни бошқа нарсаларга юбормаслик тушунилади. Бу рашҳа ҳақида Саъдудин Кошғарий шундай деб ёзади:”...бу калиманинг маъносида айтадики, бир соат, икки соат ёки ундан кўп вақт, имкони борича, ўзини хаёлу фикрлардан асрасин, шундан сўнггина

бошқа нарса ҳақида фикрласин”. Хаёл инсон диққатини бошқа томонга чалғитадиган жараёндир. Зокир эса имкон қадар ташқи муҳитдан ажралиши, диққатини калимада жамлаши, турли туман дунёвий нарсалардан халос этиши лозим бўлади. Саккизинчи рашҳа “ёддошт” бўлиб, “... ундан мақсад Ҳақ субҳонаҳу ва таолони доимо завқу шавқ билан ёдда тутиб, огоҳ бўлишдир”. Маълум маънода, бу ҳолат “Баъзи ҳақиқат аҳлининг назарида у шундай бир мушоҳададурки, Ҳақ субҳонаҳу муҳаббати кўнгилни тамоман ўзига қамраб олади”. Бу ёддоштнинг ҳосил бўлишининг белгисидир. Бу инсон ўз диққатини бошқара бошлаганини кўрсатадиган муҳим психологик ҳолат.

Тўққизинчи рашҳа “вуқуфи ададий” бўлиб (“Зикри қалбда ададни риоя этмак пароканда бўлған хавотирларни жамъ этмак учун турур” (Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд), бу ҳақда Нақшбанд ҳазратлари шундай деганлиги маълум: “Вуқуфи ададий” (тоқ айтиш) илми ладунийнинг бошланғич поғонасидир”. Ориф Усмон ёзади: “Вуқуф” – тасаввуфий истилоҳ бўлиб, “билим”, “таълимот” маъноларини англатади”. Бунда маълум саноқларда зикр қилиниши қоидаси назарда тутилаяпти. Маълум ададдаги зикр саноғи айтилганда солик руҳида кутилмаганда ўзгариш ясайди.

Ўнинчи рашҳа “вуқуфи замоний” деб номланади ва ундан мурод солик ҳар доим ўз ҳолидан хабардор бўлиб туриши лозим. “...вуқуфи замониким, йўл юргувчиларнинг коргузорандаси турур, ул турурким, банда ўз аҳволиға воқиф бўлсунким, ҳар замонда онинг сифати ва ҳоли не турур: мужиби шукр турурму ё мужиби узр (Баҳоуддин Нақшбанд)”. Бунда калимани бир нафасда уч марта айтиш шарти қўйилади. Агар ҳисоб йигирма бирдан ошганда ҳам бирорта сифат ўзгариши кузатилмаса, ишни янгидан бошлашга тўғри келади. Солик умр деб аталган неъматдан қандай фойдаланганлиги тўғрисида тафаккур қилиши назарда тутилади. Бундай тафаккур соф психологик ҳодисадир.

Ўн биринчи ахлоқий қоида “вуқуфи қалбий” деб аталади. “...вужуди қалбий иборат турур кўнгулнинг жаноби Ҳақ субҳонаҳу таъолоға огоҳ ва ҳозир бўлмағидин, бир важҳеким, кўнгулда Ҳақ субҳонаҳу таъолодин бошқа ҳеч бойисти ва хости бўлмасун” (Ҳазрати эшон Убайдуллоҳи Аҳрор). “Вуқуфи қалбий жазаба таъсирини ўзида ҳис қилиш ва бу таъсирнинг қалбдан ўрин олиши учундир. Зикрда ададга риоя қилиш диққатни жамлаш учундир, чунки назар паришондир”. Бу ерда ҳам диққат деб аталган психологик ҳодиса ҳақида гап кетаяпти. Маълумки, диққатнинг учта тури бор. Биринчиси, соликнинг ихтиёрисиз, ташқи муҳитнинг таъсирида пайдо бўладиган диққат. Иккинчиси – соликнинг инон-ихтиёри билан содир этиладиган диққат. Бунда солик ўз ирода кучига таяниб, диққатини мажбуран маълум объектга қаратади. Учинчиси – (бу энг юқори даражадагиси) диққатдан кейинги диққат бўлиб, бунда солик калиманинг мазмуни мушоҳадаси билан дунёдан узилиб, ўзини мажбурламасдан, объектга сингиб кетади. Фикримизча, гап айнан мана шу сўнгги даражага етиш ҳақида кетаяпти. Баҳоуддин Нақшбанд ҳазратлари шундай деб ёзади: “...нафй (инкор) пайтида башарият вужуди унутилади, исбот пайтида эса Илоҳият жазабасидан ҳосил бўлган тасарруфлар таъсири ёркин ҳис этилади”. Бу ўринда эса хотиранинг унутилиш ва эслаб қолиш жараёнлари ҳақида фикр юритилаяпти.

Шундай қилиб, биз юқорида тасаввуф психологиясига хос бўлган муҳим махсус методологик қоидалар тўғрисида ўз фикрларимизни баён этдик. Мазкур психологик қоидаларга таянган ҳолда тасаввуф оламига кирилса ёки тасаввуф таълимоти тадқиқ қилинса бу йўлларда хато кетишлар бўлмаслиги аниқ.

Адабиётлар

1. Абдуллоҳ Исматуллоҳ Ҳожи. Баҳоуддин Нақшбанд./ “Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар” китобида. – Т.: “Ўзбекистон”, 1994. – 335 бет.
2. Абул Муҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. Баҳоуддин Балогардон/Таҳрир ҳайъати: А.Рустам ва бошқ. Форсийдан тарж. Сўзбоши ва луғат муаллифи Маҳмудхон Махдум Ҳасанхон Махдум ўғли. – Т.: Ёзувчи, 1993. – 208 б.
3. Акрам Ботирхон. Ҳазрати Нақшбанд ва Навоий. / “Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар” китобида. – Т.: “Ўзбекистон”, 1994. – Б. 203
4. Аҳмад Зиёуддин ал-Кумушхонавий. Жомеъ ул-мутун. – Т.: “Мовараунаҳр”, 2000. – 313 б.
5. Рашаҳоту айнил-ҳаёт (“Обиҳаёт томчилари”): тарихий-маърифий асар. – Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2004. – 536 бет.
6. Сафарова Н. Хожагон тариқати. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2003. – 87 бет.
7. Султонмурод Олим. Хожа Баҳоуддин ҳақиқати. – Наманган, 1994. – 40 бет.

8. Сўфи Оллоёр. Сабот ул-ожизин. – Т.: “Меҳнат”, 1991.

9. Раҳмонова М. Хожагон – Нақшбандия тасаввуфий таълимотида “ҳалол” тушунчаси. // “Ориф Деггароний – Марказий Осиё тасаввуф таълимотининг буюк валийси” республика илмий-назарий конференция материаллари. – Навоий, 2007. – 140 бет.

10. Усмон Ориф. Шайх Абдухолиқ Ғиждувоний. (Масъул муҳаррир С.Рафиддинов). Илмий-оммабоп рисола. – Т.: “Мовароуннаҳр”, 2003. – 68 бет.

11. Шайх Саййид Абдулқодир Гийлоний. “Сиррул-асрор”, “Мактубот”/ Таржимон, сўзбоши ва луғат-изоҳлар муаллифи Отабек Жўрабоев. – Т.: “Мовароуннаҳр” нашриёти, 2005 йил. – 226 бет.

12. Хожа Абдухолиқ Ғиждувоний. Васиятнома. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. – 15 бет.

13. Чубукчи Иброҳим Огоҳ. Ҳаллож.// “Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар”. – Т.: “Ўзбекистон”, 1994. – 335 бет.

14. Қуттибоев З. Хожа Аҳрор Валий маънавияти. – Т.: “Фан”, 2007. – 193 бет.



Бозор САФАРАЛИЕВ
доктор педагогических наук, профессор
Челябинского государственного института культуры, Россия



Наталья КОЛЬЕВА
кандидат педагогических наук,
доцент Северо-Казахстанского государственного
университета, Казахстан

РОЛЬ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ ЗНАНИЙ И ОБРАЗОВАНИЯ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

Мақолада ҳозирги босқичда ижтимоий-гуманитар билимлар ва таълимнинг роли ва аҳамияти ҳақида сўз боради. Ижтимоий-гуманитар таълимнинг асосий вазифаси жамоатчилик ривожланиши, ижтимоий агентларнинг таъсир усуллари, ижтимоий меъёрлар, ахборот дунёсида ижтимоий алоқалар тизимида инсоннинг ўз ўрнини билиши ва тушуниши учун шароитлар яратишдан иборат.

Таянч тушунчалар: *ижтимоий-гуманитар билимлар, жамоатчилик ривожланиши, жамоатчилик фикри, демократлашув, глобаллашув, цивилизация, интеллект.*

В статье идет речь о роли и значения социально-гумнаитарных образований на современном этапе. Основной функцией социально-гуманитарного образования является обучение законам общественного развития, формам и способам взаимодействия социальных агентов, социальным нормам, установкам и целям, создание условий для осознания и понимания человеком своего места в системе общественных связей, в информационном мире.

Опорные понятия: *социально-гуманитарные знания, развитие общественности, общественное мнение, демократизация, глобализация, цивилизация, интеллект.*

The article deals with the role and significance of socio-humanitarian formation at the present stage. The main function of social and humanitarian education is to teach the laws of social development, the forms and ways of interaction of social agents, social norms, attitudes and goals, creating conditions for the person to understand and understand his place in the system of public relations, in the information world.

Supporting concepts: *socio-humanitarian knowledge, development of the public, public opinion, democratization, globalization, civilization, intellect.*

В современных условиях дальнейшей демократизации и глобализации общественной жизни, всеобщей информации и приоритета общечеловеческих ценностей в системе обучения и воспитания происходят грандиозные изменения.

Социально-гуманитарное знание и образование на сегодня важнейший источник, основа и ресурс общественных изменений. Современный этап жизни человечества среди многих актуальных проблем выдвигает на первый план повышение роли социально-гуманитарных знаний и образования в позитивных общественных изменениях и предъявляет к нему новые требования. Эти требования определяются тем, что ныне, на рубеже веков и тысячелетий, мир переживает не просто невиданные в истории преобразования, но и подходит к такому состоянию, когда дальнейшая судьба человеческой цивилизаций будет определяться, главным образом, интеллектуально-образовательным потенциалом общества и человека. Недаром говорится, что у человечества есть один путь к прогрессу – Знание и единственное средство преодоления всех препятствий на этом пути – Интеллект.

Основной функцией социально-гуманитарного образования является обучение законам общественного развития, формам и способам взаимодействия социальных агентов, социальным нормам, установкам и целям, создание условий для осознания и понимания человеком своего места в системе общественных связей, в информационном мире. В связи с этим в структуре социально-гуманитарного образования отчетливо выделяют три составляющие.

Первая составляющая – это специализированная подготовка широкого спектра профессионалов в социально-гуманитарной сфере, включая такие отрасли, как право, экономика, социальные науки, психология, образование и т.п. Основной задачей является формирование фундаментальных основ. Кроме того, специалист должен быть подготовлен к рациональному решению мировоззренческих задач, нравственному, правовому или идеологическому выбору, социально-экономическим решениям. Таким образом, именно профессиональное социально-гуманитарное образование является ориентиром для большей части населения страны с развитой экономикой [1].

Второй составляющей является социально-гуманитарная компонента образовательного процесса в целом. Здесь имеется в виду значимость достижений социально-гуманитарных наук в преподавании. Социально-гуманитарные знания способны расширить образовательное мировоз-зрение обучающихся, которая способствует удовлетворение потребностей в социокультурной жизнедеятельности.

Третьей активно развивающейся составляющей является образование, направленное на формирование компетенций. Оно подразумевает такие моменты, как формирование у личности потребности в непрерывном образовании, в развитии своей общей культуры, обеспечении гуманитарной грамотности, выработке соответствующей социальной ориентации. Здесь главное сформировать у личности коммуникативной и информационной компетентностей, правового сознания, экологического мышления, эстетического вкуса, толерантности и т.д. Все это дает возможность личности более полно проявить свои способности посредством самореализации в профессиональной и жизненной карьерах.

Характеризуя современный этап в области образования, можно сказать, что он связан с развитием общества, который начинает свой путь от аграрного к индустриальному, затем к постиндустриальному. Именно переходность этапа является отличительной чертой времени. При этом укажем несколько отличительных моментов современного этапа, которые могут способствовать развитию или затруднять решение некоторых переходных проблем:

- изменения в различных сферах (экономической, политической, культурной, социальной), происходящие на протяжении жизни одного поколения;
- рост значимости интеллектуальной составляющей большинства видов трудовой деятельности человека индустриальной и, особенно, постиндустриальной эпох;
- расширение межкультурного взаимодействия обществ, социальных групп и индивидов до глобального уровня;
- тенденция к стремительному увеличению коммуникационных возможностей, создающая новый тип мироощущения, направленный на формирование глобального единства человечества в его разнообразии;
- возрастание роли информации, превращение информации в основное средство обмена;
- развитие информационно-коммуникационных технологий и автоматизация производственных процессов.
- глобальные возможности человечества к самоуничтожению, возможность экологических и других катастроф;
- увеличение доли работников, занятых в информационном и сервисном секторах, сокращение доли рабочих промышленного сектора;
- изменение традиционной формулы профессионального успеха: владение профессиональными знаниями и навыками не является достаточным [2].

В связи с этим, выделим некоторые требования, которые предъявляются социумом индивиду, стремящемуся к успеху в современных условиях, и обществу в целом:

- постоянное повышение образовательного уровня с целью соответствовать меняющимся условиям на рынке труда.
- способность к овладению постоянно совершенствующимися техническими, информационными и коммуникативными возможностями.

• способность к взаимодействию, эффективной интеракции в условиях плюрализации общественных отношений.

• осознание глобальных проблем современности и, как следствие, гуманизация общественных отношений.

«Гуманитаризация» существенного сегмента экономики, обусловленная расширением сферы услуг, и, как следствие, предъявление к работникам специфических требований, потребность в профессионалах, обладающих помимо узкоспециальных рядом других социально значимых характеристик [3].

В политики государства ставятся новые ориентиры в системе образования страны: формирование творчески мыслящих специалистов, владеющих не только профессиональными знаниями, новейшими технологиями, но и высокой культурой мышления, способных инициировать и реализовать крупные проекты в разных отраслях экономики страны. Поэтому на сегодняшний день главную роль мы отводим качеству образования, которое будет способствовать качеству жизни, развитию интеллектуального, творческого и трудового потенциала общества [4].

В связи с этим, можно сделать вывод, что в последние годы идет постепенное изменение сущности образования. Модернизация образования на сегодняшний день характеризуется следующими основными тенденциями [5]:

– непрерывность образования. Эта тенденция обеспечивает преемственность обучении. Каждый уровень обучения рассматривается в системе непрерывного процесса обучения [6].

– Информатизация образования. Интенсивное развитие информационно-коммуникационных технологий дает возможность каждому выбрать индивидуальную образовательную программу в социокультурном пространстве, дистанционные формы обучения [7].

– Интеграция образования. Современные информационно-коммуникационные технологии, развитие сети Интернет способствуют расширению социально-культурной деятельности, его глобализации, привлечению обучаемых независимо от территориальных делений и национальных границ [8].

– Индивидуализация и дифференциация образования, т.е. создание условий для полного проявления и развития способностей каждого обучающегося, что позволяет обеспечить каждому условия для максимального развития способностей, повышает мотивационную составляющую образовательного процесса [9].

Таким образом, образование и овладение социально-гуманитарными знаниями – это стратегически важная сфера жизнедеятельности каждой отдельной личности, от которой зависят судьбы многих людей, и зависит будущее любого государства.

В настоящее время в стране идет реформирование образования согласно программе развития образования на 2011-2020 годы. Оно должно быть нацелено на эффективную реализацию стратегии индустриально-инновационного развития республики до 2030 года, повышение качества подготовки и конкурентоспособности выпускников вузов на уровне мировых требований.

Рыночной экономике требуется педагог нового типа, разносторонне образованный, обладающий широким кругозором, профессионально подготовленный к работе по избранной специальности, менеджер своего дела. Он должен быть полиязычным, владеть передовыми информационными, обучающими технологиями, хорошо знать психологию обучающихся. Это координатор образовательного процесса, методист и технолог обучения.

Следует отметить, что в национальном проекте «Интеллектуальная нация – 2020» в Казахстане отмечается необходимость инновационного развития системы образования. Надо добиться того, чтобы наша молодежь умела не только получать, но и создавать новые знания. Самым ценным знанием сегодня становится креативное мышление, умение перерабатывать знания, рождать новые решения, информационные технологии и инновации», – отметил президент. Поэтому важнейшей задачей образовательных учреждений является развитие таких качеств, как адекватное восприятие и мобильное реагирование на новые факторы, самостоятельность и оперативность в принятии решения, готовность к демократическому общению, способность быстро адаптироваться в информационном обществе [10].

В современных условиях практическое использование естественнонаучных, гуманитарных и научно-технических знаний во все большей степени становится источником обеспечения жизнедеятельности общества, его духовного и физического здоровья.

Информационный век стал веком еще большего усиления влияния социально-гуманитарных знаний, образования и науки на дальнейшее развитие общества, мирового порядка, экономики, всего жизненного социокультурного пространства. К стратегическим направлениям развития в ближайшее десятилетие относит образование и науку, от развития, которых в решающей мере зависят темпы экономического, технологического развития, состояния культуры и духовности в обществе. Поэтому только широкое развитие инновационных процессов в содержании, организации и управлении социально-гуманитарных знаний и в целом образовании, могут дать определенные позитивные результаты.

В инновационном процессе, базирующемся на научных знаниях, решающая роль принадлежит интеллектуальному ресурсу. В связи с этим в коренном улучшение нуждается деятельность существующих научных центров и высших учебных заведении РК, от которых зависит практическое достижение международного образовательного уровня и конкурентоспособность научных идей.

В условиях глобализации даже крупно развитые страны не в состояние обеспечить индустриально-инновационное развитие без международного сотрудничества. В связи с этим актуальное значение приобретает участие Казахстана в региональных союзах в постсоветском пространстве и развитие инвестиционного сотрудничества с международными организациями и странами ближнего и дальнего зарубежья.

Развивая систему современного образования и подготовки квалифицированных кадров, в настоящее время внимание акцентируется на качество обучения, на международный опыт в сфере образования и науки, обучения студентов Казахстана за рубежом и привлечения в страну лучших зарубежных профессоров для формирования национальной управленческой школы. Обращая внимание на это, глава государства подчеркнул: Мы будем решать задачи подготовки и переподготовки современных специалистов в системе профессионального и специализированного образования.

Нам нужна система современных престижных учебных заведений, возможно с нестандартными условиями приема и особыми требованиями к выпускникам. Мы должны приступить к формированию собственной управленческой школы.

Литература

1. Маслов В.И., Зволинская Н.Н., Корнилов В.М. Непрерывное образование: подходы к сущности // Труды ученых ГЦОЛИФКа: 75 лет: Ежегодник. М., 1993. – С.102-117.

2. Анурин В.Ф. Постмодернизм: в поисках материального фундамента // Общественные науки и современность. 2001. – № 3. С. 110-121.

3. Лисс Л.Ф. Человек в меняющемся мире и проблемы гуманитарного образования // Межрегиональная научно-практическая конференция «Гуманитарное образование в Сибири. Проблемы и перспективы. – Новосибирск, 2000.

4. Послание Главы государства народу Казахстана [Электронный ресурс]. – Режим доступа URL: www.akorda.kz (дата обращения 6.11.2015).

5. Стратегия модернизации содержания общего образования: Материалы для разработки документов по обновлению общего образования / Москва: ООО «Мир книги», 2001. – 95 с.

6. Агапонов С.В. Средства дистанционного обучения. Методика, технология, инструментарий. – Санкт-Петербург: БХВ-Петербург, 2003. Аккад. тип. Наука РАН. – 334 с.

7. Атанасян С.Л. Особенности оценки качества подготовки студентов в условиях комплексной информатизации педагогического вуза // Стандарты и мониторинг в образовании. – 2009. – №4. – С. 58-62.

8. Глобализация и конвергенция образования: технологический аспект / Под. редакцией Рубина Ю.Б. – Москва: Маркет ДС. 2004. – 221 с.

9. Шадриков В.Д. Информационные технологии в образовании: плюсы и минусы // Высшее образование в России. - № 11. – 2009. – С. 61-65.

10. Проект «Интеллектуальная нация – 2020» [Электронный ресурс]. – Режим доступа: URL: http://www.zakon.kz/103061-glava-gosudarstva-inciiroval-proekt.html (дата обращения 12.10.11).



Жамшед ЖУРАЕВ
социолог, преподаватель кафедры
история ислама и источниковедения, философии
Бухарского государственного университета

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ И ФИЛОСОФСКИЙ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ «ИНФОРМАЦИЯ»

Мақолада эволюция жараёнида информация феноменини изоҳлашга ҳаракат қилинади. Асосий масала – информация умуман материянинг атрибути эмас, балки у биологик ҳаёт пайдо бўлиши ва унинг ажралмас қисми бўлиб ҳисобланади деган фикрга асосланади.

Таянч тушунчалар: *информация, тизим, тушунча, тафаккур, субъект.*

В статье дана попытка интерпретировать феномен информации в процессе эволюции. Обосновывается тезис о том, что, вопреки распространенному мнению, информация не является атрибутом материи вообще, а появляется только с возникновением биологической жизни и представляет собой ее неотъемлемую часть.

Опорные слова*: информация, система, понятие, мышление, субъект.*

In this article an attempt is presented to interpret the phenomenon of information in the process of it is evolution. The thesis is substantiated that information in spite of the accepted conception is not an attribute of the matter in general but it appears only together with the animate life and presents it is inherent part.

Supporting concepts: *information, system, notion, thinking, subject.*

В своем выступлении глава нашего государства отметил, что «Мы мобилизуем все силы и возможности нашего государства и общества для того, чтобы наша молодежь обладала самостоятельным мышлением, высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, ни в одной сфере не уступала своим сверстникам из других стран, была счастлива и уверена в своем будущем» [1]. Исходя из этого, можно подчеркнуть, что нынешняя молодёжь нашей страны должна обладать и анализировать всякую адекватную информацию и уметь его правильно интерпретировать, во благо будущего Узбекистана.

В последнее время большую популярность в научном сообществе и в быту различных социальных групп приобрели вопросы, связанные с информацией: информационные технологии, информационное общество, информационные войны, информационная безопасность и т. д. Эти темы сейчас у всех на слуху, им посвящено огромное количество книг, монографий, публикаций в СМИ. При этом, в некоторых трудах далеко не всегда дают четкое определение термина «*информация*», что ведет к неоднозначному пониманию как его самого, так и производных от него. Не решает проблему и официальное определение, отраженное в Закон Республики Узбекистан от 12 декабря 2002 года № 439-II «О принципах и гарантиях свободы информации», согласно которому информация – это сведения о лицах, предметах, фактах, событиях, явлениях и процессах независимо от источников и формы их представления» [2].

Здесь возникают закономерные вопросы: что такое сведения и почему это понятие шире понятия информации; какой критерий был положен в основу классификации того, сведения, о чем являются информацией; охватывают ли лица, предметы, факты, события, явления и процессы весь объективный мир, или существует нечто, выходящее за рамки этих понятий? Таким образом, бытующее определение подходит в основном для формирования обыденного понимания информации, не отражающего ни сущности, ни функции, ни практической значимости информации, а также механизмов ее возникновения и распространения.

Проанализируем, что такое информация, исходя из ее места и роли в действиях любого обладающего сознанием, волей и определенной свободой поведения субъекта. Такие ограничения по кругу субъектов продиктованы тем, что только субъект, обладающий сознанием и волей, может действовать произвольно, то есть сообразуясь со своими интересами. Все другие субъекты нам не интересны, так как их поведение от них не зависит, то есть над ними находится иной субъект, обладающий

волей и использующий их. По той же причине предметом нашего рассмотрения не могут быть субъекты, не обладающие свободой поведения в связи с неспособностью реализовать свою волю, а также зависимые (прямо или опосредованно) от иных, имеющих свободу действий, субъектов.

В настоящее время известно множество определений информации как результат научной дискуссии и различных подходов к трактовке данного понятия (технического, правового, социального и других). Общего определения информации до сих пор не выработано. Определения информации давали такие широко известные ученые, как Н. Винер, Р. Хартли, К. Шеннон, Н. Рашевский и другие. Ниже приведены некоторые из наиболее распространенных определений.

Информация:

– фундаментальная первооснова и всеобщее свойство Вселенной, которая существует независимо от нас, проявляется в трехмерном процессе взаимодействия микро- и макропроцессов энергии, движения и массы в пространстве и времени;

– результат отражения движения объектов материального мира в системах живой природы;

– свойство материи изменяться и отражать это изменение;

– сообщение, описание фактов;

– новости, новые сведения;

– "отраженное разнообразие";

– снятая неопределенность, связанная со случайными процессами, а также с превращением возможности в действительность;

– свойство объекта уменьшать неопределенность процесса изменения его состояния во времени;

– снятие (устранение) неопределенности, где неопределенность – недостаточное знание об объектах и явлениях (отождествляется с неинформированностью субъекта);

– уменьшение неопределенности в результате сообщения;

– степень модификации структуры входными данными;

– передача, основа связи и управления в живой природе и машинах;

сведения о лицах, предметах, событиях, явлениях и процессах независимо от формы их представления, используемые в целях получения знаний, принятия решений.

Информация имеет ряд важных особенностей.

1. Собственно об информации можно говорить лишь тогда, когда хотя бы одним объектом в материальном взаимодействии является живой организм. Исходя из этого, информация есть воспринимаемая живым организмом через органы чувств окружающая действительность в виде распределения материи и энергии во времени и в пространстве и процессов их перераспределения.
2. Информация не материальна, хотя ее носителем является материя.
3. Чем сложнее объект материального мира или процесс, тем больше информации он в себе несет.
4. Чем сложнее организм, тем больше вариантов его поведения может соответствовать одной и той же полученной информации.

В отечественной науке сложились две основные концепции восприятия информации как явления – атрибутивная и функциональная.

Сторонники атрибутивной концепции (Б.В. Ахлибинский, Л.Б. Баженов, Б.В. Бирюков, К.Е. Морозов, И.Б. Новик, Л.А. Петрушенко, А.Д. Урсул и др.) считают информацию свойством всех материальных объектов, т.е. атрибутом материи.

Сторонники функциональной концепции (В.В. Вержбицкий, Г.Г. Вдовиченко, И.И. Гришкин, Д.И. Дубровский, Н.И. Жуков, А.М. Коршунов, М.И. Сетров и др.) связывают информацию с функционированием самоорганизующихся систем. Этими самоорганизующимися системами являются живые организмы и, возможно, в будущем кибернетические устройства.

Мы будем исходить из позиций существования и взаимодействия субъекта и объективного мира, так как в противном случае подобное рассмотрение теряет смысл. Кроме того, будем считать, что объективному миру присуще такое свойство, как внутреннее движение, то есть постоянное взаимодействие его составляющих.

Объективный мир можно рассматривать как совокупность материальных тел, полей и энергии. Их взаимодействие порождает сигналы – изменения качественного и количественного состава элементов объективного мира. Субъект, находясь внутри этого объективного мира и имея некоторые

инструменты, может фиксировать какую-то часть сигналов. Такая фиксация необходима для ориентации в объективном мире, для выбора наиболее рационального поведения.

Однако не все сигналы из этой части субъект регистрирует, то есть обращает на них внимание. Причина избирательности в том, что сигналов поступает огромное множество за короткое время, к тому же не все они имеют одинаковую ценность для субъекта. Он это осознает и пытается выбрать на основе каких-либо признаков самые важные и объединить их в массив. Зарегистрированные таким образом (выбранные из множества) и сгруппированные сигналы можно обозначить как «данные».

При получении данных перед субъектом встает очередная проблема: преобразовать данные в известные ему понятия. Субъект уже обладает некоторым набором понятий, которые он осознает и которыми может оперировать. Для использования полученных данных он должен сопоставить их с тезаурусом при помощи определенных методов. Эти методы могут быть известны, и тогда при их взаимодействии с данными образуется определенная информация, а иногда они требуют специального нахождения.

Необходимо отметить, что ни один метод не может полностью преобразовать какие-либо данные в информацию. Кроме того, как правило, используется несколько методов последовательно. Каждый из них образует определенную информацию и преобразует данные, которые после этого могут частично преобразовываться в иную информацию с помощью иного метода. Процесс преобразования данных в информацию бесконечен, то есть ни один зарегистрированный сигнал не может быть до конца преобразован в информацию, так как это бы означало познание всей полноты объективного мира.

Таким образом, мы приблизились к тому, что информация является связующим звеном между обладающим сознанием, волей и свободой поведения субъектом и объективным миром. Она помогает субъекту выбирать более рациональный способ поведения из возможных для реализации его воли. Другими словами, информация уменьшает неопределенность ощущения субъектом себя и своего места в объективном мире, увеличивает количество и связность познаваемых им элементов мира, то есть является инструментом расширения его когнитивной области. В этом состоит ее функция и практическая значимость.

Одним из важных следствий, вытекающих из такого определения информации, является положение о том, что с развитием общества, его производственной и научной базы важность информации не возрастает, а остается всегда неизменной. Так, если взять, к примеру, древнего человека, охотящегося на мамонта, и попытаться представить, насколько ценны для него адекватные сведения о расстоянии до животного, о характере поверхности, по которой он передвигается (влажная и скользкая или сухая), о результатах наносимых ударов, то становится понятно, что они важны для него не менее, чем любая информация для современного человека. Подобные примеры можно привести не только по отношению к отдельному человеку, но и к целым народам. В частности, красноречивой иллюстрацией является факт воздействия на монголо-татарские войска информации о стоянии русских на реке Угре, положивший конец их наступлению.

Таким образом, вопреки сложившемуся мнению, с развитием общества информация не становится более важной, так как она по своей природе всегда являлась, является и будет являться тем средством, с помощью которого субъект ориентируется в окружающем его мире, а происходит постоянное изменение ее качества и количества.

Если с изменением количественных параметров информации все достаточно ясно - они стремительно возрастают, то вопрос качественного преобразования информации заслуживает более пристального внимания. Можно заметить, что не вся информация, определяющая поведение человека, получается субъектом непосредственно из окружающего мира, а некоторая ее часть поступает от других субъектов и основывается на их опыте (это особенно характерно для человеческого общества). Такую информацию, которая подвергается передаче, хранению и обработке (в целях передачи), можно обозначить как коммуникативную информацию, а область человеческой деятельности, связанную с порождением, распространением и ограничением такой информации, - как информационную сферу.

Обмен информацией (наряду с веществом и энергией) присущ человеческому обществу изначально. Первая коммуникативная информация непосредственно принималась с помощью органов чувств человека, в основном - зрения и слуха. Передавалась она с помощью голоса, жестов, примитивных технических устройств. С развитием человечества, его социальной деятельности, расширя-

лась и информационная сфера, она помогала человечеству аккумулировать интеллек-туальные ресурсы, делать знания общим достоянием.

Постепенно в человеческом обществе коммуникативная информация постепенно становится преобладающей, а достижения последнего времени увеличили ее объемы настолько, что отдельно взятому человеку стало невозможно тщательно проверять все поступающие знания и приводить их в единую, внутренне непротиворечивую систему. Данное явление Тоффлер назвал «блип-культурой», а не согласующиеся друг с другом фрагменты информации (объявления, команды, обрывки новостей) – «блипами». С их помощью человек конструирует свою модель реальности, часто не осознавая, насколько тот или иной «блип» отвечает сложившейся в окружающем мире ситуации.

Именно в качественном и количественном преобразовании информационных потоков заключается специфика сегодняшнего дня, требующая вырабатывать такие инструменты и методы обработки информации, которые позволят выбирать наиболее адекватные способы поведения, смогут защитить человека от попыток управлять им и навязывать ему невыгодную модель реальности.

Как видите, более внимательный подход к формальному вопросу определения информации позволяет по-новому взглянуть на проблемы, возникающие перед обществом. Поэтому при разработке таких модных нынче вопросов, как информационное общество, информационные войны, информационная безопасность и им подобных, целесообразно рассмотреть тот фундамент, на котором они стоят, «разобраться в понятиях».

Подводя итог, можно резюмировать, что на современном этапе развития науки практически невозможно дать единое, универсальное и строгое определение понятия информации, объединяющее его биологический, социальный и технический смыслы. Попытки выработки такого определения приводят либо к слишком абстрактному толкованию информации, либо требуют большой дополнительной интерпретации и расшифровки.

Рассуждая об информации, нельзя иметь в виду только социальную информацию; информация - это общебиологическая категория. Информация служит важнейшим инструментом адаптации и развития живых организмов, и именно адаптация явилась стартовым условием для запуска процесса формирования информации в природе.

Формирование и использование языка делают информацию воспринимаемой всеми членами социума, достаточно свободно передаваемой во времени и в пространстве, пригодной для употребления в разного рода социумах и обществе в целом. Вопреки распространенным представлениям информация не является атрибутом материи вообще, а появляется только с возникновением биологической жизни и становится ее неотъемлемым атрибутом. Информация является одновременно потребностью, инструментом и результатом существования живой материи.

Литература

1. Мирзиёев Ш. М. Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Узбекистан. – Ташкент: “Ўзбекистон”, 2016. – 56 с.
2. Газета «Народное слово», № 32-33 (3124-3125), 7 февраля 2003 г., «Собрание законодательства Республики Узбекистан», 2003 г., № 3, ст. 18
3. Домозетов Х. Компьютеризация и проблемы здоровья, свободы и безопасности личности // Философская и социологическая мысль, 1991. – № 4. – с.93-99;
4. Поздняков А. И. Информационная безопасность личности, общества, государства // Военная мысль, 1993. – № 10.
5. Бриллюэн Л. Научная неопределённость и информация. – М., Наука, 1966.
6. Янковский С.Я. Концепция общей теории информации. – М.: Бета-Издат, 2000.
7. Жеребин В.М. Феномен информации: еще одна попытка интерпретации // Экономическая наука современной России, 2007. – № 2 (37)



Лазизбек ХАИТОВ
Бухоро давлат университети ислом тарихи ва манбашунослиги, фалсафа кафедраси ўқитувчиси

АБДУРАУФ ФИТРАТ МЕРОСИДА ОИЛА ВА УНИНГ ВАЗИФАЛАРИ

Инсон ўзининг ижтимоий мавжудлигини давом эттириш учун оила қуради. Фитрат инсоннинг бу жиҳатини ижтимоийлашувининг юксаклиги сифатида қабул қилади. Унинг асарларида оила талқини хусусида мақолада сўз боради.

Таянч тушунчалар: *оила, ижтимоийлашув, миллат, шахс, тарбия, оила қуриш, оилавий муносабатлар, оиланинг вазифалари.*

Человек создает семью для продолжения социального существования самого. Фитрат принимает это отношение как возвышенность социализации. В статье идет речь об интерпретации семьи в его произведениях.

Опорные понятия: *семья, социализация, нация, личность, воспитание, создание семьи (брак), семейные отношения, задачи семьи.*

Man creates a family to continue the social existence of himself. Fitrat accepts this relation as the height of socialization. In article there is a speech about interpretation of family in his works.

Supporting concepts: *family, socialization, nation, personality, education, creation of family (marriage), family relations, and family tasks.*

Абдурауф Фитрат халқимизнинг XX асрда етишиб чиққан буюк фарзандларидан бири, ўзбек педагогикаси тарихида оила педагогикасини илк бор ёритган сиймолардан биридир. Жадидчилик таълимотининг маънавий муаммоларидан сўз юритганда, айниқса, уларнинг оила тартиблари ва тарбиясига бўлган муносабатини ўрганишда Фитратнинг 2 асарига алоҳида тўхталиш лозим. Уларнинг биринчиси “Раҳбари нажот” асари 1914 йил ёзида яратилиб, Бухорода босилиб чиққан. “Раҳбари нажот” асарида “Оила вазифаси” боби бўлиб, бобда Фитрат оила ҳақидаги исломий ақидаларни бериш билан чекланган, кейинроқ бу хусусда махсус тўхталиш лозимлигини англаб, алоҳида рисола битган. “Раҳбари нажот” асарининг мантиқий давоми 1914 йил ёзилиб, 1915 йил нашр этилган “Оила ёки оила бошқариш тартиблари” рисоласида оилага оид ҳуқуқий қарашлар ҳам ўз аксини топган. Номидан билиниб турганидек, ушбу рисоланинг асосий мавзуи “оила”дир. Оила эр-хотин ва фарзандлардан иборат. Бошқача қилиб айтганда, оила бир шахс бошчилигида бир уйда яшовчилардир. Фитрат фикрича, “дунё”да иззат ва саодат толиби бўлмаган бирорта қавм йўқ. Ҳар бир миллатнинг саодати ва иззати, албатта, шу халқнинг ички интизоми ва тотувлигига боғлиқ. Тинчлик ва тотувлик эса шу миллат оилаларининг интизомига таянади. Қаерда оила муносабати кучли интизом ва тартибга таянса, мамлакат ҳам шунча кучли ва тартибли бўлади. Асарда бир мамлакатнинг аҳолиси ахлоқсизлик ва жоҳиллик билан оилавий муносабатларини заифлаштириб юборса, интизомсизликка йўл қўйса, шунда бу миллатнинг саодати ва ҳаёти шубҳа остида қолади [1, 214-215]. Шундай ҳолга тушмаслик учун у туркистонликларга диний ва дунёвий ҳукмларга, қонунларга таяниб оилавий муносабатларга изоҳ бериш лозимлигини таъкидлайди. Бу рисоласида, оила саодати ва бахти учун қабул қилинган исломий қонунларга кўпроқ тўхталади.

У оила мустаҳкам бўлса, халқ ҳам, жамият ҳам мустаҳкам бўлади деган хулосага келади. Ўз даври муаммолари, талабларидан келиб чиқиб, тарбияни амалга оширадиган вазифаларни 2 га бўлади:

1. Оила вазифаси.
2. Жамоатчилик вазифаси.

Олим бу масалани батафсил ёритиб берган. Фитрат тарбияда оиланинг вазифасини “оилани ташкил этиш”дан бошлайди. Олимнинг фикрича, Инсон мавжудияти (борлиғи) икки хил бўлади:

1. Шахсий мавжудият (борлиқ).
2. Навъий мавжудият (ижтимоий борлиқ). “Шахсий мавжудиятнинг муддати қисқа бўлиб, коинотда унчалик аҳамиятга эга эмас” [2,184]. Яъни, Инсон вужуд сифатида пайдо бўлиб умрини яшаб

бўлгач вафот этади. Инсоннинг "навъий мавжудиятлари эса инсоният борки, то қиёматга қадар барқарорлик ва нисбатан коинотга муҳим таъсир ўтказиб туради" [2,184-185]. Яъни, Инсоннинг ижтимоий борлиғи аҳамиятли бўлиб, унинг қилган эзгу ишлари ва яхши номи абадий қолади. Шундай қилиб олим Инсоннинг икки борлиқли эканлигини таъкидлагач, дейди: "Еб–ичиш ва ухлаш шахсий мавжудиятни (борлиқни) сақлаб туради. Таносул (миллат давомийлиги) ва насл бериш эса навъий мавжудотни (ижтимоий борлиқни) таъминлайди" [2,185]. Айни пайтда Фитрат Инсон борлиғининг бу икки жиҳатини уйғун кўради. Чунки шахс сифатида мавжудлик ижтимоий борлиқ сифатида давом этиш учун асосдир. Инсон ўзининг ижтимоий мавжудлигини давом эттириш учун оила қуради. Фитрат инсоннинг бу жиҳатини ижтимоийлашувининг юксаклиги сифатида қабул қилади. У ўз фикрини ушбу ҳадис билан далиллайди: "Эй ёшлар, агар қудратингиз етса уйланинг, зеро уйланиш кўзингизни гуноҳдан сақлайди, порсолигингизга сабаб бўлади. Агар уйланишга қудратингиз етмаса, рўза тутинг, рўза тутмоқлик шаҳвоний қувватни заиф қилади ва кишини ҳаромга юришдан сақлайди" [2]. Фитратнинг бу ҳадисдан хулосага келиши қуйидагича: 1. Ёш одам оила қуриши керак. 2.Оила кишини гуноҳдан сақлайди. 3. Оила инсоннинг ижтимоий давомийлигини таъминлайди. Олим шу тариқа оила қуришни "инсон номини боқий қолдириш" деб ҳисоблайди [2,186]. У бу билан чекланмайди. Фитрат қандай киши билан оила қуриш тўғрисида ўгит беради. Бунга олимнинг тарбия борасидаги оиланинг вазифаси мустаҳкам ва тартибли оила қуришидадир, деган фикрда бўлганлиги сабаб бўлган. Фитрат фикрича, "ҳар бир одам ўзига монанд, ҳар жиҳатдан ўзига баробар хотинга уйланиб оила қуриши керак". Бу борада шундай ҳадисни келтиради: "Хотинга тўртта нарсага қараб уйланадилар: молига, насабига, жамоли ва динига (иймонига). Бас, сен диндор (иймонли) хотинга уйлан" [2,187]. У бу ҳадисни шундай талқин қилади:

1. Аввало молига қараб уйланиш. "Киши ўзининг мол–мулкига тенг келадиган мол–мулклига уйланиши керак". Камбағал оилада ўсган қизлар аҳволидан келиб чиқиб тўғри таълим ва тарбия ололмайди ва кейинчалик оиладаги нохушликларга сабаб бўлади.

2. Насабига қараб уйланиш. "Хотиннинг насаби эриникидан паст бўлмаса яхши бўлади... Бугунги фан тадқиқотлари шуни очиб бердики, болага ахлоқий камчиликлар ота-онадан ирсий йўл билан ўтар экан" [2,188].

3. Ҳусну жамолига қараб уйланиш. "Агар хотиннинг зоҳирий ҳусни жамоли бўлмаса, эркакнинг унга рағбати бўлмайди, у билан яқинлик қилишни ҳам хоҳламайди, бу сабабдан наслга нуқсон етади" [2,188].

4. Диндорлик. Иймонлига уйланиш. "Юксак тарбия учун асос пайдо бўлади".

Шундай қилиб, Фитратнинг фикрича, тарбияда оиланинг биринчи вазифаси – солиҳа киши билан оила қуришдир. Онгли равишда оила қуриш бошланажак буюк тарбия жараёнининг ибтидосидир. Олим ҳозирги тушунчадан фарқли ўлароқ, оила тарбиясини шу нуқтадан бошлайди. Мана шундай онгли оила қуриш комил тарбияга олиб боради ва бундай оилада тарбия олган киши "фазилат ва камолга ошно бўлади" [2,146]. Шу ўринда Фитрат дейди: "Бир фаранг (француз) ҳукамоси деган экан: "Бани одамларнинг барча гўдакларини менинг тарбиямга берилса, ҳозирги олам шаклини ўзгартириб юборардим" [2,147]. Фитрат оила қуриш ва жуфти ҳалол танлашда қатъий тавсиялар берар экан, у "биз дастлабки тарбияни онамиздан оламиз" дейди [2,147-149]. Шу маънода биз Фитратнинг бу масаладаги қарашларини табиий қабул қиламиз. Чунки теран фикрли, жисмонан соғлом ва ахлоқли она ўз фарзандини замон эҳтиёжларига мос равишда тарбиялаб вояга етказади. Шу сабабли у "Диндорлик (иймонлилик) бахт мартабаларидан бири бўлиб, касбий ақлга, яъни илмга таянади... Илмли бўлиш зарурий шартдир". Шу маънода Фитрат тарбия ишидаги оила вазифаси ҳақида гапирганда, бу вазифани адо этишни аввало она зиммасига юклашини юқорида ҳам таъкидлаб ўтган эдик. Бу ўринда олим шу масалага яна қайтади. Унинг фикрича, оиланинг тарбиявий вазифасини бажариш учун оналар қуйидаги хислатларга эга бўлиши лозим: 1. Илмли бўлиши. 2. Ахлоқли бўлиши. 3. Фойда келтирадиган, фидоий бўлиши. Нега? Чунки "Бизнинг тарбиячиларимиз, табибларимиз, муаллимларимиз ҳам шу аёллардир". Фитрат бу билан чекланмаган. У аёлларнинг ижтимоий мартабаларини кўтаришга доир ушбу тавсияларни беради:

1. Аёлларнинг ҳақ–ҳуқуқларини таъминлаш.

2. Аёлларни ижтимоий ҳаётга тортиш.

Шу сабабли Фитрат дейди: "Ҳайҳот! Бизнинг аёлларимизга қилаётган муомаламиз ислом таълимотига зиддир. Одамлар ўз ҳайвонларига раво кўрмаган жабру–зулмни биз аёлларимизга қиламиз".

Олим бу борадаги энг яхши ҳаракатлар сифатида Францияда амалга оширилаётган тадқиқот ишларини кўрсатади. Шундай қилиб шахс тарбиясида Фитратнинг фикрича, оиланинг вазифалари қуйидагилардан иборат :

1. Тартибли ва интизомли оила қуриш.
2. Оналарни эъзозлаш ва илмли қилиш.
3. Ёш авлод тарбиясини оналар зиммасига юклаш.
4. Болалар тарбиясида оналар билан ҳамкорлик қилиш.

Фитратнинг бу тавсиялари бугун ҳам ўз аҳамиятини йўқотган эмас.

Адабиётлар

1. Фитрат А. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. Танланган асарлар, IV жилд. – Т.: “Маънавият”, 2006 йил.

2. Фитрат А. Нажот йўли (Раҳбари нажот) оила вазифаси. Танланган асарлар, V жилд. – Т.: “Маънавият”, 2010.

ANIQ VA TABIIY FANLAR







Gulnora IXTIYAROVA
Toshkent davlat texnika universiteti professori, kimyo fanlari doktori

Munira ARIPDJANOVA
Toshkent davlat texnika universiteti umumiy kimyo kafedrasi katta o'qituvchisi

Dilshoda HAZRATOVA
Buxoro davlat universiteti kimyo kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

KIMYOVIY TEXNOLOGIYA FANIDAN ELEKTRON DARSLIKNING AFZALLIKLARI

Maqolada kimyoviy texnologiya fanidan yaratilgan elektron darsliklarga ehtiyoj ortishi, elektron darslikda ko'pgina mavzularda sanoatdagi yangi jarayonlarning texnologik sxemalari keltirilgan.

Tayanch tushunchalar: *elektron darslik, kimyoviy texnologiya, ishlab chiqarish korxonasi, annimatsiya, texnologik jarayon.*

В *данной статье показана потребность создания электронных учебников. В электронном учебнике приведены технологические схемы, новые процессы в химической промышленности по разным направлениям по предмету химической технологии.*

Опорные понятия: *электронный учебник, химическая технология, производственное предприятие, анимация, технологический процесс.*

This article shows the need to create electronic textbooks. The electronic textbook contains the technological schemes, new processes in the chemical industry in different directions on the subject of chemical technology.

Supporting concepts: *electronic textbook, chemical technology, production pre-acceptance, animation, technological process.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 23-avgust kuni "Kimyo sanoati rivojlanishining 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Dasturi to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Hujjat bilan "O'zkimyosanoat" AJ tomonidan Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ishlab chiqilgan kimyo sanoati rivojlanishining 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Dasturi tasdiqlandi [1].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Geologiya, yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati masalalari kompleksi rahbari G'.Ibragimov, "O'zkimyosanoat" AJ va uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar, O'zbekiston Respublikasining Investitsiya bo'yicha davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Tashqi savdo vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar hamda idoralar rahbarlariga dasturda belgilangan vazifalarning bajarilishi bo'yicha shaxsiy mas`uliyat yuklandi.

Kimyo sanoatidagi yetakchi korxonalar xarajatlari tuzilmasining tahlil qilinishi asosida, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini 2018-yilda "Navoiyazot" AJda – 7,3 foiz, "Farg'onaazot" AJda – 11,1 foiz va "Ammofos-Maksam" AJda – 5,2 foizga kamaytirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqildi.

Kimyoviy texnologiya – tabiiy xom ashyo, sanoat chiqindilari, shuningdek, sintetik yarim mahsulotlarni kimyoviy yo'l bilan qayta ishlab, iste'mol mahsulotlari va ishlab chiqarish vositalariga aylantirishning iqtisodiy va ekologik jihatdan qulay usullari va jarayonlari haqidagi fan. Kimyoviy texnologiya usullari va jarayonlarining fizik-kimyoviy sharoitlarini tekshirish, texnologik jarayonlarning sxemalarini ishlab chiqish, asbob va uskunalarning tuzilishi va ularni tayyorlash uchun zarur materiallarni aniqlash kimyoviy texnologiyaning vazifasidir. Har qanday kimyoviy texnologiya jarayonining asosiy elementlari — xom-ashyo, energiya, asbob va uskunalardir. Kimyo, metallurgiya, qurilish materiallari, yoqilg'i, to'qimachilik, ko'n, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida Kimyoviy texnologiya usullaridan foydalaniladi. Bundan tash-

qari, ishlab chiqarish usullari va jarayonlarining umumiy, muhim asoslari va qonuniyatlarini o‘rganadigan umumiy Kimyoviy texnologiya ham mavjud. Kimyoviy texnologiya tayyor mahsulot olish maqsadida xom-ashyo va yarim mahsulotni tayyorlash, uning holati, xossalari, shaklini ma’lum ishlab chiqarish vositalari yordamida o‘zgartirish usullari va jarayonlarini o‘rganadi. Kimyoviy texnologiya anorganiq moddalar texnologiyasi (kislota, ishqor, soda, tuz, mineral o‘g‘itlar va boshqa sanoati) va organiq moddalar texnologiyasi (sintetik kauchuk, plastmassa, kimyoviy tolalar, bo‘yagich moddalar, spirt, organiq kislotalar va boshqa sanoati)ga bo‘linadi.

Oliy ta’lim oldida turgan muhim vazifa tayyorlanadigan mutaxassislar saviyasini yuqori pog’onaga ko’tarish, texnologik jannrayonlarga suyanib ish ko’ruvchi, yangi g’oyalarni amalga oshiruvchi, fai ishlab chiqarish bilan bog’lovchi milliy dastur talablariga to’liq javob beradigan yetuk kadrlar tayyorlashdan iboratdir. Bu esa o’z navbatida zamon talablariga javob bera oladigan Davlat tilida darslik va o’quv qo’llanmalar yaratilishini taqozo etadi.

“O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 23-maydagi “2001-2005-yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, “Internet”ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta’minlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari tog’risida” gi 230-sonli qarorida ko’rsatilgan oliy o’quv yurtlarining o’quv jarayonida zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini keng joriy etish vazifasini amalga oshirish maqsad qilib qo’yilgan.

Istiqlol tufayli respublikamizda bo’lmagan mavhum ishlab chiqarishlar haqida emas, balki avvalo o’zimizda rivojlangan kimyoviy ishlab chiqarishlar va ularning xom ashyo manbalari kengroq yoritilgan elektron darsliklar (ED) ga ehtiyoj ortmoqda.


Hozirda organik kimyo, kolloid kimyo, umumiy kimyo fanlarida elektron darliklar yaratildi [2-4]. Ammo kimyoviy texnologiya fanidan yaratilayotgan elektron darsliklarga ehtiyoj ortmoqda, chunki bu fandan tayyorlangan elektron darsliklar qulay va ixcham, ayniqsa talabalar ED dan ishlab chiqarish korxonalardagi ko’pgina texnologik jarayonlarni annimatsiyalar orqali ko’rish imkoniyatiga ega bo’lishadi.

Biz tomondan kimyoviy texnologiya fanidan elektron darslik yaratilgan va Intellektual mulk agentligidan darslik uchun guvohnoma olingan [5].

Mazkur kimyoviy texnologiya elektron darsligi turli xil animatsiyalardan iborat bo’lib, unda kimyo fanining asosiy tushuncha va ta’riflari, jarayonlar, kimyo sanoatining xom ashyosi va uni boyitish usullari, kimyo sanoatida suv va uni tozalash usullari, noorganik moddalar ishlab chiqarish texnologiyalari, oltingugurt va sul’fat kislota ishlab chiqarish texnologiyasi, ammiak va nitrat kislota ishlab chiqarish texnologiyasi, ma’danli tuzlar va o’g’itlar ishlab chiqarish texnologiyasi, yuqori haroratda boradigan kimyoviy texnologik jarayonlar, organik moddalar ishlab chiqarish texnologiyasi, yoqilg’ini kimyoviy qayta ishlash, organik sintez sanoati, yuqori molekulyar birikmalarning kimyoviy texnologiyasi mavzulari chuqur tahlil qilingan va harakatchan annimatsiyalar bilan barcha texnologik jarayonlar ko’rsatilgan. Bundan tashqari, har bir mavzudan keyin testlar keltirilgan bo’lib talaba o’z bilimini testlarni mustaqil yechish orqali o’z o’zini baholay oladi.

Elektron darslikda ko’pgina mavzularda sanoatdagi texnologik sxemalarning yangi jarayonlari (masalan: sul’fat kislota ishlab chiqarishda IK/IA sistemasi olib qo’yiladigan havo sovutgichlari bo’lgan kontakt uskunalari,: ammiak sintezida katalizatorli sintez kolonnasi, metan konversiyasida is gazi va metanning birgalikdagi konversiyasi, nitrat kislotalar va o’g’itlar ishlab chiqarish texnologiyalarining annimasiyalari hokazo) ovozli va harakatchan tarzda keltirilgan. Yangi qudratli yirik ishlab chiqarish qurilmalarini loyihalashda fan va texnikaning so’nggi yutuqlariga asoslanib, eng kam energiya, kapital mablag’ sarflangan holda, yuqori unumdorlik bilan eng arzon tayyor mahsulot ishlab chiqarish maqsad qilib qo’yiladi [6].


Keyingi yillarda ishlab chiqarish korxonalari sulfat kislota olishning IK/IA sistemasiga o’tilgan (rasm-1). Bu **2 marta kontaktlash va 2 marta absorsiyalash** degan ma’noni anglatadi) 1-rasmdagi sxemada ko’rinib turibdiki gaz (SO_2) kontakt uskunasining 3 qavat katalizatoridan o’tgach oleum olish uchun birinchi absorsiyaga oleumli absorberga yuboriladi. Bunda SO_3ning absorbsiyalanishi tufayli SO_2, SO_3 muvozanati buziladi va SO_2 ni oksidlanishini susaytirmaydi. Natijada keyingi ikki qavatdan o’tgach SO_3 ga to’liq oksidlanadi (99,5-99,8%).



1-rasm. Kolchedanni kuydirib olingan gazdan (SO_2) sulfat kislota ishlab chiqarishning IK/IA sxemasi.

1-filtr; 2-trubokompressor; 3-nasadkali qurutish minorasi; 4-ho'l elektrofiltr; 5-ho'llovchi minora; 6-ikkinchi nasadkali yuvish minorasi; 7-kislotani sachratib yuvuvchi birinchi yuvish minorasi; 8-ikkinchi nasadkali monogidtatli absorber;9-quvurli issiq almashtirgich; 10-kontakt apparati; 11-oleumli absorber; 12-birinchi monogidratli absorber; I -sovutilgan kislota; II-sovutishga yuborilgan kislota; III-suyuq sulfat kislota; IV-sovutilgan suyuq sulfat kislota yoki suv; V-sovutilgan oleum yoki monogidrat; VI-sovutishga yuborilgan oleum.

Hozirgi IK/IA sistemasida atmosferaga chiqarib tashlanadigan gazning miqdori 50 marta kamayadi, hamda reaksiya issiqligidan bug' hosil qilishda maksimal foydalaniladi. Natijada ishlab chiqarish praktik jihatdan chiqindisiz va energiya tejovchi korxonaga aylanadi. Bu bilan atrof muhitni ifloslashni oldini oladi. Ammiak ishlab chiqarishda, reaksiya issiqligidan to'liqroq foydalanish imkoniyatini beruvchi yirik agregatlarni barpo etish orqali erishiladi. Ammiak sintezlash qurilmasining asosiy qismi sintez kolonnasidir (2-rasm).



2-rasm. O'rta bosimda ammiak sintezi kolonnasi**:**

1-kolonna korpusi;

2-katalizator oralig'idagi aylana bo'shliq;

3-katalizator qutisi;

4-issiq almashtirgich;

5- foydalanish qozoni;

6-boshoqsimon panjara;

Kolonna korpusining ichida nasadka (ichki qurilma) bo'lib u katalizator quttisi va issiq almashtirgichdan iborat bo'ladi. Katalizator quttisi kolonnaning yuqori qismiga joylashgan bo'lib katalizator oralariga va kolonnaning ostki qismiga quvursimon issiq almashtirgich o'rnatilgan. Bular jarayonning avtotermikligini (o'zini –o'zi issiqlik bilan ta'minlash) ta'minlaydi. Katalizator, quvursimon holda joylashtirilgan reaktorlar, qaytar izotermik jarayonda optimal harorat sharoitini ta'minlay oladi. Hozirgi zamon yirik ammiak sintezi qurilmalarida tokchali sintez kolonnalari qo'llanilmoqda. Bunda katalizator quttisiga o'rnatilgan tokchalarga katalizator qo'yiladi. Katalizatorning miqdori (qavatning qalinligi) gaz tezligining kamayishi va gazning ammiakga aylanish darajasining kamayishi bilan ortib boradi Tokchali sintez kolonnasida harorat sharoiti optimalga yaqin. Shuning uchun mahsuldorlik ham quvursimon kolonnalarga nisbatan tokchali kolonnalarda anchagina yuqori bo'ladi. Harorat sharoitini optimalga juda yaqinlashtirish uchun tokchali sintez kolonnasida katalizatorni muallaq turuvchi holda joylashtirib va oralig'iga sovutgichlar o'rnatish lozim. Respublikamizda "Navoiazot" ishlab chiqarish birlashmasi, Olmaliq ammofos va Farg'ona azotli o'g'itlar zavodlarida har yili 2mln. t. ammiak ishlab chiqarilmoqda.

Darslikda mineral o'g'itlar mavzusi bo'yicha karbamid superfosfat, selitra, ammofos ishlab chiqarish texnologiyalari xam keltirilgan. Mochevinani dunyoda birinchi bo'lib 1868-yilda A.I. Bazarov kashf etgan, amoniy karbonatni parchalanib karbamidga aylanish reaksyasiga asoslangan.

$$2NH_3+CO_2 \leftrightarrow NH_2CONH_2+H_2O$$

Karbamid karbonat kislotasining diamididir. $(NH_2)_2CO$ u mochevina ham deyiladi rangsiz, hidsiz kristal modda. $132,7^0C$ da suyuqlanadi, suvda yaxshi eriydi va ammiakat-$(NH_4)_2CO \bullet NH_3$ hosil qiladi. Karbamid tarkibida bekorchi jins saqlamagan konsentrlangan o'g'it bo'lib tarkibida boshqa barcha azot saqlovchi o'g'itlardan ko'ra ko'p , ya'ni 46,6% azot saqlaydi. O'simlik karbamid azotini oson o'zlashtiradi. U NH_4NO_3 ga nisbatan tarkibida N_2 ko'pligi, portlamasligi, kam gigroskopligi, tuproqdan tez yuvilib ketmasligi, qop-qanorsiz tashish mumkinligi bilan ham ustun turadi. Karbamid asosida olingan mochevina-formal degidli polimer o'g'itlarning azoti juda sekinlik bilan tuproqqa o'tadi, yuvilib ketmaydi.

Karbamid, mol ozuqasiga proteinli qo'shimcha sifatida qo'shib beriladi. Karbamid sanoatda plastmassalar (aminoplastlar) sintetik tolalar, farmasevtik preparatlar olishda ham ishlatiladi.

Karbamid sintezi reaksiyasi geterogen, katalizatorsiz, kinetik xududda boruvchi jarayondir. U ammiak bilan karbonat angidridni $150\text{-}220^0C$ haroratda 70-100 MPa bosimda o'zaro ta'sir ettirib olinadi. Karbamid sintezi quyidagi bosqichlardan: NH_3 ni CO_2 bilan kimyoviy ta'siri, sintez mahsulotini distillash, karbamid eritmasini qayta ishlab tayyor mahsulotga aylantirishdan iboratdir. Sintez ikki bosqichda boradi. Birinchi bosqichda ammoniy karbamiti hosil bo'ladi.


$$2NH_3+CO_2 \longleftrightarrow NH_2COONH_4+125,6\ kJ$$

Ikkinchi bosqichda karbamid degidratlanib suyuq fazada karbamidga aylanadi.

$$NH_2COONH_4 \longleftrightarrow NH_2 - CO - NH_2 + H_2O - 285,5\ kJ$$

Jarayoni ikki faza hosil bo'lishi bilan boradi: gazsimon (NH_3, CO_2, H_2O) va suyuq (erigan va suyuqlangan komponetlar –ammiak,amoniy karbamat, karbamid va suv). Karbamid suyuq fazada, ya'ni suyuqlangan karbamatdan hosil bo'ladi. Reaksiyaning umumiy tezligini sekin boruvchi bosqich, ya'ni ikkinchi bosqich – karbamatdan suv ajralish bosqichi belgilaydi. Karbamid hosil bo'lish reaksiyasi bosim va temperatura ortishi bilan hamda NH_3 miqdorini stexiometrik hisobdan ortiqcha olish bilan tezlashadi. Ammo haroratni $180^0\text{-}200^0C$ dan oshirish mumkin emas, chunki bundan yuqori haroratda amoniy karbamat ammiak va (CO_2)ga parchalanadi, hamda uskunalar korroziyasini kuchaytiradi. Shuning uchun ham reaksiya yuqori bosimda odatda 18-20MPa bosimda $180\text{-}200^0C$ haroratda olib boradi. Shunday sharoitda karbamidning unumi 70% dan oshmaydi.

Karbamid ishlab chiqarishning texnologik sxemalari, reaksiyaga kirishmay qolgach, chiqib ketuvchi gazlarni ajratish u gazlarni yana regenerasiyalab sintezda ishlatish usullari bilan farq qiladi. 3-rasmda karbamid ishlab chiqarishning texnologik sxemasi berilgan.



3-rasm. Karbamid ishlab chiqarishning soddalashtirilgan sxemasi.

1-aralashtirgich; 2,14-nasoslar; 3-suyuq ammiak yig'gichi; 4-kondensator; 5-sintez kolonnasi; 6-drossel jo'mrak; 7-yuvish kolonnasi; 8-1 pog'onali rektifikatsiya kolonnasi; 9,11-qizdirgichlar; 10-separator; 12-vakuum bug'lantirgich apparat; 13-karbamid suyuqlanmasini yig'gichi; 15-donadorlash minorasi; 16-transportyor.

Uglerod (IV)-oksidi kompressorda 20MPa bosimgacha siqilgach, aralashtirgichga keladi. U yerga nasos bilan 20MPa bosimda suyuq ammiak hamda aylanma ammoniyli va karbonatli tuz eritmalari (aylanma eritma bu reaksiyaga kirishmay qolgan gazlarni suvdagi eritmasidir) ham keladi. Aralashtirgichda aralashgan reagentlar sintez kollonnasiga – reaktor 5ga keladi. U yerda kimyoviy reaksiya natijasida karbamid sintezlanadi. Sintez kolonnasi ligerlangan po'latdan yasalgan silindirsimon, ichi bo'sh, osti dumaloq idish bo'lib, ichki tomoni xromnikel'molibdenli- yoki titanli po'lat bilan qoplangan bo'ladi.

Reagentlar aralashmasi reaktorning ostki shtuseri (shtuser – tashqi tomoni rezbali kalta quvurcha) orqali sintez kolonnasining ichiga kiradi va kolonnaning yuqorisiga tomon ko'tarila boradi. Reagentlarning yaxshi aralashishi uchun kolonna ichida chambarali to'siqlar o'rnatilgan. Suyuqlanma holda hosil bo'lgan karbamid (tarkibida 30-31% karbamid, 21-22% amoniy karbamat, 33-34% ortiqcha ammiak, 16-17% suv saqlaydi) reaktorning tepa yassi qismidagi shtusyerdan chiqadi. Karbamid bosimi kamaytirilib 1,8-2 MPa ga keltiriladi, so'ngra reaktifikasiya kalonnasi (8) ning yuqori qismiga yuboriladi. U yerda ortikcha ammiak gaz holda ajraladi. So'ngra birinchi pag'onali distiliyasiya agregati qizdirgich (9) ga o'tib 170^0C gacha qiziydi. (Birinchi bosqichli distiliyasiya agregatlariga rektifikasiya kolonnasi, qizdirgich va separatorlar kiradi). Bunda ammoniy karbamat NH_3 va CO_2 ga parchalanib ajraladi. Uchib chiqqan bug' – suyuqlik aralashmasi, separator 10ga borib, gaz va suyuqlik ajraladi. Gaz qismi rektifikasiya kolonnasiga uning ostki qismidan yuboriladi. Suyuq qismining bosimi yanada (0,3mPa gacha) pasaytirilib ikkinchi pag'onali distillyasiyaga yuboriladi. Suyuqlik tarkibi 55-51% karbamid, 4-5% ammoniy karbomati, 6-7% ammiak va 28-35% suvdan iborat bo'ladi. Ikkinchi pog'onali distillyasiya ham, xuddi birinchi pog'onadagidek, avval suyuqlik rektifikasiya kolonnasidan o'tib ammiakning bug'lanishi va karbamatning parchalanishi hisobiga 110^0C gacha soviydi, so'ngra qizdirgichda 140-142^0C gacha qizdirilib – separatorga yuboriladi. Unda tozalangach, qolgan suyuqlik tarkibida 70-72% karbamid bo'ladi. Endi u suyuqlik ikki pag'onali vakuum bug'lantirgich (12) ga yuboriladi. U yerda 0,07-0,08 mPa bosimda (ya'ni vakuumda, chunki karbamid polimerlanishi mumkin) eritma bug'lantirilib tarkibida 99,5-99,8% saqlovchi suyuqlanma olinadi. So'ngra suyuqlanma yig'gich (13) ga, undan nasos (14) yordamida granulalash minorasiga yuboriladi. Minoraning ostidan qarama-qarshi oqimda kirgan sovuq havo ta'sirida karbamid tomchilari sovib qotadi va sharchalar shaklida granulalanadi. Reaktifikasiya minorasidan chiqqan gaz faza NH_3 (hajmi bo'yicha 70% NH_3 ushlaydi), CO_2 va H_2O dan iborat bo'lib, suyuq ammiak va suv bilan sug'orilib turuvchi yuvish minorasi (7) ga yuboriladi. Minorada ammoniyli va karbonatli tuzlarning konsentrlangan eritmasi hosil bo'ladi. So'ngra bu eritma aralashtirgich orqali sintez minorasiga qaytariladi. Gaz fazada esa CO_2 dan tozalangan sof am-

miak qoladi, u kondensator (4) da siqilib, suyuqlantirilgach yana siklga qaytariladi. Karbamid sintezi minorasining diametri 2-2,5m balandligi 30-35m (hajmi160m^3) bo'lganda, uning mahsuldorligi 1250 t.sutka (450ming t//yil) ga teng bo'ladi. 1970 yillargacha qurilgan zavodlarda sintez minorasining mahsuldorligi 200-250t./sut. ga teng bo'lgan).

Yaratilgan elektron darslik jonli ovoz, rangli tasvir, slaydlar, animatsiya elementlari va testlar bilan boyitilgan. Har bir mavzu oxirida keltirilgan testlarni talaba o'zi mustaqil yechib, o'zini baholash imkoniga ega bo'ladi. Ushbu ta'sirchan multimediya vositalarning qo'llanishi, oddiy kitobni o'qishdan farqli o`laroq, o'rganilayotgan materialni o'zlashtirish va eslab qolish darajasini, talabalarning fikrlash qobiliyatini bir necha bor oshirmoqda.

Demak, yaratilgan elektron darsliklarni masofaviy o'qitish tizimida joriy etilsa, talabalar online orqali fanni tushunib, annimatsiyalarda ko'rib tasavvur qilishsa dars samaradorligi oshadi. Ushbu elektron darsliklarni xoxlagan qismini printerdan bosmadan chiqarishi, kimyoviy ishlab chiqarish jarayonlarini multimedialarda ko'rishi, hatto ovozli tarzda eshitishi ham mumkin.

Adabiyotlar

1. www. kun.uz/ news 2017/12/02/28/ Kimyo sanoatini rivojlantirish masalasida yig'ilish.

2. Ихтиярова Г.А., Нуритдинова Ф.М., Хусенов М.З. Органик кимё. Электрон қўлланма DGU 04182.2016.

3. Ихтиярова Г.А., Ёриев О.М., Ҳазратова Д.А. Умумий кимё. Электрон дарслик .// № DGU03425 2015.

4. Ixtiyarova G.A., Yoriyev O.M., Nuritdinova F.M., Dehkanova N.Sh. Kolloid kimyo. Elektron darslik. № DGU 0354.2015.

5. Kattayev N.Sh., Ixtiyarova G.A., Mirzaxidov X.A., Muxammediyev M.G. Kimyoviy texnologiya. Elektron darslik.// № BGU00249 2011.

6. Kattayev N.Sh., Ixtiyarova G.A., Mirzaxidov X.A., Muxammediyev M.G. Kimyo texnologiyasi. – T.: O'zbekiston faylasuflar jamiyati nashriyoti, 2002. – 400 b.



Mansur ERGASHEV
Buxoro davlat universiteti
kimyo kafedrasi professori,
kimyo fanlari nomzodi



Shuhrat XUDOYBERDIYEV
Buxoro davlat universiteti
kimyo kafedrasi o`qituvchisi



Sayfiddin ABDURAHMONOV
Buxoro davlat universiteti
kimyo kafedrasi katta
o`qituvchisi

"GETEROSIKLIK BIRIKMALAR" MAVZUSINI O`QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI ("Organik kimyo" fani asosida)

Mazkur maqolada organik kimyodan "Geterosiklik birikmalar" mavzusini o`qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodlari bayon etilgan.

Tayanch tushunchalar: *organik kimyo, piridin, pirimidin, furan, pirrol, tiofen, benzol, xinazolin, pedagogik texnologiya, noan`anaviy dars.*

В данной статье рассматривается методы использования педагогических технологий при изучении темы «Гетероциклические соединения» в органической химии.

Ключевые слова: *органическая химия, пиридин, пиримидин, фуран, пиррол, тиофен, бензол, хиназолин, педагическая технология, нетрадиционные занятия.*

This article deals with the methods of using pedagogical technologies while teaching "Heterocycle combinations" in the lesson of organic chemistry.

Supporting concepts: *organic chemistry, pyridine, pyrimidine, furan, pyrrole, theophany, benzene, quinazoline, pedagogical technology, non-traditional lesson.*

O`qitishning barcha tur hamda bosqichlarida uzluksizlik va uzviylik tamoyiliga qat'iy rioya etish ta'lim tizimida behuda takroriylikka chek qo`yadi, avvalo, bu jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Ta'limda uzluksizlik va uzviylik tamoyilining mazkur talabi o`qitish jarayonida rang-barang va ayni paytda samarali shakl hamda usullarni taqozo etadiki, mazkur talabning qondirilishi jamiyatimizda pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o`quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi bilan bog`lanadi. Bu bog`liqlik ijtimoiy hayotda har bir soha egasining o`z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini oshirib borishi uchun zamin hozirlaydi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, o`qitishning samaradorligini ko`tarishga bo`lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqdaki, zamonaviy texnologiyalar qo`llanilgan mashg`ulotlar o`quvchilar egallashi ko`zda tutilgan bilim, malaka va ko`nikmalarni o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. O`qituvchi bu qizg`in jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Tabiiyki, bunday o`quv jarayonida ta'lim oluvchi mashg`ulotning asosiy figurasiga aylanadi.

Bilamizki, jamiyatda ta'lim-tarbiya jarayoni boshlangan kundan beri pedagogika, didaktika hamda umumiy hamda xususiy metodikalar "nimani o`qitish," "kimni qancha o`qitish", "qanday o`qitish", "nima maqsadda o`qitish" kabi azaliy savollarga javob izlaydi. Mazkur savollarga hamisha zamon va makon nuqtayi nazaridan turli-tuman va ayni paytda o`ta nisbiy javoblar beriladiki, bu ta'lim-tarbiya borasidagi didaktik qarashlar uchun tabiiy holdir.

"*Qanday qilib samarali va natijali o`qitish mumkin?"* degan savolga bugungi kun ta'lim sohasi, davr ruhidan kelib chiqqan holda o`quv jarayonini texnologiyalashtirish, ya'ni o`qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga urinib ko`rish orqali natijaga erishish mumkin, deb javob qaytarmoqda. Mazkur qarash faqat pedagogika, didaktika yoki metodika sohalarigagina tegishli bo`lib qolmasdan, ta'limning barcha tur va bosqichlari, yo`nalishlari, sohalariga ham teng barobar daxldor ekanligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, bu bevosita "Kimyo" fani ta'limiga ham bevosita tegishlidir.

"Organik kimyo" fanida "Geterosiklik birikmalar" bo`limi ancha murakkab mavzularni o`z ichiga oladi. Mazkur mohiyatan murakkab mavzularni o`qitishda ta'lim oluvchiga mavzuni o`zlashtirish imkoniyatini beruvchi bir qancha pedagogik usullardan, jumladan, grafik organayzerlardan samarali foydalanish mumkin.

"Geterosiklik birikmalar" mavzusini o`qitishda "T" jadvaldan foydalanish

Mazkur texnologiyadan ma'ruza darslari va amaliy mashg`ulotlarning yakuniy qismida foydalanish qulay. Bunda bir muammo yechimiga turli qarama-qarshi nuqtayi nazarlardan (ijobiy va salbiy, afzallik va kamchilik, foyda va zarar, to`g`ri va noto`g`ri) yondashish imkoniyati paydo bo`ladi. Masalan: o`qituvchi mavzu bo`yicha aralashtirib tuzilgan to`g`ri va noto`g`ri javoblarni ekranga chiqarib, bir partada o`tirgan talaba-o`quvchilarga hamkorlikda ularni jadvalga ajratib yozishlarini, so`ngra yozilgan varaqlarini yondosh partadagi talaba-o`quvchilar (kichik guruhlar) bilan almashtirib qo`shimchalar qilishlarini taklif etadi. Ish yakunlangach to`g`ri va noto`g`ri javoblar ajratib yozilgan jadval ekranga chiqariladi. Talaba-o`quvchilar o`zlarining javoblarini ekrandagi jadval bilan taqqoslab tegishli xulosalarga kelishadi.

("T" jadvali)

+ (ha, ijobiy)	**– (yo`q, salbiy)**
Furan, pirrol, tiofen besh a`zoli bir geteroatomli geterosiklik birikma	Furan, pirrol, tiofen besh a`zoli ikki geteroatomli geterosiklik birikma
Tiofen sulfidlardan farqli o`laroq, odatdagi sharoitda oksidlanmaydi, pirrol esa aminlarning aksicha asos xossalariga deyarli ega emas. Bu geterotsikllar xuddi benzol kabi birikish reaksiyalariga qaraganda nitrolash, sulfolash, galogenlash va boshqa elektrofil almashinish reaksiyalariga oson kirishadi.	Furan diyen va oddiy efir, tiofen diyen va sulfid, pirrol diyen va amin xossalarga ega. Bu geterotsikllar xuddi diyenlar kabi birikish reaksiyalariga oson kirishadi.
Pirrol molekulasi tekis tuzilishga ega bo`lib, halqadagi uglerod atomlari ham $sp^2$-gibridlangan. Har qaysi uglerod atomi uchta $sp^2$-gibrid orbitalidan ikkitasini uglerod-uglerod va bittasini uglerod-vodorod σ-bog`larini hosil qilish uchun sarflaydi. Xuddi shuningdek, azot atomining uchta sp^2-orbitalidan ikkitasi azot-uglerod, bittasi esa azot-vodorod σ-bog`ini hosil bo`lishi uchun sarflanadi	Pirrol molekulasi tetraedrik tuzilishga ega bo`lib, halqadagi uglerod atomlarining bittasi $sp^3$-gibridlangan. Har qaysi uglerod atomi uchta $sp^2$-gibrid orbitalidan ikkitasini uglerod-uglerod va bittasini uglerod-vodorod σ-bog`larini hosil qilish uchun sarflaydi. Xuddi shuningdek, azot atomining to`rtta $sp^3$-orbitalidan ikkitasi azot-uglerod, ikkitasi esa azot-vodorod σ-bog`ini hosil bo`lishi uchun sarflanadi
Benzoldan farqli o`laroq, furan, tiofen, pirrollar dipol momentiga ega. Furanning dipol momenti 0,70 D, tiofenniki 0,55 D, pirrolniki esa 1,80 D ga teng.	Benzoldan farqli o`laroq, furan, tiofen, pirrollar dipol momentiga ega. Furanning dipol momenti 1,80 D, tiofenniki 0,55 D, pirrolniki esa 0,70 D ga teng.
Pirrolda dipolning musbat qutbi azot atomida emas, balki N−H guruhining elektromanfiyligi kichik bo`lgan vodorod atomida to`plangan. Shuning uchun pirrolning dipol momenti katta bo`lib, undagi N−H guruh vodorodi ishqorlar ta`sirida metallga almashina oladi.	Pirrolda dipolning musbat qutbi azot atomida, ya`ni halqadagi elektromanfiyligi katta bo`lgan azot atomida to`plangan. Shuning uchun pirrolning dipol momenti furannikidan kichik bo`lib, undagi N−H guruh vodorodi ishqorlar ta`sirida metallga almashina oladi.
Benzoldan farqli ravishda geterotsiklik birikmalarda elektron bulutining zichligi bir tekisda tarqalmagan. Bir geteroatomli besh a`zoli geterotsikllarda elektron bulutining zichligi geteroatomdan halqaga tomon siljigan bo`lib, α-holatda joylashgan uglerod	Benzoldan farqli ravishda geterotsiklik birikmalarda elektron bulutining zichligi bir tekisda tarqalmagan. Bir geteroatomli besh a`zoli geterotsikllarda elektron bulutining zichligi geteroatomdan halqaga tomon siljigan bo`lib, β-holatda joylashgan uglerod

atomlarida ko`proq to`plangan.	atomlarida ko`proq to`plangan.
Furan, tiofen va pirrol halqalari benzolga nisbatan katta elektron zichligiga ega va ular elektrofil almashinish reaksiyalariga oson kirishadi. Geteroatomga nisbatan α-holatda joylashgan uglerod atomlarida elektron zichligi katta, shuning uchun elektrofil almashinish reaksiyalari α-uglerod atomlarida amalga oshadi	Furan, tiofen va pirrol halqalari benzolga nisbatan katta elektron zichligiga ega va ular elektrofil almashinish reaksiyalariga oson kirishmaydi. Geteroatomga nisbatan β-holatda joylashgan uglerod atomlarida elektron zichligi katta, elektrofil almashinish reaksiyalari β-uglerod atomlarida amalga oshadi
…….	……

“Geterosiklik birikmalar” mavzusini o`qitishda “B/B/B” jadvaldan foydalanish

“B/B/B” (“Bilaman /bilishni xohlayman/ bilib oldim”) metodi mavzuni interfaol o`qitish, o`zlashtirish usullaridan biri bo`lib, u jadval ko`rinishida ta’lim oluvchiga taqdim etiladi, bajariladi. Bunda mavzu e`lon qilingandan so`ng ta’lim oluvchilarga “B/B/B” jadvali tarqatiladi. Dastlab ular o`zlariga ma’lum bo`lgan axborotlarni jadvalning “Bilaman” qismiga, mavzu bo`yicha yana qanday ma’lumotlarni bilishni xohlashsa, ularni jadvalning “Bilishni xohlayman” qismiga yozadilar. So`ngra, ularga mavzuga oid matn tarqatiladi. Ular mikroguruhlar tarkibida matnni mustaqil o`zlashtirib, jadvalning “Bilib oldim” qismini to`ldiradilar. Har bir mikroguruh sardori (vakili) tuzilgan jadvallarni taqdimot qiladilar. Jadvalning barcha qismlari taqqoslanib, ta’lim oluvchilarda mavjud bo`lgan va qo`shimcha o`zlashtirilgan axborotlar taqqoslanib, munozara qilinadi hamda mavzuning o`zlashtirilganligi darajasii tahlil etishga erishiladi.

“B/B/B” jadvali asosida muammolarni tahlil qilish

№	Savollar	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1	*2*	*3*	*4*	*5*
1.	Geterosiklik birikmalar halqada C atomidan boshqa (O,S,N) element atomlari bo`lgan birikmalar.	+		
2.	Azot saqlovchi geterosiklik birikmalar asos xossasiga ega		+	+
3.	Furan va uning hosilalari olinishi	+		
4.	Furan va uning hosilalarining kimyoviy xossalari		+	
5.	Tiofen va uning hosilalari olinishi			+
6.	Tiofen va uning hosilalarining kimyoviy xossalari			+
7.	Pirrol va uning hosilalari olinishi			+
8.	Pirrol va uning hosilalarining kimyoviy xossalari			+
9.	Bir geteroatomli besh a`zoli geterotsiklik birikmalarning ishlatilishi		+	
	…			

“Geterosiklik birikmalar” mavzusini o`qitishda “FSMU” metodidan foydalanish

Bu metod yordamida munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o`tkazishda yoki o`quv reja asosida muayyan bo`lim o`rganib bo`lingach qo`llanilishi mumkin, chunki bu metod tinglovchilarning o`z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga taqdim etishga, yuzma-yuz bahsga kirishishga, shu bilan bir qatorda tinglovchilarning ta’lim jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, mavzu

doirasidagi bilim, malaka va ko`nikmalarni qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda ta'lim oluvchilarni bahslashish madaniyatiga o`rgatadi.

Ushbu metod tarqatilgan oddiy qog`ozga o`z fikrlarini aniq, qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Bu metod quyidagicha amalga oshiriladi: mashg`ulotda avval har bir tinglovchi yakka tartibda berilgan vazifani bajaradi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib boradi va dars oxirida jamoa bo`lib ishlaydilar. Har bir ta'lim oluvchiga "FSMU" metodining 4-bosqichi yozilgan qog`ozlar tarqatiladi:

F– fikringizni bayon eting;

S – fikringizning bayoniga sabab ko`rsating;

M – ko`rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring;

U – fikringizni umumlashtiring.

Har bir ta'lim oluvchi yakka tartibda tarqatilgan qog`ozdagi "FSMU"ning 4 bosqichini o`z fikrlarini yozma bayon etgan holda to`ldiradi. O`z qog`ozlarini to`ldirib bo`lganidan keyin ta'lim oluvchilar kichik guruhlarga ajratiladi va guruhlarga "FSMU" yozilgan flipchart qog`ozi beriladi. Kichik guruhda har bir ta'lim oluvchi o`zining yozgan javobini boshqalarga o`qib berib, ularni o`z mulohazalari bilan tanishtiradi, so`ngra guruh a'zolari birgalashib muhokama qilib, umumiy javoblarini yozadilar va uni himoya qiladilar.

"FSMU" metodining afzalliklari:

–mazmunni samarali o`zlashtirishga olib keladi;

–muloqotga kirishish ko`nikmasining takomillashishiga olib keladi;

–vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

–barcha ta'lim oluvchilar o`quv jarayoniga jalb etiladi;

–tahlil qilish va fikrlarni asoslash malakasini rivojlantirishga yordam beradi.

"Geterosiklik birikmalar sintezida elektrofil almashinish reaksiyalarini o`rganish kerakmi?" degan savol ta'lim oluvchilar muhokamasiga qo`yiladi.

F	**Fikringizni bayon eting**	Bugungi kunda organik birikmalar sintezida amalga oshirilgan o`zbek kimyogar olimlarining ilmiy ishlarini o`rganish lozim.
S	**Sababi**	Pirimidinlar, ularning benzol (xinazolinlar), tiofen, (tiyenopirimidinlar) va boshqa geterotsikllar bilan kondensirlangan analoglari 1-holatdagi azot atomi bilan ko`pgina reaksiyalarga kirishadi. Hozirgi vaqtda geterotsiklik birikmalar sintezi ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo`lib ular qishloq xo`jaligida gerbitsid, fungitsid, pestitsidlar sifatida ishlatiladi.
M	**Misol**	Masalan, ular organik kislotalar xlorangidridlari, sulfotrioksid, molekulyar brom bilan kompleks moddalar hosil qiladi. Xinazolon va pirimidinonlar o`simliklarni o`stiruvchi stimulyatorlar sifatida ishlatilgan.
U	**Umumlashtirish**	Pirimidinlar, ularning benzol (xinazolinlar), tiofen, (tiyenopirimidinlar) va boshqa geterotsikllar bilan kondensirlangan analoglari ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim o`rin egallaganligi sababli uni o`rganish zarur.

Har bir mavzuni o`qitishda qo`llash eng qulay va samarali metodni tanlab olish, mavzuni yoritishda ta'lim oluvchi bilan hamkorlikda ishlay olish, pirovard natijada mavzu qiziqarli, sodda va, albatta, to`liq tushuntirib berilishiga erishish lozim.

Xulosa shuki, kimyo fani aniq dalillar asosida tushuntirish talab qiladigan fandir. Ta'lim oluvchilarga fanni chuqur o`zlashtirishlari uchun imkon yaratishda o`qituvchi orta umumta'limda ham, o`rta maxsus ta'limda ham, tabiiyki, oliy ta'limda ham ta'lim texnologiyalaridan o`rinli foydalana olishi zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar

1. Avliyoqulov N.X. Kasbiy fanlarni modulli o`qitish texnologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 106 b.

2. Mavlonova R., To`rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O`qituvchi, 2001. – 507 b.

3. Xodjiyev M.T., Olimov Q.T. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyasi va sifatini baholash metodikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 73 b.

4. Shoymardonov R.A., Ergashov M.Y. Organik kimyo. – Toshkent: Paradigma, 2017. – 496 b.



G‘ayrat SHIRINOV
Buxoro davlat universiteti
kimyo kafedrasi o‘qituvchisi

AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KIMYO MAVZULARINI O‘QITISHDA YANGICHA YONDASHUV

Maqolada axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida kimyo fani mavzularini o‘qitishda yangicha yondashuvlarni amalga oshirishning shart-sharoitlari ko‘rib chiqilgan.

Tayanch tushunchalar: *axborot-kommunikatsion texnologiyalar, didaktik sistema, multimedia, muammolik prinsipi.*

В статье рассматриваются условия реализации новых подходов в обучении химических наук на основе изложенных принципов с использованием информационно-коммуникационных технологий.

Опорные понятия: *информационно-технологические технологии, дидактическая система, мультимедиа, проблемный принцип.*

The article is considered the conditions for the implementation of new approaches in teaching of chemical sciences based on the above principles using information and communication technologies.

Supporting concepts: *information technology, didactic system, multimedia, problem principle.*

Ta’limni, shu jumladan, kimyo fanlarini axborotlashtirish dasturlari turli darajadagi rasmiy hujjatlarda yoritilib kelinmoqda. Bundan tashqari, kimyo darslarini modernizatsiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pchilik tadqiqotlarda axborotlashtirish prinsipi eslatilib o‘tiladi. Lekin bunday tadqiqotlarda zamonaviy axborot-kommunakatsion texnologiyalarning (AKT) ulkan imkoniyatlari faqatgina kimyoviy eksperiment natijalarini qayta ishlash uchun ofis dasturlarini qo‘llash, molekulalar strukturasini modellashtirish uchun Chem Officening maxsus paketlarini qo‘llash, kompyuterda test olishga qaratilgan tavsiyalar bilan cheklanadi. Bu holat obyektiv va subyektiv xarakterdagi sabablar bilan tushuntirilishi mumkin. Birinchisiga OTM larda kompyuter sinflarning ta’minlanganlik darajasi yetarlicha yuqori bo‘lmaganligini, tarmoqlarning o‘tkazish qobiliyati pastligini, dasturiy va metodik ta’minotning yetishmovchiligini kiritish kerak. Subyektiv xarakterdagi sabablar esa, bir qator tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, pedagoglar va ta’lim sistemasining konservatizmi (eskilikni yoqlashi), pedagogik kadrlarning zaif tayyorgarligi hisoblanadi. Oliy ta’limda AKT ning kam qo‘llanilishiga asosiy sabab shundaki, katta mehnat stajiga ega bo‘lgan pedagog o‘zining sinovdan o‘tgan ta’lim metodikasini yangisiga almashtirishga va o‘quv jarayonida kompyuterni qo‘llashga hali tayyor bo‘lmaganligidir. Boshqa tomondan, multimedia mahsulotlarining asosiy kamchiligi – o‘quv kursining zaif metodik ssenariysi hisoblanadi, chunki bunday dasturlarning ko‘pchiligi shu sohaning mutaxassislari tomonidan yaratilmaydi. Lekin asosiy muammo, buni ko‘pchilik ta’kidlab o‘tmoqda, pedagogika fani tomonidan qabul qilingan kompyuterli ta’lim prinsiplarining mavjud bo‘lmaganligidir. Shu sababli, kimyoni o‘rganishda kompyuterni qo‘llash, kimyo o‘qituvchisining axborot madaniyatnini shakllantirishga qaratilgan yangicha yondashuv va metodikalarni yaratish zarurati tug‘iladi.

Kompyuter va telekommunakatsion vositalar va texnologiyalar qo‘llanilishining turli aspektlariga ko‘pgina mualliflarning tadqiqotlari qaratilgan. Masalaning qo‘yilishi va tadqiqotlarda ko‘tarilgan muammolarning turiga qarab, mualliflar terminologiyasida tafovutlar kuzatiladi. Hozirgi vaqtda pedagogik adabiyotlarda “kompyuter texnologiyalari”, “axborot texnologiyalari”, “zamonaviy axborot texnologiyalari”, “o‘qitishning axborot texnologiyalari”, “yangi axborot texnologiyalari”, “ta’limning axborot texnologiyalari” kabi atamalar ishlatiladi [1].

Ba’zi mualliflar ta’limning axborot texnologiyalarini ta’lim sohasidagi informatikaning amaliy yo‘nalishi deb baholaydilar. Lekin ushbu yondashuv bir muncha to‘g‘ri emas, chunki u butun bir pedagogika fanini informatikaning bir bo‘lagiga aylantirib qo‘yadi. Bir qator tadqiqotlarda AKT o‘qitishning kompyuterli texnologiyalari sifatida ko‘rib chiqilib, ular qo‘llanilganda asosiy bilim manbai sifatida pedagogik dasturiy vositalar xizmat qilishi aytib o‘tilgan. Bunday xulosa ham AKTning to‘liq mohiyatini ochib bermaydi: o‘qituvchining ahamiyati, maqsadlar aniq emas. Boshqa mualliflar AKTni pedagogik texnologiyalar prin-

siplariga mos keluvchi texnologiyalar deb ta'riflaydilar. Ular an'anaviy didaktik masalalarni yechishda samarali qo'llanilishi mumkin. Ba'zi tadqiqotchilar o'qitishning axborot texnologiyalari deganda o'qitish jarayonida kompyuter tarmoqlari, jumladan, internet global tarmog'ining qo'llanilishini tushunadilar. Ularning fikriga ko'ra, internet o'qituvchi bilan raqobat qilishi hamda tezkor va qiziqarli shaklda kurs mazmunini o'quvchiga yetkazishi mumkin. Shuningdek, u nafaqat xohlagan savolga javob berish, balki shu savolni to'g'ri ifodalashni o'rgatish uchun ham xizmat qilishi mumkin [2].

Darhaqiqat, kompyuter tarmoqlari – bu ma'lumotlarning ulkan makoni hisoblanadi. Lekin internet barcha savollarga javob berish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan bir qatorda, shu ma'lumotlarning to'g'riligi xususida shubhalar ham yo'q emas. Masalan: hammaga ma'lum bo'lgan internetning WWW servisi MS Word, MS Excel dasturlari yordamida yaratilishi mumkin bo'lgan web-sahifalarni birlashtiradi. Natijada tarmoqdagi bunday sahifalarning soni yuz millionlarga yetadi, shu sababli ularda saqlanadigan ma'lumotning haqqoniyligiga hech kim kafolat bermaydi [3]. Shunga qaramasdan, kasbiy kompetentlik, zamonaviy dunyoqarash, ijodkorlik qobiliyati kabi ta'lim maqsadlarini faqatgina axborot resurslari asosida amalga oshirish mumkin. Mana shu bosqichda aynan global tarmoqlar ilmiy va o'quv-metodik ma'lumotlar bazasiga kirish imkoniyatlarini; o'quv muassasalari, o'qituvchilar, talabalar o'rtasida axborot almashinishni; telekonferensiyalar o'tkazishni ta'minlaydi, ya'ni kam vaqt sarflab va moliyaviy xarajatlarsiz qiziqtirgan savol bo'yicha kerakli ma'lumotlarni olishga imkon beradi.

Ma'lumki, tarmoq – bu kompyuterlar, ular orasidagi bog'lanmalar va dasturiy ta'minotlar birlashmasidir. Intelektual kompyuter sistemalari va telekommunikatsion tarmoqlarning birlashishi ta'lim jarayonlarida o'z aksini topishi kerak. Shu sababli, ular *axborot-kommunikatsion texnologiyalar* deb yuritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shularga asosan, axborot-kommunikatsion texnologiyalar deganda *o'qitishning pedagogik texnikasi, kompyuter va kommunikatsion vositalarni qo'llashga asoslangan o'qitish usullari va pedagogik texnologiyalar majmui* tushuniladi.

Ya'ni ta'limning axborot-kommunikatsion texnologiyalari – bu zamonaviy kompyuter va kommunikatsion vositalarni qo'llashga asoslangan, ta'lim standartlariga erishishni ta'minlaydigan tashkiliy shakllar, pedagogik texnologiyalar va o'quv jarayonini boshqarish texnologiyalarining qo'shilishidir.

Kimyoni o'qitish, o'qituvchini tayyorlash sistemasini modernizatsiyalashdagi AKTning ahamiyati uni ta'lim jarayonida qo'llanilish prinsiplarining (didaktik prinsiplarning) tahlilini taqozo etadi. Oliy ta'lim pedagogikasi rivojlanishining zamonaviy bosqichida o'quv jarayonida AKT qo'llanilishining metodologik talablari aniqlanayotganda an'anaviy didaktik prinsiplar yangilariga almashtirilishi emas, balki hozirgi sharoitda ularni asosli qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan mazmun bilan to'ldirilishi va qayta ko'rib chiqilishi kerak [4].

Oliy ta'lim amaliyotiga AKT kiritilishining shartlaridan biri o'qituvchi va talabalarning ularni qo'llash tayyorgarligi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda, afsuski, ko'pchilik o'qituvchilar AKTning o'quv jarayoniga kiritilishini oliy ta'lim sistemasiga EHMning joriy qilinishi sifatida qarab chiqadilar. Ehtimol, bu – muammo mohiyatini sodda va bir tomonlama tushunishdir. U esa o'quv jarayonini yuqori darajada yangicha tashkil qilishni, shuningdek, OTM ning barcha sohalariga AKTni keng joriy qilish asosida insonning kompyuter bilan optimal bog'liqligini tashkil qilgan holda o'qitish texnologiyasining yangi didaktik modelini yaratishdek jarayonlarni qamrab oladi.

Tahlillar ko'rsatadiki, hozirni o'zida AKTning qo'llanilishi pedagog va talaba funksiyalarini tubdan o'zgartiradi, o'quv jarayonining barcha komponentlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi, pedagoglar va talabalar faoliyatining usullari, xarakteri va o'rni, "pedagog-AKT-talaba" sistemasida amalga oshiriladigan didaktik funksiyalarning nisbati o'zgaradi, turli fanlarni o'qitish metodikalari va dasturlari murakkablashadi, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish usullari va shakllarining ko'rinishi o'zgaradi. Boshqacha aytganda, o'quv jarayoniga AKTning kiritilishi OTM pedagogik sistemasining barcha strukturasida jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bunda "inson-kompyuter" sxemasi cheksiz keng imkoniyatlarga ega bo'ladi, an'anaviy usullardan farq qiladigan o'quv jarayoni muammolarini hal qilish uchun yangicha yondashuvni taklif qiladi.

Jadal sur'atlarda o'zgarishlar amalga oshayotgan zamonaviy sharoitda quyidagi tendensiyalarni ajratish mumkin: o'qituvchi ba'zi didaktik, xususan, nazorat qilish funksiyalaridan ozod bo'lib, ijodiy-yondashuv funksiyalarga ko'proq e'tibor qaratadi; uning o'rni ancha o'zgaradi va talabalarning bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha imkoniyatlari kengayadi; pedagogning kompyuter savodxonligiga qo'yiladigan talablar oshadi. S.I. Arxangelskiyning fikriga ko'ra: "o'qituvchilar faoliyatining xarakteri o'zgaradi, u "ijodiy-maslahat" ko'rinishga ega bo'ladi". Shuni ta'kidlash joizki, AKTdan foydalanish shariotida o'qituvchining o'rni nafaqat yetakchi bo'lib qoladi, balki yanada murakkablashadi. U mashg'ulot uchun o'vuv materiali yig'adi, talabalarning AT bilan o'zaro ta'sir strukturasi va algoritmlarini ishlab chiqadi, talabalar faoliyatini

boshqarish mezonlarini shakllantiradi va hokazo. Faoliyatining mohiyati o‘zgaradi, uning ishi borgan sari konsultativ xarakterga ega bo‘lib, undan doimiy ravishda nafaqat bilimi va kasbiy mahoratini, balki uslubiy kompetentligini yangilash talab qilinadi.

Psixologik nuqtayi nazardan, AKTni qo‘llash sharoitida ayrim o‘qituvchilarda kompyuter savodxonligi bo‘yicha qiyinchiliklar tug‘ilib, ular yangi texnika bilan ishlash qo‘rquvida, ko‘pchilik o‘qituvchilarda EHMni qo‘llash tajribasining mavjud bo‘lmasligida namoyon bo‘ladi. O‘quv jarayonini axborotlashtirish kabi hodisaning yangiligi, o‘qituvchiga qo‘yiladigan qo‘shimcha yuklamalar ba’zi o‘qituvchilarda beixtiyor muayyan ishonchsizlikni, o‘ziga xos psixologik to‘siqni shakllantiradi. Bunday sharoitda pedagogning kasbiy faoliyati samaradorligining muhim sharti bu – kompyuter madaniyati hisoblanadi. Ya’ni o‘quv jarayonida EHMni qo‘llayotgan o‘qituvchi o‘zining sohasida kompyuterning imkoniyatlarini bilishi va AKTni qo‘llash sharoitida u bilan ishlash malakasiga ega bo‘lishi, o‘quv materialini tanlashni va tegishlicha ularni qo‘llashni bilishi, o‘qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda darslarda muammoli vaziyatlarni yaratishi yoki dasturchilar bilan hamkorlikda o‘rgatuvchi dasturiy vositalarni yozishni bilishi kerak.

Agar pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy elementi sifatida kompyuter madaniyatining shakllanishi e’tiborga olinsa, pedagoglardagi kompyuter tayyorgarligining o‘zi kifoya bo‘ladi. U aniq kasbiy maqsadli yo‘nalishga ega bo‘ladi, motivatsiya ahamiyatli va barqaror bo‘lib qoladi.

AKT qo‘llanilishining yana muhim shartlaridan biri – pedagogning uni qo‘llashdagi qiziqishi hisoblanadi. Bu shuni bildiradiki, ba’zi pedagogik masalalarni samarali hal qiilishda (masalan, o‘rganilayotgan o‘quv materialinining ahamiyatini ochishda, uning o‘zlashtirilish intensivligini oshirishda, amaliy ishlar malakasini rivojlantirishda va mustahkamlashda, o‘quv faoliyatini boshqarishda, o‘quv materialining o‘zlashtirilish natijalarini qayd etishda) ushbu texnologiya yordam berishini, shuningdek, noijodiy xarakterga ega bo‘lgan pedagogik faoliyatning bosqichlarini avtomatlashtirish hisobiga ko‘proq bo‘sh vaqtga ega bo‘lishini o‘qituvchi ko‘ra olishi kerak. Ta’kidlash joizki, afsuski, ko‘pchilik OTMlarda AKTni yaratish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar markazlashgan xarakterga ega emas, o‘qituvchilarning real mehnat xarajatlari ularning shaxsiy ish rejalarida inobatga olinmaydi.

AKTni qo‘llash sharoitida o‘qituvchining faoliyati ancha qiyinlashadi. Chunki o‘qituvchi uni yangi pedagogik muhitda va yangi o‘qitish vositalari bilan amalga oshiradi. U AKT orqali, shu muhitda amalga oshiriladigan o‘qitish strategiyasi orqali talabalarga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkoniga ega bo‘ladi. Bunday sharoitlarda o‘qituvchi faoliyatining xarakteri o‘zgaradi: undan an’anaviy o‘qitishda umuman mavjud bo‘lmagan ba’zi funksiyalarni amalga oshirish talab qilinadi. Aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, hozirgi kunga kelib professor-o‘qituvchilar tarkibining kompyuter tayyorgarligi zamon talablaridan orqada qolmoqda. Ularning AKTni qo‘llashdagi psixologik-pedagogik tayyorgarligi ham talab darajasida emas. Masalan, umumiy texnik va maxsus fanlar o‘qituvchilarining 90% va barcha o‘qituvchilarning 70% qismi tayanch psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega emas. Demak, bu holat maxsus amaliy ko‘rsatmalarning yaratilishini taqozo qiladi.

Yetakchi OTMlar tajribasining tahlili ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda professor-o‘qituvchilar tarkibining psixologik-pedagogik tayyorgarligi turli shakllarda olib boriladi, masalan, malaka oshirish markazlari, o‘quv-metodik yig‘inlar, ilg‘or tajribalar almashinuvi, yosh o‘qituvchilar maktablari va boshqalar. Ularning dasturlari oliy ta’limdagi pedagogika va psixologiyaning barcha bo‘limlarini qamrab oladi. Shu bilan birga, qamrov kengligi, dasturlarning murakkabligi berilgan dars mobaynida zamonaviy pedagogikaning ko‘pgina muhim qirralarini chuqurroq o‘rganishga imkon bermaydi. Dasturlarda esa ushbu masalalar bo‘yicha seminarlar yoki amaliy mashg‘ulotlar ko‘pincha ko‘zda tutilmaydi.

Qayd etilgan dasturlarning yana bir kamchiligi shundan iboratki, ular barcha kafedralarning o‘qituvchilari uchun ham mo‘ljallanmagan, ularning spesifikasi va tayyorgarlik darajasi inobatga olinmagan. Bu narsa o‘qituvchilarning psixologik-pedagogik tayyorgarligiga umumiy xarakter kasb etadi, u asosiy narsani – muayyan yo‘nalishni e’tibordan chetda qoldiradi.

Professor-o‘qituvchilar tarkibining AKTni qo‘llash bo‘yicha tayyorgarligi taklif qilinayotgan dasturni uchta asosiy bo‘limga ajratgan holda olib borilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dasturning bir bo‘limi umumiy OTM ko‘lamida, keyingisi turdosh kafedralar bo‘yicha kafedralararo masshtabida, uchinchisi bevosita kafedralarda o‘rganiladi. Dasturning birinchi va qisman ikkinchi bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlarni olib borish uchun OTMning pedagogika va psixologiya o‘qituvchilari jalb qilinadi. Dasturning uchinchi va qisman ikkinchi bo‘limi bo‘yicha mashg‘ulotlar tegishli kafedralarning tajribali o‘qituvchi-uslubshunoslariga topshiriladi.

O‘qitiladigan o‘quv fanlarning mazmun-mohiyatini, shuningdek davlat ta’lim standartlari talablarini e’tiborga olgan holda turdosh kafedralar guruhlarini quyidagicha bo‘lish mumkin: 1-guruh – gumanitar

fanlar kafedralari; 2-guruh – tabiiy-ilmiy fanlar kafedralari; 3-guruh – umumkasbiy fanlar kafedralari; 4-guruh – maxsus fanlar kafedralari.

Ushbu guruhlardagi o‘qituvchilar psixologik-pedagogik tayyorgarligining mazmuni differensial prinsip asosida tuzilishi, ya’ni AKTni qo‘llash bo‘yicha bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar ikkiga bo‘linishi kerak: umumdidaktik (har qanday fanlarni o‘tishda zarur bo‘ladigan) va maxsus (muayyan fanlarni o‘tishda zarur bo‘ladigan).

Oliy ta’limda AKTni qo‘llash bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlili hamda bir qator ta’lim muassasalari o‘qituvchilari bilan suhbatlar shundan dalolat beradiki, ularni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun o‘qituvchi quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisiga eg bo‘lishi kerak.

Umumdidaktik bilimlar: AKT tushunchasi, ularning ahamiyati, didaktik funksiyalari va ularning imkoniyatlari; kompyuter va axborot vositalarining sinflari va turlari, AKTni qo‘llash prinsiplari, o‘quv jarayonida AKTning o‘rni va ahamiyati; AKTni qo‘llashning psixologik-pedagogik shartlari; o‘quv jarayonida AKT qo‘llanilishining samaradorligi; AKT asosida o‘qitish usullari va shakllari, ularni loyihalashtirish texnologiyasi.

Umumdidaktik ko‘nikmalar va malakalar: AKT strukturasida ayrim kompyuter vositalirining o‘rni va ahamiyatini aniqlash, ularning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish, psixologik-pedagogik omillar asosida dasturiy vositalarni tanlash, uni o‘quv jarayonida qo‘llash uchun zarur bo‘ladigan o‘quv materiallarini tayyorlash va hokazo.

Maxsus bilimlar: OTM ta’lim jarayonida AKTning o‘rni va ahamiyati, ularda qo‘llaniladigan vositalarning ekspluatatsion-texnik xarakteristikalari va didaktik imkoniyatlari, dasturiy vositalarni kompleks qo‘llash spesifikasi, turli o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tishda AKTni qo‘llash texnologiyasi va boshqalar.

Maxsus ko‘nikmalar va malakalar: fanlar kesimida turli o‘quv mashg‘ulotlarida ayrim dasturiy vositalarning o‘rni va ahamiyatini asoslab berish; muayyan AKT uchun o‘quv materialini (mavzu, laboratoriya ishini) aniqlash; AKT muhitida o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishning optimal variantini tanlash; didakti materiallar yaratish, amaliy dasturiy mahsulotlar uchun algoritmlar yaratish va ishlab chiqish, ular uchun uslubiy ko‘rsatmalar tuzish, kommunikatsion vositalar va uning dasturiy ta’minoti bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish; AKT asosida o‘tiladigan o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligi aniqlash va tahlil qilish.

Shunday qilib, o‘qituvchilar tayyorgarligining umumdidaktik qismida AKTni qo‘llash bo‘yicha umumiy bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar sistemasi shakllanadi, maxsus bo‘limda esa ular mustahkamlanadi va konkretlashtiriladi.

O‘qituvchilar tayyorgarligi hamda ularning AKTni qo‘llash darajasini tekshirilishining yakuniy bosqichi – olingan bilimlar, ko‘nikmalar va malakalarning o‘quv mashg‘ulotlarida amaliy joriy qilinishi hisoblanadi. Shu asnoda o‘qituvchilarning tayyorgarligi o‘zining mantiqiy yakuniga yetadi.

Pedagogik kasbni endigina egallagan yosh o‘qituvchilar tayyorgarligi diqqatga sazovordir. Ular uchun AKT qo‘llanilishi haqidagi bilimlarni mehnat faoliyatining dastlabki bosqichida olishi juda muhimdir. Buning uchun malaka oshirish markazlarida “Ta’lim jarayonida o‘qitishning axborot texnologiyalari” kabi maxsus bo‘limni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qator tadqiqotlarda bayon etilgan umumdidaktik qoidalarga asosan AKTni oliy ta’limda qo‘llash prinsiplarining mohiyatini ochishga harakat qilamiz.

Didaktik sistemaning o‘qitish qonuniyatlariga muvofiqlik prinsipi boshqalarga nisbatan asosiy prinsiplardan hisoblanadi, chunki u talabalarning o‘quv faoliyatini uning ob’ektiv qonuniyatlari asosida tashkil etilishini taqozo etadi. O‘qitish qonuniyatlarining asosiy mohiyati o‘quvchi tomonidan o‘quv fanining ilmiy mazmunini bosqichli o‘zlatirishidan iboratdir. Natijada, AKT qo‘llanilishida o‘qitish maqsadlari bosqichma-bosqich, bir qator xususiy didaktik masalalarni yechish yo‘li bilan erishilishi kerak.

Nazariy bilimlarning ahamiyatlilik prinsipi AKT ishtirokidagi didaktik jarayonni tashkil etishning maqsadga muvofiqligini ifodalaydi. Bunda dastlabki bosqichda talabalar mavzuning nazariy mazmuni haqida ma’lumot olishadi, so‘ng oraliq bosqichlarda har bir masalaning ayrim ko‘rinishlarini o‘zlashtirishadi va oxirgi bosqichda butun mavzuning o‘zlashtirilishini kerakli darajaga yetkazishadi.

O‘qitishning ilmiy, tarbiyaviy va o‘zlashtiruvchi funksiyalarining birdamlik prinsipi. Bu prinsipni amalga oshirish imkoniyatini elektron ilmiy resurslarni loyihalash vaqtidan boshlab tashkil etish kerak. O‘zida o‘quv materialini saqlagan bunday resurslar nafaqat jarayonning, balki o‘qitishning ilmiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funksiyalarning maqsadli aspektlarini amalga oshiradi. Metodik jihatdan oqilona yaratilgan kompyuter dasturi o‘qituvchining shaxsiy malakasiga bog‘liq bo‘ladi va u albatta, o‘quvchilarning tuyg‘u va hissiyotlariga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, kompyuterli laboratoriya praktikumi bilan ishlash jarayoni tala-

baning fikrlash qobiliyatini mukammallashtiradi, o‘zining qarorlarini asoslab berish ko‘nikmasini rivojlantiradi, natijada ularda hallollik, javobgarlik, vijdonlilik kabi ma’naviy sifatlar shakllanadi.

Muammolilik prinsipi bilim va faoliyat usullarini ijodiy o‘zlashtirish, ijodiy faoliyat malakasini egallash qonuniyatlarini aks etadi. Bu prinsip AKTni qo‘llashda o‘qituvchini muammoli vaziyatlarni yaratishga va shu bilan o‘quv jarayonini faollashtirishga (jadallashtirishga) yo‘naltirib, unga ijodkorlik, tadqiqotchilik kabi faoliyat xususiyatlarini kasb etadi.

*Multimedialik prinsipi*ni an’anaviy ko‘rgazmalilik prinsipining yangi sifat darajasida rivojlangan prinsipi deb qabul qilish mumkin. Uning mohiyati shundan iboratki, o‘qitish multimediali bo‘lishi kerak. Bu prinsipga muvofiq AKTga asoslangan o‘qitish jarayoni fanlararo bog‘liqliklar negizida tashkil etilishi zarur.

*Talabaning mustaqil ta’limini faollashtirish prinsipi*ga asosan AKTning qo‘llanilishi shaxsni rivojlantirishga, subyekt sifatidagi o‘quvchining qobiliyatlarini aniqlashga, uning sub’ektiv tajribasini tan olishga hamda shu tajribaga tayangan holda pedagogik aloqadorlikni tuzishga qaratilgan bo‘lishi kerak. AKT negizidagi o‘rgatuvchi muhit talabaning faoliyatini cheklab qo‘ymasdan, balki individual rivojlanish yo‘lini mustaqil tanlash sharoitlarini yaratishi kerak.

Shunday qilib, AKT asosida kimyo fanlarini o‘qitishda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan asosiy shartlardan biri yuqorida sanab o‘tilgan prinsiplarga tayangan holda fanga yangicha yondashuvni loyihalashdir.

Adabiyotlar

1. Стариченко Б.Е. Компьютерные технологии в вопросах оптимизации образовательных систем/ Урал.гос.пед.ун-т. – Екатеринбург, 1998. – 208 с.

2. Карлов И., Кудрявцева И. Ноосфера образования. Область удаленного доступа к знаниям // Алмаматер ВВШ. – 2001. – №3.– С.41-44.

3. Шампанер Г. На рынке обучающих программ // Высшее образование. – 1999. – №3.– С.122.

4. Образцов П.И. Психолого-педагогические аспекты разработки и применения в вузе информационных технологий обучения. – Орел, 2000. – 145 с.

TIL VA ADABIYOT, XORIJIY TILLAR



Shavkat HAYITOV
Buxoro davlat universiteti
o‘zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

KUCHLI HOFIZA – ILOHIY INOYAT

Maqolada kuchli hofiza komil insonga xos xususiyat ekanligi Alisher Navoiy asarlariga tayangan holda asoslab berilgan.

Tayanch tushunchalar: *Alisher Navoiy, Amir Temur, Farhod, “Xamsatul-mutahayyirin”, “Majolisun-nafois”, Abdurahmon Jomiy, komil inson, «Lamaot», Shayx Faxriddin Iroqiy, «Naqsh ul-afsus», «Fususul-Hikam», «Futuhot ul-Makkiya», Mir Murtoz, Abdulloh Marvarid, Mavlono Binoiy.*

В статье обосновывается способность запоминания как качество совершенного человека на основе произведений А.Навои.

Опорные понятия: *Алишер Навои, Амир Тимур, Фарход, «Хамсатул-мутахаййирин», «Мажолисун-нафоис, Абудрахман Джами, совершенный человек, «Ламаот», Шейх Фахруддин Ираки, «Накшул-афсус», «Фусусул-Ҳикам», «Футуххот ул-Маккия», Мир Муртоз, Абдуллох Марва-рид, Мавлоно Биноий.*

In article is proved the ability ofmemorizingas qualities of wise man,basedon works of A.Navoiy.

Supporting concepts: *Alisher Navai, Amir Timur, Farkhod, “Hamsatul-mutakhayyirin”, "Mazholisun-nafois”, Abudrakhman Djami, wise man, "Lamaot", Sheikh Fakhruddin Iraki, Nakshul-afsus, "Fususul-Hikam", "Futukhkhotul-Makkiya", Mir Murtoz, Abdullokh Marvarid, Mavlono Binoiy.*

Hazrat Alisher Navoiy hofiza qobiliyatini inson mukammalligining belgilaridan biri sifatida e’tirof qilgan. Jahongir Amir Temurning uchinchi o‘g‘li, Eron, Eron Ozarbayjoni va Iroq hukmdori Mironshoh Mirzo musohiblaridan biri Xoja Abdulqodir haqida Navoiy yozadi: “Xojaning kamolotidin biri Qur’on hifzi va qiroat ilmi erdi” [3, 164]. Xoja Abdulqodir ana shu iste’dodi bois Temur Ko‘ragon qatlidan omon qolgan: “Xojai faqirni... sudrab taxt ilayiga kelturdilar. Andin burunkim siyosat hukm bo‘lg‘ay, ...filhol biyik un bila Qur’on o‘qimoq bunyod qildikim, ul Hazratning g‘azabi lutfqa mubaddal bo‘lub, fazl va kamol ahli sari boqib, bu misrani ba vaqt o‘qudikim:

Abdol zi biym chang bar Mushaf zad.

Tarjimasi: Qalandar qo‘rquvdan Qur’onga chang soldi [3, 277]. Andin so‘ngra Xojag‘a iltifot va tarbiyatlar qilib, o‘z oliy majlisida nadim va mulozim qildi» [3, 163-164].

“Majolisun – nafois”ning uchinchi majlisida Mavlono Hiloliyning turk elidan ekanligi qayd qilinar ekan, uning shaxsida nazarga tashlanadigan yetuklik nishonasi quyidagicha ixcham ifoda etiladi: “Hofizasi yaxshidur, tab’i dag‘i hofizasicha bor” [3, 86]. Alisher Navoiy orzusidagi komil inson Farhod ham shunday fazilat (hofiza quvvati baland) bilan ziynatlangandir:

Agar bir qatla ko‘rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo‘q erdi ul varaqni.

Ne so‘znikim o‘qub ko‘ngliga yozib,
Dema ko‘ngliga, jon lavhiga qozib.

O‘qub o‘tmak, uqub o‘tmak shiori,
Qolib yodida safha-safha bori [2, 33].

Alisher Navoiy xayolotidagi barkamol shahzoda Farhod siymosida kuzatilgani kabi tarixiy shaxs, shoh Husayn Boyqaroning o‘g‘li – Shoh G‘arib Mirzo uchun ham kitob o‘qish va yod olish tabiiy ehtiyojga aylangan: “...qurro va o‘qush ko‘ngliga mahbub” [3, 170].

Quvvai hofiza kuchi Hazrat Alisher Navoiyning ustozi va do‘sti Nuriddin Abdurahmon Jomiy siymosini hamisha nurlantirib turgan. “Xamsatul-mutahayyirin”ning uchinchi maqolotida naql qilinishicha, Alisher Navoiy Shayx Faxriddin Iroqiyning “Lamaot” risolasini ustoz Jomiy huzurida mutolaa qiladi. Mavlono Jomiy ul sharif kitobdan Alisher Navoiyga saboq aytishga kirishadilar. Bir necha darsdan so‘ng sharhga ehtiyoj seziladi. Chunki “Lamaot” risolasi ramziy ibora-istioralar, so‘fiyona istiloh va atamalarga benihoya boy edi. Shayx Yorali va boshqa shorihlarning asarlarini “muborak nazarlariga qo‘yub” saboq aytishga mashg‘ul bo‘lgan Mavlono Jomiyga “Lamaot”ga yozilgan sharhlarning kamchiliklari, botiniy ma’nolarni talqin qilishdagi qusurlar ayon bo‘la boshlaydi. “Xamsatul-mutahayyirin”dan o‘qiymiz: “...to ulkim, ko‘p mavozi’da shorihlarga ta’n qila boshladilarkim, “bu so‘zning va ul so‘zning orasida ko‘p farq bor. Hamonoki, ma’nisig‘a etmay sharh bitibturlar» va bu so‘z takror topqondin so‘ngra faqir (Alisher Navoiy) arz qildimkim: “Mundoq nafis kitobdin faqire bahra topay desa, sharh bu sharhlar bo‘lsa, oyo, ne chora qilg‘ay? Magar ham hazrati Maxdum shafqat yuzidin toliblarg‘a bu mushkilni oson qilg‘aylar” [3, 56]. Ana shu da’vat tufayli Nuriddin Abdurahmon Jomiyning “Ashi’atul-lamaot” nomli sharh-kitobi yaratiladi. Ulug‘ olim shaxsiyatidagi fidoyilik, Vatanga, elga, ilmga sadoqat O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning quyidagi so‘zlari ko‘zgusida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi: «Olimlar orasida darslik yozishga pastroq bir ilmiy ish sifatida qarash illati bor. Nega bunday? Bu psixologiya qayerdan paydo bo‘lgan?... Har bir soha bo‘yicha darslikni o‘sha fanning atoqli vakillari yozmaydilarmi?” [1, 14]. “Ashi’atul-lamaot” risolasining yaratilish jarayoni haqida ham “Xamsatul-mutahayyirin”da ma’lumotlar mavjud. Mavlono Jomiy Shayx Faxriddin Iroqiy kitobiga sharh yozar ekan, Shayx Muhyiddin Arabiyning “Naqsh ul-afsus”, “Fususul-Hikam”, “Futuhot ul-Makkiya” va boshqa olimlarning yozilayotgan yangi kitobga manba vazifasini o‘tay olishi mumkin bo‘lgan asarlari Nuriddin Abdurahmon Jomiy qoshida turgan. Biroq yuksak hofiza quvvatiga ega bo‘lgan buyuk mutafakkir ularni ochib qarashga hech bir ehtiyoj sezmagan: “Ul sharhni bitirda “Fusus” va “Futuhot” va “Nusus” va “Fukuk” va aksar qavmning umda kitobi muborak nazarlarida erdi, agarchi hech qaysig‘a boqg‘ali ehtiyojlari yo‘q erdi” [3, 56]. Og‘ir va salmoqli ishlarni ham hech bir og‘rinmasdan odatdagi oddiy bir ish kabi qabul qilish axloqiy barkamollik va daholik alomatidir. O‘z taqdirini odamlar, millatu mamlakat taqdiri bilan bog‘lagan, tafakkurining sathi falaklar qadar qamrovli komil insonlar shunday xususiyatga ega bo‘ladilar. Ular ezgulik yo‘lida chekilgan zahmatlarni huzurbaxsh, yoqimli iztirob singari qabul qiladilar. Qora nafs makrlarini butkul mahv qilgan, shaxsiy g‘arazlardan poklangan komil inson vujudi el manfaati yo‘lida tortilgan mashaqqatdan lazzat tuyadi.

Insonning ichki olamini mukammallashtirish, ruhiyatini kamolga etkazishda musiqa san’atining ahamiyati katta. Shuning uchun ham jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga, ijtimoiy-ruhiy muhitning taraqqiysiga keng imkoniyatlar ochilgan Mustaqil O‘zbekistonda estetik tarbiyaning bu vositasiga jiddiy e’tibor berilayotir. Aslida bunday e’tibor O‘zbekiston taqdirida ajdodlarimiz tomonidan ming yillar davomida to‘plangan, xalq kelajagini ko‘zlagan tajribalarning zamonaviy shaklda aks-sado berishi, asrlar osha o‘z qimmatini bir xilda saqlab kelayotganligidan nishonadir. Asrlar davomida she’r va musiqa biri-biridan ruh olib, inson qalbining tub-tubidan oqqan ulug‘ g‘oyalarni o‘ziga singdirib avlodlar ma’naviy takomiliga xizmat qilgan. Shuning uchun ham Hazrat Alisher Navoiy bu sohaning o‘z zamonasidagi benazir namoyandasi; ud, g‘ijjak va qo‘biz asboblarining mohir cholg‘uvchisi ustod Qulmuhammadga behad ehtirom ko‘rsatgan: “Majolisun nafois”ning to‘rtinchi majlisida bitilgan qaydlardan ayon bo‘lishicha, ulug‘ mutafakkir Ustod Qulmuhammad “tarbiyatig‘a mashg‘ul” bo‘lib, uning ilmidan juda ko‘p shogirdlar bahramand bo‘lishiga sharoit hozirlagan [3, 135]. “Xamsatul-mutahayyirin”ning uchinchi maqolotida ham Ustod Qulmuhammad nomi e’zoz bilan tilga olinadi. Musiqaning ijtimoiy-ruhiy muhitning o‘zgarishiga, shaxs kamolotiga ta’sirini chin ko‘ngildan his qilgan Alisher Navoiy o‘zi ham bu ilmni o‘rganishga astoydil kirishgan: “Faqirg‘a doiya bo‘ldikim, bu fanning ilmiysini dag‘i bilgay...” [1, 70]. Qomusiy bilimlar sohibi Hazrat Navoiyning musiqa ilmida ham kamolot kasb etganligi, bu fan nazariyasini yaratuvchilaridan biri maqomiga ko‘tarilganligi ulug‘ millatparvar olim vorislari uchun ibratdir. “Bu fanda asrining bebadali” (tengi yo‘q olimi) mavlono Alishohning “Aslul–vasl” kitobi Navoiy taklifi bilan tasnif qilinadi. “Aslul-vasl”ni hamda zamonasining taniqli madaniyat arboblari – Mir Murtoz, Abdulloh Marvarid va Mavlono Binoiy tomonidan musiqa sohasida yaratilgan nazariy asarlarni sinchiklab o‘qigan Alisher Navoiy bu kitoblarni murakkab uslubda yozilganligi, ulardagi masalalarni musiqa borasida endigina didi, salohiyati shakllanayotgan yangi boshlovchi (mubtadi) hazm qila olmasligini anglaydi. Alisher Navoiy qalbidagi ma’naviy dardlarni hamisha barchadan oldin va a’lo darajada his qilib kelgan Nuriddin Abdurahmon Jomiy bu safar ham insonparvar shoir istagining

ro‘yobga chiqishiga bois bo‘ladi: “Ul erdinkim, alarning bul faqir sori inoyat va iltifotlari bor erdi, musiqiy va advor risolasin bitidilarkim, bu fanda andoq munaqqah va mufid (yangi va foydali) risola yo‘qdur” [1, 70].

Alisher Navoiy yashagan asrda, undan oldingi va keyingi davrlardagi o‘quv muassasalarida muammo ilmi fan sifatida o‘qitilgan. Shundan bo‘lsa kerak, ulug‘ shoir “Farhod va Shirin” dostonida o‘z orzusidagi ayol hukmdor Mehinbonu homiyligida etishgan o‘n qiz-o‘n olimadan biri muammo ilmida kamolot kasb etganligini alohida ta’kidlagan:

Hisob ichra birining zihni borib,

Muammoda birisi ot chiqorib [2, 194].

«Majolisun-nafois» tazkirasida Mavlono Siymiy, Mavlono Hoji Abulhasan, Mavlono Abdulvahhob, Xoja Fazlulloh Abullaysiy, Mavlono Uloi SHoshiy, Mavlono Muhammad Muammoiy, Mavlono Mir Arg‘un kabi oltmishga yaqin ijodkorning rangin va latif muammolaridan namunalar keltirishdan erinmaydi. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, Hazrat Alisher Navoiyning o‘zi o‘zbegu fors-tojik tillarida etti yuzga yaqin muammo yozgan.

Nega o‘rta asrlar Sharq madaniy-ma’naviy muhitida bu janrga bu qadar jiddiy ahamiyat berilgan?

Muammo shoirlar badiiy mahoratini baholashda mezon vazifasini o‘tagan.

Jamiyat a’zolari uchun aqlni charxlash, fikrni takomillashtirish vositasi bo‘lgan.

Muammoning yechimini topish, undagi ramz va imo ishoralarning tagiga yetish hayot, jamiyat, hayvonot va nabotot olamidagi hodisalar xususida chuqur bilimni taqozo qilgan. Muammoni yechish yo‘lida ilmiy, hayotiy muhokama yuritish; fikran javob izlash, qidirish, topish, tadqiq va talqin jarayoni o‘quvchining voqelikka bo‘lgan qarashlar tizimini kengaytirgan.

Muammolar mag‘zidagi axloqiy-ta’limiy, ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar barkamol inson shaxsini shakllantirishda qo‘l kelgan. Ixcham hajm, shavq-u zavq uyg‘otuvchi ta’sirchan lavhalar aqliy-nazariy mushohadalar bilan uyg‘unlashib o‘quvchida mustaqil fikr va mantiqiy tafakkur yurita olish ko‘nimlarini tarkib toptirgan. Shuning uchun ham butun ijtimoiy, badiiy-ilmiy faoliyatini inson va inson manfaatlariga yo‘naltirgan Hazrat Alisher Navoiyni “muammo fikri” band etadi. “Sohibkamollig‘iga olam ahli” tan bergan Mavlono Sharafuddin Ali Yazdiyning “Hulali mutarraz” (Naqshlar tikilgan shoyi) nomli muammo faniga bag‘ishlangan kitobidan tortib, undan keyingi davrlarda shu ilmga atab yaratilgan risolalarni nazardan o‘tkazadi. Ammo mavjud kitoblardagi qoidalarni berish va atamalarni sharhlashdagi har xilliklar; istilohlarni ifodalash, izohlashdagi pala-partishlik, yagona fikrga kelinmagan nazariy mulohazalar va boshqa qusurlar buyuk mutafakkir ko‘nglida g‘ashlik uyg‘otadi. Chunki bunday kitoblardan muammo fanini o‘rganish yangi boshlovchiga mushkul, uni chalg‘itishi, o‘quvchini boshi berk ko‘chaga olib kirib qo‘yishi mumkin edi. Alisher Navoiy shunday o‘y-xayollar bilan band bo‘lib turganida Nuriddin Abdurahmon Jomiy kirib keladilar: “Hazrati Maxdum tashrif kelturdilar, faqir munbasit bo‘lub, istiqbol qilib, alar taskin topib, dedilarkim: “Basharangda inbisote (xursandlik) zohir bo‘lur, ne holing bor?”.

Ayttimkim: “Hazrati Maxdumning sharif maqdamlari mujibi inbisotdur, ammo bu nav ham xayolim bor erdi” – deb o‘tgan maqolatni arz qildim, alar nihoyatdin tashqari xushhol bo‘lub, tahsinlar qilib, dedilar: “Haqqi va sharti budurkim, sen xayol qilibsen” [3, 57]. Muammo faniga oid mavjud darsligu qo‘llanmalar bilan yaqindan tanish bo‘lgan, o‘zi mazkur suhbatga qadar muammo nazariyasiga oid ikki-uch risola yaratgan Mavlono Jomiy ham Navoiy boshidan kechirayotgan hissiyot bilan yashayotgan edi. Muammoga doir amaldagi qo‘llanmalar buyuk allomani ham qanoatlantirmasdi. Ustoz bilan fikrda mushtaraklik tuygan Alisher Navoiy o‘z ijodiy rejasini Abdurahmon Jomiyga aytishga jur’at etadi: “Himmat tutsalar bu dastur bilan bu fan qoidasiga muxtasare raqam qilsam”.

Alar dedilar: ”Sen bu tashvishni tortma”. Hamul ikki-uch kunda manzumi muxtasarni tahrir qildilar” [3, 57]. Shu tariqa Mavlono Jomiyning muammo qoidalari haqidagi navbatdagi risolasi yaratiladi. Ammo “Qisqalik – donolik belgisi” ta’biri asosida yaratilgan mazkur qo‘llanma ilmiy-nazariy mushohadalarining ixcham ifodasi, ramziy ma’no nozikliklariga boyligi bilan mutaxassisga to‘g‘ri kelar, yangi o‘rganuvchining muammoni idrok etishi uchun etarli darajada qulaylik tug‘dirmas edi. Shuning uchun yana Alisher Navoiy muammo qoidasiga oid kitob yozishga ruxsat berishlarini so‘rab ustoz Jomiydan fotiha iltimos qiladi. Ijozat bo‘lgach, ”Mufradot” risolasini yozib, Mavlono Jomiy muhokamasiga havola etadi. Qo‘llanma Nuriddin Abdurahmon Jomiyga manzur bo‘ladi. ”Xamsatul-mutahayyirin”dan o‘qiymiz: ”Qabul nishonasi mundin o‘tmaskim, bovujudi muncha rasoilkim, holo arodadur, maxdumzodag‘a (ustoz Jomiyning farzandi Ziyovuddin Yusuf) ul muxtasarni o‘qurga ishorat bo‘ldi va ul bu muxtasarda muammo fannig‘a vuquf topti” [3, 57]. O‘nlab darsligu qo‘llanmalar, o‘zining bu sohada yaratgan uch-to‘rt kitobi bo‘la turib, Abdurahmon Jomiy ilmiy-uslubiy, g‘oyaviy-metodik jihatdan mukammalligi uchun Alisher Navoiyning «Mufra-

dot» risolasidan muammo fanini o‘rganishni o‘z o‘g‘liga tavsiya qiladi va Ziyovuddin Yusuf shu qo‘llanmani o‘qib, muammo ilmidan xabardor bo‘ladi. Haqiqatni tan olish, mardlik-barkamol insonning buyuk fazilatidirki, ”Xamsatul-mutahayyirin”dan tahlilga tortilgan mazkur lavhada Nuriddin Abdurahmon Jomiy shaxsiga xos shunday xususiyat namoyon bo‘lgan. Va ayni lavha O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti ”Biz darslik yaratishga eng ilg‘or va eng sharafli vazifa sifatida qarashimiz, yaxshi darslik yaratgan odamlarni boshimizga ko‘tarishimiz kerak. Darslikni, agar kerak bo‘lsa, katta tanlov asosida yaratish lozim” [1, 14] – degan fikrlarining buyuk ajdodlarimiz tajribasida sinovdan o‘tganligiga muhim bir dalildir.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Barkamol avlod orzusi. Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa-konserni bosh tahririyati, 1999. – 181 b.

2. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin (nasriy bayoni bilan). – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 592 b.

3. Alisher Navoiy. Majolisun – nafois. Mukammal asarlar to‘plami, 20 jildlik, 13-jild. – Toshkent: “Fan”, 1997. – 284 b.



Лайло ШАРИПОВА
Бухоро давлат университети
бошланғич таълим кафедраси доценти,
филология фанлари номзоди

ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК ШЕЪРИЯТИДА ВАТАН ОБРАЗИ (Иқбол Мирзо ижоди мисолида)

Мақолада Ватан ҳақидаги шеърларда Ватан тарихи, унинг сийрати, қиёфаси акс этиши мумкинлиги хусусида фикр баён этилган. Бир шоир Ватан ўтмишидан фахрланиб ёзса, бир шоир Ватан ўтмиши ҳақида ўкинч ва армон билан байтлар битиши, қайсидир шоир Ватан келажагини орзулаб шеър яратиши мумкин. Демак, бундай шеърлар Ватанга қай жиҳатдан ёндашиб ёзилишига боғлиқ. Мақолада ана шу туйғуларни ифодалаш маҳорати таҳлил этилган.

Таянч тушунчалар: *шеър, Ватан тарихи, маданият, санъат, адабиёт, она-замин, эзгулик.*

В статье излагается размышление о стихотворениях о Родине – история Родины и ее облик. Если один поэт пишет с гордостью, то другой пишет с неудовлетворенностью и с сожалением, а некоторые могут сочинять стихотворения, мечтая о будущем Родины. Значит, такие стихотворения связаны в каком отношении будет написаны. В статье анализируется мастерство выражения этих же чувств.

Опорные понятия: *стихотворение, история Родины, культура, искусство, литература, мать-земля, добро.*

In article is stated the poems about the Motherland and its history and appearance. If one poet writes with pride, the other one writes with dissatisfaction and regret, but some can write poems, dreaming about the future of the Motherland. Hence, such poems are related in what respect they will be written. In article is analyzed the skill of expressing the same feelings.

Supporting concepts: *a poem, the history of the motherland, culture, art, literature, mother earth, kindness.*

Ватан образини яратиш чин шоирларга насиб қилади. Ҳар бир инсон учун Ватан – киндик қони тўкилган тупроқ. Шоир учун-чи?! Ватан болалиги кечган ота уйдан бошланиб, қишлоқ, эҳтимол кўча, мамлакатга айланади. Сўнг она-Ер Ватанга айланиб, охир-оқибат коинот Ватан қиёфасига киради. Бундай улуғвор Ватанга эга шоирлар асрлар оша яшайдилар. Уларни барча миллат вакиллари севиб ўқийдилар. Аммо бир нарса ҳаққи, башарият шоирлари ижодида ҳам ватан киндик қони тўкилган бир кафт тупроқдан бошланади.

Узоққа бормай юз йиллик ўзбек шеъриятига назар солсак. Абдулҳамид Чўлпон учун Ватан:

Туркистонлик – шонимиз, туронлик – унвонимиз,
Ватан – бизнинг жонимиз, фидо ўлсун қонимиз [1].

Ватан шоирнинг – жони, шоир унга фидо бўлишга тайёр. Туркистонни хонлик, амирлик зулмидан қутқариш даъвоси остида ўзига қарам қилган чор Россиясининг асл мақсадини англаш халқ учун оғир кечди. Ҳатто Чўлпон ҳам Ватаннинг айни ўша давридаги қиёфасини чизишга иккиланди. Чўлпонлар авлоди учун Ватан эркини мадҳ этиш орзу эди:

Улуғ Туркистон, сенга не бўлди?
Сабабу вақтсиз гулларинг сўлди?
Ажал келмасдан нега сен ўлдинг?
Салқин қабрга нечун кўмилдинг? [1]

Шоир “Ўзбеклар ҳам Туркистон” шеърида ўзбеклар билан Туркистоннинг ўзаро суҳбатини келтирар экан, шеърни келажакдан умидвор бўлиб шундай якунлайди:

Оқ бўз отини минди Туркистон,
Сувсиз саҳролар бўлди гулистон.
Белинда камар, қўлида байроқ,
Улуғ Туркистон, йўлинг бўлсин оқ! [1]

Ватанимиз равнақини орзу қилган Чўлпону Фитратлар қурбон қилингач, Ғафур Ғуломлар авлоди Ватан эркини эмас, кўпроқ гўзал табиатини мадҳ этиш орқали уни севишларини иншо этдилар ва унга бўлган муҳаббатларини изҳор этиш билан чегараландилар. “Озод Шарқ деб аталур Ваним Ўзбекистон” деб ёзган шоир юртимизни қарам дея олмасди. Бу авлод учун Ўзбекистон билан бирга СССР отлиғ давлат Ватан саналди. Ғафур Ғулом “Ватан марши” шеърида “Шараф-ла балқий бер, Совет Ватани” дея ёзади. Қатағон уларни шунга ўргатган эди.

Абдулла Ориповлар авлоди ватан деганда Ўзбекистонни тараннум этди. Аммо истиқлолгача бу авлоднинг ҳам Ғафур Ғулом авлоди каби ватан деганда Ўзбекистон билан бирга СССР деган давлатни назарда тутган ўринлари ҳам бор. Шуниси борки, бу авлод Ғафур Ғуломдан фарқли ўлароқ “Ўзбекистон – Ватаним маним”, – дея баралла айта олди:

Ватанлар, Ватанлар,
Майли, гулласин,
Боғ унсин мангулик музда ҳам, аммо
Юртим, сени фақат бойликларинг-чун
Севган фарзанд бўлса, кечирма асло! [2]

Эркин Воҳидов ва Иқбол Мирзолар авлоди орасида Рауф Парфи кўприк бўлиб турган Шавкат Раҳмон, Муҳаммад Юсуфлар авлоди бор. Истиқлолгача бу авлод ҳам Ватанимиз – Ўзбекистоннинг озод бўлишини орзулаб шеъру достонлар битди. Улар Ватаннинг мадҳини, гўзаллигини куйлашдан кўра оғриқларини ифодалаб, эрк берилмаслигини, уни талаб қилиб олиш лозимлигини элимизга уқтиришга интилдилар. Аниқроғи, Шавкат Раҳмонлар авлоди улуғ тарихи, маданияти, санъати, адабиёти, гўзал қадриятлари сабаб дунё тараққиётида айрича ўринга эга она-Туркистоннинг –Ўзбекистоннинг қатағон, жаҳон уруши каби фожиалардан сўнг дардманд бўлиб қолган қиёфасини образлантирди:

Опа, ўшандан буён
Ватан ҳақида суҳбат
Қўзғалса кириб келар
Кўзингизга бир сурат:
Жавзо. Бир эрка шамол
Буғдойзорга урар тўш.
От елар. Чавандознинг
Бир енги ҳилпирар–бўш...
Опа, Ватан – улуғ дард!
Опа, Ватан боғ бўлсин!
Шеърда суратин чизсам,
Тўрт мучаси соғ бўлсин! [3]

Ватанни мадҳ этиш фольклорда ҳам, мумтоз адабиётда ҳам бор. Аммо Ватан эрксизлиги сабаб шоирлар кўксида пайдо бўлган оғриқ бу мавзунинг кенг ёйилишига, ранг-баранг кўриниш олишига йўл очди. XX аср ўзбек шеърияти Ватан образини яратишда ўзига хос йўл тутди. Аниқроғи, бу мавзу кенг қулоч ёйди. Чўлпонлар шеъриятида она-Ватан ночор, вайрон, эрксиз бир тарзда акс эттирилган. Ғафур Ғуломлар гоҳ Ўзбекистонни, гоҳ СССР деб аталмиш собиқ давлатни Ватан дея назарда тутиб, шеърий асарлар яратишди. Абдулла Ориповлар авлоди Ўзбекистонни мадҳ этиш шарафига эга бўлди, шунга журъат топа билди. Рауф Парфи, Шавкат Раҳмонлар авлоди Ўзекистоннинг – она-Ватаннинг дардини, эрксиз қиёфасини сўз ёрдамида мусаввирдек чизар экан, улуғ тарихи, мутафаккир ўғлонлари, олтин тупроғи сабаб обод ва озод бўлишга лойиқ эканини турли йўллар ҳамда усуллар билан куйладилар ва халқни Ватан эркини тиклашга чорладилар. Улуғ боболаримиз орзулари ушалганда Иқбол Мирзоларга озод ва обод Ватанни тараннум қилиш насиб қилди. Ҳа, асрлар давомида орзуланган Ватан мустақиллиги рўёбга чиққан паллада Ватан образини яратиш, ёшлар қалбига Ватан меҳрини сингдириш ҳар доимгидан-да долзарб масалага айланди. Қалби Ватанга туташ шоирлар буни англадилар.

Ватан образи кенг қамровли кўринишга эгаки, буни Иқбол Мирзо ижоди мисолида ҳам айтиш мумкин:

1. Тарихини ёд этиш орқали Ватан қиёфасини намоён этиш мумкин:

а) Юрт тарихидан баъзи мисолларни маълум бир тартибда бирма-бир санаш орқали Ватан образини яратиш мумкин. Шоирнинг “Ўтинч”, “Ўзбекистон, ёлғизим!”, “Она тупроқ”сингари шеърлари мисолдир.

б) Ватаннинг бир шаҳри, бир тарихий маскани, бир тарихий шахснинг фаолияти ёрдамида диёримизни улуғловчи шеърлар бисёр. Иқбол Мирзонинг “Фахрия”, “Самарқанд. Сирли нигоҳ”, “Гўри Мир. Гумбазлар”, “Буюк ипак йўли”, “Расадхона. Улуғбек юлдузи”, “Шоҳи Зинда. Садо” каби шеърлари фикримизга далилдир.

2. Ватан табиатини мадҳ этиш, яъни унинг бугунги суратини чизиш, жамолини васф этиш орқали Ватан образини гавдалантириш мумкин. Шоирнинг “Ватан”, “Юрт қўшиғи”, “Наврўз қўшиғи” шундай шеърлардандир.

3. Ватанга фарзандлик фарзини ифодалаб шеърлар яратиш мумкин. “Шоир”, “Айтгил, дўстим!”, “Ватанга қасамёд” ҳайкали пойида” каби шеърларини эсланг.

4. Шундай шеърлар борки, Ватан ҳақида эканлиги моҳиятида яширин ёки хулосасидагина аён бўлиб қолади.“Тепаликлар”, “Йўл”, “Тўёна” сингари шеърларини ўқишингиз мумкин.

6. Халқ таъриф-тавсиф қилинган шеърларда Ватан образи ўз ифодасини топган бўлиши мумкин. Шоирнинг “Ўзбек ўғли”, “Қарам бўлмас ўзбек” сингари шеърлари бунга мисол бўла олади. Аслида Ватан ва халқ эгиз тушунча, уларни ажратиб тушунтириш мушкул. Юқорида айтилган жиҳатларда Ватан образи яратилган, Ватан мадҳ этилган ҳар бир шеърий асарда бўлиши табиий. Фақат қайси бир жиҳати устуворлигига қараб уларни гуруҳлаш имкони бор.

Тарихдан маълум: ривожланишни истаган ҳар қандай салтанат, ҳар қандай давлат чин шоирларнинг тафаккурини мамлакат равнақи йўлида сарфлаган. Халқини юракдан севган чин шоирлар илҳоми меваси – шеъриятини ҳам, тафаккурини ҳам, қўйингки, умри-жонини Ватанига фидо қилган. Иқбол Мирзо – ватанпарвар шоир. У ҳаётини шу халқ орзу-истаклари амали учун бағишлаётгани қувонарли. Фаолияти бир томон, шеъриятининг ўзиёқ фикримизни асослашга етгулик. “Тепаликлар” шеърини бир бор ўқисангиз, Ватан мавзуси ёритилган деб ўйламайсиз. Қайта ўқиб, уксангиз ватанпарварлик, халқпарварлик, инсонпарварлик нафасини ҳис қиласиз:

Тўғри, бу тоғ эмас, оддий тепалик,
Бир қарашда уюм тупроққа ўхшар.
Аммо анов-манов тоғдан қадди тик,
Сири-синоати кўпроққа ўхшар.

Шеърхон олдида тугун пайдо бўлади: қадди тоғдек тепаликлар қандай тепалик?! Шоир Аёзқалъа, Элликқалъа, Мунчоқтепа, Косон, Қуёштепа ёки номсиз тепаликлар кўксида “Пўлатга булғанган аждодлар хоки” қат-қат эканини айтиб, бу “Қабариқлар –нажот тепаликлари”, – дея ёзади. Шеърхон тепаликлардан туриб атроф кузатилгани ва юрт атрофида душман кўриниб, хавф пайдо бўлса, тепаликларда олов ёқиб, юрт огоҳлантирилганини англайди:

Асал ҳаволарни бўғмасин заҳар,
Кенг диёр бўлмасин дея тору танг.
Ўт ёқиб шу ердан берганлар хабар:
“Дарҳол қўшин йиғинг, ёғий босди! Жанг!”
Юлдузларин сочиб тепаликларим
Лаҳзада огоҳлик машъалин ёққан.
Тулпорига эгар-жабдуқ урган ким,
Кимдир совут кийиб, яроғин таққан...

Шеър юртимиздаги тарихий тепаликларнинг қадим хизматларини эътироф этувчи шеър тарзида қолганида, эҳтимол, ҳозирги қадрга эга бўлмасди. Шоир кутилмаган хулоса билан бизни ҳайратлантиради. Тарихдан ўрганиб, келажакни кўзлайди. У бугун ҳам Ватанини ёғийлардан қўриқлаш лозимлигини шеърхонга англатади. Унингча, бугунги хавф ҳар доимгидан даҳшатли. Онгу тафаккурга қирон келиш хавфи туғилганда “Юрак тепаларда гулхан ёқиш зарур”лигини айтиб, инсониятга бонг уради шоир:

Ғофил юракларга юборинг хабар,
Мудроқ нигоҳларни тилиб ўтсин нур.
То асал ҳавони бўғмасин заҳар,
Мангу озод бўлсин юрт ва тафаккур!

Ҳа, Иқбол Мирзо куйлаётган Ватан киндик қони тўкилгани учунгина эмас, бу тупроқ Ибн Сино, Беруний, Улуғбек каби даҳоларни дунёга бергани учун ҳам ягона, муқаддас. Шоирнинг бундай шеърлари юксак дидли инжа таъб адабиётшунос олимлар учун публицистик фикрларнинг назмга солиниши бўлиб туюлар...

Хўп, шеър нима ўзи? Унинг вазифаси қандай? Инсонни ҳайвондан жудо айлаган, Ҳазрат Навоий айтганларидек, сўз. Бадиийлик либосини кийган сўз инсон руҳиятининг қаноти. Илоҳиёт – инсоният – шайтанат. Инсон шу ўлчамлар аро юрар экан, эзгу сўз ҳимоячиси бўлса, унга амал қилса, шайтанатни енгиб, илоҳиёт дунёси сари йўл олади. Бугуннинг тили билан айтганда, комиллик сари йўл бошлайди. Инсоният эзгуликни улуғловчи, эзгуликни тарбият этувчи бадиий сўзга муҳтож экан, адабиёт яшайди. Адабиёт яшовчан экан, унга турли талаблар қўйилса-да, эрк ва ҳурликка ташна бу қудрат илҳом отига миниб, самога интилаверади. Аммо учар от ҳам она-Заминдан маскан топар экан, Ватан туйғуси муҳаббат сингари боқийдир. Адабиёт эзгу туйғулар орасида эрк ва муҳаббат туйғусини етакчи билади. Бу туйғулар Ватан туйғусига бевосита ҳам, билвосита ҳам боғлиқ. Адабиёт, жумладан, шеърият Ватан эрки ҳимояга муҳтож паллада публицистикага термулиб, бу вазифани унга қолдириб, кўнгил кечинмалари билан ғарқ бўлиб, қолмайди. Шеърият, зарур пайтда, публицистикадан ҳам қудратли ва шиддатли. Иқбол Мирзо ўз дардларини четга суриб, халқ дарди, Ватан дарди билан оғриган экан, бу унинг шоирлигидан. Шоирнинг вазифаси – эл-юртга ҳамдам бўлмоқ. Унинг салоҳияти юксак бўлса, мавзудан, воқеликдан қатъий назар, давр ошиб ўтади. Энг муҳими, шеърият, аввало, инсон руҳиятини тарбият қилар экан, бугун ёшлар камолоти учун бундай сатрлар зарур. Улар Навоий шеърияти томон йўлдир:

Яратганнинг иноятиди – кўкдан келар имдодлар.
Оби раҳмат деб ёмғирга кафтин тутган аждодлар,
Тўғон қуриб дарёларга тўғаноқ бўлган зотлар,
Офтоб сочган зиёларнинг йўлин тўсиб бўлмагай,
Дарё-дарё дуоларнинг йўлин тўсиб бўлмагай.

Инсоният бор экан, ватанлар бор экан, Ватан ҳақидаги шеърлар энг суюкли шеърлар бўлиб қолаверади. Худди шунингдек, Иқбол Мирзонинг Ватанни тараннум этган шеърлари ёшларни ватанпарварликка чорлайверади:

Ўзбек десам, жаранглаган тор келур,
Ундан олдин номус ила ор келур.
Бургут келур, лочин келур, сор келур,
Ўзбек ўғли, ўзлигингни унутма!

Иқбол Мирзо Фарғонанинг Қўштегирмони таърифини келтириш билан шеъриятга кириб келган бўлса, сўнг Марғилонни, Фарғонани куйлади. Тошкент кўчаларида юриб, ўзлигини излаган кезлари ҳаққи Тошкентга меҳр қўйди. Йиллар сабоғи Ватанни– Ўзбекистонни улуғлар диёри эканини англатди. Шоир Ватанини “жаннат маконим”, “жон ичра жоним”, “бузрукворим”, “меҳробим”, “саждагоҳим” дея ардоқлаб-севди. Иқбол Мирзо учун Ўзбекистон “дунёнинг харитасида Тулпордек ўйноқлаб турган диёр” “оловлардан соғ чиққан Самандар”, “етти ўғли шоҳ чиққан Бузруквор”, “кўксидан чақмоқ чиққан Алпомиш”. Шоир истиқлол йиллари гуллаб-яшнаган Ватанимиз –Ўзбекистоннинг шу ҳолга осонликча келмаганини катта-ю кичик англашини истайди. Иқбол Мирзо Беҳбудий “эрк олинур, берилмас” деганида ҳақлигини англагани сабаб мустақиллигимизни қадрлаш лозимлигини уқтиради:

Бу бинолар қайдан бино бўлди экан?
Ким боболар қаддин расо қилди экан?
Нечук бизни бугун дунё билди экан?
Озодлик ҳам, ободлик ҳам ўзи келмас,
Ойдан тушган эмас, кўкдан тушган эмас.

Ватан мустақиллигини асраш кераклигини ўз тенгларига, ёш авлодга англатар экан, “Айтгил, дўстим нима қилдик Ватан учун?!” дея мурожаат қилади. Бундай шеърлар айни шу кунларнинг эҳтиёжидир. Иқбол Мирзонинг Ватани Қўштегирмондан бошланиб, Ўзбекистон бўлиб қад ростлагани сабаб энди шоир Тошкентни ҳам, Самарқандни ҳам, Элликқалъани ҳам бирдай севиб куйлайди:

Самарқанд – оламнинг сайқали, кўрки,
Самарқанд – кимга дарс, кимгадир сабоқ.
Қайтадан ўзини топгали, кўрки,
Шаҳримга ошиқар юз минглаб сайёҳ.

Самарқандаги обидаларни бирма-бир кезаркан, шоир улуғлик камтарликда, устозларнинг отадан улуғлигини англашда эканини ифода этади. У “Ҳеч қаерда учрамас ёдгорлик”, “гумбаз қобиғида яна бир гумбаз”саналган Гўри Мирнинг асрлар синовига дош бериши усталарнинг ўткирлигидан деб

билади. Усталар мўътадил ҳарорат бўлишини, ёдгорлик ёмғирга, селга дош беришини инобатга олишган, тўғри, дейди-ю Иқбол Мирзо, сўнг шоирона лутф қилади:

Булар бор гап, аммо моҳият бошқа,
Теран етиб борган мантиққа Амир:
Саид Баракани кўтариб бошга
Ўзига пойгакдан жой олмиш, ахир!
Зариф нақши нигор ички гумбазда,
Қобиқ ҳам мустаҳкам ёмғирга, селга.
Ташқи кўринишдан айрича бизда
Кўнгилга эътибор устун, кўнгилга!

Қисқаси, шоир шеърлари Ватанимизда туғилиб-ўсган мутафаккирлар илмидан ҳали-ҳануз баҳраманд бўлиб туриб Ўзбекистонни билмайдигандай ўзини тутадиганларга, Бухорони, Самарқандни айланиб, ҳайратланиб туриб ҳам буни тан олмай писандсизлик қилаётганларга нисбатан жавоб бўлиб янграмоқда. Барча замонларда ҳам эл-юртни камситмоқчи бўлган нотавонларга халқнинг шоири-бахшиси жавоб қайтарган. Шоирнинг “Аввал келинг, кўринг Ўзбекистонни”, “Бўлмагай”, “Ойдан тушган эмас”, “Агар жаннат кўкда бўлса” шеърлари юртимиз, халқимиз ғанимларига муносиб жавобдир. Шоирнинг Ватан ҳақидаги шеърларини ўқисангиз, юрагингиз лирик қаҳрамон билан бирга гупиллаб уради. Сизни шайдо қилади. Ватан меҳри жонингизда дарёдек оқади. Адабиёт адабни ўргатар экан, ёшларимизни ўзининг ёлғон ҳашамлари томон чорламоқчи бўлган нопок дунё қуткуларидан асраш учун ҳам шеърият керак. Иқбол Мирзонинг шеърияти ана шундай шеърият. Иқбол Мирзо Ватанни, халқни, унинг дардини куйлаш билан бирга улуғ каъба – кўнгил оламини номоён этувчи гўзал шеърлар, даврлар синовига дош берадиган лирик шеърлар ҳам битган, битаётган шоир ҳамдир.

Адабиётлар

1. Абдулҳамид Чўлпон.Асарлар. IV жилдлик. I жилд. – Т ошкент: Академнашр, 2013. – Б. 22.
2. Абдулла Орипов. Йиллар армони. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.– Б.61.
3. Усмон Азим. Дарс. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – Б. 62.



Umidaxon AHMADOVA
Buxoro davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi
o‘qituvchisi

XXI ASR PUBLITSISTIK PERIFRAZALARI

Maqolada ommaviy axborot vositalarida qo`llangan perifrazalarga oid misollar keltirilib, uslubiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Tayanch tushunchalar: *ommaviy axborot vositalari, perifrazalar, adabiyot, til, tilshunoslik, gazeta, televideniye, publitsistika, jurnalist, publitsistik uslub.*

В статье приведены примеры перифраз использованных в СМИ, анализированы их практические аспекты.

Опорные понятия: *средства массовой информации, перифразы, литература, язык речи, языковедение, публицистика, телевидение, журналистика, публицистический стиль.*

In article is given the examples of the periphrases used in mass media, analyzingtheir practical aspects.

Supporting concepts: *mass media, paraphrases, literature, language of speech, linguistics, journalism, television, journalism, journalistic style.*

XXI asrda axborot – eng dolzarb, eng ommabop va qimmatbaho mahsulotga aylanib ulgurgan bir vaqtda, bugunga kelib axborotni tarqatish va uni qabul qilib olishning usul va vositalari shu qadar ko‘paydiki, bu o‘z-o‘zidan to‘g‘ri va ishonchli manbalarga bo‘lgan ehtiyojni orttirib, eshituvchi tomoshabin uchun ma’naviy ozuqa bera oluvchi kuchga ega bo‘lgan vositalarni to‘g‘ri yo‘naltira olish, axborot bankini har tomonlama zamonaviy talablarga to‘la mos kela oladigan qilib shakllantirish publitsistik uslubda ish yurituvchilar oldida turgan eng muhim vazifa bo‘lib qolaveradi. Zero, har bir davr, har bir makonda bo‘lgani kabi tarqatilayotgan axborotlar uchun javobgarlik, axborotga egalik qilish madaniyati shakllangan kishilargina axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal taraqqiy etib borayotgan bugungi davrning chinakam qahramonlari bo‘lib hisoblanadilar.

Publitsistik uslubning har ikkala shakli ham birdek kuchli ta’sir berish orqali ishonchli manbani tinglovchi va o‘quvchiga yetkazishga xizmat qiladi. Publitsistik uslubning yozma va og‘zaki ko‘rinishlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ular publitsistik uslubning umumiy talablariga bo‘ysunadi. Chunonchi, bu uslubning ikkala turida publitsistikaga xos siyosiy faollik, hozirjavoblik, o‘tkir va ta’sirchan notiqlik, mantiqiylik, tashviqot va targ‘ibot kabi xususiyatlar mavjud bo‘ladi. Publitsistikaga xos umumiy belgilarga muallif munosabatining oshkora va aniq ifodalanish xususiyati ham kiradi. Muallifning voqelikka munosabati faktlarning tanlashida, ularni o‘z dunyoqarashi va estetik tamoyili asosida mantiqiy tahlil qilishida va nihoyat, tilning emotsional-ekspressiv vositalaridan foydalanishida o‘z ifodasini topadi.

Publitsistik uslubda qo‘llanuvchi perifraza (tasviriy ifoda)larni ma’lum bir guruhlarga bo‘lib, tahlil qilishga harakat qilamiz. Ushbu rejamizda publitsistik uslubda ***shaxs nomlarini ifodalovchi perifrazalar*** (tasviriy ifodalar)ni keltirib o‘tamiz.

O‘zbekiston Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev televideniye, matbuot vositalari orqali e’lon qilingan bir qator nutqlarida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov shaxsini ifodalab berishda u kishiga nisbatan publitsistik perifrazalardan foydalanganliklariga guvoh bo‘lamiz. Masalan: ***Mustaqil davlatimiz asoschisi, Buyuk yo`lboshchi, XXI asr bunyodkori.***

Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining yozma shakllarida publitsistik perifrazalarning quyidagi misollaridan namunalar keltiramiz. Jumladan:

Buyuk davlat va siyosat arbobi – Islom Karimov

Buyuk davlat va siyosat arbobi bo‘lgan Islom Karimov mustaqillikning ilk kunlaridan ma’naviy kamolot, milliy o‘zlikni anglash, qadriyatlarni tiklash, ularni ko‘z qorachig‘idek asrash, xalqqa qaytarish masalalarini ijtimoiy rivojlanishning eng muhim vazifalaridan biri sifatida belgilab berdi va uni amalga oshirishning keng ko‘lamli dasturini ishlab chiqdi (“Postda”, 2017-yil, 21-yanvar).

So‘z mulkining sultoni – Hazrat Alisher Navoiy

Mirzacho‘l tumanidagi 9-umumta’lim maktabida so‘z mulkining sultoni, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy tavalludiga bag‘ishlangan g‘azalxonlik kechasi bo‘lib o‘tdi (“Ma’rifat”, 2014-yil, 8-fevral).

Sadoqat timsoli – Zulfiya

Zulfiya Isroilova *oddiy o‘zbek qizi. U vafo,* ***sadoqat timsoli*** *sifatida qalblarga muhrlangan* (“Buxoro muallimi”, 2015-yil, 16 – 31-yanvar).

Yashil maydon sohiblari – futbolistlar

O‘n to‘rtinchi iyulda Britaniya yashil maydon sohiblarini kutib oladi. [Davr informatsion dasturidan Miraziz Mirzayevning sport xabarlari haqidagi nutqidan].

O‘rin-joy nomini bildiruvchi perifrazalar ham bugungi kunga kelib publitsistik uslubning asosiy komponentini tashkil qilmoqda. Fikrimizga oydinlik kiritish maqsadida 2014-yilning 15 – 16-may kunlari Samarqandda bo‘lib o‘tgan “O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyada nutq so‘zlagan qatnashchilar nutqidan quyidagi misollarni keltiramiz:

Buyuk zotlar vatani – O‘zbekiston

“Abadiy shahar” – Samarqand

Anjuman bahonasida buyuk zotlar vatani O‘zbekistonni, xususan, Samarqandni ko‘rishga muyassar bo‘lganimdan bag‘oyat xursandman. Samarqandni “abadiy shahar” deganlaricha bor ekan. [Tokio universiteti faxriy professori, sharqshunos olim Masataka Takeshita nutqidan (Yaponiya)].

Afsonaviy Sharq timsoli – Samarqand

Moziy gavhari – Buxoro

Ayni paytda bunday tashrif va fikr almashuvlar O‘zbekiston rahbariyati, O‘rta asrlar Sharqining ta’lim-tarbiya, ilm-fan va ma’rifatni rivojlantirishdagi yuksak an’analariga muhim ahamiyat berayotganligini birgina afsonaviy Sharq timsoli – Samarqandda emas, moziy gavhari – Buxoroda ham va yana O‘zbekistonning barcha hududlarida ko‘rishimiz mumkin ekanligiga amin bo‘ldim. [YUNESKO bosh direktorining o‘rinbosari Xubert Gizenning nutqidan].

Ona tilimizdagi tasdig‘ini topgan bunday ifodaviy misollarni yanada ko‘plab keltirishimiz mumkin. Masalan:

Mustaqil mamlakatning mustahkam qanotlari – O‘zbekiston havo yo‘llari

Toshkentda 28-yanvar kuni “O‘zbekiston havo yo‘llari” Milliy aviakompaniyasi tashkil etilganligining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi (“Mahalla”, 2017-yil, 31-yanvar).

Jamiyat o‘zagi – oila

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni ta’minlash uchun mustahkam me’yoriy-huquqiy zamin va samarali mexanizm yaratilib, ijtimoiy muhofazaning jamiyat o‘zagi bo‘lmish oilaga qaratilgani uning asosiy xususiyatidir [1, 41].

Yuqorida tahlilga tortilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, jahon minbarlaridan turib aytilayotgan ushbu umummilliy so‘zlar o‘zbekning o‘z so‘zidir. Maqolada ularning ayrimlarinigina tahlil qildik. Ularning soni chegaralanmagan. O‘zbek tilining kompyuter va internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo‘llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog‘liq katta ekanini ko‘rsatib turibdi. Tilimizdagi bunday serqirralik uning yanada sayqallashib, boyib borishidan dalolat beradi. Birgina o‘rin-joy nomini ifodalovchi perifraza (tasviriy ifoda)larning ta’sirchanlik va jozibadorlik kashf etib turishi buning ulkan namunasidir.

Ilm-fanning jadal rivojlanishi har qanday ilmiy axborotni tez va oson idrok etishni talab qilib turgan zamonaviy bir davrda ilm-fan, ta’lim sohasi bilan bog‘liq tayanch va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan fanga taalluqli nomlarni ifodalovchi perifraza (tasviriy ifoda)larning yuzaga kelishiga asos bo‘ldi va ehtiyoj sezdi.

Millatning ruhi – ona tili

Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi va jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir [2,83].

Insonshunoslik fani – adabiyot

Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, so‘z san’ati, badiiy adabiyot bo‘lib, adabiyotning insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarning esa, inson ruhining muhandislari, deb ta’riflanishi bejiz emas, albatta [2,136].

Hayotimiz qomusi – konstitutsiya

Avvalo, barchamiz bir haqiqatni anglab, tushunib bormoqdamiz – bugun jamiyatimizda qanday yutuq va marralarga erishayotgan bo‘lsak, bularning poydevorida Konstitutsiyamiz – buyuk Hayot qomusimiz turibdi [6, 87].

So‘z san’ati, xalq qalbining ifodachisi, haqiqat jarchisi, adolat jarchisi – adabiyot

Adabiyot, so‘z san’ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo‘lib keladi [2, 136 – 137].

Zamonaviy tibbiyotning dushmani – internet

Internet ommaviy xavotirlar sababchisi bo‘lib, bugun shifokorlar , internet – zamonaviy tibbiyotning dushmani degan fikrni qayta-qayta ta’kidlashib, ularning fikricha, ko‘pchilik bemorlar kasallik haqida internet tamog‘i ma’lumotlari asosida o‘zlariga tashxis qo‘yib, mustaqil ravishda davolanishga urinishmoqda [Davr informatsion dasturining E’zozaxon Abdullayeva nutqidan].

Keltirilgan daliliy misollarimiz ilm-fan, ta’lim sohasiga oid tasviriy ifodalar bo‘lib hisoblanadi.

Publitsistik perifrazalar qamrov doirasini kuzatar ekanmiz zamon, davr tushunchalarini ifodalovchi tasviriy ifodalarga ham duch kelamiz. Masalan:

Globallashuv davri – XXI asr

*…bugungi **XXI asr – globallashuv davri** oldimizga tobora o‘tkir va dolzarb vazifalar qo‘yayotgan bir sharoitda o‘tgan bu saylov O‘zbekistonning keyingi yillardagi taraqqiyot natijalarini chuqur sarhisob qilib, istiqbol rejalarini belgilab olish imkonini berdi.* (Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: “O‘zbekiston”, 2015. – B. 287).

Intellektual boylik asri – XXI asr

Bugun hech kimga sir emaski, biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmronlik qiladigan asr. (Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. –T.: “O‘zbekiston”, 2015. – B. 268).

Yuksak texnologiyalar zamoni, tafakkur asri, yalpi axborotlashuv davri, globallashuv davri – XXI asr

Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta’riflab har xil nomlar bilan atab, kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. …Ammo ko‘pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg‘otmoqda [2, 110].

Ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalarni ifodalashda ham publitsistik perifrazalar ommabop uslubning asosiy vositasi sifatida qo‘llaniladi. Masalan:

Ijtimoiy taraqqiyot kushandasi – korrupsiya

“Korrupsiya” atamasi lotincha “korrutio” so‘zidan olingan bo‘lib, “buzish”, “sotib olish” ma’nolarini anglatadi. Ushbu illat ijtimoiy taraqqiyot kushandasi, davlatchilikni ichidan yemiruvchi dushmandir. Korrupsiya bor joyda rivojlanish sekinlashadi. Demak, taraqqiyotni istagan xalq, davlat korrupsiyani yengishi lozim. Darhaqiqat, korrupsiya darajasi past bo‘lgan Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya kabi davlatlarda yuqori turmush darajasiga erishilgani fikrimizni tasdiqlaydi (Postda. –2017. –10-son. –16 bet).

Ma’lum bo‘ladiki, perifraza (tasviriy ifoda)lar publitsistik uslubning ham komponenti bo‘lib, uning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Yuqorida keltirilgan barcha tahliliy misollar va parchalarda tasviriy ifodalarning qo‘llanganligi fikrimiz dalilidir va publitsistik uslubning perifraza (tasviriy ifoda)lar bilan boyib borayotganligini ko‘rsatuvchi yorqin misol hisoblanadi. Tasviriy ifodalar so‘zlashuv uslubi tarkibida ham faol qo‘llanib kelinmoqda. So‘zlashuv nutqi nutq momentidagina mavjudligi, so‘z tanlash va so‘z qo‘llashning yozma nutqqa nisbatan erkinligi, so‘z iqtisod qilish qonuniyatining amal qilish jarayonlari tasviriy ifodadan osonlik bilan foydalanish imkoniyatini beradi. Buning isbotini esa yon atrofimizda, kundalik turmushimizda, ommabop uslubning og‘zaki shaklida uchratyapmiz.

Xulosa qilib aytadi-gan bo‘lsak, tasviriy ifoda (perifraza)larni bitta tushunchani ifodalaydigan, bir so‘zni ikkinchi yangi bir mos so‘zga almashtirish, matnda so‘zlarni mohirona qo‘llash orqali tushunchalar ta’sir doirasini oshirib, nutqiy va uslubiy jihatdan yutuqlarga erishishni bildiruvchi san’at deya nomlasak xato bo‘lmaydi. Mana shu san’at namunasining siyosiy sharhlovchilar uchun dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi bugungi tilshunosligimizning ulkan yutug‘i bo‘lib hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2000. – 522 б.

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – 173 b.



Ismoil DAVRONOV
Buxoro davlat universiteti boshlang'ich ta'lim
kafedrasi katta o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA TIL VA TAFAKKUR MUNOSABATLARI

Maqolada ona tili darslarida til va tafakkur munosabatlari xususida fikr bayon etilgan. Ona tili ta'limining tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyati tahliliy mushohada etilgan.

Tayanch tushunchalar: *til, tafakkur, mashq, abstraktsiya, so'z, birikma, fonetika, fonema, so'z ma'nolari.*

В статье излагается размышление об отношении мышления и языка на уроках родного языка. Обозревается значение обучения родному языку в развитии мышления.

Опорные понятия: *язык, мышление, упражнение, абстракция, слово, соединение, фонетика, фонема, обозначение слов.*

In article is reflected on the relationship between thinking and language in the lessons of the native language. The importance of teaching is reviewed the native language in the development of thinking.

Supporting concepts: *language, thinking, exercise, abstraction, word, connection, phonetics, phoneme, designation of words.*

Inson tafakkur vositasida tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarning o'xshash va farqli tomonlarini ajratadi, ularni taqqoslaydi, tahlil va sintez kiladi. Bular til vositasida reallashadi, kishilar uchun tushunarli bo'ladi.

Fikrlash jarayonida abstraktsiyalash va umumlashtirishning roli katta. Abstraktsiyalash va umumlashtirish bilan uzviy bog'lik bo'lgan nutq insonning haqiqatni eng yuksak darajada in'ikos etishini ta'minlaydi. Abstraktsiyalash va umumlashtirish bilan uzviy bog'lik bo'lgan ikkinchi signallar tizimi moddiy borliqni in'ikos etishning eng yuksak darajasi bo'lishi bilan birga, insonning nerv faoliyatini, uning butun xatti-harakatini boshqarishning ham eng yuksak regulyatoridir.

Shaxs faoliyatida til va tafakkurning o'zaro bog'likligi to'g'risidagi ta'limotga tayanib quyidagi pedagogik xulosalar chiqaradi:

1.Til va tafakkur o'zaro dialektik bog'liq. Qurilayotgan binoning devorlari g'ishtlar yordamida bunyod etilganidek, fikrlashning har bir bosqichi so'z-gaplar vositasida mustahkamlanadi. Demak, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish maktab ta'limining asosiy vazifasidir.

2.Tilga oid bilimlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchilar so'z, so'z birikmasi va gapni o'z o'rnida to'g'ri ishlata olish sirlarini bilib oladi. Bu o'quvchi nutqining, shuningdek, ular tafakkurining ham barkamolligini ko'rsatadi.

3.U yoki bu mavzu doirasida hosil qilingan bilimlarning zaruriyati o'quvchining shu bilimlarini o`z so'zlari bilan aytib bera olish darajasiga ko'ra belgilanadi. Shu tufayli mashg'ulotlarda o'quvchilarga ko'proq yozdiriladi, o'qitiladi, gapirtiriladi.

Til ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega: uning elementlari tovush, bo'g'in, so'z birikmasi, gap modellari tayyor holda inson ongida mavjuddir; til elementlari shu tilda so'zlovchilarning barchasi uchun umumiy hisoblanadi. Bu kishilarning bir-birlarini anglashlari, tushunishlarini ta'minlaydi; O'zbek tili elementlari barcha uchun majburiy. Shu tilda so'zlovchilarning hammasi adabiy til me'yorlariga rioya qilib so'zlashlari lozim. Binobarin, tilshunos G.Ne'matov «Til fikrni shakllantirish va ifodalashga xizmat qiladigan ma'lum jamiyatning barcha azolari uchun tayyor, umumiy va majburiy bo'lgan elementlar va ularning o'zaro bog'lanish qonuniyatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisidir», – deb ta'kidlaydi.

Til o'qitish tamoyiliga binoan, o'quvchi maktabga kelguncha, tilning fonetik, leksik, grammatik tomonlarini amaliy yo'l bilan o'zlashtirib oladi. U til bilimlarini o'rganishga tayyor bo'ladi. Maktab ta'limida ham tilning 3 tomoni til o'rgatish uchun asos hisoblanadi. Tilning fonetika, leksika, grammatikasiga bog'lab, bolalarda orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, prosodik, punktuatsion malakalar hosil qilinadi.

Tilning fonetikasini o'zlashtirish o'quvchilarning tafakkurini o'stirish bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi. Nutq tovushi so'z tarkibida o'rganiladi. Nutq tovushini so'z tarkibida o'rgatish bolalarning fonematik eshitishni (nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri eshitish, aytish, ajratish, anglash – fonematik eshitish komponentlaridir) taraqqiy ettiradi. Fonetika mashg'ulotlarida nutq tovushlarga ko'ra so'z ma'nolarining ustida ishlash (koch, soch; bordi, burdi, berdi), so'zlarni tovush va buginlarga kura tahlil qilish, berilgan harf, bo'g'inlar yordamida so'z,so'zlar ishtirokida gap tuzish bolalarning analitik-sintetik faoliyatini taraqqiy ettiradi.

Nutq tovushlariga ko'ra so'z ma'nolarini taqqoslash orkali o'quvchilar juda ko'p imlosi qiyin so'zlarning yozilishini o'zlashtirib oladi. Misollar: xush (yaxshi) – hush (aql-hush), xol (yuzdagi xol) - hol (ahvol), - xurma (idish)-xurma (itning xurishi), shox (daraxtning shoxi)- shoh (podshoh), xatlab (xatga olingan)-xatlab(sakrab), xam(bukilgan) - ham(bog'lovchi) va shu kabilar. Ko'rinadiki, tilning fonetikasi o'rganilgandan tovushlarini to'g'ri talaffuz etishga o'rgatish, o'quvchilarning fonematik eshitishlarini taraqqiy ettirish, bolalarda orfografik malakalarni shakllantirish fonetikani o'zlashtirishning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Ta'limda ona tili ikki xil funksiya bajaradi: barcha o'quv predmetlariga oid bilimlarni bolalarga o'rgatish vositasi; o'quv predmeti. O'quv predmeti sifatida tilning fonetika, leksika va grammatikasidan nazariy bilimlar, nazariy bilimlar asosida esa nutq ko'nikmalari shakllantiriladi. Ona tilidan o'zlashtiriladigan o'quv materiallari quyidagi umumiy xususiyatlarga ega.

1.Tildan o'rganiladigan har bir hodisaning ma'nosi va shu ma'noga xos jarangdorlik – fizik tomoni mavjud. Masalan, ravishdoshga oid so'zlarning holatini anglatish ularning ma'no tomoni sanalsa -b, -ib, -a, -y, -gali,-gani, -gach kabi kushimchalarning o'ziga xos jarangdorligi ularning fizik tomoni hisoblanadi.

2.Tildan o'rganiladigan har bir hodisa ma'lum tushunchani anglatadi. Bu tushuncha o'z navbatida hajm jihatidan kengroq ikkinchi bir tushuncha matnida qaraladi. Ravishdosh fe'l tushunchasi, fe'l so'z turkumi tushunchasi, so'z turkumi morfologiya tushunchasi doirasida o'rganiladi.

Selecting how to form different curves, we obtain a variety of carcass surface rotation. For instance, spheres, cylindrical ring, ellipsoid, paraboloid, two-sheeted hyperboloid, etc. Choosing as a formative of a straight line one can obtain an identified circular cylinder and cone of rotation, a one-sheeted hyperboloid. From the obtained surfaces of rotation, it is possible to create a variety of coverages for the construction of modern buildings.

As a consequence, creating computer animation models on descriptive geometry will provide advantageous conditions for the observer, which assists to the effective learning of the subject.

But e-textbook can be better than teacher, because live communication is efficient than technical means. Electronic textbook must be used reasonably. Using electronic textbook efficiently related with educators' skills.

Literatures

1. Ghulomov S.S., Alimov R.Kh. and other. Information systems and technology. – T.: East published, 2000. – 120 p.

2. Aripov M.M., Axmedov A., Z. Ikramova Kh., Irmuxamedova R. M., Sagatov M. V., Khaydarov A. T., Yakubov O. Kh., Yakubova M. Informasion, informasion technology 2-part.-T: TSTU. 2002.– 430 p.

3. Zakirova F., Mukhamedkhanov U., Sharipov Sh., Isyanov R., Esanboboyev F., Dottoyev S.. E-books collections and create method education resource. Method manual. – T.: SSSCHPEM, 2010. – 64 p.

4.www.intuit.ru

5.www.samtuit.uz



Akmal AMINOV
Buxoro davlat universiteti
tasviriy san`at va muhandislik
grafikasi kafedrasi o`qituvchisi

"KO`RINISHLAR" MAVZUSINI O`QITISHDA O`YINLI TEXNOLOGIYALARNING O`RNI

Maqolada chizmachilik fanining "Ko`rinishlar" mavzusini o'qitishda didaktik o`yinli texnologiyasidan foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Tayanch tishunchalar: *didaktik o`yinli texnologiyalar, oktant, epyur, Monj metodi, yaqqol tasvir, ko`rinishlar.*

В статье размышляется об использования дидиктических игровых технологий в преподавании темы «Виды проекции» по предмету черчения.

Опорные понятия: *игровая дидактическая технология, октант, эпюр, метод Monja, аксонометрическое изображение, виды проекции.*

In article is reflected on the use of didactic gaming technologies in teaching topic "Types of projection" on the subject of drawing.

Supporting concepts: *didactic playtechnology, octant, diagram, Monj methods, axonometric image, and projection types.*

Ma`lumki, XXI asr texnika taraqqiy etgan bir davrda ta`lim jarayoniga o`z ta`sirini ko`rsatmasdan qolmadi. Hozirgi dars axborot texnologiya va pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Kompyuter dasturlari yordamida darslarni taqdimot asosida o`tib samarali natijaga erishmoqda. Bunday zamonaviy ta`lim o`z-o`zidan qulay va samarali bo`lib, dars mavzusiga doir ko`p ma`lumotga ega bo`lishlari mumkin. Zamonaviy darsni samarali o`tish pedagogning mahoratiga bog`liq bo`ladi. Pedagog zamonaviy ta`lim texnologiyalarni mukammal bilishi va bu bo`yicha bilim hamda malakaga ega bo`lishi kerak.


Ta`limda pedagogik texnologiyalar bu ta`lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llash, texnologik yondashuv asosida ta`lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarni o`rganadi. Samarali texnolgiyalardan biri didaktik o`yinli texnologiyalardan foydalanishda o`quvchilar bilan o`qituvchi birgalashib ijobiy natijani chiqaradilar. Bunday texnologiyadanpedagog vazifani berib, o`quvchilar o`tilgan mavzuni tushungan holda vazifani bajaradi. Didaktik o`yinli texnologiyani har bir fan mavzusiga foydalanilsa, juda samarali natijaga erishish mumkin. Didaktik o`yinli texnologiyadan foydalanilganda o`quvchilar kerakli bilimga ega bo`lishlari kerak.

Chizmachilik fanidagi ko`rinishlar mavzusi boyicha didaktik o`yinli texnologiyalardan foydalanib ko`rib chiqamiz. Avvalambor ko`rinishlar haqida ma`lumot berib o`tsak: Ma'lumki, chizmada buyumning tasviri asosiy ko`rinishlar to`g`ri burchakli proyeksiyalash usuli bilan hosil qilinadi. Ko`rinishlar 6 xil bo`lib, ular quyidagicha nomlanadi: 1-olddan ko'rinish, 2-ustdan ko'rinish 3-chapdan ko'rinish, 4-o`ngdan ko'rinish, 5-ostdan ko`rinish, 6-orqadan ko`rinish asosiylari 3ta birinchisi V belgi bilan belgilanib, asosiy va bosh ko`rinish, frontal proyeksiyasidir, H belgi bilan belgilanib, ustidan korinishi va gorizontal, W belgi bilan belgilanib, chap tomondan ko`rinishi profil ko`rinishlarga ajraladi. Chizmada ko`rinishlar sonini kamaytirish maqsadida ko`rinlshlarda buyumning ko'rinmaydigan qismlari shtrix chiziq bilan chiziladi (1-shakl).

Ko`rinishlar mavzusi chizma geometriya fani bilan fundamental bog`liq bo`lib, oktant mavzusi ya`ni monj apparati V,H,W uchta tekislik bilan kesishganda 8 ta oktantlarhosil bo`ladi (2-shakl). Bu metodni XVIII asr oxirida Fransuz geometri Gaspar Monj o`zidan oldin yashab o`tgan olimlarning geometriyaga oid ilmiy ijodini o`rganib, tasvirlashga oid kitob yozdi. G. Monj o`zaro perpendikulyar bo`lgan ikkita tekislikka to`g`ri burchak ostida proyeksiyalashning asoschisi hisoblanib, bu usul hozirgacha "Monj usuli" deb yuritiladi [1].

Agar nuqta W tekislikning chap tomonida, 1,2,3,4-oktantlarda bo`lsa, uning absissasi (x) musbat, nuqta boshqa oktantlarda bo`lsa, uning absissasi manfiy deb hisoblanadi. Agar nuqta V tekislikning old tomonda,

1,4,5,8-oktantlarda bo`lsa, uning ordinatasi (y) musbat, nuqta boshqa oktantlarda bo`lsa, uning ordinatasi manfiy deb hisoblanadi.



Ko`rinishlarning hosil bo`lishi. Epyur (proyeksiya)
1-shakl


Agar nuqta H tekislikning yuqori tomonida 1, 2, 5, 6-oktantlarda turgan bo`lsa, uning applikatasi (z) musbat, nuqta H tekislikning ostki tomonida turgan bo`lsa, uning applikatasi manfiy deb hisoblanadi. Shunday qilib, nuqta birinchi oktantda bo`lsa, uning hamma koordinatalari (x,y,z)musbat bo`ladi, yettinchi oktantda hamma koordinatalari manfiy, boshqa oktantlarda esa musbat va manfiy bo`ladi (1-jadval).


1-jadval

Oktantlar Koordinatalar	1	2	3	4	5	6	7	8
X	+	+	+	+	-	-	-	-
Y	+	-	-	+	+	-	-	+
Z	+	+	-	-	+	+	-	-

Nuqtaning koordinatalari berilgan bo`lsa, nuqtaning o`zi qaysi oktantda ekanligini bu jadvaldanfoydalanib ancha tez aniqlash mumkin. Masalan A (-10, 15, 10) bo`lsa, nuqta beshinchi oktantda bo`ladi [1].


Xalqaro tashkilotlar tomonidan bajarilgan chizmalar qaysi A va E sistemada bajarilgan. A sistemasi V,H,W^1 bo`lib, 7 oktantga joylahsadi. E sistemasi Osiyo mamlakatlariga qo`llanib V,H,W 1-oktantda bo`ladi (1-shakl) [2].






2-s

Ko`rinishlarni hosil qilishda 1-oktantdagi x,y,z o`qlar mavjud bo`lib y o`qidan ochib yoyilish natijasida epyurni hosil qiladi 2-shakl.






3-shakl **4-shakl**

Nuqtalarning proyeksiyalari.

Proyeksion chizmachilikda esa bu epyur hosil bo`lishi esa proyeksiya deb yurutilib, tekislikdagi tasviri tushuniladi. Ko`rinishlarning proyeksiyasini bajarishda chizma geometriya fanining nuqtaning sakkizta oktantda hosil bo`lishi va ularning proyeksiyalari mavzusi asosi bo`la oladi.


Nuqtaning proyeksiyalarini bajarishda avvalambor nuqtaning proyeksiya tekisliklarini aniqlab olinadi. Nuqta a H gorizontal, a^1 V frontal, a^{11} W profil harflarning oldiga belgi qo`yib, bu harfning oldigi belgicha proyeksiya tekisligining nomini anglatadi.

Koordinata o`qini chizib ikki nuqta a H gorizontal, $a^1$ V frontal nuqtalarni bir-biriga bog`langan holda ixtiyoriy qo`yib, a, $a^1$ nuqtani O,Y o`qiga parallel o`tkazib O nuqtadan aylantirib $a^{11}$ W profil proyeksiya-sini chiqadi (3-shakl). Paraliliped jismning sakkizta burchagi mavjud. Shuning bitta burchagiga nuqtaning proyeksiyalari misol bo`lib, uning uchinchi proyeksiyalarini topish mumkin (4-shakl).



Ikki ko`rinishga qarab yaqqol tasvirlar bajarish.


5-shakl



Ikki ko`rinishga qarab uchinchi proyeksiyasini bajarish.

6-shakl

Nuqtaning parametrlaridan foydalanib uning proyeksiyalarini bajarish masalalaridan foydalanib darsda qo`llanilsa juda ijobiy natijalarni beradi. Bunday masalalar talabalarning fazoviy tasavvurlari kengayib darsga faollashadi.



Yaqqol tasvirga qarab uchta proyeksiyasini topib katakda belgilash.
7-shakl

Chizma geometriya fanidagi nuqtaning proyeksiyasi mavzusi ko`rinishlar mavzusi bo`yicha o`yinli texnologiyalarini to`g`ri bajarish va tushuncha hosil bo`lishiga undaydi. Noan'anaviy darslarning mavzusini o`tmasdan o`yinli texnologiyalardan foydalanilsa talabalarning bilim darajasini tekshirish mumkin. O`tiladigan mavzuni talabalarning bilimiga asosan o`tiladi. Darsni mustahkamlashda esa bu o`yinli texnologiyadan unumli foydalanib talabalarning olgan bilimlari aniq ko`rinadi. Bunday usuldan dars boshida talabalar o`zining fikrlari bo`ladi albatta. Pedagog bu fikrlarni jamlab talabalarga toifalab dars o`tishni tezda anglay oladi. Bu borada pedagog o`zining mutaxasisligini bilishi va har tomonlama izlanishda bo`lishi zarur.

Ko`rinish mavzusiga tegishli o`yinli texnologiya detallarning ko`rinishlari joylashgan jadvaldan yaqqol tasvirni tasvirlash kerakligi aytilgan (5-shakl). Jadvalda V frontal va H gorizontal ko`rinishlardan tasavvur qilib detalning yaqqoli yasaladi. Bundan tashqari, bu jadvalda ikki proyeksiyasiga, asosan, katak ichiga uchinchi proyeksiyalarni bajarish mumkin (6-shakl).

Ko`rinishlar mavzusiga doir yana bir o`yinli texnologiyalardan biri yaqqol tasvirga qarab uchala proyeksiyalarni ko`rsatilgan ko`rinishlardan olib, yaqqol tasvir oldiga chizib qo`ying. Tasvirlarni oldida namuna ko`rsatilgandek bajaring. Tasvirning pastki qismi jadvalni yuqorida ko`rsatilgandek to`ldiring (7-shakl). Bunday o`yinli texnologiyani har bir o`quvchiga tarqatib bajarib bo`lgandan so`ng ismini yozib qo`yish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, darsda didaktik o`yinli texnologiyalardan foydalanish uchun o`quvchilar har tomonlama bilim, ko`nikmalarga ega bo`lishlari kerak. O`qituvchi bilimni berishda esa o`quvchining salohiyatiga qarab dars o`tishi kerak. Ko`rinishlar mavzusi bo`yicha didaktik o`yinli texnologiyalarning kartalari o`quvchining bugingi mavzu bo`yicha olgan bilimlarni tekshirishda va o`qituvchi o`zining qanday dars olib borganligi bo`yicha o`ziga xulosalaydi.

Adabiyotlar

1. Xorunov R. Chizma geometriya kursi. – T., 1964
2. Yodgorov J. va boshqalar. Geometrik va proyeksion chizmachilik. – T.: "O'qituvchi", 2008.
3. Raxmonov I.T. Chizmalarni chizish va o'qish. – T., "O'qituvchi", 1992.
4. Боголюбов С.К. Задания по курсу черчения. – Москва, 1984.
5. Rahmonov I.T. Chizmachilikdan didaktik o'yinlar. – T., 1992.

IQTISODIY TA'LIM VA TURIZM



Nutfillo IBRAGIMOV
Buxoro davlat universiteti
turizm kafedrasi doktoranti,
iqtisod fanlari nomzodi

TA'LIM JARAYONIGA "TURISTIK HUDUD RAQOBATBARDOSHLIGI" FANINI KIRITISH ISTIQBOLLARI

Maqolada mamlakat doirasida turizm sohasi tizimli tahlil qilingan bo`lib, sayyohni vujudga keltiruvchi, axborot va sayohat makonlariga ajratib tadqiq qilish metodologiyasi ilmiy asoslangan. 4 modul 18 ta mavzudan iborat "Turistik hudud raqobatbardoshligi" fanining o`quv dasturi ishlab chiqilgan.

Tayanch tushunchalar: *mamlakat doirasida turizm, turizm taklif tizimi, sayyohni vujudga keltiradigan, axborot, sayohat makonlari, raqobatbardoshlik, jozibadorlik, barqaror rivojlanish, raqamli tafovut.*

В статье проведен системный анализ туризма и научно обоснована методология исследования основанная на таких пространствах как генерирующее туристов, информационное и принимающее туристов. Разработана учебная программа дициплины «Конкурентоспособность туристических регионов» состоящая из 4 модулей и 18 тем.

Опорные понятия: *туризм в пределах страны, система туристического предложения, пространство генерирующее туристов**,** информационное пространство, дестинация, конкурентоспособность, привлекательность, устойчивое развитие, цифровой разрыв.*

In articleis conducted the system analysis of tourism in article and the research methodology based on such spaces as generating tourists, informational and accepting tourists is scientifically grounded. The curriculum was developed the discipline "Competitiveness of tourist regions" consisting of 4 modules and 18 themes.

Supporting concepts: *tourism within the country, the system of tourist offer, the space that generates tourists, information space, destination, competitiveness, attractiveness, sustainable development, digital divide.*

2016-yilning dekabr oyida O`zbekiston turizm sohasida katta ijobiy o`zgarishlarga sabab bo`ladigan ikkita qonun hujjati qabul qilindi. Bular: "**O`zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to`g`risida**" O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni ham-da "**O`zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi faoliyatini tashkil etish to`g`risida**" O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlaridir. Jumladan, Prezident Qarorida yangi tashkil etilgan "O`zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi" faoliyatining asosiy vazifalari va yo`nalishlaridan biri etib *"turizm faoliyati sohasida birinchi navbatda BMTning Butunjahon turizm tashkiloti, turizm bo`yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar hamda turizm sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xorijiy kompaniyalar bilan xalqaro hamkorlikni kengaytirish, xalqaro va davlatlararo standart-lar va normalarni turizm faoliyati va amaliyotiga joriy etish*"[1] belgilangan. Demak, turizm sohasi statis-tik ko`rsatkichlarini yig`ish, qayta ishlash jarayonida xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik qilish orqa-li davlatlararo e'tirof etilgan uslubiyotlarni milliy statistika tizimiga joriy qilish evaziga, mamlakat turizm sohasidagi real holatni, turistik hudud sifatida uning raqobatbardoshlik darajasini va turizm sohasi investit-sion muhit jozibadorligini aniqlashga erishiladi.

Maqola 3 qismdan iborat bo`lib, kirish qismida "Turistik hudud raqobatbardoshligi" fanini o`quv jarayoniga kiritishning dastlabki shartlariga oid fikr yuritilgan va ikkinchi qismida turizm tizimining 3 makonli modeli ilmiy asoslab berilgan. Yakuniy qismida *Turistik hudud raqobatbardoshligi nazariyasi va baholash metodologiyasi, sayyohni vujudga keltiruvchi, axborot va sayohat amalga oshuvchi makonlardagi*

raqobatbardoshlik masalalarini o`zida qamrab olgan 4 ta moduldan iborat fan dasturining mavzular ro`yxati ishlab chiqilgan.

Mamlakat raqobatbardoshligini baholashning zamonaviy yondashuvlari, ma'lum davlat raqobatbardoshligi darajasini aniqlashda qo`llaniladigan usullar, asosan ko`rsatkichlar soni, tarkibi va ularning muhimlik koeffitsiyenti bilan farqlanadi [2]. Ayni maqsadda, odatda umumfoydalaniladigan va standartlashgan statistik ma'lumotlar hamda ekspert baholash natijalari keng qo`llaniladi. Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum (WEF)) tomonidan yillik reytinglarni tayyorlashda hamkor xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda ekspert va kompaniya boshqaruvchilari o`rtasida so`rovlar o`tqazishni o`z ichiga olgan dala tadqiqotlari amalga oshiriladi. Raqobatbardoshlikni baholash solishtirma tadqiqotlar sirasiga kirib, unda balli yoki indeksli reyting yondashuvi keng tarqalgan.

Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum) doirasida har yili e'lon qilinadigan *Sayohat va turizm raqobatbardoshligi hisobotida* (Travel and Tourism Competitiveness Report) ma'lum davlatlarning turizm sohasi o`sishiga va investitsion muhitning jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar Sayohat va turizm raqobatbardoshligi indeksi (*Travel & Tourism Competitiveness Index — TTCI*) asosida baholanadi. Sayohat va turizm raqobatbardoshligi Indeksi Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish Tashkiloti (OECD – *Organization of economic cooperation and development*) tomonidan har yili e'lon qilinadi.

Buxoro davlat universiteti turizm fakultetida tahsil olayotgan va oladigan magistratura talabalarining aksariyat qismi Turistik hududlarni boshqarish organlarining milliy va mahalliy boshqarmalarida (*Turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi*) faoliyat ko`rsatishini e'tiborga olib, ularga "Turistik hudud raqobatbardoshligi" fanini joriy qilishni taqozo etib, raqobatbardoshlikni hisoblash metodologiyasi, turizm statistikasining xalqaro standartlari, turizmga tizimli yondashuv kabi bilimlarni berishni talab etadi. Ushbu ehtiyojdan kelib chiqqan holda, "Turistik hudud raqobatbardoshligi" fanining o`quv dasturini ishlab chiqish zarurati tug`ilgan.

Leiper [3] turizm sohasiga tizimli-geografik yondashib, uning *sayyohlarni vujudga keltiruvchi hudud, turizm hududi* (destinatsiya) hamda ikkisini birlashtiruvchi *tranzit hududlardan* iborat modelini taklif qilib, turistlar, turizm sanoati hamda geografik elementlardan iborat tizim, deb ta'rif beradi. Prosser [4] esa turizm tizimining mukammalroq modelini ishlab chiqib, unga *turizm hududi muhiti, sayyohni vujudga keltiruvchi bozor, targ`ibot-tashfiqot ishlari majmui* hamda *transport va kommunikatsiyadan iborat tizim* sifatida qaraydi. K. Kaspar [5] **turizmga** – ma'lum muhitda birlashib harakatlanadigan va ishlaydigan elementlardan iborat, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik omillar ta'sirida bo`lgan ochiq tizim deb ta'rif beradi.

Turizm taklif tizimi kiruvchi (*input*) va chiquvchi (*output*) birliklardan iborat hamda ochiq bo`lgani uchun atrof-muhit, ya'ni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, texnologik, me'yoriy-huquqiy, ekologik omillar ta'sirida bo`ladi. Uning kirish qismida moddiy, insoniy, moliyaviy va axborotga oid resurslar mavjud bo`lib, ushbu xususiyat barcha tizimlarga xosdir. Turizm taklif tizimining kirish qismida potensial sayyohning moliyaviy resurslari va sayohat ehtiyojlarini qondirishda qatnashgan barcha moddiy va nomoddiy resurslar majmui bo`lsa, chiqish qismida sayyohlarning sayohat taassurotlari, ya'ni sayohat davomida iste'mol qilingan mahsulot va xizmatlardan olingan ijobiy his-tuyg`ular majmui turadi hamda sayohat amalga oshirilgan hudud imijining shakllanishida belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Turizm taklif tizimining asosiy funksiyasi potentsial sayyohlarni o`ziga jalb qilib, ularning sayohat ehtiyojlarini qondirib, ijobiy his-tuyg`ular bilan doimiy yashash joyiga yetqazib qo`yishdir. Ushbu jarayonlarni ilmiy tushunish maqsadida turizm taklif tizimini kompleks, turli geografik hududlar nuqtai nazaridan tizimli tadqiq etish zaruriyatini tug`diradi va to`plangan bilimlarni talabalarga yetqazishni talab etadi.


Turizm sohasi sayohat bilan bog`liq ehtiyojlarni qondirishga mo`ljallangan mamlakat iqtisodiyotining yirik tarmog`i bo`lib hisoblanadi va u **xalqaro, milliy** hamda **mamlakat doirasida turizm** kategoriyalarida o`z aksini topadi. Mamlakat doirasida turizm kategoriyasi **xalqaro kirish,** ya'ni xorijiy tashrif buyuruvchilarning O`zbekiston bo`ylab sayohati va **ichki turizm,** o`zbekistonlik tashrif buyuruvchilarning mamlakat hududida sayohatini qamrab oladi. Demak, mamlakat doirasida turizmni barqaror rivojlantirishning asosiy sharti sayyohni vujudga keltiruvchi va sayohat amalga oshuvchi makonlar, shuningdek ularni *uyg`unlashtiruvchi axborot makonida* vujudga keladigan jarayonlarni anglash, takomillashtirish yo`llarini ilmiy asoslash masalasini o`quvchi yoshlarga tizimli ravishda etqazishni taqozo etadi.

Mamlakat doirasida turizm taklif tizimi *– sayyohni vujudga keltiradigan, axborot hamda sayohat amalga oshadigan makonlardan iborat ochiq tizim bo`lib, har uchala makonda xalqaro kirish va ichki tashrif buyuruvchilarning sayohat ehtiyojlarini qondirish jarayonida qatnashadigan barcha davlat va nodavlat tashkilotlar majmuidir.*

Mamlakat doirasida turizm taklif tizimi **1) sayyohni vujudga keltiradigan, 2) axborot va 3) sayohat amalga oshadigan makonlarda** iste'molchi hamda ishlab chiqaruvchilar o`rtasida vujudga keladigan jarayonlarga asoslanadi (1-chizmaga qarang).

1. Sayyohni vujudga keltiradigan makon - sayohatgacha iste'mol qilinadigan quyidagi tovar va xizmatlarni qamrab oladi:

- turizm vositachilari (*initsiativ turoperator, turagentliklar, turizm hududlarining sayyohni vujudga keltiradigan bozorlardagi vakolatxonalari*);
- sayohatgacha iste'mol qilinadigan xizmat va mahsulot ishlab chiqaruvchilari (*transport kompaniyalari, vizani rasmiylashtirish muassasalari, turizmga oid material nashriyotchilari, fotoapparat, chemodan va boshqa sayohat davrida foydalaniladigan mahsulot yoki xizmatlar*).



1-chizma. Mamlakat doirasida turizm taklif tizimining 3 makonli paradigmasi
Manba: Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

2. Axborot makoni – sayyohni vujudga keltiradigan va sayohat amalga oshadigan makonlarni uyg`unlashtiruvchi, mamlakat jozibadorligini o`zida aks ettirgan quyidagi axborot manbalari va marketing vositalarini qamrab oladi:

-uyushgan va uyushmagan tashrif buyuruvchilar talablarini qondirishga mo`ljallangan axborot texnologiyalari asosida shakllangan vositalar (*initsiativ va reseptiv turoperator, turistik agentliklarining turistik paketlarni tijoratlashtirish kanallari, bronlash tizimlari, transport, mehmonxona, ovqatlanish, gid va boshqa xizmatlarni sotish yoki band qilish imkonini beruvchi axborot texnologiyalari, geoaxborot tizimlari*);

-mamlakat jozibadorligini targ`ib qilib, ijobiy imijini shakllantiruvchi strategik marketinga oid barcha chora-tadbirlar majmui (*brending, imijni shakllantirish, reklama, ommaviy axborot vositalari orqali etqaziladigan barcha ma'lumotlar yig`indisi, milliy turistik portal*);

-davlatning joriy qonunchiligidan xabardor qiladigan manbalar majmui (*me'yoriy hujjatlarning xorijiy tillardagi shakllariga ega bo`lish imkonini beradigan axborot vositalari (Lex.uz)*).

3. Sayohat amalga oshadigan makon – sayohat ehtiyojlarini qondirish jarayonida qatnashadigan barcha tashkilotlar etqazib beradigan mahsulot va xizmatlar majmuini o`zida aks ettirib, quyidagicha guruhlanadi:

- madaniy va tabiiy resurslar (*diqqatga sazovor joylar*);
- turizm sohasini rivojlantirish, tartibga solish va hamkorlik qilishga oid davlat va nodavlat tashkilotlari;
- turizm vositachilari (reseptiv *turoperatorlar*);

-sayohat davomida iste'mol qilinadigan xizmat va mahsulot ishlab chiqaruvchilari (*transport kompaniyalari, joylashtirish muassasalari, umum ovqatlanish tashkilotlari, muzey hamda ekskursiya xizmatlarini yetqazuvchilar, sayohat davomida foydalaniladigan boshqa mahsulot yoki xizmatlar*).

Mamlakat doirasida turizmni barqaror rivojlantirish, birinchidan uyushgan sayyohlarni vujudga keltiruvchi bozorlar bilan o`rnatilgan hamkorlik rishtalari, ya'ni reseptiv hamda initsiativ turorperatorning o`zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlaridan, ikkinchidan uyushmagan sayyohlar nazarida juda muhim vositalar, ya'ni bronlash tizimlarining mavjudligi, xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlarning geoaxborot tizimlari bazalariga kiritilganligi va boshqa axborot texnologiyalariga asoslangan marketing vositalarining joriy qilinganligidan bog`liqdir. Zamonaviy raqamli asrda turizmni davlat miqyosida barqaror rivojlantirishning muhim sharti, **turizm taklif tizimi axborot makonini** innovatsiyalar asosida shakllantirish va muntazam takomillashtirib borishdir.

Mamlakat doirasida turizmni barqaror rivojlantirish, birinchidan uyushgan sayyohlarni vujudga keltiruvchi bozorlar bilan o`rnatilgan hamkorlik rishtalari, ya'ni reseptiv hamda initsiativ turorperatorning o`zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlaridan, ikkinchidan mustaqil uyushgan sayyohlar nazarida juda muhim vositalar, ya'ni **bronlash tizimlarining mavjudligi, xizmat ko`rsatuvchi tashkilotlarning geoaxborot tizimlari bazalariga kiritilganligi va boshqa axborot texnologiyalariga asoslangan marketing vositalarining joriy qilinganligidan** bog`liqdir. Ya'ni, sayyohni vujudga keltiruvchi hamda sayohat makonlari o`rtasida "**raqamli tufovut**" (Digital Divide) tushunchasi [6] mavjud bo`lib, u qancha katta bo`lsa, sayyohni vujudga keltiruvchi bozorlarni egallash shuncha murakkab kechadi.

Bizning fikrimizcha, yuqorida muhokama qilingan turizmning 3 makonli tizimli yondashuvini mehmondo`stlik mutaxassiligi bo`yicha tahsil olayotgan magistrantlarga **"Turistik hudud raqobatbardoshligi"** fanining o`quv dasturini ishlab chiqishda qo`llash zarur.

Fanning maqsadi – magistrantlarni turistik hududlar raqobatbardoshligi modellari va baholash metodologiyasi, sayyohni vujudga keltiruvchi, axborot va sayohat amalga oshadigan makonlarga oid nazariy va amaliy bilimlar bilan ta'minlashdan iboratdir.

Fanning asosiy vazifalari – magistrantlarga turistik hudud raqobatbardoshligini hamda sayohat va turizm raqobatbardoshligi indeksini hisoblash metodologiyasini o`rgatish, O`zbekistonning turistik raqobatbardoshligini barqaror oshirib borish yo`llari borasida ma'lumotlar berish, turizm axborot makonining raqobatbardoshligi omillari haqida tushuncha berishdir.

Fan bo`yicha magistrantlarning bilim, ko`nikma va malakalariga quyidagi talablar qo`yiladi. Magistrant:

-qiyosiy va raqobat ustunliklari haqida umumiy ma'lumotga ega bo`lishi;

-raqobatbardoshlik nazariyasi rivojlanishining tarixiy bosqichlarini bilishi;

-turistik hududlarni davlat tomonidan boshqaruvchi organ va uning asosiy vazifalarini bilishi;

-destinatsiya kategoriyasi, uning xususiyatlari hamda destinatsion menejment fanini bilishi;

-turizm infratuzilmasining tarkibini bilishi;

-turistik hududlar marketingiga oid bilimlarga ega bo`lishi zarur.

"Turistik hudud raqobatbardoshligi" fani turizm mutaxassisligi magistratura ta'lim bosqichining 3-semestrida o`qitish rejalashtirilgan. Ma'ruza uchun 36 soat, seminar darslari 30 soat va 40 soat mustaqil ta'lim uchun ajratilgan. Fanning o`quv dasturi 4 moduldan iborat bo`lib, unga quyidagi mavzularni kiritish tavsiya etiladi (1-jadval).

1-jadval.

"Turistik hudud raqobatbardoshligi" fanining dasturi.

1-modul: Turistik hudud raqobatbardoshligi nazariyasi va baholash metodologiyasi	
Turizm raqobatbardoshligi Kalyari Modeli	
Sayohat va Turizm raqobatbardoshligi Indeksi	
Raqobatbardoshlikning 7M kontseptual modeli	
Turizm tizimining uch makonli paradigmasi	
2-modul. Turistik hududning sayyohni vujudga keltiruvchi makonlardagi raqobatbardoshligi	
Jahon turizm makonlarining qutblashuv konsepsiyasi	
Turizm oqimlarini tadqiq etish uslublari	
Turistik oqim shakllanishining 4 modeli	
Turistik hududlarni targ`ibot qilish usul va vositalari	

3-modul. Turistik hudud axborot makonining raqobatbardoshligi	
Turizm tizimi axborot makonining Raqamli tafovut konsepsiyasi	
Turistik hudud imiji hamda brendining raqobatbardoshligi	
Turistik hudud bronlash tizimlari raqobatbardoshligi	
Turistik hududning milliy va mahalliy turistik portallari	
Turizmga oid me'yoriy hujjatlarning xalqaro andazalarga mosligi monitoringi	
4-modul. Turistik hudud sayohat makonidagi raqobatbardoshligi	
Kompetentlik turistik hudud raqobatbardoshligi omili sifatida	
Turistik hudud raqobatbardoshligiga erishishda Turizm hamkorlik birlashmalarining o`rni	
Sayohat va turizm sohasiga oid siyosat	
Turistik infratuzilma raqobatbardoshligi	
Tabiiy va madaniy resurslar raqobatbardoshligi	

Turizm sohasini boshqaruvchi va rivojlanish strategiyalarini ishlab chiquvchi siyosatni amalga oshiruvchi mutaxassislarga zamonaviy bilimlarni berish, soha barqaror rivojlanishini ta'minlashda belgilovchi ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, potensial boshqaruvchi va siyosatchilarga "**Turistik hudud raqobatbardoshligi**" fanini o`qitish orqali sohaga tizimli yondashish kompetensiyasiga ega yuqori malakali kadrlarni tayyorlashga erishiladi.

Adabiyotlar

1. "O`zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi faoliyatini tashkil etish to`g`risida" O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2016-y., 49-son, 559-modda.

2. Морозова Н.С. Теория и методология формирования и развития конкуренции в туризме. 08.00.05 – экономика и управление народным хозяством. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Сочи – 2012. 46 с.

3. Leiper N. (1990). Tourist attraction systems. Annals of Tourism Research, 17 (2): 367-384.

4. Prosser R. (1998). Tourism In Encyclopaedia of Ethics, vole 4 pp 373-411, Chicago l Houghton, Miffen.

5. Kaspar C. Wprowadzenie do zarradzania w turystyce // przeklad M. Lenart. – Warsawa-Osrodek Doskonalenia Kadr "Orbis". – 1992. S.7.

6. Minghetti, V., & Buhalis, D. (2010). Digital Divide in Tourism. Journal of Travel Research, 49 (3), 267-281.



Нигора САЙФУЛЛАЕВА
Базовый докторант кафедры педагогики Бухарского государственного университета

ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ МАТЕРИАЛОВ НАРОДНОЙ ПЕДАГОГИКИ В РОЛЕВОЙ ИГРЕ ПРИ ОБУЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКИМ ДИСЦИПЛИНАМ

Мазкур мақолада иқтисодий фанларни ўқитишда интерактив усулларни қўллаш зарурлиги асослаб берилган. Шунингдек, халқ педагогика материалларидан фойдаланиб апробациядан ўтказилган ролли ўйин кўринишдаги семинар машғулотини ўтказиш технологияси келтирилган.

***Таянч тушунчалар**: ўқитиш тамойиллари, инновацион технологиялар, интерактив ўқитиш, ролли ўйин, эмоционал эффекти, ролли ўйиннинг сюжети, валюта курси, ролли ўйинни ўтказиш механизми.*

В данной статье раскрывается необходимость применения интерактивных методов обучения при преподавании экономических дисциплин, а также приводится апробированная технология проведения семинарского занятия в виде ролевой игры с применением материалов народной педагогики.

***Опорные понятия:** принципы обучения, инновационные технологии, интерактивное обучение, ролевая игра, эмоциональный эффект, сюжет ролевой игры, валютный курс, механизм проведения ролевой игры*

This article reveals the necessity of application of interactive teaching methods in teaching economic disciplines and provides proven technology of conducting classes in the role-play with the use of materials of national pedagogics.

***Supporting concepts:** learning principles, innovative technology, interactive learning, role play, emotional effect, plot role-playing, exchange rate, the mechanism of the role play.*

Социально-экономическое развитие страны обозначило настоятельную потребность реформирования системы образования в целом и системы профессиональной подготовки в частности. Заказчиком образовательных услуг теперь наряду с обществом и государством, являются также и работодатели, которые заинтересованы в подготовке квалифицированных специалистов, уже практически готовых к профессиональной деятельности [6, 3].

В Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах уделяется особое внимание развитию сферы образования и науки: планируется продолжение курса дальнейшего совершенствования системы непрерывного образования, повышения доступности качественных образовательных услуг, подготовки высококвалифицированных кадров в соответствии с современными потребностями рынка труда; повышение качества и эффективности деятельности высших образовательных учреждений на основе внедрения международных стандартов обучения и оценки качества преподавания, стимулирование эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в практику [5, 7].

Для реализации этих задач необходимо кардинальным образом преобразовать формы и методы обучения в высшей школе.

Научно-технический прогресс, являясь своеобразным катализатором ускорения темпов движения информационного потока, в то же самое время создаёт определённые трудности в её адекватном восприятии в процессе обучения.

Технические новшества, гаджеты всё в большей степени проникают в нашу жизнь, облегчая межличностное общение, увеличивая доступ к информации, связывая между собой воедино все составляющие общественной и экономической жизни людей. Однако последствия информатизации всех сфер общественного бытия отнюдь не всегда позитивны с точки зрения интеллектуального развития молодёжи.

Визуальная информация из мобильных телефонов, телевидения, Интернета и других аналогичных источников представляет собой готовую для восприятия форму, то есть у индивидуума нет не-

обходимости преобразовывать её из текстовых форм в чёткие мыслительные образы и структуры. Этим объясняется то, почему современная молодёжь перестала быть читающей. Предыдущие поколения обучающихся занимались систематическим чтением научной, специализированной и просто познавательной литературы, потому что это был главный, а иногда - единственный источник достоверной научной информации. Причём, чем больше читает обучающийся, тем с большей скоростью текстовые символы преобразуются в его мышлении в зрительные образы. Если, например, обучающийся читает приключенческий роман, то по мере продвижения по канве повествования, он всё больше погружается в мир, созданный его воображением, становясь незримым участником описываемых событий, сопереживая героям и анализируя их действия. Главное при этом то, что только при условии глубокого погружения в воображаемый мир, обучающийся эмоционально раскрывается, вследствие чего те идеи и образы, которые заложены автором книги, беспрепятственно становятся частью его мышления. Таким образом осуществляется принцип прочности обучения, который предполагает такую проработку учебного материала, когда он становится достоянием учащихся: частью их сознания, основой привычек и поведения.

Если же учащийся не занимается систематическим чтением, то механизм преобразования текстовых символов в мыслительные образы нарушается, следствием чего является эмоциональная притуплённость, или невосприимчивость учащегося. Крайние формы эмоциональной невосприимчивости проявляются в том, что учащиеся затрудняются выразить свои мысли чёткими и ясно сформулированными фразами, зачастую не могут самостоятельно работать со специальной литературой.

Сожалеть о том, что времена систематического и целенаправленного чтения безвозвратно остались в прошлом, нет смысла. Суть инновационных образовательных технологий заключается именно в том, чтобы активизируя познавательную активность обучающихся и способствуя их эмоциональному раскрытию, достичь поставленных образовательных целей.

Одной из инновационных технологий является интерактивное обучение [7, 17]. В учебном процессе потребность интерактивного взаимодействия возникает тогда, когда преподаватель не только требует репродуктивного воспроизведения содержания первоисточников, материалов лекции, учебника, а побуждает анализировать: вскрывать свойства, отношения, наличие противоречий, давать оценку, обобщать сказанное, соотносить его с другими проблемами, то есть делать то, что в психологии называется решением задач [1, 6].

Интерактивные методы обучения позволяют решать следующие задачи:

- активное включение каждого учащегося в процесс усвоения учебного материала;
- повышение познавательной мотивации;
- обучение навыкам успешного общения (умения слушать и слышать друг друга, выстраивать диалог, задавать вопросы на понимание);
- развитие навыков самостоятельной учебной деятельности: определение ведущих и промежуточных задач, умения предусматривать последствия своего выбора, его объективная оценка;
- воспитание лидерских качеств;
- умение работать с командой и в команде;
- принимать на себя ответственность за совместную и собственную деятельность по достижению результата [2, 46].

Ролевая игра – это интерактивный метод, который позволяет обучаться на собственном опыте путём специально организованного и регулируемого «проживания» жизненной и профессиональной ситуации.

Ролевая игра как игровой метод характеризуется наличием задачи или проблемы и распределением ролей между участниками для ее решения. Ролевая игра (по существу, игра-драматизация) — это процесс, в котором участникам предлагается «сыграть» другого человека или «разыграть» определённую проблемную ситуацию. Иначе говоря, ролевые игры представляют собой небольшие сценки спланированного или произвольного характера, отражающие модели жизненных ситуаций.

Поскольку в ролевой игре участник исполняет роль какого-либо персонажа, а не свою собственную, он может свободно экспериментировать и не бояться, что его поведение будет выглядеть глупым или неадекватным.

Признаком, отличающим ролевые игры от деловых, является отсутствие системы оценивания по ходу игры. В ролевых играх действия игроков стимулируются самим игровым комплексом, в который включаются элементы среды, внешние по отношению к объекту моделирования. Игроки само-

стоятельно анализируют сложившуюся по ходу игры ситуацию, за счет чего достигается самоорганизация участников [3, 67].

Руководитель ролевой игры, как правило, не является непосредственным участником игрового комплекса. Он — лицо «за кадром», задача которого состоит в создании и поддержании условий, репрезентирующих объективную реальность с помощью опосредованных игровых методов: театральных персонажей, газетных публикаций, писем, конференций и т.д.

Ролевые игры непрерывны. Это означает, что игра не прерывается для обсуждения. В ролевой игре нет процедурных средств, воздействующих на игроков, таких, как мнение экспертов или ведущего. Всё это обеспечивает определённую естественность и максимальную погружённость участников в игровой процесс. В отличие от других игр, в ролевой игре в зависимости от её целей решения могут приниматься как коллективно, так и индивидуально.

Эмоциональный эффект ролевой игры строится на «проживании» участниками нового опыта в игровой обстановке, на своего рода открытиях, которые совершает человек, участвуя в игре [4, 89].

Игровые действия связаны с целевым аспектом игры. Они могут задаваться сценарием, ведущими игры (преподавателями) или нормативными документами, а могут быть сформулированы (избраны) игроками в соответствии с собственным видением ситуации. С точки зрения самостоятельности действий игроков и жёсткости игровых правил игры могут быть поделены на «жёсткие», «свободные» и занимающие промежуточное положение (в которых достигнут своеобразный компромисс между первыми двумя).

Отличительным признаком ролевой игры является наличие *сюжета. Сюжет – предмет игрового изображения, последовательность и связь изображаемых событий, их совокупность, способ развёртывания темы игры.* Сюжет ролевой игры узнаваем, но вместе с тем в нём присутствуют условия преодоления стереотипов поведения в повседневной жизни, к которым можно отнести неопределённость, самостоятельный выбор, риск, неожиданность, эмоциональную увлечённость [4, 93].

Изучение экономических дисциплин представляет определённые трудности, обусловленные динамичностью общественно-экономического развития общества и несоответствием в связи с этим содержания дисциплин конкретным реалиям сегодняшнего дня. С другой стороны, только применение мощных мотивационных стимулов может способствовать повышению сознательной активности студентов на занятии, особенно на семинарском занятии. Вовлечь сегодняшних студентов на семинаре в процесс активного обсуждения может способствовать применение интерактивных технологий, в частности, ролевой игры. Предмет «Макроэкономика», изучаемый студентами экономического профиля, обучающихся на втором курсе бакалавриата, - один из самых сложных с точки зрения понимания и усвоения. Поэтому целесообразно материалы со сложным смысловым содержанием преобразовывать в игровую форму. Здесь работает тот же механизм, который показан в ставшем уже хрестоматийным случае из кинофильма «Джентльмены удачи». Когда дети отказываются есть кашу на завтрак, герой Евгения Леонова, сыгравшего роль заведующего детсада, заявляет: «Сегодня завтрак в детском саду отменяется. Сейчас все ребята отправляются в космическое путешествие. Командиром назначается Павлик. А теперь возьмите свои космические ложки и основательно подкрепитесь. Остановка в путешествии будет ещё не скоро». После этих слов дети дружно хватают ложки и начинают уплетать кашу с большим удовольствием. То есть заменив рутину повседневности на необычные действия, можно добиться, чтобы студенты выполняли учебные задания с полной уверенностью, что они находятся в каких-то фантастических условиях. Чтобы достичь этой цели, была разработана методика проведения семинарского занятия по предмету «Макроэкономика» на тему «Валютный курс». Форма проведения занятия – ролевая игра по заранее составленному сценарию. Основой сюжета ролевой игры является узбекская народная сказка, героями которой становятся экономические термины и категории. Задача студентов – перевоплотившись в сказочных героев, последовательно выполнить все учебные задания, достигнув таким образом поставленной дидактической цели. Ниже приводится сценарий, составленный непосредственно преподавателем по мотивам народной сказки.

Сценарий семинарского занятия по макроэкономике на тему: «Валютный курс».

Было ль, не было ль, в давние времена жили старик со старухой. И был у них сын по имени Сум-Палван. Умер старик и Сум-Палвану пришлось зарабатывать на жизнь. Вырос парень очень вежливым, учтивым, старался помогать людям. Без приветствия не проходил мимо старого и малого. За всё это уважали его, хвалили в глаза и за глаза.

Сум-Палван собирал хворост, продавал его на базаре, покупал на вырученные деньги зерно и муку, а мать пекла лепёшки. Этим они и жили.

Однажды, собирая хворост, устал Сум-Палван, прилёг под карагачем и заснул. И привиделся ему сон: будто какой-то старец говорит ему: «Эй, юноша, дочь Падишаха Марказбанка страны Экономобад, прекрасная Валюта-хон, достигла совершеннолетия и решила выйти замуж за того, кто исполнит её условия. Все царевичи и богатыри ринулись исполнять условия принцессы, чтобы взять её в жёны. Вставай, испытай своё счастье. У тебя доброе сердце и благородная душа, счастье непременно улыбнётся тебе, ты исполнишь условия принцессы Валюты-хон и завладеешь ею».

Вздрогнул юноша и проснулся, огляделся вокруг – никого нет. Расхотелось ему собирать дрова, и он вернулся домой. «Кто принцесса – дочь падишаха Марказбанка из страны Экономобад, и кто я – сын торговца дровами? – думал он всю дорогу. Лучшие богатыри не могут выполнить её условия. Куда уж мне?». «Выполнишь, выполнишь, - прозвучал невидимый голос – именно ты и сможешь выполнить».

Снова огляделся юноша и снова никого не увидел. Опечаленный, вернулся он домой.

«Матушка, я женюсь на принцессе Валюте-хон – дочери падишаха страны Экономобад» - сказал Сум-Палван матери. Испугалась мать юноши: «Не иначе, как сошёл с ума мой сын, разве в здравом уме он стал бы говорить о женитьбе на принцессе?». И сколько мать ни просила, ни умоляла, юноша решил отправиться в путь.

Шёл юноша долго, трудные дороги преодолевал. Смотрит юноша – стоит одинокий дом, вошёл он туда и увидел того самого старца, что приснился ему во сне. А был это сам старец Сиёсат-бобо. «Я помогу тебе добиться руки принцессы Валюты-хон. Тебе нужно будет войти в заколдованную пещеру и найти там волшебную книгу, которая называется «Учебник макроэкономики». С помощью этой волшебной книги ты сможешь выполнить условия принцессы. Вход в заколдованную пещеру охраняет грозный див Бюджет. Одолев дива, завладей книгой и тогда ты добьёшься цели. Если ты окажешься в трудном положении, загляни в зеркальце, что я тебе дам и найдёшь там подсказку. А теперь закрой глаза, я произнесу заклинание, и ты перенесёшься в пещеру дива». Поблагодарил юноша старца Сиёсат-бобо, закрыл глаза и в мгновение ока оказался в пещере дива. Див был огромным и вселял страх. Но Сум-Палван бесстрашно подошёл к нему. Закричал див, задрожали горы от его голоса: «Кто посмел войти в мою пещеру?» «Это я Сум-Палван»- ответил юноша, мне нужна волшебная книга, которую ты охраняешь. Див ответил: «Я отдам тебе книгу, если ты выполнишь моё условие. Вот уже много лет меня мучает червь по имени Кризис, что живёт в моей шкуре и пьёт мою кровь, избавь меня от него, и я помогу тебе». Сум-Палван бросился на червя Кризиса и убил его. Див вздохнул с облегчением. «Ты избавил меня от многолетних мучений, в награду за это я даю тебе волшебную книгу. Если тебе что-нибудь понадобится, сожги волосок от моей шкуры, и я тут же явлюсь». Поблагодарил Сум-Палван дива Бюджета и отправился дальше. Долго ли шёл, коротко ли, добрался он до реки, на берегу которой сидела Коварная старуха. Она была очень опечалена. Сум-Палван подошёл к ней и спросил: «Почему Вы так печальны, матушка?» На что Коварная старуха ответила: «Как же мне не печалиться, о благородный юноша, меня зовут Инспекция-Кампыр, злые разбойники украли мою ненаглядную дочь Солик-хон, много дней и ночей провела я в поисках Солик-хон, но не нашла её следов». Тут Сум-Палван заглянул в зеркальце Сиёсат-бобо и увидел там подсказку. «Не печальтесь, матушка, я знаю, где Ваша дочь. Разбойники спрятали её в пещере дракона по имени Даромад, я спасу Вашу дочь, матушка», сказал Сум-Палван, сжёг волосок от шкуры дива Бюджета, поднялся страшный смерч, задрожали горы, и появился див. «Мне нужна твоя помощь, о могущественный див», сказал Сум-Палван. Доставь меня к пещере дракона Даромада». Не успел он вымолвить эти слова, как оказался в пещере. Дракон, что жил в той пещере, как раз отправился спать после пиршества в честь захвата богатой добычи.

Юноша пробрался незаметно в пещеру и увидел луноликую девушку – это и была дочь Инспекции-Кампыр - Солик-хон. Бедняжка была связана по рукам и ногам крепкими верёвками. Увидев юношу, Солик-хон спросила: «Кто ты, юноша, что ты делаешь в пещере страшного дракона?» Сум-Палван ответил ей: «Сестрица, меня зовут Сум-Палван, я направляюсь в страну Экономобад, чтобы добиться принцессы Валюты-хон. Ваша матушка опечалена разлукой с Вами, сестрица, поэтому я обещал ей доставить Вас домой». «О, благородный юноша, я буду Вам очень признательна, но нам нужно поторопиться, пока дракон не проснулся и не погнался за нами в погоню». Сум-Палван снова призвал к себе дива Бюджета и с его помощью вернулся к Коварной старухе. Обрадовалась Инспекция-Кампыр, увидев свою дочь Солик-хон. «Тысячу благодарностей тебе, благородный юноша, ты

успокоил моё сердце, моя дочь рядом со мной». Рассказала Солик-хон матери, куда направляется её спаситель, и старуха сказала: «Выполнить условия принцессы Валюта-хон очень трудно, но я помогу тебе». Она прочитала заклинание, дунула, и тотчас же рядом с Сум-Палваном появился прекрасный Крылатый конь. «Садись на этого коня, сказала Инспекция-Кампыр, только с его помощью ты сможешь добраться до цели». Поблагодарил Сум-Палван старуху и сел на крылатого коня. Конь тотчас взмыл в воздух, и не успел юноша опомниться, как оказался в стране Экономобад. Смотрит, ворота дворца яхонтовые, пороги золотые, в прудах золочёные рыбки плавают. В саду поют соловьи, кричат попугаи. Прошёл немного юноша и увидел толпу людей. Среди них приехавшие издалека царевичи: рыцарь Евро и принц Доллар – все прибыли выполнить условия принцессы.

И тут из внутренних покоев вышла со своими рабынями и подругами принцесса Валюта-хон, она была прекраснее всех на свете.

«Принцесса Валюта-хон, - раздался чей-то голос. Предлагай свои условия. Все, кто тут есть, прибыли исполнить их». Это был отец принцессы падишах Марказбанк. Посмотрел юноша, а рядом с дворцом висит в воздухе шахский трон. Здесь заиграли карнаи и сурнаи. И раздался громкий голос глашатая:

- слушайте, люди, и не говорите, что не слышали. Наша досточтимая принцесса Валюта-хон поставила _____ условия. Кто выполнит их, за того согласится она выйти замуж.

Принцесса молвила: «Сначала всем желающим следует подробно рассказать о себе».

Сум-Палван, Евро и Доллар рассказывают историю возникновения валют.

Принцесса предлагает составить синквейн, решить кроссворд, ответить на вопросы тестов, создать новую концепцию знака национальной валюты Республики Узбекистан, найти дерево предсказаний.

Тот из участников, кто лучше всех справляется с заданиями, становится победителем.

Механизм проведения ролевой игры

1. Сообщает тему, цель, планируемые результаты учебной деятельности, обосновывает их значимость и актуальность.
2. Предлагает сыграть ролевую игру. Распределяет роли, причём роли должны быть практически у всех. На роль принцессы следует выбрать самую привлекательную девушку в группе. Объясняет суть игры.
3. Руководит ходом ролевой игры.
4. Разбивает студентов на 3 мини группы – и предлагает каждой группе выполнить задания по ходу ролевой игры.
5. Раздает учебный материал
6. Организует действия студентов по самостоятельному поиску решения заданий. Объявляет о начале работы в группах. Консультирует, направляет ход решения.
7. Объявляет о начале презентации.
8. В ходе презентации комментирует, уточняет, поправляет. Организует коллективное обсуждение вариантов решения проблемы, взаимооценки групп.
9. Подводит итоги ролевой игры, оценивает полноту ответов, при недостаточности ответов, сам формулирует ответ, выводы.
10. Предлагает каждому студенту зафиксировать выводы по решению проблемы в таблице и сдать преподавателю. Делает заключительный вывод по теме ролевой игры. Подводит итоги учебной деятельности, концентрирует внимание студентов на главном, оценивает, поощряет активных участников.
11. Отмечает значимость полученных знаний для будущей профессиональной и учебной деятельности.

Особого внимания заслуживает то, что в рамках ролевой игры студенты, вживаясь в свои роли, по иному подходят к выполнению заданий, а соревновательный характер действий студентов способствует реализации основных принципов обучения: принципа активности и сознательности, принципа проблемности, принципа единства образовательных, развивающих и воспитательных функций обучения. Ещё одним преимуществом подобной организации учебного процесса является то, что развёртывание ролевой игры, являющейся прогрессивной педагогической технологией, предполагает применение других инновационных приёмов и технологий, имеющих самостоятель-

ное значение: синквейна и «дерева предсказаний». Особого внимания заслуживает приём «Дерево предсказаний».

Приём "Дерево предсказаний" заимствован у американского учителя Дж. Белланса, работающего с художественным текстом. В оригинале этот приём помогает строить предположения по поводу развития сюжетной линии в рассказе, повести. Правила работы с данным приёмом таковы: ствол дерева - тема, ветви - предположения, которые ведутся по двум основным направлениям - "возможно" и "вероятно" (количество "ветвей" не ограничено), и, наконец, "листья" - обоснование этих предположений, аргументы в пользу того или иного мнения. "

В ходе выполнения этого задания студенты выдвигали различные предположения о том, как будет в дальнейшем развиваться мировая валютная система, какой статус приобретёт наша национальная валюта, аргументируя свои мнения теоретическими выкладками и проводя обзор существующего в мире положения. Это позволило им не только тщательно проработать теоретический материал, но и развивать аналитические способности.

Игра является уникальным механизмом аккумуляции и передачи социального опыта — как практического (овладение средствами решения задач), так и этического, связанного с определёнными правилами и нормами поведения в различных ситуациях. Появление игрового метода обучения обусловлено требованиями повышения эффективности обучения за счет более активного включения слушателей в процесс не только получения знаний, но и непосредственного их использования.

Специалисты, занимающиеся разработкой организационно-обучающих игр, отмечают, что обучение в игре является важнейшим условием освоения профессиональной деятельности, обеспечиваемого посредством воссоздания в учебной обстановке контекста конкретной профессиональной ситуации. В ходе игры происходит ускоренное овладение предметной деятельностью за счёт передачи участникам активной позиции — от роли игрока до соавтора игры.

Ценность игры в большей степени заключается не столько в достижении дидактических целей, сколько в *социально-психологическом воздействии на играющих участников и тех эффектах, которые при этом наблюдаются.*

Процесс игры отличает этот метод обучения от анализа ситуаций и тренинга. В процесс игры предполагается обязательное включение дополнительных вводных, которые могут существенным образом повлиять на игровые роли и действия участников.

Таким образом, ролевая игра превращает обучение в творческую лабораторию самообразования.

Литература

1. Бедулина Г.Ф. Интерактивные методы преподавания социально-гуманитарных дисциплин. [Электронный ресурс]. URL:http://www.pacademy.edu.by/public/academ.phtml?l&page=yanushevich.htm (дата обращения: 10.02.2018).

2. Липчиу Н.В. Методика преподавания экономических дисциплин: курс лекций. – Краснодар: КубГАУ, 2016. - С. 6-7.

3. Панина, Т. С. Современные способы активизации обучения [Текст] : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Т. С. Панина, Л. Н. Вавилова; под ред. Т. С. Паниной. – М. : Академия, 2006. – 176 с.

4. Панфилова, А. П. Инновационные педагогические технологии. Активное обучение [Текст] : учеб. пособие / А. П. Панфилова. - М. : Академия, 2009. - 192 с.

5. ПРИЛОЖЕНИЕ № 1 к Указу Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года № УП-4947 «СТРАТЕГИЯ ДЕЙСТВИЙ по пяти приоритетным направлениям развития Руз в 2017-2021 годах»

6. Савельева Е.М. Использование инновационных методов обучения в преподавании экономических дисциплин // образовательный сайт «Интернет конкурсы», рубрика «Статьи», май, 13, 2015 г.

7. Янушевич И.И. Использование инновационных технологий в преподавании социально-гуманитарных дисциплин на гуманитарном факультете Белгосуниверситета [Электронный ресурс].URL: http://www.pacademy.edu.by/public/academ.phtml?l&page=yanushevich.htm (дата обращения: 17.03.2018).



Shuxrat OSTONOV
Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrasi o`qituvchisi



Navro‘z JO‘RAYEV
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

IQTISODIY TARBIYA JARAYONINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARI

Inson yashar ekan, uning hayotida iqtisodiy faoliyat muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun ham yoshlarning murakkab iqtisodiyot dunyosini tushunish, iqtisodiy, tahliliy fikr yuritishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Yoshlarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berishga alohida diqqat qaratish lozim. Maqolada iqtisodiy tarbiyaning pedagogik va psixologik omillariga e’tibor qaratilgan.

Tayanch tushunchalar: *iqtisod, iqtisodiy bilim, iqtisodiy ong, iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy qonuniyatlar, iqtisodiy resurslar, shaxs, psixologik omil, xulq.*

Экономическая деятельность занимает важное место в жизни человека. Поэтому особое значение имеет важность обучать молодежь пониманию сложного экономического мира, размышлению и анализу. Необходимо уделять особое внимание к экономическому обучению молодежи. В статье уделяется внимание на педагогические и психологические факторы экономического воспитания.

Опорные понятия: *экономика, экономическое знание, экономическое сознание, экономическое мышление, экономические закономерности, экономические ресурсы, личность, психологический фактор, поведение.*

Economic activity takes the important place in human life. Therefore, it has a particular importance to train young people tounderstanda complex of economic world, its reflection and analysis. It is necessary, to pay special attention to the economic literacy of youth. The article focuses on pedagogical and psychological factors of economic upbringing.

Supporting concepts*: economics, economic knowledge, economic consciousness, economic thinking, economic patterns, economic resources, personality, psychological factor, behavior.*

O‘zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish bugungi yosh avlodning zimmasida ekan, ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib shakllantirish hayot tajribasiga ega, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug‘larimiz, faxriylarimizning, shu bilan birga mazkur ishga da’vat etilgan tarbiyachilar, muallimlar, olimlarning va umuman barchaning asosiy vazifasi bo‘lib qoladi. Bu borada yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va bu sohadagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, iqtisodiyot sir-asrorlarini, shu bilan birga, fanni chuqur o‘rganishga bo‘lgan harakat va talablarni ham kuchaytiradi. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida samarali xo‘jalik yuritish uchun muqobil variantlarni to‘g‘ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo‘lgan iqtisodchilar tayyorlashnigina emas, balki jamiyatning barcha a’zolarida iqtisodiy fikrlashni shakllantirishni ham talab qiladi. Iqtisodiy fikrlashni shakllantirish esa, ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi. Ta’lim-tarbiya har doim ham barkamol insonni voyaga etkazishga, uning ma’naviy va moddiy madaniyatini shakllantirishga qaratiladi.

Iqtisodiy ta’lim shaxs iqtisodiy tarbiyasining muhim tarkibiy qismidir. Ularda iqtisodiy amaliyot g‘oyaviy shakllarda o‘z ifodasini topadi. Iqtisodiy bilimlarni, iqtisodiy nazariyani, davlat iqtisodiy strategiyasini

egallash va o‘zlashtirish esa kishilarga, avvalambor, o‘z iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini nazariy jihatdan teran anglab etish imkonini beradi.

Shaxs iqtisodiy ta’lim-tarbiyasida umumnazariy iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda, sanoat yoki agrar soha tarmoqlari iqtisodiyoti, o‘z korxonasi yoki xo‘jaligi, ularni boshqarish qoidalari, ishlab chiqarish texnikasi haqidagi va boshqa shu kabi aniq bilimlar ham salmoqli o‘rin tutadi. Ularning tub asosida moddiy ne’matlar tavsifi, almashish, taqsimlash va iste’mol qilish haqidagi, moddiy xayotning jamiyat rivojiga ta’siri hamda jamiyatning iqtisodiy o‘sish yo‘llari, shakllari va uslublari to‘g‘risidagi iqtisodiy hayot va ob’ektiv iqtisodiy qonuniyatlar ta’sirining natijalari mujassamlashgan bo‘ladi.

Kishilarning iqtisodiy ta’lim va tarbiyaga bo‘lgan ehtiyoji bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos tabiati bilan bog‘liq. Chunki, bunday sharoitda odamlar iqtisodiy munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bu esa, iqtisodiy ta’lim va iqtisodiy tarbiyaga ega bo‘lish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Iqtisodiy ta’lim va iqtisodiy tarbiyani mukammal egallash uchun esa iqtisodiy bilimlarni tarqatuvchi va o‘qituvchi tizim mavjud bo‘lishi lozim. Sirasini aytganda, jamiyat a’zolarining iqtisodiy bilimdonligi iqtisodiy taraqqiyotga mos kelishi kerak. Bu o‘zlashtirilayotgan va o‘qitilayotgan iqtisodiy bilimlar hajmiga, ularning qay darajada jamlanishiga borib taqaladi. Maqsadga uzluksiz ta’lim vositasidagina erishish mumkin. Kishilar faqat o‘quvchilik va talabalik davrida olgan bilimlari bilan cheklanib qolmasliklari, mutaxassis sifatida malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari, mudom o‘z ustida ishlashlari kerak.

Iqtisodiy tarbiya ma’naviy boylikning ajralmas qismidir. Binobarin, insonlar mahorati va bilimlarining takomillashishi iqtisodiy taraqqiyotda ktta ahamiyat kasb etadi. O‘zlashtirilgan iqtisodiy bilimlarni amalda to‘g‘ri qo‘llay olish, kishilarning bu jabhadagi faolliklari darajasini belgilab beradi.

Iqtisodiy ong kishilarning, avvalo, iqtisodiy xayotdagi faolliklari, iqtisodiy tarbiyaning muhim belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bozor munosabatlari sharoitida uning o‘zgarishi mehnatga shaxsiy manfaatdorlik asosida yangicha mas’ulyat va tadbirkorlik bilan yondashishda egalik qilishga, samaradorlik va sifatni oshirishga intilishda erkin va halol raqobatda, iqtisodiy jarayonlarni oqilona tashkil etish va boshqarishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Iqtisodiy ong ma’naviyatining aqliy-ma’naviy negizini tashkil etadi. O‘z navbatida, iqtisodiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Bu esa yuksak zamonaviy-iqtisodiy tafakkur iqtisodiy ta’lim va tarbiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri ekanligini bildiradi. U iqtisodiy faoliyatning bilish bosqichida amalga oshadi. Mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga monand rivojlanib boradi. Har bir yangi avlod ajdodlardan meros iqtisodiy tarbiya an’analarini, iqtisodiy bilimlar va tajribalarni o‘zlashtiradi, to‘ldiradi va takomillashtirishga intiladi.

Ma’rifiy bozor munosabatlariga mansub yangicha iqtisodiy jarayon-hodisalarni bilish, aks ettirish va umumlashtirish qobiliyati, zamonaviy iqtisod fanlarining umumiy belgilari va bog‘lanishlarini ifodalovchi tushunchalarini, uning yutuqlarini xayotga tadbiq etish ehtiyojlarini anglab, fikr yuritish, ilg‘or tajriba va yangilaklarni teran baholay olish mahorati – bularning barchasi umumlashib, iqtisodiy tafakkurning mahsuli sifatida individual va ijtimoiy ongga aylanib boradi [1].

Jamiyat iqtisodiy ongi alohida shaxslarning jamiki iqtisodiy qarashlarini emas, balki xalq, millat, ijtimoiy guruh va qatlamlar uchun ahamiyatli bo‘lganlarini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy ongning ijtimoiy kuchga aylanishi hisobiga ijtimoiy sub’ektning iqtisodiy ongi va ma’naviyati boyiydi hamda iqtisodiy madaniyati o‘sadi. Ong va amaliyotning uzviy birligi iqtisodiy ta’lim va tarbiyaning uzluksiz rivojlanishiga olib keladi. Kishilar ongi va qalbini egallagan bilan, g‘oya va nazariyalar ularning xarakterini ongli xatti-xarakatlarini, ijodiy faoliyatini belgilaydi va moddiy-ma’naviy kuchga aylanadi. Bu iqtisodiy ta’lim va tarbiyaning shakllanishi va namoyon bo‘lishidagi qonuniyatlardan biridir.

Iqtisodiy tarbiyaning shakllanishi hamda rivojlanishi ob’ektiv, ijtimoiy, tarixiy jarayonda kechadi. Iqtisodiy nazariyani, iqtisodiy siyosatni, bozor iqtisodiyotiga o‘tishga doir islohotlar konsepsiyasini, soha va tarmoqlar iqtisodiga oid ilmni qamrab oluvchi bilimlar tizimi nazariy jahatdan uning shakllanish manbaidir. Iqtisodiy qonunlardan oqilona foydalanishga, umumiy nazorat o‘rnatishga ijtimoiy va ommaviy iqtisodiy ongsiz, ta’lim-tarbiyasiz erishib bo‘lmaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, u ayniqsa, iqtisodiy faoliyat samaradorligining ortishi va manfaatdorlikning kuchayishi orasidagi bevosita aloqadorlik qonunining namoyon bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy ong ijtimoiy ta’lim va tarbiyaga taalluqli umumiy tarbiya nazariyasi qonuniyatlariga ham bo‘ysunadi. Aytaylik, jamiyat mafkurasining o‘ziga xos tarmog‘i hisoblanmish iqtisodiy mafkura uning tarkibiy qismi sifatida alohida ajralib turadi. Uning mazmunini amaldagi iqtisodiy munosabatlar hamda ular taraqqiyotining obyektiv yo‘nalishlari belgilab beradi. U aholining iqtisodiy va siyosiy manfaatlari asosiy o‘rin egallaydi. Iqtisodiy mafkuraning omma tamonidan o‘zlashtirilishi va fuqarolar qalbiga singishi uni amaliy kuchga aylantiradi. Maqsadga muvofiq ehtiyoj va manfaatlar, intilish va omillar, manfaatdorlik va

samaradorlik xo‘jalik hissi va mulkka egalik munosabatining shakllanishi natijasida iqtisodiy o‘sish barqarorlashadi [2].

Iqtisodiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qisi e’tiqoddir. U insonni iqtisodiy qonuniyatlar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi g‘oyalar, rejalar va qoidalar tushunishga hamda shu asosda harakat qilishga undaydi. Kishi xulqining izchil, mantiqli, maqsadga intiluvchan bo‘lishini ta’minlaydi.

Ma’lumki, barpo etilayotgan adolatli fuqarolik jamiyati bizdan ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi, ma’naviy va boshqaruv sohalaridagi komillikka erishish yo‘lidagi yangicha munosabatlarning erkin ijodkori bo‘lishimizni talab qilmoqda. Aniqrog‘i, iqtisodiy madaniyat ijtimoiy ishlab chiqarish, taqsimot, ayriboshlash va iste’mol jarayonlaridagi ijodkorlik bilan bog‘lanib bormoqda, turli kasb egalari faoliyatida o‘z ifodasini topmoqda. Ijodkorlik, ayniqsa, mehnat va ishlab chiqarish jarayonlari hamda sharoitlarini yaxshilashda, ularning yangi shakllari, uslublari va yo‘riqlarini yaratishda texnologik jarayonlarni takomillashtirishda, mehnat natijalarini, ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi manbalarni ochishning o‘ziga xos tahlilida, iqtisodiy, texnik va nisbiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda yaqqol ko‘zga tashlanmoqda [3].

Jamiyat ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi ko‘p jihatdan shaxsning iqtisodiy ehtiyojlari, manfaatlari va maqsadlarini qamrab oluvchi iqtisodiy intiluvchanlikka ham bog‘liq. U hayot davomida yuzaga keladi va ancha barqaror bo‘ladi. Shu bilan birga, odamzodning yashash joyi, vaqti, zimmasidagi vazifalari va boshqa sabablarga ko‘ra o‘zgarib turadi. Uni iqtisodiy ta’sir choralari, muomala va tarbiya vositasida rivojlantirish va chuqurlashtirish zarurati tug‘ilganda, qayta shakllantirish ham mumkin. Bu jarayonda inson faoliyati sabablarini o‘rganish katta e’tiborga loyiq. Zero, shaxs intilishining sabablari va uning faolligi o‘zaro uyqashdir. Iqtisodiy faoliyat sabablari shaxsiy hamda umumijtimoiy maqomlarga ega bo‘lib. Intilishning ajralmas qismi hisoblanmish ehtiyoj va manfaatlarga borib taqaladi.

Ehtiyoj farovon hayot kechirish va erkin faoliyat yuritish uchun zarur talablarning qondirilmasligidan kelib chiqadi. Inson hamisha o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun zarur vositalarni izlaydi, ma’lum iqtisodiy vazifalarni hal etadi. Shuningdek, ehtiyojlar iqtisodiy faoliyatni uyg‘atuvchi, harakatlantiruvchi, yo‘naltiruvchi zaruriyat, sabab sanaladi. Anglangan, rivojlangan, ta’lim va tarbiyasini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Shaxs iqtisodiy ta’lim-tarbiya va intilishi manfatlarni ham o‘z ichiga oladi. Ular ehtiyojlarni qondiruvchi qadriyatlarga, ularning taqsimoti va ta’minotini belgilovchi ijtimoiy institutlarga, munosabatlar va qoidalarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Manfaatlarda doimo inson bilan insonni, bir ijtimoiy guruh bilan boshqasini taqqoslash eelementi qatnashadi. U kishilar orasidagi bahs, kurash va hamkorlikning barcha ko‘rinishlari zamirida yotadi. Manfaatlar umumiylik darajasiga qarab – shaxsiy, guruhiy, ijtimoiy; yo‘nalganligi bo‘yicha – iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy; sub’ekt tasnifiga ko‘ra – sinfiy, milliy, anglanish darajasiga asosan tartibsiz ta’sir etuvchi va anglangan; amalga oshish imkoniyatiga qarab – amaliy va xayoliy; ijtimoiy taraqqiyotning kishi ongiga bog‘liq bo‘lmagan yo‘nalishlari bo‘yicha – taraqqiyotparvar, teskari, eskilikni yoqlovchi bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, bevosita va bilvositaligi bilan ham farqlanadi. Mehnat va bilish jarayonining o‘ziga bo‘lgan manfaat bevosita mehnat natijalariga, shuningdek, ma’lum ijtimoiy va xizmat mavqeiga bo‘lgan manfaat bilvosita manfaat hisoblanadi [4].

Kishilar ongida har ikkalasini shakllantirish joizdir. Shunda ular o‘z mehnatlaridan qoniqish hosil qiladilar, rag‘bat ko‘radilar, pirovardida iqtisodiy madaniyatini boyitadilar. Bozor munosabatlari esa, shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlovchi sharoitlarni yaratadi.

Iqtisodiy intiluvchanlikning yana bir qirrasi ijtimoiy yo‘riqlardir. Ular mavjud ijtimoiy tajribaning shaxs tomonidan qanday o‘zlashtirilishini, uning harakatlari va ishlarida mufassal jarayon bo‘lishini oydinlashtirishda qo‘l keladi. Qolaversa, sababning tanlanishi ma’lum darajada ijtimoiy yo‘riqlar vositasida tushuntiriladi. Inson ularga bog‘liq holda mehnat qiladi, taqsimot va ayriboshlashda qatnashadi, moddiy va ma’naviy qadriyatlarni iste’mol qiladi. Bozor munosabatlarni ishlab chiqish ijtimoiy ko‘rsatmaga aylanadi.

Umuman olganda, iqtisodiy tarbiyaning tarkibiy qismi bo‘lgan iqtisodiy bilimlar, iqtisodiy ong va tafakkur, e’tiqod, malaka va mahorat, intilishu ilg‘or tajribalar zanjir xalqalaridek bir-biriga bog‘lanib ketgan bo‘lsa-da, ular iqtisodiy tarbiyaning yaxlit mazmun-mohiyatini va amaliy ahamiyatini ochib bera olmaydi.

Adabiyotlar

1. Mahkamov U., Xodjayev B., Tilabova N. Didaktik materiallar majmui. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: Sharq, 2007.
2. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti. – T., 2002. – 191 b.
3. Hakimova M.F. Kasb pedagogikasi. T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 251 b.
4. Ochilov M. Oliy maktab pedagogikasi. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 2007-yil.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI





Гавҳар ТУРДИЕВА
Бухоро давлат университети
ахборот технологиялари
кафедраси катта ўқитувчиси

Жонибек ЖУМАЕВ
Бухоро давлат университети
ахборот технологиялари
кафедраси ўқитувчиси

ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ҚЎЛЛАШДА ISPRING SUITE ДАСТУРИНИНГ ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Мақолада инновацион таълим технологияларини таълим жараёнида қўллашда Ispring suite дастурининг имкониятларидан самарали фойдаланиш усуллари ва унинг ўқув- тарбия жараёнидаги аҳамиятли томонлари таҳлил қилинган.

Таянч тушунчалар: *инновация, мультимедиа, электрон курс, электрон китоб, электрон таълим, Moodle тизими.*

В статье анализированы способы использования программы Ispring suite в обучение инновационных технологий и значимые стороны их использования в системе образования.

Опорные понятия: *инновация, мультимедиа, электронный курс, электронная книга, электронные обучение, система Moodle.*

In article is analyzed theways of using the Ispring suite in educational innovative technologies and considerable sides to use themin system ofeducational process.

Supporting concepts: *innovation, multimedia, e-course, e-book, e learning, and Moodle system.*

Ҳозирги вақтда таълим жараёнида ўқитишнинг замонавий методларини қўллаш – ўқитиш жараёнида юқори самарадорликка эришишга олиб келади. Таълим методларини танлашда ҳар бир дарснинг дидактик вазифасидан келиб чиқиб танлаш мақсадга мувофиқ саналади. Таълим жараёнида таълим инновацияларидан фойдаланиш, бугунги ахборотлашган жамиятда таълим беришнинг энг қулай усулларидан биридир.

Таълим инновациялари – таълим соҳаси ёки ўқув жараёнида мавжуд муаммони янгича ёндашув асосида ечиш мақсадида қўлланилиб, аввалгидан анча самарали натижани кафолатлай оладиган шакл, метод ва технологиялар.

Таълим инновациялари “инновацион таълим” деб ҳам номланади. “Инновацион таълим” тушунчаси биринчи бор 1979 йилда “Рим клуби”да қўлланилган.

Таълим тизимида ёки ўқув фаолиятида инновацияларни қўллашда сарфланган маблағ ва кучдан имкон қадар энг юқори натижани олиш мақсади кўзланади. Инновацияларнинг ҳар қандай янгиликдан фарқи шундаки, у бошқариш ва назорат қилишга имкон берадиган ўзгарувчан механизмга эга бўлиши зарур. Барча соҳаларда бўлгани каби таълимда ҳам “новация”, “инновация” ҳамда уларнинг моҳиятини ифодаловчи фаолият тўғрисида сўз юритилади.

Педагогик инновация таълим мазмунини янгилайди ва ўқитиш шакл, усул ва воситаларини янгилаш вазифасини бажаради.

Таълим жараёнига инновацияларнинг кириб келиши компьютер технологиясининг ривожланиши билан боғлиқ бўлиб, ахборот коммуникацион технологиялари воситалари ёрдамида таълим жараёнида педагогик дастурий воситалар яратишга қаратилган тизимни ўз ичига олади.

Мультимедиали электрон ўқув курсларни яратиш имкониятини берувчи педагогик дастурий воситалар ичида юқори рейтингга эга бўлган дастурлардан бири iSpring дастуридир. Ispring dasturi нафакат flash тақдимотларни яратишда, балки таълим жараёнида кулланилиши мумкин бўлган роликлар тайёрлашда, хусусан, уларга турли шаклдаги сўровлар, электрон тестларни хам киритган холда ўзаро интерактив богланиш имкониятини беради.

2005 йилда Ispring компанияси Flash iSpring pro дастурий махсулотини чиқарди. Бу Power Pointнинг Flashдаги оддий конвертери бўлиб, бепул ва тижорат версиялари чиқарилган эди. 2006-2007 йилларда Flash iSpring дастурий маҳсулоти Ispring номи билан номланди. 2009 йилда компания тўлиқ янгилангандан сўнг, Ispring presenter номли электрон тарзда ўқитувчи ускуналарга эга тўлиқ янгиланган маҳсулотни тақдим этди. Бу маҳсулот жаҳон бозорида юқори даражадаги сифатга эга курсларни яратувчи маҳсулот сифатида тан олинди. ISpring Free дастури .ppt, .pptx, .pps, .ppsx форматдаги файлларни Flash (SWF) ва HTML5 форматига конвертациялаш имкониятини берадиган муаллифлик дастури ҳисобланади. Дастур орқали фойдаланувчилар Flash-роликлар ва YouTube-видео ресурсларни PowerPoint тақдимот слайдларига жойлаштиришлари мумкин. Хусусан:

-яратиладиган электрон ўқув контентларни SCORM ва TinCan га ўтказиш имкониятини беради, бу эса ихтиёрий LMS (Learning menegment system) билан интеграциялаштириш мумкин эканлигини англатади;

-PowerPoint дастурида яратилган тақдимот файлининг хажмини 97% гача сиқиш имконияти мавжуд;

-PowerPoint дастурида яратилган тақдимот файлининг ҳисояланишини таъминлайди.

Яратилаётган электрон курсга аудио ва видео файлларни қўшиш, тақдимот слайдлари билан синхронизациялаш, электрон курснинг ҳар хил плеерларини танлаш, таҳрирлаш, SCORM(англ. Sharable Content Object Reference Model - биргаликда фойдаланиш учун объект таркибидаги намунали модел) ва TinCan стандартларида чоп этиш, mp4 видеоформатида экспорт қилиш имкониятларини беради. Шу билан бир қаторда iSpring Visuals орқали 3D китоблар, вақт шкаласи, глоссарийлар яратиш имконияти ҳам мавжуд. iSpring дастури орқали яратилган курсларни LMS лар билан интеграциялаш имконияти мавжуд.

Кенгайтирилган iSpring Suite 7 пакети ўзида қуйидаги имкониятларни жамлаган:

– PowerPoint муҳитида ўқув курслари ва Flash-тақдимотларни яратиш (iSpring Pro);


– интерактив тестлар, сўровномалар ва анкеталарни ишлаб чиқиш (iSpring QuizMaker);

– электрон курсларни иллюстратив имкониятларини ошириш учун интерактив элементларни яратиш (iSpring Kinetics).


ISpring Free дастури мутлоқ текин ҳисобланади. ISpring Free дастуридан ташқари имконияти кўпроқ бўлган ISpring Suite дастури ҳам мавжуд бўлиб, бу дастур орқали юқори даражада сифатли электрон ўқув контентни яратиш мумкин. Ispring suite бир нечта ускуналар тўпламини ўзида жамлаган 3 та компонентни ўзида бирлаштиради. Булар Ispring QuizMaker, Ispring Pro, Ispring Kinetics. Ispring suite дастури ёрдамида Power Pointда тақдимотлар супер қувватланган электрон курс кўринишида бўлади. ISpring Suite асбоб ускуналари орқали (QuizMaker, iSpring Visuals, iSpring DialogTrainer) электрон дарсликлар, видеомаърузалар, QuizMaker орқали электрон назорат тестлари, сўровномалар, ISpring DialogTrainer -тармоқланган диалогли электрон курсларни ва онлайн-презентацияларни яратиш мумкин. Бу эса фойдаланувчининг имкониятларини янада кенгайтиради ва слайдлар, видеомаърузаларни бир вақтда олиб бориш имкониятини яратади. IspringPro дастури Power Point тақдимотларини мобил иловалар кўринишида келтиради ва мобил тақдимот кўринишида интернетга жойлаштириш имкониятини беради. У ўзида Power Point анимацияларини, ўтиш эффектларини ва бошқа объектлар билан ишлаш функцияларини, Web ёки LMS тизимларида публикациялаш ва SCORM стандартларини ҳам қўллаб-қувватлайди.



1.1-расм. Ispring Pro дастурини ишга туширувчи ойна




1.2-расм. Power Point дастурида Ispring Pro менюсининг кўриниши



Экспресс публикация банди Flash ролик кўринишида файлни яратиш ва публикациялаш учун ишлатилади.

Опубликовать банди тақдимотни Web,CD, Ispring online, LMS тизимларида публикациялаш имкониятини беради. Бунда тақдимотнинг номи, қаерда сақланиши ва қандай архив файлларидан фойдаланиш кераклиги ойнада белгилаб кўрсатилади ва *преобразовать* (кайта ўзгартирмоқ) тугмаси босилади.






1.3-расм. Опубликовать банди ойна кўриниши.




Структура банди ёрдамида тақдимотнинг мундарижа кўриниши шакллантирилади ва тақдимот қилиш вақтида қулайлик туғдиради.



1.4-расм. Структура банди кўриниши



Записать аудио, Записать видео бандлари ёрдамида тақдимот слайдларига аудио ва видеоёзувларни жойлаштириш мумкин. Бунда компьютерга микрофон ёки видеокамера уланади ва начать запись тугмаси ёрдамида аудио ёзувлар ёзиб олинади. Хар бир слайдда алоҳида товуш эффектларини ихтиёрий вақт давомида қўйиш мумкин.



1.5-расм. Ispring Pro менюсининг аудио ва видео ёзувларни жойлаштирувчи ойна кўриниши



Слайдга flash объект жойлаштириш тугмаси.

Слайдга янги тестлар тўпламини жойлаштириш тугмаси бўлиб, iSpringQuizMaker ёрдамида тестлар тузилади ва слайдга жойлаштирилади.




Слайдга интерактивлик қўйиш имкониятини берувчи тугма бўлиб, бунда слайдга янги 3D китоб ёки каталог жойлаштириш имконини беради.

Ispring Pro дастури тақдимот слайдларини яратишда мултимедиали имкониятлардан фойдаланиш, слайдларни мукаммал кўринишга келтириш, тақдимот жараёнида кулай фойдаланиш имкониятини яратади.

iSpringQuizMaker фойдаланувчиларга интелектуал викториналар ва саволларни яратиш, тест турларини яратиш ва назорат ишларини электрон тарзда ўтказиш имкониятини яратади. Берилган саволлар ойнасининг кўринишини ихтиёрий тарзда ўзгартириш, саволлар тўпламига аудио ва видео файлларни, расм ва формулаларни жойлаштириш имкониятини яратади ва автоматик тарзда талабаларнинг берган жавобларини баллар ҳисобида хисоблаб бориш имконияти хам мавжуд. Барча имкониятларни ўзида жамлаган iSpringQuizMaker 2011 йилда «Лучший шаг вперед в тех-

нологии для тестирования или обучения по оценке» номинацияси бўйича **BrandonHall** бронза медалини қўлга киритди.



1.6-расм. IspringQuizMaker ойна кўриниши.

Талаба билимини текширишнинг энг содда ва сифатли усули – бу баҳолаш тести ҳисобланади. **iSpring** дастурида тест топшириқларини тайёрлаш энг қулай усул ҳисобланади. **iSpring** дастурининг **Тесты** қисмида **Новый тест** танланилади.

iSpring дастури ёрдамида қуйидаги турдаги тест саволларни яратиш мумкин:

1. Верно/неверно.Тасдиқни тўғрилигини баҳолаш.

2.Одиночный выбор. Энг тўғри жавоб вариантини танлаш (Бир танловли тест).

3. Множественный выбор. Бир нечта жавоб вариантини танлаш (Кўп танловли тест).

4. Ввод строки. Махсус майдонга савол жавобини киритиш (Сатрни киритинг).

5. Соответствие. Мос элементларни қиёслаш (Қиёслаш).

6.Порядок. Берилган вариантларни тўғри кетма-кетликда жойлаштириш (Тартиблаш).


7. Ввод числа. Тўғри жавоб вариантини сонли формада киритиш (Сонни киритинг).

8. Пропуски. Матн таркибида бўш қолган ўринларни мос жавоблар билан тўлдиринг.

9. Вложенные ответы. Очилувчи рўйхатдан тўғри жавоб вариантини танланг.


10. Банк слов. Бўш қолган ўринларни «банка слов» таркибидаги вариантлар ёрдамида тўлдиринг.

11. Активная область – Фаол соха ёрдамида бирор объектнинг маълум қисмини белгилаш ёрдамида тест саволини топиш мумкин.



1.7-расм. IspringQuizMaker ойнасида тест яратиш усуллари

IspringQuizMaker ёрдамида яратилган тестларни турли кўринишларда публикация қилиш ва ихтиёрий фанлардан фойдаланиш мумкин. Бу эса талаба билимини баҳолашнинг холис усулларидан бири бўлиб, тест дастурлари талабанинг баҳосини аниқ холда кўрсатиб беради. Бу эса инновацион усулда назорат ўтказишни таъминлайди.



1.8-расм. Ispring Quiz Maker ойнасида тест яратиш усуллари

3D - китоб яратиш Интерактивности қисмида 4 турдаги интерактив элементларни яратиш мумкин: китоб (Книга), глоссарий ёки каталог (Каталог), савол-жавоб (Вопрос- ответ), вақт шкаласи (Временная шкала). Интерактив элементлар ёрдамида ихтиёрий матнли ёки график ахборотларни осонлик билан тизимлаштириш мумкин. Интерактив китоб яратиш учун Интерактивности бўлимида Книга танланади. Дастур автоматик тарзда 3D-китоб макетини яратади.

iSpring дастури интерфейси Microsoft Office дастурларининг интерфейсига ўхшаш бўлиб, экраннинг юқори қисмида лента майдони мавжуд. Бу майдон тўртта вкладкадан иборат: книга, дизайн, вид ва справка. Ҳар бир вкладка таркибида шу вкладкага мос буйруқлар мавжуд. Книга вкладкаси 5 блокдан иборат.

Страница блокида китоб саҳифаларини яратиш ҳамда яратилган саҳифалар нусхасини кўпайтириш (дублировать) ёки мавжудларини ўчириш. **Шрифт** блоки турли шрифтлардан фойдаланиш имкониятини беради ҳамда матнни таҳрирлаш ускуналаридан таркиб топган. **Рисование** блоки ёрдамида мос буйруқлар ёрдамида китобнинг биринчи саҳифасига тасвир ва персонаж қўйиш мумкин.

Вид менюсида китоб таҳрирлаш жараёнида китобнинг ҳолатини созлаш мумкин.

Шундан сўнг 3D-китобни интернетга жойлаш ва фойдаланувчиларга тақдим этиш мумкин. **Главная** менюсидаги **Публикация** буйруғини ишга туширамиз ва интерактив китоб номи, ушбу китобни сақлаш керак бўлган манзилни кўрсатамиз. **Сжатие** вкладкасида файлни сиқиш методини танлаймиз. Китобни нашр этгандан сўнг, китобни браузер ойнаси ёки Adobe Flash Player ёрдамида кўриш мумкин.

Глоссарий ёки каталог яратиш. Глоссарий электрон ахборот таълим ресурсларининг энг асосий қисми ҳисобланади. Глоссарий ёки каталог яратиш учун Каталог танланади. Заголовок интерактивности бўлимига Глоссарий номи киритилади. Новый элемент ёрдамида ҳар бир термин учун ойна очилади. Элемент қисмида термин номи ва пастки майдонда унинг изоҳи киритилади. Барча термин ва унинг изоҳларини киритиб бўлгандан сўнг **Публикация** элементи ёрдамида турли куринишда публикация қилинади.

Ispring масофавий таълим тизими булутли тизимдир. Бунда ишлаётган компьютерингизни системасини ўзгартириш керак эмас. Бу онлайн ўқув портали ихтиёрий браузер ва интернет билан таъминланган компьютерда ишлайди. Бу ўқув курсини яратишда тайёр ўқув материал-ларини юклаш, тақдимот ва видеороликлар жойлаштириш имкониятига эга. Бундан ташқари, электрон курсда ихтиёрий ўқув материалини яратиш, мулоқот тренажёнларидан фойдаланиб, мулоқот турларини ташкиллаштириш, тестлар ва назорат қилувчи топшириқларни яратиш мумкин. Курсларни ўқиш жараёнида фойдаланувчи курсни мобил версияларидан ҳам фойдаланиш им-

кониятига эга. Ispring дастури электрон ўқув курсларини яратиш учун қулай дастур бўлиб ҳисобланади.

Замонавий таълим технологияларидан таълим жараёнида фойдаланишда педагогларнинг вазифаси замонавий техник таъминотга эга таълим муассасаларида талаблар даражасида инновацион таълим технологиялари асосида ёшларимизга таълим-тарбия беришдан иборат бўлмоғи лозим. Бунинг учун ҳар бир педагог ўз устида мукаммал ишлаши, замондан орқада қолмаслиги, ўқитишнинг инновацион технологияларини пухта билиши ва ўз фаолиятида жорий этиши зарур.

Адабиётлар

1. Рахимов О.Д., Турғунов О.М., Мустафаев Қ.О. Олий таълимда масофавий ўқитишни ташкил этиш. – Қарши, 2012. – 60 б.
2. Абдукадиров А. А. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. Монография / А. А. Абдукадиров, А. Х. Пардаев; ред. М. Содикова. – Т.: “ФАН”, 2009. – 145 б.
3. Методика интерактивного обучения взрослых. /Проект «Развитие местного управления в Центральной Азии. Урбан институт, Ташкент, 2005. – с. 23
4. www.ispring.com
5. www.course.com



Nazokat SAYIDOVA
Buxoro davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi



Marjona MUXAMMADOVA
Buxoro davlat universiteti fizika-matematika fakulteti 4-bosqich talabasi

CORELDRAW VEKTORLI DASTURIDA GUL RASMINI TAYYORLASH KETMA-KETLIGI

Ushbu maqolada CorelDraw vektorli dasturida instrumentlar yordamida chiroyli gul rasmini tayyorlash ketma-ketligi ishlab chiqilgan.

Tayanch tushunchalar: *vektor, instrument, uskunalar paneli, shakl, nuqta, asbob, strelka, element, rang, palitra, gradus, obyekt, gruppalash, tasvir, tugma, markaz, burchak.*

В этой статье разработана последовательность выполнения красивого рисунка цветка с помощью инструментов векторной программы CorelDraw.

Опорные понятия: *вектор, инструмент, панели инструментов, форма, точка, инструмент, стрелка, элемент, цвет, палитра, градус, объект, группировать, изображение, кнопка, центр, угол.*


In this article has been developed a sequence of performing a beautiful flower pattern using the tools of the vector program CorelDraw.

Supporting concepts: *vector, tool, toolbar, shape, point, tool, arrow, element, color, palette, degree, object, group, image, button, center, and angle.*

CorelDRAW – bu illyustratsiyalarni vektor grafikasi prinsipiga asoslangan holda yaratuvchi va tahrirlovchi dastur hisoblanadi. CorelDRAW dasturining imkoniyatlari unda turli xil grafik kompozitsiyalarni yaratishga yordam beradi. Ayniqsa, dinamik interaktiv instrumentlar, turli xil effektlar va grafik ma'lumotlarni HTML va PDF formatlarida tayyorlash imkoniyatlari yaratilgan. Bundan tashqari, CorelDRAW grafik muharririda ranglar palitralarida turli xil ranglarni tanlash mumkin. Shuningdek, turli formatlar bilan ishlashda yordam beruvchi turli instrumentlar, import va eksport uchun zarur bo`lgan ko`pgina filtrlar, tasvirni nashr qiluvchi vositalar ijodkor uchun eng yuqori ijodiy muhit yaratib beradi.

Buning uchun CorelDraw dasturini ochamiz.


Uning uskunalar panelidagi “Безье” uskunasini tanlaymiz. Uning yordamida sichqonchaning chap tugmasini qo’yib yubormasdan egri chiziq chizamiz. Bu egri chiziqni xuddi barg yaprog’idek shaklga keltiramiz.



1-rasm. “Безье” uskunasi.


Egri chiziqning ostidagi nuqtasiga kelib sichqonchaning chap tugmasini ikki marta bosamiz va pastga yo'nalgan shtrixli novdani yo'qotamiz.

So'ng yuqoridagi nuqtadan sal pastroqqa kelib sichqonchaning chap tugmasini qo'yib yubormasdan barg yaprog'ining ikkinchi tomonini yasab olamiz.




2-rasm. «Безье» uskunasi orqali amallar bajarish.

Ikkinchi egri chiziqning oxirgi nuqtasiga kelib yana sichqonchaning chap tugmasini tez-tez ikki marta bosamiz va yuqoriga yo'nalgan shtrixli novdani yo'qotamiz. Hamda uskunalar panelidagi birinchi uskunani, ya'ni "Указатель" asbobini tanlaymiz. Uni tanlaganimizdan so'ng quyidagi ko'rinish paydo bo'ladi:




3-rasm. "Указатель" asbobini ishlatishda rasmdagi o`zgarish.

Yuqorida ochiq qolgan qismini bir biriga ulaymiz. Bu uchun uskunalar panelidan yuqoridan ikkinchida joylashgan "Форма (F10)" elementini tanlaymiz va pastroqdagi nuqtani yuqoridagi nuqta ustiga etib ust-ma-ust qilab joylashtiramiz.




4-rasm. "Форма(F10)" elementini tanlash.

Endi barg yaprog'ining shaklini ikkita tomonga tortilgan shtrixli strelkalar yordamida chiroyli holatga keltirishimiz mumkin. Shaklni to'g'rilab olganimizdan so`ng "Указатель" elementini tanlaymiz va shakl belgilanadi. Ranglar palitrasidan o'zimizga yoqqan rang ustiga kelib, sichqonchaning o'ng va chap tugmachalarini bosamiz. O'ng tugmachani bosganimizda uning chegarasi shu rangga bo'yalsa, chap tugmasini bosganimizda esa shaklning ichki qismi shu rangga bo'yaladi.




5-rasm. Shaklga rang berish.

Shaklni o`zimiz xohlagan rangda bo'yab olganimizdan so'ng uskunalar panelidan quyidagi "Интерактивная прозрачность" instrumentni tanlaymiz va shaklimizning chap tashqi tomonidan taxminan bir santimetr masofadan sichqonchaning chap tugmasini bosib turib qo'yib yubormagan holatda ichkariga to'g'ri yo'nalishda tortamiz.




6-rasm. "Интерактивная прозрачность" instrumentni.

Natijada ushbu tasvirni hosil qilamiz:




7-rasm. "Интерактивная прозрачность" instrumentning rasmdagi ta`sir natijasi.

Bunday qilishimizga sabab, chizayotgan gulimizning yaproqlari yanada chiroyli, hamda aniq ko`rinishda namoyon bo'ladi. Yana tasvirni belgilash uchun "Указатель" elementini tanlaymiz. Xuddi shu tasvirdan nusxa olamiz va uni 180 gradusga buramiz. So`ngra esa ikkita tasvirni yonma-yon keltirib birlashtiramiz va quyidagi kabi ko'rinishga ega bo'lamiz.



8-rasm. Rasmni 180 gradusga burish natijasi.


Ikkita obyektni belgilab olib, ularni gruppalarga ajratamiz. Ikkita obyekt birlashganidan so'ng tasvirni ustiga ikki marta sichqonchaning chap tugmasini bosamiz, bunda burish strelkalari paydo bo'ladi. Markazga nisbatan aylantirish nuqtasini pastgi nuqtaga ko'chiramiz:



9-rasm. Markazga nisbatan aylantirish nuqtasini pastgi nuqtaga ko'chirish.


Burish strelkalarini chiqargan holatda yuqori o'ng burchakdagi strelka bilan sichqonchaning chap tugmasini bosib turib tasvirni buramiz va qo'yib yubormasdan sichqonchaning o'ng tugmasini bosib turib keyin qo'yib yuboramiz. Quyidagi tasvir hosil bo'ladi:

so'ng bir qadam oldingi ishni avtomatik bajarib bosamiz, toki yaproqlar simmetrik holatga kelgunicha va bizga quyidagi gul tasviri hosil bo'ladi:



10 – rasm. Gul yaproqlarini simmetrik holatga keltirish va natija.

Shakllarning barchasini belgilab olamiz va gruppalash buyrug'ini tanlaymiz. Tasvirni o'zidan nusxa olib ikkala tasvirni bir xil ustma-ust qo'yamiz. Tasvirni belgilab Shift tugmasini bosib turgan holda tasvirlardan birini markazga nisbatan kichiklashtiramiz. So`ngra esa uni ma'lum burchakka aylantirib, oldingi tasvir rangidan o'zgacharoq biroq shu rangga mos tushuvchi rang tanlaymiz va shu rangga bo'yaymiz. Ikkita obyektni gruppalaymiz. Natijada bizga gul tasviri hosil bo'ladi.



11-rasm. CorelDraw dasturida gul tasvirining ko`rinishi.

Vektorli grafikada tasvirning asosiy elementi sifatida chiziq qaraladi. Chiziq sifatida to`g'ri chiziq yoki egri chiziq olinishi mumkin. Bundan tashqari, vektorli grafikada tasvirlarni yaratishda nuqtaga nisbatan umumiyroq bo`lgan chiziqlardan foydalaniladi va shuning hisobiga tasvirlar aniqroq ko`rinishga ega bo`ladi. Vektorli grafikaning afzallik tomoni tasvirning xotirada kamroq joy olishidir, chunki bu holda xotirada joy chiziq o`lchoviga bog'liq bo`lmagan ravishda bo`ladi. Buning sababi xotirada chiziqning o`zi emas balki uni ifodalovchi formula yoki parametrlar saqlanishidadir. Vektor grafikaning ixtiyoriy tasviri chiziqlardan tashkil topadi va oddiy chiziqlardan murakkablari hosil qilinadi. Vektorli grafika reklama agentliklarida, loyihalashda, nashriyotlarda va boshqa joylarda keng qo`llaniladi.

Adabiyotlar

1. Бурлаков М. CorelDraw12 в подлиннике. Т.: БХВ-Петербург, 2004. – с. 81-143.
2. Mamarajabov M.E., Tursunov S.Q., Nabiulina L.M. Kompyuter grafikasi va web-dizayn: darslik. O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi. – Toshkent: Cho`lpon nomidagi NMIU. 2013. 376-b. (ISBN 978-9943-05-601-5).
3. Миронов Д.Ф. CorelDraw X3. Учебный курс. – СПб.: Питер, 2006. – 397 с.
4. Миронов Д.Ф. Corel DRAW 12. Учебный курс. – СПб: Издателбство Питер, 2004. – 442 с. (ISBN 5-94723-897-7).
5. Михайлов С.М. Кулеева Л.М. Основы дизайна: Учеб для вузов/ Под ред. С.М. Михайлова – 2-е изд., М: «Союз Дизайнеров». 2002. – 240 с.
6. Петров М.Н. CorelDraw11. Самоучитель. – СПб.: Питер, 2003. – 624 с.
7. Чумаченко И.Н. CorelDraw12 Самоучитель. Т.:NTPress. Москва, 2005. – С.177-211.

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT



Сойиб ТАЖИБАЕВ
Ўзбекистон Давлат жисмоний тарбия институти доценти,
педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори

ЁШ СПОРТЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ

Мазкур мақолада ўсмир таэквондочиларнинг махсус жисмоний тайёргарлигида қўлланиладиган ҳаракатли ўйинлар табақалаштирилиб, спортчиларнинг доллё чаги зарба (оёқда ёндан зарба) кучини (мутлақ ва нисбий куч) ривожлантиришдаги самарадорлиги педагогик тажрибада асослаб берилганлиги юзасидан маълумотлар келтирилган.

Таянч тушунчалар: *ўсмир таэквондочилар, ҳаракатли ўйинлар, мутлақ ва нисбий куч, доллё чаги зарбаси.*

В статье изложены результаты педагогического эксперимента по обоснованию эффективности развития силы (абсолютной и относительной силы) удара доллё чаги у спортсменов с использованием дифференцированных подвижных игр в специальной физической подготовке юных таэквондистов.

Опорные понятия: *юных таэквондисты, подвижные игры, абсолютная и относительная сила удара доллё чаги.*

In article is described the results of pedagogical reports on basis of pedagogical experiences and their effectiveness todevelope (absolute and relative) dolly chagiforces forsportsmen who use the differentiated motional games in special physical training for young Taekwondo players.

Supporting concepts: *young taekwondo players, motional games, absolute and relative strength of the dolly chagi force.*

Мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спортга алоҳида эътибор қаратилмоқда [1]. Шу ўринда болалар спортининг ўрни ҳам беқиёсдир. Давлатимиз томонидан берилаётган эътибор миллат генофондини соғломлаштириш, ёшларимизни жисмоний тарбия ва спорт турларига жалб қилиш, уларнинг келажакда мамлакатимиз шарафини жаҳон ареналарида муносиб ҳимоя қилишга қодир спортчилар бўлиб етишишини таъминламоқда.

Таэквондо Олимпия ўйинлари таркибига 2000 йилда киритилган. Спортнинг ушбу турида спорт заҳираларини тайёрлашнинг мамлакатимиздаги мактаби ҳали етарлича ривожлангани йўқ, шунинг учун ўсмир таэквондочиларни тайёрлаш масалаларига катта эътибор қаратилиши зарур.

Спортнинг ҳар хил турларида амалга оширилган тадқиқотларда олинган илмий маълумотларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, ўсмир таэквондочиларнинг ўқув-машғулот жараёнида ўйин вазифаларини қўллаш бир қатор устуворликларга эга. Машғулотларни ўтказишнинг ушбу усули ўсмир ёшдаги мактаб болаларининг ёшга оид ва функционал хусусиятларига мос келади [2, 557; 3, 325; 4, 139]. Лекин ўқув-тренировка машғулотларда ўйин вазифаларини қўллаш амалиёти эстафеталарни ўтказишга ёки шуғулланувчиларнинг мустақил машғулотларига қаратилган холос. Айрим ҳолларда, махсус ўйин машғулотлари ўтказилади, лекин улар, ўз таркибига футбол, баскетбол ёки регби каби ўйинларни олади. Таэквондо бўйича ўқув адабиётларда бошланғич тайёргарлик босқичида ҳаракатли ўйинларни қўллаш масалалари тўлиқ амалиётга татбиқ этилмайди. Шу туфайли техник ҳаракатларга ўргатишнинг асосий вазифаларини ечиш ва зарурий жисмоний сифатларни ривожлантириш учун махсус ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикасини ишлаб чиқиш жуда долзарб ҳисобланади.

Тренерлар ўртасида ўтказилган сўровнома натижаларига кўра 78% респондентлар ўсмир таэквондочиларни махсус жисмоний тайёргарлигини оширишда ёрдам берувчи ҳаракатли ўйинлар си-


фатида “Чаққон оёқлар жамоаси”, “Ким бир оёқда тез югуради”, “Панжа уриш”, “Тарвузни отиш эстафетаси”, “Тўлдирма тўплар билан югуриш”, “Чигиртка”, “Бир дақиқа юзта зарба”, “Ким чаққонроқ”, “Кенгурулар”, “Сакровчи чумчуқлар”, “Хўрозлар жанги”, “Тиззани букиб ўтириш”, “Ким кучли”, “Чизиқ ташқарисига” ва бошқа ўйинларни тавсия этишган.

Таэквондочиларнинг доллё чаги зарба кучининг (оёқда ёндан зарба) ривожланганлиги ҳам бевосита уларнинг махсус жисмоний тайёргарлигини баҳолашда энг ахборотли кўрсаткичлардан бири ҳисобланади [2, 557]. Юқорида келтирилган фикр мулоҳазаларга таянган ҳолда тажрибаларда ўсмир таэквондочиларнинг доллё чаги зарба кучининг ривожланганлигини баҳолашга ҳаракат қилдик.

Ўсмир таэквондочиларнинг махсус жисмоний тайёргарлигини аниқлашда профессор Р.Д. Халмухамедов ва С.С. Тажибаевлар томонидан такомиллаштирилган “Юқори малакали боксчиларнинг махсус жисмоний тайёргарлигини аниқлаш” (СПУДЭРГ-4) компьютер дастуридан фойдаланилди [5].

Бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи 10-11 ёшли ўсмир таэквондочиларнинг тайёргарлигида қўлланилган ҳаракатли ўйинларнинг самарадорлигини аниқлаш юзасидан ўтказилган педагогик тажриба натижалари қуйидагича бўлди. 10 ёшли ўсмир таэквондочиларнинг махсус жисмоний тайёргарлиги динамикаси юзасидан маълумотлар 1-расмда тақдим этилган. Унга кўра НГидаги ўсмир таэквондочиларнинг вазн оғирлиги ўқув йили бошида ўртача 33,4 кг.ни, йил охирига бориб 37,8 кг.ни ташкил этган. Вазн ортиши мос равишда 13,7%га етган.

(кг, %)



1-расм. 10 ёшли ўсмир таэквондочиларнинг махсус жисмоний тайёргарлиги динамикаси.

Педагогик тажрибадан олдин, назорат ва тажриба гуруҳи спортчиларининг чап оёқда бажарган доллё чаги зарба кучи, ўртача 56,7±6,90 ва 57,4±8,27 кг.га тенг эканлиги аниқланди. Кўрсаткичлар орасида статистик фарқлар ишончлилиги мавжуд эмас ($p>0,05$).


Анъанавий машғулотларда шуғулланган назорат гуруҳидаги 10 ёшли ўсмир таэквондочиларнинг доллё чаги зарба кучининг йиллик ўсиши 5,82%га тенг.

Спорт турига турдош бўлган ҳаракатли ўйинлар ўқув-машғулотлар жараёнига татбиқ этилгач, тажриба гуруҳи спортчиларининг доллё чаги зарба кучи мос равишда 21,6% га ўсганлигини ўтказилган математик статистик таҳлилларда аниқланди. Ушбу ёшдаги назорат ва тажриба гуруҳи спортчиларининг куч сифатини ривожланиш динамикаси ўзаро қиёсий таҳлил этилганда 15,78%га тенг бўлган фарқлар аниқланди.

Ўнг оёқда бажарилган доллё чаги зарба кучи 10 ёшли назорат гуруҳидаги таэквондочиларда йил бошида ўртача 60,18 кг., ТГ спортчиларида ушбу натижа 58,84 кг.га тенг эканлиги аниқланди. Кўрсаткичлар орасида ишончли статистик фарқлар аниқланмади (p>0,05).

Йиллик цикл ўқув-машғулотларидан сўнг, 10 ёшли ўсмир таэквондочиларнинг махсус жисмоний тайёргарлиги динамикасини аниқлаш юзасидан ўтказилган педагогик тестлаш натидасида НГ спортчиларининг ўнг оёқда бажарган доллё чаги зарба кучининг ортиши мос равишда ўртача 9,28 кг.га етган (2-расм).

(кг, %)



2-расм. 11 ёшли ўсмир таэквондочиларнинг махсус жисмоний тайёргарлиги динамикаси.

Тажриба гуруҳида шуғулланувчи ўсмир таэквондочиларнинг ўнг оёқ зарба кучи йил сўнгига бориб 76,38±6,62 кг.ни, ортиш 29,8%ни ташкил этди. Назорат ва тажриба гуруҳи таэквондочиларининг махсус жисмоний тайёргарлиги натижаларини қиёсий солиштирилганда ишончли статистик фарқлар борлиги аниқланди (p<0,001).

Назорат ва тажриба гуруҳидаги 11 ёшли ўсмир таэквондочиларнинг вазни йил бошида мос равишда ўртача 35,2 ва 34,8 кг.ни ташкил этди. Кўрсаткичлар орасида статистик фарқлар ишончли эмас (p>0,05). Йил охирида назорат гуруҳи таэквондочиларнинг вазни ўртача 39,4 кг.ни, тажриба гуруҳи таэквондочиларида эса ўртча 38,2 кг.ни ташкил этган.

Доллё чаги зарба кучи (чап оёқ) йил бошида назорат гуруҳида мос равишда ўртача 61,22 кг.ни, йил оҳирида ушбу кўрсаткич ўртча 67,14 кг.ни ташкил этган. НГидаги 11 ёшли ўсмир таэквондочиларнинг куч сифатининг ортиши 9,6%га тенг.

Тажриба гуруҳидаги 11 ёшли ўсмир таэквондочиларнинг чап оёқда бажарган доллё чаги зарба кучи педагогик тажрибадан олдин мос равишда ўртача 60,14±14 кг.ни, ҳаракатли ўйинларни қўллаган ҳолда ўтказилган тажрибалар натижасида ушбу гуруҳдаги спортчиларнинг чап оёқда бажарилган доллё чаги зарба кучи мос равишда ўртача 74,87±9,46 кг.ни ташкил этди. Мазкур гуруҳдаги спортчиларни куч сифатининг йиллик ўсиши 24,50%га етган. Педагогик тажрибадан олдин ва кейинги натижаларни қиёсий солиштирилганда кўрсаткичлар орасида ишончли статистик фарқлар p<0,005 га тенг.

Ўнг оёқда бажарилган доллё чаги зарба кучи (11 ёш) назорат ва тажриба гуруҳларидаги таэквондочиларда йил бошида деярли бир-бирига яқин натижалар қайд этилди (66,82±7,45; 66,82±8,14).

11 ёшли назорат гуруҳи таэквондочиларининг ўнг оёқ зарба кучининг йиллик ўсиши ўртача 9,67%, тажриба гуруҳи спортчиларида эса мазкур кўрсаткич 21,67%га тенг эканлиги аниқланди. Кўрсаткичлар орасида статистик фарқлар ишончлилиги p<0,001 га тенг.

Ўсмир таэквондочиларнинг машғулотларида махсус ўйин вазифаларини қўллаш, кичик мактаб ёшидаги болаларнинг психик хусусиятларига энг тўлиқ мос келадиган шароитларни юзага келтиради. Бу бошланғич тайёргарлик босқичида ҳаракат қобилиятларининг оптимал ривожланишига ва уларни юксак спорт маҳорати босқичида такомиллаштириш учун потенциални сақлашга кўмаклашади.

Таэквондочиларнинг машғулотлари таркибига ўйин вазифаларини киритилиши, жисмоний сифатларини муваффақиятли ривожлантиришга кўмаклашиши исботланган. Тажриба гуруҳида махсус жисмоний тайёргарлиги мутлоқ ва нисбий куч каби кўрсаткчилари назорат гуруҳиникига нисбатан ишончли даражада юқори бўлди. Тажриба гуруҳида чап оёқда бажарилган доллё чаги зарба кучининг ортиш даражаси назорат гуруҳиникига нисбатан 10-11 ёшлиларда 15,7%, 14,9 %га юқори бўлди, ўнг оёқда бажарилган доллё чаги зарба кучи 15,5%, 5,9% га юқори бўлди.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 мартдаги “Ўзбекистон спортчиларини 2020 йилда Токио шаҳрида (Япония) ўтказиладиган XXXII Олимпия ўйинлари ва XVI Паралимпия ўйинларига тайёрлаш ҳақида”ги ПФ-2821-сон Фармони.// http://lex.uz/docs/3577565

2. Абдурасулова Г.Б., Нуритдинова Ш.Н., Тажибаев С.С. Таэквондо назарияси ва услубияти. Дарслик. Тошкент – 2015. – 557 бет.

3. Глебов Е.И. Таэквондо. Основы олимпийского спарринга /Е.И. Глебов, Чой Сунг Мо. – Ростов-н/Д: Феникс, 2002.– 320 с.

4. Ли Чжон Ки. Технико-тактические характеристики соревновательного спарринга в таэквондо ВТФ: Дис.... канд. пед. наук. – М., 2003. – 139 с.

5. Халмухамедов Р.Д., С.С.Тажибаевлар яратган “Юқори малакали боксчиларнинг махсус жисмоний тайёргарлигини аниқлаш (СПУДЭРГ-4)” компьютер дастури Ўзбекистон Республикаси электрон машиналари учун дастурлар давлат реестрида 14.03.2013 йилда Тошкент шаҳрида рўйхатдан ўтказилган, талабнома рақами DGU 2013 0032.



Акмал ТАНИБЕРДИЕВ
Старший преподаватель Гулистанского
государственного университета

К ВОПРОСУ О ВНЕДРЕНИЕ КЛАСТЕРНО-МОДУЛЬНОГО МЕТОДА В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС ПО ФИЗИЧЕСКОМУ ВОСПИТАНИЮ СТУДЕНТОВ

Ушбу мақолада кластер модули қўлланилган жисмоний тарбия дарсларини баҳолаш усулларига оид масалалар кўриб чиқилган. Баҳолаш усулларининг моҳияти, жисмоний тарбия жараёнини ижобий баҳолашдаги аҳамияти очиб берилган. Бундан ташқари, талабаларнинг эгаллаган билим, кўникма ва малакаларини аниқ ва мукаммал баҳолашда бу методлардан фойдаланиш йўллари кўрсатиб берилган.

Таянч тушунчалар: *кластер модули, кластер таҳлили, мукаммал баҳолаш.*

В статье рассматриваются актуальные вопросы внедрения новых информационных технологий в учебный процесс по физическому воспитанию студентов. Раскрывается сущность кластерно-модулъного метода и его роль в структуре образовательного процесса физического воспитания студенческой молодёжи.

Опорные понятия: *кластерно-модульный метод, кластерный анализ, индивидуальный подход.*

In this article is conducted and studied the issues related to the usage of Modern Information Technology for students in Physical Training. Furthermore, the article includes practical usage and role of Cluster-modular method in Physical Training classes.

Supporting concepts: *cluster-modular method, cluster analysis, individual approach.*

Проблема совершенствования процесса физического воспитания студентов уже многие годы является предметом внимания специалистов [2,4,5,6,7 и др.]. Высшие учебные заведения комплектуются преимущественно из юношей и девушек, только что окончивших среднюю школу. Опыт показывает, что уровень физической подготовки основной массы абитуриентов остается низким, наблюдается тенденция к некоторому снижению уровня разносторонней физической подготовки [4]. Анализ литературных источников свидетельствует об ухудшении физического развития и физической подготовленности молодого поколения, прогрессировании дефицита двигательной активности студенческой молодежи [3,7].

Задача повышения эффективности физического воспитания подрастающего поколения являлась и является наиболее значимой на протяжении последних десятилетий.

В теории и на практике активно разрабатывались вопросы дифференциации, индивидуализации и профилизации обучения, интеграции содержания образования, внедрялась идея гуманизации [7]. Модернизация образовательной системы в нашей стране коснулась и вузовского физического воспитания.

По мнению специалистов, необходимо отказаться от жесткой нормативности, обязательности и авторитарности, подстраивания под заданный из вне стандарт, сформировать заинтересованное отношение студента к предмету, пробудить интерес к возможности строительства здорового тела, формирования собственного здоровья.

При формировании физической культуры у занимающихся акцент смещался на ее двигательный компонент в ущерб интеллектуальному и социально-психологическому [2].

Стратегическими направлениями преобразований в системе образовательных учреждений являются оптимизация учебной, психологической и физической нагрузки учащейся молодежи, создание условий для формирования и развития двигательной подготовленности обучающихся.

Обучение в вузе характеризуется значительным эмоциональным и интеллектуальным напряжением основных психологических функций, гипокинезией, наличием стрессовых ситуаций.

Как свидетельствуют материалы ряда публикаций, приоритетной задачей научного обоснования физического воспитания следует считать изучение процесса адаптации организма студентов к но-

вым условиям работы на производстве, в учебной деятельности, изобилующей большим количеством новых факторов, нагружающих психоэмоциональную и двигательную сферу студентов [3].

По мнению специалистов [3,6], студенты с более высокой двигательной подготовленностью лучше адаптируются к вузовским условиям и различным негативным факторам окружаюшей среды (социально-бытовым условиям, эмоциональному стрессу и др.).

Практические пути решения данной проблемы обусловлены, в первую очередь, изысканием новых форм, средств, методов дальнейшего повышения уровня физического развития, совершенствования двигательного режима студентов и реализацией индивидуального подхода к их физическому воспитанию.

Студенты представляют особую группу риска, которая чаще, чем другие социальные группы, подвергается действию неблагоприятных факторов окружающей среды, страдает различными заболеваниями.

В последние годы отмечается рост количества студентов, имеющих отставание в физическом развитии и функциональной подготовленности. [7].

Многие студенты не в полном объеме готовы к выполнению нагрузок, предусмотренных стандартной учебной программой.

Таким студентам трудно выполнять программу учебных занятий, построенных в рамках тренировочных режимов (в соответствии с физиологически обоснованными стандартами для данной возрастной группы) Это связанно с несоответствием нормативных тестов уровню физической подготовленности значительного числа студентов.

Положение усугубляется отсутствием у большинства студентов необходимой мотивации к занятиям физической культурой. Такие студенты нередко пассивны на практических занятиях, они избегают физических нагрузок, не проявляют настойчивости в достижении результатов, необходимых для оптимального функционирования всех систем организма. Остается важной задача активизации физической деятельности таких студентов. Это приводит к необходимости разрабатывать новые методики в обучении двигательным действиям студентов.

Методы контроля и оценки состояния здоровья и физического развития и подготовленности студентов соответствуют дидактической структуре кластерно-модульного метода.

Одним из достоинств модульной технологии является ее уникальность. Индивидуализация физического воспитания студентов, отстающих в физическом развитии и подготовленности, является одной из главных проблем учебного процесса в вузе.

Перспективным направлением решения этого вопроса является создание многоканальной системы информационных связей (от преподавателя или источника знаний - к студентам).

Реализовать возможности индивидуализации обучения можно только на основе обоснованной перестройки систем и методов преподавания физического воспитания, при которых прямые и обратные информационные связи со студентами станут многоканальными, а методы управления процесса физического воспитания - замкнутыми, т. е. использующими индивидуальные особенности. В этом отношении интерес представляет разработка новых оздоровительных и информационных технологий, базирующихся на достижениях программированного метода обучения и компьютеризации учебного процесса по физическому воспитанию.

Специфика новых информационных технологий по физическому воспитанию студентов с низким уровнем физической подготовленности предусматривает программно-методическое обеспечение занятий, наличие современных технических средств (автоматизированных обучающих и диагностических систем на базе ЭВМ).

В настоящее время интерес представляет разработка новых информационных технологий, базирующихся на достижениях модульного подхода обучения и компьютеризации учебного процесса по физическому воспитанию. Специфика новых информационных технологий по физическому воспитанию студентов предусматривает программно-методическое обеспечение занятий, наличие современных компьютерных средств [1].

Правильная оценка функционального и физического состояния имеет огромное значение, так как позволяет не только изучать влияние физических упражнений на организм, но и помогает диагностировать развитие и подготовленность студентов, устанавливать приспосабливаемость к физической нагрузке, определять ее оптимальность и т. п.

Кластер (информативное понятие) – незаполненная область файловой системы, участок (ячейка) неиспользованной памяти информационного носителя. Чем больше незаполненных ячеек (кластеров), к примеру, на жестком диске, тем труднее поиск необходимой информации.

Мыслительная деятельность, доминирующей мотивацией которой выступает постановка и решение личностно-значимой проблемы, может быть разделена на системные «кванты».

Модуль может быть представлен как учебный элемент в форме стандартизированного буклета, состоящего из следующих компонентов:

- точно сформулированная учебная цель;
- список необходимого оборудования материалов;
- список смежных учебных элементов;
- собственно учебный материал в виде краткого конкретного текста, сопровождаемый подробными иллюстрациями;
- практические занятия для отработки двигательных навыков.

В настоящее время остро стоит вопрос о поисках современных педагогических технологий, о разработке научных основ систематизации и анализа новых технологий обучения в физическом воспитании в условиях в высшей школы.

Считается, что в физическом воспитании внедрение новых информационных технологий обучения может решить самые разнообразные задачи: сообщение знаний, контроль за ходом их усвоения, демонстрация иллюстративного материала.

Е.Б. Соловьева (1996) считает важнейшей проблемой организации процесса физического воспитания поиск системы обучения, позволяющей контролировать в процессе учебной деятельности степень усвоения студентами нагрузок, полученных во время занятий, что дает возможность индивидуализировать физическое развитие личности.

Информационная перегрузка головного мозга вследствие эмоционального и интеллектуального напряжения (особенно в период экзаменационной сессии) вызывает так называемые информационные неврозы [2]. Эти патологические состояния вследствие умственного нервного переутомления вызывают соматические и вегетативные изменения.

Думается, что каждый из студентов чувствовал эти изменения, связанные с истощением функциональных возможностей нервной системы, выражающиеся в потливости, слабости, потере аппетита, быстрой утомляемости и раздражительности. Поэтому физическая культура и спорт в условиях напряженного умственного труда, дефицита времени, ограниченности двигательной активности (возможно, нежелания или просто лени) приобретают профилактическое значение, являясь средством реабилитации и восстановления оптимального (для молодого человека) психофизиологического состояния, помогают познать свой организм, научиться стимулировать его действия, уметь снять нервно-мышечное напряжение и психоэмоциональное утомление [8]. Это подтверждено в различных исследованиях, где статистически доказано снижение заболеваемости у студентов, повышение физической работоспособности и интеллектуальных возможностей у тех, кто целенаправленно (в период всех 4-5 лет обучения) использовал систему реабилитационных восстановительных мер.

Моделирование служит методом «опосредованного практического или теоретического оперирования объектом, при котором исследуется непосредственно не сам интересующий нас объект, а используется вспомогательная искусственная или естественная система («квази объект»), находящаяся в определенном объективном соответствии с познаваемым объектом, способная замещать его на определенных этапах познания и дающая при ее исследовании в конечном счете информацию о самом моделируемом объекте».

Деятельность преподавателя должна рассматриваться не только как предоставление каждому студенту структурированной, целенаправленной и мотивированной информации о понятийно-методологическом содержании, способах деятельности в областях использования знаний из различных разделов физического воспитания, но и как прямое и косвенное управление преподавателем физической активностью студентов по овладению навыками и умениями в соответствии с поставленными учебными целями.

Использование компьютеров в физическом воспитании дает большие возможности. В первую очередь это связано с легкостью обмена информации по Интернету.

Подводя итог, необходимо отметить, что индивидуализация уроков физического воспитания означает разработку систему динамического наблюдения (мониторинга) за физическим развитием, физической подготовленностью и двигательной активностью студентов. Организация мониторинга

во многом определяется научно-методологической основой понятия «индивидуальная физическая подготовленность».

Для адекватной, многофакторной оценки состояния здоровья студента и его физической подготовленности необходим системный подход.

Это возможно осуществлять только с помощью современных информационных технологий, кластерно-модульного метода обучения, который в физическом воспитании студентов используется лишь фрагментарно.

Применение современных информационных технологий позволяет радикально изменить стиль работы, обеспечить быстрый доступ к разнообразной информации и многое другое.

Все вышесказанное указывает на необходимость поиска новых форм оценки качества знаний, умений и навыков студентов по физической культуре.

В связи с вышеизложенным, внедрение современных информационных технологий в учебный процесс по физическому воспитанию студентов сегодня представляется весьма актуальным.

Литература

1.Изаак С.И., Панасюк Т.В. Физическое развитие и физическая подготовленность в системе мониторинга состояния физического здоровья населения (возрастно-половые особенности студентов). Теория и практика физической культуры. 2004, № 11. – С. 51-52.

2. Коджешау М.Х. Факторы, определяющие физкультурно-спортивную активность студентов // Теория и практика физической культуры. 1996. – С.56.

3. Козлов В.И. Прогрессирование дефицита двигательной активности у студенток и выбор средств его компенсации: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Малаховка, 1995. – 16 с.

4. Лимаренко О.В. Система управления качеством физкультурного образования: постановка проблемы и перспективы // Теория и практика физической культуры. 2005, № 6. – С. 8.

5. Лубышева Л.И., Грузных Г.М. Теоретико-методологическое обоснование физкультурного воспитания студентов // Теория и практика физической культуры. 1991. – № 6.– С. 9-12.

6.Старкова Е. В. Модульная технология развития двигательных координации у студенток в процессе физического воспитания. Автореф дисс. … канд.пед.наук. – Пермь, 2006. – 24 с.

7. Юров Ю.Н. Интегральный подход в использовании информационных оздоровительных технологий при кластерно-модульном методе обучения в системе физического воспитания студентов с ослабленным здоровьем / Ю.Н. Юров // Вестник Тамбовского университета. Серия: Естественные и технические науки. – Тамбов, 2006. – Т. 11, вып. 4. – С. 500-507. (Перечень ведущих рецензируемых журналов ВАК 2006 г.).

8. Цветков В.Н., Буланова Г.В. Особенности влияния различных видов физических упражнений на эмоциональное состояние студентов // Теория и практика физической культуры. 1990. – № 2. – С. 34.



Меҳриддин АБДУЛЛАЕВ
Бухоро давлат университети
факультетлараро жисмоний маданият
ва спорт кафедраси доценти

ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИНГ ЎСМИР ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАР МАШҒУЛОТ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ

Мазкур мақолада бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ўсмир спортчиларнинг жисмоний техник-тактик ва психологик тайёргарликларида ҳаракатли ўйинларнинг самарадорлигини аниқлаш юзасидан ўтказилган тадқиқотлар хусусида фикр юритилади.

Таянч тушунчалар: *ўсмир спортчилар, ҳаракатли ўйинлар, жисмоний тайёргарлик, техник-тактик тайёргарлик, психологик тайёргарлик.*

В данной статье размышляется результаты исследований по распределению эффективности применения подвижных игр в физической, технико-тактической и психологической подготовки юношей, занимающихся на этапе начальной подготовки.

Опорные понятия: *юноши, подвижные игры, физическая подготовка, технико-тактическая подготовка, психологическая подготовка.*

In given article is analyzed the results of studies on the distribution of the effectiveness of motional games in physical, technical and tactical and psychological training of youth who involved in the initial training phase.

Supporting concepts*: young men, outdoor games, physical training, technical and tactical training, psychological preparation.*

Мамлакатимизда спортга, айниқса, болалар спортига эътиборнинг кучайиб бориши миллат генафондининг яхшиланишида, ёш авлод вакилларининг ҳар томонлама баркамол бўлиб вояга етиши учун шарт-шароит яратмоқда.

Хусусан, Президентимиз Ш.М. Мирзиёев томонидан жисмоний тарбия ва спортга алоҳида эътибор қаратилмоқда [1]. Шу ўринда болалар спортининг ўрни ҳам беқиёсдир. Юртбошимиз томонидан берилаётган эътибор миллат генофондини соғломлаштириш, ёшларимизни жисмоний тарбия ва спорт турларига жалб қилиш, уларнинг келажакда мамлакатимиз шарафини жаҳон ареналарида муносиб ҳимоя қилишга қодир спортчилар бўлиб етишишини таъминламоқда. Биз биламизки, енгил атлетиканинг қисқа масофаларга югуриш тури бутун дунёда оммалашган спорт турларидан ҳисобланади. Спорт натижалари кундан-кунга ўсиб бориши бошланғич тайёргарлик босқичида қисқа масофаларга югурувчи ўсмирларни йиллик тайёгарлик машғулотларини оптималлаштиришни тақозо этмоқда.

Енгил атлетика назарияси ва услубияти соҳасида кўплаб олимлар томонидан илмий тадқиқот ишлари ўтказилган [2; 9]. Ўтказилган тадқиқот ишларида бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ўсмир енгил атлетикачиларимиз яхши спорт натижасига эриша олмаганлиги машғулот жараёнини такомиллаштириш зарурияти мавжуд.

Мутахассисларнинг фикр-мулоҳазаларига кўра, ўсмир спортчиларнинг тўлақонли жисмоний ривожланиши ва уларнинг жисмоний сифатларини тарбиялаш, спорт турининг дастлабки техник ҳаракатлари элементларини ўзлаштириш учун пойдевор айнан бошланғич тайёргарлик босқичига амалга оширилиши мақсадга мувофиқ экан [4; 290].

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда ўсмир енгил атлетикачиларни тайёрлаш тизимида ҳаракатли ўйинларни қўллаш аҳамиятини ўрганиш мақсадга мувофиқ.

Ёш спортчиларнинг ўқув-машғулотлари жараёнида ҳаракатли ўйинларни қўллаш самарадорлигини аниқлаш юзасидан ўтказилган илмий текшириш ишларида кўришимиз мумкин. М.А. Қурбонова томонидан волейбол спорт турининг ўзига хос хусусиятларига мослаштирилган халқ ҳаракатли ўйинларидан фойдаланган ҳолда машғулотларни ташкил этиш катта самара бериши тажрибада асослаб берилган. Қуйидаги тестларда натижаларнинг жиддий ўсиши кузатилади:

а) жисмоний тайёргарлик бўйича;

- ўғил болаларда: юқори стартдан 30 м.га югуриш -0.57 с, жойидан туриб баландликка сакраш-13.11 см, тўлдирма тўпни (1кг) икки қўллаб бош ортидан тик турган ҳолда улоқтириш - 2.43 м.

б) техник тайёргарлик бўйича;

-ўғил болаларда: пастдан тўғри тўпни киритиш аниқлиги, тўпни қабул қилиш ва уни 6-зонадан 3-зонага етгазиб бериш - 25%.

в) тактик тайёргарлик бўйича;

-ўғил болаларда: 3-зонадан 4- ёки 2-тўп узатиш (орқа билан туриб). Топшириқ бўйича шу зонадаги ўйинчилар зарбли уришни таъкидловчи ҳаракатларни бажариш - 26.7% [6,127].

Эркин курашда бошланғич спорт ихтисослашуви босқичида халқ ҳаракатли ўйинларидан фойдаланиш шуни кўрсатадики, ёш курашчиларнинг дастурни безарар эгаллашлари учун умумий вақт сонига нисбатан тахминан 18 дақиқа вақтни ҳар бир машғулотда ихтисослаштирилган ҳаракатли ўйинларга ажратиш керак. Оддий техник ҳаракатларни самарали ўзлаштириш учун тўрт хилдаги 3 дақиқали ўйинларни комбинацион йўналишдаги иккита ўйин билан бирга ўтказиш етарли бўлади. Ёш курашчиларни ўргатишда қўлланган махсус ҳаракатли ўйинлар умумий жисмоний тайёргарликдан кўра махсус тайёргарликка кўпроқ самарали таъсир этиши аниқланди. Бу ерда “ҳужум” ва “ҳимоя” сигналларига реакция қилиш тезлигида ва, айниқса, техник-тактик тайёргарлик кўрсаткичларида аниқ статистик ишончли фарқлар ($P<0.05$) кузатилади [3, 22].

Ўйин усули ва махсус йўналишга эга ўйин воситаларидан фойдаланган ҳолда ўтказиладиган машғулотлар ёки қиличбозлар махсус сифатларини самарали ривожланишига ёрдам беради ($P<0.05 – 0.001$). Ўйин ва ўйин машқларининг қўлланиши шуғулланувчиларнинг жисмоний ва махсус тайёргарликлари, тезлик-куч сифатлари, чидамлилик, ҳаракат координацияси, шунингдек, санчишлар аниқлиги ва қуролни бошқариш тезлигига ($P<0.05-0.001$) биргаликда таъсир кўрсатади [8, 23].

Энди шуғулланаётган ёш енгил атлетикачиларнинг ҳар томонлама жисмоний тайёргарлиги тузилишида ҳаракатли ўйинлардан фойдаланишда қуйидаги нисбатлар тавсия қилинади:

-тезлик-куч қобилиятларини такомиллаштиришга қаратилган халқ ҳаракатли ўйинлари – 40%;

- чидамлиликни ривожлантиришга 20%;
- тезликни ривожлантиришга 20%;
- чаққонликни ривожлантиришга 10%;
- реакция қилиш тезлигини ривожлантиришга – 10%.

9-11 ёшдаги болалар билан ўтказиладиган жисмоний тарбия дарсларига умумий машғулот вақтига нисбатан 25% ҳажмда ҳаракатли ўйинлар мажмуаларининг киритилиши ҳар томонлама жисмоний тайёргарлик даражасини ва биринчи навбатда, югуриш тезлигини ишончли ($p<0.01$) оширишга имкон берди.

С.С. Тажибаев (2017) томонидан ўтказилган тадқиқот ишида бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи 11-13 ёшли боксчиларнинг спорт тўгаракларини ташлаб кетиш сабаблари ва спорт билан шуғулланишга бўлган мотивацияси аниқланган [7; 52].

- ёш боксчиларнинг махсус жисмоний тайёргарлигини аниқлаш дастури ишлаб чиқилди ва бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ёш боксчиларнинг умумий, махсус жисмоний тайёргарлиги ва жисмоний ривожланишининг ёшга хос динамикаси аниқланди;

- ҳаракатли ўйинлар ва бокс спортига хос ҳаракат фаолиятлари биокинематикаси ўзаро таққосланиб, ҳаракатларнинг ўхшашлиги аниқланган;

- бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи ёш боксчиларнинг ҳаракат тайёргарлигида қўлланиладиган ҳаракатли ўйинлар табақалаштирилди, ўйинларнинг шиддати ва ҳажми меъёрлари аниқланиб, уларни ўқув-машғулотлар жараёнига татбиқ этиш методикаси ишлаб чиқилиб самарадорлиги педагогик тажриба йўли орқали асослаб берилган.

Илмий-услубий адабиётлар таҳлили ва бошланғич тайёргарлик босқичида шуғулланувчи енгил атлетикачиларнинг ўқув-машғулотлар жараёнида ўтказилган педагогик кузатишлар натижасида мазкур спорт тури билан шуғулланувчиларнинг ёш хусусиятини инобатга олган ҳолда уларнинг жисмоний, техник-тактик ва психологик тайёргарлигида ҳаракатли ўйинларнинг қўлланилмаслиги аниқланди.

Олинган маълумотларга таянган ҳолда қуйидаги хулосаларга келинди:

-ҳаракатли ўйинлардан мақсадли фойдаланган ҳолда 9-11 ёшдаги ўсмир енгил атлетикачиларни тайёрлаш тизими самарадорлигини ошириш методикасини ишлаб чиқиш ва тажрибада асослаб бериш;

-ўсмир енгил атлетикачиларни жисмоний ва психологик тайёргарлигида қўлланиладиган ҳаракатли ўйинларни назарий ва амалий таснифлаш;

-9-11 ёшдаги енгил атлетикачиларни умумий ва махсус жисмоний тайёргарлигининг ёшга хос динамикаси хусусиятларини аниқлаш;

-бошланғич тайёргарлик босиқчида шуғулланувчи ўсмир енгил атлетикачиларни ўқув-машғулотлари жараёнида ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикаси мазмуни ва йўналишини ўрганиш;

-табақалаштирилган ҳаракатли ўйинлардан фойдаланган ҳолда 9-11 ёшдаги енгил атлетикачиларнинг ҳаракат тайёргарлигини ошириш методикасини ишлаб чиқиш ва тажрибада асослаб бериш зарурати мавжуд.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 мартдаги “Ўзбекистон спортчиларини 2020 йилда Токио шаҳрида (Япония) ўтказиладиган XXXII Олимпия ўйинлари ва XVI Паралимпия ўйинларига тайёрлаш ҳақида”ги ПФ-2821-сон Фармони.//http://lex.uz/docs/3577565

2. Андрис Э.Р., Қудратов Р.Қ. Енгил атлетика. – Т., 1998 – 124 с.

3. Балдаев К.В. Подвижные игры на этапе начальной спортивной специализации в вольной борьбе. Автореф. дисс....кан.пед.наук. – М., 1986. – 22с.

4. Волков Л.В. Теория и методика детского и юношеского спорта. Киев Олимпийская литература. 2002. – 290 с.

5. Қудратов Р.Қ., Енгил атлетика. Дарслик. – Тошкент, 2012. – 367 б.

6. Қурбонова М.А. Бошланғич тайёргарлик даврида ёш волейболчиларни танлаш ва машғулот жараёнида халқ ҳаракатли ўйинларидан фойдаланиш. Пед.фан.ном. дисс. Тошкент, 2006. – 127 б.

7. Тажибаев С.С. Ёш боксчиларни тайёрлаш тизимида ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикаси. Пед....фан....бўй...фал....док...[PhD] диссер... автореферати. – Т., 2017. – 52 б.

8. Фель В.А. Игровой метод развития специальных качеств фехтовальщиков в группах начальной спортивной подготовки. Автореф. дис. … канд. пед. наук.– Минск, 1989. – 23с.

9. Шакиржонова К.Т., Тухтабоев Н.Т. Основы техники, методика обучения и тренировки в беге на короткие дестанции. – Т., 2012. – 143 с.

MUTOLAA

БИР ДОСТОН ТАҲЛИЛИ

Шундай асарлар бор: ўқийсиз-уқасиз, уқасиз-ўқийсиз... Руҳингиз оғриққа тўлади, вужудингизда сирқироқ азобни туясиз. Дунё асрлар оша кўз ўнгингизда гавдаланади. Асрлар дунёга айланади – макон ва замонлар туташади. Одам Ато бўлиб қад ростлайсизу, дунёнинг у бурчидан бу бурчига зир югурасиз. Бу – ўзликни англаш сари етаклайдиган азоб. Ибтидодан интиҳога, интиҳодан ибтидога бориб қоласиз. Аммо асарни тавсифлаб билмайсиз. Кўнгул сўзга кўчишга имкон тополмайди. “Ёбондаги ёлғиз дарахт” достонини ўқиб шу ҳолга тушдим. Тўғри, ҳар бир сатр мутолааси давомида руҳимда туйғулар ранг-баранг бўлиб боргани сайин шууримда фикрлар бўронга айланди. Аслида бадиий асарнинг инсон ҳаётидаги муҳимлиги шундан.

Икром Отамурод – истеъдодли шоир, маҳоратли шоир. Шу маънода достон шоир имкониятларини намойиш қила олган. Эзгулик ва ёвузлик кураши аро эзгуликнинг башарга мададкорлиги бадиий асарда акс эттириладиган асосий жиҳатдир. Баъзан ёвузликнинг ғолиблиги акс эттирилса, жимиб қоламиз. Эсланг, “Қиёмат”да Тошчайнар ва Акбаранинг сўнгги умиди – боласини Бозор ўғирлайди ва йўл-йўлакай Бўстоннинг хонадонига кириб ўтади. Ёвузликни қарангки, у айбини Бўстондай покиза одамга тўнкаб кетади. Даҳри дуннинг шафқатсизлигини кўрингки, Бозорнинг гуноҳи учун Бўстон тўлов тўлади. Тўлов – Бўстондан ҳам покиза хилқат, Бўстоннинг ҳали гуноҳ қилмаган боласи. Демак ёвузлик қилган гуноҳ учун эзгулик жавоб берар экан да. Ахир Ҳобилни Қобил ўлдирди-ю, азобни Одам Ато тортди-ку! “Лекин” бор. Ўша Қобил Одам Атонинг фарзанди-да. Бу уч асар: достон, роман ва ривоятда бир ҳақиқат бор. Эзгулик бағрида ёвузлик бунёд бўлиши, ёвузликнинг интиҳосида эзгулик барпо бўлиши мумкин. Бу икки зиддиятнинг кураши боқий. Ҳар гал бири бирини енгади. Айни дамда, енгишда енгилиш бор. Шўро даврида айнан шу ҳақиқатни инкор этишга уриниш адабиётни қолипга солди. Буткул ижобий, буткул салбий қаҳрамон яратишга ихтисослашиш бошланди. Ҳолбуки инсон вужудида эзгуликнинг ҳам, ёвузликнинг ҳам уруғи бор. Қайси бири кўкариб, илдиз отиши кўп нарсага боғлиқ экани ҳақида фан асрлардирки баҳслашиб ётибди. Аммо мукаммал ечимнинг ўзи йўқ. Китобхон “Ёвузликнинг гуноҳи учун эзгулик жавоб берса, азоб тортса, эзгулик енгилса, ёвуз бўлиш яхшироқ экан” – дея хулоса бердингиз-ку қабилида бизни айблашга шошилмасин. Ёвузликка қарши курашга отланган эзгулик ҳар бир қадамини англаб босмаса, биргина хатоси билан ҳам ёвузликка томон қадам ташлайди. Оқибатда янги ёвузлик туғилади. Ёвузлик берган чексиз азобни англаб туриб ҳам эзгуликдан кечмаган инсон нафақат шайтанатдан узоқлашади, балки инсонийликдан илоҳийликка томон йўл топади. “Ёбондаги ёлғиз дарахт” достонида ана шуни англатиш бор. Агар шу хулоса бўлмаганда достоннинг бадиий адабиётлиги йўқоларди.

Инжатаъб мунаққид А.Улуғов шундай ёзади: “Дарахтнинг бу қадар туйғу, ҳиссиётлар уйғотиши унинг одамларга, жонзотларга паноҳ бўлгани билан боғлиқ. Дарахт яхшилик қилгани боис унинг фожиаси ҳеч кимни бефарқ қолдирмайди. Шоир ёбондаги ёлғиз дарахт тимсолида эзгулик ҳеч қачон унутилмаслиги, кишиларни бефарқ қолдирмаслигини таъкидлайди”[1]. Эзгуликнинг ҳимоячилари: саховат, яхшилик, қадр, меҳр, субут, ҳақлик. Ёвузликнинг аскарлари эса очкўзлик, беписандлик, хусумат, ғийбат, таъма, худбинлик, кибр, хиёнат, нафс... Шоирнинг ёндашуви бўйича, Ёбон – дунё, Ёбон – инсоният. Ёбондаги ёлғиз дарахт – эзгулик. “Ёбондаги ёлғиз дарахт” эзгулик ва ёвузликнинг асрий курашини акс эттирар экан, эзгулик томон бўлиш улуғ азобдан туғилган фароғат, ёвузлик томонда бўлиш, аксинча, роҳатдан туғилган енгиб бўлмас, чидаб бўлмас оғриқ эканини образлар, манзаралар, воқеликлар орқали ўзига хос оҳанг кўмагида ифода этгани билан қадрлидир.

[1]Улуғов А. Қалб қандили. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.91.

Асар ғояси ҳақида имконимиз доирасида фикр юритдик. Достон бадиияти хусусида ҳам тўхталсак. Аввало, достоннинг ноодатий вазни ҳақида. Асарда эркин ва бармоқ вазни бирдай қўлланган. Баъзан эркин вазн бағридан бармоқ вазнининг бўй-басти кўриниб қолган. Муҳими, икки вазн ўзаро уйғунлик ҳосил қила олган, яъни китобхонни толиқтириб ёки зериктириб қўймаган. Муаллиф кайфияти, воқеаларнинг бориши асосидаги нисбий бўлинишларни достоннинг қисмлари деб ҳисобласак, "Ёбондаги ёлғиз дарахт" достони йигирма етти қисмдан иборат. Ўн беш қисми эркин вазнда, ўн қисми бармоқ вазнида ёзилган. Икки қисмида эса кўп нуқтадан сатр шакли ҳосил қилинган ва фақат бир неча сўз ёки сўз бирикмаси берилган. Эркин вазнда ёзилган деганимизга эътироз бўлмас:

Ёбон чексиз...
Масофа –УМИД...
Масофа – ХОТИРА...
УМИД – ХОТИРА туфроғи...
ХОТИРА – УМИД томири...
УМИД чарчаб йиқилган
Масофада
кўкара бошлайди
ХОТИРА...
...Ёбон чексиз...[1]

Бармоқ вазнида ёзилган деб билганимиз қисмларни ўқиганда оддий китобхон ҳам эътироз қилиши эҳтимолдан холи эмас. Негаки достоннинг бу қисмлари содда ва мураккаб бармоқ вазнида ёзилган бўлса-да, баъзан бир банднинг ҳижолар сони иккинчисидан фарқ қилиб қолгани ҳам кўзга ташланади. Баъзан бармоқ вазнида ёзилган қисмнинг ўзида эркин вазнда битилган ўринлар учрайди. Савол туғилади: бундай ҳолат ўзини оқлайдими? Айнан шу достонда ўзини оқлаган. Чунки асардаги ҳар бир сатр туғилган. Руҳиятимиз тўқиб чиқарилган сатрларни сезмади. Шунинг ўзи достон ритмини қабул қилишимизга имкон беради. Аммо иккинчи бир ижодкор достонда мавжуд ритмдан, шаклий жиҳатлардан фойдаланаман деса, уддаламас, сунъийлик юзага келиши мумкин. Достоннинг турли қисмларида учрайдиган нуқталардан иборат сатр шакли, яъни шартли белгилар меъёридан сал ошганини таъкидлаш жоиз. Бу таъкид олима Д. Қувватова монографиясида ҳам учрайди[2].

Биз достонлар вазни ҳақида мунозара қилиш фикридан йироқмиз. Замонавий достончилигимиз вазни ва ифода усулига кўра ранг-баранглашиб кетди. "Ёбондаги ёлғиз дарахт" лирик достонми? Фалсафий ёки рамзий достонми? Аслида достон табиати ҳақида фикрлаганда бу номланишлар нисбийлик касб этади. Чунки достон дейишга лойиқ асарда лириклик ҳам, рамзийлик ва фалсафийлик ҳам бирдай бўлиши керак. "Ёбондаги ёлғиз дарахт"да шу хусусиятларнинг бари мужассам.

Достондаги табиат тасвирлари – пейзаж ўзбекона. Ундан Ватанимиз ифори келади:

...Ёбон чексиз...
Қўзигуллар келди ёбонга,
Ёбонга келди қизғалдоқлар.
Таради ҳаволар тароват,
яшнаб кетди тап-тақир ёбон.
Қўзигуллар ҳидидан сархуш,
қизғалдоқлар жамолига маҳлиё
тўрғайлар
сирларини айтди
живирлаб
ЁБОНДАГИ ЁЛҒИЗ ДАРАХТга...
...Ёбон чексиз... (150-бет)

[1]Икром Отамурод. Тағаззул. – Тошкент: Шарқ НМАК, 2008. – Б.145 (Достондан келтирилган кейинги мисолларда манбанинг фақат бети берилади).
[2]Қувватова Д.ХХ аср иккинчи ярмида ўзбек поэмаси. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – Б. 157.

Лирик чекиниш – шоир чизаётган манзараларига, айтаётган фикрларига, бераётган ифодаларига сиғмай қолганда туғилади. Шу сиғмаслик мотиви сатрларга кўчгач, шоир яна асар воқелигига қайтади, одатда. Достондаги лирик чекинишларда ўзига хос фалсафийлик бор. Улар – Икром Отамурод дунёсини очиб берувчи очқич:

Тингласанг, ўзингни ўзинг тингла,
Ўзинг – имкон таянган тоқат...
Англасанг, ўзинг ўзингни англа,
Ўзинг топгил ўзингни фақат (151-бет).

Аслида бу сатрлар – тафаккурли инсонларнинг кўнглини тинглай оладиганларни ёлғизликка маҳкум этган XXI асрнинг ўзига хос фожиаси ифодаси.

Достонннинг ютуқлари ҳақида кўп фикр билдириш мумкин. Яна бир масалага дахл қилмоқчи эдик: достоннинг тили. Истеъдодли ва элпарвар шоирлар она тилимиз имкониятларидан унумли фойдаланадилар, одатий тилга шевадан сўз олиб кирадилар, қадим сўзларни тирилтирадилар. Янги сўз ясайдилар. Икром Отамурод достонида айтганларимизнинг бари бор. Ёбондаги ёлғиз дарахт” достонининг яна ҳам қадрли жиҳати шуки, унда она тилимиз имкониятларидан етарлича фойдалана олинган. Шоирдаги бу ютуқни олим А.Улуғов ҳам алоҳида эътироф этади[1].

Шеърият – улуғ даргоҳ, тил имкониятларини юзага чиқариш майдони ҳамдир. У гоҳо тилшуносликайтган қоидаларга зид ҳолатларни юзага келтиради. Натижада тилшунослар қоида айтиб туриб, “Қоиданинг истисноси бор”, – дейдилар. Икром Отамурод ўзлик нисбат қўшимчасини олмайди деб ҳисобланган сўзларга -ин ва -ил қўшимчаларини қўша билган:

Айтинсанг, ўзинг ўзингга айтин,
ўзинг кўксинг ғамларин сила...
Қайтинсанг, ўзинг ўзингга қайтин,
ўзинг руҳинг руҳига белан... (151-бет)

Ушбу сатрда ҳам қоидага зид ҳолат бор: “Тез келди тошиб-тошиб ёбонга сел... Яйралди”. Мисралардаги “айтинсанг, айтин, қайтинсанг, қайтин, яйралди” сўзлари фикримизни далиллайди. Достонда қўлланган сўзларга эътибор қилинг: буюқ, арзул очири, армондил, саққоқ, сунут, ярзоқ, гиргирон, сирсирон, ҳовар, заррот, либосал машлаб, нимса, эктивор... Бу сўз ва сўз бирикмаларининг айримларини тушундик, айримларини англашга қийналдик. Демак бу асар устида тилшунослар ишламоқлари зарур. Бундан илм наъф топади, айни дамда, ёш ижодкорлар учун ҳам сабоқ бўлади.

Достонда “...Ёбон чексиз...” деган жумла кўп бор такрорланган. Бу сатр достон қисмларини, воқеликларни ўзаро туташтириб турувчи ипдир.

Достоннинг тугуни: Ёбоннинг чексиз экани, унда бир савобгарнинг “кўнглуда ўсиб ҳиммат”, “беминнат дарахт эккани”дир. **Воқеалар ривожида** шоир ёбондаги ёлғиз дарахтнинг кечмишларини, унинг дил туйғуларини ифодалаган. Дарахтда дил, туйғу бўладими?! Ҳа, адабиёт бутун борлиқни инсон мисоли шахслантира олгани билан қудратли:

... Ёбон чексиз...
Меҳрга тўла эди
ЁБОНДАГИ ЁЛҒИЗ ДАРАХТ...
Ўзи меҳрга зору зор бўлган,
жовдираб-жовдираб кўз тутган,
ёлғиз дарахтнинг ёбондан ўтгувчи
ва
қайтгувчиларга
бирдай меҳр кўргузгувси келарди мудом... (151-152-бет)

Зиддиятлар чўққиси – кульминацион нуқта берилган сатрларни ўқинг-у, инсониятнинг ибтидосидан бугунига, бугунидан ибтидосига қараб югуринг:

...Ўзига бино қўйган бир ўтгувчи,
Босар-тусарини билмаган бир ўтгувчи,

[1]Улуғов А. Ўша манба. – Б. 93.

Қўлтиғида тарвуз кўтарган бир ўтгувчи,
қаердан келаётганини,
қаерга бораётганини
билмаган бир ўтгувчи...
йўлга тушмоққа чоғланди... Ва...
кетаётиб эрмак учун ёқиб ёлғиз дарахтни,
эрмак учун қилди томоша...
Ва... йўлига кетди – муроди ҳосил...(163-бет)

Дунё ривожландими ё таназзулга юз тутдими? Шоир достонни ана шу ҳақиқатни англатиш учун яратган. Аслида ҳам асар шоир канглу ва идрокидаги тараққиёт ҳамда таназзул ҳақидаги баҳслардан дунёга келган. XXI аср бошларида самимиятга зор, диёнатли, содиқ, бетаъма дўстга интизор инсон ёлғизланиб қолди. Шу сабаб шеъриятда ҳам бу мотив кучайди. "Ёбондаги ёлғиз дарахт" достонида ёлғизлик ҳақида ёзмасликнинг имкони йўқ. Ифоданинг ўзига хослиги эътирофга лойиқ:

Ёлғизлик – сен руҳимнинг гули,
руҳимнинг қадоғи сен – ёлғизлик.
Ёлғизлик – сен руҳимнинг йўли,
руҳимнинг садоғи сен – ёлғизлик.
Ёлғизлик – сен руҳимнинг наргизи,
руҳимнинг оҳи сен – ёлғизлик.
Ёлғизлик – сен руҳимнинг дар изи,
руҳимнинг ёҳи сен – ёлғизлик (170-бет).

Ечимни кўринг:

...Ёбон чексиз...
...Тўппоққина кул тепасида
учиб-қўнар,
учиб-қўнар бир қушча.
Ниманидир излар бир қушча.
Чирқирайди, чирқирайди бир қушча (172-бет).

Интиҳо ва ибтидо чегарасида самони қуча оладиган жонзот образи бор. Бу жуда муҳим. Оддийроқ англаганда, бу қушча шу дарахт оғушида дунёга келиб, учишни унинг гувоҳлигида ўрганган. Дарахт – унинг ватани. Кулга айланган ватани устида бир қушча чирқирайди. Қуш – адабиётда жоннинг рамзи. Бугун башарнинг жони безовта: ўзини англамаган кимсалар эрмакка ёқиб кетиши мумкин бўлган ватани учун чирқираб, сизу-бизни уйғотмоқда. Уйғонинг, азизлар! Манқуртлар умумий уйимиз бўлмиш дунёга ўт қўймасидан олдин огоҳ бўлайлик. Достонни ўқиганларнинг руҳияти равшан, идроки уйғоқ, кўнгли ойна бўлса, шууридан юқоридаги фикрга уйқаш мулоҳазалар кечиб, ҳушёр тортади.

Хуллас, ажойиб достонни мутолаа қилдик ва кўнглимиздан кечганларни сизга билдирдик. Асар ҳақида ёзишган ва ҳали яна кўп бор ёзишади. Чунки шунга арзийди.

Лайло Шарипова
Бухоро давлат университети
бошланғич таълим кафедраси доценти,
филология фанлари номзоди

QUTLOV



Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi o`qituvchisi ***IZBULLAYEVA GULCHEHRA VALERYEVNANI*** **“Jaloliddin Rumiyning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish”** nomli dissertatsiya ishini himoya qilib, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olganligi bilan qutlaymiz. Olimaga ulkan muvaffaqiyatlar, sog`lik va barkamollik, oilaviy saodat va farovonlik tilaymiz.

Buxoro davlat universiteti boshlang`ich ta’lim kafedrasi katta o`qituvchisi ***AMONOV ULUG`MUROD SULTONMURODOVICHNI*** **“XX asr boshlarida o`zbek folklorining o`rganilish tarixi (Abdurauf Fitrat, G`ozi Olim Yunusov va Elbek faoliyati misolida)”** mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olganligi bilan samimiy muborakbod etamiz. Olimning keyingi ilmiy faoliyatida yuksak zafarlar tilab qolamiz.



Tahririyat

Davr mavzusi




• **davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga** yo‘naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

• **qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga** yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma’muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

• **iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga** yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;

• **ijtimoiy sohani rivojlantirishga** yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

• **xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga** yo‘naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
"PEDAGOGIK MAHORAT"
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta'lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan "Pedagogik mahorat" jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo`llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o`tamiz, maqola qo`lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo`limida qabul qilinadi.

Bizning manzil: Buxoro shahri, M.Iqbol ko`chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:
Moliya vazirligi g`aznachiligi
23402000000100001010
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275
BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: Rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2018-yil 2-son (62)

2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 3070

Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliy o`quv yurtlarining professor-o`qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o`qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo`ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas'ul: Alijon HAMROYEV.

Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.
Muharrir: Rano ZARIPOVA.

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 28.05.2018
Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.05.2018
Qog`oz bichimi: 60x84. 1/8
Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog`i – 20
Adadi – 100 nusxa
Buyurtma № 59
Bahosi kelishilgan narxda.

"Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko`chasi 11-uy.

"Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro, 2018. – № 2. – 320 b.